S.M.RO‘ZIMURODOV, A.N.ALIMOV

FALSAFA

(Iqtisodiyot sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun)

O‘QUV QO‘LLANMA



SAMARQAND

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

S.M.RO‘ZIMURODOV, A.N.ALIMOV

FALSAFA

(Iqtisodiyot sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun)

O‘QUV QO‘LLANMA

SAMARQAND – 2023

UO‘K: 1(075.8)
R 99
KBK: 87ya73

S.M. Ro‘zimurodov, A.N. Alimov.
Falsafa *(Iqtisodiyot sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun) [Matn]:* ***o‘quv qo‘llanma*** */ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2023 - 296 bet.*

Talabalarning ma’naviy qiyofasi va dunyoqarashini shakllantirishda milliy-ma’naviy qadriyatlar bilan birgalikda falsafani o‘rganish, fan va falsafa o‘rtasidagi hamkorlik, shu jumladan, tabiiy, texnik va ijtimoiy-gumanitar fanlarning qo‘lga kiritilgan yutuqlarini falsafiy tahlil etish, ularni ijodiy o‘zlashtirilishi beqiyos katta ro‘l o‘ynaydi.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada falsafa fanining yaxlit munosabati va unda ko‘tarilgan masalalarning teranroq va to‘liqroq talqini ifodalangan.

Mazkur qo‘llanmada falsafiy muammolarga yangicha falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashilgan, nazariya va amaliyot uyg‘unligiga e’tibor qaratilgan.

Ma'sul muharrir:

Azizqulov A.A. – SamISI**,** Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, dotsent.

Taqrizchilar:

Sh.S.Qushaqov - falsafa fanlari doktori, professor.
N.Tog‘aev - falsafa doktori, dotsent.

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2023-yil 10 - noyabrdagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (4-sonli majlis bayoni).

ISBN: 978-9910-752-87-2

© Ro‘zimurodov S.M, Alimov A.N., SamISI, 2023 y.
©“STEP-SEL” MChJ nashryoti. 2023 y.

KIRISH

Hozirgi globallashuv asrida hayotning mazmunini tub ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, mafkuraviy, fan va texnika o'zgarishlari tashkil qilmoqda. Bunday sharoitda yosh avlodning ilmiy dunyoqarashi va tafakkur madaniyatini yuksaltirishga, fan-texnika va hayot yangiliklarini falsafiy tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatini o'stirishda, zamonaviy ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi.

Mustaqillikning taraqqiyot yo'li mamlakatimizda fan rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Fanning barcha sohalaridagi kabi falsafada ham tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Zero, eng qadimiy rivojlanish tarixiga ega bo'lgan falsafa o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, nafaqat anglash, balki ularga munosabat bildirishni shakllantiradi. Modomiki shunday ekan, bugungi kunda falsafani yanada rivojlantirish, yosh avlodni falsafiy dunyoqarash, zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

"Falsafa" fani barcha zamonlarda va mamlakatlarda hamma universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlarida o'rganish uchun majburiy sanalgan fundamental fanlardan biri bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. Mazkur fanni mohiyatini o'rganishimiz jarayonida uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashimiz va falsafa inson o'z-o'zini va o'zini qurshagan dunyoni anglab yetishida qanday ro'l o'ynashini tushuna boshlaymiz. Shu bois falsafaga yaxlit munosabatni unda ko'tarilgan masalalarning teranroq va to'liqroq talqini mazkur uslubiy qollanma mazmunida ifodalashga harakat qilingan.

Ushbu o'quv qollanmada falsafiy muammolarga yangicha falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashilgan, nazariya va amaliyot uyg'unligiga e'tibor qaratilgan.

I BOB. FALSAFA VA UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI ROLI

1.1. Falsafa atamasining kelib chiqishi.
1.2. Dunyoqarash va uning tarixiy shakllari.
1.3. Falsafa va fanning o'zaro mutanosibligi va farqi.
1.4. Falsafa fanining predmeti, funksiyalari.

Tayanch tushunchalar: falsafa, fan, dunyoqarash, mifalogiya, din.

1.1. Falsafa atamasining kelib chiqishi

Har qanday noma'lum so‘z mazmunini uning etimologiyasidan, ya'ni u qachon, qanday va nima uchun yuzaga kelganini aniqlashdan boshlash o‘rinli bo‘ladi. **«Falsafa»** tushunchasi yunoncha phileo – sevaman va sophia – donolik so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, mazkur atamaning dastlabki ma'nosini donolikka muhabbat deb talqin qilish mumkin. Falsafa so‘zini ilk bor qadimgi yunon mutafakkiri pifagor miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, an'analar orqali) avloddan-avlodga o‘tuvchi bilim va inson o‘z aqliga tayanib, mushohada yuritish va borliqni tanqidiy tushunish yo‘li bilan olishi mumkin bo‘lgan bilimni farqlash maqsadida ishlatgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, pifagor ham, qadimgi davrning boshqa faylasuflari ham dastlab «falsafa» tushunchasiga uning keyinchalik paydo bo‘lgan va mohiyat e'tibori bilan, falsafani «barcha fanlar podshosi» darajasiga ko‘targan ma'nosidan boshqacharoq ma'no yuklaganlar. Ammo ilk faylasuflar o‘zlarini donishmand deb hisoblamaganlar va donolikka da'vo qilmaganlar, zero, o‘sha davrda keng tarqalgan tasavvurga ko‘ra, haqiqiy donishmandlik ajdodlardan meros qolgan, asrdan asrga o‘tib kelayotgan afsonalar, din va rivoyatlarda mujassamlashgan. Donishmandlar deb, asrlar sinovidan, eng so‘nggi haqiqat manbai sifatidagi bilimlarga ega bo‘lgan bashoratgoylar, kohinlar va oqsoqollar e'tirof etilgan. Ularning so‘zlari birdan-bir to‘g‘ri deb qabul qilingan. Faylasuf esa, qadimgilar fikriga ko‘ra, izlanuvchi, donishmandlik muxlisi bo‘lishi, e'tiqod sifatida qabul qilingan tayyor haqiqatlarga emas, balki o‘z aqliga tayanib, ijodiy yo‘l bilan, shuningdek boshqa faylasuflar tomonidan olingan bilimlar va tajribadan foydalangan holda maqsadga intilishi lozim bo‘lgan.

Falsafa shakllanishining asosiy bosqichlari. Falsafa haqida gapirish – inson dunyoqarashi, uning oqilona fikrlash qobiliyati haqida, binobarin, uning mohiyati va yerda paydo bo‘lish tarixi haqida ga'irish demakdir. Bu yerda biz hali kam o‘rganilgan murakkab muammolarga duch kelamiz, zero insonning kelib chiqishi odamlar doim javobini to‘ishga harakat qilgan buyuk jumboqlardan biri hisoblanadi. Ammo bilimning bu sohasida yechilmagan muammolar bugungi kunda ham bisyor. Xususan, inson nima

uchun, qaerdan, qaysi sabablarga ko‘ra paydo bo‘lgan, degan savolga aniq, umumiy e’tirof etilgan javob hanuzgacha mavjud emas. Xuddi shuningdek, aql faqat insonga xosmi yoki uning inson borlig‘ida mavjudligi ob’ektiv borliqning bir parchasi, ayrim hodisasimi?, degan savol ham hali o‘z javobini to‘ganicha yo‘q.

Binobarin, insoniyat tarixi haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar nuqtayi nazaridan ayrim masalalar mavjud bo‘lib, ular xususida olimlar va mutaxassislar ma’lum bir to‘xtamga kelganlar. Xususan, boy tarixiy material, arxeologiya fani olgan daliliy ma’lumotlari, shuningdek boshqa fanlarning metodlari bilan olingan natijalar (masalan, jinslar, foydali qazilmalar yoshini aniqlash va sh.k.)ni e’tiborga olgan holda, ishonch bilan inson sayyoramizda hayotning tadrijiy (evolyutsion) rivojlanishi mahsulidir, deb qayd etish mumkin. Hozirgacha mavjud bilimlar oddiy mehnat qurollarini yasagan insonsimon mavjudotlarning (lot. homo habilis – uquvli odam) qadimgi manzilgohlari taxminan 3-5 mln yil oldin paydobo‘lgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Arxeologik va ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra, qaddini tik tutib yuradigan odam yoshi taxminan 1,5 mln yilni tashkil etadi. Homo sa’iens, ya’ni aqlli odamlar ti’i atigi 40-60 ming yil oldin vujudga keldi. Mutaxassislar fikricha, insonda ong paydobo‘lib, ijtimoiy mavjudot sifatida uzil-kesil shakllanganidan beri, uning asosiy xususiyatlarida jiddiy o‘zgarishlar yuz bergani yo‘q, ya’ni u hozirgi odamlardan deyarli farq qilmaydi.

Ong paydo bo‘lishi esa, ilmiy tasavvurlarga muvofiq, inson tarixiy rivojlanishining odam miyasi o‘sib borayotgan mehnat faolligi va verbal (nutq orqali) muloqot ta’sirida o‘ta rivojlanib, murakkab mavhumliklarni tushunadigan darajaga yetgan davri bilan bog‘lanadi. Shunday qilib, inson tushunchalarga ta’rif berish, mulohazalar bildirish va mushohadalar yuritish yo‘li bilan sodda, lekin so‘zning to‘la ma’nosida aqliy ish olib bora boshladi.

1.2. Dunyoqarash va uning tarixiy shakllari

Hayot tajribasi va empirik bilimlar asosida shakllanadigan dunyoqarash oddiy yoki empirik dunyoqarash deb ataladi va insonning dunyo haqidagi tasavvurlarining qismlarga ajralmagan, tizimsiz majmui sifatida amal qiladi. U har qanday dunyoqarashning negizi hisoblanadi va odamlarga kundalik hayoti, faoliyatida yo‘l ko‘rsatib, ularning xulq-atvori, aksariyat qilmishlarini belgilab, muhim regulyativ funksiyani bajaradi.

To‘liqroq, kengroq ta’rif beradigan bo‘lsak, dunyoqarash – insonning o‘zini qurshagan borliqqa va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatga nisbatan yondashuvlar tizimi, shuningdek odamlarning mazkur yondashuvlar bilan belgilangan hayotiy ideallari, e’tiqodlari, bilish va faoliyat tamoyillari, qadriyat va mo‘ljallaridir.

Shu tariqa ta'riflanadigan dunyoqarash faqat insonga xos bo'lib, bu unda shakllangan ong va oqilona faoliyat mavjudligi bilan bog'liqdir. Bunda inson nafaqat tushunchalar yaratish va mulohaza yuritish, xulosalar chiqarish va qoidalarni ta'riflash qobiliyatini kasb etadi, balki tayyor bilimdan yangi bilim olish uchun foydalana boshlaydi. Insonning bunday faoliyatini, uning ijodiy faolligini tavsiflovchi aql odamzod va jamiyat evolutsiyasini jadallashtirishning qudratli omiliga aylanadi va pirovardda insonni hayvondan ajratish imkonini beruvchi asosiy belgi sifatida amal qiladi.

Dunyoqarashning tuzilishi *dunyoni sezish, dunyoni idrok etish va dunyoni tushunish kabi eng muhim elementlardan iborat.*

Dunyoni sezish – *bu o'zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etishdir.* Bunda tuyg'ular, kayfiyat dunyoni goyoki ranglarga boyaydi, uning obrazini sub'ektiv, sof individual sezgilar orqali aks ettiradi. Masalan, bemor odamga haddan tashqari yorug' bo'lib tuyulishi mumkin bo'lgan nur, sog'lom odam uchun normal bo'ladi; daltonik ranglar gammasini, ko'rish qobiliyati normal bo'lgan odamga qaraganda butunlay boshqacha idrok etadi. Bundan dunyoni sezishning har xil, xususan o'timistik, 'essimistik, fojeaviy ti'lari kelib chiqadi.

Dunyoni idrok etish – *bu atrof borliqni ideal obrazlarda tasavvur qilishdir.* Dunyoni idrok etish to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi, ya'ni borliqqa mos kelmasligi mumkin. Bu holda borliq noto'g'ri tasavvur qilinadi yoki illyuziyalar, alvastilar, kentavrlar haqidagi tasavvurlarga o'xshash fantaziyalar paydo bo'ladi .

Dunyoni tushunish – *insonning va uni qurshagan dunyoning mohiyatini aniqlash, shuningdek tabiatda yuz beruvchi voqea va jarayonlarning o'zaro aloqalarini tushunishga qaratilgan aqliy-bilish faoliyatidir.*

Dunyoni sezish va qisman (elementar shakllarda) dunyoni idrok etish nafaqat insonga, balki hayvonlarga ham xos bo'lsa, dunyoni tushunish esa faqat odamlarga xos xususiyatdir.

Dunyoqarashning tarixiy shakllari. Turli davrlar bilishni yanada teranlashtirdi va inson dunyoqarashini kengaytirdi. shunga mos ravishda oddiy (empirik) dunyoqarash ham boyib bordi, uning negizida o'zini o'zi tashkil etish qonunlariga muvofiq yanada murakkabroq tuzilmalar asta-sekin shakllandi va bu pirovard natijada dunyoqarashning alohida shakllari yoki, tarixiy ti'lari farqlanishiga olib keldi.

Ibtidoiy odamlarning ancha rivojlangan dunyoqarashida o'zini o'zi tashkil etish qonunlariga muvofiq ayni shunday tartiblilik dastavval mif hamda dinning ilk shakllari ko'rinishida vujudga keldi.

Mif - dastlabki dunyoqarash shakli. «Mif» tushunchasi yunoncha "mythos" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, afsona, rivoyat degan ma'noni

anglatadi. **Mif** – *bu turli xalqlarning dunyoning kelib chiqishi, tabiat hodisalari, fantastik mavjudotlar, xudolar va qahramonlarning ishlari haqidagi tasavvurini ifodalovchi muayyan tarzda tizimga solingan dunyoqarashdir.*

Mifda bilimlar, diniy e'tiqodlar, ma'naviy madaniyatning turli elementlari, san'at, ijtimoiy hayot kurtaklari birlashgan bo'lib, stariqa ibtidoiy odamlar dunyoqarashi ma'lum darajada tartibga kelgan, ularning dunyo haqidagi qarashlari esa muayyan tizimga solingan. Mazkur tizimga solishning muhim shakllari epos, ertaklar, afsonalar, rivoyatlar bo'lib, miflar avvalo ular orqali ifodalanadi. shu tariqa to'plangan bilimlar va tajriba keyingi avlodlarga o'tishi ham ta'minlanadi.

Mifologik va diniy dunyoqarashning o'zaro aloqasi va farqi. *Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu oddiy rivoyat, biron-bir voqea haqidagi hikoya emas, balki og'zaki «muqaddas» matnning arxaik ongdagi voqea-hodisalarga, insonga va u yashayotgan dunyoga ta'sir ko'rsatuvchi muayyan borliq sifatidagi in'ikosidir*. Mif, insoniyat tarixining ilk bosqichlarida, odamlar xulq-atvori va o'zaro munosabatlarini tartibga solish funksiyasini bajargan, chunki unda axloqiy qarashlar, insonning borliqqa estetik munosabati o'z ifodasini to'gan. Mifologiyaga shu narsa xoski, unda hamma narsa bir, yaxlit, ajralmasdir; tabiat narsalari va hodisalari inson bilan ayni bir qonunlarga muvofiq yashaydi, inson bilan bir xil sezgilar, istaklar, mayllarga ega bo'ladi.

Mifologiya (miflar majmui sifatida) qadimgi odamlar dunyoqarashi bilangina uzviy bog'liq emas. Oddiy ongda yashaydigan din, falsafa, siyosat, san'atda aniq-ravshan yoki 'ardalangan ko'rinishda mavjud bo'lgan miflar bugungi kunda ham (kim uchundir ko'proq, kim uchundir kamroq darajada) odamlar hayoti va ijodida faol rol oynab, har qanday inson dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Jamiyatning axborotlashuvi jadal sur'atlarda o'sib borayotgan sharoitda mif televidenie, radio, vaqtli matbuot, hozirgi saylov texnologiyalari vositasida ba'zan ijtimoiy ong bilan manipulyatsiya qilish, oldindan belgilangan jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasi sifatida qo'llanilmoqda.

Diniy dunyoqarashning shakllanishi va mohiyati. Dunyoqarashning tarixan ikkinchi shakli dindir. (Din so'zi arabchadan tarjimada e'tiqod, ishonch, ishonmoq degan ma'nolarni anglatadi.) Mif kabi, din zamirida ham e'tiqod, tuyg'ular va emotsiyalar yotadi. Garchi din kurtaklari «aqlli odam» dunyoqarashi shakllanishining dastlabki bosqichlarida, ya'ni taxminan 40-60 ming yil muqaddam paydo bo'lgan bo'lsa-da, umuman olganda u dunyoqarashning mustaqil shakli sifatida keyinroq, jumladan mif ta'sirida insonning abstrakt fikrlash qobiliyati sezilarli darajada kuchaygan davrda vujudga kelgan. Forobiy fikricha "Din nazariy va amaliy qonunlar tuzilgan paytdagina odamlar e'tiqodi, ta'limi tarbiyasi yo'llari ishlab chiqilgandagina

paydo bo‘ladi va mustahkamlanadi. Ana shunday din tufayli omma baxt saodat uchun yetarli bilim olishi mumkin”[1].

Diniy dunyoqarash odamlarning g‘ayritabiiy narsalar (xudolar, «oliy aql», qandaydir absolyut va sh.k.)ga bo‘lgan e’tiqodiga asoslanuvchi tegishli xulq-atvori va o‘ziga xos harakatlaridir. Agar mifologiyada an’anaga, rivoyat qiluvchining, ya’ni oqsoqolning obro‘siga e’tiqod kuchli bo‘lsa, dinda g‘ayrioddiy narsalarga e’tiqod birinchi o‘rinda turadi, oliy kuchlar nomidan rivoyat qiluvchi ruhoniylar obro‘si esa ikkinchi darajali rol oynaydi.

Fan - ilmiy dunqarash shakli. Bilimlarning o‘sishiga qarab har xil muammolar va masalalar soni ham tinimsiz ko‘payib bordi. Bu jarayon fanning rivojlanish sur’ati yanada jadallaShuviga va u falsafadan yanada ko‘proq ajralishiga sabab bo‘ldi. Biroq fan bilimning mustaqil sohasi, dunyoqarashning alohida shakli sifatida faqat XVII-XVIII asrlarda to‘la shakllandi. Muayyan darajada shartlilik bilan Shuni aytish mumkinki, bu I.Nyuton klassik mexanikaning asosiy qonunlarini ta’riflab, Shu tariqa tabiatshunoslikning bo‘limi – asoslari asrlar mobaynida shakllangan, bosh tamoyillari esa bundan yuz yilcha muqaddam, avvalo Galileo Galiley tomonidan ta’riflangan klassik mexanikaning shakllanishiga yakun yasaganidan keyin yuz berdi.

1.3. Falsafa va fanning o'zaro mutanosibligi va farqi

Falsafa nafaqat fan, balki ijtimoiy hayotning boshqa, chunonchi: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, ilmiy jabhalari, san’at va shu kabilar bilan ham uzviy bog‘liq. Biz falsafa va fan munosabatlarining genezisi haqida ularning birligi va farqlarini aniqlash maqsadida so‘z yuritamiz. Mazkur masalani mufassalroq o‘rganishga kirishar ekanmiz, avvalo ko‘rsatilgan tushunchalarning asosiy ma’nolari va mazmunlarini aniqlab olamiz.

Fanning mohiyatini tushunishga nisbatan ikki asosiy yondashuv, uning keng va tor talqinlari shakllangan. Keng (yig‘ma) ma’nodagi fan – bu butun inson faoliyati jabhasi bo‘lib, uning vazifasi borliq haqidagi ob’ektiv bilimlarni o‘rganish va ilmiy nazariy tizimga solishdan iboratdir. Bu yerda “fan”, “olim” tushunchalari muayyanlashtirilmaydi va umumiy, yig‘ma tushunchalar sifatida talqin qilinadi. “Fan” tushunchasi falsafaga tatbiqan ko‘pincha ayni shu kontekstda qo‘llaniladi, faylasuflar esa olimlar deb ataladiki, bu qisman o‘rinlidir.

Muayyan ilmiy fanlar, masalan, fizika, kimyo, biologiya, tarix, matematikani ifodalash uchun «fan» tushunchasiga torroq, binobarin, izchilroq ma’no yuklanadi. Bu yerda fanga aniq ta’rif berilgan, olim esa tor

[1] Al –Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Sharq, 1999 –B.93-94.

mutaxassis, muayyan bilim ifodachisi hisoblanadi. U shunchaki olim emas, balki doim va albatta yo fizik, yo ximik, yo tarixchi, yo boshqa fan vakilidir. Ayni holda fan muqarrar tarzda tabiat, jamiyat, tafakkurning u yoki bu ob'ekti (hodisasi) haqidagi ilmiy bilimlarning qat'iy tartibga solingan, izchil tizimidan tashkil topadi.

Bunday fanlarning har biri faqat ularning o'zigagina xos bo'lgan maxsus qonunlar va metodlarga, mazkur fan uchun yagona bo'lgan til, kategoriyalar a''arati va hokazolarga ega bo'ladiki, bu yuz bergan jarayonlarni to'g'ri tavsiflash va tushuntirish, hozirgi davrni to'g'ri tushunish va bilimlarning tegishli sohasida albatta yuz beradigan yoki muayyan sharoitda yuz berishi mumkin bo'lgan voqealar yoki jarayonlarni ma'lum darajada aniq bashorat qilish imkonini beradi. U yoki bu fanning mazmuni ham, u erishgan natijalar ham barcha madaniyatlar va xalqlar uchun yagona bo'lib, ayrim olimning yondashuvi, nuqtayi nazari yoki dunyoqarashiga mutlaqo bog'liq emas. Ular mazkur sohada olg'a siljish uchun o'zlashtirish lozim bo'lgan, vaqt va amaliyot sinovidan o'tgan bilimlar yig'indisi sifatida avloddan-avlodga o'tadi.

Falsafada esa qadimda donishmandlik muxlislarining son-sanoqsiz savollariga tajriba yo'li bilan olingan ba'zi bir oqilona javoblar mavjud bo'lgan. Bu javoblarni haqqoniy, ya'ni amaliyot sinovidan o'tgan, kundalik hayotda o'z tasdig'ini to'gan, aniq bilim deb nomlash mumkin. Bunday javoblar masala «yo'ilishi», kun tartibidan chiqarilishiga sabab bo'lgan, boshqacha aytganda, aniq ta'riflangan va boshqa javoblarni istisno etgan.

Bunga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Masalan, har qanday uchburchak burchaklarining yig'indisi 180 gradusga tengligi yoki suyuqlikka solingan jismga siqib chiqarilgan suyuqlik og'irligiga teng kuch ta'sir ko'rsatishi aniqlangani zahoti bu masalalar o'zining «ochiq» xususiyatini yo'qotgan, ya'ni ular o'zining boshqa variantlarni istisno etadigan aniq yechimini topgan. Bu mazkur masalalar atrofida har qanday qo'shimcha mushohada yuritish foydasizligi tufayli o'zining har qanday ahamiyatini yo'qotganligini anglatgan. Yechilgan masalalar va muammolar esa aniq, ishonchli bilim darajasiga o'tgan va shu davrdan e'tiboran o'zining falsafiy tusini yo'qotgan. XX asrda taniqli nemis faylasufi K.Yaspers bu muhim qoidani ta'riflar ekan, shak-Shubhasiz asoslardan birini har kim e'tirof etgudek bo'lsa, u shu tariqa ilmiy bilishga aylanadi va bundan buyon falsafa hisoblanmaydi, balki bilimning muayyan sohalariga tegishli bo'ladi, deb qayd etdi.

Falsafa va fanning umumiy jihatlari shundaki, ular:

-avvalo aqlga tayanadi va oqilona bilimni yaratishga harakat qiladi;

-o'rganilayotgan ob'ektlar va hodisalarning qonunlari va qonuniyatlarini aniqlashga qarab mo'ljal oladi;

-kategoriyalar apparatini (o‘z tilini) yaratadi, o‘zlari ilgari surgan qoidalarni asoslaydi, ularga dalil-isbot keltiradi va yaxlit tizimlarni yaratishga harakat qiladi.

Falsafa va fan o‘rtasidagi farq shunda namoyon bo‘ladiki:

falsafa doim u yoki bu faylasuf nomi bilan bog‘lanadi, bunda uning g‘oyalari, asarlari o‘ziga to‘q bo‘lishi va ularga boshqa faylasuflar qo‘shilishi yoki qo‘shilmasligiga bog‘liq bo‘lmasligi mumkin. Fan esa, mohiyat e’tibori bilan, jamoa mehnati mahsulidir;

-falsafada (muayyan fanlardan farqli o‘laroq) yagona til va yagona tizim mavjud emas. Bu yerda fikrlar rang-barangligi meyor sanaladi. Fanda esa monizm hukm suradi, chunki hech bo‘lmasa fanning u yoki bu muayyan sohasidagi asosiy tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi (til)ga nisbatan yondashuvlar birligi albatta mavjud bo‘ladi;

-falsafa ilmiy bilimlar va dalillardan keng foydalanadi, biroq uning uzil-kesil xulosalari ishonchli deb hisoblanishi mumkin emas, zero ular asosan faylasuflarning sub’ektiv fikrlari va mulohazalariga asoslanadi. Fan esa mohiyat e’tibori bilan isbotlangan va sinashta bilimlar olishga harakat qiladi, bunda olingan bilimlarni tekshirish yoki rad etish imkoniyatining mavjudligi bu bilimlar haqiqiyligi va ilmiy jihatdan asosliligining muqarrar sharti hisoblanadi;

-falsafiy bilimlarni tajribada sinash mumkin emas (aks holda ular ilmiy bilimlarga aylanadi);

-falsafa aniq prognoz bera olmaydi, ya’ni u ishonchli bilimlarni kelajakka tatbiq etishga qodir emas, zero unda bunday bilimlar yo‘q. Ayrim faylasuf falsafiy qarashlarning muayyan tizimi yordamida faqat bashorat qilishi mumkin, lekin u olim kabi ‘rognoz qilish yoki modellashtirishga qodir emas.

1.4. Falsafa fanining predmeti, funksiyalari

Falsafaning fanining predmeti - insonda bilishga qiziqish uyg‘otadigan, mifologiya, din yoki fan javoblaridan qoniqmagan insonning o‘ziga ma’lum bilimlar va tajribaga, muayyan e’tiqod, ishonch va intuitsiyaga tayangan holda oqilona asoslangan javoblar berishga harakat qiladigan, savollar tug‘diradigan har qanday ob’ektiv va sub’ektiv borliqdir. Boshqacha aytganda, inson o‘z qiziqishi ob’ekti haqida muayyan tasavvur hosil qilish maqsadida savol berishga asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan hamma narsa falsafaning predmet idir. Shu munosabat bilan u yoki bu odamning falsafiy qarashlari haqida va hatto uning falsafasi to‘g‘risida so‘z yuritish mutlaqo o‘rinli bo‘ladi va bunga biz kundalik hayotda tez-tez duch kelamiz.

Biroq ayni holda bizni fan sifatidagi, ayrim insonning emas, balki butun jamiyatning rivojlanish mahsuliga aylangan ijtimoiy hodisa sifatidagi falsafa qiziqtiradi va ayni shu sababli yuqorida keltirilgan ta’rifda «inson»

tushunchasi yig‘ma ma’noda qo‘llanilgan. Bu yerda shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, garchi falsafaning predmet iga biz umumiy nuqtayi nazardan ancha keng ta’rif bergan bo‘lsak-da, ayrim tarixiy davrlarda odatda u yoki bu sabablarga ko‘ra muayyan masalalar doirasi falsafiy tadqiqotlarda birinchi o‘ringa chiqadi.

Masalan, qadimgi Yunonistonda kosmotsentrizm ilk falsafiy ta’limotlarning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, bunda asosiy e’tibor «kosmos», «tabiat»ni anglab etishga qaratilgan. Keyinchalik, qadimgi yunon shahar-’olislari ravnaq to‘gan davrda faylasuflar diqqat markazidan ijtimoiy muammolar, axloq, davlat qurilishi masalalari o‘rin oldi. Yevropada xristianlikning, sharqda islom dinining keng qamrovli rivojlanishi, dinga e’tiqodning kuchayishi va davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi natijasida o‘rta asrlar falsafasi teotsentrik (yunon. theos – markazdan o‘rin olgan xudo) xususiyat kasb etdi, ya’ni Xudo va u yaratgan olam falsafiy qiziqishlarning asosiy predmet iga aylandi. Uyg‘onish davrida falsafa san’at (estetika)ga va ko‘p jihatdan insonga murojaat qilindi. Yangi davr deb nomlanuvchi XVII-XVIII asrlarda falsafa tobora kuchayib borayotgan fan bilan uzviy bog‘landi, natijada falsafiy tadqiqotlarning diqqat markazidan bilish va ilmiy metodlar masalalari o‘rin oldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan «klassik falsafa» va oqilonalik inqirozi irratsionallik, intuitivlik, ongsizlik muammolarini namoyon etdi, XX asrning birinchi yarmida ular «noklassik falsafa» tahlilining asosiy predmet iga aylandi, bu esa, o‘z navbatida, matnlar mantig‘i, tili, ularni talqin qilish va sharhlashga alohida qiziqish uyg‘onishiga olib keldi. XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida hozirgi madaniyatdagi inqiroz hodisalarini va yangi axborot texnologiyalarining, Shuningdek ommaviy kommunikatsiya vositalarining jadal sur’atlarda rivojlanishi bilan belgilangan muammolarni kun tartibiga qoygan ‘ostnoklassik falsafa shakllandi. Bu falsafa vakillari «tarixiy rivojlanishning tugallanganligi», barcha ma’nolar va g‘oyalar «aytib bo‘linganligi» haqida mushohada yuritib, inson o‘ziga yog‘ilayotgan axborotga ishlov berishga qodir emasligiga e’tiborni qaratar ekan, notizimlilik, Yevropa an’anaviy falsafiy bilimining negizlari, qadriyatlari va chegaralarini o‘zgartirish g‘oyasini ilgari surdilar.

Nihoyat, XX-XXI asr chegarasida eng yangi falsafada birinchi o‘ringa chiqqan va eng muhim mavzular qatoridan o‘rin olgan yana bir mavzu globallaShuv jarayonlarining mohiyatini va ularning rivojlanish yo‘nalishini aniqlashga alohida e’tibor qaratildi. Bu jarayonlar hozirgi vaqtda jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi va davrimizning olamshumul muammolarini yuzaga keltirdiki, ularning nazariy va amaliy yechimini to‘ish bu muammolarni falsafiy darajada anglab etishni ham nazarda tutadi. Xalqaro miqyosda alohida e’tibor berish va kelishilgan

harakatlarni taqozo etuvchi eng muhim muammolar qatoriga ekologiya, demografiya, xavfsizlik, xalqaro jinoyatchilik, energetika resurslari, qashshoqlikka chek qoyish muammolarini kiritish mumkin.

Ko‘rib turganimizdek, falsafaning predmet ini qandaydir bitta, qat’iy cheklangan, muayyan masalalar doirasi bilan bog‘lash mumkin emas. U vaqt omiliga va ob’ektiv sabablar to‘plamiga qarab, doim u yoki bu muammo yoki ularning muayyan majmui tarzida birinchi o‘ringa chiqadi. Ammo bu boshqa mavzular, masalalar va muammolar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi va falsafa chegarasidan chetga chiqadi, uning tahlil predmeti bo‘lmay qoladi, degan ma’noni anglatmaydi. Bosh mavzularni ikkinchi, uchinchi yoki undan ham keyingi o‘ringa surib qoyadi, ular muayyan davrda va tegishli sharoitda falsafiy diqqat markazidan o‘rin olish yoki falsafiy muammolarning ustuvor yunalishi boylab yuqoriga ko‘tarilish uchun o‘z vaqtini «kutib», goyoki ‘anada turadi, desak, to‘g‘riroq bo‘ladi. Ayni shu sababli biz falsafa tarixida qiziqishlardagi ustuvorliklarning muttasil o‘zgarishini, u yoki bu masala bosh masalaga aylanishi, falsafiy hamjamiyatning asosiy e’tibori ma’lum vaqt mobaynida unga qaratilishini ko‘ramiz.

Falsafaning funksiyalari. Falsafa u yoki bu muammolarni hal qilar, qonunlar, muayyan tamoyillarni ta’riflar yoki gipotezalar, g‘oyalar va nazariyalarni ilgari surar ekan, ayni vaqtda (ba’zan shu tariqa) har xil funksiyalarni bajaradi. Falsafaning muhim funksiyalari dunyoqarashni shakllantirish, bilish, metodologik, integrativ, madaniy, aksiologik, axloqiy va tarbiyaviy funksiyalarni qayd etish mumkin. Ularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Bu funksiyalarning roli va ahamiyati falsafaning amal qilish sohasi, u hal qilayotgan vazifalar darajasi va xususiyati bilan belgilanadi.

Falsafaning, dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi, insonning dunyoga munosabati, uning o‘z-o‘zini va o‘zini qurshagan borliqni tushunishi, shuningdek turli voqealar, hodisalarni va o‘z burchini qanday talqin qilishi avvalo va bevosita uning dunyoqarashiga bog‘liq bo‘ladi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, inson dunyoqarashida e’tiqodlar va bilimlar, tuyg‘ular va emotsiyalar, oqilonalik va irratsionallik, tajriba, intuitsiya va hokazolar chambarchas bog‘lanadi. Ayni shu sababli falsafasiz dunyoning yaxlit manzarasini yaratish mumkin emas, chunki, «hamma narsaga aralashadigan» falsafagina dunyoqarashning o‘zaro bog‘lanmagan turli «parchalari»ni birlashtirib, shu tariqa odamlarning butun borliqqa nisbatan umumiy, izchil va mantiqan to‘g‘ri munosabatini yaratish imkonini beradi.

Falsafaning gnoseologik funksiyasi tajribada sinash, tavsiflash yoki shak-Shubhasiz inkor etish mumkin bo‘lmagan, ya’ni fan ochib berish, tadqiq etish va tahlil qilishga qodir bo‘lmagan narsalar va hodisalarni oqilona yo‘l bilan tushuntirishga harakat qilishdir. Falsafa u yoki bu

mohiyati aniqlanmagan yoki kam o‘rganilgan hodisalarni tushuntirishga nisbatan o‘z yondashuvlari, nazariyalari va gipotezalarini taklif qilar ekan, ularni bilishga bo‘lgan qondirilmagan qiziqish o‘rnini ma’lum darajada to‘ldiradi, shu tariqa mifologik va diniy fantaziyalarga kamroq o‘rin qoldiradi. Falsafa gnoseologiyada hal qiladigan boshqa bir muhim vazifa «Haqiqat nima?», «Uning mezonlari qanday?», degan masalalar bilan bog‘liq, zero har qanday bilish jarayoni oxir-oqibatda, u yoki bu tarzda haqiqatning tagiga etishga qarab mo‘ljal oladi, bu esa eng muhim masaladir.

Metodologik funksiyasi to‘g‘risida so‘z yuritganda metod tushunchasiga murojaat etish o‘rinli bo‘ladi. Bu tushuncha yunoncha methodos – yo‘l, tadqiqot, tekshirish so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, *u yoki bu maqsadga erishishning muayyan usulini, shuningdek borliqni nazariy va amaliy o‘zlashtirishga qaratilgan usullar yoki amallar majmuini anglatadi.* Boshqacha qilib aytganda, bu faylasuf yoki olim o‘zi o‘rganayotgan predmet ning tadqiqot yo‘lidir. Odatda metodologiya muammolari falsafa doirasida o‘rganilgan, biroq ayrim fanlar vujudga kelishi bilan falsafiy (umumiy) metodlar bilan bir qatorda muayyan, ayrim ilmiy metodlar ham rivojlana boshladi.

Falsafaning integrativ funksiyasi fan bilan chambarchas bog‘liq. *Real borliqning yangi va yangi ob’ektlari va hodisalari inson nazariy tadqiqotlari sohasidan o‘rin olishi, shuningdek ilgari ma’lum darajada anglab yetilgan narsalar va hodisalarni yanada chuqurroq o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj ilmiy bilim o‘z rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq tabaqalanishiga turtki beradi.* Buning natijasida ayrim fanlar paydobo‘lib, ular nafaqat o‘z tadqiqot ob’ekti va predmet ini ajratdi, balki o‘zining faqat mazkur fanga xos bo‘lgan tili, kagegoriyalar a’’arati va hokazolarni yaratdi. Ammo bu yo‘lda jiddiy xavf ham mavjud bo‘lib, u shundan iboratki, fanlarning ajralishi natijasida ular o‘rtasidagi aloqalar susayadi, ular murakkab kompleks vazifalarni yechishda faol o‘zaro aloqa qilish qobiliyatini yo‘qotadi.

Madaniy funksiyasi. Falsafa odamlar dunyoqarashini kengaytirish, ularda bilishga qiziqish uyg‘otish, nazariy fikrlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish orqali madaniy funksiyani ham bajaradi. U dunyoni o‘zlashtirish va bilishning universal shakli sifatida, insoniyatning eng yaxshi yutuqlarini o‘zida mujassamlashtiradi va ularni butun insoniyat mulkiga aylantiradi. Turli mamlakatlar va xalqlarning falsafa tarixini o‘rganish ularning o‘tmishdagi va hozirgi madaniyatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi, g‘oyalar almashinuvi va madaniy an’analarning o‘zaro ta’siriga ko‘maklashadiki, bu madaniy meros bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina muammolarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksiologik funksiyasi. Falsafa hayotning ma’nosi, o‘lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qoyish, u yoki bu harakat, voqea, hodisaga

"yaxshi", "yomon", "muhim", "foydali", "foydasiz" kategoriyalari bilan baho berish orqali– aksiologik (yunon. axia - qadriyat) funksiyani bajaradi. U uzoq muddatli tendentsiyalarni qisqa muddatli tendentsiyalardan farqlash, yuzaki jarayonlarni fundamental jarayonlardan, muhim narsalar va hodisalarni ikkinchi darajali narsalar va hodisalardan ajratish orqali insonning qadriyatlarga munosabati bilan uzviy bog'liq bo'lgan tegishli ehtiyojlarini shakllantiradi. Shu tariqa insonning muayyan qadriyatlari, mo'ljallari va ustuvorliklari belgilanadi, ya'ni tegishli qadriyatlar tizimi tarkib to'adi.

Falsafaning axloqiy funksiyasi odamlar xulq-atvori va u yoki bu jamiyatda yuzaga keluvchi munosabatlar bilan bog'liq. Bunda, masalan, axloqiy qadriyatlar, ularning tabiati, asoslari va jamiyatdagi amaliy roli falsafaning tadqiqot predmeti hisoblanadiki, bu jamiyatda yuzaga keladigan va tabiiy yo'l bilan, ya'ni real hayot amaliyotida o'rnatiladigan meyorlar va qoidalarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bunday meyorlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim dastak hisoblanadi va odamlarning o'zaro aloqalari, ularning munosabatlari va o'zaro til to'ish darajasida namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, falsafa doimo axloqda, jamiyatning barcha a'zolari xulq-atvorida namoyon bo'ladi va shu tariqa yana bir muhim funksiya – axloqiy funksiyani bajaradi.

Nazorat savollari

1. Falsafa tushunchasining mohiyatini siz qanday tushunasiz?
2. Dunyoqarash tushunchasi?
3. Dunyoqarashning tarixiy shakllari?
4. Falsafaning asosiy funksiyalari?
5. Dunyoni idrok etishda falsafiy dunyoqarashning uziga xos ro'li?
6. Jamiyat hayotida falsafaning ahamiyati?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Jamiyat hayotida falsafaning tutgan o'rni haqida referat tayyorlang.
2. Dunyoqarash va uning tarixiy shakllari to'g'risida ma'lumotlar to'plang va tushuntiring.
3. Falsafa atamasining kelib chiqishi haqida fikrlarni kursdoshlaringizga aytib bering.
4. Falsafaning muhim funksiyalari, yani dunyoqarashni shakllantirish, bilish, metodologik, integrativ, madaniy, aksiologik, axloqiy va tarbiyaviy funksiyalarini izohlab bering.

II BOB. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTINING ASOSIY BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI

2.1. Qadimgi Sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo‘lishi. Misr va Bobilda olam va odamning paydo bo‘lishi haqidagi mifologik tasavvurlarning shakllanishi.

2.2. Qadimgi hind falsafiy maktablari. Qadimgi Xitoy falsafiy maktablarining borliq, inson, jamiyat va davlatning mohiyati, ijtimoiysiyosiy tartibot, yoshlarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish haqidagi g‘oyalari.

2.3. “Avesto” qadimgi davrda Markaziy Osiyoda rivojlangan inson, tabiat, jamiyat va davlatchilik haqidagi falsafiy g‘oyalarning ilk manbai sifatida.

2.4. Arab-musulmon sivilizatsiyasi va islom falsafasining vujudga kelishi. Islom tamaddunida diniy va dunyoviy ilmlarning o‘zaro uyg‘unlikdagi taraqqiyoti.

2.5. Temuriylar sulolasi davri. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy falsafasi. Temuriylar davrida tabiiy-ilmiy bilimlar taraqqiyoti (Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchilarning tabiatshunoslik fanlariga qo‘shgan hissasi).

2.6. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg‘or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar.

2.7. O‘zbekistonda falsafiy fikrlar rivoji. O‘zbekistonda ajdodlar me’rosini tiklash va ularni jahonda keng ommalashtirish borasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati.

Tayanch tushunchalar: Misr, Gilgomesh haqida doston, «Avesto», zardushtiylik, moniylik, mazdakiylik, Miflar, Vedalar, jaynizm, nirvana, lokayata, Ramayana, Maxobxarat, daochilik, konfusiychilik.,

2.1. Qadimgi Sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo‘lishi. Misr va Bobilda olam va odamning paydo bo‘lishi haqidagi mifologik tasavvurlarning shakllanishi

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov «Fidokor» gazetasini muxburining savollariga bergan javoblarida ta’kidlaganidek: «Biroq bizda haligacha falsafa bo‘yicha talab darajasidagi darsliklar «Jahon falsafasi», «Sharq falsafasi» kabi zarur kitoblar yaratilmayotganligini qanday izohlash mumkin? Dunyo tan olgan ko‘p ulug‘ faylasuflarning asarlari hanuzgacha o‘zbek tilida nashr etilmagani tufayli aksariyat ziyolilar, xususan, yoshlarimiz ularning g‘oyaviy qarashlari bilan yaxshi tanish emas. Suqrot va aflotun, Nisshe va Freyd kabi olimlarning, hozirgi zamon chet el faylasuflarning kitoblarini ham tushunarli qilib, izoh va sharhlar bilan o‘zbek tilida chop etish mumkin bo‘lmasa?» Hozirgi kunda falsafa sohasida

ancha ishlar amalga oshirildi. Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar hamda ma’ruza matnlari chop etildi. Ammo chop etilgan darsliklar o‘quv qo‘llanmalari va ma’ruza matnlari ham ayrim kamchilik va nuqsonlardan xoli bo‘la olmaganligini tan olishimiz kerak. Jamiyat taraqqiyoti natijasida kishilarning hayotiy faoliyatlari kengayib, aqliy zakovati ham boyib borishi tabiiy jarayon.

Insoniyat tarixidagi har bir davr falsafiy masalalarni tadqiq qilishda o‘ziga xos yo‘lni tanlab, o‘z davri nuqtai nazaridan tahlil qilib kelgan. Mifologik va diniy dunyoqarash zaminida paydo bo‘lgan falsafiy dunyoqarash insonlar ma’naviy hayotining yangi bosqichiga ko‘tarildi, natijada dunyoni aql ko‘zi, tafakkur salohiyati bilan o‘rganish boshlandi, ya’ni dunyoni ilmiy tushunishning zamini yaratildi. Falsafa tarixida bir-biriga o‘xshamagan, hatto bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan qarashlar, tizimlar, fikrlar paydo bo‘lsa-da, ularning hammasi falsafiy tafakkurning rivojlanishida biror darajada xizmat qilgan.

Sharq qadimiy madaniyat o‘chog‘i va jahon sivilizasiyasining beshigi deya bejiz ta’riflanmagan. G‘arb madaniyati tarixini o‘rganish jarayonida Yevropasentrizm nazariyasiga og‘ib ketish g‘ayriilmiy bo‘lgani kabi masalaning Sharq bilan bog‘liq jihatini tahlil etganda ham Osiyosentrizm g‘oyalari ta’siriga tushmaslik lozim.

Shu bilan birga, Sharqning o‘ziga xosligi, unga mansub bo‘lgan madaniy taraqqiyot jahon sivilizasiyasining beshigi, dunyo xalqlari rivojiga qo‘shilgan munosib hissa ekani ham sir emas. Bu hol jahonning barcha xolis mutaxassis olimlari tomonidan e’tirof etiladi. Qolaversa, Vatanimiz sivilizasiyasining sharq sivilizasiyasi quchog‘ida voyaga yetgani va uning qadriyatlarini o‘zida aks ettirganini, unga va butun dunyo madaniyatiga ulkan ta’sir ko‘rsatganini doimo esda tutish darkor.

Sharq madaniyati taraqqiyotining ilk davrlari deganda, ko‘pgina mutaxassislar bizning Vatanimiz o‘tmishini, Misr, Bobil va insoniyat tarixining eng qadimgi sivilizasiyalaridan biri bo‘lgan Shumer davrlarini esga oladi. Bularning har biri insoniyat tarixida jamiyat hayoti, qadriyatlar tizimining o‘ziga xosligi, boshqarish va iqtisodiy jarayonlarning muayyan tarzda namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu madaniyat o‘choqlari haqida maktab ta’limi jarayonida «Yeng qadimgi tarix» darsliklari orqali ma’lumot berilgan. Zukko talabalar o‘sha davrlarda qanday siyosiy jarayonlar kechgani, qanday podsholik va imperiyalar bo‘lganini yaxshi biladi. Biz bugun o‘sha davrlardagi falsafiy dunyoqarash, qadimgi ajdodlarimizning fikr-mulohazalari, o‘ziga xos ta’limotlarning asosiy tamoyillari bilan yaqinroq tanishmoqchimiz. Ko‘xna Sharq sivilizasiyasining beshiklaridan biri bo‘lgan Mirs, qadimgi zamonda ilk o‘troq hayot va o‘ziga xos dehqonchilik an’analari boshlangan Nil daryosi bo‘ylaridagi madaniyat dunyo olimlari diqqatini tortib keladi.

Bizlarga ma'lumki Qadimgi Sharq va antiq dunyo falsafasi dastavval mifologik dunyoqarash tarzida vujudga kelganligini bilamiz.

Shuningdek, Qadimgi Sharq va antik dunyo falsafasining shakllanishi va taraqqiyotining o'ziga xos umumiy va xususiy jihatlari va qonuniyatlari mavjud. Ularga xos bo'lgan umumiy qonuniyat: sharqda ham antik dunyo falsafasi ham yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek mifologiyaga asoslanadi.

Falsafa ma'lumki mifologik dunyoqarash voqyealikning xayoliy in'ikosi sifatida asosan qadimgi davr kishilari uchun xarakterlidir. Qadimgi kishilar bu afsona va voqyealarni umumlashtirib, ularni xayoliy shakllarda tasvirlaganlar. Mifologik dunyoqarashda tabiat kuchlari alohida jonli vujudlar ko'rinishida jonlantirib tasvirlanadi. Shuning bilan bir qatorda falsafiy masalalar ham vujudga kela boshlaydi. Falsafiy dunyoqarash ko'r-ko'rona e'tiqodlar, xayoliy obrazlar to'g'risidagi tasavvurlar va tushunchalarga emas, balki borliqqa munosabati to'g'risidagi erkin, tanqidiy va ayni vaqtda umumlashmalarga asoslanib, olam qanday vujudga kelib, qanday rivojlanadi; hayot va o'lim o'zi nima kabi masalalar bilan bir qatorda yaxshilik va yomonlik, adolatlatlilik va adolatsizlik singari umuminsoniy qadriyatlarni ishlab chiqish kabi masalalar bilan ham Sharq, ham antik dunyo falsafasi shug'ullanib kelgan.

Qadimgi antik dunyo falsafasi to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, uning eramizdan oldingi birinchi ming yillikda Qadimgi Xitoy, Hindiston va Yunonistonda vujudga kelgan sivilizasiya bilan bog'liq zkanligini aytib o'tish kerak. Eramizdan oldingi VI asrlarda eski ijtimoiy hayotning buzilib, yangicha yashashning boshlanishi, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy zamin, shuningdek ma'naviy imkoniyatlarning vujudga kelishi bilan Qadimgi davr sivilizasiyasi natijasi o'laroq dunyoni chuqurroq va atroflicha o'rganishni o'z maqsadi qilib qo'ygan falsafiy dunyoqarash paydo bo'ldi.

Yeramizdan avvalgi to'rtinchi ming yillikning oxiri va uchinchi ming yillik boshlarida qadimgi Misrda dastlabki diniy-falsafiy fikrlar rivoj topgan.

Jahon mahnaviyati durdonalaridan biri Misr madaniyatidir. Misr mifologiyasida ijtimoiy hayot haqida, hayot ma'nosi to'g'risida fikr ritib, dunyo ne'matlaridan bahramand bo'lib, shod-hurram yashashga, o'lim vahimasiga tushmaslikka da'vat etganlar. «Nasixatnoma» asarida odamlarni bilim olishga, unga ixlos qo'yishga chaqiriladi. Dastlabki taqvim (kalendar), tibbiyotga doir asarlar misrda paydo bo'lgani shu da'vatlarning dastlabki samaralari edi.

Qadimgi Misr yodgorliklarida tibbiy hodisalar moddiy ibtidosi haqida fikrlar bor. Ularda hamma narsalarning asosi suv, butun koinotda havo mavjud deyilgan. Ba'zi Misr yodgorliklarida «inson o'lgach, uning jismi kulga aylanadi», «o'z nomining abadiy qolishini hohlagan kishi oxirat haqida hayol qilmasdan, bu dunyo ishlari bilan shug'ullanishi lozim» deyilgan. Bobilda, xususan, Xammurapi davrida (yer.av IV ming yillikning

boshlari) quldorlik tuzimining ijtimoiy ziddiyatlari keskin tus oldai. Ishlab chiqarishning taraqqiy etishi bilan Bobilda astronomiya, matematika, geografiya fanlarida ma'lum yutuqlarga erishildi.

Bobil olimlari algebraning asoslarini, kvadrat va kub ildizlarni chiqarishni bilganlar, astronomlar osmon yulduzlari kartasini chizganlar. Er. Av. II asrda yashagan Bobillik Selevka hatto olamning geliosentrik tuzilishi haqida faraz qilgan.

Byuobilda dastlabki falsafiy fikrlar 6 ming yil muqaddam boshlandi. O'sha davrlarda «Gilgamesh haqidagi doston», «Adapa» doston, «Xujayinning qul bilan suhbati» badiiy asari juda katta shuhrat qozondi. Bu asarda diniy qarashlar qattiq tanqid qilindi. Bu asar Bobilda qulchilik rivojlangan paytda jamiyatning bir tomonda boylik, ikkinchi tomonda ochlik, qashshoqlik o'sgan bir paytda vujudga kelgan. Bu yodgorlikda qul donishmand, hayotining mazmunini to'g'ri tushunadigan qilib tasvirlangan. Unda xudo yo'liga qilinadigan qurbonliklarning xojati yo'q, chunki xudo ovqatga muhtoj emas, deb diniy-mifologik qarashlar ustidan kulinadi.

Oxirat, jannat kabi diniy fikrlar rad etiladi. Teksda qo'yidagi fikrlarni o'qiymiz: «Tepalikka chiqib qarigin, shaharlardagi vayronliklarni ko'rgin, o'lgan va oddiy odamlarning kalla suyagiga nazar tashlagin. O'lim hammani baravar qilgan, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi».

2.2. Qadimgi hind falsafiy maktablari. Qadimgi Xitoy falsafiy maktablarining borliq, inson, jamiyat va davlatning mohiyati, ijtimoiysiyosiy tartibot, yoshlarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish haqidagi g'oyalari

Hindiston hududida topilgan eng qadimgi yozma yodgorliklarga (2500-1700 yy) asoslanadigan antik falsafa shakli.

Qadimgi hind jamiyati hayot haqidagi ilk manba Vedalar hisoblanadi. Hindistonning qadimiy gimni, falsafiy qarashlari uning madaniy merosining yozma yodgorliklarida, asosan 4 vedada (bilimlar, diniy gimnlar, qo'shiqlar to'plami) o'z ifodasini topgan. Bu vedalardan eng muhimi Rigveda bo'lib, eramizdan taxminan 1500 yil oldin maydonga kelgan. Qolganlari esa Yajurveda, Samaveda va Atxarvavedalardan iborat. Eramizdan 1000 yil oldin Upanishad (maxfiy ta'limot) oqimi vujudga kelib, uning ijodiy mahsullikda, deb tushuntiradi. Upanishadlar falsafasining mohiyati shundaki, u jonni ruh bilan tenglashtiradi. Upanishadlarcha, tan jonning qobig'i bo'lib, jon esa – dunyoviy ruhning bir bo'lagidir. Upanishadlardagi falsafiy mavzular asosan insonni o'rab turgan borliq, uning hayotidagi o'rni va vazifasi, tashqi olam va inson tabiati, uning hayoti va ruhiyatining mohiyati, bilish imkoniyatining chegaralari axloq me'yorlari haqidadir. Falsafiy muammolar asosan diniy-mifologik nuqtai nazardan bayon etilgan.

Jaynizm (hindcha «jinna» - «g‘olib») – eramizdan avvalgi 1-yillik o‘rtalarida qadimgi Hindistonda yuzaga kelgan va olamning asosida ikki ibtido: materiya va jon yotadi, deb hisoblaydigan ta’limot. Jaynizm ta’limotiga ko‘r. Insonning asosiy maqsadi tashqi olam xukmronligidan qutulish va kamolga erishishdir. Inson tabiati ham moddiy, ham ruhiydir. Jon bir vaqtning o‘zida nafis jon (jiva) va dag‘al materiya (ajiva)ning birligidan iborat. Insonning joni 9jivasi) qanday bo‘lsa, u ham shunday bo‘ladi, bu holat esa karma-nafis materiyaga bog‘liq. Karma jonni (jivani) o‘z ta’siridan chiqarmaydi. Yaxshi yoki yovuz karmalar mavjud. Bu esa insonlarning turli shaxsiy sifatlarini belgilaydi. Jaynizm ta’limotining tarafdorlari inson kamollikka erishishi mumkin, buning uchun inson o‘z karmasiga rioya qilishi va o‘z ehtiroslaridan qutilishga intilishi kerak. Inson yovuz karmadan xalos bo‘lishi uchun ezgu ishlarni bajarishi lozim. Deb hisoblaydilar.

Jaynizmda dunyoning tuzilishi va mohiyati haqida turli g‘oyalar ilgari surilgan. Bu dunyo abadaiy, u Hech kim tomonidan yaratilmagan va u yo‘q qilib tashlanmaydi. Olamda ketma-ketlik tartibi mavjud: quyi dunyoda jinlar va gunohkorlar yashaydi, o‘rta dunyo – biz yashab turgan dunyo, keyingi – xudolar dunyosi va undan yuqorida xudolarga o‘xshashlar dunyosi joylashgan[2].

Hinduizm – hindistonda tarqalgan din. Hinduizm ta’limoti verdizm va baraxmanizm g‘oyalarining evolyusiyasi natijasida mil.av.2-ming yillikning o‘rtalarida paydo bo‘lgan. VIII-asrda Hindistonda islom dinining taraqalishi bilan, uni qabul qilmaganlarni «hindu»lar deb atay boshladilar. Hinduizm ibtidoiy dinlarning ko‘p unsurlarini saqlab qolgan: muqaddas hayvonlar, tabiat hodisalariga, ajdodlar ruhiga sig‘inish va hakozo. Hinduizm yagona cherkov tashkilotiga ega emas. Uning paydo bo‘lishini biror konkret asoschining nomi bilan bog‘lamaydilar. Hinduizm diniy va falsafiy qarashlarning murakkab kompleksi hamda qonun-qoidalari majmuasidan tashkil topgan bo‘lib, odamning tug‘ulganidan to o‘lgunicha bo‘lgan barcha huquq va burchlarini belgilab beradi. Marosimlar o‘tkazishga katta e’tibor beriladi. Hinduizm Trimurti tamoyiliga asoslangan. Olam, hayotning hamma shakllarini Braxma yaratgan. Biroq, Braxmaga sig‘inish deyarli yo‘q. Hindular boshqa xudoga – Vishnu va Shivaga sig‘inadilar, shunga muvofiq, hinduizm ikki asosiy oqim – shivaizm va vishnuizmga ajraladi. Hinduizmning hamma oqimlari Vedalarning abadiyligi va xudo tomonidan yuborilganligiga, Koinotning deyarli mavjudligiga, bunda harakat pastlashib boruvchi yo‘ldan ketishiga: jonning abadiyligi va o‘lmasligi, ko‘chib yurishi (sansara)ga ishonadi.

[2] Қаранг. Фалсафа: Қомусий луғат. Т., 2004, 123-бет.

Buddizm (Budda nomidan olingan) – diniy falsafiy ta'minot, vujudga kelishi jihatidan birinchi jahon dini. Buddizm asoschisi – shahzoda Siddxartxa Gautama (mln.av. 567-488 y.) vafotidan so'ng «haqiqat natijalari» - budda deb atala boshlagan. Yagona ta'limont sifatida shakllangan budizm dastlabki asrdayoq 18 ta maktabga bo'linib ketgan. Bir nechta saborlarda uni birlashtirishga urinish natijasiz yakunlangan. Milodning I-asrida buddizm xinoyana 9kichik aravacha yoki najot topishning keng yo'li) oqimlariga bo'linib ketadi. Hozirgi davrda buddizmga e'tiqod qiluvchilar soni 400 mlndan ziyod oshib ketdi. Buddizm falsafasi vedalar matnlari asosida yaratilgan. Siddxartxa o'z ta'limotining asosiy qoidalarini Banorasdagi targ'ibotida «to'rt oliy haqiqat» shaklda bayon etgan: 1) azob-uqubat haqidagi ta'limot; 2) azob-uqubat sabablari haqidagi ta'limot; 3) azob-uqubatlardan xalos bo'lish haqidagi ta'limot; 4) azob-uqubatlardan qutqarishrshning najot yo'llarini topish haqidagi ta'limot. Bu so'nggi ta'limot yechimi «Najotning olijanob sakkizlik yo'li»da o'z ifodasini topgan: taqvodorlik e'tiqodli, qat'iyati, so'zi ishi, turmush tarzi, taqvodorlikka intilish, taqvodorlikni orzu qilish, taqvodorlik fikr-hayoli bilan yashash. Bu yo'lga amal qilgan odam oqibatda yuksak kamolotga erishadi, ya'ni u arxatga (chin haqiqatni anglab yetgan avliyoga) aylanadi va nirvanaga o'tadi.

Chorvaka-lokayata – miloddan avvalgi VII asrda Hindistonda yuzaga kelgan falsafiy maktab. Chorvaka-lokayata maktabining asoschisi-donishmand Brixaspatidir. Chorvaka so'zining lug'aviy ma'nosi to'rt unsur, «loka» so'zining lug'aviy ma'nosi-bu dunyoda, ya'ni moddiy dunyo. Bu ikki ta'limotning mazmuni bir bo'lgani uchun «chorvaka-lokayata» deb atala boshlandi. Olam asosida to'rt unsur yotadi. Brixapati ta'limotiga ko'ra, biz yashab turgan moddiy dunyodan boshqa dunyolar yo'q. Inson ham ana shu to'rtta unsurdan tashkil topgan. To'rt unsurni sezgilarimiz orqali qabul qilamiz. Ular hech kim tomonidan yaratilmagan. To'rtta unsurning turlicha birikishi orqali organizm, noorganik moddiy narsalar va hodisalar tashkil topadi.

Chorvaka-lokayataning ta'kidlashicha, insonda hissiy bilish muhim kasb etadi. Agar sezgi a'zolarimiz bo'lmaganda, olam haqida bilimga ega bo'lmagan bo'lar edik, deb ta'kijdlashardilar. Ular aqliy bilishni ham tan olganlar. Lekin aqliy bilish hissiy bilishdan kelib chiqadi deb o'qtiradilar.

Qadimgi Xitoyda fan va madaniyat o'ziga xos shaklda rivojlangan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o'rtalariga kelib, Yuan-in davlatida muayyan xo'jalik shakli yuzaga kelgan. Eramizdan avvalgi XII asrda esa urushlar natijasida davlat Chjou qabilasining qo'ligi o'tgan. Bu hokimiyat eraimzdan avvalgi III asrgacha davom etgan. Bu vaqtda diniy mifologik dunyoqarash hukmronlik qilgan. U olam va tabiatning paydo

bo‘lishini o‘ziga xos tarzda tushurtirgan va dunyoviy bilimlar rivojiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Bunday ruhdagi falsafiy g‘oyalar ayniqsa qadimgi Xitoy donishmandi Konfusiy (551-479) ijodida yaqqol aks etgan. Uning «Hikmatlari», ya’ni aforizmlari juda mashhur. Konfusiy ta’limotida umum insoniy qadriyatlarning Xitoy xalqi turmush tarzda namoyon bo‘lishi, bu xalqqa xos ma’naviy mezoniylar aks etgan. Bu ta’limot bir necha asrlar davomida ushbu hududda milliy g‘oyalar majmui, millatning mafkurasi sifatida odamlarning ma’naviy ongi va qiyofasi shakllanishiga ta’sirt ko‘rsatgan. U hozir Xitoyda ham o‘zining muayyan ahamiyatini saqlab qolgan.

Konfusiy fikricha, olamni osmon boshqaradi. Osmon irodasi-taqdirdir. Biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfuyesiy nuqtai-nazariga ko‘ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini «lu» tushunchasi belgilaydi. U, ya’ni tartib duyoning mohiyatini aks ettiradi. Binobarin, jamiyatdagi barcha harakatlar unga binoan amalga oshishi lozim. Tartib-insoniyat jamoasining eng oliy hayotiy qadriyatlaridan biridir. Konfusiyning ta’kidlashicha, shaxs faqat o‘zi uchun emas, balki jamiyat uchun ham yashashi kerak. Konfusiy ta’limotida insonninghayotidagi ijtimoiy o‘rni nihoyatda ulug‘, u o‘ziga ravo ko‘rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko‘rmasligi, o‘ziga ravo ko‘rgan narsani boshqalarga ham ravo ko‘rishi lozim.qadimgi Xitoyning ko‘zga ko‘ringan faylasuflaridan bir Lao Szidir (VI-V asrlar). Uning ta’limotiga ko‘ra olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga bo‘ysunmog‘i lozim. Daosizm ta’limoti ana shu tariqa shakllangan. Dao qonuni-tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg‘unligi abadiyligining e’tirof etilishidir. Bu qonunga ko‘ra, «Si», ya’ni beshta unsur-olv, suv, havo, yer va yog‘och yokimetall olamdagi barcha jismlar asosini tashkil etadi hamda ularning yuzaga kelishini ta’minlaydi. Lao-Szining ta’kidlashicha, olamda Hech bir narsa doimiy va o‘zgarmas, harkatsiz holda bo‘lishi mumkin emas.

Daosimga binoan, dunyodagi hamma narsa bir holatdan ikkinchi holatga o‘tib turadi. Qarama-qarshi kuchlar qo‘rtasidagi kurash, ya’ni In va Yan orasidagi munosabat-bizni o‘rab turgan olamni harakatga keltiruvchi kuchlar manbaidir. Inva Yan o‘rtasidagi kurash daoni anglatadi. Odamzod bu kurash jarayonida doimo yaxshilik tomonida turushi, o‘zini qurshabturgan tabiat va atrofdagi olamga mehr ko‘rsatishi lozim. Bo‘lmasa, Dao qoneuni buziladi va bunday joyda baxtsizlik, fojia yuz beradi. Lao-Szi bu o‘rinda ekologik haloqatni nazarda tutgan. «kishilar Dao qonunini buzmasliklari kerak, aks holda tabiat ulardan o‘ch oladi,degan ediLao-Szi. Buni ekologik haloqatlar avj olib berayotgan bugungi kun voqyeligi ham tasdiqlaydi.

2.3. “Avesto” qadimgi davrda Markaziy Osiyoda rivojlangan inson, tabiat, jamiyat va davlatchilik haqidagi falsafiy g‘oyalarning ilk manbai sifatida

Qadimgi Markaziy Osiyo zaminida dastlabki falsafiy fikrlar mil. avv. VIII-V asrlarda shakllangan. Qadimdan Markaziy Osiyo xalqlari tarixi boy ma’naviy merosga, ijtimoiy qarashlarga, jamiyat to‘g‘risidagi tasavvurlarga, insonning kelib chiqishi borasidagi fikrlarga ega bo‘lgan. Bu xalqlar doimo o‘z xalqi ozodligi, erki, farovon turmushi, insonlar baxtli hayoti uchun kurashib kelgan. Masalan, To‘maris, Shiroq kabi qahramonlar butun umrini o‘z xalqi uchun baxshida etganlar.

Miloddan avvalgi VII- III ming yilliklarda Markaziy Osiyoda Zardushtiylik dini ijtimoiy hayotning barcha sohalariga keng kirib borgan. Bu davrda Turonda ijtimoiy munosabatlar ancha rivoj topdi. Ayniqsa, bu paytda zardushtiylik va u bilan bog‘liq bo‘lgan dualistik dunyoqarash keng tarqalgan edi. Zardo‘shtiylik faqat din bo‘lib qolmay, balki o‘sha davr mafkurasi, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-falsafiy qarashlarning ifodasi sifatida yuzaga keldi. Bu dinning muqaddas kitobi “Avesto” bo‘lib, unda jamiyat va insonlarning kelib chiqishlari to‘g‘risida fikrlar bildirilgan. Zardo‘shtiylik dinining ushbu kitobi 12 ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan yozilgan. Unda qadimgi kishilarning tabiat va uni bilish yo‘llari haqidagi tasavvurlari umumiy tarzda ifoda etilgan. Unga ko‘ra, insonni o‘z ichiga olgan koinot yer, okean, osmon, yorug‘lik va jannatdan iborat. Avestoda insonning kelib chiqishi qo‘yidagicha ifodalangan: birinchi inson Govamard (ho‘kiz-odam; forscha Qayumars) hisoblanib, yerdagi barcha insonlar undan tarqalgan. Insonlarning birinchi shohi Yima bo‘lib, u hukmronlik qilgan davr oltin davr deb atalgan. Chunki bu davrda o‘lim, qarilik, sovuqlik va yovuzlik kabi yomon illatlar jamiyatda yo‘q bo‘lgan. Yaxshilik xudosi Ahuramazda doimiy bahorni yaratib, insonlar baxli hayot kechirganlar. Oradan 900 yil o‘tgach shoh Yima kibri havoga berilib, jamiyatda qattiq ta’qiqlangan sigir go‘shtini yeydi. Natijada, yomonlik xudosi Axriman boshliq devlar bosh ko‘taradi. Butun dunyoni muzlik qoplaydi. Yima Ahuramazda amri bilan barcha jonzotlar uchun qo‘rg‘on qurib, hamma jonzotlardan bir juftdan olib qo‘rg‘onga joylashtiradi va yerda hayotni shu tarzda saqlab qoladi. Shu bilan oltin davr tugab, Hayr va Sharr (yaxshilik va yomonlik) o‘rtasidagi kurash davridan iborat ikkinchi davr boshlanadi. Bu ikkala xudo o‘rtasida kurash ketadi va Ahuramazda g‘alaba qozonadi. So‘ngra uchinchi davr insoniyatning kelajak davri boshlanadi. Bu vaqtda barcha insonlarning orzu-umidlari, xohish-istaklari ro‘yobga chiqadi, olamda yaxshilik hukmronlik qiladi.

Zardushtiylikda insonlar axloqiy-ijtiomiy ahamiyatga ega bo‘lgan “ezgu fikr”, “ezgu so‘z” va “ezgu amal”ga rioya etishgan.

"Avesto"da mehnat inson kamoloti va axloqiy sog'lomligining manbai sifatida ulug'lanadi. Zardo'shtiylik axloqi nuqtai nazaridan saxovatli bo'lish uchun inson birinchi galda halol mehnat qilishi, o'z qo'li bilan mahsulot yaratishi lozim. Shu boisdan Zardo'shtiylik dinida ishyoqmaslik hamma nuqsonlarning koni, deb qoralanishi bejiz emas.

Inson boshqalarga nisbatan baxillik qilmasligi lozim. Ezgu fikrlar esa jaholatga teskaridir, chunki jaholatda niyatlar yo'qoladi, burch va adolat unitiladi, uylamay ish qilinadi. Shuningdek, Zardo'shtiylikda insonni burch faqat axloqiy yo'l-yo'riqlarni o'zlashtirishdan iborat bo'libgina qolmasdan, balki oilaviy turmush, yaxshi yor va farzand to'g'risida ham uylash kerakligi ta'kidlanadi. Zardo'shtiylikda qadim zamonlardan beri kishilarning jamiyatdagi munosabatlarini tartibga soluvchi urf-odatlar va axloqiy qoidalar mavjud bo'lgan. Bunda Axuramazda xudosi ilohiy qonun darajasiga ko'tariladi. "Avesto"da huquqiy qoidalar tartibli tarzda ifoda qilingan bo'lmasada ham o'sha davrning huquqiy munosabatlari to'g'ri aks ettirilgan. Huquqiy sohalar jinoyat, fuqarolik, oila, yer-suv huquqi kabilarga ajratilgan. qadimgi davrda ham sud jazosi o'zining shavqatsizligi bilan ajralib turgan. Jazolash vositasi sifatida o't, qizdirilgan temir va boshqa narsalar qo'llanilgan. Bu huquqiy qoidalar ham din asosida bo'lib, bosh hakam Axuramazdaning o'zi ko'rsatiladi.

Zardushtiylikdan keyin Markaziy Osiyoda II-III asrlarda rivojlangan ta'limot Monizm hisoblanadi. Bu ta'limotning asoschisi Moniy (216-276 yillar) bo'lib, u insonlar turmushi, hayoti va ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan bir qancha risolalar hamda kitoblar yozib qoldirgan. Lekin ular bizgacha yetib kelmagan. Hatto u insonlar bilim olishi uchun «Moniylik yozuvi» alifbosini ham tuzgan. O'zining ijtimoiy qarashlarida jamiyatdagi adolat, erkinlik, mehnatsevarlik kabi tushunchalarni ulug'laydi. Uning ta'limoticha, insonlar hayotiga nur dunyosi – yaxshilik va zulmat dunyosi – yovuzlik hukmronlik qiladi. Ammo inson o'z hayoti davomida yaxshilikni yomonlik ustidan hukmronlik qilishini ta'minlaydi, deydi. Monizm ta'limoti o'zida asosan oddiy xalq ommasi manfaatlarini himoya qilgan bo'lib, jamiyatdagi barcha mol mulkka ega bo'lgan boylarga qarshi edi. Shu sababdan uning ta'limoti o'sha davrdagi hukmron mafkura tomonidan tazyiqqa uchradi.

V-VI asrlarda Markaziy Osiyoda zardo'shtiylikka qarshi qaratilgan ta'limot Mazdak (470-529 yillar) boshchiligidagi Mazdakizm ta'limoti edi. Bu ta'limotning asosiy negizini ijtimoiy masalalar tashkil etadi. Uningcha, dunyodagi yovuzlik insonlarni boy va kambag'al bo'lishidir. Shu tarzda jamiyatda ijtimoiy adovatlarga qarshi kurash insonlar o'rtasida turli urushlar, bir-birlarini ko'ra olmasliklar yuzaga keladi. Bunday hayotni bartaraf etib, barchani jamiyatdagi tengligini ta'min etish lozim. Hamma insonlar tenglik mafkurasiga amal qilsinlar. Bu tenglik insonlar barcha moddiy boyliklarga

bir xilda egaligini ta'minlashi zarur, deydi. Bu ta'limotning asosiy negizini «tenglik» g'oyasi tashkil etgan. Shu boisdan Mazdak ta'limotida ijtimoiy zulmga qarshi kurashish birinchi o'rinda turgan.

2.4. Arab-musulmon sivilizatsiyasi va islom falsafasining vujudga kelishi. Islom tamaddunida diniy va dunyoviy ilmlarning o'zaro uyg'unlikdagi taraqqiyoti

Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar bir-biri bilan bog'langan, yaxlit jarayon sifatida vujudga kelgan dinlar inson kamoloti borasida faolit olib borgan. Yer yuzidagi barcha dinlar inson va jamiyatni kelib chiqishini ilohiy kuch asosida tushuntirib beradi. Mana shunday dinlardan biri VIII asrda Markaziy Osiyoda rivojlangan Islomdir. Islom dining rivojlanishiga Sharq xalqlarining ta'siri katta bo'ldi. Islom dinining muqaddas kitobi «qur'oni Karim»dir. qur'oni Karim yer yuzi musulmonlarining dasturi, diniy ahkomlar manbaidir. «qur'on» so'zi arabchadan olingan bo'lib, u «o'qish» deagn ma'noni bildiradi. muhammad payg'ambar 40 yoshga yetganda unga Ollohdan vahiy kela boshlaydi, ya'ni bu payg'ambarlk vahiysi bo'lgan. Shu asosda «qur'oni Karim» 22 yil davomida vahiy orqali Muhammad payg'ambarga nozil bo'lgan. Unda 114 ta sura, 6236 ta oyat bor. Yigirmata surada oila va u bilan bog'liq masalalar tilga olinishi insoniy jamiyatda juftlik naqadar zarur ekanligini ko'rsatib turadi. Shuningdek, qur'oni Karimda shariat masalalari ham o'z o'rnini topgan.

Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan islom dinini targ'ibotchilaridan va Hadis ilmining mukammal sohiblaridan biri Imom al-Buxoriy (809-869 yillar) dir. O'zining «Al jome' as-saxix» nomli hadislar to'plamida insonlarni poklikka, kamtarlikka, ogohlikka, mehnatevarlikka chorlovchi hadislarni to'plagan va ayni paytda hadislarning mashhur targ'ibotchisi hamda hadis ilmidan dars beruvchi bo'lgan. Uning shogirdlaridan Shayx ibn Muhammad Yusuf Al-Farobiy shunday ma'lumot beradi. Imom Buxoriyni «Al jome' as-saxix»larini o'zlaridan 90 000 kishi eshitgan ekan. Yana bir shogirdining aytishicha, Imom Buxoriyning Bog'doddalik vaqtidagi darslariga men ham qatnashardim, shunda 20 000 dan ortiq talaba hozir bo'lar edi, deydi. Buxoriy odamlarning bir-birlariga o'zaro mehr-shafqatli, inoq bo'lishlarini ta'kidlab, bunday insoniy fazilatlarga ega bo'lgan kishilarni inson tanasini a'zolariga o'xshatadi. U shunday deydi: «Mo'minlar o'zaro do'stlik, mehr va shafqatda xuddi inson tanasidagi a'zolarga o'xshaydilar, zero, uning biror a'zosi og'rigudek bo'lsa, boshqa a'zolari ham bedor va lahos bo'ladilar».

«Al jome' as-saxix» asarida hadislardan tashqari insonlarning kelib chiqishi, jamiyat rivaojanishi uchun zarur omillar, davlatni boshqarish

yo‘llari, islom marosimchiligi, axloq-odob, ta’lim-tarbiya masalari keng yoritib berilgan.

Islom olamida mashhur muhaddislardan biri Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824 – vafoti taxminan 892-893 yillar) bo‘lib, xalq orasida Qur’oni Karimni tafsirchilaridan bo‘lib yetishdi. At-Termiziy yoshligidanoq musulmon ta’limotini chuqur egallagan. U kishini insonni jamiyatda tutgan o‘rni, uning kelib chiqishi, turmush-tarzi, jamiyat haqida aytilgan fikrlari, shariat masalalariga bag‘ishlangan «Kitob at-tarix»(«Tarix kitobi») asari hisoblanadi. Asarda ta’kidlanishicha, at-Termiziy o‘zidan oldin yashab o‘tgan imomlar izidan borib, inson Ollohning irodasi mahsuli ekanligi, islom qoidalari asosida jamiyatni boshqarish, musulmon Sharqida insonlar hurfikrlikka ega bo‘lishi, barcha kishilar ilmiy-falsafiy, diniy-axloqiy bilimlarni keng qamrovli o‘rganishlari, insonlarda islomning zamon shart-sharoitlariga moslashuvchanlik jihatlarini shakllantirish masalalari bayon etilgan.

Tasavvuf (ya’ni sufizm-arabcha «suf»-jun) serqirra va murakkab oqim bo‘lib, musulmon Sharqida VIII-XIV asrlarda rivojlandi. Tasavvuf g‘oyalarining jamiyatda keng miqyosda amal qilishi bevosita insonparvar shoirlarning hayotga nisbatan kuchli ehtiroslarini vujudga keltirdi. Tasavvufning poklik, ilohiy ishq, zohidlik haqidagi haq va haqiqat, ajib insoniy xislatlar, kamolot kasb etish g‘oyalari she’riy misralarga aylandi. Tasavvufning behudlik va ishq konsepsiyasi soflik, adolat va haqiqat timsoli – Mutloq ilohga muhabbat zavqi ijod ahliga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Natijada, insoniyat g‘ami bilan liq to‘lgan qalb dardiga isyonkor ruhdagi shiorlarni bir ohangraboday o‘ziga tortib, o‘rtanishli, his-hayajonga serob va kishida qalb go‘zalligini yaratuvchi bir qator ishqiy she’rlar vujudga keldi.

Sufiyona adabiyotning tasvirlanish mavzui tariqat yo‘li bilan poklikka intilayotgan va tinmay komillik sari taraqqiy etayotgan «solik Inson» bo‘lgani uchun ana shu maqsad yo‘lidan borayotgan yo‘lovchi solik Insonning dunyoqarashi, estetikasi, kechinmalar olami muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bunday fazilat sыfiylarni Iloщiy ishq asosida Olloh vasliga yetkazishga qaratilgan. Shu boisdan ko‘plab sufiylar «Iloh yaratgan moddiy olamdagi go‘zallik-Ilohning kalomi va jamoli aks etgan narsalar va uning gultoji insonga muhabbat orqali bo‘ladi. Shu tariqa dunyoviylik bilan ilohiylik o‘zaro bog‘lanadi. Shunisi ham borki, ilohiy muhabbat – bu irfoniy bir tuyg‘u, ya’ni bilish zavqi, anglash zavqidan, g‘oyaga, ma’rifatga aylanish zavqidan boshqa narsa emas. g‘oyada sufiy muhabbat otashida yonib, go‘yo moddiylikdan qutulib, yaxlit bir g‘oya-bir ma’rifat parchasiga aylanadi.

Tasavvufiy adabiyotning barcha ko‘rinishlari, janrlarida ana shu solik Insonning tuyg‘ulari, tushunchasi tasvirga olinadi, uni tarbiyalash, unga Haqni va o‘zligini tushuntirish turli rivoyat va hikoyatlar keltirish, o‘git va pand-nasihatlar qilish bu uning ongi va qalbiga yo‘l topish asosiy bosh

masala qilib olinadi. Xususan, Farididdin Attorning «Ilohiynoma» asarida bu xildagi xilma-xil keltirilgan fikrlar insonlarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasiga qaratilgan. Unda yozilishicha, har qanday o'gitlarda «ko'z oldingizda ilohiy ilhomning mo'jizalari namoyon bo'ladi. Bunchalik izhori dard, iztirob va yonish lazzatidan sarmast bo'lib kuylash ishtiyoqi, nurga talpinib, nurgla yo'g'rilib, nurlanib porlash shodligi, hayajon va zavq toshqini!». Shoirning Ollohning yagonaligi va uning sir-sinoatlarga boyligi haqidagi g'oyalari tabarruk so'zlar asosida yoritib beriladi. Shuningdek, olam mutloq Parvardigorning ijodi deb talqin etiladi, voqyelikning go'zalligi va qudratini Ilohdan, deb hisoblaydi.

Tasavvufning estetik mohiyatini talqin etishda Imom al-g'azzoliy «Diniy ilmlarning tiriltirilishi» nomli asarida bevosita to'xtalib, Ollohga bo'lgan ishq insoniylik, ezgulik, go'zallik, komillik tuyg'ularini tarbiyalashligini aytib o'tadi.

Tasavvufning ishqiy g'oyalari A. Ansoriy, A. Yassaviy, S. Boqirg'oniy va boshqa sufiylar asarlarida tasvirlab berildi.

Yeronda tasavvufning nafosat g'oyalarini ilgari surgan shoir Abdulloh Ansoriy (1006-1089 yillar) bo'lib, olamning go'zalliklarini o'z ijodida bayon qilgan. Uning estetik qarashlarga boy «Munojot», «Sayr etuvchilar manzillari», «Ilohiynoma», «Sirlar kitobi» kabi asarlarida Ollohni ko'rishga bo'lgan intilish tasvirlanadi.

A. Ansoriy asarlari o'rta asr musulmon Sharqi xalqlarining ma'naviy xazinasi, nafosat olamining nozik masalalarini o'zida mujassam etganligi bilan tasavvuf ahlining, qolaversa, insoniyatning buyuk va noyob o'tmishi bo'lib qoldi. Bu asarlarda insonlarning, jamoli Ollohning go'zalligini bir zarrasi bo'lib, shu go'zallikdan hammaning zavqlanishi, yaratgan egasini bilish g'oyalari yotadi.

Tasavvufda 3 ta yirik tariqat mavjud. 1. Yassaviya tariqati. 2. Naqshbandiya tariqati. 3. Kubroviya tariqati. Yassaviya tariqati. Axmad Yassaviy (1041-1167) Sharqning mashhur tasavvufchi olimidir. Yassaviy jamiyatda tasavvuf g'oyalarini targ'ib qilib, aholining turli qatlamlari orasidan o'ziga shogirdlar, muridlar topadi. Bu tariqatda sufiy bo'laman degan kishi boshqalardan uzoqda, o'zi alohida yashashi kerak. U faqat xudoga ibodat qilishi lozim. Shundagina sufiyda insofga, adolatga, halollikka intiladi, xilvat va uzlatda yashaydi. Ahmad Yassaviy o'z «Hikmat»larida insonni ulug'laydi, kishilarni zulmdan, adolatsizlikdan saqlashga intiladi. Xalq ommasining xarihohligini o'ziga qaratib, o'zining pokiza fikrlari, adolatparvar g'oyalari bilan barchani obro'siga erishadi. Ayni paytda odamlarni sabr-toqatda bo'lishga, taqdirga tan berishga chaqiradi, oxiratni o'ylashni nasihat qiladi. Yassaviy fikricha, inson hayoti qanchalik qiyinchiliklarga, mashaqqatga va kulfatlarga to'la bo'lmasin, u hamisha komillikka intilishi kerak. Kubroviy tariqati. Tasavvufning yirik

vakillaridan bir Najmiddin Kubro (1145-1221) bo‘lib, insonlarni vatanparvar bo‘lishga chorlaydi. U shariat va tariqatning buyuk donishmandi bo‘lgani uchun Kubro (ulug‘larning ulug‘i) va «Najmiddin» (dinning yulduzi) degan laqablarni olgan. Uning ta’limoti axloqiy poklik, mardlik, jasurlik g‘oyalariga asoslangan. U xudoni sevish insonlarni baxtli hayotga chorlaydi, hamma shu yaratganning marhamati bilan o‘zini kimligini, qaysi jamiyat vakili ekanligini anglab yetadi, deydi. U insonni «kichik olam» deb ataydi. Kubro ranglarning inson ruhiyatiga kuchli ta’siri borasida fikr yuritadi. Xilma-xil ranglar moddiy olam o‘zgarishlari, rangsizlik – xudo olami belgisi deydi.

Naqshbandiya tariqati. Bahovuddin Naqshband (1318-1389) o‘z tariqatida insonlar Allohga yetishish uchun to‘g‘ri va adolatli yo‘lni tanlashi, jamiyatda halol yashashi, bu hayotda shod, xurram, baxtiyor kun kechirishi kerakligini aytadi. Bu tariqat markazida axloq va va xulq odob qoidalariga izchil amal qilish turadi. Insonlarni halol va pok bo‘lishga, o‘z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga yordam berishga, kamtar va sofdil bo‘lishga da’vat etadi. Naqshband har bir inson jamiyatda o‘zini o‘rnini topa olsin, jamiyat a’zolari bilan yashasin, deydi. Uning asosiy qoidasi «Dil ba yoru, dast ba kor» hisoblanib, bu qoidaga amal qilgan Naqщband otasi bilan birgalikda temir va mis buyumlarga turli naqshlar bitgan. Shu tarzda «Naqshband» taxallusi kelib chiqqan.

Tasavvufning muhim ideallarini Alisher Navoiy so‘z san’ati orqali ifodalashga harakat qildi. Unda sufiyona g‘oyalar ilgari suriladi va so‘z go‘zalligi vositasida Olloh nigohi namoyon bo‘lishini aytadi. Navoiy Ollohga bo‘lgan ishqni gul so‘zi asosida tushuntirishga intilib: «Mening ko‘nglim, qalbim sening gul yuzing yashnab turadigan gulshan bo‘lsin, qading niqoli jonim o‘rtasida alifday tursin». Yoxud: «Sening gulday diling joyi mening ko‘nglim, uning ko‘ngil yaralariga davo, u qalbim gullarini yashnatadi. Go‘zal surating, baland, zebo qomating jonim ichida. Bu yerni o‘zingga makon qil». Navoiy bu g‘oyalari orqali Ollohni chiroyli, go‘zal so‘zlar vositasida ifodalab, yor vasliga sufiyona yetishishga harakat qildi. U yor ishqiga sadoqatidan ilhomlanib, o‘z dardini Ollohga oshiqlik deb bildi.

Bilish va ma’naviy sayohat yo‘lida odamga uning tafakkuri yo‘l ko‘rsatadi. Ko‘rsatilgan bosqichlarning har biridan o‘tish natijasida odam axloqiy va ma’naviy jihatdan takomillashadi va haqiqatni bilishga yaqinlashadi.Abu Homid G‘azzoliy so‘fizmni panteizmdan tozalashga harakat qildi. Bunga u muvaffaq bo‘ldi. G‘azzoliy fikriga ko‘ra, «har qanday ma’naviy poklanishlardan qat’i nazar, inson Hech qachon Xudoga aylana olmaydi». Bu bilan u so‘fizm va panteizm o‘rtasida o‘ziga xos «xitoy devori»ni o‘rnatdi.

So‘fizm vakili Ibn Arabiy falsafasi Yevropa falsafiy an’anasiga yaqin bo‘lgan tilda yaratilgan filosofema. Uni ayni holda rasionalistik filosofema

deb nomlash mumkin (u birlik, ko‘plik, sabab, oqibat, birinchi asos, jism, makon, vaqt kabi kategoriyalar va atamalardan foydalanadi); tilini badiiy til deb belgilash mumkin bo‘lgan, biroq nafaqat estetika jabhasini, balki ontologiya va naturfalsafaning rasionalistik tili bilan bir borliqni tavsiflovchi filosofema (uning kategoriyalari – muhabbat, intilish, ehtiros, muhtojlik, go‘zallik va sh.k.); nihoyat, «mistik» tilda yaratilgan filosofema (kategoriyalari: zavq, hol, fano, baqo, jon, ro‘yo va h.k.).

Har bir filosofema, Ibn Arabiyda bilishning alohida usuliga tayanadi. Shu sababli yechimlarning har biri bo‘yicha tegishli bilish usulining qisqacha tavsifini keltirish o‘rinli bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

Bahouddin Naqshband asos solgan so‘fiylik ta’limotining nazariy asoslaridan birini Xudo, dunyo va insonning o‘zaro nisbati muammosi tashkil etadi. Bu bosh muammo talqinida so‘fiylarni ikki yo‘nalish – teistik va panteistik yo‘nalishlarga ajratish mumkin. Alloh hamma narsaning yaratuvchisi deb e’tirof etilgan, insondan tashqarida turgan, dunyo uzra yuksalgan va bilish mumkin emas deb e’lon qilingan bo‘lsa, so‘fiylar ta’limoti monoteizm shakl-shamoyilini kasb etgan, dunyo va Xudo tushunchalari tenglashtirilgan taqdirda bunday ta’limot panteistik deb hisoblangan. Bahouddin Naqshband hayotning mazmunini Haqiqat (Alloh)ga erishishga intilishda ko‘rgan va Haqiqat (Alloh)ga erishish tashqi narsalar haqidagi bilim – shariatga asoslanadi va ichki narsalar haqidagi bilim – tariqat jarayonida yuz beradi, deb hisoblagan. U shariat Qur’oni karim va hadislarni bilishdan kelib chiquvchi diniy qonun-qoidalar to‘plami ekanligidan kelib chiqqan. Tariqat odam Haqiqatga erishish uchun qaysi bosqichlardan o‘tishi, Allohni anglash va u bilan birikish uchun qanday to‘siqlarni yengishi lozimligini belgilaydi. Bunda bilish jarayonida shariatdan tariqatga o‘tish darhol yuz bermaydi. Faqat shariatni o‘zlashtirish va uning talablarini bajarish orqali Haqiqat yo‘lidan jadalroq va samaraliroq borish mumkin.

Odam bilishning har bir bosqichi (mistik yo‘l manzillari)dan oldinma-ketin o‘tib o‘z maqsadiga yaqinlashadi. So‘fizm nazariyasi va amaliyoti ongning tashqidan ichkiga, ochiqdan yashiringa sayohatini nazarda tutadi. Bahouddin Naqshband tariqat ezoterik (yashirin, mistik) fan, u hammaga ochiq emas, uni faqat o‘zini Haqiqatga baxshida etgan odamlar anglab yetishi mumkin, deb hisoblagan.

Abu Nasr Muhammad ibn Tarxon al Forobiy (870-950, asarlari: Kitob-ul xuruf, Fozil odamlar shahri, Ehsoul ulum, Siyosat falsafasi, Fuqarolik siyosati) falsafa va tabiiy fanlar tarixiga oid yuzga yaqin asar muallifidir. U fanlar bilish vositalari ekanligidan kelib chiqqan. Bunda mutafakkir nazariy (mantiq, falsafa, tabiiy fanlar) va amaliy (axloq, siyosat) fanlarni farqlagan. Fanlar tizimida u insonga haqiqiy bilimni soxta bilimdan farqlash imkonini beruvchi mantiqni birinchi o‘ringa qo‘ygan. Ayni shu

sababli faylasuf inson tafakkuriga alohida e'tibor bergan. Aynan falsafa insonga borliqning mohiyatini tushunish imkonini beradi. Borliq «yagona» va ayni vaqtda «ko'p»dir. Borliqning mazkur holati emanasiya, ya'ni «yagona» muhitdan borliqning turli muhitlari kelib chiqishi mahsulidir. Forobiy asarlarida dunyo bir-biriga kiruvchi to'qqiz gumbaz ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu gumbazlarda ularning Yer atrofida aylanishi sababi hisoblangan jonlar yashaydi. Gumbazlar o'z harakatini dastlabki turtkidan boshlagan. Forobiy dunyoning rang-barangligini tushuntirish uchun Aristotelning shakl va materiya haqidagi ta'limotidan foydalangan. U jonning umrboqiyligi haqidagi masalada Platon fikriga qo'shilmagan, chunki uning paydo bo'lishi va o'limi tananing paydo bo'lishi va o'limi bilan bir vaqtda yuz beradi, deb hisoblagan. Ayni shu sababli Forobiyda bilish nazariyasi Platondagi kabi xotirlash nazariyasi emas, balki dunyoni sezgi va aql birligi sifatida anglab yetish nazariyasidir. Bunda aqlli jon narsalar tabiatini sezgilar idrokidan foydalanib anglab yetadi. Narsalarning mohiyati aql bilan anglab yetiladi. Bunda aql avvalo mantiqqa tayanishi, lekin sezgi a'zolari beruvchi materialdan foydalanishi lozim. Forobiy fikricha, borliq 6 bosqichdan iborat. 1. Birinchi sabab ya'ni xudo. 2. Ikkinchi sabab, ya'ni osmoniy jismlar. 3. Uchinchi sabab, ya'ni faol aql. 4. To'rtinchi sabab, ya'ni jon. 5. Beshinchi saba, ya'ni shakl. 6. Olimnchi sabab, ya'ni materiya.

Forobiy ta'limoticha, moddiy jismlar 6 qismga bo'linadi: osmon jismlari, aqlli hayvonlar, aqlsiz hayvonlar, o'simliklar, menerallar va 4 unsurdan tashkil bopgan.

Forobiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida kishilik jamiyati va uning vujudga kelishini insonning real hayotiy ehtiyojlari bilan bog'lab tushuntiradi. Bu haqda u shunda deydi: «Har bir inson o'z tabiatiga ko'ra shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi va ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan narsalarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p insonlarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Shuning uchun inson shaxslari ko'payadilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar. Natijada inson jamoasi vujudga keldi».

Forobiyning ijtimoiy qarashlarida muhim ahamiyatga molik fikr Arastu singari u ham insonni «ijtimoiy hayvon» deb ta'kidlashi va uning ijtimoiy mohiyatini ochib berganligidir. Bu haqda o'zining «Baxt-saodatga erishuv haqida» degan risolasida to'xtalib, hayvonni ikki xil nom bilan ataydi. Birinchisi, hayvoniy, ikkinchisi, madaniy hayvon yoki insondir, deydi. Shuningdek, Forobiy insonlar jamoasi haqida gapirib jamoani uchga ajratadi.

1. Katta jamoa bo‘lib, unga yer yuzida yashaydigan barcha insonlar kiradi.

2. O‘rta jamoa hisoblanib, bunga bir ma’lum xalq taalluqli.

3. Kichik jamoa, ya’ni ma’lum bir shahar kishilaridan iborat bo‘ladi.

Forobiy ijtimoiy qarashlarida fozil va johil shahar haqidagi qarashlarini aytib o‘tadi. Uningcha, fozil shahar boshlig‘i har tomonlama rivojlangan yetuk shaxs bo‘lmog‘i lozim. U o‘zida 12 ta ijobiy fazilatlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak deb, ularni birma-bir ko‘rsatadi:

1. Fozil shahar hokimi jismonan sog‘lom bo‘lishi;
2. Nozik farosatli bo‘lishi, suhbatdoshning so‘zlari va fikrlarini tez ilg‘ab olishi;
3. Xotirasi mustahkam bo‘lishi;
4. Zehni o‘tkir va zukko bo‘lishi;
5. Chiroyli so‘zlaydigan notiq bo‘lishi;
6. Bilimga va ma’rifatga havasli bo‘lishi;
7. Ochofat bo‘lmasligi, nafsini tiyadigan bo‘lishi;
8. Haqiqatgo‘y bo‘lishi;
9. Nomus oriyatli odam bo‘lishi;
10. Molu-dunyo izidan qo‘vmaydigan bo‘lishi;
11. Adolatparvar bo‘lishi;
12. Qa’tiyatli va jur’atli bo‘lishi zarur.

Mana shu fazilatlarni o‘zida mujassam etgan kishigina fozil jamiyatni boshqarishga qodir bo‘ladi, deb aytadi.

Forobiy borliqning birinchi sababi va harakat manbai sifatida Xudo mavjud deb hisoblagan bo‘lsa-da, uning falsafasi bilish va borliqning murakkab masalalarini yechishga intilish bilan tavsiflanadi. Ayni shu sababli faylasuf borliqning holatlarini, uning shakllarini: oddiy elementlar – havo, olov, yer, suvni; shuningdek minerallar, o‘simliklar, hayvonlar, inson va osmon jismlarini sinchiklab o‘rganadi. Shu tariqa u tashqi dunyoning obyektiv mavjudligiga urg‘u beradi. Forobiyning falsafiy qarashlari Sharq falsafasining rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Forobiyning gnoseologiyasi tabiatshunoslik, matematika, musiqa, tilshunoslik va boshqa fanlar sohasidagi bilimlarga asoslanadi. U tabiat insondan tashqarida va unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjuddir, deb hisoblaydi. Farobiy fikricha, obyekt subyektga qadar mavjud bo‘lgan. Seziladigan narsalar sezgilardan oldin paydo bo‘lganidek, bilish mumkin bo‘lgan narsalar ham bilishdan oldin paydo bo‘lgan. Forobiy fikricha, inson bilimlarni tashqi dunyodagi hodisalarni bilish jarayonida o‘zlashtiradi. Bu jarayon sezish, idrok etish, xotira, tasavvur qilish va eng muhimi – mantiqiy mulohaza yuritish, tafakkur kabi usullarni qamrab oladi. Bu vositalar yordamida inson fanni o‘rganadi. Forobiy «Fan va san’atning o‘ziga xos xususiyatlari» asarida tabiatni bilishning uzluksizligini, bilish – bu bilishdan bilimga, sababni bilishdan

oqibatni bilishga, hodisani bilishdan mohiyatni bilishga eltuvchi yo‘l ekanligini qayd etadi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yillar, asarlari: “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Minerologiya”), tabiat va uning obyektiv qonunlari mavjudligiga shubha qilmagan. U tabiat muttasil o‘zgarish va rivojlanishda bo‘ladi, materiya narsalar shaklini o‘zi yaratadi va o‘zgartiradi, jon (tafakkur, ma’naviy hodisalar) tananing muhim xossasidir, deb ta’kidlagan. Uning fikricha, materiya hamma narsalarni yaratadi, ular bir shaldan ikkinchi shaklga o‘zgaradi. Tabiat doimo to‘xtovsiz harakatda, o‘zgarishda. Beruniy ijtimoiy-siyosiy qarashlari Forobiynikiga o‘xshab ketadi. U o‘zini axloq falsafasiga katta e’tibor beradi. Unga ko‘ra, mardlik, jasarat faqat o‘zini emas, boshqalarni ham o‘ylashdir. Kerak bo‘lganda boshqalarga ham yordam berishdir. Beruniy falsafasicha, insonlar ichki va tashqi poklikka ahamiyat berishlari lozim. Uningcha, ichki poklikning kaliti yaxshi niyatdir. Inson o‘z tashqi qiyofasina o‘zgartira olmasada, u o‘zini tarbiyalay oladi, ni ichki va tashqi jihatdan pok bo‘ladi, deydi. Beruniy inson bilan hayvonlar o‘rtasida genetik bog‘liqlik borlig‘ini ko‘rolmagan bo‘lsada, u inson bilan maymun o‘rtasida o‘xshashlik borlig‘ini ta’kidlaydi. Masalan: ular a’zolarining o‘xshashligi bilan, tashqi ko‘rinishlari bilan ham bir-birlariga o‘xshab ketadi, deydi. Beruniy fikricha, inson avvalo hayvondan aqli bilan farq qiladi va u shu bilan hayvonlardan ustun turadi. Beruniy insonni xudo yaratganligini ta’kidlaydi. Beruniy insonning jismoniy tuzilishida umuman uning hayotida geografik omilning roli haqida ajoyib fikrlar bildirgan. Bu haqda u shunday yozadi: «Odamlar tuzilishlarining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo‘lishi faqatgina nasablarining turlicha bo‘lishi emas, balki tuproq, suv, havo, joylarning ham turlichaligiga bog‘liqdir», deydi. Hatto tillarning turlichaligi ham geografik sharoitlarga bog‘liq deb bilib, shunday yozadi: «Tillarning turlicha bo‘lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi va bir-birlaridan uzoq turishidir».

Beruniy moddiy va ma’naviy ehtiyojlarni roli jamiyatda katta ahamiyatga egaligi, ehtiyojlarning turli-tuman va son-sanoqsizligini aytadi. U faqat ehtiyojlarni bir xilcha so‘zlashadigan kishilar birgalikda ta’minlay olishlari mumkin. Buning uchun kishilardan shaharlar tashkil etish zarurati tug‘iladi. Kishilardagi hayotiy ehtiyojlarni birgalashib qondirishga intilish o‘zaro bir-birlariga yordamlashish kabi yaxshi niyatlar ularni jamiyatga birlashishga olib keldi, deb hisoblaydi. Ayni paytda Beruniy «Odamlar hammasi bir otaning bolalari va bir-birlariga juda o‘xshaydi. Lekin ular oralaridagi raqiblik va ko‘rolmovchiliklardan ham holi emas», deydi. Ma’lumki, tajriba, eksperiment borliqni bilish usullaridan biri hisoblanadi. Beruniy shunday deb yozadi: «Mendagi ishtibohni faqat tajriba va takroriy sinov bartaraf etishi mumkin, ...so‘zlovchilarning yakdilligiga qaramay, buning haqiqiyligi tajribada o‘z tasdig‘ini topmagan». Tadqiqotchilar fikriga

ko‘ra, «Beruniyni yetarli asos bilan o‘rta asr fanida empirik metod yaratuvchilaridan biri deb hisoblash mumkin. U metallar va minerallarning xossalari va solishtirma og‘irligini aniqlash bo‘yicha bir qancha tajribalar o‘tkazdi». Tajribada olingan bilimni mutafakkir ayrim me’yorlarga muvofiq ishonchli bilim deb talqin qiladi. Ularning orasida obyektlarning kuzatuvchanligi, tajribalarning qayta o‘tkaziluvchanligi va kuzatishlarning tekshiriluvchanligini qayd etish mumkin.

Abu Ali ibn Sino (980-1037). O‘rta Osiyoning mashhur qomusiy allomasi va faylasufidir. Buxorolik Ibn Sino (Avisenna) 300 dan ortiq asar muallifidir. Ularning orasida «Tib qonunlari» va «Bilim kitobi»,”Donishnoma”, “Xay ibn Yakzon”ayniqsa keng dovruq qozongan.

Ibn Sino merosining tahlili uning ilmiy qiziqishlari doirasi benihoyat keng, u tom ma’noda qomusiy bilimlar egasi bo‘lganidan dalolat beradi. Ibn Sino fanlarning ularni tadqiqot obyektlariga ko‘ra ajratishga asoslangan tasnifini taklif qilgan. Uning fikricha, falsafaning vazifasi mavjudotni, ya’ni barcha narsalarni kelib chiqishini, o‘zaro munosabatini o‘rganishi lozim. Bu olam yaxlit murakkab borliq deydi. U borliqni ikkiga bo‘ladi. 1. Zaruriy vujud, ya’ni xudo. 2. Imkoniy vujud, ya’ni xudodan kelib chiquvchi narsalar. Ibn Sino aytadiki, materiya 4 unsurdan tashkil topgan. Materiya doim harakatda, u vaqt va fazo bilan bog‘liqdir. Uning nazdida avval tog‘u-tosh9lar, so‘ngra o‘simlik, hayvonot va oxiri inson vujudga kelgan. Inson boshqa barcha hayvonot olamidan so‘zi, aqli va tili bilan ustunlik qiladi. Uning dunyoqarashi pantistik edi. Ibn Sino tabib bo‘lish bilan birga o‘zining inson haqidagi qarashlari, jamiyat ravnaqi borasidagi fikrlarni ham bayon etgan. U inson tana va jondan yoki jism va ruhdan tashkil topgan hamda unda aql bor. Inson o‘z aqli orqali fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lib, barcha maqsadli harakatlarini amalga oshiradi. Aql har qanday bilishning va amaliy faoliyatning mezoni sifatida talqin qiladi. Aql tarozisida o‘lchanmagan har qanday bilim haqiqiy bo‘la olmaydi, demak u haqiqiy bilim emasdir, deb yozadi. Ibn Sino kishilarni jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishga chorlab, «Risolatut tayr» («Qush risolasi») asarida shunday yozadi: «Yey birodarlar! Bir-biringiz bilan samimiy do‘st bo‘lib, haqiqatni ochinglar. Har bir kishi o‘z birodari uchun ko‘nglidagi samimiylikdan (to‘sqinlik) pardasini ochib tashlasin. Shunday qilinglarki, birodaringiz sizlardan (o‘zi bilmagan) ba’zi narsalarni o‘rgansin va boshqalari (bo‘lsa) ba’zi narsalarni o‘rganib o‘zini kamolotga yetkazsin». Ibn Sino tabiat azaliy va abadiydir, uning qonunlari o‘z-o‘zidan o‘zgarmaydi va inson ularni anglab yetishga qodir, jon tana faoliyati bilan belgilanadi va uning individual umrboqiyligi mumkin emas, degan fikrni ilgari surgan. O‘sha davrda u shug‘ullanmagan fanning o‘zi bo‘lmagan. Tibbiyot bilan bir qatorda, Ibn Sino falsafa, xususan bilish nazariyasini ham faol tadqiq etgan.Ibn Sino moddiy dunyo predmetlarini sezgilar manbai deb hisoblab, ularning obyektiv tabiatini tashqi moddiy

dunyo in'ikosi sifatida yoritadi. Bundan tashqari, u sezgini materiyaning xossalaridan biri deb e'tirof etadi. Alloma sezgini materiyaning oliy shakllari bilan bog'laydi. Ibn Sino mavjud narsalarni tasniflar ekan, sezgi hayvonlar deb ataluvchi jismlarga xosligini qayd etadi.

2.5. Temuriylar sulolasi davri. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy falsafasi. Temuriylar davrida tabiiy-ilmiy bilimlar taraqqiyoti (Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchilarning tabiatshunoslik fanlariga qo'shgan hissasi)

Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ikkinchi Sharq Uyg'onish davrida ko'plab mutafakkirlar tarix sahnasiga keldi. bu davrda A.Temur, M.Ulug'bek, A.Navoiy, A.Jomiy, Z.M.Bobur va boshqa bir qancha allomalar jamiyat rivoji borasidagi ijtimoiy masalalarni o'rtaga tashladilar.

XIV asrning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari, davlatni qurish, jamiyatni huquqiy qonun-qoidalar asosida boshqarish, insoniyat taraqqiyotiga yangi sivilizasiyani olib kirishda Amir Temurning hissasi katta bo'ldi. U o'zining ijtimoiy – siyosiy qarashlarini aytar ekan, men markazlashgan mustaqil davlat tuzishda va uni boshqarishda shior qilib olgan 12 ta tuzuklarimga amal qildim, deydi. «Temur tuzuklari»da «Adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim, gunohkorlarga ham rahm qilib haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim» degan so'zlarni o'qiymiz.

Temur o'z davrida davlatni boshqarish ishlarida bevosita o'tmishda mavjud bo'lgan davlatlar va podshohlar hayotini ham o'rganib chiqqanligini aytadi. Bu haqda shunday deydi: «Hayotni ko'p issiq sovug'ini ko'rib ulardan saboq olib tajribamni oshirdim. Shuning uchun do'st-dushman bilan kelishib yashadim. Odam Atodan boshlab Hotam ul an biyogacha, ulardan hozirgi damgacha o'tgan sultonlarning qonunlari, turish-turmushlari, qilish - qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va yaxshi axloqlari, ma'qul sifatlaridan namuna olib unga amal qildim. Davlatning tanazzulga uchrashi sabablarini surushtirdim va davlatu-saltanat zavoliga sabab bo'luvchi ishlardan saqlandim».

Temuriylar davrida ijtimoiy fikr taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan davlat arboblaridan bir Mirzo Ulug'bekdir. O'z davri fani va madaniyati, jamiyat rivoji uchun ko'plab dunyoviy bilimlarni xalqqa yetkazib berdi. Ayniqsa, jamiyat taraqqiyoti yosh avlod qo'lida ekanligini chuqur anglab yetib, yoshlar barcha egallagan bilimlarini mukammallashtirib borishi, ularni hayotga tadbiq etishlari, jamiyat farovonligi uchun qayg'urishlari, doimo kasb va hunar egallashga intilishlari lozimligini uqtiradi. Uningcha, har bir inson o'z o'tmishi, tarixini yaxshi bilishi, qolaversa, kelajak haqida o'ylashi lozim. U o'zining «Ziji Ko'ragoniy», ya'ni "Yulduzlar jadvali" nomli asarini yozdi. Bu kitobda jahon xalqlarining har xil hisoblaridagi eralar va ularning

munosabatlari, vaqtni aniqlansh, quyosh va oy tutilishlari, yulduzlar va sayyoralarning harakatlar va boshqalar to‘g‘risida fikr yuritadi. U bir yilda 365 kun 6 saot 46 soniya borlig‘ini bundan 600 yil oldin aytib o‘tgan.

Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy tafakkuri taraqqiyotida Boboraxim Mashrab (1657-1711 yil) qarashlari alohida ahamiyatga ega. U o‘zining «Devonai Mashrab» deb nomlangan asarida insonlar g‘am-tashvishlari, dard-alamlarini kuyladi. Mashrab she’rlarida jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy adolatsizliklarni qoraladi. Uning insonparvarlik so‘zlari jamiyatdagi hukmdorlarga, shariat peshvolariga mutlaqo yoqmadi. Jamiyatdagi tengsizlik, haqsizlik kabi illatlarni qoralab, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarni barchasi oddiy xalqni og‘ir ahvolga solib qo‘yishini aytadi.

Mirzo Abdulqodir Bedil (1644-1721) falsafiy qarashlarini bayon etar ekan, avvalo, barcha narsalar 4 unsur (tuproq, suv, havo va olov)ning qo‘shilishidan kelib chiqqanligini aytadi. Bu unsurlarni birikuvi noorganik tabiatning, keyinchalik o‘simlik olamining kelib chiqishi, o‘simlikning rivojlanishi bilan hayvon kelib chiqishi sodir bo‘ldi. Undan keyin so‘zlashishga o‘rganib inson paydo bo‘ldi, deydi. Shu tariqa anorganik, organik tabiat, hayvonot olami va insoniyat o‘rtasidagi o‘zviy aloqa borlig‘ini ko‘rsatadi. Bedil inson agar o‘z vaqtida ovqatlanib turmasa quvvatdan ketadi, mehnat qilish qobiliyatini yo‘qotadi deydi. Ayniqsa bu holat ko‘pincha tarki dunyo qilganlar, gadoylar o‘zlarini turli qiynoqlarga soladilar, o‘z tanalarini murdaga aylantirib, o‘zlarini o‘zlari xor qiladilar. Bunday kishilarni ko‘z oldilarida parilar, jinlar namoyon bo‘ladi, natijada ular aqldan ozib qoladilar, deydi.

2.6. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg‘or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar

XIX asr adabiy merosiga katta hissa qo‘shgan shoira Nodira (1792-1842) she’rlarida insonni ulug‘lovchi g‘oyalarni maydonga olib chiqdi.

Nodira o‘z she’rlarida inson va uning tabiatiga bog‘liq fikrlarni, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur omillarni, insonlarning og‘ir turmushini ko‘yladi. Uning fikricha, inson olamdagi barcha mavjudotlarning eng oliysi, ham eng ulug‘i hisoblanadi. Shu boisdan inson bu dunyoni go‘zal etuvchi, hayotni sevgi-muhabbatga to‘ldiruvchidir. O‘z she’rlarida xalq ahvolidan xabar olmagan xonlarni, sultonlarni soxta obru-ye’tiborlarini namoyish etdi. Nodira insonlar, shohlarni boylikka hirs qo‘ymaslikka da’vat qildi. Uning insoniylik, muhabbatning mavjudligi insonning haqiqiy inson ekanligini bildiradi. Xalq dardi, el-yurt istiqboli tashvishlari bilan yashagan alloma Axmad Donish (1827-1897) «Buxoro amirlari tarixi» asarida o‘sha davr ma’naviy va madaniy hayotini aks ettirdi. U Buxoro xalqi hayoti bilan Rossiya xalqi turmushini solishtirib, o‘z vatanini iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha orqada qolganligini ko‘rsatib berdi. U Buxoro davlat tizimini

isloh qilishi g‘oyasini ilgari surdi. Donish o‘zining isloh loyihasi bilan amirga murojat qildi. Bu murojatda «Davlat bir guruh kishilar emas, balki xalq manfaatlariga xizmat qilishi kerak» degan g‘oyani asosladi. Bu fikrlarni amir rad etdi. Donish fikricha, mamlakatni boshqarishda hukmdor muhim ishlarni o‘z atrofidagi davlat arboblari bilan maslahatlashib hal qilishi lozim. A.Donish ma’rifatparvar kishi sifatida mamlakatni aqlli, dono odamlar boshqarganda, davlat taraqqiy qilishi mumkin, deb o‘ylaydi. Keyinchalik A.Donish hayotiy tajribalar ostida donishmand va odil hukmdorga umid bog‘lash fikridan qaytdi.

Turkistonda ijtimoiy – falsafiy fikrlar XIX – XX asrlarda jadidchilik asosida shakllandi. Jadid so‘zining ma’nosi yangi degani. Jadidchilik xalqning milliy ongini o‘stirish, o‘zligini anglash, ma’rifatparvar g‘oyalarni ilgari surishga qaratilgan edi. Jadidchilik harakatining asoschisi qrim-tatar farzandi Ismoil Gaspirali edi. U 1884 yilda Qrimdagi Bog‘chasaroy shahrida birinchi jadid maktabiga asos soladi. O‘zi dastur tuzib, darslik yozdi. Ana shu yaratgan darslik asosida 40 kunda bolalarni savodini chiqardi va yangi usul, usuli jadid nomi bilan juda katta shuhrat qozondi. Gaspirali g‘oyalarini xalqqa yetkazib berishda o‘sha davrdagi «Tarjimon» gazetasining xizmati katta bo‘ldi. Tarixda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan gurkiragan O‘rta Osiyoda XVII asrdan bshlab iqtisodiy haribiy sohalarda Yevropa mamlakatlariga nisbatan ijtimoiy-passivlik kuzatiladi. Turkistonning ijtimoiy-tarixiy va siyosiy hayotida bir-biriga qarama-qarshi jarayonlar davom etadi. Bir tomondan markazlao‘gan yagona davlatni barpo etish harkati ikkinchi tomondan esa, mayda davlatlar mustaqilligini tiklash va uni saqlab qolishga bo‘lgan syeparatistik ayfiyatlar avj oldi.

Mustaqil davlatlar (Buxoro amirligi, Xiva xonligi)ning mavjudligi islomning mintaqa xalqlari ijtimoiy hayotidagi mavqyeini yanada kuchaytirdi. Bu o‘ziga xos ruhiy-ma’naviy jarayon, o‘z navbatida, mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy, siyosiy, axloqiy, estyetik qarashlarida, ular asralarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. XX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o‘lkasining Rossiya impyeriyasi tomonidan zabt etilishi natijasida turkiy xalqlar davlatchiligi asoslarining ba’zi zaif qirralari yaqqol syezildi. Tub iqtisodiy, ma’rifiy islohotlarni amalga oshirish zarurligi o‘qimishli kishilarga ayon bo‘lib qoldi. Turkistonda ijtimoiy – falsafiy fikrlar XIX – XX asrlarda jadidchilik asosida shakllandi. Jadid so‘zining ma’nosi yangi dyegani. Jadidchilik xalqning milliy ongini o‘stirish, o‘zligini anglash, ma’rifatparvar g‘oyalarni ilgari surishga qaratilgan edi. Jadidchilik harakatining asoschisi qrim-tatar farzandi Ismoil Gaspirali edi. U 1884 yilda Qrimdagi Bog‘chasaroy shahrida birinchi jadid maktabiga asos soladi. O‘zi dastur tuzib, darslik yozdi. Ana shu yaratgan darslik asosida 40 kunda bolalarni savodini chiqardi va yangi usul, usuli jadid nomi bilan juda katta

shuhrat qozondi. Gaspirali g‘oyalarini xalqqa yetkazib byerishda o‘sha davrdagi «Tarjimon» gazyetasining xizmati katta bo‘ldi.

1893 yil Gaspirali Turkistonga kelib, uning shaharlari Samarqand, Buxoro va Toshkentda bo‘ladi. Odamlarga jadid maktablarining mohiyatini tushuntirib byeradi. U Buxoroda 1893 yilda amiri Abulaxad bilan kelishib bitta jadid maktabi ochadi. U ketganidan keyin bu maktabni amir yana yopib qo‘yadi. 1904 yilda Gaspirali yana Buxoroga keladi va amir bilan muzokara olib borib, ushbu muzokaraning natijasida «Muzaffariya» jadid maktabi ochiladi. 1898 yilda Qo‘qonda Salohiddin Domla boshchiligida jadid maktabiga asos solinadi. 1899 yilda Andijonda, Toshkentda jadid maktablari ochildi. Turkistonda jadidchilik harakati boshida M.Byehbudiy, A.Avloniy, Fitrat, Munavvar Qori va boshqa taraqqiyparvar kishilar turishgan. Shunday qilib, XX asrning boshlarida jadidlar Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi siyosiy kuch sifatida tarix sahnasiga keldi. Taraqqiyparvar ziyolilar, ya’ni jadidlarning ongini o‘sishida, dunyoqarashining yuksalishida Bog‘chasaroyda nashr etilgan «Tarjimon», Qozonda chiqqan «Yulduz», «Vatan» jurnallari katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Turkiston jadidlarining 1906 yilda «Taraqqiy», «Xurshyed» gazyetalari o‘zbek tilida chiqadi va ko‘p o‘tmay hukumat tomonidan to‘xtatilib qo‘yadi. Turkiston jadidlarining ozodligi uchun kurash dasturida asosan 3ta yo‘nalish bor edi. 1893 yil Gaspirali Turkistonga kelib, uning shaharlari Samarqand, Buxoro va Toshkentda bo‘ladi. Odamlarga jadid maktablarining mohiyatini tushuntirib beradi. U Buxoroda 1893 yilda amiri Abulaxad bilan kelishib bitta jadid maktabi ochadi. U ketganidan keyin bu maktabni amir yana yopib qo‘yadi. 1904 yilda Gaspirali yana Buxoroga keladi va amir bilan muzokara olib borib, ushbu muzokaraning natijasida «Muzaffariya» jadid maktabi ochiladi.

1898 yilda Qo‘qonda Salohiddin Domla boshchiligida jadid maktabiga asos solinadi. 1899 yilda Andijonda, Toshkentda jadid maktablari ochildi.Turkistonda jadidchilik harakati boshida M.Behbudiy, A.Avloniy, Fitrat, Munavvar Qori va boshqa taraqqiyparvar kishilar turishgan. Shunday qilib, XX asrning boshlarida jadidlar Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi siyosiy kuch sifatida tarix sahnasiga keldi. Taraqqiyparvar ziyolilar, ya’ni jadidlarning ongini o‘sishida, dunyoqarashining yuksalishida Bog‘chasaroyda nashr etilgan «Tarjimon», Qozonda chiqqan «Yulduz», «Vatan» jurnallari katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Turkiston jadidlarining 1906 yilda «Taraqqiy», «Xurshed» gazetalari o‘zbek tilida chiqadi va ko‘p o‘tmay hukumat tomonidan to‘xtatilib qo‘yadi. Turkiston jadidlarining ozodligi uchun kurash dasturida asosan 3ta yo‘nalish bor edi.

Yangi usul maktablari tarmoqlarini kengaytirish

Iqtidorli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborish

Turli ma’rifiy jamiyatlar tashkil etish edi.

2.7. O‘zbekistonda falsafiy fikrlar rivoji. O‘zbekistonda ajdodlar me’rosini tiklash va ularni jahonda keng ommalashtirish borasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati

XX asr o‘zbek falsafasi kam o‘rganilgan ziddiyatli davrni qamrab oladi. Chunki hozirgi davr tanqidchilarida sovet davrida falsafa bo‘lmagan, u davrda intellektual hayot o‘lgan va uzoq muddatga qotib qolgan, faqat ayrim hollarda ba’zi mardlargina o‘zlarining g‘oya va qarashlarini ayta olganlar degan fikr shakllangan. Biroq bu noto‘g‘ri fikr. Chunki aynan XX asr boshlarida shakllangan jadidchilar harakati jamiyatni ma’rifat orqali yangilash g‘oyasini ilgari surganlar, Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat kabilar bir guruh yoshlarni chet elga o‘qishga yuborib, yangi avlod ziyolilarini tarbiyalashga o‘zlarining munosib hissasini qo‘shganlar.

1917 yilda bolsheviklar partiyasi g‘alaba qozonib, dunyo xaritasini katta Sovet ittifoqi degan mamlakat egallab, unda partiyaviylik mafkurasi hukmronlik qilsada, O‘zbekistonda falsafiy fikr rivoji to‘xtab qolgan emas. Falsafaning fidoyilari yangi qaror topgan siyosiy tizimda yashab, ishlab va juda ko‘p sinovlardan o‘tishlari lozim bo‘ldi. Ayrim ziyolilar chet elga qochib ketdilar, ko‘pchilikda esa marksizm g‘oyasining haqiqiy insonparvarligiga qat’iy ishonch shakllandi va shu bois shu yo‘nalishda faoliyat olib bordilar. Biroq muayyan darajada sovet mafkurasi ta’siri bo‘lsada, o‘tgan asrda o‘zbek falsafasi to‘rt yo‘nalishda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti falsafa fakulteti, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining falsafa va huquq instituti, viloyatlar oliy o‘quv yurtlari falsafa bo‘limlari, O‘zbekiston falsafa jamiyati va O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati faoliyatida namoyon bo‘ldi va olimlar o‘z falsafiy qarashlarida davrning ruhini ifoda eta oldilar. Darhaqiqat Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, “Odam qancha chuqur bilimga ega bo‘lsa, dunyoni yaxshi bilsa, yon atrofda bo‘layotgan voqyealarni to‘g‘ri anglay olsa, shundan keyingina unda g‘urur-iftixor bo‘ladi. Shundagina, juda murakkab, tahlikali davlarda ham ko‘pchilik unga murojaat qilib, maslahatlashadi. Maslahat kimdan so‘raladi – avvalombor, salohiyatli odamdan, katta falsafiy bilim va intellektual bilimga ega bo‘lgan kishidan”. Shunday ekan, O‘zbekistondagi ijtimoiy siyosiy jarayonlarni tushunishda va ularning mohiyatini tushuntirishda yurtimiz olimlarining xizmati ham katta.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti falsafa fakulteti. 1922 yilda O‘rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) ijtimoiy gumanitar fanlar fakultetida falsafa fanidan o‘quv mashg‘ulotlarining olib borilishi, bu boradagi dastlabki qadam bo‘ldi.

1935 yilda birinchi «Dialektika va tarixiy materializm» kafedrasi tashkil qilindi. Shu yillari kafedrada N. Kosenkov, L.Ye.Garber, A.T.Ayupov, V.S.Nikitchenko, K.S.Sadыkov, X.U.Umarov,

K.M.Maxmudov, X.J.Jalilov, A.M.Vaysman, V.Daliyevlar, shuningdek o‘rindoshlik asosida I.M.Mo‘minov, J.M.Babayevlar ilmiy-pedagogik faoliyat olib borganlar.

1944 yilda Dialektika va tarixiy materializm kafedrasi tarkibidan «Falsafa» kafedrasi ajralib chiqqan. Aynan “Falsafa” kafedrasi negizida 1962 yilda “Ilmiy kommunizm”, 1967 yilda “Tabiiy va gumanitar fakultetlar falsafa” kafedralari tashkil qilingan. Kafedralar tarkibi milliy kadrlar bilan boyib bordi. 1960 yillarda kafedrada 45 ta professor-o‘qituvchi faoliyat olib borgan. Bu davrda falsafa mutaxassisligi bo‘yicha universitetning o‘zida milliy kadrlar tayyorlash imkoniyati paydo bo‘lgan. Professor A.Ayupov, V.S.Nikitchenko, H.Umarov sa’y harakatlari bilan oliy ta’lim vazirligida bu masalaga ijobiy yondoshilib, universitetning tarix fakultetida 1963-1964 o‘quv yilidan boshlab falsafa bo‘limi tashkil qilingan va unga H.Umarov rahbar etib tayinlangan. O‘quv rejasi asosida respublikaning yirik olimlari jalb qilinib, falsafa bo‘yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash jarayoni boshlangan. Shu yillarda ilmiy ishlar rivoj topib yuqori malakali kadrlar yetishib chiqa boshlagan. 1962-1967 yillarda 18 ta falsafa fanlari nomzodi tayyorlangan. 1962-1992 yillar davomida gumanitar fakultetlar “Falsafa” kafedrasini boshqargan professor A.T.Ayupov boshchiligida dosentlar G‘.Shoyusupova, A.I.Abdusamedov, K.S.Sadыkov, K.I.Ivanova, I.Rahimov, V.S.Nikitchenko va boshqalar dastlab falsafa bo‘limi, keyin falsafa fakultetining milliy kadrlarni tayyorlash faoliyatida katta rol o‘ynadilar. O‘sha yillarda falsafa bo‘limi professor-o‘qituvchilari nafaqat o‘quv jarayoni, balki ilmiy bilish sohasida faol ishtirok qilganlar. 1974 yilda K.I.Ivanovaning “Ilmiy bilishda sababiylik tamoyili” nomli monografiyasi, professor L.Ye.Garber, A.T.Ayupov, U.Xaydarov, B.To‘ychiyev, V.G.Chernыxlarning “Ilmiy bilish mantig‘i va metodlari”(1986) mavzusidagi turkum asarlari nashr qilingan.O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi E.Yu.Yusupov, professorlar M.V.Vohidov, I.R.Rahimovlar 1980-2005 yillarda O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy taraqqiyotining falsafiy muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borish bilan birga, darslik va o‘quv qo‘llanmalari yozganlar, yosh kadrlarni tayyorlashga o‘zlarining munosib hissasini qo‘shganlar. Shu yillar davomida J.Babayevning “Falsafa asoslari” o‘quv qo‘llanmasi, E.Yusupovning tahririda “Falsafa” (1985) darsligi, I Raximovning “Mantiq fanidan seminar mashg‘ulotlari” (1984) o‘quv qo‘llanmalari nashr qilingan.

Bu esa falsafa fanining yanada chuqur va keng o‘rganilishi yo‘lidagi dadil qadam bo‘ldi. Yangi kafedralar tashkil qilinib, falsafani o‘qitishga differensial yondoshuv shakllandi. Shu yillarda fakultetda pofessorlar: - M.Xayrullayev, M.Baratov, L.Ye. Garber, V.N. Moroz, M. Nurmatov f.f.n dosent M.Q. Aripov, f.f.n. dosent M.Daliyev, dosent E.N. Abramyan,

Z.Mo‘minova, dosent T.M.Ramazanov, I.R.Ramazanov, R.Nosirov, Sh.B.Qahharova, M. Usmonov, I.L. Turchaninov, fakultetning bitiruvchi yoshlari M. Sharipov, B.To‘ychiyev, E.Mo‘minov, A.O‘tamurodov, I.Ergashev, o‘rindoshlik asosida professorlar M.N. Abdullayeva, H.Aliqulov va boshqalar ilmiy pedagogik faoliyat olib borganlar.1990 yilda universitet yangi Nizomi qabul qilinib, uning keyingi taraqqiyot yo‘llari, vazifalari, huquqlari, xalq hayotidagi mavqyei yangi dunyoqarash nuqtai nazaridan belgilab olindi. Shu bois 1991 yilda fakultet tarkibidan “Iqtisod” bo‘limi ajraldi va “Falsafa, sosiologiya va psixologiya” bo‘limlari va 9 kafedradan iborat “Falsafa” fakulteti yoshlar ongiga mustaqillik mafkurasining mazmun va mohiyatini singdirish, yangi dunyoqarashni shakllantirish yo‘lida fidokorona mehnat qildilar.

1989-2007 yillarda “Falsafa tarixi va mantiq” kafedrasining mudiri lavozimida ishlagan professor S.A.Yo‘ldoshev kafedra a’zolari bilan hamkorlikda Sharq va G‘arb xalqlari tarixi, Markaziy Osiyo xalqlari falsafasi va ijtimoiy axloqiy qarashlarini o‘rganish bilan bir qatorda, mantiq fanining keng qamrovli o‘rganilishiga ham alohida e’tibor qaratib kelgan. Magistraturada ushbu yo‘nalish bo‘yicha mutaxassislik ochishga boshchilik qilgan. Pokiston va Eron falsafasini O‘zbekistonda chuqur o‘rganilishiga munosib hissa qo‘shgan.

2002 yilda yangi “Falsafa va fan metodologiyasi” kafedrasining tashkil qilinishi falsafadagi ijtimoiy muammolar bilan bir qatorda, fundamental masalalarning o‘rganilishiga keng imkoniyatlar yaratdi. “Falsafaning metodologik muammolari” ilmiy maktabiga asos solindi. Bugungi kunda ushbu maktab tadqiqotchilari tomonidan “gerontologiya” - qariyalik muammosi, “tanatalogiya” - o‘lim va barhayotlik muammosi, “fenomenologiya” insonning individual ijtimoiy ongiga ta’sir qiluvchi omillar muammosi, ”germenevtika” - tushunish va tushuntirish muammosi, “epistemologiya”, “fan falsafasi” kabi muammolarning falsafiy tahliliga qiziqishning kundan kunga ortib borishi yangi avlod faylasuflarining yuqori intellektual salohiyatga egaligi va ayni paytda ularni ilmga yo‘naltiruvchi munosib ustozlar borlig‘idan dalolat beradi.

O‘tgan yillar davomida fakultet bitiruvchilari nafaqat pedagogik faoliyati, balki ilmiy salohiyati bilan falsafiy fanlar bo‘yicha yangi o‘quv adabiyotlarini yaratish jarayonida ham faol ishtirok qildilar. I.Saifnazarov muallifligida “Kurs leksiy po filosofii” (2001), “Ilmiy ijod metodologiyasi” (2004), “Fanlarning falsafiy masalalari” (2007 I.Rahimov A.O‘tamurodov hamkorligida “Fanlarning falsafiy masalalari” (2005), D.Fayzixo‘jayeva va M.Sharipovlar hammuallifligida “Mantiq” (2004) o‘quv qo‘llanmalari, S.Mamashokirov tahriri ostida Falsafa (2005 lotin tilida), “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” (2004), “O‘zbekistonda yangi jamiyat qurilishining g‘oyaviy-mafkuraviy masalalari” (2005), “Erkin va

farovon hayot qurilishining g‘oyaviy mafkuraviy masalalari” (2007) o‘quv qo‘llanmalari, Q.Nazarov tahriri ostida “Falsafa qomusiy lug‘at” (2004), “G‘arb falsafasi” (2004), “Jahon falsafasi tarixidan lavhalar” (2005), “Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillar” o‘quv qo‘llanmasi (2001), “Milliy g‘oya asosiy tushuncha va tamoyillari lug‘ati” (2005), “Milliy g‘oya va rahbar mas’uliyati” (2008),kitoblari, yakka muallifligida “Bilish falsafasi” (2005), “Qadriyatlar falsafasi” (2004) o‘quv qo‘llanmalari, N.A.Shermuxamedova muallifligida “Filosofiya i metodologiya nauki” (2003) o‘quv qo‘llanmasi, “Falsafa va fan metodologiyasi” (2005), “Gnoseologiya” (2007), Gnoseologiya – bilish nazariyasi (2009) darsliklari, A.Ochildiyevning “Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar” (2004), Ye.Emirovaning “Metodika prepodavaniya filosofii” (2004), shuningdek A.Strelsova bilan hamkorlikdagi “Vvedeniye v spesialnost» (2009) o‘quv qo‘llanmasi kabi qator yangi adabiyotlarining nashr qilinishi fakultetning katta ilmiy salohiyatga egaligidan dalolat beradi. O‘zMUning 90 yillik tarixida Falsafa bo‘limining 45 yillik, falsafa fakultetining deyarli 30 yillik faoliyati o‘z o‘rniga ega. Zero, bugungi kunda yangilangan tafakkur egalari o‘zbek falsafasining nomini dunyoga tanitmoqdalar. Azaliy falsafiy muammolarga yangicha yondoshmoqdalar. “Ustoz va shogird” maktabining yangi avlodi shakllanmoqda, yangi ilmiy maktablarga asos solinmoqda. Fakultetning 1500 mingdan ortiq bitiruvchilaridan shu yillar davomida 40 ta fan doktorlari va 200 dan ortiq fan nomzodlari yetishib chiqdi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining I.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. O‘zbekistonda falsafa fanining rivojiga nafaqat falsafa fakulteti professor o‘qituvchilari, balki O‘zbekiston fanlar akademiyasining 1957 yilda I.M.Mo‘minov tashabbusi bilan tashkil qilingan “Falsafa va huquq” institutining ilmiy xodimlari ham munosib hissa qo‘shdilar. Ilmiy tadqiqot institutida dastlab “Tabiatshunoslik”, “Falsafa tarixi” bo‘limlari faoliyat olib bordi. Keyinchalik institut tarkibi yangi yosh milliy kadrlar bilan boyib bordi hamda, “Dialektika va bilish nazariyasi”, “Ijtimoiy falsafa”, “Etika” kabi bo‘limlar tashkil qilindi. Institutning asosiy faoliyati falsafa, fan va madaniyat tarixini obyektiv o‘rganish, ma’naviyatning yangi milliy qirralarini izlash, xalq ma’naviyatini yangi bilimlar bilan boyitish, millatning ma’rifiy ruhini ko‘tarishga yo‘nalgan edi. Bu sohada Ibrohim Mo‘minov, Muzaffar Xayrullayev, Mo‘bin Baratov, Erkin Yusupov, Karim Sodiqov, Mirahmad Abdullayev, Haydar Aliqulov, Rasul Nosirov, Muhammadjon Boltayev, Anvar Sharipov, Gulchehra Navro‘zova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari e’tiborga sazovordir. Ijtimoiy falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik falsafasi sohasida Rustam va Telman Abdushukurovlar, Haydar Po‘latov, Abdulxay Valiyev, Oysara Umrzoqova, Naim G‘oyibov, Abduvosid Yo‘ldoshev, Maxmud Abdullayev, Said Shermuxamedov, Qo‘chqor Xonazarov, Xotima

Shayxova, Abdulxafiz Jalolov, Jo‘ravoy Yaxshilikov, Qiyom Nazarov, Viktor Alimasovlar samarali ishladilar va ishlamoqdalar. Ontologiya va bilish nazariyasi, tabiatshunoslik falsafasi, fan metodorlogiyasi bo‘yicha Jondor Tulenov, Bahrom Ismoilov, Omonulla Fayzullayev kabilar boshlagan an’analarni, Mahbuba Abdullayeva, Baxtiyor Karimov, Baxtiyor To‘rayev, Ra’no Imomaliyeva, E’tibor Hoshimova, Shuhrat Qo‘shoqov, Hakima Salomova, Oqil Fayziyev, Nigina Shermuxamedova, Alima Berdimurodova, Nariman Eshmetov, Shavkat Mamadaliyev, Ziyodullo Davronov, Karima Tulenova, Emina Izzetova va boshqalar davom ettirmoqdalar.

Birgina 2003 yilda institut xodimlari 31 ta turli yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot loyihasiga ega bo‘ldilar. Bugungi kunda falsafa va huquq instituti yangi yosh kadrlar bilan boyib bormoqda.

Falsafa tarixi va tarix falsafasini tahlil qilishda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, “Sharq falsafasini teran o‘rganish, shu asosda ulug‘ madaniyatimiz va qadriyatlarimiz ildizlarini jonlantirish, yaqin o‘tmishdan qolgan mafkuradan xalos bo‘lish, o‘zimizning asrlar sinovidan o‘tgan, ulug‘ ajdodlarimiz bizga qoldirgan milliy mafkura va tafakkurimizni tiklash, uni zamonaviy – umumbashariy ruh bilan boyitish xalqimizning dolzarb vazifasidir”. Shu ma’noda, o‘zbek falsafasining yetakchi vakillari Sharq falsafasi tarixini o‘rganish va undagi gumanistik g‘oyalarni “... halqimiz soddagina qilib, “o‘zbekchilik” deb ataydigan, mehr-oqibat, o‘zaro chidam va hurmat, o‘zgalarning dardiga hamdard bo‘lish kabi oliyjanob fazilatlarni” kelgusi avlodga yetkazish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib bordilar. Quyida ko‘p sonli o‘zbek falsafasining vakillarining ta’limotlari bilan tanishamiz.

I. Mo‘minov. (1908-1974) akademik, falsafa fanlari doktori, professor. I.Mo‘minov tomonidan 1956 yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnaliga asos solinishi ilmiy tadqiqot ishlari tarkibi va mavzulari doirasining nisbatan kengaytirilishi ijodiy erkinlikka yo‘l ochdi. 1957 yilda I.Mo‘minov tashabbusi bilan O‘zFa huzurida “Falsafa va huquq instituti” tashkil qilingan. (O‘zbek ensiklopediyasining birinchi mas’ul muharriri bo‘lgan.) I.M. Mo‘minov o‘zbek faylasuflaridan birinchi bo‘lib, totalitar tuzumning millatni ma’naviy qadriyatlardan mahrum etish, milliy ongni buzish va o‘z-o‘zini anglashga yo‘l qo‘ymaslikka intilib, kommunistik mafkurani shakllantirishga jon-jahdi bilan harakat qilayotgan bir paytda, tarixiy va ma’naviy merosni, o‘zbek xalqi va Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari yaratgan boy ma’naviy qadriyatlarni har tomonlama o‘rgandi. I.M Mo‘minovning Abu Rayxon Beruniy tavalludining 1000 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada “Beruniy – ensiklopedist olim” mavzusida ma’ruzasi qilishi va “Xorazmlik buyuk ensiklopedist” monografiyasining o‘zbek, rus, ingliz va fransuz tillarida nashr qilinishi

olamshumul voqyea bo‘ldi. Xususan u “Biz buyuk xorazmlik olim Beruniyga vatanparvarligi, insonparvarligi uchun, olimning quvonchi va baxtini umuminsoniylik va milliylik, umumiylik va xususiylik birligida ko‘ra olgani uchun buyuk hurmat bilan qaraymiz. Beruniyda vatanparvarlik izchil insonparvarlik bilan uzviy bog‘lanib ketadi”, deb e’tirof etadi. O‘sha davrda o‘tmish mutafakkirlari va olimlarining insonparvarlik salohiyati, qarashlari va ta’limotlaridagi nodir milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida Hech narsa deyilmagan yoki ular inkor qilingan bir vaziyatdagi bu sa’y harakat milliy falsafa rivojidagi dastlabki uchqun bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Nazorat savollari

1. Qadimgi Hindi-Xitoy mintakasida qaysi ta’limotga asoslangan holda vedachilik falsafiy yo‘nalishi vujudga keldi?
2. Konfusiylik va Daochilik falsafiy ta’limotlarining qaysi biri ibtidoiy davrni ideallashtiradi? Buning sabablari nimada?
3. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikdan eramizning VI asrigacha Markaziy Osiyoda madaniyat rivoji qanday holatda taraqqiy etgan?
4. Qadimgi Bobil va Misr falsafiy tafakkuridagi o‘xshashlik va farqli tomonlari qaysi yo‘nalishlarida kurinadi?
5. Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri falsafasidagi asosiy yo‘nalishlarni ko‘rsating.
6. Inson va uning borlig‘i muammosi Farobiy, Beruniy, Ibn Sino falsafiy qarashlarida qanday o‘rinni egallaydi? Izohlab bering.
7. Ma’lumki XI asrda O‘rta Osiyoda tasavvufning Yassaviya tariqati keng tarkaldi. Yassaviya tariqatining keng va tez shuhrat qozonishiga sabab nimada deb o‘ylaysiz?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Tasavvufiy g‘oyalarning falsafiy jihatlari haqida referat tayyorlang.
2. Inson va uning borlig‘i to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plang va tushuntiring.
3. Qadimgi Bobil va Misr falsafiyni kelib chiqishi haqida fikrlarni kursdoshlaringizga aytib bering.
4. Qadimgi Hindi-Xitoy mintakasida qaysi ta’limotga asoslanganligini izohlab bering.

III BOB. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOT BOSQICHLARI:G‘ARB FALSAFASI

3.1. Qadimgi Yunonistonda falsafa ilmining shakllanishi. Sokratgacha bo‘lgan davr falsafasi.

3.2. Xristianlik va Avriliy Avgustin falsafiy ta’limotining vujudga kelishi.

3.3. Ilk o‘rta asrlar falsafiy tafakkur rivojida apologetika, patiristika va sxolastika. Nominalizm va realizm.

3.4. G‘arb Uyg‘onish davri va falsafiy tafakkurining rivojlanish xususiyatlari.

3.5. Yangi va eng yangi davr falsafasining ustuvor yo‘nalishlari va asosiy muammolari. XVIII asr Yevropa falsafasining ma’rifiy xususiyatlari

3.6. XX-XXI asr G‘arb falsafasining oqimlari va ta’limotlar hamda G‘arb faylasuflari ijodida fan falsafasining rivoji.

Tayanch tushunchalar: GerAqlit, Pifagor, Sukrot, Pormenid, Levklip, Demokrit, Aflotun, Arastu, Epikur, Lukresiy Kar.

3.1. Qadimgi Yunonistonda falsafa ilmining shakllanishi. Sokratgacha bo‘lgan davr falsafasi

Qadimgi davr falsafasining yana bir silsilasi Yunoniston va Rimga tegishlidir. Bu davrdagi falsafiy qarashlar antik davr falsafasi deb yuritiladi. Unda Milet falsafiy maktabi, Suqrot, Pifagor, Aflotun, Arju va boshqalarning falsafiy, tabiiy-ilmiy, ijtimliy-axloqiy ta’limotlari o‘rganiladi.

Qadimgi Yunonistonda dastlabki falsafiy ta’limotlar eramizdan avvalgi VII-VI asrlar o‘rtasida Milet shahrida yuzaga kelgan va rivojlangan. Milet maktabi vakillari Fales, Anaksimandr, Anaksmenlardir. Uning asoschisi Fales (yer.av. 624-547 yillar) o‘z davrining yetuk siyosiy arbobi, jo‘g‘rofi, faylasufi bo‘lgan. Fales ta’limotiga ko‘ra, tabiatdagi turli-tuman jism va hodisalar dastlabki ibtido-suvdan paydo bo‘lgan va yana suvga aylanadi hamda bu moddiy birlik doimo o‘zgarishida bo‘ladi. Anasimandr (Falesning shogirdi) (yer.av. 610-546 yillar). U «Tabiat haqida» asarini yozgan, biroq asar bizgacha yetib kelmagan. Fales olamning asossiga suvni qo‘ygan bo‘lsa, Anaksimandr dunyo cheksiz, gazsimon apeyrondan iborat deydi.

Anaksimandrning fikricha, xamma narsa apeyrondan kelib chikadi va ma’lum bir vaqtda apeyronga kaytadi. Apeyronning doimiy harakat qilib turishi, Anaksimandrning fikricha, qarama-qarshiliklarning kelib chiqishi tufayli bo‘ladi, buning natijasida bir xil narsalar paydo bo‘lib, boshqalari yo‘qolib turadi. Dunyodagi bu narsalarning mavjudligi Hech qanday xudolarning ta’siriga muhtoj emas. Anaksimandr qadimgi Yunoniston fanida odamning paydo bo‘lishini isbotlashga uringan olimlardan biri bo‘lib

hisoblanadi. Uning fikricha hayvonlar dunyosi qurib qolgan dengiz ostida paydo bo‘lib, birinchi hayvonlar suvda yashyaganlar keyinchalik qirg‘oqqa chiqqanlar, odamlar esa baliqlardan paydo bo‘lgan.

Milet maktabining keyingi vakili Anaksimen (yer.oldin 585-525 yillar) hisoblanadi. Anaksimen Anaksimandrning shogirdi bo‘lib, uning mavhum materiyasi «apeyron»dan yanyada konkret materiya formasiga – havoga qaytadi. Anaksimenning fikricha, butun narsalar doimiy harakatdagi havodan paydo bo‘lib va yanya havogv qaytib turadi. Siyraklashib, suyuqlashib ketgan havo olovga, suyuqlashib ketgan havo esa yerga, toshga aylanadi. Havo Anaksimenning fikricha, sovuqdan suyuqlashib va issiqdan quyuqlashib turadi. Uning fikricha, xudolarning o‘zlari moddadan-havodan kelib chiqib, kosmik o‘zgarishlar xudolarning ta’siri bilan emas, balki moddaning doimiy o‘zgarishi natijasida paydo bo‘ladi. Qadimgi Yunonistonning efera shahrida (yer.av. 544-583 yillar) Geraklit degan faylasuf yashagan. U qadimgi Yunonistondagi stixiyali dialektikaning asoschisi bo‘lib hisoblanadi.

Geraklit miletchilar singari dunyoning boshlang‘ich asosi deb konkret modda – olovni oladi. Geraklitning fikricha, dunyo qonuniy ravishda alangalanib va so‘nib turuvchi olovdir. «Hamma narsadan tarkib topgan dunyoni, - deydi Geraklit, - xudolardan ham Hech biri yaratmagan, dunyo qonuniyat bilan so‘nadi, abadiy tirik olov bo‘lib kelgan, hozir ham shunday va bundan keyin ham shunday bo‘lajak». Geraklit ta’kidlaganidek: «Hamma narsa mavjuddir va ayni zamonda mavjud emasdir, chunki hamma narsa oqib turadi, hamma narsa doimiy bo‘lish va yo‘qolish jarayonidir». Geraklit o‘zining «hamma narsa oqib turadi, ammo hamma narsa doimo o‘zgarib turadi» degan dialektik fikri bilan dunyoni oqib turadigan daryo bilan taqqos qiladi. Geraklit: «oqib turgan daryoga ikki marta tushib bo‘lmaydi», - deydi. Daryo oqib turishi tufayli, har bir tushganimizda unda yangi suvlar oqib turadi. Geraklitning fikricha, tabiatning doimiy o‘zgarib turishining sababi – narsalarning ichki qarama-qarshiliklaridir. «Hamma narsa kurash orqali maydonga keladi»- deydi Geraklit. Uning fikricha, qarama-qarshiliklar o‘zaro kurash holatida bo‘lib turganlari holda, bir-birlariga o‘tib turadilar. Geraklitning fikricha, doimiy o‘zgarish, harakat va o‘zaro qarama-qarshi tomonlarga o‘tish – jismlar sifatining nisbiyligi bilan bog‘liq. Masalan, Dengiz suvi inson ehtimoli uchun yaroqsiz bo‘lsa baliqlar uchun ayni muddaodir.

Geraklitning fikricha bilish jarayoni kishi sezgi organlari orqali olingan tasavvurlardan boshlanib, tafakkur orqali takomillashadi. Pifagor (yer.av. 580-500 yillar) Yunonistonning Samos orolida yashyab o‘tgan. U qadimgi yunonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya’ni pifagorchilikka asos solgan. Pifagor o‘zining siyosiy qarashlari tufayli podsho Polikret bilan chiqisha olmagan. Va Samosni tark etib, janubiy Italiyaga ko‘chib ketgan,

o‘sha yerda o‘z uyushmasini tashkil etgan. Uningcha, dunyoni bilish jarayoni, avvalo, raqamlarni bilishdan boshlanishi kerak. Pifagorchilarning ta’limotiga ko‘ra, olamning asosida modda ham, tabiat ham emas, balki ideallashgan raqamlar yotadi, narsa va hodisalar aynan ana shu raqamlar mahsulidir. Pifagorchilar birinchi bo‘lib yunonistonda tabiatdagi narsa va hodisalarni izohlashda miqdor kategoriyasini ilgari suradi. Pifagor zodagonlar oilasiga mansub bo‘lgani bois aristokratiyani himoya qilgan. U tartib to‘g‘risidagi ta’minotni yaratib, faqat aristokratlar o‘rnatgan tartib ijtimoiy hayotda muhim rol o‘yonaydi, degan. Uning fikricha, demokratiya bu tartibotning buzilishidir. Yeley falsafiy maktabi namoyandasi Ksenofakt (yer.av. VI-V asr) shoir va faylasuf bulgan. U Kichik Osiyoda dunyoga kelgan. Ilim olish maqsadida Yunonistonga, janubiy Italiyaga sayohat qilib, umrining so‘nggi yillarini eley shahrida o‘tkazgan. Tarixchi Diogen Layertskiyning yozishicha, ksenofont «Tabiat haqida» asarlarining muallifidir. Afsuski, ushbu asarning yarmigina omon qolgan, xolos. U ko‘p xudolika hamda insonlarga xos sifatlarni hayvonlarga, o‘simlik dunyosiga dahldor deb biluvchi ta’limotga qarshi chiqib ltfologiyani rad etishga harakat qilgan. Uning falsafiy ta’limotiga ko‘ra, tabiat- o‘zgarmas va harakatsizdir, «hamma narsa yerdan unib chiqadi va pirovardida yana yerga qaytadi», «biz hammamiz yerdan tug‘ilganmiz va yerga aylanamiz. Ksenofont qadimgi yunon faylasuflaridan birinchi bo‘lib bilishning imkoniyati va chegarasi haqida fikr yuritgan. Bu qadimgi yunon gnoseologiyasining rivojiga turtki bo‘ldi. Qadimgi yunon madaniyatida sofistlar falsafasi katta o‘rin tutadi. Sofistlar antropologiya (inson haqidagi fan) va gnoselogiya (bilish to‘g‘risidagi fan) muamolari bilan щug‘ullangan. Sofistlar yangi kasblarning mohir ustalari, yani o‘qituvchilar, diplomatlar, notiqlar, sud mahkamalarida ishlovchi mutaxassislardan iborat bo‘lib, haqiqat, osoyishtalik, adolat o‘rnatishga xizmat qilgan. Ularning talimoti Suqrot falsafasiga ham ma’lum darajada ko‘rsatgan. Afinaning buyuk faylasufi Suqrot (yer. av. 469-399 yillar) avvalo sofistlar shogirdi bo‘lib, keyinchalik ularning asosiy nuqtai nazarlarini qattiq tanqid qiladi. Odam nima, uning ongi nima? Degan savolga javob axtarish Suqrot faoliyatining asosida yotadi. «O‘z-o‘zingni angla!» Suqrotning yeng sevgan shiori edi. U ongning nafaqat subyektiv, balki obyektiv mazmunga ega ekanligini isbotlamoqchi bo‘ldi, buni u aql deb atadi. Aql yesa faqat individual fikirlargagina ega bo‘lib qolmasdan, yalpi umumiy, barcha uchun majburiy bilimni ham taqozo etadi. Binobarin, bahs vositasi ilk birgalikda haqiqatni izlash kerak, deydi u. Adolat nima ezgulik nima, eng yaxshi davlat qurulishi nima, degan savollarga javob berishga intiladi. Suqrot tadqiqotlari markazida xuddi sofistlar singari inson hayoti, uning jamiyatdagi o‘rni va maqsadi hamda adolatli ijtimoiy tuzim muammosi turadi. Falsafa ezgulik va yovuzlikni aglav olishda odamlarga yordam berishi kerak deb xisoblaydi. U axloqsizlik amalda haqiqatni

bilmaslik natijasidir,degan xulosaga kelgan.Suqrotning shogirdi Aflotin (yer.av.428-347-yillar jahon falsaafaasi tarixida o‘chmass iz qoldirgan buyuk allomadir. Aflotin falsafasi g‘oya asosida g‘oyalar to‘g‘risidagi ta’limot yotadi. Aflotun narsalarining dastlabki asosini g‘oya tashkil qiladi, sezgilar orqali qabul qilinadigan narsalar esa, g‘oyalar dunyosining soyasidir, deb ta’lim beradi.

Aflotun bir-biridan ajralgan ikki dunyo g‘oyalari va narsalar dunyosi bor, odamlar ham narsalar dunyosida yaщaydilar,deb ta’lim beradi. Aflotun fikricha,g‘oyalar, doimiy, o‘zgarmaydi, real borliqqa ega; sezgiorganlarimizda ifodalangan narsalar esa paydo bo‘lib yo‘qolib turiщlari tufayli doimiy o‘zgaruvchan emasdirlar. Uning fikricha,yeng oliy g‘oya-bu xudo to‘g‘risidagi g‘oya. Aflotuning bu fikirlari idealizm bilan din o‘rtasidagi bog‘lanishning yaqqol ifodasidir. Uning aytishicha, sezgi organlarimiz orqali olingan g‘oyalar dunyosi to‘g‘risidagi bilimgina haqiqiy bilim bo‘la oladi. Aflotun o‘zining bilish nazariyasi asosiga doimiy g‘oyalar va o‘tkinchi narsalar dunyosini qo‘yishi tufayli, bilim-g‘oyalar orqali, tasavvur narsalar orqali bo‘ladi, deb tushuntiradi. Shuning natijasida Aflotun sizgi organlarimiz orqali olingan tasavvurlarni bilim sohasidan chiqarib tashlab, sezgi organlarimiz bilan bog‘liq «bo‘lmagan» abstrakt tafakkurgagina haqiqiy bilim bera oladi, deb hisoblaydi. Aflotun abstrakt tafakkurni sezgilarga bog‘liq bo‘lmagan, g‘oyalar dunyosida yashovchi ruhni kishi tamonidan «yeslash» jarayoni natijasida, deb tushuntiradi. Aflotun jamiyat va davlat to‘g‘risidagi ta’lumoti uning dunyoqarashida, markazi o‘rinlardan birini tashkil etadi. U faqat antik davr falsafasi – antologiya va gnoseovogiyaning klassigi bo‘lib qolmay, mumtoz antik siyosiy nazariya va pedogikaning bilimdoni ham bo‘lgan. Aflotun ijtimoiy-siyosiy masalalarga doir «Davlat», «Qonunlar», «Siyosat» va «Kritiy» nomli asarlar yozib qoldirgan. «Davlat» asarida jamiyat haqida, uning ideal siyosiy tuzumi to‘g‘risidagi qarashlarini markaziy ta’limoti-g‘oyalar nazariyasi bilan uzviy bog‘liq holda ilgari surgan. Uning fikricha, davlatning to‘rtta shakli mavjud: teokratiya; oligarxiya; demokratiya; tiraniya. Aflotunning ideal davlat to‘g‘risidagi orzulari negizida adolat g‘oyasi yotadi. Aflotun aytganidek, jamiyat barcha a’zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo‘ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir.Qadimgi Yunoniston olimlari ichida eng ko‘zga ko‘ringan mutafakkirlardan yana biri Arastu (yer. avv.384-322 y) edi. Arastu 20 yil Aflotun akademiyasida ta’lim olib, uch yil mobaynida Iskandar Zulqarnaynning ustozi bo‘lib xizmat qildi. Iskandar Zulqarnayn podsho bo‘lib , Sharqqa yurish qilishi bilanoq Arastu Afinaga qaytdi. Bu yerda u Aflotun akademiyasi bilan birgalikda o‘zining «Likkey» nomli falsafa maktabini tuzdi va shu davrda o‘zining asosiy ilmiy asarlarini yozadi. Falsafani borliqning umimiy xususiyatlari to‘g‘risidagi fan hisoblab, unga «birinchi falsafa» deb nom beradi (keyinchalik «meta-fizika»deb

yurgiziladi.Falsafaga doir «Metafizika», tabiiyot bilimlariga doir «Fizika» va jamiyat hayotiga doir «Davlat», «Siyosat» Arastuning asosiy asarlari hisoblanadi. Arastu zabardast olim bo‘lib mantiq, psixologiya,falsafa, ahloq, notiqlik san’ati, tabiiy fanlar bo‘yicha o‘lmas bebaho asarlar yozib qoldirgan. Uning barcha asarlari borliqni o‘rganishga qaratilgan. Mantiqqa oid asarlarning barchasini “Organon” (“Nurol”) nomli asariga jamlagan. Faylasuf barcha fanlarni ikki turga nazariy va amaliy fanlarga bo‘lgan. Amaliy fanlar shogirdlarga yo‘l yo‘riq ko‘rsatishga ,biror bir foydali ishni amalga yo‘naltirilgan. U nazariy fanlarni uch qismga falsafa (metofizika) ,matematika va fizikaga ajratilgan.

Bu davrning eng ko‘zga ko‘ringan mutafakkirlari Levkipp va Demokritdir. Levkipp (yer.av.500-440 yillar) qadimgi Yunoniston falsafasida deyarli birinchi marta atomistik qarashlarni olg‘a surdi. Uning ta’limoti bo‘yicha dunyodagi butun narsalar juda mayda bo‘linmaydigan moddiy narsalardan, atomlardan («atomas» grek tilida «bo‘linmaydigan») iborat. Bundan tashqari, Levkipp dunyodagi narsalarning paydo bo‘lishi, yo‘qolishini ma’lum zaruriyat va sababiyat bilan bog‘laydi.

Qadimgi Yunoniston falsafasi tarixida yangi yo‘l ochgan buyuk olim Demokrit (yer.av.460-370) yillar. U Misr, Hindiston va Bobil kabi mamlakatlarga sayohat qilib, bu mamlakatlar olimlarining ta’limotlarini o‘rgandi. Demokrit o‘z davrining butun ilmiy boyligini o‘zlashtirgan, har tmonlama keng bilimli faylasuflardan edi. Demokrat ham Levkipp singari dunyoning moddiyligini e’tirof qiladi va uning atomistik ta’limotiga tayanadi. Demokrit dunyoning birinchi va dastlabki asosini atomlar va bo‘shliq tashkil qiladi, deb ta’lim beradi.

3.2. Xristianlik va Avriliy Avgustin falsafiy ta’limotining vujudga kelishi

Yevropada Qadimgi Yunon va Rimdan o‘rta asrlar falsafasigacha, ya’ni miloddan ilgarigi I asrdan milodning XIV asrigacha, bir yarim ming yil davomida bir qancha oqimlar paydo bo‘ldi va amal qildi. Bu davr falsafasida ikki xil jarayonni ko‘rish mumkin: 1. Xristi-anlikning shakllanib davlatdini va mafkurasiga aylannshi. 2. O‘rta asrlarga kelib inkvizisiyaning ustuvor yo‘nalishga aylanishi. Gnostika, apologetika, patristika, realizm, nominalizm va boshqa oqimlar o‘sha davr falsafasining qiyofasini belgilaydi. Bu davr falsafasida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan gnostisizm eramizning 150 yillarida o‘zining yuksak ravnaqiga erishadi. Ular shunday falsafiy ta’limot yaratdilarki, ularning fikricha, Xudo ruh sifatida yovuzlikda mutlaqo sof, inson esa o‘z tabiatining ruhiy jihati bilan xudoga moslashgan. Bu masalada gnostisizm faylasuflari xristianlikni yunon falsafasi bilan birlashtirishga harakat qildilar.

Dualizm — gnostisizmning asosiy yo‘nalishi, bu oqim tarafdorlari moddiy va ruhiy dunyo o‘rtasida mustahkam chegara mavjud, deb ta’kidlaydilar. Ular ta’limotida materiya hamma vaqt yovuzlik timsolidir. Bundan ular Xudo Hech mahal moddiy dunyoni yaratishi mumkin emas, deb xisoblaydilar

Apologetlar xristianlik tarixida I va III asrlarda vujudga keldi. Apologetika so‘zining lug‘aviy ma’nosi "himoya qilish", demaqsir. Apologetlar hukumatning xristianlikka bo‘lgan dushmanligini bartaraf qilishga, Rim davlatining xristianlikni ta’kib qilishi Hech qanday okdashga loyiq emasligini isbotlashga harakat qilganlar, o‘z asarlarida mushriklik (ko‘p Xudolik) adabiyotlaridan olingan bahslashish (dialog) shaklidan yoki apologetikaning mumtoz shaklidan foydalanganlar. Apologetlar asarlarida ikki an’ana yaqqol sezilib turadi. Ya’ni, inkor qilish va tasdiklash. Ular eng avval mushriklar tomonidan xristianlikka qo‘yilgan ayblar — g‘ayriodatiy harakatlar, dabdababozlik kabilarni inkor qilganlar. Xristianlikning sofligini esa tasdiqlaganlar. Bu sohada Yustinning "Birinchi apologeya", "Ikkinchi apologeya" asarlarini. Tulcan va_Anaksagor kabi fayla-suflar faoliyatini ta’kidlash lozim. “Patristika” suzi “ota” (“padre”) so‘zidan kelib chiqqan. Bu nom bilan odatda Yevropada yepiskoplarni ularga hurmat sifatida ataganlar. Sharkda mashhur bo‘lgan cherkov otalaridan biri Ioan Zlatoust (347—407) edi. Uning 640 ta da’vatlaridan ko‘pchiligi avliyo Pavel nomalarinint sharhi edi. Uning asarlarida Injilni amaliy qo‘llash sof axloqiy masalalar bilan qorishib ketgan. G‘arbda eng yirik cherkov otalaridan biri "Pok" degan unvonga sazovor bo‘lgan Avreliy Avgustin (354—430) hisoblanadi. U faylasuf va ilohiyotchi bo‘lgan. Uning o‘sha davrdagi eng mash-hur asarlaridan biri "Sig‘inish" 401 yilda yozilgan. Bu asarda u o‘zining xristianlikkacha bo‘lgan hayotini yozadi. "Bibliya" oyatlari ramziy — timsoliy bayon kilinadi. U mushriklik falsafasini qora-laydi. Uningcha, bu falsafa insonni xristian dinichalik Hech mahal haqiqatga olib kelmaydi. Avgustin bahs shaklida boshqa (dialog) falsafiy asarlar yozgan.

“Sxolastika” so‘zchi yunoncha "shkola"dan ("shola") olingan bo‘lib, "o‘qish joyi", "maktab" ma’nolarini anglatadi. Buyuk Karl saroyida o‘qituvchi-lik qilganlarni yoki umuman saroy maktabidagi o‘qituvchilarni sxo-lastlar deb ataganlar. Shuningdek, dinni o‘rganishda falsafani tatbiq qilgan o‘rta asr olimlarini ham sxolastlar deb ataganlar. Sxolastikani ma’lum darajada ilohiyotni aqlga moslashtirish, dinni tafakkur yordamida quvvatlashga bo‘lgan intilish, deb ham baholash mumkin. O‘sha davrda ilohiyotni muqaddas kitoblar aqidalari asosida emas, balki falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilish toqozo qilinardi. Sxolastlarning maqsadi e’tiqod aqlga muvofiqmi, de-gan savolta javob berish bo‘lgan. Realizm. Uning yirik vakillaridan biri kenterberiyalik Anselm (1038— 1109)dir. U Shimoliy Italiyada tug‘ilgan, 1093 yilda Kenterberiysk shahrining arxiyepiskopi etib

tayinlanadi. Anselm o‘zining ikki asari bilan mashhur. Birinchisi, “Monopoliya” — Xudoning borlig‘ini sabab va oqibat munosabatlari tizimida isbot qilish. Bu isbot — kosmologik isbotning shakli sifatida shunday talqin qilinadi: inson hayotda ko‘p ne’matlardan foydalanadi. Bu ne’matlar esa eng oliy ilohiy ne’matlarning aksidir. Ular orqali hamma narsalar mavjuddir. Uzluksiz tanazzulni tasavvur qilib bo‘lmagani sababli hamma narsaning, bir sababchisi bo‘lishi kerakki, biz uni Xudo deb ataymiz.

Arastu ta’limotining ko‘p tomonlarini qabul qilgan o‘rta asr sxolastlari mo‘tadil realistlar, deb atalganlar. Ularning yirik vakillari Per Abelyar va Foma Akvinskiylar bo‘lgan.Britaniyada tutilgan P. Abelyar (1079— 1142) Per Abelyar juda yoshligidanoq o‘z bilimi bilan mashxur edi. Abelyar — mo‘tadil realistdir. Uning ta’kidlashicha, reallik yoki universaliy dastlab Xudo aklida mavjuddir, undan keyin narsalarnin o‘zida mavjuddir va nihoyat, odamlarning ongida mavjuddir, abelyar “Men e’tiqod qilish uchun bilaman”, degan g‘oyani ilgari surgan. Uning fikricha, insonning o‘limi Xudoni rozi qilish uchun emas, balki odamlarni Xudoga bo‘lgan muhabbat bilan taajjubga solish va odamlarga axloqiy ta’sir ko‘rsatish maqsadida sodir bo‘ladi. Bu bilan odamlar o‘z hayotini xudoga bo‘ysundiradilar. Bu qarash axlo-qiy ta’sir qilish nazariyasi deb ataladi. Foma Akvinskiy (1224—1292) mo‘tadil realizmning yana bir yirik vakili hisoblanadi.

3.3. Ilk o‘rta asrlar falsafiy tafakkur rivojida apologetika, patiristika va sxolastika. Nominalizm va realizm

G‘arb Yevropa feodalizmi sharoitida ham xristian dini hukmronlik qilgan. U o‘zining odamlar aqli va qalbini nazorat qilish markazlashtirilgan tizimini ko‘p sonli tarqoq feodal davlatlarga qarshi qo‘ygan. Bu nazoratni avvalo Rim Papasi boshchiligidagi katolik cherkovi amalga oshirgan. Ayni vaqtda cherkov qadimgi dunyoning «majusiycha» falsafasiga, ayniqsa materialistik ta’limotlarga yot ko‘z bilan qaragan. Ayni shu sababli antik davrning falsafiy merosini o‘zlashtirishga nisbatan xolisona yondashilmagan, bu meros qismlarga bo‘lib o‘zlashtirilgan, asosan diniy aqidalarni mustahkamlovchi idealistik g‘oyalarni tarqatishga yo‘l qo‘yilgan. O‘rta asrlar Yevropasida falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari. G‘arb va Sharq falsafiy tafakkuri XVI asrgacha har biri o‘z yo‘lida rivojlangan: arab musulmon Sharqida va Ispaniyaning arablar istilo qilgan qismida falsafaga dinning ta’siri Yevropa va Sharqiy Osiyodagidan kamroq bo‘lgan. Bu davrda arab musulmon fani rivojlanishda Yevropa fanidan ancha ildamlab ketgan. Xitoyda ham fan, garchi din ta’siri ancha kuchli bo‘lsa-da, Yevropadagidan ilg‘orroq bo‘lgan. Ayrim Sharq faylasuflari o‘z asarlarini antik davr mutafakkiri Demokritning atomlar haqidagi ta’limoti, Empedokl elementlari, Pifagor matematikasi, Platon g‘oyalari, Aristotelning falsafiy va tabiiy-ilmiy merosi, ayniqsa uning mantiq tizimi ta’sirida

vujudga kelgan ilmiy-falsafiy an'ana ruhida yaratganlar. Yevropa falsafasida materializm o'rta asrlarda Sharqdagidek keng tarqalmagan va madaniyatga kuchli ta'sir ko'rsatmagan. U sxolastikada realizm bilan bir qatorda paydo bo'lgan nominalistik falsafa ko'rinishida rivojlangan va avval ayrim narsalar va hodisalar, so'ngra ularning in'ikoslari narsalarning nomlari sifatida talqin qilinuvchi umumiy tushunchalarda mavjud, degan g'oyadan kelib chiqqan. Ammo falsafani ilohiyotga qaram qilishga harakat qilgan din mafkuraning hukmron shakli sanalgan. Ilk o'rta asrlarda falsafiy tafakkur rivojlanishining asosiy shakllari apologetika va patristika bo'lgan. Yevropada, Vizantiyada, Old Osiyo va Shimoliy Afrikaning ellinlashgan markazlarida xristianlikning tarqalishi boshqa diniy va falsafiy oqimlar bilan qattiq kurash jarayonida yuz bergan. Bunda xristianlikka qarshi neoplatonizm falsafasidan keng foydalanilgan. Ayni shu davrda apologetika, ya'ni xristianlikni asoslash va himoya qilish falsafasi sifatida vujudga kelgan.

Apologetika ortidan «cherkov otalari»ning falsafiy ta'limoti – patristika (lot. pater – ota) paydo bo'lgan. Patristikaning eng yorqin vakili Gippon (Shimoliy Afrika)dagi yepiskop Avliyo Avgustin (354-430)dir. U o'rta asrlar falsafasiga, shuningdek falsafiy ijodning keyingi davrlardagi ko'pgina vakillariga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Tarix falsafasini ishlab chiqish ham, garchi atamaning o'zini Volter taklif qilgan bo'lsa-da, Avliyo Avgustindan boshlangan. Antik faylasuflarda «tarixiylik» tushunchasi mavjud bo'lmagan: yunonlar dunyoni estetik jihatdan, mukammal koinot sifatida idrok etganlar. Avgustin esa o'tmish – hozirgi davr – kelajakning o'zaro aloqasini falsafiy jihatdan anglab yetishga harakat qilgan. Hozirgi davr – bir lahza, zero u o'tmishga chekinadi va kelajak sari harakat qiladi. «Insoniy shahar» (jamiyat) hayoti buni tasdiqlaydi.

Avliyo Avgustin asarlari sxolastik falsafaning yaratilishiga asos bo'lgan va uzoq vaqt mobaynida antik falsafani, asosan Platon, Aristotel hamda neoplatoniklar – Plotin, Porfiriy, Prokl, Yamvlix asarlarini o'rganish manbalaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Plotinning universal triadasi – «yagona – aql – jon» sxolast-faylasuflar e'tiborini o'ziga tortgan.

Sxolastika (yunon. schole – maktab) – maktab ta'limida hukmronlik qilgan va ilohiyotga to'la bog'liq bo'lgan o'rta asrlar xristian falsafasi. XI asrda sxolastik falsafa doirasida nominalizm va realizm o'rtasida kurash avj olgan. Dastavval: «Xudo bir, lekin siymolarda uchta: Xudo-ota, Xudo-o'g'il va Xudo-muqaddas ruh, degan fikrni qanday tushunish kerak?», degan sof sxolastik savol o'rtaga tashlangan. Ammo bu savol atrofida avj olgan bahs-munozara uning chegarasidan chetga chiqqan va tom ma'noda falsafiy xususiyat kasb etgan: amalda yakka va umumiy dialektikasining muhokamasiga aylangan. Realistlar «umuman inson», «umuman uy» kabi umumiy tushunchalar – «universaliyalar» mavjudligi to'g'risida so'z

yuritganlar. Ular ayrim narsalarning mohiyati sanalgan universaliyalar narsalargacha amalda mavjud bo‘ladi va narsalarni vujudga keltiradi, deb hisoblaganlar. Bu ashaddiy realizm zamirida Platonning «g‘oyalar dunyosi» va «narsalar dunyosi» haqidagi ta’limoti yotadi.

Nominalistlar «universaliyalar narsalardan keyin vujudga kelgan nomlardir», degan fikrni ilgari surganlar. Ayrim narsalar, masalan, odamlar, uylargina realdir, «umuman inson» yoki «umuman uy» esa faqat so‘zlar yoki nomlar bo‘lib, ularning yordamida odamlar ayrim predmetlarni umumlashtiradilar. Mo‘tadil nominalistlar insoniy tushunchalarda ayrim narsalardagi o‘xshash jihatlarning in’ikosi sifatida umumiylik mavjudligini taxmin qilganlar.

Realizm umumiylikka narsadan oldin paydo bo‘luvchi ideallik sifatida yondashgan, ya’ni amalda umumiy va yakkaning aloqasi to‘g‘risidagi idealistik konsepsiyani ishlab chiqqan bo‘lsa, nominalizm bu muammoni materialistik yo‘l bilan yechishning o‘ziga xos timsoli bo‘lgan.

Shunday qilib, realistlar va nominalistlar o‘rtasidagi bahs falsafiy tus olgan, chunki unda umumiy va yakkaning tabiati muammolari, ularning dialektikasi amalda muhokama qilingan.

3.4. G‘arb Uyg‘onish davri va falsafiy tafakkurining rivojlanish xususiyatlari

Foma Akvinskiy (1225-1274) katolik teologiyani yaratgan va sxolastikani tizimga solgan mutafakkir sifatida e’tirof etiladi. Uning eng mashhur asarlari: «Teologiya yig‘indisi», «Falsafa yig‘indisi», «Majusiylarga qarshi yig‘indi». Ularda muallif asosan Aristotel asarlariga tayanadi. Foma Akvinskiy Aristotel ijodi bilan Sharqqa salb yurishi chog‘ida tanishadi. Uning ontologiyasida borliq ham ehtimol tutilgan, ham amalda mavjud deb qaraladi. Borliq - ayrim narsalarning mavjudligi, ya’ni substansiyadir. Foma Akvinskiy imkoniyat va voqyelik kabi kategoriyalar bilan bir qatorda materiya va shakl kategoriyalarini ilmiy muomalaga kiritadi. Bunda materiya imkoniyat sifatida, shakl esa – voqyelik sifatida qaraladi.

Foma Akvinskiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari ham diqqatga sazovor. U shaxs - «oqilona tabiatdagi eng olijanob» hodisa, deb hisoblagan. Uning fikricha, shaxs aql-zakovat, sezgilar va iroda bilan tavsiflanadi. Aql-zakovat irodadan ustun turadi. Ammo Xudoni bilishni Foma Akvinskiy Xudoga bo‘lgan muhabbatdan keyingi o‘ringa qo‘yadi, ya’ni sezgilar, agar ular oddiy narsalarga emas, balki Xudoga qaratilgan bo‘lsa, aqldan ustun bo‘lishi mumkin.

Foma Akvinskiy o‘zining «Podsholar boshqaruvi haqida» asarida insonga avvalo ijtimoiy mavjudot sifatida, davlatga esa xalq farovonligi haqida g‘amxo‘rlik qiluvchi tashkilot sifatida yondashadi. Hokimiyatning

mohiyatini u axloq, xususan yaxshilik va adolat bilan bog‘laydi va hatto xalqning adolatsiz podsholarga qarshi bosh ko‘tarish huquqi to‘g‘risida so‘z yuritadi.

Foma Akvinskiy ikki qonun: Xudo odamlar ongi va qalbiga joylagan «tabiiy qonun» va cherkovning davlat va fuqarolik jamiyatidan ustunligini belgilovchi «ilohiy qonun» haqidagi muammoni ham muhokamaga kiritadi. Uning fikricha, dunyoviy hayot bo‘lg‘usi ma’naviy hayotga tayyorgarlikdir. Podshoning hokimiyati oliy – ma’naviy hokimiyatga bo‘ysunishi lozim. Bu hokimiyatni osmonda – Iso Masih, Yerda – Rim Papasi boshqaradi. Foma Akvinskiy siyosiy hokimiyat shakllarini muhokama qilar ekan, Aristotel kabi monarxiyani afzal ko‘radi.

Foma Akvinskiy falsafasi XIV asrdan boshlab dominikan sxolastlarining bayrog‘iga aylandi, XVI asrdan e’tiboran iyezuitlar tomonidan targ‘ib qilina boshladi. Iyezuitlarning mafkurachilari Foma Akvinskiy falsafiy tizimini sharhladi va takomillashtirdi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab uning ta’limoti hozirgi zamon falsafiy tafakkurining qudratli oqimlaridan biri sanalgan neotomizm negiziga aylandi.

O‘rta asrlar Yevropasida falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari. G‘arb va Sharq falsafiy tafakkuri XVI asrgacha har biri o‘z yo‘lida rivojlangan: arab musulmon Sharqida va Ispaniyaning arablar istilo qilgan qismida falsafaga dinning ta’siri Yevropa va Sharqiy Osiyodagidan kamroq bo‘lgan. Bu davrda arab musulmon fani rivojlanishda Yevropa fanidan ancha ildamlab ketgan. Xitoyda ham fan, garchi din ta’siri ancha kuchli bo‘lsa-da, Yevropadagidan ilg‘orroq bo‘lgan. Ayrim Sharq faylasuflari o‘z asarlarini antik davr mutafakkiri Demokritning atomlar haqidagi ta’limoti, Empedokl elementlari, Pifagor matematikasi, Platon g‘oyalari, Aristotelning falsafiy va tabiiy-ilmiy merosi, ayniqsa uning mantiq tizimi ta’sirida vujudga kelgan ilmiy-falsafiy an’ana ruhida yaratganlar.

Apologetika ortidan «cherkov otalari»ning falsafiy ta’limoti – patristika (lot. pater – ota) paydo bo‘lgan. Patristikaning eng yorqin vakili Gippon (Shimoliy Afrika)dagi yepiskop Avliyo Avgustin (354-430)dir. U o‘rta asrlar falsafasiga, shuningdek falsafiy ijodning keyingi davrlardagi ko‘pgina vakillariga kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Avgustin «haqiqiy falsafa va haqiqiy din»ni bir deb hisoblagan. Xristianlik asoslarini u Platon falsafasidan topishga harakat qilgan. Uning fikricha, Platon g‘oyalari – «bu ijodkor ijodga kirishish oldidan yuritgan mulohazalar»[3]dir. Xudo dunyoni yo‘qlikdan yaratgan. Inson panoh topishining asosiy yo‘li uning xristian cherkoviga mansubligidir. Xristian cherkovi «ilohiy shahar»ning Yerdagi vakilidir. Avgustin inson faoliyatining

[3] Августин \\ Всеминаря энциклопедия. –М.: Современный литератор, 2001. –С. 177.

ikki qarama-qarshi turini tahlil qiladi: birinchi – «dunyoviy shahar», ya'ni «Xudoga nisbatan nafrat darajasiga ko'tarilgan o'z-o'ziga bo'lgan muhabbatga» asoslangan davlatchilik; ikkinchi – «o'z-o'ziga nisbatan nafrat darajasiga ko'tarilgan Xudoga bo'lgan muhabbat»ga asoslangan «ilohiy shahar». Avgustinning eng mashhur asarlari: «Ilohiy shahar», «Insoniy shahar», «Tavba».

3.5. Yangi va eng yangi davr falsafasining ustuvor yo'nalishlari va asosiy muammolari. XVIII asr Yevropa falsafasining ma'rifiy xususiyatlari

Yangi va eng yangi davr falsafasining ustuvor yunalishlar.Yangi davr falsafasining tabiiy-ilmiy asoslari. XVIII asrdan boshlab tabiatshunoslik jadal sur'atlarda rivojlanadi. Dengizlarda kemalarning yurish ehtiyojlari astronomiyaning rivojlanishini, shaharsozlik, kemasozlik, harbiy ish – matematika va mexanikaning rivojlanishini belgilaydi. Yangi fan avvalo moddiy ishlab chiqarish amaliyotiga: to'qimachilik sanoatida mashinalar ixtiro qilinishiga, ko'mir va metallurgiya sanoatida ishlab chiqarish qurollarining takomillashuviga tayanadi. E.Torrichelli havo bosimi mavjudligini eksperimental yo'l bilan aniqladi, simobli barometr va havo nasosini ixtiro qildi. I.Nyuton mexanikaning asosiy qonunlarini, shu jumladan butun olam tortishish qonunini ta'rifladi. R.Boyl kimyoda mexanikani qo'lladi, kimyoviy element tushunchasini ishlab chiqdi. Ingliz fizigi U.Gilbert magnit xossalarini va uning amalda qo'llanilishini o'rgandi. V.Garvey qon aylanishini kashf etdi va uning rolini empirik usulda tadqiq etdi. R.Dekart va G.Leybnis matematika, mexanika, fizika va fiziologiyaning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Ijtimoiy fanlarda tabiiy huquq nazariyasi ishlab chiqildi (Angliyada T.Gobbs, Gollandiyada G.Grosiy).Fanning bunday rivojlanishi o'z davrining falsafasiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Falsafada sxolastika va dindan uzil-kesil ajralish yuz berdi: diniy aqidalarning hukmronligiga, cherkovning ta'siri va tazyiqiga qarshi kurashda aqlning har narsaga qodirligi va ilmiy tadqiqotning cheksiz imkoniyatlari haqidagi ta'limot vujudga keldi.Yangi davr falsafasiga avvalo tabiatshunoslikdan kelib chiqadigan kuchli materialistik tendensiya xos. XVII asrda Yevropaning yirik faylasuflari qatoriga F.Bekon, T.Gobbs va J.Lokk (Angliya), R.Dekart (Fransiya), B.Spinoza (Gollandiya), G.Leybnis (Germaniya) kiradi. **Yangi davr G'arb va Sharq falsafasidagi asosiy muammolar (ontologiya va gnoseologiya).** Yangi davr, avvalo XVII asr falsafasida ontologiya, ya'ni borliq va substansiya haqidagi ta'limotga katta e'tibor beriladi (ayniqsa harakat, makon va zamon to'g'risida so'z yuritilganda).

Fan va falsafaning vazifasi – insonning tabiat ustidan hukmronligini kuchaytirishga, inson sog'lig'i va go'zalligiga ko'maklashish hodisalarning

sabablarini, ularning muhim kuchlarini o‘rganish zarurligi anglab yetilishiga olib kelgan. Shu sababli substansiya va uning xossalari muammolari Yangi davrning deyarli barcha faylasuflarini qiziqtirgan.Bu davr falsafasida «substansiya» tushunchasini tavsiflashga nisbatan ikki xil yondashuv paydo bo‘lgan: birinchi yondashuv substansiyani borliqning chegaraviy asosi sifatida ontologik tushunish bilan, ikkinchi yondashuv – «substansiya» tushunchasini, uning ilmiy bilim uchun zarurligini gnoseologik jihatdan anglab yetish bilan bog‘liq. Birinchi yondashuv asoschisi – ingliz faylasufi **Frensis Bekon** (1561-1626) substansiya shakllarining xususiyatlariga tavsif bergan va substansiyani muayyan narsalar shakli bilan ayniylashtirgan. Uning fikricha, materiya sariqlik, moviylik, qoramtirlik, iliqlik, og‘irlik va boshqa shunga o‘xshash xossalarga ega. Bular materiyaning eng sodda xususiyatlaridir. Bu xossalarning turli birikmalaridan tabiatning rang-barang narsalari vujudga keladi. F.Bekonning materialistik qarashlari boshqa bir ingliz faylasufi **Tomas Gobbs** (1588-1679) tomonidan tizimga solingan va rivojlantirilgan. Gobbs materiyaga birdan-bir substansiya sifatida yondashgan, barcha hodisalar, narsalar, jarayonlarni bu substansiyaning namoyon bo‘lish shakllari deb hisoblagan. Materiya – abadiy, jismlar va hodisalar – o‘tkinchi: ular vujudga keladi va yo‘q bo‘ladi. Fikrlashni materiyadan ajratib bo‘lmaydi, zero materiyaning o‘zigina fikrlaydi. Jismsiz tana bo‘lmaganidek, jismsiz substansiya ham bo‘lishi mumkin emas. Aynan materiya barcha o‘zgarishlar subyekti hisoblanadi. T.Gobbs o‘zining dunyo haqidagi falsafiy qarashlarida deist sifatida ish ko‘radi. Ammo uning asarlarida ateistik xususiyatga ega bo‘lgan fikrlarga ham duch kelish mumkin. Masalan, u Xudo – inson tasavvurining mahsuli, degan fikrni ilgari suradi. «Tabiiy va siyosiy qonunlarning elementlari» asarida, «Falsafa asoslari» trilogiyasi («Jism haqida», «Inson haqida», «Fuqaro haqida»)da, shuningdek «Leviafan» asarida Gobbs tabiiy aloqalar va qonuniyatlar rolini takror-takror qayd etadi. Ayni vaqtda T.Gobbs Xudoni odamlar hayotidan butunlay chiqarmaydi: uning fikricha, Xudo «hamma narsani ko‘rguvchi va hamma narsani boshqaruvchi», «u barcha sabablarning birinchisi»dir. Gobbs Xudo voqyealarning tabiiy oqimiga aralashmasligini qayd etadi. Substansiyaning bekoncha va gobbscha monistik talqiniga fransuz faylasufi va matematigi **Rene Dekart** (1596-1650) o‘zining dunyoning dualistik talqinini qarshi qo‘yadi. Dekart bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan ikki birinchi asos: nomoddiy yoki «fikrlovchi» substansiya va moddiy yoki «ko‘lamli substansiya» mavjudligini taxmin qiladi. Bu ikki substansiya parallel mavjuddir. Ularni o‘rganish bilan metafizika va fizika shug‘ullanadi. Metafizika avvalo ma’naviy substansiyani, u bilan bog‘liq bo‘lgan bilish va borliq tamoyillarini o‘rganadi. Fizika tabiat falsafasini tadqiq etadi. U dunyoning vujudga kelishi, Yerda hayotning rivojlanishi (tabiat qonunlariga muvofiq) haqidagi ta’limotni o‘z ichiga oladi, hayvonlar va inson tanasining

tuzilishini mexanika qonunlariga bo‘ysinuvchi murakkab mashinalar sifatida o‘rganadi (R.Dekart asarlaridan biri «Hayvon – mashina» deb ataladi). R.Dekartning substansiya haqidagi dualistik ta’limotiga zid o‘laroq, gollandiyalik faylasuf **Benedikt (Barux) Spinoza** (1632-1677) dunyo haqidagi monistik ta’limotni yaratdi. Uning monizmi panteizm ko‘rinishida namoyon bo‘ladi: o‘z ontologiyasida Spinoza Xudo va tabiatni ayniylashtiradi, bunda Xudo yaratuvchi tabiat va yaratilgan tabiat sifatida amal qiladi. Ayni vaqtda B.Spinoza birgina moddiy substansiya mavjud bo‘lib, uning asosiy atributlari ko‘lamlilik va fikrlashdir, degan fikrni ilgari suradi. Shunday qilib, butun tabiat u Xudo bo‘lgani uchungina emas, balki unga fikrlash xos bo‘lgani uchun ham jonli hisoblanadi. Spinoza butun tabiatni jonlantirib, shu tariqa gilozoist-faylasuf sifatida ham namoyon bo‘ladi.

U moddiy substansiya atributlari ham materiya kabi abadiydir: ular Hech qachon vujudga kelmaydi va yo‘q bo‘lmaydi deb hisoblagan. Faylasuf substansiyaning konkret holatlari – moduslarga ko‘p e’tibor beradi. U moduslarni ikki guruhga ajratadi: abadiy, cheksiz moduslar va muvaqqat, chekli moduslar. Cheksiz moduslar substansiya atributlari – fikrlash va ko‘lamlilik bilan, chekli moduslar esa - qolgan barcha narsalar va hodisalar bilan belgilanadi. Spinoza harakat Hech qanday ilohiy turtki mahsuli emasligini isbotlashga harakat qiladi. Uning fikricha, tabiat «o‘z-o‘zining sababi» bo‘lib, harakat uning mohiyati va manbai hisoblanadi. Ammo harakat Spinozada atribut emas, balki modusdir. Bunda harakat muayyan narsalarda kuzatiladi, substansiya esa harakatlanish va o‘zgarish qobiliyatidan mahrum va vaqtga mutlaqo bog‘liq emas.

3.6. XX-XXI asr G‘arb falsafasining oqimlari va ta’limotlar hamda G‘arb faylasuflari ijodida fan falsafasining rivoji

G‘arb falsafasida XIX asr oxirida boshlangan jarayonlar XX asrda uning yangi, hozirgi noklassik tipi vujudga kelishi bilan yakunlandi.

Hozirgi G‘arb noklassik falsafasi muayyan yaxlitlik, birlikni, ifoda etuvchi falsafiy tafakkur shakllanishining o‘ziga xos bosqichidir. Unda ayrim asosiy yo‘nalishlar – pozitivizm, neopozitivizm, strukturalizm va hokazolar farqlanadi.

Ssiyentistik tendensiya falsafani ijtimoiy fanga aylantirish va dunyoqarash masalalaridan xalos bo‘lishga intilish bilan bog‘liq. Uni avvalo pozitivizmning har xil, shu jumladan sosiologiya sohasidagi shakllari ifoda etadi.

Ularga falsafaning ijtimoiy bilim uchun ilmiylikning yagona andozasini yaratishga harakat qiluvchi yo‘nalishi – strukturalizm yaqin turadi.

Antissiyentistik, ko‘p jihatdan irrasionalistik tendensiya fan salbiy ijtimoiy va tabiiy jarayonlarga sabab bo‘lib, ong va bilishning boshqa

noilmiy shakllarini chetga chiqarib qo‘yishidan kelib chiqadi. Falsafiy mulohaza yuritishning bu tipi avvalo hayot falsafasi, ekzistensializm va germenevtikani o‘z ichiga oladi.

Mavhum-metafizik tendensiya falsafani borliq va bilishning teran asoslarini aniqlovchi «mutlaq fan» sifatida tasavvur qilish bilan bog‘liq. Falsafa o‘z mazmunini ijtimoiy fanlarning dalillari va qonunlaridan qat’iy nazar keng ifodalaydi, deb hisoblanadi. Bu tendensiyani diniy falsafaning turli yo‘nalishlari ifoda etadi. Bunga fenomenologiya yo‘nalishi ham yaqin turadi.

Endi hozirgi zamon G‘arb falsafasining muammolari tahlil qilinuvchi eng nufuzli yo‘nalishlarini ko‘rib chiqamiz.

Pozitivizm falsafaning keng tarqalgan yo‘nalishlaridan biridir. Uning muammolari ilmiy bilimning falsafiy tahlili atrofida jamlanadi.

Pozitivizm soxta bilimdan haqiqiy bilimni ajratishga harakat qiluvchi ijobiy bilimning falsafiy doktrinasini anglatadi.

Bunday ijobiy bilimlar ayrim fanlarni bilish bilan tenglashtiriladi: pozitivizmga dunyoqarash muammolarini o‘z ichiga oluvchi an’anaviy falsafaga nisbatan o‘ta salbiy munosabat xosdir.

Pozitivizmning birinchi tarixiy shakli XIX asrning 30-40-yillarida vujudga kelgan. Unga fransuz faylasufi **O.Kont** asos solgan.

Pozitivizmning ikkinchi tarixiy shakli – **empiriokritisizm** XIX–XX asrlar chegarasida yuzaga keldi. Uning eng mashhur namoyandalari – **E.Max** (1838-1916) va **R.Avenarius** (1843-1896). Ilk pozitivizmdan farqli o‘laroq, empiriokritisizm falsafaga «ikkinchi pozitivizm»ni sintez qiluvchi fan sifatida yondashadi, uni bilish nazariyasiga bog‘laydi. Empiriokritisizm «tajriba tanqidi» degan ma’noni anglatadi va «tajribani metafizik tabiatni o‘zgartiruvchi barcha qoidalardan tozalash»ni nazarda tutadi. E.Max fikriga ko‘ra, tajriba amalda «dunyo elementlari» hisoblanuvchi sezgilardan iboratdir.

Neopozitivizm metafizik farazlarni aniqlash ishida verifikasiya tamoyili muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlagan. Biroq bu tamoyil o‘zini oqlamadi, chunki u fan tuzilishi va dinamikasiga mos kelmasdi. Verifikasiya tamyiliga qarshi quyidagi e’tirozlar mavjud:

Fanda tajribada sinash mumkin bo‘lmagan bilimlar hanuzgacha mavjud. Biroq ularni keyinchalik, kuzatish va eksperiment texnikasi rivojlanganidan so‘ng tekshirish imkoniyati paydo bo‘lishi mumkin. masalan, O.Kont osmon jismlarining kimyoviy tarkibi haqidagi masalani metafizik masala deb hisoblagan. U mazkur masalaning yechimini topish mumkin emasligini qayd etgan. Kont vafotidan so‘ng oradan ikki yil o‘tgach spektral analiz paydo bo‘ldi va uning yordamida osmon jismlarining kimyoviy tarkibi aniqlandi.

Fanni o‘rganish sohasidagi falsafiy yo‘nalish sifatida, Neopozitivizm, 50-yillar oxiri – 60-yillarning boshlarida o‘z nufuzini yo‘qotdi, va shu davrda «To‘rtinchi pozitivizm» yoki postpozitivizm maydonga chiqdi. Uning eng mashhur namoyandalari qatoriga K.Popper, I.Lakatos, T.Kun, S.Tulmin, P.Feyerabend, D.Agassini kiritish mumkin.

Postpozitivizm. Postpozitivizmning neopozitivizm bilan g‘oyaviy aloqasi shunda ifodalanadiki, ular asosan ilmiy bilim tahlili bilan shug‘ullangan, tilga katta e’tibor bergan. Biroq, mantiqiy pozitivizm asosan mavjud ilmiy bilim tuzilishini o‘rganishga e’tiborni qaratgan bo‘lsa, postpozitivizmning bosh muammosini ilmiy bilim dinamikasi tashkil etadi. Bu o‘zgarish fanni falsafiy o‘rganish masalalari doirasining ham o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Postpozitivizmni avvalo ilmiy bilimning ijtimoiy-madaniy omillari, yangi nazariyalarning yuzaga kelishi, ularning olimlar hamjamiyati tomonidan qabul qilinishi, raqobatlashuvchi ilmiy konsepsiyalarni taqqoslash va tanlash mezoni qiziqtiradi.

Agar mantiqiy pozitivizmga empirik bilimni ishonchli va barqaror bilim sifatida ishonchsiz va o‘zgaruvchan nazariy bilimga qarshi qo‘yish xos bo‘lsa, postpozitivizm esa, aksincha, bilimning bu ikki darajasi bir-biriga o‘tishi haqidagi qarash xosdir zero postpozitivizm ta’limoti nazariyaning empiriyaga ta’siri kuchli emasligi, dalillarni aniqlash uchun nazariya talab etilishi, shu sababli dalillar nazariyaga ma’lum darajada bog‘liq bo‘lishi yoki hatto ularni belgilashi yoritib berilgan.

Postpozitivizm konsepsiyasining navbatdagi xususiyati – shundaki ilmiy bilimning rivojlanishini talqin qilishda kumulyativizmdan voz kechilgan. Ilk pozitivizm ilgari surgan kumulyativistik yondashuv fanning izchil rivojlanishi, bilimlarning asta-sekin to‘planib borishini nazarda tutadi. Postpozitivizm fan haqidagi bunday tasavvurdan voz kechadi. U fan tarixida inqilobiy o‘zgarishlar yuz berishi muqarrarligini asoslashga harakat qiladi. Postpozitivistlar fikriga ko‘ra, inqilob natijasida fanda ilgari e’tirof etilgan va asoslangan bilimlar, nafaqat nazariyalar, balki metodlar va omillar ham qayta ko‘riladi.

Uchinchi va to‘rtinchi pozitivizm o‘rtasida fanni soxta fan (metafizika)dan farqlash masalasida ham jiddiy tafovutlar mavjud. Pozitivizm metafizikani fandan chiqarib tashlashni bosh vazifalaridan biri deb hisoblagan. Postpozitivizm esa ilmiy bilim va falsafa o‘rtasida qat’iy chegara o‘tkazishdan bosh tortadi. U falsafiy qoidalarning asosliligini va ularni fanlardan chiqarib tashlash mumkin emasligini tan oladi. Fan falsafasida keng qo‘llaniluvchi «paradigma» (T.Kun), «ilmiy tadqiqot dasturi» (I.Lakatos) kabi tushunchalar falsafiy (metafizik) unsurlardan iborat. Shuningdek, postpozitivizmning ayrim namoyandalari (P.Feyerabend) fan, falsafa va afsona o‘rtasida biron-bir farqni ko‘rishdan butunlay bosh tortadi.

Postpozitivizm fan tashqi (ijtimoiy, madaniy) omillar bilan belgilanishi haqidagi g‘oyani tan oladi. Bu jihatdan ham postpozitivizm mazkur falsafiy yo‘nalishning oldingi shakllaridan ancha farq qiladi. Quyida postpozitivizm vakillarining qarashlari bilan tanishamiz.

Nazorat savollari

1. Qadimgi Yunoniston falsafasini o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
2. Milet falsafiy maktabi namayondalaridan qaysi biri suvni asos qilib olgan? Sababini izohlab bering?
3. Inson ongini ruhiy tahlil qilish yangi davr Yevropa falsafasida nima uchun muhim o‘rinni egalladi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. XX – XXI asr falsafasining oqimlari haqida referat tayyorlang.
2. Yangi davr G‘arb va Sharq falsafasidagi asosiy muammolar (ontologiya va gnoseologiya). ma’lumotlar to‘plang va tushuntiring.
3. Qadimgi Yunonistonda dastlabki falsafiy ta’limotlari kelib chiqishi haqida fikrlarni kursdoshlaringizga aytib bering.
4. Apologetika ta’limotni izohlab bering.

IV BOB. BORLIQ (ONTOLOGIYA) VA RIVOJLANISH FALSAFASI

4.1. Falsafa tarixida borliq muammosi.

4.2. Borliq shakllarining tasnifi: tabiat borlig'i va ma'naviy borliq, ijtimoiy borliq va inson borlig'i.

4.3. Falsafada substantsiya va materiya muammosi.

4.4. Falsafada makon, vaqt, harakat va rivojlanish masalalari.

Tayanch tushunchalar: borliq, ontologiya, substantsiya, materiya, atribut, harakat, ong, inikos, fazo va vaqt.

4.1. Falsafa tarixida borliq muammosi

Biz dunyo, materiya tuzilishi, makon, vaqt, harakat, hayot, ong va shu kabilar haqida tasavvur hosil qilish uchun asosan fizika, astronomiya va biologiya kabi tabiatshunoslik fanlariga murojaat etamiz. Lekin bu falsafada borliq muammolari o‘rganilmaydi, degan ma’noni anglatmaydi.

Bugungi kunda olimlar notirik, tirik dunyo va ijtimoiy dunyo nima, degan savollarga javob to‘ishda jiddiy yutuqlarga erishganlar. Ular dunyo haqida o‘tgan asrlarda yashagan o‘z hamkasblariga qaraganda to‘laroq va teranroq tasavvurga egadirlar. Ammo, dunyoning mohiyati haqidagi ko‘pgina muhim savollarga hozir ham aniq va uzil-kesil javoblar mavjud emas. Masalan, nafaqat makon yoki vaqt tushunchalariga, balki nisbatan soddaroq hodisa bo‘lmish gravitatsiya tushunchasiga ham dunyoda biron-bir fizik bugungi kunda ham aniq (ayni paytda tajribada tasdiqlanadigan) ta’rif bera olmaydi.

Shu sababli insonning dunyo haqidagi qarashlarida muhim rol oynaydigan, biroq ilmiy yechimini topmagan muammolarni falsafiy anglab yetishga kuchli ehtiyoj doimo mavjud bo‘lgan va hozir ham saqlanib qolmoqda. Bu muammolarning aksariyati haqli ravishda «boqiy» muammolar deb ataladi, chunki ular predmeti mos kelsa ham bilish metodlari va vositalari har xil bo‘lgan fan va falsafa e’tiborini o‘ziga jalb qilmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, fizika va boshqa muayyan fanlarga joiz bo‘lmagan narsalar falsafa uchun joizdir. Aniq dalillarga tayanadigan va ularga muvofiq qarashlar birligiga erishishga harakat qiladigan tabiatshunoslikdan farqli o‘laroq, falsafa yakdillikka intilmaydi va ayni bir muammolar boyicha ba’zan qarama-qarshi, bir-birini istisno etuvchi javoblar beradi. Shu tariqa u dunyoqarashni kengaytiradi, eski muammolarning odatdagi talqinini o‘zgartiradi, aniq fanlarning metodlari bilan amalga tatbiq etiladigan yangi yechimlar ustida ijodiy izlanishga da’vat etadi.

Falsafa tarixida borliq muammosi. O‘quv kurslarida asosiy falsafiy muammolarni o‘rganish odatda ontologiyadan boshlanadi. Ontologiya falsafiy bilimlarning alohida sohasi bo‘lib, unda borliq va yo‘qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalarning keng doirasi o‘rganiladi, Shuningdek mavjudlik sifatiga ega bo‘lgan barcha narsalarning mohiyati aniqlanadi. «Ontologiya» atamasi falsafada faqat XVII asrdan beri ishlatiladi, lekin u yunoncha o‘zaklarga ega bo‘lib (ontos – borliq, logos – so‘z, ta’limot), borliq haqidagi ta’limot degan ma’noni anglatadi. Ontologiya falsafada alohida o‘rin egallaydi. Ikki yarim ming yillik faol falsafiy izlanishlar natijasida falsafiy bilim tizimida ontologiyadan tashqari falsafaning muhim falsafiy mazmun kasb etadigan gnoseologiya, aksiologiya, ijtimoiy falsafa, axloq, estetika, mantiq kabi tarkibiy qismlari paydobo‘ldi. Lekin ularning barchasi zamirida ontologiya yotadi. O‘z navbatida ontologiya har qanday falsafiy dunyoqarashning negizi hisoblanadi va shu tariqa o‘z tarkibiga kirmaydigan boshqa falsafiy muammolar talqinini ko‘p jihatdan belgilaydi.

«Borliq» kategoriyasi. Aksariyat falsafiy tizimlarning kategoriyalar a’’aratini tashkil etadigan ko‘p sonli falsafiy kategoriyalar orasida «borliq» kategoriyasi doimo markaziy o‘rinni egallaydi. Chunki u har qanday predmet , hodisa, voqea va shu kabilarning eng muhim xususiyatini, aniqroq aytganda, ularning mavjud bo‘lish, bevosita yoki bilvosita namoyon bo‘lish, o‘zaro ta’sirga kirishish qobiliyatini aks ettiradi.

Bu inson o‘zligini va o‘zini qurshagan borliqni anglashga ilk urinishlaridayoq duch keladigan har qanday ob’ektning, borliq har qanday qismining umumiy xossasidir.

Inson aqlli jonzot sifatida shakllanish jarayonining ilk bosqichlaridayoq o‘z dunyoqarashining negizini tashkil etadigan muhim savollarga javob to‘ish zaruriyati bilan to‘qnash keladi:

1. «Men kimman?»
2. «Meni qurshagan borliqning mohiyati nimada?»
3. «Borliq qanday va qaerdan paydobo‘lgan?»
4. «Dunyoni nima yoki kim harakatlantiradi?»
5. «Dunyoning rivojlanishida biron-bir maqsadga muvofiqlik, maqsad, mo‘ljal bormi?»

Inson bunday savollarga javob berishga kirishar ekan, uning ongi avvalo o‘zi nima bilan bevosita ish ko‘rayotganini qayd etadi. Buni aniq anglamasdan, u o‘zining dunyo haqidagi mulohazalarini aniq-ravshan narsalarni qayd etishdan boshlaydi. Shu tariqa inson va uning ongi o‘zini qurshagan barcha narsalar avvalo mavjud bo‘lish qobiliyatiga ega ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Shunday qilib, borliq masalasi insonning dunyoni oqilona anglash yo‘lidagi ilk urinishlaridayoq duch kelgan barcha masalalarning negizi

hisoblanadi. Muayyan narsalar mavjudligi yoki mavjud emasligi masalasi inson falsafiy mulohaza yurita boshlagani zahotiyoq uning diqqat markazidan o‘rin oldi. Mifologiyaning bosh vazifasi – «borliqni kim yaratgani» haqida ga’irib berishni falsafa «borliqning nimaligi, u qaerdan paydobo‘lgani va qaerga yo‘qolishi»ni oqilona tushuntirish bilan almashtirgani tasodifiy emas. Bunday tushuntirishga urinish jarayonida faylasuflar barcha zamonlarda quyidagi savollarga javob to‘ish zaruriyati bilan to‘qnash kelganlar:

- falsafiy kategoriya sifatidagi «borliq» nima?
- bu atama nimaga nisbatan tatbiq etilishi mumkin?
- unga qanday falsafiy ma’no yuklanadi?

Bu savollarga keng javob berish falsafa tarixiga ham, mazkur tushunchaning etimologiyasiga ham murojaat etishni nazarda tutadi. Mazkur dastur boyicha ta’lim oluvchilar tarixiy-falsafiy kurs bilan tanish bo‘lishlari lozimligini hisobga olib, bu yerda faqat falsafiy tafakkur tarixiga qisqacha to‘xtalamiz va mazkur muammoni anglab etish jarayonidagi muhim bosqichlarinigina qayd etamiz.

Borliq va yo‘qlik dialektikasi. Keltirilgan fikr amalda mavjud narsagina borliqqa ega bo‘lishi mumkin, degan xulosa chiqarish imkonini beradi. «Yo‘qlik» har qanday tilda amalda mavjud bo‘lmagan narsa bilan tenglashtiriladi va boshqacha tuShunilishi mumkin ham emas. Boshqacha aytganda, yo‘qlik borliqni inkor etadi va narsa, jism, hodisa, ong... (ya’ni amalda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsalar) o‘zligini yo‘qotgan holda «yo‘qlik» atamasi ayni shu ma’noda ishlatiladi va ular haqida ular «yo‘qlikka chekindi», mavjud emas, deyiladi.

4.2. Borliq shakllarining tasnifi: tabiat borlig'i va ma'naviy borliq, ijtimoiy borliq va inson borlig'i

Inson barcha jonli narsalar jonsiz narsalardan butunlay farq qilishiga qadimdayoq e’tibor bergan, lekin buni ancha keyin tuShunib ketgan. O‘z navbatida, jonli narsalar dunyosida inson alohida o‘rin egallaydi. U barcha jonli narsalardan butunlay farq qiladi. Insonning bu asosiy farqi uning ongida, ideal obrazlar bilan ish ko‘rish, ya’ni abstrakt fikrlash va o‘zini fikrlovchi jonzot sifatida anglash qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, borliqning umumiy manzarasini yaratish zaminidan notirik tabiat o‘rin oladigan o‘ziga xos ‘iramida hosil bo‘ladi. ya’ni borliqning shakllari notirik tabiat, tirik tabiat, ijtimoiy borliq va inson borlig‘i kabilardir. So‘nggi yillarda virtual borliq shakli haqida fikr yuritilmoqda. Borliqning bu umumiy shakllari o‘ziga xos xususiyatga, o‘zining betakror mohiyatiga egadir.

Tabiat borlig'i. U mufassallashtiriladi va o'z navbatida ,birlamchi tabiat borlig'i (ya'ni inson va uning faoliyatidan qat'i nazar mavjud bo'lgan narsalar va jarayonlar borlig'i) va ikkilamchi (yoki odamlar tomonidan yaratilgan narsalar va jarayonlar borlig'i)ga bo'linadi. Birlamchi tabiat notirik tabiat narsalari va jarayonlarining borlig'i – bu butun tabiiy va sun'iy dunyo, shuningdek tabiatning barcha holatlari va hodisalari (yulduzlar, sayyoralar, yer, suv, havo, binolar, mashinalar, aks sado, kamalak, ko'zgudagi aks va sh.k.)dir.

Birlamchi tabiat borlig'i ikki darajani o'z ichiga oladi.

Birinchi daraja jonli ruhsiz jismlardan, ya'ni ko'payish qobiliyatiga ega bo'lgan, atrof muhit bilan moddalar va energiya almashinuvini amalga oshiradigan, lekin ongga ega bo'lmagan barcha narsalar, ya'ni sayyoramiz hayvonot va o'simliklar dunyosini o'z ichiga olgan butun biosferadan iborat.

Ikkinchi daraja – bu inson va inson ongining borlig'i bo'lib, bu: ikkilamchi tabiat inson yaratgan yoki o'zgartirgan tabiatdir.Tabiat makon va vaqtda cheksiz hamda abadiydir. Ikkinchi yoki inson tomonidan yaratilgan tabiat birinchi tabiatga bog'liq. Bir tomondan, ikkinchi tabiatda birinchi tabiat materiali, boshqacha aytganda ob'ektiv, birlamchi borliq mujassamlashgan, boshqa tomondan esa – unda insonning mehnati, irodasi va bilimlari, uning qalbi o'z ifodasini to'gan. Ikkilamchi tabiat – bu mehnat qurollari va sharoitlari, aloqa vositalari, inson ruhining ehtiyojlari, ma'rifatli borliq, moddiy va ma'naviy madaniyatni belgilovchi barcha narsalar va jarayonlardir.

Inson borlig'i inson tabiatning bir qismi hisoblanadi va shu ma'noda uning qonunlariga boysunadi. Tananing mavjudligi inson o'limga mahkum ekanligini belgilaydi. Inson borliq va yo'qlik dialektikasi bilan bog'lanadi, barcha tabiat jismlari kabi vujudga kelish, shakllanish va halok bo'lish holatlaridan o'tadi. Barcha tabiat jismlari kabi, inson tanasiga ham modda va energiyaning saqlanish qonunlari o'z ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni uning tarkibiy qismlari tabiatning boshqa holatlariga o'tadi. Inson tanasi mavjud bo'lishi uchun uni muttasil quvvatlash (ovqatlanish, sovuqdan va boshqa xavf-xatarlardan saqlash) talab etiladi. Fikrlash uchun inson tanasining tirikligini ta'minlash zarur. Bundan hayotni saqlash, insonning o'z-o'zini saqlashi va insoniyatning yashovchanligini ta'minlash zaruriyati kelib chiqadi, bu oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turar joy, sof atrof muhitga ega bo'lish ehtiyojida o'z ifodasini to'adi;

Ma'naviy borliq sub'ektiv individuallashgan va ob'ektiv (noindividual) ma'naviy borliq sifatida mavjud. Individuallashgan ma'naviy borliq - bu insonning ichki dunyosi. U onglilik va ongsizlikni qamrab oladi. Bunday yondashuvga ko'ra, ruh – individual ong bilan ayniy tushuncha, tor ma'noda esa u tafakkurdir. Ong – inson bosh miyasining dunyo borlig'ini izchil aks ettirish, uni obrazlar va tushunchalarga aylantirish qobiliyati. U

taassurotlar, sezgilar, kechinmalar, fikrlar, shuningdek g‘oyalar, e’tiqodlar, qadriyatlar, mo‘ljallar, andozalarning ko‘rinmas jarayoni sifatida mavjud.

Ijtimoiy borliq ayrim insonning jamiyatdagi borlig‘i va jamiyatning o‘z borlig‘iga bo‘linadi. Har bir inson boshqa odamlar bilan muttasil aloqa qiladi, turli ijtimoiy guruhlar: oila, ishlab chiqarish jamoasi, millatning a’zosi hisoblanadi. U boshqa individlar bilan yaqin aloqa qilib yashaydi. Odamlarning barcha faoliyati mazkur sotsiumga xos bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar, chunonchi: siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, axloqiy va boshqa munosabatlar doirasida amalga oshiriladi.

Xullas, «borliq» kategoriyasi o‘ta umumiy falsafiy abstraktsiya bo‘lib, u turli-tuman tabiat hodisalari va jarayonlarini, odamlar jamoalari va ayrim kishilarni, ijtimoiy institutlarni, inson ongining darajalari, shakllari va holatlarini mavjudlik belgisiga ko‘ra birlashtiradi. Garchi bu hodisalar va jarayonlar borliqning turli sohalariga taalluqli bo‘lsa-da, ularning barchasini umumiy asos birlashtiradi. Ammo cheksiz darajada rang-barang dunyoning yagonaligi to‘g‘risida so‘z yuritish mumkinmi? Bu savolga «ha» deb javob berish orqali biz butun borliqning umumiy asosi haqida tasavvur hosil qilamiz. Bu haqda keyingi paragrafda so‘z yuritiladi.

Virtual borliq tushunchasi. *Virtual borliq - inson real borliqda harakat qilayotgani illyuziyasini komyuterda yaratish imkonini beruvchi interfaol texnologiya.* Bunda ob’ektiv borliqni tabiiy sezgi organlari yordamida idrok etish o‘rnini maxsus interfeys, komyuter grafikasi va ovoz vositasida sun’iy yaratilgan komyuter axboroti egallaydi. Virtual borliq amalda yo‘q narsa, uni qo‘l bilan tutish, uning ta’mi va hidini his qilish mumkin emas. Shunga qaramay, u mavjud va inson bu xayoliy olamga kirib, uni nafaqat kuzatadi va boshdan kechiradi, balki unga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi, ushbu olamda mustaqil harakat qiladi, uni o‘zgartira oladi. *Virtual olam – inson borlig‘ining o‘ziga xos shakli va odamlar ma’naviy aloqasining alohida madaniy shaklidir.*

«Virtual borliq» atamasi 1970 yillarning oxirida Massachuset texnologiya institutida Jeron Lener tomonidan oylab to‘ilgan. U 1984 yilda dunyoda birinchi virtual borliq firmasini tashkil etdi. Bu atama kompyuterda yaratiladigan muhitda insonning mavjudligi g‘oyasini ifoda etadi. Virtual (lotincha Virtualis – mumkin bo‘lgan) – narsalar va hodisalarning zamon va makonda moddiy mavjudligiga qarama-qarshi o‘laroq, ob’ektiv narsalar yoki sub’ektiv obrazlar mavjudligining nomoddiy turi. «Virtual borliq» atamasi muomalaga amerikalik kinematografchilar tomonidan kiritilgan. Ular muayyan sabablarga ko‘ra tabiiy yo‘l bilan amalga oshirib bo‘lmaydigan xayoliy imkoniyatlarni belgili-grafik shaklda sun’iy amalga oshirish mumkinligi haqidagi kinolentani Shu nom bilan chiqarganlar.

4.3. Falsafada substantsiya va materiya muammosi

Falsafa tarixida o‘zining mavjudligi uchun o‘zidan boshqa hech narsaga muhtoj bo‘lmagan birinchi asosni ifodalash uchun «substantsiya» (lot. substantia – mohiyat, asos) kategoriyasi qo‘llaniladi. Ilk falsafiy yo‘nalishlarning vakillari barcha narsalar asosini tashkil etuvchi moddani birinchi asos sifatida tushunganlar. Odatda, bunday asos sifatida o‘sha davrda umumiy e’tirof etilgan birinchi stixiyalar: yer, suv, havo, olov yoki fikriy konstruktsiyalar, «birinchi g‘ishtlar» - apeyron, atomlar qaralgan. “Avesto”da birlamchi substantsiya olov deb atalgan. Keyinchalik substantsiya kategoriyasi o‘zgarmas, nisbatan barqaror va hech narsa bilan bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud o‘ta keng asosga aylandi. Inson idrok etadigan dunyoning butun rang-barangligi va o‘zgaruvchanligi substantsiya bilan bog‘lana boshladi. Bunday asoslar sifatida falsafada asosan materiya, Xudo, ong, g‘oya, flogiston, efir va shu kabilar amal qilgan.

«Substantsiya» tushunchasi o‘z-o‘zini to‘liq belgilovchi borliqni ifodalashga xizmat qiladi. Substantsiya kategoriyasida o‘zini asoslash uchun boshqa hech narsani talab qilmaydigan negiz, birinchi asos g‘oyasi mujassamlashgan. Niderland faylasufi Benedikt Spinoza (1632-1677) buni «causa sui» – «o‘z-o‘zining sababchisi» iborasida juda to‘g‘ri ifodalagan. Substantsiya deganda u o‘z holicha mavjud bo‘lgan va o‘zi orqali zohir bo‘lgan, ya’ni o‘zining mavjudligi uchun boshqa narsaga muhtoj bo‘lmagan narsani tushungan. Bunda bir tomondan, substantsiya materiya sifatida tushuniladi, boshqa tomondan – u o‘zining barcha shakllari sababi va «sub’ekti» sifatida amal qiladi.

Falsafa tarixida substantsiyaga monistik, dualistik, plyuralistik yondashuvlar. Substantsiya g‘oyasidan turli falsafiy ta’limotlar dunyoning birligi va uning kelib chiqishi haqidagi masalaga o‘zlari qanday javob berishiga qarab har xil foydalanadilar.

Monizm. Dunyoning narsalar va hodisalar rang-barangligi bir substantsiyadan iborat degan ta’limot «monizm» (yunon. monos – bitta, yagona) deb ataladi. Dunyoning kelib chiqishi va mohiyati haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar, shuningdek birinchi asos muammosiga nisbatan falsafa tarixidagi eng salmoqli yondashuvlar kurashi nuqtayi nazaridan substantsiya tabiatini tushunishga nisbatan ancha keng tarqalgan ikki yondashuv – materialistik va idealistik monizmni qayd etish lozim.

Materialistik monizm dunyo yagona va uzviy, u azaldan moddiy va dunyoning birligi zamirida ayni Shu moddiylik yotadi, deb hisoblaydi. Bu kontseptsiyalarda ruh, ong va ideallikdan emas, balki moddiylikdan keltirib chiqariladi. Bunday yondashuvlarning o‘ta rivojlangan ko‘rinishlariga biz Fales, Geraklit, Spinoza va uning izdoshlari asarlarida duch kelamiz.

Idealistik monizm esa, materiyani har qanday borliqning boqiy mavjudligi, yo‘q bo‘lmasligi va birinchi asosiga ega bo‘lgan qandaydir ideal narsaning mahsuli deb hisoblaydi. Bunda ob’ektiv-idealistik monizmni (masalan, Platonda – bu o‘lmas g‘oyalar, zardo‘shtiylikda olov, o‘rta asr falsafasida – Xudo, Gegelda – yaratilmaydigan va o‘z-o‘zidan rivojlanadigan «mutlaq g‘oya») va sub’ektiv-idealistik monizmni (masalan, borliqning barcha jismoniy va ruhiy holatlarini «neytral» asosdan – dunyoning qandaydir mavhum konstruktsiyalari, «elementlari»dan keltirib chiqargan) farqlash mumkin.

Dualizm birinchi asos sifatida ikkita substantsiya olingan falsafiy yondashuv (lot. dualis – ikki yoqlama). Nemis faylasufi X.Volf XVIII asr boshida «dualizm» atamasini falsafiy muomalaga kiritgan. X.Volf dunyoda barqaror tartibning shakllanishida tafakkur, g‘oyalar va aql-idrokning alohida o‘rnini aniqlashga harakat qilgan. X.Volfning falsafaga oid qo‘llanmalari barcha o‘quv yurtlarida o‘qitilgan va eskirgan (sxolastik) jihatlarni siqib chiqargan. Ular universitet ta’limining asosiy manbalari sifatida amal qila boshlagan.

Ikki substantsiya – ma’naviy va moddiy substantsiyalarni farqlash, bu mantiqiy nuqtayi nazardan noto‘g‘ri va ratsional ma’noda juda ko‘p qiyinchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Fikrlash va ko‘lamga ikki substantsiya tarzida, ya’ni bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan mustaqil asoslar sifatida yondashilganida, «ruh» va «tana» o‘z harakatlarida qanday uyg‘unlashishi, umuman, «tana» qanday qilib fikrlash qobiliyatini kasb etishi mumkinligini tushunish qiyin. Mohiyat-e’tiboriga ko‘ra, substantsiya butun mavjudot asosi, hamma narsani o‘z ichiga oluvchi va o‘zini namoyon qilish uchun hech narsaga muhtoj bo‘lmagan yagona birinchi asos sifatida namoyon bo‘lgan

Plyuralizm dunyoning negizida ikkita emas, balki undan ko‘proq mohiyat borligini tan oluvchi ta’limotdir. «plyuralizm» (lot. – ko‘plik, ko‘p xillik, ko‘p sonlik) atamasini ham X.Volf 1712 yilda taklif qilgan. Bu tushuncha ontologiyada ayniqsa, jiddiy qiyinchiliklar tug‘dirgan. Chunki ayni shu ta’limotda borliqning ko‘p sonli mustaqil va o‘zaro bog‘lanmaydigan asoslari ilgari surilgan.

Substrat borliqning eng quyi va asosiy qatlami sifatida tushuniladi. Falsafada «Substantsiya» kategoriyasi «substrat» (lot. – to‘shama, negiz) tushunchasiga yaqin turadi, deb qaraladi. Qadimgi atomistik ta’limotlarda atomlar ana shunday asos hisoblangan. Har qanday substrat muayyan vujudga kelish jarayonining o‘ziga xos xususiyatini ifodalaydi. Hozirgi talqinda, muayyan fizik jarayonlarning substrati sifatida elementar zarralar va fundamental (kuchli, kuchsiz, elektromagnit va gravitatsion) o‘zaro ta’sirlar amal qiladi. Turli moddalarning hosil bo‘lish va o‘zgarish jarayonlarida o‘zining barqaror holatini saqlab qoluvchi atomlar kimyoviy

jarayonlarning substrati sifatida namoyon bo‘ladi. Elementar «hayot birliklari» sifatida amal qiluvchi nuklein kislotalar (DNK va RNK) va oqsil moddalarining molekulalari biologik jarayonlar substrati bo‘lib xizmat qiladi. Barcha ijtimoiy o‘zgarishlar zamirida maqsadga muvofiq faoliyati mavjud bo‘lgan inson ijtimoiy hayot substrati hisoblanadi.

Hozirgi zamon falsafasida substantsiya kategoriyasining ontologik mazmuni o‘zaro ta’sir sifatida tushuniladi. Chunki aynan o‘zaro ta’sir dunyo yaralishining haqiqiy va pirovard sababchisi – narsalarning o‘z-o‘zini yakuni (causa finalis) hisoblanadi. Narsalarni substantsiyalilik nuqtayi nazaridan o‘rganish ularning mavjudligini ichki sabablar va o‘zaro ta’sirlar nuqtayi nazaridan yoritish, demakdir. Shu ma’noda, substantsiyani ichki birlik nuqtayi nazaridan, uning cheksiz va rang-barang o‘zgarishlaridan qat’iy nazar, qaraladigan ob’ektiv borliq sifatida, harakatning barcha shakllari, mazkur harakat jarayonida yuzaga keluvchi va yo‘q bo‘luvchi tafovut va qarama-qarshiliklar nuqtayi nazaridan yondashiladigan materiya sifatida ta’riflash mumkin.

Materiya tushunchasi va uning tashkillashuv darajalari. Materiya» tushunchasi qadimgi mutafakkirlar bizni qurshagan dunyoning barcha rang-barang narsalari yaratib va yo‘q qilib bo‘lmaydigan, odamlarga ham, xudolarga ham bog‘liq bo‘lmagan umumiy va yagona «birinchi asos»dan kelib chiqqani haqidagi g‘oyani ilgari surgan paytdan e’tiboran falsafiy kategoriya sifatida ishlatila boshlagan. Bu «birinchi asos»ni ular barcha narsalarni yaratish uchun asosiy material bo‘lib xizmat qiluvchi qandaydir modda sifatida tasavvur qilgan. Ayni shu material materiya deb atalgan.

«Materiya» atamasi lotincha materia so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, modda degan ma’noni anglatadi. Shunga qaramay, falsafa tarixida «materiya» tushunchasining mazmuni bir necha marta o‘zgargan, tabiatshunoslikning va falsafaning rivojlanishiga muvofiq rivojlangan.

Qadimgi yunon falsafasida materiyaning etimologik talqinidan keng foydalanilgan. «Materiya» tushunchasini asosiy falsafiy kategoriya sifatida ilk bor Platon ishlatgan. Platon talqinida materiya shaklsiz va nomuayyan bo‘lib, har qanday geometrik shakl ko‘rinishini kasb etishi mumkin bo‘lgan makon bilan tenglashtiriladi.

Darhaqiqat, hamma narsalarning asosi bo‘lgan birinchi modda haqidagi tasavvur materiya bilan bog‘langan. Materiya yuzaga keluvchi hamma narsalarning substrati sifatida namoyon bo‘lgan.

Hozirgi davrda materiyaning uch tarkibiy darajasi farqlanadi:

- mikrodunyo – atomlar va elementar zarralar dunyosi.
- megadunyo – koinot dunyosi (sayyoralar, yulduzlar komplekslari, galaktikalar, megagalaktikalar);

- makrodunyo – barqaror shakllar va insonga mos kattaliklar dunyosi (unga molekulalarning krisstallashgan komplekslari, organizmlar, organizmlarning hamjamiyatlari ham kiradi).

4.4. Falsafada makon, vaqt, harakat va rivojlanish masalalari

Bizni qurshagan dunyoning yana bir muhim xususiyati – Koinotda va uning barcha tarkibiy qismlarida yuz beradigan tinimsiz o‘zgarishlardir.

Tabiatning o‘zgaruvchanligi falsafa paydobo‘lishidan ancha oldin yaxshi ma’lum bo‘lgan, falsafa vujudga kelgach esa, masalalarning mazkur doirasi alohida o‘rganish predmet iga aylandi va vaqt o‘tishi bilan uning negizida falsafiy bilimlarning maxsus bo‘limi – dialektika yuzaga keldi. Uning (yaxlit ta’limot sifatidagi) ildizlari qadimgi yunon falsafasiga, xususan «Hamma narsa oqib, o‘zgarib turadi», «Ayni bir daryoga ikki marta tushib bo‘lmaydi» kabi mashhur iboralar muallifi Geraklit ijodiga borib taqaladi. Shundan beri ob’ektiv borliqning turli-tuman miqdor va sifat o‘zgarishlarini ifodalash uchun «harakat» va «rivojlanish» kategoriyalari qo‘llaniladi. «Keng» ma’noda umuman har qanday o‘zgarish haqidagi tasavvur sifatida talqin qilinadi. Harakatni umuman o‘zgarish sifatida tushunish harakat turlarining butun rang-barangligini uning muayyan bir turiga bog‘lash to‘g‘ri emasligi haqida ogohlantiradi va harakat shakllarining umumiy xususiyati va bir-biriga aylanish qobiliyatiga ishora qiladi. «Umuman o‘zgarish» deganda, bizning ular haqidagi fikr-mulohazalarimizdan qat’iy nazar, ob’ektiv mavjud bo‘lgan barcha o‘zgarishlar, turli jarayonlar nazarda tutiladi.

O‘z-o‘zidan harakat yo butun tabiatga, yo uning yuksak darajada uyushgan tarkibiy qismi – tirik organizm va jamiyatga xos xususiyatdir. Qotib qolgan materiyaga mansub ayrim narsa yoki ob’ektga nisbatan o‘z-o‘zidan harakat, o‘z-o‘zidan rivojlanish holati xos deb aytish o‘rinli emas. Chunki, ushbu ob’ektni muayyan element sifatida o‘z ichiga olgan tabiat o‘z-o‘zidan rivojlanuvchi yaxlit tizim hisoblanadi.

Abadiy harakat, o‘zgarish va harakatsizlikning o‘zaro nisbati. Falsafada harakat nafaqat turli jismlarning makonda mexanik siljishi sifatida, balki tabiiy jarayonlar va hodisalar holatlarining har qanday o‘zgarishi sifatida ham tushuniladi. Kengayib borayotgan Metagalaktika ham, o‘zaro ta’sirga kirishayotgan elementar zarralar ham, ko‘payayotgan, moddalar almashinuvini amalga oshirayotgan tirik hujayralar ham, ijtimoiy jarayonlar va hokazolar, shu jumladan fikrlash faoliyati jarayonlari ham harakatda bo‘ladi.

Agar biz biron-bir tabiiy ob’ekt yoki hodisani ularning tabiiy holatida anglab yetmoqchi bo‘lsak, «harakat» tushunchasini chetlab o‘tishimiz mumkin emas. Bir qarashda, oddiy ong nuqtayi nazaridan bu noto‘g‘ri, zero, Alp tog‘lari yoki Misr ehromlarini kuzatar ekanmiz, biz ular abadiy

harakatsizlik holatida ekanligining guvohi bo‘lamiz. Ammo bu harakatsizlik nisbiydir. Umuman olganda, butun Koinot ulkan aylanma harakat holatida bo‘lib, bu yerda bizning sayyoramiz Quyosh atrofida, u bilan birga – bizning galaktikamiz markazi atrofida, u bilan birga esa – galakatik sistema markazi atrofida aylanadigan kichik bir zarradir.

Harakatsizlik holatidagi narsalar strukturasi ham tinimsiz o‘zgarish jarayonini boshdan kechiradi, chunki uzluksiz harakatda bo‘lgan elementar zarralardan tashkil to‘adi. Temperatura o‘zgarishlari, kimyoviy tarkib o‘zgarishlari va shu kabilar bunday harakatning tashqi ko‘rinishlari hisoblanadi. Shuningdek, atomlar va molekulalar ham Koinotda yuz bergan evolutsiya jarayonlari mahsulidir. Ular bizning Metagalaktikamiz mavjudligiga zamin hozirlagan Katta portlashdan keyingina vujudga kelgan. Buning ustiga hozirgi zamon geografiyasi qit’alar bir-biriga nisbatan siljishini isbotladi. Ular ajralgan muz bo‘laklari kabi Yerning qaynoq magmasi boylab yiliga bir necha santimetr tezlikda harakatlanadi.

Harakatning tiplari va shakllari. Harakat shakllarini tasniflashda qaysi tamoyillarga rioya qilinishiga qarab bunday shakllarning har xil miqdori farqlanadi. Masalan, *XIX asrda materiya tashkil topishining turli darajalariga asoslanib, materiya harakatining besh asosiy shakli: mexanik, fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy harakat qayd etgan.*

Harakatning mazkur shakllari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bunda har bir keyingi harakat o‘zidan oldingi harakatdan kelib chiqadi, unga asoslanadi, biroq, shunga qaramay, quyi shakl bilan bog‘lanmaydi. *Harakatning murakkab shakllarini soddaroq shakllarga bunday bog‘lashga urinishlar falsafa tarixida «mexanitsizm», «reduktsionizm» (lot. reductio – ortga surish) degan nom olgan, harakat ijtimoiy shakllarini biologik shakllar darajasigacha soddalashtirish biologizatorlik kontseptsiyalarida mavjud.*

Makon va vaqt - borliqning fundamental shakllari. Bizni qurshagan dunyo mazmuni, borliqning umumiy xossasi bo‘lgan borliq haqida so‘z yuritar ekanmiz, makon va vaqt tushunchalarini chetlab o‘tishimiz mumkin emas. Zero, har qanday jism, narsa, hodisa doim borliqning boshqa predmetlari va hodisalari bilan yonma-yon keladi, ko‘lamlilik xususiyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek ular o‘z ichki va tashqi holatlarini bir-biriga nisbatan o‘zgartiradi va bu turli hollarda har xil tezlik, marom, sur’at va davomlilik bilan yuz beradi. Alohida holda ayrim yagona deb qaraladigan bu ko‘rsatkichlar majmui bizga vaqt haqida tasavvur beradi. Makon va vaqt o‘z rang-barangligida cheksiz borliqning shakllari sifatida amal qiladi.

Falsafa tarixida makon va vaqtga substantsional va relyatsion yondashuvlar. Makon va vaqt mohiyati haqida odamlar o‘z rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq fikr yuritganlar va o‘tmishning aksariyat mutafakkirlari ularning tabiatini aniqlashga harakat qilganlar. Bu avvalo

inson amaliyoti va bilishining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Zero ular kengayib va takomillashib, mazkur kategoriyalarni yanada aniqroq va teranroq tushunishni talab qilgan. Xususan, antik davrdayoq falsafadan ko‘lamli shakllar va ularni o‘lchash usullari haqidagi fan sifatida ajralib chiqqan geometriya ilk aniq fanlardan biriga aylandi. Vaqtga astronomik kuzatishlar hamda koinotning boqiyligi va inson hayotining tezoqarligi haqidagi mulohazalar nuqtayi nazaridan ham alohida e’tibor qaratilgan. Keyinchalik «makon» va «vaqt» kategoriyalariga qiziqish hech qachon susaymagan. Ular bilan bog‘liq ko‘p sonli masalalar yuzaga kelgan. Ularning eng muhimlaridan biri quyidagicha yangraydi: makon va vaqt mustaqil mohiyatlarmi yoki ular faqat nimagadir bog‘liq holda keladimi? Shu munosabat bilan falsafa tarixida shakllangan ikki muhim va bir-biridan butunlay farq qiladigan yo‘nalish – substantsional va relyatsion yo‘nalishlarni farqlash mumkin.

Substantsional yo‘nalishda makon va vaqt materiya va ongga bog‘liq bo‘lmagan mustaqil mohiyatlar sifatida qaralgan. Substantsional kontseptsiya asoschilari Demokrit (makon muammosi boyicha) va Platon (vaqtga nisbatan yondashuvlarda) makon va vaqtni materiyaga ham, bir-biriga ham bog‘liq bo‘lmagan mustaqil mohiyatlar sifatida talqin qilganlar. Demokrit atomlar harakatlanuvchi bo‘shliq amalda mavjudligi haqidagi yondashuvni ilgari surgan. Uning fikricha, bo‘shliqsiz atomlar harakatlanish imkoniyatidan mahrumdir. Demokrit va Epikur makonni atomlardan iborat joy deb tasavvur qilgan va uni bo‘shliq bilan tenglashtirgan. Makon mutlaq, bir jinsli va harakatsiz bo‘ladi, vaqt esa bir tekis oqadi deb hisoblangan. Demokrit, Epikur va Lukretsiy Kar ta’limotiga ko‘ra, makon ob’ektiv, bir xil va cheksiz. U atomlar joylashadigan joy. Vaqt (zamon)ni abadiyat bilan tenglashtirish mumkin –u o‘tmishdan kelajak sari bir maromda kechuvchi sof davomlilikdan iborat. Vaqt - voqealar yuz beruvchi joy. Qadimgi yunon faylasuflari materiya, harakat, makon va vaqtni mustaqil substantsiyalarga ajratuvchi bu g‘oyalar keyinchalik Nyuton klassik mexanikasida rivojlantirildi. ***Relyatsion*** *(lot. relativus – nisbiy) yo‘nalish makon va vaqtni mustaqil mohiyatlar sifatida emas, balki real dunyo ob’ektlari va jarayonlari o‘rtasidagi alohida munosabatlar sifatida tushunish bilan bog‘lanadi.* «Vaqt nima?», degan savolga javob berar ekan, Aristotel shunday mulohaza yuritadi: harakatda ham, vaqtda ham doim muayyan «oldin» va undan farq qiluvchi «keyin» mavjud. Aynan harakat tufayli biz har xil, o‘zaro mos kelmaydigan «hozir»ni farqlaymiz. Vaqt shu «hozir»ning ketma-ketligi, ularning almaShuvi, sanog‘i, hisobi, «oldingi va keyingiga bog‘langan harakatlar soni»dir. Aristotelda makon harakatsiz yulduzlar sohasi bilan cheklangan, ularning ortida – makon va vaqtdan tashqarida yotuvchi va hamma narsani harakatga keltiruvchi boqiy, harakatsiz, ilohiy osmon joylashgan.

Nazorat savollari

1. Borliq tushunchasi va uning asosiy shakllari?
2. Borliqning atributlarini sanab bering?
3. Materiya nima uning yashash usullarini nimalar tashkil qiladi.?
4. Borliqning shakllari?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Falsafa qonunlarining tabiat, jamiyat va inson tafakkurida namoyon bo‘lishiga haqida referat tayyorlang.
2. Borliqning shakllari va atributlari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plang va tushuntiring.
3. Harakatning tiplari va shakllari haqida berilgan fikrlarni kursdoshlaringizga aytib bering.

V BOB. BILISH FALSAFASI (GNOSEOLOGIYA)

1. Bilish nazariyasining predmeti va o'ziga xos xususiyatlari.
2. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalari.
3. Haqiqatning asosiy shakllari va kontseptsiyalari.
4. Falsafada metod va metodologiya, metodika tushunchalari.

Tayanch tushunchalar: bilim, bilish, gnoseologiya, haqiqat, metod, metodika, metodologiya.

5.1. Bilish nazariyasining predmeti va o'ziga xos xususiyatlari

«Gnoseologiya» - sof falsafiy kategoriya. Uning nomi yunoncha gnosis – bilim, ilm va logos – ta'limot, fan so‘zlaridan kelib chiqqan. So‘zma-so‘z ma'nosi - «bilish haqidagi ta'limot (fan)», «ong haqidagi ta'limot (fan)». Falsafiy adabiyotlarda, shu jumladan falsafiy qomuslar va lug‘atlarda «gnoseologiya» atamasi «bilish nazariyasi» deb tarjima qilingan. Shu bilan bir qatorda, ayni shu mazmunni ifodalash uchun falsafiy adabiyotlarda «epistemologiya» so‘zi ham qo‘llaniladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, gnoseologiyaga tatbiqan bilish nazariyasi va epistemologiya nomlarining qo‘llanilishini o‘rinli deb bo‘lmaydi. Zotan, «episteme» so‘zi «pistis» - e'tiqod so‘zi bilan uzviy bog‘liq. Biroq, biz biladigan (gnosio) va biz ishonadigan (pistio), mavjudligiga e'tiroz bildirmaydigan narsalar – falsafiy va ilmiy bilimlarning hozirgi darajasida mazmunan har xil tushunchalardir. Shu bois G‘arbiy Yevropa falsafasida epistemologiyaning mazmuni ikki xil, ba'zan esa – uch xil talqin qilinadi.

Gnoseologiya yoki bilish nazariyasi falsafiy bilimlar (falsafa fani) bo‘limi bo‘lib, unda 1) insonning dunyoni bilish imkoniyati;

2) insonning o‘zlikni anglash jarayoni; 3) bilishning bilmaslikdan bilim sari yuksalishi, 4) bilimlar tabiati va ularning mazkur bilimlarda aks etuvchi narsalar bilan o‘zaro nisbati o‘rganiladi.

Gnoseologiyaning asosiy muammosi bizning barcha bilimlarimiz tajribada sinalganmi? degan «oddiy» masalani yechishdan iborat: Bu savolga javob izlash va masalaning yechimini topishda gnoseologiyada ikki muxolif an'ana: bilimlarimiz tajribada sinalganini qayd etuvchi empirizm va buni inkor etuvchi ratsionalizm to‘qnashadi.

Ratsionalizm (ratsionalistlar) *insonda tug‘ma g‘oyalar, adolat, insoniylik, uyg‘unlik g‘oyalari va tajribadan olinishi mumkin bo‘lmagan boshqa g‘oyalar mavjudligidan kelib chiqadi.* Zotan, tajriba to‘la adolat, yalpi insoniylik mavjud emasligini, bizni qurshagan dunyoda uyg‘unlik ustidan xaos hukm surishini ko‘rsatadi. Bunda ayrim ashaddiy ratsionalistlar (masalan, Platon, Avgustin va ularning hamfikrlari) ko‘rsatib o‘tganidek g‘oyalar inson aqliga xos tug‘ma g‘oyalar bo‘lib, ularni inson faqat o‘z

aqlidan olishini qayd etadilar; boshqa, mo''tadil ratsionalistlar (masalan, Leybnits, Volf, Baumgarten) esa, g'oyalar aqlga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lsa-da, biroq ular faqat aqlda tafakkur va falsafiy mushohada yuritish jarayonida tug'ilishini ta'kidlaydilar.

Empirizm (empiristlar, F. Bekon, J. Lokk, T. Gobbs, D. Yum, L. Feyerbax), aksincha, *inson, insoniyat shaxsiy yoki ijtimoiy tajribaga ega bo'lgunga qadar biron-bir g'oya mavjud bo'linishni inkor etadilar*. Ular barcha g'oyalar inson ongi zamirida yo shaxsiy tajriba, yo boshqalar tajribasi, butun insoniyat tajribasini umumlashtirish orqali tug'ilishini qayd etadilar va bu tezisni isbotlashga harakat qiladilar. Ularning fikriga ko'ra, tajriba inson ongida uning sezgilari va o'zini qurshagan dunyoni idrok yetishi orqali aks etadi. Falsafada idrok yetishni pertseptsiya (lotincha «perception» - idrok yetish) deb atash odat tusini olgan. Pertseptsiya *o'zini qurshagan dunyodagi narsalar va hodisalarni sezgilar orqali idrok yetishga aytiladi*, appertseptsiya *borliqni aql bilan anglash, bilish, ularni g'oyalarda ifodalashdir.*

Optimizm. Skeptitsizm. Agnostitsizm. Inson aqli bilish pillapoyasidan yuqoriga ko'tarilar ekan, har bir yangi pog'onada qayta-qayta quyidagi savolga javob topishga harakat qiladi: dunyoni bilish mumkinmi?, bilishning chegaralari bormi? Falsafada bu savollarga javob beruvchi uch asosiy yo'nalishni farqlash mumkin: optimizm, skeptitsizm va agnostitsizm (Kant va boshqalar). **Optimistlar** *dunyoni bilish mumkinligini ta'kidlaydilar,* **agnostiklar**, *aksincha, buni rad etadilar* (I.Kant – «narsa o'zida»). **Skeptiklar** *dunyoni bilish mumkinligini inkor etmaydilar (XVIII asrda D.Yum), biroq bilimning haqiqiyligiga Shubha bildiradilar.* Odatda, skeptitsizm paradigmalar, qadriyatlar, ijtimoiy tizimlar va hokazolar o'zgarayotgan davrda (yoki uning arafasida), ilgari haqiqiy deb hisoblangan xulosalar fan va amaliyot olgan yangi ma'lumotlar nuqtayi nazaridan soxta, asossiz bo'lib chiqqan holda ravnaq topadi.

Bilimga chanqoq bo'lgan, bilishga harakat qilayotgan odam **optimist:** «Men buning nimaligini bilmayman, biroq bilishga umid qilaman», deydi. **Agnostik** esa, «Men buning nimaligini bilmayman va hech qachon bila olmayman», deb ta'kidlaydi. Yuzaki skeptitsizm, ko'r-ko'rona fanatizm kabi, dunyoqarashi tor odamlarda ko'p uchraydi. F.Laroshfuko ta'biri bilan aytganda, kaltabin odamlar odatda o'z dunyoqarashi doirasidan chetga chiqadigan hamma narsani qoralaydi. Biroq oqilona darajadagi skeptitsizm foydali va hatto zarur. Bilish usuli sifatida skeptitsizm shubha shaklida amal qiladi, bu esa haqiqatning tagiga yetish sari tashlangan qadamdir. Shubha eskirgan, qotib qolgan aqidalarning tagiga suv quyadi, ularga putur yetkazadi. U – rivojlanayotgan fanning muhim unsuri. Bilimsizlik qayd etadi va inkor qiladi, bilim – shubhalanadi.

Bilim shakllari - Inson o‘zini qurshagan olamni anglab yetadi, uni har xil usullar yordamida o‘zlashtiradi. Bu usullardan ikkita eng muhimini qayd yetish mumkin. Birinchi – moddiy-texnikaviy usul – tirikchilik vositalarini ishlab chiqarish, mehnat, amaliyot. Ikkinchi – ma’naviy (ideal) usul; uning doirasida subyekt va obyektning bilishga doir munosabatlari ular o‘rtasidagi ko‘p sonli munosabatlarning biridir. O‘z navbatida, bilish jarayoni va unda olinadigan bilimlar amaliyot va bilishning tarixiy rivojlanishi mobaynida tabaqalanadi va o‘zining har xil shakllarida mujassamlashadi. Bilishning bu shakllari, garchi o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, lekin bir-biriga o‘xshamaydi va har bir biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Kundalik amaliy bilim. *Tabiat haqida, shuningdek odamlarning o‘zlari, ularning yashash sharoiti, ijtimoiy aloqalari va hokazolar to‘g‘risida elementlar bilimlar beruvchi kundalik-amaliy bilimlar bilishning tarixan eng birinchi shakli hisoblanadi.* Bilishning bu shakli kundalik hayot, odamlar amaliy tajribasidan kelib chiqqan.

Kundalik bilim – bu har xil faoliyat shakllari – jumladan ishlab chiqarish faoliyati, estetik faoliyat, siyosiy faoliyat va hokazolarning ta’sirida shakllanadigan turmush bilan bog‘liq tushunchalar majmui avlodlar to‘plagan jamoa kollektiv tajribasi mahsuli hisoblanadi.

Oyin vositasidagi bilim nafaqat bolalar, balki kattalar faoliyatining ham muhim unsuri hisoblanadi. Oyin jarayonida shaxs qizg‘in bilish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarning katta hajmini o‘zlashtiradi, madaniy boylik – ishga doir oyinlar, sport oyinlari, aktyorlarning oyinlari va shu kabilarni qon-qoniga singdiradi. Oyin bolalarning qiziquvchanligini qondirish, ularning ma’naviy dunyosi va ma’lum bilimlari, o‘zaro til topish ko‘nikmalari va Shu kabilarni shakllantirishda muhim ijtimoiy rol oynaydi.

Mifologik bilim ayniqsa, insoniyat tarixining dastlabki bosqichida muhim rol oynagan. *Mifologik bilimning o‘ziga xos xususiyati Shundan iboratki, u borliqning fantastik in’ikosi hisoblanadi.* Mifologiya doirasida tabiat, koinot va odamlar, ular mavjudligining shart-sharoitlari, aloqa shakllari va hokazolar haqidagi muayyan bilimlar shakllangan

Mif – ibtidoiy odam tafakkurining tabiat hodisalarini tushunish va tushuntirishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Mif narsa va obraz, jism va xossa, «asos» va tamoyillarni farqlamaydi. Voqealar o‘xshashligi yoki ketma-ketligini sabab va oqibat bog‘lanishi sifatida talqin qiladi. Mif oliy darajada universal voqealar, chunonchi: inson o‘limi va uning mangu barhayotligi, dunyoning vujudga kelishi, qahramonona qilmishlar, madaniyat yutuqlari (masalan, olovning o‘g‘irlanishi haqidagi mif) va shu kabilar haqida hikoya qiladi.

Diniy bilim *insoniyat to‘plagan tajribaga tayanib, inson hayotining muhim ko‘rinishlari, chunonchi: oila va turmushdagi xulq-atvor, axloqiy qoidalar, mehnat, tabiat, jamiyat va davlatga munosabatni tartibga soladi.*

Dinning asosiy vazifasi – inson hayoti, tabiat va jamiyat borlig'ining mazmunini aniqlashdan iborat. Din universumning pirovard mazmunlari haqidagi o'z tasavvurini asoslab, dunyo va insoniyatning birligini tushunishga ko'maklashadi. U inson hayotini o'zgartirishga qodir bo'lgan haqiqatlar tizimidan iborat. Diniy ta'limotlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular jamoa tajribasini ifodalaydi va shu bois nafaqat har bir dindor odam, balki dinga sig'inmaydiganlar uchun ham qadrlidir.

Falsafiy bilim. Falsafa san'at va din kabi, bilish vazifalarini yechish bilangina kifoyalanmaydi. *Uning bosh vazifasi san'at va din bilan uyg'un holda– insonning dunyoda ma'naviy mo'ljal olishiga ko'maklashishdan iborat.* Falsafiy bilish ayni shu maqsadga boysundirilgan. Falsafa umuman dunyo, uning «birinchi» asoslari, hodisalarning universal o'zaro aloqasi, borliqning umumiy xossalari va qonunlari haqida umumiy tasavvurni shakllantiradi. Falsafa dunyoni insonga bog'lab o'rganadi. Falsafa umuman dunyoga va madaniyat subyekti sifatidagi insonga murojaat etadi. Falsafiy bilim donishmandlik sifatida tavsiflanadi. Donishmandlik – dunyoni va insonning undagi o'rnini yaxlit tushunish andozasi. Falsafa barcha odamlar uchun muhim bo'lgan haqiqatlarning tagiga yetish uchun (ilmiy va noilmiy) bilimdan foydalanadi. Kant falsafa inson aqlining boshqa bilimlarga oliy qadriyat tusini beruvchi eng so'nggi maqsadlarini anglab yetishni tushunishga, bu bilimlarning inson uchun ahamiyatini aniqlashga yordam beradi deb hisoblagan.

Ilmiy bilim. Bilishning eng oliy shakli fandir. Ayrim fanlarning vakillari fanni ta'riflar ekanlar, uni muayyan tadqiqotlar sohasi bilan bog'laydilar. Ilmiy bilim boshqa bilim turlaridan o'zining aniqligi bilan ajralib turadi.

Shaxsiy bilim. Bilim shakllari to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, M.Polani tomonidan ishlab chiqilgan shaxsiy bilim kontseptsiyasini chetlab o'tishimiz mumkin emas. Olim o'z kontseptsiyasini tuzishda bilim – anglash mumkin bo'lgan narsalarni faol o'zlashtirish, alohida mahorat va alohida vositalarni talab qiluvchi harakat, degan tamoyildan kelib chiqqan. Madomiki fanni odamlar yaratar ekan, bilish faoliyati jarayonida olinadigan bilimlarni (xuddi shu jarayonning o'zi kabi) odamlardan ajratish mumkin emas. Demak, odamlarni (aniqrog'i, o'z qiziqishlari, maqsadlari va mo'ljallariga ega bo'lgan olimlarni) ular yaratayotgan bilimlardan ajratib yoki boshqa odamlar bilan almashtirib bo'lmaydi.

Ijtimoiy bilim asosan o'zi o'rganayotgan borliqning sifat tomonini tavsiflashga qarab mo'ljal oladi. Bu yerda hodisalar va jarayonlar miqdor va umumiylik nuqtayi nazaridan emas, balki sifat va xususiylik nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Shu sababli miqdor metodlarining ulushi bu yerda tabiiy-matematik siklga mansub fanlarga qaraganda kamroq. Biroq

bilimning matematikalashuvi, kompyuterlaShuvi jarayonlari bu yerda ham tobora kengroq tus olib bormoqda.

5.2. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalari

Sezgi a'zolari orqali olingan bilim – hissiy bilimlardir. *Sezgi a'zolari yoki narsalarning xossalarini sezgi a'zolari sezish va idrok yetishi natijasida olingan bilim hissiy bilamdir.* Masalan, inson uchayotgan samolyotni ko'radi va buning nimaligini biladi.

Sezgi. *Bilish faoliyatida sezgi – narsalar ayrim xossalarining sezgi a'zolari orqali his qilingan oddiy obrazi, in'ikosi, nusxasi yoki o'ziga xos surati dastlabki sezgi obrazi hisoblanadi.* Masalan, aplesinda biz to'q sariq rang, o'ziga xos hid, ta'mni sezamiz. Sezgilar insondan tashqaridagi muhitda yuz berayotgan va uning sezgi a'zolariga ta'sir ko'rsatayotgan jarayonlar ta'sirida yuzaga keladi. Ovoz va yorug'lik to'lqinlari, mexanik bosim, kimyoviy ta'sir va hokazolar tashqi ta'sirlantiruvchilar hisoblanadi.

Sezishning ko'rish, eshitish, tebranish, paypaslash, ob-havo, og'riq, muvozanat va tezlashishni his yetish, hid, ta'm bilish kabi umumiy organik turlari farqlanadi. Sezgilarning har bir shakli o'zining ayrim ko'rinishi orqali materiya harakatining mazkur shakli va turi, masalan, elektromagnit, ovozli tebranishlar, kimyoviy ta'sirlar va hokazolarning umumiy xossalarini aks ettiradi.

Xotira, xayol va tasavvur. Garchi sezish va idrok yetish insonning barcha bilimlari manbai sanalsa-da, hissiy bilish ular bilangina kifoyalanmaydi. U yoki bu predmet insonning sezgi a'zolariga ma'lum zamon mobaynida ta'sir ko'rsatadi. So'ngra bu ta'sir barham topadi. Biroq predmetning obrazi izsiz yo'qolmaydi. U xotirada gavdalanadi va saqlanib qoladi. Binobarin, biron-bir narsa haqida u yo'qolganidan keyin ham fikr yuritish mumkin, chunki u haqda muayyan tasavvur qoladi. Yumiq ko'zlar bilan ham biz nimalarnidir tasavvur qilamiz.

Xotira *o'tmish va hozirgi zamonni birlashtiradi, ularning bir-biriga o'tishini ta'minlaydi.* "Tovushlar va so'zlar soni ko'paygandan keyin, odamga uning xotirasi yordamga keladi. Yozuv ham xotira bilan birga inson imkoniyatlarini oshiradi"[4]. Agar obrazlar miyada unga predmet ta'sir ko'rsatgan paytda paydo bo'lib, bu ta'sir to'xtaganidan keyin darhol g'oyib bo'lganida, inson narsalarni har safar mutlaqo notanish narsalar sifatida qabul qilgan, u mazkur narsalarni tanimagan, demak, ularni anglamagan bo'lar edi. Biror narsani anglash uchun aqlning ishlashi – hozirgi holatni oldingi holat bilan taqqoslashi talab etiladi. Tashqi ta'sirlarning idrok etilishi va ularning zamonda saqlanishi natijasida xotirada tasavvurlar uyg'onadi.

[4] Қarang.S.M.Xotamiy. Islom tafakkuri tarixidan. -T.: Minxoj, 2003.- B.74

Xayol insonning muhim xossasi. Xayol tafakkur oqimida yetishmayotgan ko‘rgazmalilik o‘rnini to‘ldiradi. *Xayol kuchi tajribada (ongda) mavjud obrazlarni nafaqat qayta chaqiradi, balki ularni bir-biri bilan bog‘laydi va shu tariqa ularni umumiy tasavvurlar darajasiga ko‘taradi.* Obrazlarni qayta gavdalantirish xayol kuchi bilan erkin va bevosita kuzatish yordamisiz amalga oshiriladi. Tasavvurlar paydo bo‘lishining bu shakli bunday erkin faoliyat ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lmagan, biroq amalda kuzatishga muhtoj bo‘lgan va obrazlar beixtiyor paydo bo‘lishiga yo‘l qoyadigan oddiy eslashdan Shu bilan farq qiladi.

Tasavvurlar – *bu bir paytlar insonning sezgi a’zolariga ta’sir ko‘rsatgan va keyinchalik miyada saqlanib qolgan aloqalar boyicha gavdalanadigan narsalarning obrazlaridir.*

Sezish va idrok yetish ong, fikr gavdalanishining boshlanishi hisoblanadi. Xotira olingan axborotni qayd etadi va saqlaydi. Tasavvurda esa ong ilk bor o‘zining bevosita manbaidan ajraladi va nisbatan mustaqil subyektiv hodisa sifatida mavjud bo‘la boshlaydi. Inson nisbatan yangi obrazlarni erkin yaratishga qodir. Tasavvur – bu idrok yetish va nazariy tafakkur o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in.

Empirik bilim va uning shakllari. *Empirik bilim mavjud narsaning bevosita emas, balki bilvosita in’ikosi.* Masalan, olim o‘zi ko‘rmayotgan tegishli obyektning holati haqida unga axborot berayotgan asbob ko‘rsatkichi yoki elektrokardiogrammaning elektr chizig‘ini ko‘radi. Boshqacha aytganda, bilishning empirik darajasi har xil asboblardan foydalanish bilan bog‘liq; u kuzatish, kuzatilayotgan narsa yoki hodisani tavsiflash, bayonnomalar yuritish, hujjatlardan foydalanishni nazarda tutadi, masalan, tarixchi arxivlar va boshqa manbalar bilan ishlaydi. Xullas, bu oddiy sezgi darajasida bilishga qaraganda bilishning yuqoriroq darajasidir.

Kuzatish – *bilish obyektining muhim xossalari va munosabatlarini aniqlash maqsadida ataylab amalga oshiriladigan izchil idrok yetishdir.* Kuzatish maqsadini belgilash, uning usullarini aniqlash, o‘rganilayotgan obyekt xulq-atvorini nazorat qilishning rejasini tuzish, asboblardan foydalanish kabilar kuzatishning muhim xususiyatlaridir. Kuzatishlarning natijalari bizga borliq haqida ilmiy dalillar ko‘rinishida dastlabki axborot beradi.

Eksperiment – *bu shunday tadqiqot metodiki, uning yordamida obyekt yo sun’iy tarzda yaratiladi, yo tadqiqot maqsadlariga mos keladigan ma’lum shart-sharoitlarda o‘rganiladi.* Eksperimentda tadqiqotchi ilmiy tadqiqotni o‘tkazish shart-sharoitlariga faol aralashadi. U jarayonni istalgan bosqichda to‘xtatishi mumkin bo‘lib, bu obyektni yanada mufassalroq o‘rganish imkonini beradi. Tadqiqotchi o‘rganilayotgan obyektni boshqa obyektlar bilan har xil tarzda bog‘lashi yoki u ilgari kuzatilmagan shart-

sharoitlarni yaratishi va Shu tariqa fanga ma'lum bo'lmagan yangi xossalarni aniqlashi mumkin.

Ilmiy dalil. Ilmiy dalil empirik bilishning natijasi hisoblanadi. Dalil (yoki dalillar)ni aniqlash ilmiy tadqiqotning zarur shartidir. Dalil – bilimining tasdiqlangan boyligiga aylangan moddiy yoki ma'naviy dunyo hodisasi, biron-bir hodisa, xossa yoki munosabatni qayd yetishdir. A.Eynshteyn so'zlari bilan aytganda, fan dalillardan boshlanishi va boshlanish bilan tugallanish o'rtasida qanday nazariy tuzilmalar bo'lishidan tuzilishidan qat'iy nazar, dalillar bilan yakunlanishi lozim[5].

Nazariy bilim va uning shakllari. Ilmiy dalillar nazariyaga nisbatan ham ikki xil vazifani bajaradi: mavjud nazariyaga nisbatan ilmiy dalil yo uni mustahkamlaydi (verifikatsiya qiladi), yo u bilan to'qnashadi va uning asossizligini ko'rsatadi (falsifikatsiya qiladi). Biroq, boshqa tomondan, nazariya empirik tadqiqot darajasida olingan ilmiy dalillar yig'indisini Shunchaki umumlashtirishgina emas. Uning o'zi yangi ilmiy dalillar olish manbaiga aylanadi. Shunday qilib, empirik va nazariy bilim yaxlit hodisa – ilmiy bilim ikki tomonining birligi hisoblanadi. Bu tomonlarning muayyan ilmiy bilish jarayonidagi o'zaro aloqasi va harakati, ularning o'zaro nisbati nazariy bilimga xos bo'lgan shakllarning izchil qatori yuzaga kelishini belgilab beradi.

Ilmiy muammo. Har qanday ilmiy bilish muammodan boshlanadi.

Muammo – bilishning rivojlanish jarayonida obyektiv tarzda yuzaga keladigan, yechimini topish muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo'lgan masala yoki masalalar majmuidir. Shuningdek muammo, hal qilishni talab etuvchi nazariy yoki amaliy masala; fanda – biron-bir hodisalar, obyektlar, jarayonlarni tushuntirishda qarama-qarshi yondashuvlar ko'rinishida amal qiluvchi va uni yechish uchun muvofiq nazariyani talab etuvchi ziddiyatli holatdir.

Muammo to'g'ri qoyilgan deb hisoblanishi uchun:

1) o'rganilayotgan muammoning tarkibiga kiritish mumkin bo'lgan muayyan ilmiy bilim (ma'lumotlar, nazariya, metodika) mavjud bo'lishi;

2) muammo shaklan to'g'ri tuzilgan bo'lishi;

3) muammo o'rinli bo'lishi, ya'ni uning asoslari soxta bo'lmasligi;

4) muammo muayyan darajada chegaralangan bo'lishi;

5) yechimning mavjudlik sharti va uning yagonaligi ko'rsatilgan bo'lishi;

6) maqbul yechim belgilari hamda yechimning maqbulligini tekshirish usullari haqidagi shartlar qabul qilinishi lozim.

Gipoteza – yang*i dalillarning mohiyatini tushuntiruvchi qonun mavjudligi haqidagi asosli taxmindir*. Gipoteza olimlar tomonidan ilmiy

[5] Эйнштейн А Физика в жизни моего поколения .-М.: 1963.-с.89.

muammoning qoyilishiga sabab bo‘lgan ilmiy dalillarni taxminiy tushuntirish maqsadida ilgari suriladi. Gipoteza tekshiriladigan bo‘lishi lozim, u empirik tekshirish imkonini beruvchi oqibatlarga olib keladi. Agar bunday tekshirishning iloji bo‘lmasa, gipoteza ilmiy jihatdan asossiz hisoblanadi.

Nazariya – *hodisalarning muayyan turkumi, bu turkumdagi hodisalarning mohiyati va ularga nisbatan amal qiladigan borliq qonunlari haqidagi bilimlarning mantiqiy asoslangan va amaliyot sinovidan o‘tgan tizimidir.* U o‘rganilayotgan hodisalarning mazmunini yorituvchi tabiat va jamiyat umumiy qonunlarining kafsh etilishi natijasida shakllanadi

Tamoyillar-*asosiy nazariy bilim, ilmiy dalillarni tushuntirishda dasturilamal bo‘lib xizmat qiluvchi ustivor g‘oyalardir.* Tamoyillar sifatida, jumladan, isbotlab bo‘lmaydigan va isbot talab qilmaydigan aksiomalar, postulatlar amal qilishi mumkin.

Paradigma – *fan tarixining muayyan davrida uning rivojlanishini belgilovchi barqaror tamoyillar, umumiy meyorlar, qonunlar, nazariyalar va metodlar majmui.* U butun ilmiy hamjamiyat tomonidan fanning mazkur darajasida yuzaga keluvchi vazifalarni qoyish va yechish usullarini belgilaydigan andoza sifatida tan olinadi. Paradigma tadqiqotchilik faoliyati, ilmiy eksperimentlarning natijalarini talqin qilishga yo‘l ko‘rsatadi, yangi dalillar va nazariyalarning bashorat qilinishini ta’minlaydi. U o‘ziga mos kelmaydigan kontseptsiyalarni inkor etadi va tadqiqotchilik vazifalarini yechish uchun andoza bo‘lib xizmat qiladi. Paradigma tushunchasi bilish nazariyasiga amerikalik faylasuf T.Kun tomonidan kiritilgan.

Tafakkur va uning shakllari. Inson hamisha nimalar haqidadir oylaydi. Oysiz holat ham, psixologlar fikriga ko‘ra, amalda hech bo‘lmasa hech narsa haqida oylamaslikni oylash holatidir. Bilishning dialektik yo‘li sezgi a’zolari orqali bilish, dalillarni aniqlashdan mantiqiy tafakkur sari olib boradi. *Tafakkur – bu insonning narsalar muhim xossalari va munosabatlarini izchil, bilvosita va umumiy aks ettirishidir.* Ijodiy tafakkurlash amaliyot, fan, texnikada yangi natijalar olishga qaratiladi. **Bashorat qilish** «murakkab narsani oddiy narsaga aylantirish»ning oliy darajasini tashkil etadi. Ilmiy bilim taraqqiyoti ilmiy bashorat kuchining o‘sishi va mazkur hodisa chegaralarining kengayishi bilan bog‘liq. Bashorat qilish jarayonlarni nazorat qilish va boshqarish imkonini beradi. Ilmiy bilish nafaqat kelajakni bashorat qilish, balki bu kelajakni ongli ravishda shakllantirish uchun imkoniyat yaratadi. Har qanday fanning hayot mazmunini Shunday tavsiflash mumkin: bashorat qilish uchun bilish, ish ko‘rish uchun bashorat qilish kerak. Masalan, D.I.Mendeleyev yuz yil keyin kashf etilgan kimyoviy elementlarning mavjudligini bashorat qilgan edi.

Intuitsiya – *haqiqatni mantiqiy dalillar yordamisiz, bevosita anglab yetish qobiliyatidir.* U doim inson aqli va joni birgalikda amalga oshirgan

katta ish mahsuli hisoblanadi. Shu ma'noda faqat iste'dodli, mehnatkash va tirishqoq odamlargina intuitiv bilishga qodir.

Intuitsiya muammosi falsafa va tabiatshunoslik tarixida har xil, ba'zan bir-birini istisno etuvchi yondashuvlar, nuqtayi nazarlar va tasavvurlar bilan tavsiflanadi. Antik falsafadayoq bu muammo atrofida keskin bahslar bo'lgan. Ioniya falsafasi namoyandalari intuitsiyaga bevosita bilim, sezgi a'zolari orqali bilish shakli deb qaragan bo'lsalar, eley maktabi vakillari, shuningdek Levkipp va Demokrit bevosita bilim va sezgi a'zolari orqali bilishni rad etganlar, sezgilarni soxta deb e'lon qilganlar. Suqrot talqinida intuitsiya «daymoniy» yoki «predmet g'oyasiga egalik»dir. Platon ham hissiy bilishni haqiqat emas deb hisoblagan.

5.3. Haqiqatning asosiy shakllari va kontseptsiyalari

Haqiqat – bilish nazariyasining bosh kategoriyasi. U borliqning bilishdagi ideal ifodasi, chunki haqiqat ongdan, bilayotgan subektdan tashqarida va undan qat'iy nazar mavjuddir. Haqiqat – bilimlarning obektiv borliqqa muvofiq bo'lgan mazmuni. U bilish jarayoni, bilish in'ikosining natijasidir. Haqiqat ilmiy nazariyada mujassamlashgan anglab yetilgan tasdiqlovchi mulohazalar ko'rinishida o'z ifodasini topadi. Har qanday ilmiy nazariya rivojlantirilishi, ba'zan boshqa, yanada haqiqiyroq nazariya bilan almashtirilishi lozim. Shu ma'noda haqiqat – bilish rivojlanishining yakuni va ayni vaqtda omilidir.

Falsafa tarixida haqiqat (bilimlarning haqiqiyligi) muammosi qadimgi davrlardayoq ta'riflangan. "Avesto"da haqiqat oliy sharofatdir deyiladi. Darhaqiqat insoniyat doimo haqiqatga intilgan. Zero haqiqat adolatga, sharofatga eltadigan buk qudrat. Aristotel fikricha haqiqat – mulohazalar va amaldagi holat o'rtasidagi muvofiqlikdir.

Platon haqiqatni g'oyalar dunyosiga mos keluvchi g'ayritabiiy mustaqil ideal mohiyat sifatida tushungan, inson bilimi jonning shu g'oyalar dunyosi bilan mushtarakligi darajasidagina haqiqiydir, deb hisoblagan.

Foma Akvinskiy haqiqat yolg'on narsalarda emas, balki aqlda mavjud bo'ladi, har bir narsa o'zi bog'liq bo'lgan aqlga munosabati darajasidagina haqiqiy deb nomlanishi mumkin, deb qayd etgan.

Beruniy fikricha haqiqat bilimning voqelikka muvofiqligidir. Forobiy fikricha haqiqatni bilish aqlning kamolotiga bog'liq. Bu aql inson qalbidadir, uning kamolotiga esa faol aqlga qo'shilish orqali erishiladi. Faol aqlda borliqning eng oliy darajasi bo'lgan Birinchi sababdan boshlab to oxirgi haqiqatning barcha sura shakllari mavjud. Shuningdek Forobiy va uning izdoshlari fikricha, haqiqat bir nechta bo'lishi mumkin emas, haqiqat bitta, shu bois falsafa ham bir nechta bo'lishi mumkin emas. Forobiy haqiqatning

o‘zgarmasligiga ishongan va falsafani haqiqatning birdan bir ifodasi deb hisoblagan[6].

Gegelda haqiqatni tushunish uning falsafasi asosiy tamoyili bilan bog‘liq. Bu tamoyilga binoan g‘oya o‘zining to‘liq va muayyan ko‘rinishida «o‘zida va o‘zi uchun borliqqa ega bo‘lgan haqiqat»dir. Gegel fikricha haqiqat o‘zining mavxum ko‘rinishida muayyan mazmunning o‘ziga muvofiqligini anglatadi. Hamonki bu mazmunning to‘liqligiga mutlaq g‘oyaning o‘z-o‘zidan harakati natijasida erishilar ekan, Gegel o‘zining haqiqatni tayyor holda berilishi va shu holda cho‘ntakka solib qoyish mumkin bo‘lgan zarb etilgan tanga sifatida emas, balki sof tafakkur sohasida bilimlarning dialektik shakllanish jarayoni sifatida tushunish lozimligi haqidagi mashhur tezisini ta’riflaydi: «...hamma gap haqiqiy narsani substansiya sifatida emas, balki shuningdek subekt sifatida», ya’ni tafakkur faoliyati sifatida ham tushunish va ifodalashda[7].

Haqiqatni obektiv-idealistik tushunishning o‘ziga xos xususiyati unga dunyoning ongda aks etish jarayoniga bog‘lamasdan qarash va uni insonning obekt haqidagi bilimi xossasi sifatida emas, balki empirik borliqqa qo‘shimcha tarzda obektivlashgan qandaydir vaqtdan tashqaridagi g‘oyaning xossalari sifatida talqin qilishda namoyon bo‘ladi.

Haqiqatni subektiv idealistik tushunish esa inson bilimining xossalari va tarkibi bilan bog‘lanadi, biroq mazkur bilim unda tashqi, mustaqil dunyoning aks etishiga bog‘lanmaydi, chunki bunday dunyoning mavjudligi inkor etiladi. Haqiqat «tafakkurning tejamkorligi»(1) sifatida (Max), foydali natijalarga erishish imkonini beruvchi jarayon, tafakkurimiz obrazidagi qulaylik sifatida (Jeyms), inson tajribasining mafkuraviy ta’rifni tashkil etuvchi shakli sifatida (Bogdanov) talqin qilinadi.

Obektiv haqiqat – bilimlarimizning inson insoniyatga bog‘liq bo‘lmagan mazmuni. Bizning bilimlarimizda doim yo muayyan odamga, yo muayyan ijtimoiy guruhga bog‘liq bo‘lgan unsur mavjud bo‘ladi. Binobarin, o‘z bilimlarimizda subektiv unsurlarga bog‘liq bo‘lmagan va shu sababli obektiv hisoblanadigan mazmunni qayd etishimiz lozim. Obektiv haqiqat rivojlanib, ikki shakl: nisbiy va mutlaq haqiqat shakllarida amal qiladi.

Mutlaq haqiqat – predmetni kelajakda to‘ldirilishi yoki unga aniqlik kiritilishi mumkin bo‘lmagan tarzda to‘la, mukammal bilishdir. Olam zamon va makonda cheksizligi tufayli bunday bilimga amalda erishish mumkin emas. Haqiqat tushunchasini mutlaq haqiqat tushunchasi bilan tenglashtirib, biz unga erishib bo‘lmasligi, demak, umuman bilish mumkin emasligi haqida gapiramiz. Biroq fanning haqiqiy tarixi buning teskarisidan dalolat beradi: fan rivojlanadi, chunki u nisbiy va mutlaq bilimning birligi sifatida

[6] Қаранг.С.М. Ҳотамий Ислом тафаккури тарихидан. –Т.: Минҳож, 2003.-Б.126

[7] Қаранг: Гегель. Феноменология духа. – М.: Наука, 1994. – С.196

tushuniladigan haqiqatni bilishga qodir. Boshqacha aytganda, obektiv haqiqat to‘la va mukammal ko‘rinishdagi mutlaq haqiqatdir. Ayrim hollarda, agar haqiqat vaqt o‘tishi bilan o‘zgarmasa, ya’ni vaqt shart-sharoitlariga bog‘liq bo‘lmasa, u boqiy haqiqat deb ataladi.

Nisbiy haqiqat – borliqni asosan to‘g‘ri aks ettirsa-da, obraz obektga uncha mos emasligi bilan ajralib turadigan bilim. Nisbiy haqiqat to‘g‘ri, biroq noto‘liq, taxminiy, vaqt va joyning ma’lum tarixiy shart-sharoitlari bilan cheklangan haqiqatdir.

Nisbiy va mutlaq haqiqat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Nisbiy haqiqatlar bilish taraqqiyoti jarayonida rivojlanib, o‘z chegarasi bo‘lgan mutlaq haqiqatga yaqinlashadi.

Biroq bilishning tarixiy rivojlanish jarayoni nafaqat nisbiy haqiqatlarning mutlaq haqiqatga aylanish jarayoni, balki ayrim mutlaq haqiqatlarning yuzaga kelish jarayoni hamdir. Bu fikrni fizikada atom va uning tuzilishi haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi misolida ko‘rishmumkin. Yuz yil muqaddam fiziklar va ximiklar atomlar amalda mavjud va ajralmas sharchalar ko‘rinishida, deb taxmin qilar edilar. Bu tasavvur zamirida mutlaq haqiqat unsurlari mavjud edi. Bundan: «Kimyoviy elementlarning atomlari amalda mavjud», degan xulosa kelib chiqadi. Fizika va kimyoning keyingi rivojlanishi mutlaq haqiqatning bu elementini bekor qilmadi. Biroq bu tasavvurlarda xatolar mavjudligi (taranglik, ajralmaslik va h.k.) aniqlandi.

XIX asr oxirida elektronlar kashf etilishi natijasida atom tuzilishining yangi manzarasi yaratildi. Tomson musbat zarralar va manfiy zaryadli elektronlardan tashkil topgan atom modelini yaratdi. Atomning bu nisbatan haqiqiy manzarasida mutlaq haqiqatning yangi unsurlari paydo bo‘ldi: Darhaqiqat atom musbat zaryadli zarralardan iborat.

Nisbiy va mutlaq haqiqat dialektikasi bizning bilimimiz atrofimizdagi olamni har tomonlama va aniq qamrab olishga intilib, qarama-qarshiliklarni yechib, obektiv borliqni yanada teranroq va mukammalroq aks ettirishini ko‘rsatadi.

5.4. Falsafada metod va metodologiya, metodika tushunchalari

“Metafizika” (yunon.- fizikadan keyin) - dialektika kabi universal metoddir. Bu so‘z ilmiy muomalaga er. av. I asrda Aristotelning shogirdi, uning she’rlari sharhovchisi Rodosskiy tomonidan kiritildi. Mutafakkir asarlarini bir tizimga solar ekan, u borliq va bilish haqidagi umumiy masalalarni fizikadan so‘ng "birinchi falsafa"ning (mohiyat, sabab va boshqa) ikkinchi falsafadan farqli xususiy-ilmiy bilimlarni o‘rganadigan qismi sifatida talqin qilgan.

Ko‘p hollarda, dialektikaga qarama-qarshi deb talqin etiladigan *metafizika olamdagi narsa va hodisalarni o‘rganishda ularning muayyan*

vaqt davomida nisbatan o'zgarmasdan, alohida turgan holatiga diqqatni ko'proq qaratadigan usuldir.

Hozirgi davr fanida metafizika uch asosiy ma'noga ega:

1. Falsafa umumiy hodisalar haqidagi fandir. Bu ta'limotning asoschisi Aristotel bo'lib, u "narsaning birinchi turi" haqidagi ta'limotdir. Bu ma'noda, "metafizika" tushunchasini XX acpning yirik nemis faylasufi M. Xaydegger ham o'rganadi. Uningcha, bu kategoriya bilishning obyekti va subyektini bir vaqtda ifodalovchi tushunchadir.

2. Maxcyc falsafiy fan ontologiya, umuman, borliq haqidagi ta'limot bo'lib, nazariya bilish mantig'i va uning xususiy ko'rinishlaridan mustasnodir. Shu ma'noda, bu tushuncha G'arb falsafasida o'tmishda ham (Dekart, Leybnits, Spinoza va h.k.), hozirda ham keng qo'llaniladi.

3. U bilish (tafakkur) va harakatni falsafiy tushunish ma'nosida dialektikaga qarama-qarshi qoyiladi. Bunda shu ma'nodagi tushuncha, ya'ni antidialektika haqida so'z boradi. Uning eng asosiy xususiyatlaridan biri bir tomonlamalik bilish jarayonining faqat bir qismini mutlaqlashtirishdir.

Falsafa tarixida metafizika (dialektika kabi) hech qachon o'zgarmasdan qolmagan. U turli tarixiy shakllarda namoyon bo'lgan.

Eski metafizika XVII—XIX acp falsafasi va fanida ayniqsa kamol topdi (metafizik materializm, naturfalsafa, falsafa tarixi va h.k.) *Metafizikaning bu shakliga xoc xususiyat umumiy o'zaro aloqadorlik va taraqqiyotni inkor qilish, olamga bir butun tizimli yondashuvning yo'qligi, tafakkurning ikkilanuvchanligi, umumiy dunyoviy aloqadorlikning tugaganligiga ishonishdir.*

Eski metafizik tafakkur uslubi shakllanishining obyektiv asoslari butunning alohida elementlari xususiylikni, alohida tomonlar (fikran) nima uchun bir butunlikdan ayri holda bo'lishi va bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishini tushuntirish zaruriyatidir. Bu usul kundalik turmushda, aql darajasida, predmet taraqqiyotidagi aloqa munosabatlarda zarur va to'g'ridir. Shuning uchun metafizikaning bu shakli predmetlardagi barqarorlikni, ulardagi o'zgarishlarni tizimli o'rganish, taraqqiyotning manbalari va mexanizmlarini aniqlash bilan bog'liq.

XIX—XX acplarda eski metafizikadagi keskin kurashda taraqqiyot g'oyasining yangi dalillar bilan mustahkamlanishi ikki muhim natijaga olib keldi: dialektik tafakkurning yangi uslublari paydo bo'ldi; XX asrda eski metafizikaning ilmiy dalillarini inkor qiluvchi yangi metafizika shakllandi.

Yangi metafizika *eski metafizikadan farqli o'laroq, narsalarning umumiy aloqadorligini va ular taraqqiyotini inkor qilmaydi.* Bu fandagi va jamiyatdagi buyuk kashfiyotlar davrida absurddir. Antidialektika yangi shaklining asosiy xususiyati — taraqqiyotni izohlashning turli variantlari va yo'llarini izlashdan iborat.

Buni quyidagi yo‘nalishlarda tushunish mumkin:

a) eng umumiy, abadiy o‘sish, o‘zgarish yoki aksincha kichrayish (tekis evolyutsionizm) tarzida;

b) xuddi sifat o‘zgarishlari kabi sakrashlar zanjiri (katastrofizm) shaklida;

v) takrorlash sifatida qat’iy liniyali yo‘nalishga ega bo‘lgan doimiy jarayon (to‘g‘ri chiziqli rivojlanish) holatida;

g) hech qanday yangiliklarsiz aylana doirasidagi abadiy harakat ko‘rinishida;

d) mohiyatidan ziddiyat kelib chiquvchi harakat sifatida;

ye) progress sifatida, ya’ni oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga intilish tarzida. Taraqqiyotning o‘zaro aloqadorlik va ta’sirning boshqa aralash izohlari ham bo‘lishi mumkin.

Sofistika. Sofistika falsafiy metodlar jumlasidan bo‘lib, qadimgi Yunonistonda mil. av. V va IV asrning birinchi yarmida ijtimoiy-siyosiy hayotda xususiy bir yo‘nalish sifatida paydo bo‘lgan. Sofistika namoyandalari Protagor, Gorgiy, Gippiy, Antifont va boshqalardir. Sofistikaning paydo bo‘lishi antik Yunonistonda iqtisodiy taraqqiyotga bo‘lgan ehtiyoj bilan bog‘liq. Bu oila urug‘ an’analaridagi turg‘unlikni bartaraf qilish, yangi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga ehtiyoj davri edi. Sofistikaning inqirozi eramizdan avval IV acp o‘rtalarida boshlandi. Eramizning II asrida klassik yunon sofistlarining g‘oya va uslublarini qayta ishlashga intiluvchi Yangi oqim paydo bo‘ldi.

Sofizm — qarama-qarshi fikrlar asosida ixtiyoriy tanlangan foydali mulohaza bo‘lib, uning yordamida har qanday narsa yoki fikrni isbotlay olish mumkin. Masalan, Aristotelning yozishicha, bir afinalik ayol o‘g‘liga, jamoa ishlariga aralashma, chunki agar to‘g‘ri gapirsang, seni odamlar; Yolg‘on so‘zlasang — Xudolar yomon ko‘radi, degan ekan. Sofizmga ko‘ra afinalik ayolga shunday rad javobi berish mumkin: sen jamoa ishlarida ishtirok qilishing kerak, chunki to‘g‘ri so‘zli bo‘lasan va buning uchun seni Xudolar ham, odamlar ham yaxshi ko‘radi.

Eklektika. Eklektika hech qanday bilim faoliyati bilan bog‘lanmagan, bir-biriga zid dalillarga asoslanadi va olamni buzib yolg‘on aks ettiradi. U bilim tizimi rivojidagi yo‘nalish, u hech qanday yagona nazariy asosga ega emas va ba’zida obyektni o‘rganishning ziddiyatli jihatlarini xarakterlovchi bilim elementlaridir.

Metodologik usul sifatida eklektika birinchi marta qadimgi yunon falsafasida paydo bo‘ldi va iqtiboslarga asoslangan o‘rta acp sxolastik bahslarida, Yangi davr XV-VIII asrlar falsafiy bahslarida keng foydalanildi. U hozirgi davrda ham reklama va tashviqotda, ommaviy kommunikatsiya tizimida qo‘llanilib, inson psixikasidagi an’analar, ko‘nikmalar, intilishlarni bo‘rttiradi. Bunday usulning bema’niligini Suqrot va Aristoteldan boshlab,

hozirgi davr mutafakkirlarigacha tanqid qiladilar. Ammo bu undan foydalanilmaslikni anglatmaydi. Eklektika olam, narsa va hodisalarning bir butunligini, umumiy asoslarini parchalab tashlash uslubiga tayanadi.

Sinergetika. Hozirgi zamon fanida sinergetika metodi keng qo'llanilmoqda. Sinergetika so'zi yunoncha ("sinergena") bo'lib, kelishuv, hamkorlik, o'zaro ta'sir kabi ma'nolarni anglatadi. German Xakenning fikricha, sinergetika ko'p qismlardan iborat bo'lgan, o'zaro murakkab aloqadorlikdagi komponentlar tizimini o'rganadi. Xaken fikricha sinergetika hamkorliqdagi harakat bo'lib, butunning tizim sifatida aks etuvchi qismlarining kelishilgan faoliyati ma'nosida talqin qilinadi.

Sinergetika - olamning o'z-o'zini tashkil etishi, makon va vaqtda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog'lanishlar asosida mavjudligini e'tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir. Bu ta'limotni dialektika asosida shakllangan va uni to'ldiradigan ilmiy qarashlar majmuasi deydiganlar ham bor. Ularga qarshi o'laroq, dialektika endi kerak emas, uni sinergetika bilan almashtirish lozim, deb hisoblovchilar ham yo'q emas.

Sinergetikada bifurkatsiya, fluktuatsiya, tartibsizlik, dissipatsiya, g'alati attraktorlar, chiziqsizlik singari tushunchalar mashhur. Ulardan tizimlar barcha turlarining, jumladan old organizmik, organizmik, ijtimoiy, etnik, ma'naviy va boshqa tizimlarning xulq-atvorini tushuntirish uchun foydalaniladi.

Bifurkatsiya ikkilanish nuqtalarining mavjudligini hamda rivojlanish davomining har xilligini nazarda tutadi. Ularning faoliyati natijalarini oldindan bashorat qilish qiyin. I. Prigojinning fikriga ko'ra, bifurkatsiya jarayonlari tizimning murakkablaShuvidan dalolat beradi. N. Moiseyevning fikricha, «ijtimoiy tizimning har bir holati bifurkatsiya holatidir».

Fluktuatsiyalar umumiy holda ta'sirlantirishni anglatadi. Ularning ikki katta turkumi: tashqi muhit yaratadigan fluktuatsiyalar va tizimning o'zida vujudga keladigan fluktuatsiyalar farqlanadi. Ba'zan fluktuatsiyalar juda kuchayib, tizimni to'la egallab olishi va mohiyat e'tibori bilan uning mavjudlik tartibini o'zgartirib yuborishi mumkin. Ular tizimni unga xos bo'lgan «tartib turi»dan olib chiqadi, ammo xaosga olib chiqadimi yoki yo'qmi – bu masalaning boshqa tomoni.

Dissipativ tizim ta'sirlar tarqaladigan tizim hisoblanadi. Umuman olganda, bu fluktuatsiyalar to'la qamrab olgan tizim xulq-atvorining xususiyatidir. Har xil ta'sirlarga o'ta ta'sirchanlik va buning natijasida haddan tashqari nomuvoziylik – dissipativ tizimning asosiy xossasidir.

Attraktorlar to'plamlarni o'ziga tortuvchi, elementlar intiladigan markazlarni hosil qiluvchi tuzilma. Masalan, bir yerga olomon to'planganida, o'z yo'nalishida harakatlanayotgan odam unga e'tibor bermasdan o'tib keta olmaydi. Uning trayektoriyasi olomon tomonga

buriladi. Kundalik hayotda bu qiziquvchanlik, deb ataladi. O‘z-o‘zini tashkil yetish nazariyasida mazkur jarayon «to‘planish nuqtasiga siljish» deb nomlanadi. Attraktorlar o‘z atrofiga stoxastik elementlarni to‘playdi, shu tariqa muhitni tuzilmalarga ajratadi va tartib o‘rnatish ishtirokchisiga aylanadi.

Nazorat savollari

1. Gnoseologiya nimani o‘rganadi?
2. Bilishning bosqichlari falsafiy muammo sifatida?
3. Haqiqatning namoyon bo‘lish shakllari?
4. Dialektika va metafizika metodlarining mohiyati va mazmunini ayting?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Bilish jarayoni qanday amalga oshishi haqida referat tayyorlang.
2. Bilish darajalari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plang va tushuntiring.
3. Haqiqatning praksiologik jihatini ta’riflab bering

VI BOB. MANTIQ

6.1. Mantiq ilmining asosiy masalalari va ularni tadqiq etish yo‘nalishlari. Mantiq fanining predmeti.

6.2. Mantiq fanining fikr yuritish madaniyatini o‘stirishdagi ahamiyati. Mantiq ilmi va til.

6.3. Mantiq fani va ilmiy bilish metodologiyasi. Mantiq fanining ilmiy ishonch – e’tiqodning shakllanishida tutgan o‘rni

6.4. Formal mantiq to‘g‘ri tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fan sifatida.

6.5. Tafakkur shakli va tafakkur qonuni tushunchalari

Tayanch tushunchalar: tafakkur, tushuncha, belgi, hukm, xulosa chiqarish.

6.1. Mantiq ilmining asosiy masalalari va ularni tadqiq etish yo‘nalishlari. Mantiq fanining predmeti

Zamonamiz fanlarning barchasiga inson qadr – qimmati, uning axloqi, madaniyati nuqtai nazaridan qarashni taqozo etadi. Mantiq fani ham bundan istisno emas. Inson hayotining sifatini yaxshilash uning moddiy, ma’naviy, ayniqsa axloqiy ravnaqi, sog‘lom turmush tarzi, mustaqil, erkin fikr yuritish qobiliyatiga ega bo‘lishi bilan bog‘liq.

Inson muammosini hal qilishda,ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lgan, mantiq ilmi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, hozirgi jamiyatga xos murakkab ijtimoiy munosabatlarni, qilinayotgan muhim ilmiy kashfiyotlarni tushunib yetish uchun yuqori darajadagi mantiqiy fikrlash madaniyatga ega bo‘lish lozim.

Talabalarga “Mantiq” fanini o‘qitishdan maqsad ularni to‘g‘ri fikrlashning mantiqiy shakllari va qonun-qoidalari bilan tanishtirish asosida mantiqan izchil, asosli muhokama yuritishga o‘rgatish, aniq fikrlay oladigan barkamol inson etib tarbiyalash, ularda yangi turmush va tafakkur tarzini qaror toptirish va shu tariqa yetuk mutaxassis bo‘lishlari, yangi demokratik jamiyat qurishning faol ishtirokchilariga aylanishi uchun zarur nazariy tayyorgarlikka va amaliy ko‘nikmalarga ega qilishdan iborat.

Bu fanni o‘qitishda quyidagilarga e’tibor beriladi:

– talabalarga to‘g‘ri muhokama yuritishning mantiqiy shakllari va qoidalarini o‘zlashtirishga yordam berish, ularning mustaqil fikrlash madaniyatini yuksaltirish;

– xato fikrlarning paydo bo‘lish sabablari bilan tanishtirish, ularning oq-qorani tushunib yetishiga, buzg‘unchi g‘oyalar bilan yaratuvchi g‘oyalar, shu jumladan, milliy g‘oyani ajrata oladigan bo‘lishiga erishish;

– ularni xulosaviy bilimlar hosil qilish, muammolarni yaratish va hal etish, farazlarni ilgari surish va asoslash usullari, qoidalari bilan tanishtirish;

– talabalarga muloqatda bo‘lish va, ayniqsa, savol-javob qilish, bahs yuritish sir-asrorlarini o‘rgatish;

– ularni ilmiy bilimlarning mantiqiy tuzilishlari hamda ilmiy nazariyalarning mantiqiy qurilishi bilan tanishtirish va boshqalar.

Kelib chiqishiga ko‘ra arabcha bo‘lgan “**mantiq**” (**grekcha**–logos) atamasi «**fikr**», «**so‘z**», «**aql**», «**qonuniyat**» kabi ma’nolarga ega. Uning ko‘pma’noligi turli xil narsalarni ifoda qilishda o‘z aksini topadi. Xususan, mantiq so‘zi, birinchidan, obyektiv olam qonuniyatlarini (masalan, «obyektiv mantiq», «narsalar mantig‘i» kabi iboralarda), ikkinchidan, tafakkurning mavjud bo‘lish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar o‘rtasidagi aloqadorlikni xarakterlaydigan qonun-qoidalar yig‘indisini (masalan, «subyektiv mantiq» iborasida) va uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fanni ifoda etishda ishlatiladi.

Mantiq ilmining o‘rganish obyektini tafakkur tashkil etadi. «Tafakkur» ham arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilidagi «fikrlash», «aqliy bilish» so‘zlarining sinonimi sifatida qo‘llaniladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichidir. Uning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun bilish jarayonida tutgan o‘rni, bilishning boshqa shakllari bilan bo‘lgan munosabatini aniqlab olish zarur.

Bilish voqyelikning, shu jumladan, ong hodisalarining inson miyasida subyektiv, ideal obrazlar shaklida aks etishidan iborat. Bilish jarayonining asosini va oxirgi maqsadini amaliyot tashkil etadi. Barcha hollarda bilish insonning hayotiy faoliyati bilan u yoki bu darajada bog‘liq bo‘lgan, uning ma’lum bir ehtiyojini qondirishi mumkin bo‘lgan narsalarni tushunib yetishga bo‘ysundirilgan bo‘ladi. Bilish jarayonini amalga oshirar ekan, kishilar o‘z oldilariga ma’lum bir maqsadni qo‘yadilar. Ular o‘rganilishi lozim bo‘lgan predmetlar doirasi, tadqiqot yo‘nalishi, shakllari va metodlarini belgilab beradi.

Bilish murakkab, ziddiyatli, turli xil darajalarda va shakllarda amalga oshadigan jarayondir. Uning dastlabki bosqichini hissiy bilish – insonning sezgi organlari yordamida bilishi tashkil etadi. Bu bosqichda predmet va hodisalarning tashqi xususiyatlari va munosabatlari, ya’ni ularning tashqi tomonida bevosita namoyon bo‘ladigan va shuning uchun ham inson bevosita seza oladigan belgilari haqida ma’lumotlar olinadi.

Hissiy bilishning barcha shakllariga xos bo‘lgan xususiyatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, hissiy bilish obyektning (predmetning yoki uning birorta xususiyatining) subyektga (individga, to‘g‘rirog‘i, uning sezgi organlariga) bevosita ta’sir etishini taqozo etadi. Tasavvur ham bundan istisno emas.

Unda obrazi qayta hosil etilayotgan (yoki yaratilayotgan) predmet emas, u bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa predmet–signal ta’sir etadi.

Ikkinchidan, hissiy bilish shakllari: sezgi, idrok va tasavvur predmetning tashqi xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiradi.

Uchinchidan, hissiy bilish shakli predmetning yaqqol obrazidan iborat.

To‘rtinchidan, hissiy bilish konkret individlar tomonidan amalga oshirilganligi uchun ham har bir alohida holda konkret insonning sezish qobiliyati bilan bog‘liq tarzda o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi.

Beshinchidan, hissiy bilish bilishning dastlabki va zaruriy bosqichi hisoblanadi. Usiz bilish mavjud bo‘la olmaydi. Chunki inson tashqi olam bilan o‘zining sezgi organlari orqali bog‘langan. Bilishning keyingi bosqichi, boshqa barcha shakllari sezgilarimiz bergan ma’lumotlarga tayanadi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, hissiy bilish tafakkur bilan uzviy bog‘liq. Xususan, nazariy bilimlarning chinligi oxir-oqibatda empirik talqin qilish yo‘li bilan, ya’ni tajribada bunday bilimlarning obyektini qayd etish orqali asoslanadi. O‘z navbatida, hissiy bilish, umuman olganda, aql tomonidan boshqarilib turadi, bilish oldida turgan vazifalarni bajarishga yo‘naltiriladi, ijodiy fantaziya elementlari bilan boyitiladi. Masalan, guvohlarning bergan ko‘rsatmalari asosida jinoyatchining portreti (kompyuter yordamida fotoroboti yaratiladi yaqqol his qilinadi va qidiriladi.

Lekin, shunga qaramasdan, hissiy bilish o‘z imkoniyatlari chegarasiga ega. U bizga alohida olingan predmetlar (yoki predmetlar to‘plami), ularning tashqi belgilari haqida ma’lumot beradi. Unda mavjud predmetlar o‘rtasidagi aloqadorlik (masalan, muz bilan havoning harorati o‘rtasidagi bog‘lanish) o‘rganilmaydi, predmetlarning umumiy va individual, muhim va nomuhim, zaruriy va tasodifiy xususiyatlari farq qilinmaydi.

Mantiq fanining predmeti. Mantiq fanining yo‘nalishlari

Mantiq keng ma’noda olamdagi qonuniy, zaruriy bog‘lanish va aloqalar, tartib va izchillik, tafakkurimizning ichki aloqadorligi, tadrijiy rivojlanishi, turli fikrlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni ifodalaydi. Tafakkur voqyelikni umumlashtirib va mavhumlashtirib, muayyan mantiqiy shakllarda, ya’ni tushuncha, hukm va hulosa chiqarish hamda ular o‘rtasidagi aloqalar shaklida aks ettirib, ma’lum mantiqiy qonun – qoidalarni vujudga keltiradiki, to‘g‘ri, aniq, izchil, ziddiyatlardan holi fikrlash ana shu qonun – qoidalarga amal qilishni taqoza etadi. Bu qonun-qoidalar amaliyotda vujudga kelgan bilimlarni isbotlashga yoki rad etishga, ularning to‘g‘riligi yoki xatoligini tasdiqlashga yoki inkor etishga xizmat qiladi.

Tafakkurni mantiq fanidan tashqari falsafa, fiziologiya, psixologiya, dialektika, kibernetika fanlari ham o‘z predmeti nuqtai nazaridan o‘rganadi. Grammatika mantiq faniga yaqin. Tushuncha va hukmlarning ifodalanish strukturasini aniqlashda grammatikaning roli katta. Biroq yuqorida tilga

olingan fanlarning har biri tafakkurga o‘z nuqtai nazaridan yondoshadi, uning turli qirralarini ochib beradi. Hozirgi kunda mantiq ilmining o‘zining ham turli yo‘nalishlari,tarmoqlari mavjud, ular orasida inson tafakkurini eng oddiy qonun – qoidalar bilan qurollantiradigan, uni to‘g‘ri fikrlashning tamoyillari bilan tanishtiradigan muhim tarmog‘i formal mantiq bo‘lib, u tarixiy kelib chiqishini e’tiborga olgan holda an’anaviy mantiq, ommaviyligi nuqtai nazaridan esa, umumiy mantiq deb ham yuritiladi.

Mantiq fani inson tafakkurining eng umumiy shakllari, qonunlari va fikrlash usullarini o‘rganadi. Mantiq fani tafakkurni rivojlantiradi, insonda umumiy tushunchalar, kategoriyalar bilan ish ko‘rish ko‘nikmalarini hosil qiladi. Bu esa, bugungi fan texnika rivoji jadallashgan sharoitda ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ilmiy – nazariy ma’lumotlarni samarali tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Formal va dialektik mantiq fanlari

Falsafiy adabiyotlarda dialektik mantiq bilan formal mantiq mavjudligi ta’kidlanadi. Bularning birinchisi tafakkur shakllarini ularning rivojlanishida olib qarasa, ikkinchisi ularni shakllangan fikrlar sifatida o‘rganadi. Shuningdek, dialektik mantiq tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida olib o‘rgansa, formal mantiq fikrning shaklini uning konkret mazmunidan chetlashgan hamda nisbatan mustaqil holda olib tadqiq etadi. Shuning uchun dialektik mantiq fikrlarimizning taraqqiyoti, rivojlanishini, formal mantiq esa nisbiy turg‘unligini aks ettiradi. Dialektika fikrlashning formal mantiq qonun – qoidalariga amal qilishni taqazo etadi. Dialektika ham, formal mantiq ham hamma vaqt falsafa tarkibida rivojlanib kelgan.

Dialektika esa rivojlanish jarayonida aynanlik, tafovutlar va qarama – qarshiliklar darajasiga ko‘tariladi, nozidlik taraqqiyot manbai bo‘lmay, balki ular o‘rtasidagi qarama – qarshilik taraqqiyotni ta’minlaydi, deb ko‘rsatadi. Formal mantiq va dialektik mantiq bir – biriga muqobil metodlarga asoslanadi. Ular mustaqil ta’limot hisoblanadi. Dialektik mantiq falsafiy metod sifatida, falsafaning muhim tarkibiy qismi sifatida mavjud bo‘lsa, formal mantiq mustaqil fan sifatida shakllangan ta’limotdir.

Matematik mantiq fani

Matematik mantiq – fikrlash jarayonini turli simvollar yordamida, matematik usul asosida o‘rganadi. Bu ta’limot mantiq fanining rivojlanishidagi yangi bosqich hisoblanadi. Ammo matematik mantiqning matematikaning o‘zidan ham, mantiq ilmidan ham farqli tomonlari bor. Shuning uchun matematikaning barcha tomonlarini bu mantiq qonunlari bilan izohlab bo‘lmaydi. Shuningdek, mantiqiy qonun va shakllarining hammasini ham matematik usul bilan hal qilib bo‘lmaydi. Shunga qaramasdan matematik usul mantiq faniga singib bormoqda, uning ajralmas qismi bo‘lib takomillashmoqda.

Hozirgi zamon mantiq ilmini simvollarsiz, matematik mavhumiyliksiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun mantiq ilmi mutaxassislari matematik mantiq asoslari bilan tanish bo‘lishlari zarur.

Mantiq jarayonini turli simvollar bilan ifodalashga intilish Arastu asarlaridayoq ko‘zga tashlanadi. XVI – XVII asrlarga kelib, mexaniqa va matematika fani rivojlanishi bilan matematik metodni mantiqqa tadbiq etish imkoniyati kengaya bordi. Nemis faylasufi Leybnis har xil masalalarni yechishga imkon beruvchi mantiqiy matematik metod yaratishga intilib, mantiqni matematiklashtirishga asos soldi.

Mantiqiy jarayonni matematik usullar yordamida ifodalash asosan XIX asrlarga kelib rivojlana boshladi. Bu davrda yashagan rus olimi I. S. Poreskiy, nemis va ingliz olimlari J. Bul, Furye, Morgan, Shryoder kabilar o‘zlarining asarlarida bu masalaga oid muhim fikrlarni ilgari surishdi. Hozirgi vaqtda matematik mantiq metodlari fan va texnikada, kibernetikada tarjimon mashinalarda va boshqa ko‘p halq xo‘jaligi sohalarida qo‘llanilmoqda.

Formal mantiq - fikrlashning tuzilishi va uning qonunlari haqidagi fandir. Formal mantiq fikrlashning rivojlanishini, uning takomillashish jarayonini o‘rganishni o‘zidan soqit qiladi. U fikrlashning mantiqiy tuzilishini, shaklini o‘rganadi. Insonning fikrlash shakli, tuzilishi turli qonunlarga asoslanadi va ularni keltirib ham chiqaradi. Mantiqiy shakllarni simvollar yordamida ifoda etish mumkin. Masalan, «Hamma ziyolilar aqliy mehnat bilan shug‘ullanadilar», «Hamma kapalaklar hasharotdir» degan fikrlarning mazmuni turlicha bo‘lsada, ularning tuzilishi, shakli bir xildir. Shuning uchun ularni «Hamma S – R dir» yoki «Hamma a – v dir», deb ifodalash mumkin.Formal mantiq va klassik mantiq tushunchalari sinonim tushunchalar bo‘lib,unda mulohaza(hukm)lar ikki qiymatli, ya’ni chin yoki xato bo‘ladi.

Klassik mantiqdan farq qiluvchi hozirgi zamon mantig‘i turli yo‘nalishlardan iborat bo‘lib, ular birgalikda noklassik mantiq deb nomlanadi.

6.2. Mantiq fanining fikr yuritish madaniyatini o‘stirishdagi ahamiyati. Mantiq ilmi va til

Mantiq bilish, to‘g‘ri fikrlash metodlarini o‘rganuvchi fandir. Ilmiy bilish jarayonida metod muammosi qadimgi davr falsafasida qo‘yilgan. Xususan, Sokrat mayevtika usulini, Demokrit “Kanon”larda (kanon-mezon, qoida) tayyor bilimlarning chin yoki xatoligini aniqlaydigan usullarni ishlab chiqqan. Aristotel “Organon”ida (organon-bilish quroli) fikrni mantiqan to‘g‘ri qurish va chin bilim hosil qilish vositalarini tadqiq etgan. Keyinchalik mantiq kanonmi yoki organonmi?, degan savol mantiqda keng muhokama qilingan.

Yangi davrda F. Bekon birinchilardan bo‘lib metod muammosini mantiq fani doirasida tahlil qilgan. R. Dekart va I. Kantlar ham bu masalaga alohida e’tibor qaratganlar. Gegel metodologiya rivojiga muhim xissa qo‘shdi. Albatta, ilmiy bilish jarayonida har bir fan konkret tadqiqot obyektiga ega ekan, o‘zining maxsus tadqiqot usullarini ishlab chiqishi zarur. Masalan, fizikaga N.Bor qo‘shimcha qilish prinsipini kiritgan.

Ba’zi bir fanlar tadqiqot obyektlari bo‘yicha bir – biriga yaqin bo‘lgani uchun, ularning tushunchalari, qonunlari va metodlari ham bir – biriga yaqindir. Xususan, bilishda xususiylik va umumiylik vazifasini bajaruvchi usullar mavjuddir. Ko‘pchilik fanlarda qo‘llaniladigan usullar umumiy usul deyiladi. Umumiy usul qo‘llanilishi doirasiga ko‘ra umumiy bo‘lgani bilan o‘z maxsus vazifasiga ega. Bunga misol qilib mantiq fanidagi tushuncha hosil bo‘lishining analiz va sintez, umumlashtirish va mavhumlashtirish kabi usullarini, shuningdek induksiya va deduksiya, qiyoslash va modellashtirishni ko‘rsatish mumkin. Bular bilishning umummantiqiy metodlari bo‘lib hisoblanadi Dialektika barcha fanlar uchun eng umumiy metod vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, bilish jarayonida ilmiy tadqiqotning xususiy, umumiy va eng umumiy usullari mavjud bo‘lib, ular o‘zaro bir – biriga bog‘liq.

Ilmiy bilish metodlarining nazariy asosi rivojlanib borayotgan fanning extiyojlari taqozasi bilan yuzaga kelgan bo‘lib, u tabiat, jamiyat va inson ongining murakkab hodisalarini to‘g‘ri obyektiv talqin etishga, fanning tabiiy aloqalarini ochishga imkon beradi. Hozirgi davrda ilmiy bilish faoliyatining takomillashgan shakllari va usullari, tartib qoidalari, mantig‘i va tuzilmalari fanda yangi – yangi yutuqlarni qo‘lga kiritish imkonini yaratmoqda.

Mantiq fanining vazifalari

Tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganish, ulardan ongli ravishda foydalanish fikrlash madaniyatini o‘stiradi, xususan, fikrni to‘g‘ri qurish malakasini rivojlantiradi, bahs yuritishda o‘zining va boshqalarning fikriga tankidiy munosabatda bo‘lishga, suhbatdoshining mulohazalaridagi xatolarni aniqlashga, argumentlashdagi zaif bo‘g‘inlarni ochib tashlashga yordam beradi.

Muhokamani to‘g‘ri qurish, formal ziddiyatlar, xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka erishish, aytish mumkinki, o‘ziga xos san’at-mantiq san’ati hisoblanadi. Bu san’atning nazariy asoslarini chuqur egallagan kishigina uning imkoniyatlarini amaliy muhokama yuritishda namoyish qila oladi. Shu o‘rinda buyuk mutafakkir Farobiyning mantiq ilmining ahamiyati haqida bildirgan quyidagi fikrlarining alohida e’tiborga loyik ekanligini ta’kidlash zarur. U shunday yozadi: “Bizning maqsadimiz aqlni, xatoga yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan barcha xollarda, to‘g‘ri tafakkurga yetaklaydigan, uning yordamida har safar hulosa chikarayotganda adashishga qarshi ehtiyot

choralarni ko‘radigan san’atni-mantiq san’atini o‘rganishdir. Uning asosiy qonun-qoidalarining aqlga bo‘lgan munosabati grammatika san’ati qoidalarining tilga bo‘lgan munosabatiga o‘xshash; xuddi grammatika kishilarning tilini to‘g‘rilash ehtiyoji sababli yaratilgani, unga xizmat qilishi zarur bo‘lgani singari, mantiq ham tafakkur jarayonini yaxshi amalga oshirish maqsadida xatoga yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan barcha hollarda aklni to‘g‘rilab turadi”[8].

Mantiq ilmining ta’lim sohasidagi vazifalari ham jiddiydir. O‘quv jarayonining samaradorligi ma’lum bir darajada ishlatiladigan tushunchalarning, terminlarning aniq bo‘lishiga, muammolarning mantiqan to‘g‘ri qo‘yilishi va hal qilinishiga, mavjud gipotezalar strukturasini to‘g‘ri tahlil qila olishga, argumentlash qoidalaridan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq.

Fan uchun formal mantiq murakkab muammolarni yechish vositasini beradi. Bunday vositalar, odatda, ilmiy nazariyaning strukturasini o‘rganishda, unda ishlatiladigan formalizmning mohiyatini tushuntirib berishda, formal ziddiyatlar bo‘lsa, ularni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Til – axborot belgilari tizimi. Til tafakkur bilan uzviy bog‘langan, fikrimizning bevosita mavjud bo‘lishini ta’minlaydigan va kishilar o‘rtasida aloqa o‘rnatishga xizmat qiladigan axborot belgilari tizimidan iborat. Tilni o‘rganish mantiq fanining muhim vazifalaridan birini tashkil etadi. Ma’lumki, tafakkur olamni mavhumlashtirib va umumlashtirib aks ettiradigan ideal hodisadir. Mavhum narsalarni, umumiylikni faqat til yordamidagina qayd qilish mumkin.

Til va tafakkurning birligi nutqda o‘z ifodasini topadi. Nutq og‘zaki va yozma holda mavjud bo‘lib, unda fikrimiz moddiy shaklga, ya’ni hissiy idrok etiladigan shaklga kiradi va shu tariqa u endi bir shaxsga emas, balki jamiyatga tegishli bo‘lib qoladi.

Til kishilarning ijtimoiy mehnat faoliyati negizida vujudga kelgan va rivojlana borgan. Ana shuning uchun ham u chuqur ijtimoiy mazmunga ega hamda madaniyatimiz va tariximizning muhim bir qismini tashkil etadi.

Til yordamida bilimlar hosil qilinadi, to‘planadi va bir avloddan boshqa avlodga yetkazib beriladi. Shu tariqa u ta’lim va tarbiya ishlarini amalga oshirishga, madaniyatimizni taraqqiy ettirishga yordam beradi.

Belgi bilish jarayonida boshqa bir predmetning vakili vazifasini bajaruvchi hamda u haqda ma’lum bir xabarlar berish, uni saqlash, qayta ishlash va uzatishga imkoniyat yaratuvchi moddiy predmetdir. Har qanday belgi ham til belgisi bo‘la olmaydi. Tilga aloqasi bo‘lmagan belgilar qatoriga nusxa-belgilar (masalan, fotografiya kartochkasi, barmoq izi va shu kabilar), indeks-belgilar yoki ko‘rsatuvchi belgilar (masalan, badan

[8] Аль-Фараби. Вводный трактат в логику. // Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане. – Т.: «Фан», 1976, с. 128.

haroratining ko‘tarilishi – kasallik belgisi, tutun – olovning belgisi va shu kabilar) kiradi.

Til belgisi simvol–ramzlar shaklida mavjud bo‘lib, o‘zi ifoda qiladigan predmetlar bilan tuzilishiga ko‘ra Hech qanday o‘xshashlikka ega emas. Mantiq o‘z e’tiborini ana shunday til belgilarini o‘rganishga qaratadi.

Til belgilari o‘z ma’nosiga va mazmuniga ega. Til belgisining mazmunini u ifoda qilayotgan, ko‘rsatayotgan obyekt tashkil etadi. Masalan, «auditoriya» so‘zi real mavjud obyekt-ni – auditoriyani aks ettiruvchi fikr mazmunini ifoda etadi. Til belgisining ma’nosini esa u ifoda qilayotgan obyektning xarakteristikasi (tavsifi) tashkil etadi. Masalan, «Auditoriya» so‘zining ma’nosini «Mashg‘ulot o‘tkazish uchun mo‘ljallangan xona», «Maxsus jihozlangan xona» va shu kabi ekanligi haqidagi axborotlar tashkil etadi.

Tabiiy til obyektiv olamning va bilishning turli xil sohalariga tegishli bo‘lgan predmetlar, hodisalar hamda ularning xossalari va munosabatlarini qamrab olish va ifoda qilishdek katta imkoniyatga ega. U semantiq jihatdan yopiq tizim hisoblanadi. Boshqacha aytganda, tabiiy til boshqa tillarga murojaat qilmagan holda mustaqil ravishda o‘zini qurishi va ifoda qilishi mumkin.

6.3. Mantiq fani va ilmiy bilish metodologiyasi. Mantiq fanining ilmiy ishonch – e’tiqodning shakllanishida tutgan o‘rni

Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo‘ladi, kishilarda ishonch-e’tiqodni mustahkamlaydi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo‘lgan e’tiqodni yaratishdan iborat. Ana shuning uchun ham yoshlarda ilmiy asosga ega ishonch-e’tiqodni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.Argumentlash ishonch-e’tiqodni shakllantirish vositasidir. Ishonch - e’tiqod esa, insonning komillik mezonlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Ishonch –e’tiqod- bu kishillarning xulq - atvori va hatti – harakatini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir.

Vatanimizning gullab-yashnashi, barqaror rivojlanishi ma’lum bir darajada yoshlarning chuqur bilimga, mustahkam ishonch - e’tiqodga va, umuman, komil inson bo‘lishlariga bog‘liq. Bu haqda Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov shunday deb ta’kidlagan: «Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘la oladigan, bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamlarni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo‘lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko‘radi. O‘z fikr-o‘yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo‘ladi».[9]

[9] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. //Асарлар тўплами. 7 жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 1999, 134-б

Chuqur tahlilga, mantiqqa asoslanmagan bir yoqlama fikr odamlarni chalg‘itadi. Faqat bahs-munozara, tahlilga asoslangan to‘g‘ri xulosalargina haqiqatni bilishga yo‘l ochadi.

Bahs, munozara yuritishning, chin fikrlarni isbotlay bilishning, xato fikrlarni rad etishning o‘ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Bu qoidalarni bilish har bir insonga, shu jumladan, talabalarga chin fikrni xato fikrdan ajrata bilish, to‘g‘ri tafakkurlash madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Mantiq fanining fikr yuritish madaniyatini o‘stirishdagi ahamiyati

Mantiq inson tafakkuri madaniyatini ko‘tarish va insoniyatning uzoq tajribasi natijasida takomillashgan tafakkur shakllari, qonunlari va qoidalarini bilish uchun xizmat qiladi. U inson fikrining ketma – ket, ziddiyatsiz va asosli bo‘lishini ta’minlaydi. Mantiq fani mazmunini chuqurroq o‘rganish kishilarning o‘z tafakkuri va o‘zgalar tafakkuri natijalariga tanqidiy qarash xislatlarini rivojlantiradi. Tafakkurning bu sifatlari esa insonning turli ilmiy va amaliy faoliyatlari sohasidagi ishi uchun katta ahamiyatga ega. Mantiqiy usullardan to‘g‘ri foydalana olish, ta’lim tarbiya jarayonida isbot va raddiyaning mantiqiy tomonlarini bilish talabalarda o‘z nutqining asosli bo‘lishini ta’minlaydi, fikrdagi ziddiyatlarni ochishga yordam beradi.

Mantiqni yaxshi bilish turli ilmiy uchrashuvlar, munozaralar, muhokamalarda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Xususan, bunday hollarda fikrlash subyekti haqiqatni aniqlash yoki uning sofligini saqlab qolish, asoslash uchun mantiqiy qonun – qoidalarni to‘g‘ri tadbiq eta bilishi, suxbatdoshining fikridagi xatolarni tez topa olishi, o‘z fikrini dalilli qilib bayon etishi zarur. Bu esa uning mantiq fanini yaxshi bilishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Mantiq va insonparvarlik

Zamonamiz fanlarining barchasiga inson qadr – qimmati, uning axloqi, madaniyati nuqtai nazaridan qarash kerak. Mantiq fani ham bundan istisno emas. Inson muammosining xal qilinishi, uning turmush tarzi, moddiy, ma’naviy, axloqiy nuqtai nazardan takomillashishiga bog‘liq.

Insoniylik muammosini hal qilishda mantiq ilmi, ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida, alohida ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, hozirgi zamon fanida yuksak kashfiyotlar, ijtimoiy hayotda murakkab munosabatlar yuz bermoqda, bularni tahlil qilish uchun esa mantiqiy fikrlash madaniyati kerak. Fan yordamida inson faoliyati rivojlandi, uning oyoq, qo‘li va boshqa organlarining o‘rnini bosadigan mashinalar paydo bo‘ldi. Mantiq ilmini tadbiq etish natijasida inson

intellektini rejalashtiruvchi «aqliy mashina» lar vujudga keldi, binobarin, sun'iy aql vujudga kelmoqda.

Bularning barchasi insonning aqliy va jismoniy mehnatini bajaradigan mashina yaratishning chegarasi bormi?, Agar chegarasi bo'lmasa, insonning o'zi kelajakda qanday axvolga tushib qoladi ?, kabi savollarni keltirib chiqarmoqda va ularga javob berishni taqozo etadi. Bu hozirgi davrda hal qilinishi zarur bo'lgan dolzarb muammolardan biridir. Shuning uchun har qanday fan, shu jumladan mantiq ilmi, inson hayotining tabiiy va ijtimoiy tomonlarini mutanosib saqlash va takomillashtirishga alohida ahamiyat berishi kerak.

6.4. Formal mantiq to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan sifatida

Falsafada qonun tushunchasi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqaror munosabatlarini ifodalaydi. Mantiq ilmida qonun tushunchasi fikrlash elementlari o'rtasidagi ichki, muhim, zaruriy aloqadorlikni ifodalaydi.

Mantiqiy tafakkur ikki turdagi qonunlarga bo'ysunadi. Ular dialektika qonunlari va formal mantiq qonunlaridir. Dialektika qonunlari obyektiv olam va bilish jarayoniga xos bo'lgan eng umumiy qonunlar bo'lib, dialektik mantiqning o'rganish sohasi hisoblanadi. Formal mantiq qonunlari esa faqat tafakkurdagina amal qiladi. Dialektika qonunlari mantiqiy tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida olib o'rgansa, formal mantiq qonunlari esa, fikrning to'g'ri tuzilishini, uning aniq, izchil, ziddiyatsiz va asoslangan bo'lishini e'tiborga olgan holda o'rganadi.

Formal mantiq qonunlari (yoki tafakkur qonunlari) deyilganda fikrlashga xos muhim, zaruriy bog'lanishlar tushuniladi. Tafakkur qonunlari obyektiv voqyelikning inson miyasida uzoq vaqt davomida aks etishi natijasida vujudga kelgan va shakllangan.

Bu qonunlar fikrlashning to'g'ri amalga oshishini ta'minlab turadi. Ular tafakkur shakllari bo'lgan tushunchalar, mulohazalar (hukmlar) hamda xulosa chiqarishning shakllanishi va o'zaro aloqalarini ifodalaydi.

Tafakkur qonunlariga amal qilish to'g'ri, tushunarli, aniq, izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi. Aniqlik, izchillik, ziddiyatlardan xoli bo'lish va isbotlilik (asoslanganlik) to'g'ri tafakkurlashning asosiy belgilaridir. Bular mantiqiy qonunlarning asosini tashkil etuvchi belgilar bo'lganligi uchun, ularning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

AYNIYAT QONUNI

Biror buyum yoki hodisa haqida fikr yuritilganda, ularga xos bo'lgan barcha muhim belgilar, tomonlar qamrab olinadi. Predmet haqidagi fikr necha marta va qanday holatlarda takrorlanishiga qaramasdan doimiy,

o‘zgarmas va qat’iy mazmunga ega bo‘ladi. Tafakkurga xos bo‘lgan bu aniqlik xususiyati ayniyat qonunining mohiyatini tashkil etadi.

Ayniyat qonuniga ko‘ra, ma’lum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda o‘z-o‘ziga tengdir. Bu qonun formal mantiq ilmida «A–A» dir formulasi bilan ifodalanadi.

Ayniyat qonuni simvolik mantiq ilmida, ya’ni **mulohazalar** mantig‘i va **predikatlar** mantig‘ida o‘ziga xos ko‘rinishga ega.

Mulohazalar mantig‘ida a → a va a ↔ a. (Bunda, a – har qanday fikrni ifodalovchi belgi, → implikasiya belgisi, «↔ ekvivalentlik belgisi.)

Predikatlar mantig‘ida (x(R(x)→R(x)). Bu ifoda quyidagicha o‘qiladi: har qanday X uchun, agar X R belgiga ega bo‘lsa, X shu belgiga ega, degan fikr to‘g‘ri bo‘ladi.

Ayniyat qonunining asosiy talabi quyidagicha: fikrlash jarayonida turli fikrlarni aynanlashtirish va, aksincha, o‘zaro aynan bo‘lgan fikrlarga teng emas, deb qarash mumkin emas. Bu mantiqiy tafakkurning muhim shartlaridan biridir. Fikrlash jarayonida bu qonunni bilib yoki bilmasdan buzish holatlari uchraydi. Ba’zan bu holat bir fikrning tilda turli xil ifodalanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, «dialektika qonunlari» va «tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiy qonunlari» tushunchalari shakliga ko‘ra turlicha bo‘lsa ham, mazmunan aynandir.

Ayniyat qonuni predmet va hodisalarning nisbiy barqarorligini ifoda etgan holda, tafakkurning rivojlanishini, tushunchalar va bilimimizning o‘zgarib, boyib borishini inkor etmaydi. Bu qonun fikrning mazmuni predmet va hodisalarni to‘laroq bilib borishimiz bilan o‘zgarishini e’tirof etadi va uni hisobga olishni taqozo qiladi.

Ayniyat qonuni tafakkurga, uning barcha elementlari, shakllariga xos bo‘lgan umumiy mantiqiy qonundir. Bu qonunning talablari tafakkurning har bir shakliga xos bo‘lgan konkret qoidalarda aniq ifodalanadi. Tafakkurning tushuncha, mulohaza (hukm), xulosa chiqarish shakllari, ular o‘rtasidagi munosabatlar shu qonunga asoslangan holda amalga oshadi.

NOZIDLIK QONUNI

Inson tafakkuri aniq, ravshan bo‘libgina qolmasdan, ziddiyatsiz bo‘lishi ham zarur. Ziddiyatsizlik inson tafakkuriga xos bo‘lgan eng muhim xislatlardan biridir. Ma’lumki, obyektiv voqyelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtda, bir xil sharoitda biror xususiyatga ham ega bo‘lishi, ham ega bo‘lmasligi mumkin emas. Masalan, bir vaqtning o‘zida, bir xil sharoitda inson ham axloqli, ham axloqsiz bo‘lishi mumkin emas. U yo axloqli, yo axloqsiz bo‘ladi.

Bir vaqtning o‘zida bir predmetga ikki zid xususiyatning taalluqli bo‘lmasligi tafakkurda nozidlik qonuni sifatida shakllanib qolgan. Bu qonun

fikrlash jarayonida ziddiyatga yo‘l qo‘ymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bo‘lishini ta’minlaydi.

Nozidlik qonuni ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki o‘zaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bo‘lishi mumkin emasligini, Hech bo‘lmaganda ulardan biri, albatta, xato bo‘lishini ifodalaydi. Bu qonun «A ham V, ham V emas bo‘la olmaydi» formulasi orqali beriladi. Mulohazalar mantig‘ida bu qonun quyidagi formula orqali yoziladi ¥x(P(x)*P(x)), ya’ni har qanday (x) mulohaza uchun r(x) va uning inkori birgalikda chin bo‘lmasligi to‘g‘ridir.

Nozidlik qonuni qarama-qarshi va zid mulohazalarga nisbatan qo‘llaniladi. Bunda qarama-qarshi mulohazalarning har ikkalasi ham bir vaqtda xato bo‘lishi mumkin; o‘zaro zid mulohazalar esa, bir vaqtda xato bo‘lmaydi, ulardan biri xato bo‘lsa, ikkinchisi albatta chin bo‘ladi. Qarama-qarshi mulohazalarda esa, bunday bo‘lmaydi, ya’ni ulardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi kelib chiqmaydi. Masalan: “Arastu — mantiq fanining asoschisi” va “Arastu — mantiq fanining asoschisi emas” — bu o‘zaro zid mulohazalardir. Bu zid mulohazalarning har ikkalasi bir vaqtda xato bo‘lmaydi. Ulardan birinchisi chin bo‘lganligi uchun, ikkinchisi xato bo‘ladi. O‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan “Bu dori shirin” va “Bu dori achchiq” mulohazalarining esa ikkalasi bir vaqtda, bir xil nisbatda xato bo‘lishi mumkin.

Uchinchisi – istisno qonuni

Bu qonun fikrlar o‘rtasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi. Agarda zid munosabatlar fikrning to‘liq mazmunini qamrab olmasa, ikki zid belgidan boshqa belgilarning ham mavjudligi ma’lum bo‘lsa, unda uchinchisi istisno qonuni amal qilmaydi.

Masalan:

Talaba imtihonda «a’lo» baho oldi.

Talaba imtihonda «ikki» baho oldi.

Bu mulohazalar munosabatida nozidlik qonuni amal qiladi. Chunki bu mulohazalarning har ikkisi ham xato bo‘lishi va talaba imtihonda «o‘rta» yoki «yaxshi» baho olishi mumkin.

Agar, «Talaba imtihonda «a’lo» baho oldi» va «Talaba imtihonda «a’lo» baho olmadi» mulohazalarini tahlil qilsak, unda bu mulohazalardan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o‘rin yo‘q ekanligi ma’lum bo‘ladi. Chunki «yaxshi», «o‘rta» va «ikki» baholar – «a’lo» baho emas.

Uchinchisi istisno qonuni quyidagi holatlarda qo‘llaniladi:

1. Alohida olingan yakka buyumga nisbatan bir xil vaqt va munosabat doirasida o‘zaro zid fikr bildirilganda. Masalan:

Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti.

Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti emas.

Bu mulohazalar birgalikda chin ham, xato ham bo‘la olmaydi. Ulardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchi mulohazaga o‘rin yo‘q. Uchinchisi istisno qonuni o‘zaro zid umumiy mulohazalar doirasida amal qilmaydi. Chunki umumiy mulohazalarda buyumlar sinfiga va shu sinfga mansub har bir buyumga nisbatan fikr bildiriladi.

Masalan:

Hamma faylasuflar notiqdir.

Hech bir faylasuf notiq emas.

Bu mulohazalardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi haqida xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Bunday holatda «Ba’zi faylasuflar notiqdir» degan uchinchi bir mulohaza chin hisoblanadi.

Uchinchisi – istisno qonuni:

1.Ikki zid yakka mulohazalarga nisbatan.

2.Umumiy tasdiq va juz’iy inkor mulohazalarga nisbatan.

3.Umumiy inkor va juz’iy tasdiq mulohazalarga nisbatan qo‘llaniladi.

Uchinchisi – istisno qonunining amal qilishi uchun olingan zid munosabatlarni ifodalovchi mulohazalardan biri tasdiq, ikkinchisi inkor bo‘lishi yoki tushunchalardan biri ijobiy va boshqasi salbiy bo‘lishi shart emas. Olingan ikki tushuncha yoki mulohazaning bir-birini hajm jihatdan to‘liq inkor etishi kifoya. Masalan, erkak va ayol tushunchalarining har ikkisi ijobiy bo‘lib, inson tushunchasining to‘liq mazmunini qamrab oluvchi zid belgilarni ifodalaydi.

Uchinchisi – istisno qonunida ham, nozidlik qonunidagi kabi vaqt, munosabat, obyekt aynanligiga rioya etish shart, aks holda bu qonun o‘z kuchini yo‘qotadi, fikrning izchilligiga zarar yetadi va mantiqsizlikka yo‘l qo‘yiladi.

Uchinchisi – istisno qonuni, boshqa mantiqiy qonunlar singari, ziddiyatli mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlab berolmaydi. Buning uchun voqyea va hodisalarni, ularning rivojlanish qonuniyatlarini bilish talab qilinadi. Inson o‘z bilimlariga asoslangan holda o‘zaro zid mulohazalardan qaysi biri chin yoki xato ekanligini aniqlaydi. Bu qonun o‘zaro zid mulohazalar bir vaqtda chin bo‘lmasligini tasdiqlaydi.

Uchinchisi – istisno qonunini bilish, muhokama yuritishda to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun muhim bo‘lib, o‘zaro zid qarashlarni aralashtirib yuborishga yo‘l qo‘ymaydi.

YETARLI ASOS QONUNI

To‘g‘ri fikrlashga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri isbotlilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin muhokama yuritibgina qolmasdan, bu muhokamaning chinligiga Hech qanday shubha bo‘lmasligi uchun uni isbotlashga, asoslashga harakat qilinadi. Bunda chinligi avvaldan ma’lum bo‘lgan va o‘zaro mantiqiy bog‘langan mulohazalarga asoslaniladi, ya’ni bayon qilingan fikrning

chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan, chinligi tasdiqlangan boshqa bir fikr, mulohaza bilan taqqoslanadi. Tafakkurning bu xususiyati yetarli asos qonuni orqali ifodalanadi.

Inson tafakkuriga xos bo'lgan bu qonunni birinchi marta nemis faylasufi va matematigi G. Leybnis ta'riflab bergan. Uning ta'kidlashicha, barcha mavjud narsalar o'zining mavjudligi uchun yetarli asosga ega. **Har bir buyum va hodisaning real asosi bo'lgani kabi, ularning in'ikosi bo'lgan fikr-mulohazalar ham asoslangan bo'lishi kerak**. Yetarli asos qonunining bu talabi quyidagi formula orqali ifodalanadi: «Agar V mavjud bo'lsa, uning asosi sifatida A ham mavjud».

Yetarli asos qonunida to'g'ri tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog'lanib kelish xususiyati ifodalanadi. Bu qonun avvalgi ko'rib o'tilgan qonunlar bilan o'zaro bog'liq holda amal qiladi. Fikrlash jarayonida berilgan mulohazaning chinligini asoslash uchun keltirilgan chin mulohazalar mantiqiy asos deb, berilgan mulohazaning o'zi esa mantiqiy natija deb yuritiladi.

Mantiqiy asos bilan obyektiv, haqiqiy real asosni aralashtirib yuborish mumkin emas. Asos va natija orasidagi mantiqiy bog'liqlikni sabab va oqibat aloqadorligidan farqlash zarur. Masalan, «Bu kishi bemor», degan mulohazani «U shifoxonada davolanyapti», degan fikr bilan asoslash mumkin. Aslida shifoxonada davolanish dastlabki mulohazaning sababi emas, balki oqibatidir. Ko'rinib turibdiki, mantiqiy asos hamma vaqt ham hodisaning sababi bilan mos kelmaydi. Fikrlarning yetarli asosga ega bo'lishligining obyektiv manbai faqat sabab-oqibat munosabatinigina emas, shuningdek, fikrning izchilligi, asoslanganligini, isbotlangan bo'lish xususiyatlarini ham, ya'ni obyektiv mazmuni sabab-oqibat munosabatlaridan tashqarida bo'lgan boshqa munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Fikr-mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jarayon bo'lib, unda bir yoki undan ortiq o'zaro bog'langan muhokamalar tizimidan foydalaniladi. Keng ma'noda biror mulohazani asoslash deganda, shu mulohazaning chinligini tasdiqlovchi ishonchli va yetarli dalillarning mavjudligini aniqlash tushuniladi. Bu ishonchli va yetarli dalillarni shartli ravishda ikki guruhga: empirik va nazariy asoslarga bo'lish mumkin. Bulardan birinchisi asosan hissiy bilish, tajribaga asoslansa, ikkinchisi aqliy bilish, tafakkurga tayanadi. Empirik va nazariy bilimlarning chegarasi nisbiy bo'lgani kabi, empirik va nazariy asoslar o'rtasidagi farq ham nisbiydir.

6.5. Tafakkur shakli va tafakkur qonuni tushunchalari

Predmet va hodisalarning mohiyatini tushunishga tafakkur yordamida erishiladi. **Tafakkur** bilishning yuqori-rasional (lotincha ratio – aql) bilish bosqichi bo'lib, unda predmet va hodisalarning umumiy, muhim

xususiyatlari aniqlanadi, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya’ni qonuniy bog‘lanishlar aks ettiriladi. Tafakkur quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. Tafakkurda voqyelik mavhumlashgan va umumlashgan holda in’ikos qilinadi. Hissiy bilishdan farqli o‘laroq, tafakkur bizga predmetning nomuhim, ikkinchi darajali (bu odatda bilish oldida turgan vazifa bilan belgilanadi) belgilaridan fikran chetlashgan, mavhumlashgan holda, e’tiborimizni uning umumiy, muhim, takrorlanib turuvchi xususiyatlariga va munosabatlariga qaratishimizga imkon beradi. Xususan, turli kishilarga xos individual belgilarni (xulq-atvor, temperament, qiziqish va shu kabilar) e’tibordan chetda qoldirgan holda, ular uchun umumiy, muhim belgilarni, masalan, ongga ega bo‘lish, maqsadga muvofiq holda mehnat qilish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish kabi xislatlarni ajratib olib, «inson» tushunchasini hosil qilish mumkin. Umumiy belgilarni aniqlash predmetlar o‘rtasidagi munosabatlarni, bog‘lanish usullarini o‘rnatishni taqozo etadi. Turli xil predmetlar fikrlash jarayonida o‘xshash va muhim belgilariga ko‘ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa ularning mohiyatini tushunish, ularni xarakterlaydigan qonuniyatlarni bilish imkoniyati tug‘iladi. Masalan, yuqorida keltirilgan «inson» tushunchasida barcha kishilar bitta mantiqiy sinfga birlashtirilib, ular o‘rtasidagi muhim bog‘lanishlar (masalan, ijtimoiy munosabatlar) bilib olinadi.

2. Tafakkur borliqni nafaqat bevosita, balki bilvosita tarzda ham aks ettira oladi. Unda yangi bilimlar tajribaga har safar bevosita murojaat etmasdan, mavjud bilimlarga tayangan holda hosil qilishi mumkin. Fikrlash bunda predmet va hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, bolaning xulq-atvoriga qarab uning qanday muhitda tarbiya olganligi haqida fikr yuritish mumkin. Tafakkurning mazkur xususiyati, ayniqsa, xulosaviy fikr hosil qilishda aniq namoyon bo‘ladi.

3. Tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat. Unda bilish jarayoni borliqda real analogiga ega bo‘lmagan narsalar – yuqori darajada ideallashgan obyektlar (masalan, absolyut qattiq jism, ideal gaz kabi tushunchalar)ni yaratish, turli xil formal sistemalarni qurish bilan kechadi. Ular yordamida predmet va hodisalarning eng murakkab xususiyatlarini o‘rganish, hodisalarni oldindan ko‘rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi.

4. Tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda – moddiy hodisada (tovush to‘lqinlarida, grafik chiziqlarda) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o‘zaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, til fikrning bevosita voqye bo‘lish shaklidir.

Tafakkur uch xil shaklda: tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish shaklida mavjud.

Tafakkur shakli fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog‘lanish usuli, uning strukturasi (tuzilishi)dir. Fikrlash elementlari deganda, predmetning fikrda ifoda qilingan belgilari haqidagi axborotlar tushuniladi. Tafakkur shaklining tabiatini konkret misollar yordamida ko‘rib chiqamiz.

Ma’lumki, ayrim predmetlar, ularning sinfi (to‘plami) kishilar tafakkurida turli xil mazmunga ega bo‘lgan tushunchalarda aks ettiriladi. Masalan, «davlat» tushunchasida o‘zining maydoniga, aholisiga, boshqaruv vositalariga ega bo‘lgan siyosiy tashkilot aks ettiriladi. “Milliy g‘oya” tushunchasida esa millatning, xalqning kelajak bilan bog‘liq orzu-havaslari, maqsadlari, tub manfaatlari ifoda etiladi. Mazmun jihatidan turli xil bo‘lgan bu tushunchalar mantiqiy shakliga ko‘ra bir xildir: har ikkalasida predmet uning muhim belgilari orqali fikr qilingan. Xususan, «o‘z maydoniga egaligi», «aholisining mavjudligi», «boshqaruv vositalarining bor ekanligi», «siyosiy tashkilotdan iboratligi» davlatning muhim xususiyatlari hisoblanadi. Xuddi shuningdek, «millatning orzu-havaslari, maqsadlarini aks ettirishi», «uning tub manfaatlarini ifoda etishi» milliy g‘oyaning muhim belgilaridir. Agar tushuncha aks ettirayotgan predmetni A bilan, unda fikr qilinayotgan muhim belgilarni, ya’ni fikrlash elementlarini a, v, s,..., n bilan belgilasak, tushunchaning mantiqiy strukturasini A (a, v, s,..., n) shaklida simvolik tarzda ifodalash mumkin.

Hukmlarda predmet bilan uning xossasi, predmetlar o‘rtasidagi munosabatlar, predmetning mavjud bo‘lish yoki bo‘lmaslik fakti haqidagi fikrlar tasdiq yoki inkor shaklda ifoda etiladi. Masalan, «Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch» degan hukmda predmet (yuksak ma’naviyat) bilan uning xossasi (yengilmas kuch) o‘rtasidagi munosabat qayd etilgan. «Axloq huquq bilan uzviy aloqada» degan hukmda ikkita predmet (axloq va huquq) o‘rtasidagi munosabat qayd etilgan. Mazmun jihatdan turli xil bo‘lgan bu hukmlar tuzilishiga ko‘ra bir xildir: ularda predmet haqidagi tushuncha (S) bilan predmet belgisi haqidagi tushuncha (P) o‘rtasidagi munosabat qayd etilgan, ya’ni R ning S ga xosligi tasdiqlangan. Umumiy holda hukmning mantiqiy strukturasini (shaklini) S—R formulasi yordamida ifoda etish mumkin.

Xulosa chiqarishda ham yuqoridagiga o‘xshash hollarni kuzatish mumkin. Masalan,

“Daraxt – o‘simlik”.

“Terak – daraxt”.

Demak, “Terak – o‘simlik”.

yoki

“Har bir kimyoviy element o‘z atom og‘irligiga ega”.

“Mis – kimyoviy element”.

Demak, “Mis o‘z atom og‘irligiga ega” kabilar.

Bu xulosa chiqarish hollari mazmuni bo‘yicha turlicha bo‘lishiga qaramasdan, bir xil mantiqiy strukturaga ega. Har ikkalasida xulosani tashkil etuvchi tushunchalar xulosa chiqarish uchun asos bo‘lib xizmat qilayotgan hukmlarda uchinchi bir tushuncha (birinchi misolda – «daraxt», ikkinchi misolda – «kimyoviy element» tushunchasi) orqali bog‘langan.

Yuqoridagi keltirilgan misollardan tafakkur shakli fikrning konkret mazmunidan nisbatan mustaqil holda mavjud bo‘lishi va, demak, o‘ziga xos qonuniyatlarga egaligi ma’lum bo‘ldi. Shuning uchun ham mantiqda uni alohida o‘rganish predmeti sifatida olib qarash mumkin.

Tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish tafakkurning universal mantiqiy shakllari, uning asosiy strukturaviy elementlari hisoblanadi. Muhokama yuritish ana shular va ularning o‘zaro aloqalarga kirishishi natijasida vujudga keladigan boshqa mantiqiy strukturalar (masalan, muammo, gipoteza, nazariya, g‘oya va shu kabilar)da amalga oshadi.

Muhokama yuritishda ishonchli natijalarga erishishning zaruriy shartlari qatoriga fikrning chin bo‘lishi va formal jihatdan to‘g‘ri qurilishi kiradi. Chin fikr o‘zi ifoda qilayotgan predmetga muvofiq keluvchi fikr hisoblanadi (masalan, «temir – metall»). Xato fikr predmetga mos kelmaydigan fikrdir (masalan, «temir – metall emas»). Fikrning chin yoki xato bo‘lishi uning mazmuniga tegishli xususiyatlaridir.

Fikrning chin bo‘lishi mantiqiy fikr yuritishning zaruriy sharti bo‘lsada, o‘z holicha yetarli emas. Fikr muhokama yuritish jarayonida formal jihatdan to‘g‘ri qurilgan ham bo‘lishi kerak. Bu xususiyat fikrning shakliga taalluqli bo‘lib, tafakkurda hosil bo‘ladigan turli xil mantiqiy strukturalarda sodir bo‘ladigan har xil mantiqiy amallarda o‘z aksini topadi.

Fikrni to‘g‘ri qurishga tafakkur qonunlari talablariga rioya qilgandagina erishish mumkin. **Tafakkur qonuni** muhokama yuritish jarayonida qatnashayotgan fikrlar (fikrlash elementlari) o‘rtasidagi mavjud zaruriy aloqalardan iborat. Tafakkur qonunlari mazmunidan kelib chiqadigan, muhokamani to‘g‘ri qurish uchun zarur bo‘lgan talablar fikrning aniq, izchil, yetarli darajada asoslangan bo‘lishidan iborat.

Muhokamani to‘g‘ri qurish bilan bog‘liq talablar haqida gapirganda, birinchi navbatda, ularning muayyan prinsiplar, qoidalar tarzida, ya’ni to‘g‘ri tafakkur prinsiplari sifatida amal qilishiga e’tibor berish zarur. Mazkur qoidalarning buzilishi muhokamaning noto‘g‘ri qurilishiga sabab bo‘ladi. Bunda, xususan, chin fikrlardan xato xulosa chiqishi (masalan, «Qonun – rioya qilish zarur bo‘lgan huquqiy hujjat», «Buyruq – qonun emas», demak, «Buyruq – rioya qilish zarur bo‘lgan huquqiy hujjat emas») yoki xato qurilgan muhokamadan chin xulosa chiqishi (masalan, «Barcha moddiy jismlar – kimyoviy elementlar», «Temir – moddiy jism», demak, «Temir – kimyoviy element») mumkin.

Nazorat savollari

1. Tafakkurning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Tafakkur shakli nima?
3. Tafakkur qonuni nima?
4. Formal mantiq nimani o‘rganadi?
5. Formal mantiq tafakkurni o‘rganuvchi boshqa fanlar bilan qanday munosabatda?
6. Formal mantiqni o‘rganish qanday ahamiyatga ega?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Uchinchisi – istisno qonunihaqida referat tayyorlang.
2. Formal mantiq nimani to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plang va tushuntiring.
3. Yetarli asos qonuni haqida berilgan fikrlarni kursdoshlaringizga aytib bering.

VII BOB. TAFAKKUR SHAKLLARI: TUSHUNCHA, HUKM VA XULOSA

7.1. Tushuncha – tafakkurning mantiqiy shakli. Tushunchaning turlari.

7.2. Mulohaza (Hukm) tafakkur shakli va xulosa chiqarishning tarkibiy qismi sifatida.

7.3. Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi: tuzilishi, turlari va umumiy qoidalari.

7.4. Analogiya. Muammo. Gipoteza. Nazariya.

7.5. Argumentlash – ishonch - e'tiqodni shakllantirish va mustahkamlash vositasi.

Tayanch tushunchalar: Belgi, sinf, tushuncha, tushunchaning mazmuni, umumlashtirish, tariflash, tasniflash, hukm, subyekt, predikat, bog'lovchi, kvantor, oddiy hukm, murakkkab hukm, modal hukmlar, mantiqiy kvadrat, xulosa chiqarish, deduktiv xulosa chiqarish, sillogizm, induktiv xulosa chiqarish.

7.1. Tushuncha – tafakkurning mantiqiy shakli. Tushunchaning turlari

Tushuncha – predmet va hodisalarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shaklidir. Belgilar deb, predmetlarni bir-biridan farq qiluvchi hamda ularning bir-biriga o'xshashligini ifoda qiluvchi tomonlarga, xususiyatlarga aytiladi.

Belgilar muhim yoki nomuhim bo'ladi. Predmet belgisining muhim yoki nomuhim bo'lishi, bizning predmetga amalda qanday munosabatda bo'lishimizga qarab ham belgilanadi. Xususan, bir munosabatda muhim bo'lmagan belgilar boshqa munosabatda muhim bo'lishi mumkin. Masalan, kishining layoqati uning qanday kasbni tanlashi uchun muhim bo'lsa, inson sifatida mavjud bo'lishi uchun muhim emas. Bunday muhim belgilar predmetning ma'lum bir munosabatdagi muhim belgilari deyilib, obyektiv muhim belgilardan (predmetning mavjud bo'lishi bilan zaruriy aloqada bo'lgan belgilardan) farq qiladi.

Predmet to'xtovsiz harakatda, taraqqiyotda bo'lganligi uchun vaqt o'tishi bilan uning muhim bo'lgan belgisi nomuhim bo'lgan belgiga yoki aksincha, nomuhim belgisi muhim belgiga aylanishi mumkin.

Masalan, bevosita kuzatiladigan faktlar empirik bilish bosqichida muhim ahamiyatga ega bo'lsa, nazariy bilish bosqichida unga kamroq murojaat qilinadi.

Demak, tushunchada predmet o'zining muhim belgilari orqali fikr qilinib, bu belgilar predmetning umumiy va individual belgilari bo'lishi mumkin. Masalan, «G'ofur G'ulom» tushunchasida predmetning umumiy

belgilari (inson, shoir) bilan bir qatorda, individual muhim belgilari (xususan, «Sen yetim emassan» she'rining muallifi) ham fikr qilinadi.

Tushunchaning hissiy bilish shakllaridan tubdan farq qilishiga alohida e'tibor berish zarur. Sezgi, idrok va tasavvur predmetning yaqqol obrazlaridir. Biz faqat birorta konkret predmetni, masalan, o'zimiz yozib o'tirgan qalamni idrok qilishimiz yoki u to'g'risida tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. «Umuman qalam»ni idrok qilib bo'lmaydi. Chunki tushuncha predmetning yaqqol obrazi emas, balki abstrakt obrazidir. Qalam tushunchasi o'zida konkret qalamlarning barchasini qamrab olgani holda, ularning har biriga xos bo'lgan individual belgilarni tashlab yuborib, umumiy, muhim belgilarini ifoda qiladi. Ayni paytda bu belgilar qalamni boshqa predmetlardan, masalan, kitobdan farq qildirib turadigan maxsus belgilar bo'lib ham xizmat qiladi.

Tushuncha predmetning nomuhim belgilaridan chetlashar ekan, demak, uni to'laligicha aks ettira olmaydi. Bu ma'noda u hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqdan uzoqroqda turadi. Lekin, tushuncha predmetning muhim belgilarini in'ikos qilishi, mohiyatini aks ettirishi bilan hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqni chuqurroq, to'laroq ifoda etadi.

Tushuncha, hissiy bilish shakllaridan farqli o'laroq, inson miyasida to'g'ridan-to'g'ri aks etmaydi. U ma'lum bir mantiqiy usullardan foydalanilgan holda hosil qilinadi. Bu usullar taqqoslash, tahlil, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirishlardan iborat.

Taqqoslash yordamida predmetlar o'zaro solishtirilib, ularning o'xshash, umumiy tomonlari va bir-biridan farq qiluvchi individual belgilari aniqlanadi.

Taqqoslash tahlilni taqozo qiladi. Chunki predmetlarni yaxlit holda solishtirib bo'lmaydi. Ular u yoki bu xossasiga ko'ra taqqoslanishi kerak. Buning uchun u xossalar ajratilishi lozim. Tahlil yordamida predmet fikran uni tashkil qiluvchi qismlar, tomonlarga ajratilib, har qaysisi alohida o'rganiladi.

Sintez tahlilga teskari usul bo'lib, u tahlil davomida ajratilgan qismlar, tomonlarni fikran birlashtirib, predmetni bir butun holga keltirishdan iborat. Sintez bo'lmasa predmet haqida yaxlit fikr hosil qilib bo'lmaydi. Tahlil va sintez uzviy bog'liqdir.

Tushuncha hosil qilish uchun predmetning yuqoridagi usullar bilan aniqlangan umumiy va individual belgilarining muhimlari ajratilishi, nomuhimlari chetlashtirilishi lozim. Bu esa abstraksiyalash yordamida amalga oshiriladi.

Umumlashtirishda predmetlar ularning ayrim umumiy, muhim xususiyatlariga ko'ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa bitta tushunchada bir jinsli predmetlarning barchasini fikr qilish imkoniyati yaratiladi.

Tushunchaning shakllanishi so‘z bilan uzviy bog‘liq. Ular o‘rtasidagi aloqadorlik tafakkur va til o‘rtasidagi bog‘lanishning konkret tarzda namoyon bo‘lishidir.

Tushunchalar so‘z va so‘z birikmalari yordamida ifoda qilinadi. Masalan, «talaba», «falsafa fakulteti», «O‘zbekiston milliy universiteti» va shu kabilar so‘zlardan iborat. Lekin bundan tushuncha va so‘z aynan bir xildir, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Bitta tushuncha har xil tillarda, ba’zan bir tilda ham turli xil so‘zlar bilan ifoda qilinadi. Tilimizdagi omonim va sinonim hodisalari so‘z va tushunchaning nisbiy mustaqil holda mavjudligidan dalolat beradi.

Shuni ham aytish lozimki, so‘zning ko‘p ma’noga ega bo‘lishi ba’zan fikr yuritish jarayonida tushunchalarni aralashtirib yuborishga olib keladi. Shuning uchun ham fan va texnikada ko‘proq terminlardan foydalaniladi. Termin qat’iy bitta tushunchani ifoda qiluvchi so‘z bo‘lib, muayyan ilmiy bilish sohasida bir xil ma’noda ishlatiladi.

Tushunchaning mazmuni va hajmi

Tushuncha o‘zining mazmuni va hajmiga ega. Tushunchaning mazmunini unda fikr qilinayotgan predmetning muhim belgilari to‘g‘risidagi axborot tashkil etadi. Masalan, «fan» tushunchasining mazmunini fanning muhim belgilari, ya’ni uning amaliyot bilan aloqada ekanligi, predmetlarning birorta sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, prinsiplar shaklidagi obyektiv chin (haqiqiy) bilimlar tizimidan iborat bo‘lishi, dunyoqarashning shakllanishida ishtirok qilishi va shu kabilar tashkil qiladi.

Tushunchaning hajmi esa, unda fikr qilinayotgan predmetlar yig‘indisini aks ettiradi. Masalan, yuqorida misol qilib keltirilgan «fan» tushunchasining hajmi mavjud barcha fanlarni: matematika, fizika, mantiq va hokazolarni o‘zida qamrab oladi.

Tushunchaning mazmuni va hajmi uzviy bog‘liq bo‘lib, u tushunchaning mazmuni va hajmi o‘rtasidagi teskari nisbat qonuni yordamida ifodalanadi. Bu qonunga muvofiq tushunchaning hajmi kengaytirilsa, mazmuni torayadi va aksincha, hajmi toraytirilsa, mazmuni kengayadi. Masalan, «fan» tushunchasining mazmuniga «mantiq»qa oid bo‘lish belgisini qo‘shish bilan hajm jihatidan undan torroq bo‘lgan «mantiq fani» tushunchasiga o‘tiladi.

«Fan» tushunchasining hajmini kengaytirish bilan mazmun jihatidan unga nisbatan torroq bo‘lgan «ijtimoiy ong shakli» tushunchasi hosil qilinadi. Bunda faqat fanga xos bo‘lib, boshqa ijtimoiy ong shakllarida, masalan, huquqiy ongda bo‘lmagan spesifik belgilar tushuncha mazmunidan chiqarib tashlanadi.

Bu qonun tushunchalar bilan olib boriladigan qator mantiqiy amallar asosida yotadi.

Tushunchaning turlari

Mantiqda tushunchalar mazmuni va hajmi bo‘yicha bir qancha turlarga bo‘linadilar. Xususan, hajmiga ko‘ra yakka va umumiy tushunchalar farq qilinadi.

Yakka tushunchaning hajmida bitta predmet fikr qilinadi. Masalan, «Mars planetasi», «O‘zMU asosiy kutubxonasi» va shu kabilar yakka tushunchalardir. Umumiy tushunchalar predmetlar guruhini aks ettiradi. «Planeta», «Kutubxona» tushunchalari umumiy tushunchalar hisoblanadi. Umumiy tushunchalar aks ettiruvchi predmetlarning miqdori chegaralangan va chegaralanmagan bo‘lishi mumkin. Masalan, «kimyoviy element» tushunchasida fikr qilinayotgan predmetlar soni chegaralangan. «Yulduz» tushunchasi hajmini tashkil qiluvchi predmetlar soni esa cheksiz.

Fikr yuritish jarayonida ayiruvchi va to‘plovchi tushunchalarni farq qilish ham muhim ahamiyatga ega. Ayiruvchi tushuncha shunday umumiy tushunchaki, u aks ettiruvchi belgilar berilgan sinfning har bir predmetiga xosdir.To‘plovchi tushuncha ham umumiy tushuncha bo‘lib,u aks ettirgan belgilar shu umumiylikni tashkil etuvchi har bir predmetga taaluqli bo‘lmaydi. Masalan, “konferensiya” – to‘plovchi, “konferensiya ishtirokchisi” – ayiruvchi.

Mazmuni bo‘yicha tushunchalar, avvalambor, abstrakt va konkret tushunchalarga bo‘linadi. Konkret tushunchalarda predmet o‘zining belgilari bilan birgalikda fikr qilinadi. Abstrakt tushunchalarda esa predmetning belgilari undan fikran ajratib olinib, alohida aks ettiriladi. Masalan, «Inson», «Tabiat» tushunchalari – konkret tushunchalar, «Qahramonlik» (insonga xos xususiyatni aks ettiradi), «Go‘zallik» (borliqdagi predmetlarga xos xususiyatni ifoda qiladi) tushunchalari abstrakt tushunchalardir.

Mazmuni bo‘yicha yana nisbatsiz va nisbatdosh tushunchalarni ham ajratish mumkin. Nisbatsiz tushunchalar nisbatan mustaqil, alohida mavjud bo‘lgan predmetlarni aks ettiradi. «Davlat», «Badiiy asar» ana shunday tushunchalardir.

Nisbatdosh tushunchalar esa zaruriy ravishda bir-birining mavjud bo‘lishini taqozo qiladigan predmetlarni aks ettiradi. Masalan, «O‘qituvchi» va «O‘quvchi», «Ijobiy qahramon» va «Salbiy qahramon», «Sabab» va «Oqibat» tushunchalari nisbatdosh tushunchalar qatoriga kiradi.

Ba’zi hollarda ijobiy va salbiy tushunchalar ham farq qilinadi. Ijobiy tushunchalarning mazmunida predmet unga xos belgilar orqali fikr qilinsa, salbiy tushunchalarning mazmunida predmet unga xos bo‘lmagan belgilar orqali fikr qilinadi. Masalan, «savodli kishi», «vijdonli kishi» – ijobiy tushunchalar, «savodsiz kishi», «vijdonsiz kishi» esa salbiy tushunchalardir.

Biz yuqorida tushunchalarning bir qancha turlari bilan tanishib chiqdik. U yoki bu tushunchaning ana shu turlardan qaysilariga mansub ekanligini aniqlash unga mantiqiy tavsif berish demakdir. Masalan, «talaba» –

umumiy, ayiruvchi, chegaralangan, aniq, nisbatsiz, ijobiy tushuncha; «A. Navoiy nomli O‘zbekiston davlat kutubxonasi» – yakka, to‘plovchi, chegaralangan, konkret, nisbatsiz, ijobiy tushunchadir.

Tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlar

Obyektiv dunyodagi barcha predmet va hodisalar o‘zaro aloqada bo‘lganligi uchun ularni aks ettiruvchi tushunchalar ham o‘zaro ma’lum bir aloqalarda, munosabatlarda mavjud. Bu munosabatlar turli xil bo‘lib, ularni aniqlash uchun, avvalambor, taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan tushunchalarni farq qilish lozim.

Taqqoslanadigan tushunchalar umumiy belgilarga ega bo‘lgan, mazmuni va hajmi jihatidan bir-biriga yaqin turgan tushunchalardir. Masalan, «paxtakor» va «dehqon» tushunchalari ana shunday taqqoslanadigan tushunchalar hisoblanadi.

Taqqoslanmaydigan tushunchalar esa bir-biri bilan uzoq aloqada bo‘lgan, ko‘p hollarda moddiy yoki ideal bo‘lishdan boshqa umumiy belgiga ega bo‘lmagan predmetlarni aks ettiruvchi tushunchalardir. «Ijtimoiy progress» va «Zuhro yulduzi», «ideal gaz» va «go‘zallik» tushunchalari taqqoslanmaydigan tushunchalar deb hisoblanadi. Mantiqda faqat taqqoslanadigan tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlar o‘rganiladi. Taqqoslanadigan tushunchalar esa hajm jihatidan sig‘ishadigan va sig‘ishmaydigan bo‘ladi.

Sig‘ishadigan tushunchalarning hajmi bir-biriga butunlay, to‘laligicha yoki qisman mos keladi. Ular o‘rtasida uch xil munosabat mavjud: moslik, qisman moslik va bo‘ysunish. Moslik munosabatidagi tushunchalar bitta predmetni (predmetlar sinfini) aks ettiruvchi tushunchalar bo‘lib, ular bir-biridan faqat azmuni bilangina farq qiladi. Masalan,

«I.A. Karimov», «O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti» tushunchalari xuddi shu munosabatda mavjuddir. Buni quyidagi tuzilma yordamida ko‘rsatish mumkin:

A – I.A. Karimov.

B – O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti. A.B



Qisman moslik munosabatidagi tushunchalarning hajmi qisman umumiylikka ega. Masalan:

A – Sportchi.

B – Talaba.



Doiralarning shtrixlangan qismi bir vaqtning o‘zida ham sportchi, ham talaba bo‘lganlarni bildiradi.

Bo‘ysunish munosabatida tushunchalardan birining hajmi ikkinchisining hajmiga to‘liq kirib, uni tashkil qiluvchi qism hisoblanadi. Masalan:



A – Fan.B – Mantiq.

Bu munosabatdagi tushunchalardan biri bo‘ysundiruvchi (A), ikkinchisi (V) bo‘ysunuvchi bo‘lib, ular jins-tur munosabatida bo‘ladi. Jins tushuncha predmetlarning birorta sinfini, tur tushuncha esa shu sinfga mansub predmetlarning bir guruhini yoki bittasini aks ettiradi. Mantiqda u yoki bu tushunchaning jins yoki tur ekanligi nisbiy xarakterga ega. Har bir tushuncha o‘zidan umumiyroq tushunchaga nisbatan tur, kamroq umumlashgan tushunchaga nisbatan jinsdir. Masalan, milliy g‘oya, g‘oya, fikr tushunchalari o‘rtasida quyidagi nisbat mavjud: «g‘oya» tushunchasi «fikr» tushunchasiga nisbatan tur, «milliy g‘oya» tushunchasiga nisbatan jins bo‘ladi.

Sig‘ishmaydigan tushunchalar hajmi jihatidan umumiylikka ega bo‘lmagan tushunchalar hisoblanib, bir sinfga kiruvchi har xil predmetlarni yoki predmetlar guruhini aks ettiradi. Ularning umumiyligi faqat ana shunda. Bu tushunchalar o‘rtasida ham uch xil munosabat bor: birga bo‘ysunish, qarama-qarshilik, zidlik.

Birga **bo‘ysunish** munosabati quyidagi tushunchalar o‘rtasida mavjuddir:



A – Fan.
B – Mantiq.
C– Fizika.

Bunda «mantiq» va «fizika» tushunchalari hajmlari jihatidan birgalikda «fan» tushunchasining hajmiga bo‘ysunadi.

Qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalarning hajmlari bir-birini istisno qiladi. Ular predmetning (predmetlar guruhining) qarama-qarshi belgilarini aks ettiradi, ya’ni biri predmetning ma’lum bir belgisini ifoda qilsa, ikkinchisi uni inkor qiluvchi boshqa belgini aks ettiradi. Qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalar o‘zlari bo‘ysunadigan tushunchaning hajmini to‘liq egallay olmaydi. Masalan, «baland bo‘yli odam» va «past bo‘yli odam» tushunchalari «odam» tushunchasining hajmini to‘liq qoplay olmaydi.

A – Odam.
B – Baland bo‘yli odam.
C – Past bo‘yli odam.



Zidlik munosabatidagi tushunchalardan biri predmetning birorta xususiyatini ifoda qilsa, ikkinchisi uni inkor qiladi va mazmun jihatidan noaniq bo‘lib qoladi.

Zidlik munosabatidagi tushunchalar, qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalardan farqli o‘laroq, bo‘ysundiruvchi tushunchaning hajmini to‘liq qoplaydi. Masalan:

A – Odam.
B – E’tiqodli odam.
C – E’tiqodsiz odam.



Tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatish ularning mazmuni va hajmini aniqlashtirishga, ularni bog‘lab, bir fikr shaklidan boshqa fikr shakliga o‘tishga yordam beradi. Masalan, «talaba» va «a’lochi» tushunchalari o‘rtasidagi munosabatni aniqlash asosida «Ba’zi talabalar a’lochilardir» degan mulohaza shaklidagi fikrni hosil qilish mumkin.

Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish tushunchalar ustida olib boriladigan amallar hisoblanadi. Ular tushunchaning mazmuni va hajmi o‘rtasidagi teskari nisbat qonuniga muvofiq holda amalga oshiriladi.

Tushunchani chegaralash hajmi keng tushunchadan hajmi tor tushunchaga (jins tushunchadan tur tushunchaga) fikran o‘tishdan iborat. Masalan, «mexanik harakat» tushunchasidan «aylanma harakat» tushunchasiga o‘tsak, uning hajmini chegaralagan bo‘lamiz. Chegaralashda berilgan tushuncha – «mexanik harakat» jins tushuncha, deb qabul qilinib, uning mazmuniga tur tushuncha hosil qiluvchi belgilar qo‘shiladi. Natijada unga nisbatan tur hisoblangan yangi tushuncha – «aylanma harakat» tushunchasi hosil bo‘ladi.

Chegaralash amalini davom ettirib, «Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi» tushunchasiga o‘tish mumkin. Demak, chegaralash davomida hosil bo‘lgan har bir yangi tushuncha avvalgisiga nisbatan tur tushuncha bo‘ladi. Chegaralash amali yakka tushuncha hosil bo‘lguncha davom ettirilishi mumkin. Chunki yakka tushunchaga nisbatan tur bo‘lgan tushuncha yo‘q.

Tushunchani chegaralash amalining tuzilmasi quyidagicha:

A – Harakat.
V – Mexanik harakat.
S – Aylanma harakat.
D – Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi.



Tushunchani umumlashtirish hajmi tor tushunchadan hajmi keng tushunchaga (tur tushunchadan jins tushunchaga) fikran o‘tishdan iborat. Bunda berilgan tushuncha tur tushuncha deb qabul qilinib, uning mazmunidan tur hosil qiluvchi belgilar chiqarib tashlanadi. Natijada mazmun jihatidan unga nisbatan torroq, lekin hajmiga ko‘ra kengroq bo‘lgan jins tushuncha hosil bo‘ladi. Masalan, «aylanma harakat» tushunchasi mazmunidan faqat ungagina xos bo‘lgan tur belgilarni chiqarib tashlasak, «mexanik harakat» tushunchasini hosil qilamiz. Umumlashtirish amalining chegarasi eng umumiy tushuncha, ya’ni kategoriyadir. Chunki kategoriyalar uchun jins bo‘lgan tushuncha yo‘q.

Tushunchani umumlashtirish amalining tuzilmasi quyidagicha:

A – Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi.
B – Aylanma harakat.
S – Mexanik harakat.
D – Harakat.



Tushunchani chegaralash va umumlashtirish amallari kundalik hayotimiz va ilmiy bilishda keng qo‘llaniladi. Xususan, barcha kategoriyalar, ular yordamida ifodalanadigan nazariy qonunlar, g‘oyalar, nazariyalar mavjud empirik tushunchalarni, empirik qonunlarni umumlashtirish natijasida hosil bo‘ladi.

Umumlashtirish muhokama yuritish jarayonida induktiv xulosa chiqarish usulida yaqqol ifodalangan bo‘ladi. Tushunchalarni umumlashtirishsiz fanning fundamental tushunchalarini yaratib bo‘lmaydi; mavjud bilimlarni tizimga solish qiyin va umuman, fan taraqqiy eta olmaydi.

Tushunchalarni chegaralash amali esa, yaratilgan umumiy bilimlarni (nazariy tushuncha, g‘oya, nazariya va shu kabilarni) talqin etishda ishlatiladi. Masalan, Nyuton mexanikasidagi «Inersiya» tushunchasi Galiley nazariyasidagi «Erkin tushish» tushunchasi yordamida tushuntirilishi mumkin.

7.2. Mulohaza (Hukm) tafakkur shakli va xulosa chiqarishning tarkibiy qismi sifatida

Hukm – predmetga ma'lum bir belgining (xossaning, munosabatning) xosligi yoki xos emasligini ifodalovchi tafakkur shaklidir.

Hukmning asosiy vazifasi predmet bilan uning xususiyati, predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatishdir. Ana shuning uchun ham u doimo tasdiq yoki inkor shakldagi fikrdan iborat bo'ladi. Fikr yuritish jarayonida biz predmet va hodisalarning, tashqi xususiyatlari bilan birga ularning ichki, zaruriy bog'lanishlarini, munosabatlarini bilib boramiz. Predmet va hodisalarning xususiyatlarini ketma-ket o'rganib, ular haqida hukmlar hosil qilamiz. Bilimlarimiz turlicha bo'lgani uchun ularni ifodalaydigan hukmlar ham har xil bo'ladi. Ba'zi hukmlarda aniq, tekshirilgan bilimlar ifodalansa, boshqalarida belgining predmetga xosligi taxmin qilinadi, ya'ni noaniq bilimlar ifodalanadi.

Hukmlar nisbatan tugal fikrdir. Unda konkret predmet bilan uning konkret belgisi haqida bilim ifoda qilingan bo'ladi.

Hukmlar voqyelikka mos kelish darajasiga ko'ra chin, xato va noaniq (ehtimol, taxminiy) bo'ladi. Obyektiv voqyelikka mos kelgan, uni to'g'ri ifodalagan hukmlar chin, mos kelmaganlari xato bo'ladi. Ayni vaqtda chinligini ham, xatoligini ham aniqlab bo'lmaydigan hukmlar – noaniq hukmlardir.

Hukmlar tilda gaplar orqali ifodalanadi. Hukm mantiqiy kategoriya bo'lsa, gap grammatik kategoriyadir. Hukmlar asosan darak gap orqali ifodalanadi. Faqat darak gaplardagina fikr tasdiq yoki inkor holda bo'ladi.

Masalan, «Vaqt orqaga qaytmaydi», «Hayot – bu harakat» kabi gaplar hukmni ifoda qiladilar.

ODDIY HUKMLAR

Hukmlar tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab bo'ladi. **Oddiy hukm** deb, tarkibidan yana bir hukmni ajratib bo'lmaydigan mulohazaga aytiladi. Tarkibidan ikki yoki undan ortiq hukmni ajratish mumkin bo'lgan mulohazalarga murakkab hukm deyiladi. Masalan, «Mantiq ilmini o'rganish to'g'ri fikrlash madaniyatini shakllantiradi», degan mulohaza oddiy hukmni ifodalaydi. «Mantiq ilmi tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganadi», degan mulohaza murakkab hukmdir. Bu mulohazaning tarkibi ikki qismdan: «Mantiq ilmi tafakkur shakllarini o'rganadi» va «Mantiq ilmi tafakkur qonunlarini o'rganadi», degan ikki oddiy hukmdan iborat.

Mulohaza (hukm) tarkibida mantiqiy ega va mantiqiy kesimni ajratib ko'rsatish mumkin. Mantiqiy ega – subyekt (S) fikr qilinayotgan predmet va hodisani bildiradi. Mantiqiy kesim – predikat (P) predmet xususiyatini, munosabatini bildiradi. Predikatda ifodalangan bilimlar hisobiga subyekt

haqidagi tasavvur boyitiladi. Hukmning subyekt va predikati uning terminlari deb ataladi.

Hukmning uchinchi zaruriy elementi mantiqiy bog‘lamadir. U subyekt va predikatni bir-biri bilan bog‘laydi, natijada hukm hosil bo‘ladi. Oddiy qat’iy hukmning formulasi quyidagicha yoziladi: S-P.

Oddiy hukmlar sifati va miqdoriga ko‘ra turlarga bo‘linadi. Sifatiga ko‘ra, tasdiq va inkor hukmlar farqlanadi. Hukmning sifatini mantiqiy bog‘lama belgilaydi. Tasdiq hukmlarda belgining predmetga xosligi, inkor hukmlarda, aksincha, xos emasligi ko‘rsatiladi. Masalan, «A. Oripov O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasining muallifidir»– tasdiq hukm, «Matematika ijtimoiy fan emas» – inkor hukm. Miqdoriga ko‘ra oddiy hukmlar yakka, umumiy va juz’iy hukmlarga bo‘linadi. Bunda subyektda ifodalangan predmetlarning sonidan, ya’ni uning hajmidan kelib chiqiladi.

Yakka hukmlarda birorta belgining bir predmetga xosligi yoki xos emasligi haqida fikr bildiriladi. Masalan: «O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlatdir», «Ahmedov tarixchi emas».

Umumiy hukmlarda birorta belgining yakka predmetlar sinfining hammasiga yoki undagi har bir predmetga taalluqli yoki taalluqli emasligi haqida fikr bayon qilinadi. Masalan, «Har bir inson baxtli bo‘lishni xohlaydi» va «Hech bir aqlli odam vaqtini behuda sarflamaydi».

Juz’iy hukmlarda birorta belgining predmetlar to‘plamining bir qismiga xos yoki xos emasligi haqida fikr bildiriladi. Masalan, «Ba’zi yoshlar tadbirkor». «ayrim talabalar dangasa emas». Juz’iy hukmlarda «ba’zi» so‘zi «Hech bo‘lmasa bittasi, balki hammasi», degan ma’noda qo‘llaniladi. Shunga ko‘ra, «Ba’zi toshlar tirik mavjudot emas», degan hukm chin bo‘ladi, chunki Hech bir tosh tirik mavjudot emas.

Ma’lum ma’noda yakka hukmlarni umumiy hukmlar bilan tenglashtirish mumkin. Chunki har ikki hukmda ham to‘plamdagi predmetlarning har biriga nimadir taalluqli yoki taalluqli emas, deb ko‘rsatiladi. Yakka hukmlarda esa bu to‘plam birgina predmetdan iborat bo‘ladi.

Mulohazalarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlashda va ba’zi boshqa holatlarda oddiy hukmlarning miqdor va sifati bo‘yicha birlashgan klassifikasiyasi (asosiy turlari)dan foydalaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Umumiy tasdiq hukmlar. Ular bir vaqtning o‘zida ham umumiy, ham tasdiq bo‘lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Hamma talabalar mantiq ilmini o‘rganadilar». Bu hukmlar lotin alifbosidagi A harfi bilan belgilanadi va «Hamma S–Pdir» formulasi orqali ifodalanadi.

2. Umumiy inkor hukmlar bir vaqtning o‘zida ham umumiy, ham inkor bo‘lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Hech bir ishbilarmon rejasiz ish yuritmaydi». Bu hukm «Hech bir S–P emas» formulasi orqali ifodalanadi va lotincha E harfi bilan belgilanadi.

3. Juz'iy tasdiq hukmlar bir vaqtning o'zida ham juz'iy, ham tasdiq bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Ba'zi talabalar mas'uliyatli». U lotincha I harfi bilan belgilanadi va «Ba'zi S–Pdir» formulasi orqali ifodalanadi.

4. Juz'iy inkor hukm bir vaqtning o'zida ham juz'iy, ham inkor bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Ba'zi talabalar sport bilan shug'ullanmaydilar». Uning formulasi «Ba'zi S–P emas» bo'lib, lotincha O harfi bilan belgilanadi.

Oddiy hukmlarda terminlar hajmi. Oddiy hukmlardagi terminlar (S va P) tushunchalar orqali ifodalanganligi tufayli ularning hajmiga ko'ra, o'zaro munosabatlarini aniqlash mumkin. Hukmlarda terminlar (S va P) to'liq yoki to'liqsiz hajmda olingan bo'ladi. Termin to'liq hajmda olinganda uning hajmi boshqa terminning hajmiga to'liq mos bo'ladi yoki mutlaqo mos bo'lmaydi (ularning hajmi bir-birini istisno qiladi). Termin to'liqsiz hajmda olingan bo'lsa, unda uning hajmi boshqasining hajmiga qisman mos keladi yoki undan qisman istisno qilinadi. Oddiy hukmlarda terminlar hajmi quyidagicha bo'ladi:

1. **A** – Umumiy tasdiq hukmlarning subyekti hamma vaqt to'liq hajmda olingan bo'ladi. Predikati esa ba'zan to'liq, ba'zan to'liqsiz hajmda bo'ladi. Masalan, «Hamma insonlar tirik mavjudotdir».

Bu hukmning subyekti – «inson», predikati – «tirik mavjudot» tushunchasidir, «hamma» – umumiylik kvantori. Bu hukmning subyekti to'liq hajmda olingan, chunki unda hamma insonlar to'g'risida fikr bildirilgan va bu tushuncha «tirik mavjudot» tushunchasining hajmiga to'liq kirishadi. Uning predikati to'liq hajmda olinmagan, chunki unda tirik mavjudotlarning bir qismi – insonlar haqida fikr yuritiladi. Buning doiraviy shakli quyidagicha: (7.1-chizma).



7.1-chizma.



7.**2-chizma.**

Umumiy tasdiq hukmlarning ba'zilarida S ham, R ham to'la hajmda bo'lishi mumkin. Masalan, «Hamma musulmonlar Islom diniga e'tiqod qiladilar» (7.2-chizma).

2. **Ye** – Umumiy inkor hukmlarning subyekti ham, predikati ham to'liq hajmda olingan bo'ladi. Masalan, «Hech bir dindor e'tiqodsiz emas». Bu hukmda S – dindorlarni, P – e'tiqodsizlarni ifodalaydi, Hech bir – umumiylik kvantoridir. Bunda har ikki terminning hajmi bir-birini istisno qiladi (7.3-chizma).



7.3-chizma.

3. **I** – Juz'iy tasdiq hukmlarning subyekti hamma vaqt to'liqsiz hajmda olinadi, predikati esa ba'zan to'liq, ba'zan to'liqsiz hajmda bo'ladi. Masalan, «Ba'zi talabalar ingliz tilini biladi» degan hukmning terminlari quyidagicha: S – talabalar, R – ingliz tilini biladiganlar, ba'zi – mavjudlik kvantori. Bu hukmda S ham, R ham to'liqsiz hajmda olingan bo'lib, har ikki terminning hajmi bir-biriga qisman mos keladi (7.4-chizma).



7.4-chizma.

Yana bir misolni ko'ramiz: «Ba'zi shifokorlar xirurgdir». Bu hukmda S – shifokorlar, R – xirurglar, ba'zi – mavjudlik kvantoridir. Hukmda subyekt to'liq hajmda olinmagan, chunki unda ba'zi shifokorlar haqida fikr bildirilgan, predikat esa to'liq hajmda olingan, chunki xirurglarning hammasi shifokordir. Predikatning hajmi subyektning hajmiga kirgani uchun u to'liq hajmda olingan bo'ladi (7.5-chizma).



7.5-chizma.

4. **O** – Juz'iy inkor hukmlarning subyekti hamma vaqt to'liqsiz hajmda, predikati esa to'liq hajmda olinadi. Masalan, «Ba'zi yoshlar hunarmand emas». Bu hukmning terminlari: S – yoshlar, R – hunarmand emaslar; ba'zi – mavjudlik kvantori. Hukmning subyekti to'liq hajmda olinmagan, unda yoshlarning bir qismi haqida fikr yuritiladi, xolos. Hukmning predikati esa to'liq hajmda olingan. Unda hunarmandlarning hammasi haqida fikr bildirilgan (7.6-chizma).



7.6-chizma.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, umumiy hukmlarning subyekti hamma vaqt to‘liq hajmda, juz’iy hukmlarning subyekti to‘liqsiz hajmda olinadi. Inkor hukmlarning predikati hamma vaqt to‘liq hajmda bo‘ladi. Tasdiq hukmlarning predikati R< S bo‘lgandagina to‘liq hajmda bo‘ladi, boshqa hollarda esa to‘liqsiz hajmda olinadi.

Hukmlarda terminlar hajmini aniqlash qat’iy sillogizmni to‘g‘ri tuzishda va bevosita xulosa chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Oddiy hukmlarda terminlar hajmini quyidagi shakl orqali yaqqol ifodalashda «+»,«-» belgilaridan foydalinadi. Bunda «+» to‘liq hajmni, «–» to‘liqsiz hajmni bildiradi.

	S	P
A	+	- (+)
E	+	+
J	-	- (+)
O	-	+

Predikatning mazmuniga ko‘ra oddiy hukm turlari. Ular quyidagilardan iborat: atributiv hukmlar, mavjudlik hukmlari va munosabat hukmlari. Atributiv (sifat va xususiyat) hukmlarda biror xususiyatning predmetga xosligi yoki xos emasligi aniq, qat’iy qilib ko‘rsatiladi. Shuning uchun atributiv hukmlarni birorta predmetning sinfga kirishi (mansubligi) yoki kirmasligi (mansub emasligi) haqidagi hukm deb ta’riflasa bo‘ladi.

Masalan, «Hamma daraxtlar o‘simliklardir» va «Hech bir o‘simlik hayvon emas». Birinchi hukmda daraxtlarning o‘simliklar sinfiga kirishi haqida fikr bildirilsa, ikkinchi hukmda o‘simliklar va hayvonlar sinfining o‘z holicha umumiylikka ega emasligi haqida fikr bildirilgan.

Ikkita, uchta va hokazo predmetlar o‘rtasida muayyan munosabatlarning bo‘lishi yoki bo‘lmasligini ifodalagan hukmlarga munosabat hukmlari deyiladi. Masalan: «Butun bo‘lakdan katta». «Ikki–uchdan kichik son». Birinchi hukmda «kattalik» munosabati butun va bo‘lak o‘rtasida bo‘lishi tasdiqlansa, ikkinchi hukmda uch soni bilan ikki sonining munosabati haqidagi fikr tasdiqlangan.

Munosabat hukmlari sifatiga ko‘ra, tasdiq yoki inkor hukm turlariga bo‘linadi. Tasdiqlovchi munosabat hukmlarida predmetlar o‘zaro muayyan munosabatda ekanliklari haqida fikr bildiriladi. Inkor etuvchi munosabat hukmlarida esa predmetlar o‘rtasidagi muayyan munosabatlarning mavjud emasligi haqida fikr bildiriladi.

Munosabat hukmlari miqdoriga ko‘ra ham turlarga bo‘linadi. Xususan, ikki o‘rinli munosabat hukmlari miqdoriga ko‘ra yakka-yakka, umumiy-umumiy, juz’iy-juz’iy, yakka-umumiy, yakka-juz’iy, umumiy-juz’iy, juz’iy-umumiy turlarga bo‘linadi.

Masalan, «Ukasi akasidan baland» (yakka-yakka); «Guruhimizning har bir talabasi fakultetimizdagi hamma o‘qituvchilarni biladi» (umumiy-umumiy); «Guruhimizdagi ba’zi talabalar ba’zi hind kino yulduzlarini yaxshi biladilar» (juz’iy-juz’iy); «Tarix o‘qituvchisi guruhimizdagi har bir talabani yaxshi biladi» (yakka-umumiy); «Do‘stim ba’zi masalalarni yecha oladi» (yakka-juz’iy); «Guruhimizdagi hamma talabalar ingliz tilini o‘rganadilar» (umumiy-yakka); «Guruhimizdagi ba’zi talabalar fransuz tilini o‘rganadilar» (juz’iy-yakka); «Guruhimizdagi ba’zi talabalar «Paxtakor» komandasining har bir o‘yinchisini biladilar» (juz’iy-umumiy).

Uch o‘rinli, to‘rt o‘rinli va hokazo munosabat hukmlari ham yuqoridagi kabi turlarga bo‘linadilar.

Atributiv va munosabat hukmlaridan boshqa yana mavjudlik hukmlari (Kutubxonada mantiq darsligi bor), ayniyat hukmlari («A–B» ko‘rinishda bo‘lgan) va modal hukmlar (ehtimol yomg‘ir yog‘adi)ni ko‘rsatish mumkin. Ba’zi darsliklarda ular oddiy qat’iy hukm turlari sifatida talqin qilinadi. Biz bu hukm turlarini alohida ko‘rib chiqmaymiz, chunki mavjudlik hukmlarini ko‘pincha atributiv hukmlar ko‘rinishida, ayniyat hukmlarini munosabat hukmlari ko‘rinishida talqin qilish mumkin.

Shuningdek, oddiy hukm turlari sifatida ajratib ko‘rsatuvchi va istisno qiluvchi hukmlar ham farqlanadi. «Guruhimiz talabalaridan faqat 4 kishi musobaqada qatnashadi». Bu ajratib ko‘rsatuvchi hukmdir. «Mantiq tarixi» kursidan boshqa hamma o‘qitiladigan fanlardan darsliklar yetarli». Bu istisno qiluvchi hukmdir.

Hukm terminlari birdan ortiq bo‘lsa, murakkab hukm deb ataladi. Murakkab hukmlar «va», «yoki», «agar... unda» kabi mantiqiy bog‘lamalar, inkor qilish va modal terminlarni qo‘llash orqali ikki va undan ortiq oddiy hukmlarning o‘zaro birikishidan hosil bo‘ladi. Mantiqiy bog‘lovchining mazmuniga ko‘ra murakkab hukmlarning quyidagi asosiy turlarini farq qilish mumkin: birlashtiruvchi, ayiruvchi, shartli, ekvivalent.

Birlashtiruvchi (kon’yunktiv) hukmlar deb ikki va undan ortiq oddiy hukmlarning «va», «ham», «hamda» kabi mantiqiy bog‘lovchilar vositasida o‘zaro birikishidan hosil bo‘lgan hukmlarga aytiladi. Masalan, 1.«Qo‘ng‘iroq chalindi va dars boshlandi». 2.«A. Navoiy shoir va davlat

arbobi bo‘lgan». 3.«Muhammad Xorazmiy va Ahmad Farg‘oniylar matematika fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar».

Birinchi birlashtiruvchi hukm ikki mustaqil oddiy hukmning bog‘lanishidan hosil bo‘lgan. Ikkinchi hukmda bir xil subyektga ega bo‘lgan ikki oddiy hukm o‘zaro bog‘langan. Uchinchi birlashtiruvchi hukmda esa bir xil predikatga ega bo‘lgan ikki oddiy hukm o‘zaro bog‘langan. O‘zbek tilida birlashtiruvchi hukmlar «ammo», «lekin», «biroq» kabi bog‘lamalar va (,) vositasida ham tuziladi. Mantiqiy bog‘lamalar kon’yunksiya belgisi «∧»orqali ifodalanadi. Formulasi r∧q.

Kon’yunktiv (birlashtiruvchi) hukm tarkibidagi oddiy hukmlarni «r» va «q» shartli belgilari bilan belgilasak, unda bu hukm «∧» formulasi orqali ifodalanadi. Kon’yunktiv hukm tarkibidagi oddiy hukmlar chin yoki xato bo‘lishi mumkin. Tarkibidagi hamma oddiy hukmlar chin bo‘lganda, birlashtiruvchi hukm chin bo‘ladi. Boshqa hamma holatlarda esa xato bo‘ladi. Masalan, «Yolg‘on gapirish va o‘g‘irlik qilish jinoyatdir» hukmidagi birinchi oddiy gap «Yolg‘on gapirish jinoyatdir» chin bo‘lmaganligi uchun bu hukm chin bo‘lmaydi.

Ayiruvchi (diz’yunktiv) hukm deb «yo», «yoki», «yoxud» mantiqiy bog‘lamalari vositasida oddiy hukmlardan tashkil topgan mulohazaga aytiladi. Bu bog‘lovchilar ikki oddiy hukmni yoki bir qancha predikatlarni. yoki bir qancha subyektlarni bir-biridan ayirib turadi. Masalan, «Qodirov falsafa yoki sosiologiya, yoki psixologiya bo‘limida o‘qiydi». «Konsertda birinchi yoki ikkinchi kurs talabalari qatnashadilar». Ayiruvchi bog‘lamalar «V» – diz’yunksiya belgisi orqali ifodalanadi. Ayiruvchi (diz’yunktiv) hukmlar oddiy yoki qat’iy turlarga bo‘linadi. Oddiy diz’yunktiv hukm tarkibidagi oddiy hukmlardan biri yoki hammasi chin bo‘lishi mumkin, qat’iy diz’yunktiv hukmda esa tarkibidagi oddiy hukmlardan faqat bittasi chin bo‘ladi. Oddiy diz’yunktiv hukm pVq formulasi bilan, qat’iy diz’yunktiv hukm pVq formulasi bilan belgilanadi.

«A.Avloniy shoir yoki dramaturgdir». Bu oddiy diz’yunktiv hukm. «Abdullayev musobaqada yo yutadi, yo yutmaydi». Bu qat’iy diz’yunktiv hukm.

7.3. Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi: tuzilishi, turlari va umumiy qoidalari

Voqyelikni bilish jarayonida inson yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Bu bilimlar abstrakt tafakkur yordamida, mavjud bilimlarga asoslangan holda vujudga keladi. Bunday bilimlarni hosil qilish mantiq ilmida xulosa chiqarish, deb ataladi.

Xulosa chiqarish deb, bir va undan ortiq chin mulohazalardan ma'lum qoidalar yordamida yangi bilimlarni keltirib chiqarishdan iborat bo'lgan tafakkur shakliga aytiladi.

Xulosa chiqarish jarayoni asoslar, xulosa va asoslardan xulosaga o'tishdan tashkil topadi. To'g'ri xulosa chiqarish uchun, avvalambor, asoslar chin mulohazalar bo'lishi, o'zaro mantiqan bog'lanishi kerak.

Masalan, «Arastu – mantiq fanining asoschisi» va «Platon yunon faylasufidir» degan ikki chin mulohazadan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki bu mulohazalar o'rtasida mantiqiy aloqadorlik yo'q.

Xulosa asoslari va xulosa ham o'zaro mantiqan bog'langan bo'lishi shart. Bunday aloqadorlikning zarurligi xulosa chiqarish qoidalarida qayd qilingan bo'ladi. Bu qoidalar buzilsa, to'g'ri xulosa chiqmaydi. Masalan, «Talaba A – a'lochi» degan mulohazadan «Talaba A – odobli», deb xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Xulosa chiqarish xulosaning chinlik darajasiga ko'ra, aniqrog'i, xulosa chiqarish qoidalarining qat'iyligiga ko'ra hamda xulosa asoslarining soniga va fikrning harakat yo'nalishiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi.

Mazkur tasnifda xulosa chiqarishni fikrning harakat yo'nalishi bo'yicha turlarga ajratish nisbatan mukammalroq bo'lib, u xulosa chiqarishning boshqa turlari haqida ham ma'lumot berish imkonini yaratadi. Xususan, deduktiv xulosa chiqarish zaruriy xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish (to'liq induksiyani hisobga olmaganda) va analogiya ehtimoliy xulosa chiqarish, deb olib qaralishi, bevosita xulosa chiqarish esa deduktiv xulosa chiqarishning bir turi sifatida o'rganilishi mumkin.

DEDUKTIV XULOSA CHIQARISH

Deduktiv xulosa chiqarishning muhim xususiyati unda umumiy bilimdan juz'iy bilimga o'tishning mantiqan zaruriy xususiyatga egaligidir. Uning turlaridan biri bevosita xulosa chiqarishdir.

Faqat birgina mulohazaga asoslangan holda yangi bilimlarning hosil qilinishi bevosita xulosa chiqarish, deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarish simvolik mantiqda quyidagicha ifodalanadi: XY_{SP}, bunda X va Y oddiy

qat'iy mulohazalarni (A, E, I, O), S va P lar esa mulohazalarning subyekti va predikatini ifodalaydi. X_{SP}– xulosa asosi yoki antesedent, Y_{SP} – xulosa yoki konsekvent, deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarish jarayonida mulohazalarning shaklini o'zgartirish orqali yangi bilim hosil qilinadi. Bunda asos mulohazaning tarkibi, ya'ni subyekt va predikat munosabatlarining miqdor va sifat tavsiflari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bevosita xulosa chiqarishning quyidagi mantiqiy usullari mavjud:

I. Aylantirish (lot.–obversio) shunday mantiqiy usulki, unda berilgan mulohazaning miqdorini saqlagan holda, sifatini o‘zgartirish bilan yangi mulohaza hosil qilinadi. Bu usul bilan xulosa chiqarilganda qo‘sh inkor sodir bo‘ladi, ya’ni avval asosning predikati, keyin bog‘lovchisi inkor etiladi. Buni quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$\frac{S - P}{S - \overline{\overline{P}}}$$

Inkor qilish jarayonida inkor yuklamalaridan (-ma; -siz; -mas) yoki inkor qilinayotgan tushunchaga zid bo‘lgan tushunchalardan foydalaniladi. Oddiy qat’iy mulohazalarning hammasidan aylantirish usuli bilan xulosa chiqariladi. Xulosa asosi bo‘lgan mulohaza xulosada quyidagicha ifodalanadi:

Aylantirish usuli bilan hulosa chiqarilganda “biror nimaning qo‘shinkori uning tasdig‘i bilan tengdir ” degan qoida amal qiladi.

Masalan:

1. A. Hamma ilmiy qonunlar obyektiv xarakterga ega.

Ye. Hech bir ilmiy qonun subyektiv xarakterga ega emas.

II. Almashtirish (lot.–conversio) shunday mantiqiy xulosa chiqarish usuliki, unda xulosa berilgan mulohazadagi subyekt va predikatning o‘rnini almashtirish orqali keltirib chiqariladi.

Almashtirishda berilgan mulohazadagi terminlar hajmi e’tiborga olinishi shart.

		Xulosa asosi		**Xulosa**	**Almashtirish turi**
1	A	Hamma S-P	A	Hamma P-S	Sof almashtirish
2	Ye	Hech bir S-P emas	Ye	Hech bir P- S emas	Sof almashtirish
3	I	Ba’zi S-P	I	Ba’zi P - S	Sof almashtirish
4	A	Hamma S-P	I	Ba’zi P - S	Toraytirilgan almashtirish
5	I	Ba’zi S-P emas	A	Hamma P - S	Kengaytirilgan almashtirish

Juz’iy inkor mulohazadan (0) almashtirish usuli bilan xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

Almashtirishga misol:

A. Hamma shifokorlar oliy ma’lumotlidir.

I. Ba’zi oliy ma’lumotlilar shifokorlardir.

Demak, almashtirish usuli qo‘llanilganda mulohazadagi subyekt va predikat hajmi aniqlanadi va shu asosda mulohazadagi terminlarning o‘rni almashtirilib, xulosa chiqariladi. Bu usul, ayniqsa, tushunchaga berilgan ta’riflarning to‘g‘riligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

III. Predikatga qarama-qarshi qo‘yish (lot.– contrapositio) bevosita xulosa chiqarishning mantiqiy usullaridan biri bo‘lib, bu usul qo‘llanilganda berilgan mulohaza avval aylantiriladi, so‘ngra almashtiriladi. Natijada hosil qilingan mulohazaning (xulosaning) subyekti asos mulohaza predikatiga zid, predikati esa uning subyektiga mos bo‘ladi:

$$\frac{S - P}{\overline{\overline{P - S}}}$$

Bunda, xulosada S ning inkor shaklida bo‘lishi xulosa bog‘lovchisining inkor etilishi natijasidir. Predikatga qarama-qarshi qo‘yishda A-Ye ga, Ye-I ga, 0-I ga o‘zgaradi.

Turli mulohazalardan bu usul vositasida xulosa chiqarish quyidagi shaklda ko‘rsatilgan:

		Xulosa asosi	Xulosa
1	A	Hamma S-P	Hech bir R emas S emas
2	Ye	Hech bir S - P emas	Ba’zi R emas S dir
3	O	Ba’zi S - P emas	Ba’zi R emas S dir

Masalan:

1. A. Hamma musulmonlar Islom diniga e’tiqod qiladilar.Islom diniga e’tiqod qilmaydiganlar musulmon emas.

Juz’iy tasdiq (I) mulohazadan predikatga qarama-qarshi qo‘yish usuli bilan xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Chunki, «Ba’zi S-P mulohazani aylantirsak «Ba’zi S-P mas emas», ya’ni juz’iy inkor hukm kelib chiqadi. Undan almashtirish orqali xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

IV. Mantiqiy kvadrat orqali xulosa chiqarish.

Bunda oddiy qat’iy mulohazalarning o‘zaro munosabatlarini (qarang: mantiqiy kvadrat) e’tiborga olgan holda, mulohazalardan birining chin yoki xatoligi haqida xulosa chiqariladi. Bu xulosalar mulohazalar o‘rtasidagi zidlik, qarama-qarshilik, qisman moslik va bo‘ysunish munosabatlariga asoslanadi.Bu munosabatlarning tahliliga ko‘ra xulosa chin bo‘lgan quyidagi holatlarni ko‘rsatish mumkin.

1.Asos mulohaza va xulosa chin bo‘lgan : A→I, Ye→0.

2.Asos mulohaza xato va xulosa chin bo‘lgan:I→O, O→I

Masalan: A. Hamma mustaqil davlatlar BMT ga a’zo.

I.Ba’zi mustaqil davlatlar BMT ga a’zo.

Bevosita xulosa chiqarish usullari bilishda mavjud fikrni aniqlab olishga, uning mohiyatini to‘g‘ri tushunishga, shuningdek, bir fikrni turli xil ko‘rinishda bayon qilishga, yangi bilimlar hosil qilishga imkoniyat beradi.

Oddiy qat’iy sillogizm

Deduktiv xulosa chiqarish aslida sillogizm shaklida bo‘ladi. Sillogizm qo‘shib hisoblash, degan ma’noni beradi. Bu munosabatlarning tahliliga ko‘ra i anglatadi. Bu termindan mantiqda, odatda, deduktiv xulosa chiqarishning ko‘proq ishlatiladigan turi hisoblangan oddiy qat’iy sillogizmni ifoda qilish uchun foydalaniladi. **Sillogizm** xulosa chiqarishning shunday shakliki, unda o‘zaro mantiqiy bog‘langan ikki qat’iy mulohazadan uchinchi – yangi qat’iy mulohaza zaruriy tarzda kelib chiqadi. Bunda dastlabki mulohazalardan biri, albatta, yo umumiy tasdiq, yoki umumiy inkor mulohaza bo‘ladi. Hosil qilingan yangi mulohaza dastlabki mulohazalardan umumiyroq bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra sillogizmni umumiylikka asoslangan xulosa chiqarish, deb atasa bo‘ladi. Masalan, quyidagi mulohazalar berilgan bo‘lsin:

Hech bir xasis saxiy emas.

Ba’zi boylar xasisdir.

Bu mulohazalardan zaruriy ravishda – «Ba’zi boylar saxiy emas», degan uchinchi mulohaza kelib chiqadi. Sillogizmning tarkibi oddiy qat’iy mulohazalardan tashkil topgani uchun u oddiy qat’iy sillogizm deyiladi.

Sillogizmning tarkibi xulosa asoslari (praemissae) va xulosa (conslusio)dan tashkil topgan. Xulosa asoslari va xulosadagi tushunchalar **terminlar** deb ataladi. Xulosaning mantiqiy egasi – S – kichik termin (terminus minor), mantiqiy kesimi – R – katta termin (terminus major), deb ataladi. Xulosa asoslari uchun umumiy bo‘lgan, lekin xulosada uchramaydigan tushuncha – M – (terminus medius) o‘rta termin deb ataladi. Asoslarda katta terminni o‘z ichiga olgan mulohaza katta asos, kichik terminni o‘z ichiga olgan mulohaza kichik asos deb ataladi.

S – kichik termin;
M – o‘rta termin;
R – katta termin.



O‘rta termin katta va kichik terminni bog‘lovchi mantiqiy element hisoblanadi.

SILLOGIZM AKSIOMASI

Aksiomalar isbotsiz chin deb qabul qilingan nazariy mulohazalar bo‘lib, ular vositasida boshqa fikr va mulohazalar asoslab beriladi. Sillogizmning aksiomasi xulosalashning mantiqiy asoslanganligini ifodalaydi. Sillogizm

aksiomasini terminlarning hajmiga yoki mazmuniga ko‘ra, ya’ni atributiv ta’riflash mumkin.

Sillogizm xulosasining asoslardan zaruriy keltirib chiqarilishi quyidagi qoidaga asoslanadi: «Agar bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo‘lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumning ichida bo‘lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumning ichida joylashgan bo‘ladi» yoki «Bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo‘lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumdan tashqarida bo‘lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumdan tashqarida joylashgan bo‘ladi». Bu qoidani quyidagi shakllar yordamida yaqqol ifodalash mumkin.



Bu qoida sillogizm aksiomasining mohiyatini terminlarning hajmi munosabatlari asosida tushuntirib beradi. Demak, sillogizm aksiomasining mohiyati quyidagicha: **buyum va hodisalarning sinfi to‘g‘risida tasdiqlab yoki inkor etib bayon qilingan fikr shu sinf ichiga kiruvchi barcha buyum va hodisalarning har biri yoki ayrim qismiga ham taalluqli fikr hisoblanadi.**

Masalan:

Tafakkur shakllari obyektiv xususiyatga ega.

Tushuncha tafakkur shaklidir.

Tushuncha obyektiv xususiyatga ega.

Sillogizm aksiomasini atributiv ifodalaganda predmet bilan uning belgisi o‘rtasidagi munosabatga asoslaniladi: **biror** buyum, hodisa belgisining belgisi, shu buyum, hodisaning belgisidir; buyum, hodisa belgisiga zid bo‘lgan narsalar buyum, hodisaning o‘ziga **ham ziddir**.

Sillogizm aksiomalarida fikr shakli va mazmuni o‘zaro uzluksiz, obyektiv bog‘langan bir butunning ayrim tomonlarini ifodalaydi. Bu bir tomondan, hamma umumiylikka juz’iylik va yakkalik xos ekanligini va har bir yakkalik juz’iylik, umumiylik xislatiga ega bo‘lishini ifodalasa, ikkinchi tomondan, buyum va belgining o‘zaro uzviy bog‘langanligini, ya’ni buyumlar jinsi ayrim o‘ziga xos belgiga ega bo‘lsa, albatta, bu belgi shu jinsdagi hamma buyumlar uchun ham xos belgi bo‘lishini ifodalaydi. Bular esa, o‘z navbatida, yakkalik va umumiylik hamda miqdor va sifat o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikning tafakkur jarayonida o‘ziga xos namoyon bo‘lishidir.

INDUKTIV XULOSA CHIQARISH

Biz avvalgi mavzuda zaruriy xulosa chiqarish bilan (deduktiv xulosa chiqarish asosida) tanishib chiqqan edik. Mantiqda ehtimoliy xulosa chiqarish ham o‘rganiladi.

Ehtimoliy xulosa chiqarish turli xil shakllarda, shu jumladan, induktiv xulosa chiqarish shaklida amalga oshishi mumkin. Ularning barchasiga xos xususiyat – xulosaning asoslardan mantiqan zaruriy ravishda kelib chiqmasligi hamda faqat ma’lum bir darajada tasdiqlanishidir. Asoslarning xulosani tasdiqlash darajasi mantiqiy ehtimollik, deb nom olgan.

Ehtimoliy xulosa chiqarish ba’zan induksiya (lotincha– inductio – yagona asosga keltirish) - juz’iy bilimdan umumiy bilimga mantiqan o‘tish shaklida sodir bo‘ladi.

Induktiv xulosa chiqarish empirik umumlashtirish shaklida amalga oshib, unda *birorta belgining ma’lum bir sinfga mansub predmetlarda takrorlanishini kuzatish asosida, shu belgining mazkur sinfga tegishli barcha predmetlarga xosligi haqida xulosa chiqariladi.*

Induksiya asosida chiqarilgan xulosalar ilmiy bilishda o‘rnatilgan turli empirik qonunlar, yaratilgan umumlashmalar tarzida o‘z aksini topadi, predmet va hodisalar haqidagi bilimlarimizni kengaytirishga olib keladi.

Induktiv xulosa chiqarish bilvosita xulosa chiqarish hisoblanadi, ya’ni uning asoslari ikkita va undan ortiq mulohazalardan tashkil topgan bo‘ladi. Ular, odatda, yakka predmet yoki predmetlar sinfining bir qismini ifoda qiladilar. Xulosada esa, bir mantiqiy sinfga mansub predmetlarning barchasiga nisbatan umumiy hukm tarzidagi fikr hosil qilinadi.

Demak, induktiv xulosa chiqarishda yakkalik, juz’iylik va umumiylikning dialektik aloqasini kuzatamiz. Ayrim faktlarni ifodalaydigan, juz’iy xarakterga ega bo‘lgan bilimlar umumiy bilimlarni hosil qilish uchun mantiqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Takrorlanib turuvchi turg‘un aloqalar, odatda, predmetlarning muhim zaruriy aloqalaridan iborat bo‘lgani uchun, bu umumiy bilimlar qonuniyatlarni ifoda qiladilar. Asoslardagi yakka va juz’iy faktlar haqidagi bilimlar esa ana shu qonuniyatlarning namoyon bo‘lishini qayd etadilar.

Induktiv xulosa chiqarishning ikkita turi: to‘liq va to‘liqsiz induksiyalar farq qilinadi.

To‘liq induksiya induktiv xulosa chiqarishning shunday turiki, unda birorta belgining ma’lum bir sinfga mansub har bir predmetga xosligini aniqlash asosida, shu belgining berilgan sinf predmetlari uchun umumiy belgi ekanligi haqida xulosa chiqariladi.

To‘liq induksiya predmetlarning kichik sinfiga, elementlari yaqqol ko‘zga tashlanib turadigan, miqdor jihatdan cheklangan yopiq sistemalarga nisbatan xulosa chiqarishda ishlatiladi. Masalan, Quyosh tizimiga kiruvchi planetalar, NATOga a’zo davlatlar, birorta shaharda joylashgan korxonalar

va shu kabilar haqida xulosalarni to‘liq induksiya yo‘li bilan olish mumkin. Xususan, Quyosh tizimiga kiruvchi planetalar harakatining yo‘nalishi soat strelkasi harakati yo‘nalishiga teskari ekanligi haqidagi xulosa aynan ana shu usul yordamida hosil qilinadi.

To‘liq induksiya predmetlarning kichik sinfi haqida empirik materiallarni umumlashtirish yo‘li bilan xulosaviy bilim olishning samarali vositasi bo‘lib, xulosasi aniq bo‘lishi bilan ajralib turadi.

To‘liqsiz induksiya shunday ehtimoliy xulosa chiqarish turiki, unda birorta belgining bir mantiqiy sinfga tegishli predmetlarning bir qismiga (bir nechtasiga) xosligini (yoki xos emasligini) aniqlash asosida shu belgining berilgan sinfga mansub barcha predmetlarga xosligi (xos emasligi) haqida xulosa chiqariladi.

To‘liqsiz induksiyada fikrimiz, xuddi to‘liq induksiyadagidek, juz’iylikdan (yakkalikdan) umumiylikka, kamroq umumiylashgan bilimdan ko‘proq umumiylashgan bilimga qarab harakat qiladi. Lekin unda, to‘liq induksiyadan farqli o‘laroq, xulosa kuzatish, tajriba davomida qayd etilmagan, o‘rganilmagan predmetlarga ham tegishli bo‘ladi. To‘liqsiz induksiyaning evristik mohiyati aynan ana shundadir.

To‘liqsiz induksiyada xulosaviy bilimning empirik asosi to‘liq aniqlanmaydi, ana shuning uchun ham undagi amalga oshirilgan umumlashtirish to‘liqsiz bo‘ladi. Xususan, unda berilgan mantiqiy sinfga mansub predmetlarning barchasi emas, faqat S dan Sn gacha bo‘lgan qismigina o‘rganiladi, xolos. Ana shu o‘rganilgan predmetlarga birorta P belgining xosligi (xos emasligi) kuzatilsa, uning o‘rganilayotgan sinfga mansub barcha predmetlarga xosligi (xos emasligi) haqida ehtimoliy tarzdagi xulosa chiqariladi.

Masalan, tabiatda gaz haroratining o‘zgarishi uning hajmining o‘zgarishiga olib kelishi, jamiyatda iqtisod bilan siyosatning bog‘liqligi, bilishda fakt va qonunning o‘zaro aloqasi zaruriy (muayyan sharoitda, albatta, vujudga keladi) va umumiy (muayyan sharoit paydo bo‘lgan barcha hollarda takrorlanadi) aloqalardan, borliqda amal qilayotgan qonuniyatlardan iborat.

Zaruriy aloqalarning bir vaqtning o‘zida umumiy aloqalardan iborat bo‘lishi (predmetlarning birorta sinfi, to‘plamiga xos bo‘lishi), ularning esa, o‘z navbatida, yakka, ayrim predmetlarda namoyon bo‘lishi, ya’ni ularning xususiyatlari sifatida yuzaga chiqishi ilmiy bilish va amaliy muhokama yuritishda birorta mantiqiy sinf haqida unga mansub predmetlarning ayrimlarini o‘rganish asosida fikr bildirish mumkinligini anglatadi.

Haqiqatan ham, kundalik turmushimizda biz ana shunday yo‘l tutamiz. Xususan, paxta, bug‘doy, sut, metall prokati, gazlama va shu kabi ommaviy ravishda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning katta hajmining sifati haqida

ulardan olingan kichkina namunalarni tekshirish natijalariga tayangan holda fikr bildiramiz.

Bunda ko‘p hollarda hosil qilgan xulosaviy fikrlarimiz haqiqatdan yoki haqiqatga yaqin fikrdan iborat bo‘ladi.

O‘z-o‘zidan ravshanki, bu yo‘l bilan olingan xulosalar hamma vaqt ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Ba’zan chiqarilgan xulosalar xato ham bo‘lishi mumkin.

Demak, to‘liqsiz induksiya bo‘yicha xulosa chiqarishga xos xususiyatlardan biri asoslardan xulosaning mantiqan kelib chiqishining kuchsiz bo‘lishidir.

To‘liqsiz induksiya uchun xarakterli bo‘lgan bu kamchilikni «tuzatish» uchun bir qancha metodologik talablarga rioya qilish zarur. Bu ma’lum bir darajada xulosaning chin bo‘lishi ehtimolining ortishiga imkoniyat yaratadi. Ular quyidagilardan iborat:

1.Ekstensiv metoddan foydalanish, ya’ni o‘rganilayotgan predmetlar sonini oshirish. Bu bir oz bo‘lsa ham xulosaning chin bo‘lishi ehtimolini orttiradi. Lekin bu yerda bir narsani hisobga olish zarur. Tajriba tugal bo‘lmagan, ya’ni sinfning barcha predmetlari emas, faqat bir nechtasi o‘rganiladigan bir sharoitda keyingi o‘tkaziladigan tajribalardan birida avvalgi tajribalar natijalariga zid bo‘lgan holni kuzatish ehtimoldan xoli emas. Bunda o‘rganilayotgan hodisalar sonini ko‘paytirish yo‘li bilan ko‘zlangan maqsadga erishishga urinish kam samara beradi. Tajribani tugal qilishga erishib bo‘lmaydi, chunki bilish obyekti ko‘p hollarda ochiq tizimdan – hodisalar va holatlar soni amalda cheksiz bo‘lgan obyektdan iborat bo‘ladi.

2.Tajriba natijalarining sifat jihatidan xilma-xil bo‘lishiga erishish, ya’ni bir xil sharoitda takrorlanadigan belgilarnigina emas, balki turli xil sohalar, holatlarda takrorlanadigan o‘xshash belgilarni ham qayd etish muhimdir.

3.Shuningdek, tajriba natijalarining kuchli bo‘lishi, «bexosdan» aniqlanishi ham muhim ahamiyatga ega.

4.Keyingi ikkita metodologik talab to‘liqsiz induksiyada empirik materiallarni tanlab olishni taqozo etadi.

Dastlabki empirik materiallarni kuzatish va tajriba natijalarini tanlab olish usuliga ko‘ra to‘liqsiz induksiyaning ikkita turi: sanash orqali to‘liqsiz induksiya (enumerativ induksiya) va istisno qilish orqali to‘liqsiz induksiya (eliminativ induksiya) ajratilishi mumkin.

Sanash orqali to‘liqsiz induksiya yoki **ommabop induksiya** (enumerativ induksiya) induktiv yo‘l bilan umumlashtirishning shunday turiki, unda bir sinfga mansub predmetlarning bir qanchasida birorta belgining takrorlanishini kuzatish asosida, uning shu sinfga kiruvchi barcha predmetlarga xosligi haqida ehtimoliy tarzdagi xulosa chiqariladi.

Sanash orqali to‘liqsiz induksiyaning obyektiv asosini insonlarning ko‘p yillik hayotiy faoliyati, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan turmush tajribalari natijalari tashkil etadi. Masalan, yoz juda issiq kelganda, qishda qattiq sovuq bo‘lishi mumkinligi, qaldirg‘ochlarning janub tomonga uchib ketayotgani havoning soviy boshlaganini bildirishi va shu kabi xulosalar insonlarning ob-havoni uzoq yillar davomida kuzatishining natijasidan iborat.

Kishilarning kundalik hayotiy tajribasiga asoslangani, sog‘lom aql yuritishga xos xususiyatlarni o‘zida mujassamlantirgani uchun ham xulosa chiqarishning bu usulini ommabop induksiya deb atashadi.

Ommabop induksiyaning muhim xislatlaridan biri kuzatilayotgan hollarga zid bo‘lgan holning yo‘qligiga ishonch hosil qilishdir. Ya’ni bunda birorta belgining berilgan sinf predmetlarining bir nechtasida takrorlanishini qayd etish bilan cheklanmasdan, ularga zid bo‘lgan holning yo‘qligi ham aniqlanadi. Bu, odatda, ommabop induksiya asosida qat’iy xulosaga kelishdan oldin «Shoshmay tur-chi, qani, yana bir tekshirib ko‘raylik!» degan fikrga suyanib ish qilishga undaydi, «Yetti o‘lchab, bir kesish»ga chaqiradi. Ana shuning uchun ham ommabop induksiyani xalq donishmandligining namoyon bo‘lishi turlaridan biri, deb aytish mumkin.

7.4. Analogiya. Muammo. Gipoteza. Nazariya

Analogiya (grek. – moslik, o‘xshashlik) bavosita xulosa chiqarishning bir turidir. deduktiv xulosa chiqarishda fikr umumiylikdan juz’iylikka qarab, induksiyada juz’iylikdan umumiylikka qarab harakatlansa, analogiyada bir juz’iy holatdan boshqa juz’iy holatga qarab harakatlanadi.

Analogiyada predmetlarning o‘xshash xossalariga asoslanib xulosa chiqariladi. Tabiat va jamiyatda obyektiv turli-tumanlik bilan bir qatorda, obyektiv o‘xshashlik ham mavjuddir. Ular inson ongida o‘z ifodasini topadi. Obyektiv reallikning turli sohalariga oid qonun va qoidalar tuzilishi jihatidan o‘xshash bo‘lsa, ular aks ettirgan voqyelikdagi turli narsa va hodisalar ham ma’lum ma’noda o‘xshash bo‘ladi.

Analogiya bo‘yicha xulosa chiqarish obyektiv reallikning cheksiz ko‘rinishlari hamda unda mavjud bo‘lgan turli sistemalarning xossalari, munosabatlari, tarkiblaridagi o‘xshashliklarga asoslanadi. Masalan, sayyoralar, davlatlar, ijtimoiy tuzumlar mohiyatida o‘xshashlik bor. Bilishda muhim va nomuhim xossalar o‘xshashligi asosida analogiya bo‘yicha xulosa chiqariladi.

Analogiya vositasida bir predmetdan (modeldan) boshqa predmetga (prototipga) axborot o‘tkaziladi. Xulosa asoslari modelga, xulosa prototipga taalluqli bo‘ladi. Masalan, qadimgi greklarning «Dedal va Ikar» afsonasida aytilishicha, ota va bola qullikdan ozod bo‘lish uchun o‘zlariga qanot

yasashadi va uchib ketishadi. Bunda xulosa chiqarish quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

Qush tirik mavjudot, uning qanoti bor, u uchadi.

Inson ham tirik mavjudot, uning qanoti yo‘q, u uchmaydi.

Insonning ham qanoti bo‘lsa, u, ehtimol, uchadi.

Analogiya bo‘yicha xulosa chiqarish boshqa xulosa chiqarishlar kabi asoslardan, xulosadan va asoslar hamda xulosa o‘rtasidagi mantiqiy aloqadan iboratdir. Uning xulosasi ehtimoliy shaklda bo‘lib, keyingi tekshirishlarni talab qiladi. Aniq asoslardan ba’zan aniq, ba’zan ehtimoliy xulosa chiqadi.

Analogiya o‘zining obyektiv asosiga ega. Bular predmetlar, ularning xossalari o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlardir.

XUSUSIYATLAR VA MUNOSABATLAR ANALOGIYASI

Modeldan prototipga o‘tkazilayotgan axborotning tabiatiga ko‘ra analogiyaning ikki turi farqlanadi: xususiyatlar analogiyasi va munosabatlar analogiyasi.

Xususiyatlar analogiyasida ikki yakka predmet yoki bir turdagi ikki predmetlar sinfi o‘xshash belgilariga ko‘ra o‘zaro taqqoslanadi. O‘xshash belgilarga asoslanib, birida mavjud bo‘lgan belgining boshqasida ham bo‘lishi mumkinligi haqida xulosa chiqariladi. Masalan, Yer va Quyosh qator muhim xossalariga ko‘ra o‘xshashdir, ya’ni ular bir sayyoralar tizimiga kiruvchi osmon jismlaridir, ikkisi ham harakatda, kimyoviy tarkibi ham o‘xshash. Ana shu o‘xshashliklarga asoslanib olimlar Quyoshda topilgan yangi element – geliy Yerda ham bo‘lsa kerak, degan xulosaga kelganlar. Analogiya yo‘li bilan chiqarilgan bu xulosaning chinligi ko‘p o‘tmay tasdiqlandi – Yerda ham geliy elementi topildi.

Bu misolda ikki predmetning o‘xshashligiga asoslanib, birida mavjud bo‘lgan belgining boshqasida ham borlig‘i haqida xulosa chiqarildi. O‘xshatilayotgan predmetlarni A va V harflari bilan, belgilarni a, v, s harflari bilan ifoda qilsak, xususiyatlar analogiyasini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

A predmet a, v, s, d belgilarga ega.

V predmet a, v, s belgilarga ega.

Ehtimol, V predmet d belgiga egadir.

Bu analogiya bo‘yicha xulosa chiqarishning keng tarqalgan shaklidir. Unda bir predmet haqidagi bilim shunga o‘xshash boshqa predmet haqidagi bilimdan xulosa shaklida keltirib chiqariladi.

Munosabatlar analogiyasida ikki yakka predmet yoki bir turdagi ikki predmetlar sinfi o‘rtasidagi munosabatlarning o‘xshashligiga asoslaniladi. Ikki turdagi (a R b) va (m R_1 n) munosabatlarni taqqoslasak, a m ga, b n ga o‘xshash emas, lekin ular o‘rtasidagi R-R_1 munosabatlarning o‘xshashligi

bizga xulosa chiqarish imkonini beradi. Masalan, I. Kepler planetalar harakatining qonunini ochganda, samoviy jismlarning o‘zaro tortishish kuchini insonlar o‘rtasidagi muhabbatga taqqoslaydi, shu asosda astronomiyaga tortishish kuchi tushunchasini kiritadi.

Munosabatlar analogiyasida ikki predmetlar o‘xshashligi haqida emas, ikki predmet o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish asosida boshqa ikki predmet o‘rtasidagi munosabat haqida xulosa chiqariladi.

Analogiyani turlarga ajratganda xulosaning aniqlik darajasiga ham e’tibor beriladi. Shu jihatdan analogiyani qat’iy (aniq), qat’iy bo‘lmagan, noaniq va xato analogiyaga ajratamiz. Qat’iy analogiyaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ko‘chirilayotgan va o‘xshatilayotgan belgilar o‘rtasidagi aloqa zaruriy bo‘ladi. Aniq fanlarda, modellashtirishda fikr qat’iy analogiya shaklida yuritiladi.

Qat’iy bo‘lmagan analogiyada o‘xshash bo‘lgan va ko‘chirilayotgan belgi o‘rtasidagi zaruriy aloqa ehtimollik darajasiga ega bo‘ladi. Ijtimoiy, tarixiy voqyealarni o‘rganishda va aniq, tabiiy fanlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganda fikr yuritish qat’iy bo‘lmagan analogiya tarzida bo‘ladi. Masalan, nemis olimi Shpenglerning ta’kidlashicha, jamiyat ham tirik organizmlar kabi to‘rtta rivojlanish bosqichini bosib o‘tadi. Bular: paydo bo‘lish, rivojlanish, yetuklik davri va yemirilish davri.

Agar yolg‘on hukmni 0 bilan, chin hukmni 1 bilan, xulosaning ehtimollik darajasini R (a) bilan belgilasak, qat’iy analogiyada R (a)=1; qat’iy bo‘lmagan analogiyada 1>R (a)>0 bo‘ladi.

Analogiya bo‘yicha chiqariladigan xulosaning aniqlik darajasini oshirish uchun, ya’ni xulosaning chin bo‘lish ehtimolini oshirish uchun ma’lum shartlarga rioya qilish zarur. Bular quyidagilardan iborat:

1. Taqqoslanayotgan predmetlarning imkoni boricha ko‘proq o‘xshash belgilari aniqlanishi lozim. Shunda xulosaning chinlik darajasi, chin xulosa chiqarish imkoni ortadi.

2. Taqqoslanayotgan predmetlarning o‘xshash belgilari predmetlar uchun muhim belgilar bo‘lishi kerak. Shunda xulosa chin fikrga yaqinlashadi.

3. Taqqoslanayotgan predmetlarning ko‘chirilayotgan belgisi bilan boshqa belgilari zaruriy aloqada bo‘lishi kerak. Shunda xulosaning ishonarli, aniq bo‘lish shartlari bajarilgan bo‘ladi.

4. Taqqoslanayotgan predmetlarning ko‘chirilayotgan belgisi bilan o‘xshash belgilari bir turda bo‘lishi kerak.

5. Taqqoslanayotgan predmetlarning farq qiluvchi belgilarining miqdori kam bo‘lishi va bu belgilar zaruriy, muhim bo‘lmasligi shart. Agar predmetlar muhim, zaruriy belgilari bilan bir-biridan farq qilsa, analogiyaning xulosasi xato bo‘ladi.

Yuqoridagi qoidalarning buzilishi yolg‘on analogiyaga, ya’ni xulosaning xato bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Analogiya **modellashtirish** metodining mantiqiy asosini tashkil etadi. **Modellashtirishda** (konkret yoki abstrakt) obyektlar modellarda, ya’ni shartli obrazlar, shakllar, obyektning kichraytirilgan nusxalarida tadqiq etiladi.

Ma’lum sabablarga ko‘ra tekshirilayotgan obyektni tabiiy sharoitlarda o‘rganish qiyin bo‘lganda yoki mumkin bo‘lmaganda modellashtirishdan foydalaniladi. Bu o‘z navbatida bilish jarayonini yengillashtiradi.

Modellarni uch turga bo‘lish mumkin:

1. Tabiiy modellar – o‘rganilayotgan obyekt bilan bir turda bo‘ladi va undan faqat o‘lchamlari, jarayonlarining tezligi va ba’zi hollarda yasalgan materiali bilan farq qiladi.
2. Matematik modellar – prototip (asl nusxa)dan jismoniy tuzilishi bilan farq qiladi, lekin prototip bilan bir xil matematik tasvirga ega bo‘ladi.
3. Mantiqiy matematik modellar – belgilardan iborat bo‘lib, abstrakt model hisoblanadi va tafakkur jarayonini o‘rganishda qo‘llaniladi.

Modellarning bu turlaridan alohida-alohida va birgalikda foydalaniladi.

So‘nggi vaqtlarda modellashtirish ko‘pincha kompyuter vositasida amalga oshirilmoqda. Masalan, yangi avtomobilning modeli kompyuterda yasalib, uning o‘lchamlari, turli afzalliklari matematik modellashtirish vositasida aniqlanadi.

Muammoli vaziyat tushunchasi

Bilishning maqsadi qayd qilingan hodisalarning mohiyatini tushuntirishdan iborat. Buni hamma vaqt ham mavjud tasavvurlar, prinsiplar yordamida amalga oshirib bo‘lmaydi. Bilish jarayonida ma’lum bir ziddiyatlar, birinchi navbatda, mavjud bilimlarimizning erishgan darajasi bilan yangi bilish vazifalarini hal qilish zaruriyati o‘rtasida ziddiyat kelib chiqadi, muammoli vaziyat paydo bo‘ladi. Bunday ziddiyatlar, ayniqsa, kundalik hayotimizda murakkab vazifalarni hal qilishda, fanda esa tub burilishlar davrida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida vujudga keladigan juda ko‘p masalalar ularni yechishga yangicha yondashishni taqozo etadi. Muammoli vaziyat, masalan, tabiatshunoslikda XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida radioaktivlik hodisasining qayd qilinishi, elektronning kashf etilishi, nurlanishning kvant xususiyatga egaligining asoslanishi va shu kabi kashfiyotlar natijasida vujudga kelgan. Uning mohiyatini tabiatshunoslikning, birinchi navbatda, fizikaning mavjud qonunlari va prinsiplarining yangi qayd qilingan hodisalarni tushuntirish uchun yetarli emasligida, deb bilmoq zarur.

Shuni ham aytish kerakki, ilmiy bilishda muammoli vaziyatni fan taraqqiyotining ichki ehtiyojlari ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan,

hozirgi paytda fanda sinergetika g‘oyalari va metodlarini tushuntirish, matematikada aksiomatikaning imkoniyatlari va qo‘llanish sohalarini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarni hal qilish zaruriyati yangi vaziyatni yaratadi.

Demak, muammoli vaziyat mavjud ilmiy tasavvurlar bilan qayd qilingan yangi faktlar o‘rtasidagi ziddiyatning paydo bo‘lishi yoki ana shu ilmiy tasavvurlarning o‘zining yetarli darajada tizimga solinmaganligi, yaxlit bir ta’limot sifatida asoslanmaganligi natijasidir.

Mana shundan kelib chiqib, **muammoli vaziyat** bilish taraqqiyotining turli bosqichlari va bo‘g‘inlarida olam hamda uni bilish haqidagi mavjud tasavvurlarni, bilish metodi va vositalarini o‘zgartirishning obyektiv zaruriyatidan iborat, deyish mumkin.

Muammoni qo‘yish va hal etish

Muammoli vaziyatni tahlil qilish yangi muammoni qo‘yishga olib keladi.

Muammo – javobi bevosita mavjud bilimda bo‘lmagan va yechish usuli noma’lum bo‘lgan savoldir.

Shuning uchun ham muammoni qo‘yish va hal qilish mavjud bilimlarni qayta ishlash, ba’zi hollarda esa, hatto, ular doirasidan chetga chiqishni, yangicha yechish usuli, metodlarini qidirishni taqozo etadi. Qanday muammolarni ilgari surishni, uni muhokama qilishning xususiyatini amaliy faoliyatimiz va bilishimiz ehtiyojlari belgilab beradi.

Muammoni muvaffaqiyatli hal qilishning zarur shartlaridan biri uni to‘g‘ri qo‘yish va aniq bayon qilishdan iborat. To‘g‘ri qo‘yilgan savol, V. Geyzenberg aytganidek, muammoni yechishning yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etadi.

Muammoni to‘g‘ri qo‘yish uchun muammoli vaziyatni aniq tasavvur qilishning o‘zi yetarli emas. Buning uchun muammoni hal qilishning turli xil usullari va vositalarini ham oldindan ko‘ra bilish kerak.

Muammolarni qo‘yishda kishilarning hayotiy tajribasi, bilimlari va talanti muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham, odatda, ko‘p hollarda yangi muammolar ilmiy bilishning u yoki bu sohasining yirik mutaxassislari, boy tajribaga ega va chuqur bilimli olimlari tomonidan ilgari suriladi hamda ular ba’zan uzoq yillar davomida tadqiq qilinadi. Buni, masalan, milliy g‘oya va milliy mafkurani yaratish muammosining qo‘yilishi va tadqiq etilishi misolida ko‘rish mumkin. Jahon tajribasiga murojaat qilsak, «millatning mafkurasi bir emas, balki bir necha avlodning umri davomida ishlab chiqilishi va takomilga erishuviga guvoh bo‘lishimiz mumkin»[10].

[10] И.А. Каримов. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. // Асарлар тўплами 8 жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2000, 25-бет.

Uni shakllantirish uchun kuchli iste'dod va «yorqin tafakkur»ga ega bo'lgan Konfusiy, Maxatma Gandi, Forobiy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk zotlar zahmat chekkanlar[11].

Muammoli vaziyatni tahlil qilishga turli xil munosabatda yondashish mumkin bo'lganligi uchun ham hal qilinishi lozim bo'lgan vazifa turli xil muammolar tarzida bayon qilinishi mumkin. Bunda ba'zi muammolar asosiy vazifani ifoda qilsa, ba'zilari bu vazifaning ayrim tomonlarini aks ettiradi va shuning uchun ham juz'iy xususiyatga ega bo'ladi. Ko'p hollarda bir-biri bilan bog'lanib ketgan mana shunday juz'iy muammolar hal qilingandan keyingina asosiy muammoni aniqroq bayon qilish va yechish imkoniyati vujudga keladi.

Muammolarni to'g'ri qo'yish va bayon qilish ularni yechishdan kam ahamiyatga ega emas. Muammoni to'g'ri qo'yish uchun uning ilmiy bilish taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyatini to'g'ri baholash, uni hal qilishning metodlarini topish zarur. Bu amalda qo'yilishi mumkin bo'lgan turli xil muammolar ichidan eng muhimi va to'g'risini tanlab olishni bildiradi. Muammoni tanlash ma'lum bir darajada tadqiqotning umumiy yo'nalishini va xususiyatlarini belgilab beradi.

Oxir-oqibatda qaysi muammoni qo'yish amaliy faoliyatimiz ehtiyojlariga bog'liq. Chunki faqat amaliy faoliyatdagina kishilarning ehtiyojlari va maqsadlari bilan ularni hal qilish vositalari o'rtasidagi ziddiyat yaqqol namoyon bo'ladi, ilmiy izlanish predmeti aniqlanadi va shu asosda bilish oldiga konkret vazifalar qo'yiladi.

Ilmiy muammo, odatda, ma'lum bir nazariya doirasida vujudga keladi (Nazariya haqida bobning oxirida kengroq ma'lumot beriladi).

Nazariya keyinchalik ilgari surilishi mumkin bo'lgan muammoni umumiy holda belgilashga va uni to'g'ri tanlashga yordam beradi. Shuningdek, har bir muammo ma'lum bir nazariya yordamida hal qilinadi. Ba'zi hollarda esa muammo mavjud nazariyani modifikasiya qilishni, muammoni yechishga moslashtirishni talab qiladi.

Muammoni yechish uchun dastlabki tayyorgarlik ishlari qilinadi. Ular quyidagilardan iborat:

a) mavjud nazariyalar doirasida tushuntirib bo'lmaydigan fakt va hodisalarni aniqlash;

b) muammoni hal qilish g'oyalari va metodlarini tahlil qilish va ularga baho berish;

v) muammoni hal qilish turini, maqsadini, olingan natijani tekshirish yo'llarini belgilash;

g) muammoning negizi bilan uni yechish uchun ilgari surilgan g'oyalar o'rtasidagi aloqaning xususiyatlarini ko'rsatish.

[11] Қаранг. Ўша ерда.

Bu dastlabki ishlar amalga oshirilib bo‘lgandan keyin muammoni yechishga bevosita kirishiladi.

Shuni alohida qayd qilib o‘tish kerakki, muammoning yechilishi nisbiy xususiyatga ega. Boshqacha aytganda, muammoning mutlaq to‘la yechimini topish qiyin. Chunki o‘rganilayotgan hodisaning barcha tomonlarini qamrab olib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ilmiy izlanish davomida yangi muammolar vujudga kelishi mumkin bo‘lib, u mavjud muammoni boshqacha talqin qilishni taqozo etadi. Bunga misol qilib I. Nyuton tomonidan jismlarning o‘zaro tortishishi muammosining qo‘yilishini ko‘rsatish mumkin. Butun olam tortishish qonunini kashf qilib, u faqat tortishuvchi jismlar o‘rtasidagi miqdoriy aloqalarnigina topganligini uqtirib o‘tgan edi.

A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi jismlarning o‘zaro tortishishi muammosini boshqacha talqin qiladi va bu muammo haqidagi tasavvurlarimizni ma’lum bir darajada kengaytiradi.

Jismlarning o‘zaro tortishishining tabiati, amalga oshish mexanizmi hozirgacha to‘la ochib berilmagan. Boshqacha aytganda, muammo uzil-kesil hal bo‘lmagan.

Ba’zi hollarda muammolarning yechimini uzoq vaqtgacha topib bo‘lmaydi. Masalan, rak kasalining sababini o‘rganish bilan bog‘liq muammo hozirgacha to‘la hal bo‘lmagan.

Bu, albatta, ayrim muammolar butunlay yechimiga ega emas, degan fikrni bildirmaydi, balki ularni mavjud metodlar, vositalar yordamida yechib bo‘lmaslikni ko‘rsatadi xolos, va shu tariqa yechishning yangi vositalarini qidirib topishga undaydi. Demak, muammo hal qilinmaguncha ilmiy izlanish davom etadi.

Gipoteza

Muammoni hal etish jarayonida ma’lum bir gipotezalar ilgari suriladi va asoslanadi.

Gipoteza – o‘rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli taxmin tarzidagi bilim shaklidir.

Gipotezani, avvalambor, bilimlarning mavjud bo‘lish shakli sifatida olib qarash zarur. Chin, ishonchli bilimlar hosil bo‘lgunga qadar qo‘yilgan muammolar, masalalar haqidagi fikr-mulohazalar kuzatish, eksperiment natijalarini tahlil qilish va umumlashtirishga asoslangan bo‘lib, ular turli xil taxminlar, farazlar shaklida quriladi va mavjud bo‘ladi.

Masalan, Levkipp va Demokritning jismlarning atomlardan tashkil topganligi haqida bildirgan fikrlari dastlab gipotetik shaklda bo‘lib, eng oddiy, kundalik tajribada minglab marta kuzatiladigan hodisalar: qattiq jismning suyuqlikka aylanishi, hidning tarqalishi va shu kabilarni tahlil qilishga asoslangan, ularning sababini tushuntirishga qaratilgan. «Jismlar

mayda, bo‘linmas zarrachalardan tashkil topmaganda bunday hodisalar bo‘lmas edi», degan fikr o‘zining ma’lum bir mantiqiy kuchiga ega.

Hodisaning sababi haqidagi fikr dastlab, odatda, gipoteza shaklida vujudga keladi va shu ma’noda u bilimlarning mavjud bo‘lishining umumiy mantiqiy shakllaridan biri hisoblanadi.

Gipotezani qurish o‘rganilayotgan hodisani tushuntiradigan taxminiy fikrlarni ilgari surishdan iborat bo‘ladi. U qayd etilgan faktlar, ular uchun xarakterli bo‘lgan qonuniyatlar haqidagi hukmlar (mulohazalar) yoki hukmlar tizimi tarzida bo‘ladi. Uni ifoda qiluvchi asosiy gap mulohazalar sistemasini hosil qiluvchi element, deb hisoblanadi. Ana shu gap (mulohaza)da, odatda, gipotezaning bosh g‘oyasi aks etadi. Muhokama jarayoni uning negizida, atrofida quriladi va ma’lum bir ishchi gipotezalar – vaqtincha quriladigan, mo‘ljalni to‘g‘ri olishga yordam beradigan taxminlarning ilgari surilishiga, ular yordamida hodisaning yanada chuqurroq tadqiq qilinishiga olib keladi.

Gipotezalarni ilgari surishning asosiy mantiqiy vositasi ehtimoliy xulosa chiqarish: analogiya, to‘liqsiz induksiya, turli ko‘rinishdagi ehtimoliy sillogizmlar – eng kamida bitta qoidasi buzilgan, asoslaridan biri ehtimoliy hukm bo‘lgan sillogizmlar (shartli, ayiruvchi – qat’iy, shartli – ayiruvchi sillogizmlar shakllarida) hisoblanadi.

Shuningdek, gipoteza ba’zi hollarda qat’iy xulosa chiqarish shakllarida hamda turli xil xulosa chiqarish usullarining ko‘p qavatli mantiqiy qurilmasi tarzida ham shakllantirilishi mumkin.

Ilgari surilayotgan gipotezalar turli xil darajada umumlashgan bo‘lishi mumkin. Ana shunga muvofiq holda umumiy va juz’iy gipotezalarni ajratish mumkin.

Umumiy gipoteza deb tabiat, jamiyat, bilish hodisalarining qonuniyatlari haqida bildirilgan asosli taxminga aytiladi. Bunga misol qilib neft kelib chiqishining organik va noorganik tabiati haqidagi gipotezalarni, Yerda hayotning paydo bo‘lishi, ongning kelib chiqishi, ijtimoiy progress haqidagi farazlarni ko‘rsatish mumkin. Umumiy gipotezalar borliqning muhim qonuniyatlarini ochishga imkon bergani uchun ilmiy nazariya «qurish materiallari», deb hisoblanadi. Isbotlangach, bunday gipotezalar nazariyalarga aylanadilar va ilmiy tadqiqotlarning strategik yo‘nalishlarini belgilab beradilar.

Juz’iy (xususiy) gipoteza ayrim faktlar, konkret predmet va hodisalarning kelib chiqishi, xususiyatlari haqidagi bildirilgan asosli taxminiy fikrdan iborat. Konkret jinoyatning motivi haqidagi sud versiyasi, arxeologik qazishlarda topilgan predmetlarning tabiati, qaysi davrlarga oid ekanligi haqidagi taxminlar juz’iy gipotezaga misol bo‘ladi.

Mantiqda ishchi gipotezalar ham farq qilinadi.

Ishchi gipoteza tadqiqotning dastlabki bosqichida ilgari suriladigan taxmin bo‘lib, o‘z oldiga o‘rganilayotgan hodisaning sababini aniqlashni maqsad qilib qo‘ymaydi; u faqat kuzatish va eksperiment natijalarini tasvirlashga, tartibga solishga yordam beradi.

Shunday qilib, gipoteza fikrlarimizning qurilishi, bilimlarimizning mavjud bo‘lish va rivojlanish shaklidir.

Nazariya

«Nazariya» termini keng ma’noda aqliy bilish, tafakkurni anglatadi, uni amaliyotdan farq qiluvchi faoliyat turi sifatida ifodalaydi. Tor ma’noda esa, nazariya ma’lum bir sohaga oid tasavvurlar, tushunchalar, g‘oyalar, gipotezalarni tizimga soladigan, predmetni yaxlit tarzda anglashga imkon beradigan bilim shaklini bildiradi.

Nazariyaning bunday talqini ilmiy bilishda empirik va nazariy bosqichlarning farq qilinishi bilan bog‘liq.

Empirik bosqichda ilmiy faktlar to‘planadi, o‘rganiladi, tizimga solinib, turli xil jadvallar, shakllar, grafiklar tuziladi; muayyan bir umumlashmalar, xususan, empirik tushunchalar, farazlar, empirik qonunlar shakllanadi.

Ilmiy bilishning keyingi taraqqiyoti empirik bilish bosqichida hosil qilingan, lekin bir-biri bilan bo‘lgan aloqasi hali aniqlanmagan bilimlar o‘rtasida munosabatlarni o‘rnatish, ularni umumlashtirish, shu asosda yangi fundamental tushunchalar, umumiy qonunlarni yaratish, ilmiy bashoratlar qilish bilan uzviy bog‘liq.

Bilishning bu ikki bosqichi o‘rtasida zaruriy aloqadorlik mavjud. Xususan, nazariyani yaratish empirik bilish jarayonida hosil qilingan predmetning ayrim tomonlari, xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, qonunlar, farazlar o‘rtasida mantiqiy aloqalarni o‘rnatishga, predmet haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga, uning mohiyatini tushuntirishga bo‘lgan ehtiyoj bilan belgilanadi.

7.5. Argumentlash – ishonch - e’tiqodni shakllantirish va mustahkamlash vositasi

Argumentlash (dalillash) va ishonch-e’tiqodning shakllanishi

Kishilarning amaliy faoliyatdagi muvaffaqiyatlari ular qo‘llayotgan bilimlarning qay darajada chin bo‘lishiga, ya’ni bu bilimlarning voqyelikni qanchalik to‘g‘ri aks ettirishiga bog‘liq. Xato fikrlar predmetlarning real aloqalari va munosabatlarini buzib ko‘rsatadi, bilishda ko‘p chalkashliklarga olib keladi. Shuning uchun ham bilish jarayonida har bir fikrni to‘g‘ri qurishga erishish, uning chinligini dalillar bilan ko‘rsata olish, xato fikrlarni esa rad qila bilish muhim ahamiyatga ega.

Fikrning chin yoki xatoligini ko‘rsatish uchun uni hodisaning (faktning) o‘zi bilan solishtirish mumkin. Lekin ko‘p hollarda bilish jarayonida natijalarning chin yoki xatoligi ularni ilgari vujudga kelgan bilimlar bilan

bog‘lash orqali aniqlanadi. Buni amalga oshirishning mantiqiy usuli asoslashdir.

Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan, chinligi asoslangan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo‘ladi, kishilarda ishonch-e’tiqodni shakllantiradi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo‘lgan e’tiqodni yaratishdan iborat. Asoslash ishonch-e’tiqodni shakllantirish vositasidir.

Ishonch-e’tiqod bu kishilarning xulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir.

Isbotlash va uning tarkibi. Isbotlash turlari.

Isbotlash bir hukmning chinligini u bilan bog‘langan boshqa chin hukmlar yordamida asoslashdan iborat bo‘lgan mantiqiy amaldir. Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: tezis, argumentlar (asoslar), isbotlash usuli – demonstrasiya.

Tezis – chinligi asoslanishi lozim bo‘lgan hukm, u isbotlashning markaziy figurasi hisoblanadi; butun diqqat-e’tibor uning chinligini ko‘rsatishga qaratiladi. Tezis bir mulohazaning o‘zidan, yoki mulohazalar tizimidan, yoki teoremalardan, yoki aniq faktlarni umumlashtirish natijalaridan, yoki hodisalarning sababini ko‘rsatuvchi mulohazalardan va shu kabilardan iborat bo‘ladi.

Argumentlar – tezisning chinligini asoslash uchun keltirilgan hukmlar. Argumentlar bo‘lib faktlarni qayd qiluvchi hukmlar, ta’riflar, aksiomalar, teoremalar, qonunlar hamda boshqa empirik va nazariy umumlashmalar xizmat qiladi. Argument sifatida keltirilgan faktlar, albatta, o‘zaro bog‘langan va tezisning mohiyatiga aloqador bo‘lishi lozim.

Ta’riflar ham chin hukmlar bo‘lib, ulardan argument sifatida foydalanish mumkin. Masalan, «Harakat – bu har qanday o‘zgarishdan iborat», degan ta’rif chin hukmdir.

Aksiomalar chinligi o‘z-o‘zidan ravshan bo‘lgan, isbotlashni talab qilmaydigan fikrlardir. Inson tajribasida ko‘p martalab takrorlanganligi uchun ham ularni isbotlash zarur emas.

Teoremalar va qonunlarning chinligi isbotlangan bo‘ladi, ularni Hech ikkilanmasdan argument qilib olish mumkin.

Isbotlash usuli – demonstrasiya tezis bilan argumentlar o‘rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida bo‘ladi, ya’ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi.

Isbotlashning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bavosita isbotlash. Bevosita isbotlashda tezisning chinligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo‘lgan hukmlardan foydalanilmaydi. Tezis ko‘p hollarda yakka hodisani ifoda qilib keladi va ma’lum bir umumiy bilimdan, masalan, qonundan argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan, «O‘zbekiston – mustaqil davlatdir», degan hukm

(tezis)ning chinligi «O‘zbekistonning mustaqil davlat deb e’lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda e’tirof etilishi» kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

Bavosita isbotlashda esa tezisning chinligi unga zid bo‘lgan hukmning (antitezisning) xatoligini ko‘rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo‘lishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi. Apagogik isbotlashda tezis (a) va antitezis ($\bar{a}$) o‘rtasidagi munosabatga asoslaniladi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud emas», degan hukmning chinligini asoslash uchun unga zid bo‘lgan «Materiya harakatsiz mavjud», degan hukm olinadi.

Apagogik isbotlashda antitezis topilib (1-bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma’lum bir natijalar keltirib chiqariladi (2-bosqich), so‘ngra bu natijalarning xatoligi ko‘rsatiladi (3-bosqich) va demak, tezisning chinligi isbotlanadi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud», degan hukm chin bo‘lsa, «Moddiy predmetlar strukturasiz mavjud», degan fikr (antitezisdan kelib chiqqan natija) ham chin bo‘ladi. Bizga ma’lumki, moddiy predmetlar tarkibsiz (uni tashkil qiluvchi elementlar va ularning o‘zaro aloqasisiz) mavjud emas. Demak, «Materiya harakatsiz mavjud», degan fikr xato, shu tariqa «Materiya harakatsiz mavjud emas», degan fikrning chinligi asoslanadi.

Ayiruvchi isbotlashda tezis sof ayiruvchi hukmning (kuchli diz’yunksiyaning) bir a’zosi bo‘lib, uning chinligi boshqa a’zolarining (antitezisning) xatoligini ko‘rsatish orqali asoslanadi. Masalan, “Jinoyatni yo A, yo V, yo S shaxslar sodir etgan», degan fikr tekshirilib, «Jinoyatni V shaxs ham, S shaxs ham sodir etmagan”ligi aniqlanadi va shu tariqa «Jinoyatni A shaxs sodir qilgan», degan hukmning chinligi asoslanadi. Bu misolda ayiruvchi isbotlash ayiruvchi – qat’iy sillogizmning inkor etib, tasdiqlovchi modusi bo‘yicha qurilgan.Ayiruvchi isbotlashda barcha muqobil variantlar to‘liq olingandagina xulosa chin bo‘ladi,ya’ni tezis isbotlanadi.

Raddiya. Rad etish usullari.

Raddiya – isbotni buzishga qaratilgan mantiqiy amaldir.

Birorta fikrning chinligini rad etish ayni paytda unga zid bo‘lgan fikrning xatoligini ko‘rsatishdan iborat bo‘lganligi uchun raddiyani isbotlashning xususiy ko‘rinishi, deb hisoblash mumkin. Raddiya ham isbotlash kabi tezis (rad qilinishi lozim bo‘lgan hukm), argumentlar (tezisni rad qiluvchi hukmlar) va demonstrasiya (rad etish usuli) dan tashkil topgan bo‘ladi. Raddiya birorta masalani muhokama qilish, ya’ni bahs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri ma’lum bir tezisni ilgari surib, uni himoya qilsa (proponent), boshqasi unga qarshi chiqadi (opponent). Hal qilinmagan, Munozarali masalalar bo‘yicha olib boriladigan

bahslar polemika hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislar asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Raddiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

I) Tezisni rad etish;

II) Argumentlarni rad etish;

III) Demonstrasiyani rad etish.

I. Tezisni rad etish.

Tezisni rad etishning quyidagi usullari mavjud:

1. Faktlar orqali rad etish. Bu eng ishonchli va samarali usuldir. Bunda bo‘lib o‘tgan voqyealarga, statistik ma’lumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan, «Sovet davrida O‘zbekiston to‘laqonli mustaqil respublika bo‘lgan», degan tezisni rad etish, ya’ni uning noto‘g‘ri ekanligini isbotlash uchun tarixiy faktlarga asoslanamiz. O‘sha davrda respublika rahbariyati birorta muhim masalani Moskvaning ruxsatisiz hal qila olmaganligiga dalillar keltirib, tezisni rad etamiz.

2. Tezisdan kelib chiqadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatli ekanligini) ko‘rsatish orqali rad etish. Bunda tezisdan kelib chiqadigan natijalarning chin emasligi asoslab beriladi. Bu usul «bema’nilikka olib kelish», deb ataladi. Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning haqiqatga zid, noto‘g‘ri ekanligi isbotlanadi. Chin asosdan xato natija kelib chiqmaydi, aks holda bu bema’nilik bo‘ladi. «Bema’nilikka olib kelish» usulining formulasi quyidagicha$(a\rightarrow b)\rightarrow((a\rightarrow b)\rightarrow a)$

3. Tezisni antitezisni isbotlash orqali rad etish. Rad etilayotgan tezisga zid bo‘lgan yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchisi istisno qonuniga muvofiq, antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirib chiqariladi. Masalan, Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q» nomli maqolasida «Amir Temur buyuk sarkarda bo‘lgan va yovuzliklar qilgan», degan tezisni shunday rad etadi: «Inson bir paytning o‘zida ham bunyodkor, ham yovuz bo‘lishi mumkin emas. Ne-ne madrasayu masjidlar, oliy koshonalarni qurgan, ne-ne olimu fuzalolarning boshini silagan, Qur’oni karimni yod bilgan inson yovuz bo‘lmaydi. Qonxo‘r odam «Kuch – adolotda», deyishi mumkinmi?»

II. Argumentlarni rad etish.

Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tanqid qilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun yetarli emasligi aniqlanadi.

Argumentlarning xatoligi tezisning ham xato ekanligini isbotlamaydi, bunda tezis chin bo‘lishi ham mumkin:

Argumentlarni rad etish orqali tezisning isbotlanmaganligi asoslab beriladi.

III.Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad etish.

Rad etishning bu usulida isbotlashda yo‘l qo‘yilgan xatolar aniqlanadi. Bunda rad etilayotgan tezisning chinligi uni asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasligi asoslab beriladi. Isbotlash usulida yo‘l qo‘yilgan xato aniqlanganda tezis rad etilmaydi, uni qayta isbotlash talab qilinadi.

Rad etishning yuqorida ko‘rsatilgan usullari ko‘pincha birgalikda, bir-birini to‘ldirgan holda qo‘llaniladi.

Isbotlash va rad etish qoidalari, ularni buzganda kelib chiqadigan mantiqiy xatolar

Tezisga aloqador qoidalar:

1. Tezis mantiqan aniq va ravshan bo‘lishi kerak. Bu qoida buzilsa, isbotlash yoki rad etish o‘zining aniq predmetiga ega bo‘lmay qoladi, uni amalga oshirishga urinish behuda ish hisoblanadi.

2. Tezis isbotlash yoki rad etishning boshidan oxirigacha o‘zgarmasligi kerak. Bu qoida buzilsa, «tezisni almashtirish» degan xato kelib chiqadi.

Argumentlarga nisbatan qoidalar:

1. Tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar chin hukmlar bo‘lishi va bir-biriga zid bo‘lmasligi lozim.

2. Argumentlar tezisni asoslash uchun yetarli bo‘lishi kerak.

3. Argumentlar tezisdan mustaqil holda chinligi isbotlangan hukmlar bo‘lishi lozim.

Isbotlash usulining qoidasi:

1. Tezis argumentlardan mantiqiy tarzda kelib chiqadigan xulosa bo‘lishi lozim. Buning uchun isbotlash yoki rad etishda xulosa chiqarish qoidalariga rioya qilish zarur.

Isbotlash va rad etish qoidalarining buzilishi mantiqiy xatolarga olib keladi. Bu xatoliklar uch turga bo‘linadi:

I. Isbotlanayotgan tezisga aloqador xatoliklar:

1. Tezisni almashtirish. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida o‘zgarmasligi shart, degan qoidaning buzilishi tezisning almashtirilishiga sabab bo‘ladi. Tezis ataylab yoki bilmasdan boshqa tezis bilan almashtiriladi va bunda yangi tezis isbotlanadi yoki rad etiladi. Tezis mazmunining toraytirilishi yoki kengaytirilishi ham bahs jarayonida tezisning o‘zgarishiga olib keladi. Masalan, respublikamiz taraqqiyoti uchun milliy mafkura, milliy g‘oyaning ahamiyati to‘g‘risidagi tezisni isbotlash davomida umuman jamiyatga mafkura kerakmi yoki yo‘qmi, degan masalani isbot etishga harakat qilinsa, unda tezisning mazmuni kengayib ketadi va tezis almashinadi.

2. Insonning shaxsiy sifatini bahona qilib tezisni almashtirish. Bahs jarayonida mavzudan chetga chiqib, opponentning shaxsiy, ijtimoiy hayoti, yaxshi fazilatlari yoki kamchiliklari xususida fikr yuritib, shu asosda tezisni isbotlangan yoki rad etilgan, deb ta’kidlash tezisning almashinishiga sabab

bo‘ladi. Bunday xatoga ataylab yo‘l qo‘yiladi. Tinglovchilarning his-tuyg‘ulariga ta’sir qilish orqali isbotlanmagan tezisning chin deb qabul qilinishiga urinish ham tezisni almashtirish hisoblanadi.

3. Ortiqcha yoki kam isbotlashga urinish natijasida tezisning almashinishi. Fikr ortiqcha isbotlansa, berilgan tezis o‘rniga undan kuchliroq tezisni isbotlashga harakat qilinadi. Agar A hodisadan V kelib chiqsa, lekin V hodisadan A kelib chiqmasa, unda A hodisani ifodalovchi tezis V hodisani ifodalovchi tezisdan kuchliroq bo‘ladi. Masalan, «A shaxs birinchi bo‘lib janjalni boshlamagan» degan tezis (V) o‘rniga, «A shaxs umuman janjal bo‘lgan yerda yo‘q edi» degan tezisni (A) isbotlashga harakat qilinadi. Ikkinchi tezisni isbotlab bo‘lmaydi, chunki A shaxsning janjalda qatnashganligini ko‘rgan guvohlar bor.

II. Argument (asos)larga taalluqli xatolar:

1. Asoslarning xatoligi. Tezis isbotlanganda yoki rad etilganda xato argumentlarga chin deb asoslanish natijasida ataylab yoki bilmasdan mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yiladi. Masalan, Qadimgi grek faylasufi Fales o‘z ta’limotini hamma narsa suvdan paydo bo‘lgan, degan fikrga asoslanib yaratgan.

2. Asoslarni avvaldan taxminlash shaklidagi xato. Tezis isbotlanmagan argumentlarga asoslansa, bunday argumentlar tezisning chinligini isbotlamaydi, balki tezisning chinligi taxminlanadi, xolos.

3. «Aylanma isbot etish» deb nomlanuvchi xato. Tezisning chinligi argumentlar orqali, argumentlarning chinligi tezis orqali isbotlansa mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yiladi. Masalan, «So‘zning qudrati fikr bilan o‘lchanadi», degan tezisni «Fikrning qudrati so‘z bilan o‘lchanadi», deb isbotlasak, yuqorida aytilgan xatoga yo‘l qo‘yiladi.

1. Javob aniq, ravshan va, iloji boricha, ixcham bo‘lishi shart.
2. Javob mantiqan ziddiyatsiz bo‘lishi zarur.
3. Javob yetarli darajada asoslangan bo‘lishi kerak.
4. Javob savoldagi noaniqlikni kamaytirishi, iloji boricha to‘la bo‘lishi zarur.

Nazorat savollari

1. Tushuncha qanday mantiqiy usullar yordamida hosil qilinadi?
2. Tushunchaning mazmuni va hajmi deganda nimani tushunasiz, ular o‘rtasida qanday munosabat mavjud?
3. Tushunchaning qanday turlari mavjud?
4. Tushunchani ta’riflashning bilishda qanday ahamiyati bor?
5. Hukm nima va u qanday tarkibga ega?
6. Murakkab hukm deb nimaga aytiladi? Uning qanday turlari bor?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Mantiq fanining mohiyati.haqida referat tayyorlang.
2. Tushunchaning turlari va o‘rtasidagi munosabat to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plang va tushuntiring.
3. Murakkab xukm va uning turlari haqida berilgan fikrlarni kursdoshlaringizga aytib bering.

VIII BOB. JAMIYAT FALSAFASI

8.1. Jamiyat tushunchasining falsafiy jihatlari. Jamiyat rivojlanuvchi tizim sifatida.

8.2. Jamiyatning siyosiy hayotida davlatning o‘rni va roli. Demokratik davlat va fuqarolik jamiyati.

8.3. Tarix falsafasining tuzilishi va funksiyalari. Tarixga formatsion va sivilizatsion yondashuvlar.

8.5. Sivilizatsiya tushunchasining tahlili va turli yondashuvlar tasnifi. "Madaniyat" tushunchasi, uning mohiyati, strukturasi va funksiyalari.

8.6. Ijtimoiylashuv. Shaxs: erkinlik va demokratiya.

Tayanch tushunchalar: jamiyat, tarix, madaniyat, sivilizatsiya, inson hayot. tabiiy birlik, inqilob, sinflar, tabaqa, partiya, jamoat tashkilotlari, siyosat, demokratiya, hokimyat, mehnat, millat, e’tiqod, boshqaruv, diktatura.

8.1. Jamiyat tushunchasining falsafiy jihatlari. Jamiyat rivojlanuvchi tizim sifatida

Insoniyat azal-azaldan jamoa bo‘lib yashaydi. yer sayyorasi uning abadiy makoni, umumiy Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma’noda jamiyat odamzodning umri, hayoti o‘tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog‘liq barcha o‘zgarish va jarayonlarni ifoda etadi. Shu bilan birga, biror davlat xududidagi odamlar hayoti, sivilizasiyaning muayyan davrlaridagi turmushga nisbatan ham ushbu tushuncha qo‘llanadi. Har qanday holda ham, u umumiy tushuncha bo‘lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a’zosi deb ataladi.

Tilimizdagi jam, jamoat va jamiyat degan so‘zlar bor. Barchasining o‘zaro yig‘ilgan, to‘plangan degan ma’noni bildiruvchi jam iborasidir. Masalan: jamoat jam. Odamlar jam bo‘lishdi. Jami – o‘n nafar. Shuningdek, jam so‘zi qo‘shuv ma’nosida ham ishlatiladi. Jamoa iborasi biror mahalla yoki qishloq aholisini, biror muassasa, tashkilot yoki korxona ahlini bildiradi, ya’ni bir joyning bir guruh kishilari deganidir.

Jamoa atamasi ma’nosi jihatidan jamoatdan farqlanadi. Jamoatda turli qarashdagi kishilar bo‘lsa, jamoada esa bir maqsad, bir xil manfaat yo‘lida jam bo‘lgan kishilar tushuniladi. Masalan, jamoat deganda bir masjidda namoz o‘quvchi hammahalla, hamqishloq kishilar nazarda tutiladi. Jamoat so‘zining jamoatchilik, adabiy jamoatchilik, talabalar jamoatchiligi va hokazo.

Jamiyat insoniyat tarixiy taraqqiyotining ma’lum bosqichida shakklanadigan ijtimoiy munosabatlar majmuidir. Ijtimoiy munosabatlar

ichida eng asosiysi, siyosiy va huquqiy ustqurma uchun haqiqiy bazis bo‘ladigan, ijtimoiy ong shakllarini belgilaydigan munosabatlar – iqtisodiy munosabatlardir. To‘g‘ri, jamiyat taraqqiyoti tabiiy-tarixiy, qonuniy taraqqiyotdir.[12]

Jamiyat ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida shuurga-ongga til va nutqqa ega bo‘lgan, bir-birlarining ijtimoiy yordami, ko‘magiga ehtiyoj sezuvchi insonlar ijtimoiy uyushmasining eng umumiy ilmiy-falsafiy atamasidir.

Jamiyat – tabiatning bir qismi, ya’ni ijtimoiy borliqg‘ bo‘lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli ,kishilar o‘rtasida amal qiladigan juda ko‘plab munosabatlar yig‘indisi, degan turlicha ta’riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi takomillashib boruvchi murakkab tizimdir.

Mamlakatimizda ma’naviyat masalalariga alohida e’tibor berilayotganining sababi ham ana shunda. Jamiyatning moddiy va ma’naviy hayoti kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq holda vujudga keldi.

Jamiyat ham makro va mikro jismlar kabi o‘z-o‘zini tashkillovchi va boshqaruvchi tizimdir. Binobarin, bu tizim muayyan qonunlar asosida mavjud bo‘ladi va takomillashib boradi.

Ikki jins yakkanikohlikka asoslangan oila shaklida yashashga o‘tishi, urug‘, qabila, elat (xalq, millatlarning vujudga kelishi va shu birliklarda o‘z moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishlari qonuniy jarayonlardir. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida davlatlarning kelib chiqishi, mulkiy munosabatlar, ishlab chiqarish munosabatlari, har bir jamiyatning o‘z bazis va ustqurmasi bo‘lishi, bozor iqtisodi munosabatlari, (bularning iqtisod nazariyasi va sosiologiya fanlari batafsil o‘rganadi) – ana shu ijtimoiy hodisalar albatta ijtimoiy qonunlar ta’sirida tarixan o‘z-o‘zidan shakllangan.

Jamiyat qonunlarining amal qilishi odamlar va ular uyushmalarining ongli faoliyati bilan bog‘lanib ketadi. Jamiyat qonunlarini ham eng umumiy, umumiy va xususiy (juz’iy) qonunlar tipologiyasiga ajratish mumkin. Falsafa qonunlar va kategoriyalarida o‘z ifodasini topgan o‘zaro aloqadorliklar, bog‘lanishlar ijtimoiy hayotda ham namoyon bo‘ladi. Binobarin, bu eng umumiy qonunlar, kategoriyalar, tamoyillarni bilish jamiyatni ilmiy boshqarish imkoniyatini tug‘diradi. Insoniyat tarixiy takomilida, sosial, ealtlar, millatlar hayotida o‘xshash shart-sharoitlarda birdek amal qiladigan qonunlarni umumiy qonunlar deb atash mumkin. Masalan, moddiy ishlab chiqarish bilan ma’naviy boyliklar yaratish o‘rtasidagi mutanosiblik qonuni bozor munosabatlarining ikki tomni o‘rtasidagi yoki ehtiyojlar bilan manfaatlar o‘rtasidagi munosabatlarni anglatadi.

---

[12] Қаранг: Иброҳимов А., Султонов Х.,Жњраев Н. Ватан туйғуси. Т., 1996 й., 94-бет.

Falsafiy tafakkur tarixida jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud. Bizlarga ma'lumki, jamiyat hayotidagi qarashlar juda qadimgi davrlardayoq maydonga kelgan qadimgi Markaziy Osiyoda zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» da, Mazdakning qarashlarida mu'tadil jamiyatni barpo etishni olg'a surgan, shunday jamiyatdagi davlat ideal davlat deb ta'kidlangan. Qadimgi turk mifologiyasida ham adolatli, faravon jamiyat va davlat haqida e'tiborga sazavor qarashlar mavjud. Qadimgi yunon faylasufi Aflotun takomillashgan kishilik jamiyatini, ideal davlatni barpo qilish, lozim deb hisoblagan. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Abu Nasr Forobiy o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida jamiyatning vujudga kelishi, maqsadi va vazifalari haqida ta'limot yaratgan. Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino kabi mutafakkirlar kishilik jamiyati paydo bo'lishi sabablarini insonning boshqa mavjudotlarga nisbatan ojizligi birdamlik hissining rivojlanganligi bilan izohlaganlar.

Falsafiy tafakkur tarixida jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud. Xususan, nemis faylasufi I.Kant jamiyatning vujudga kelishini axloqning shakllanishi bilan izohlagan. G.Gegel esa jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi sabablarini mutlaq ruhning rivojlanishi bilan, L.Feserbax din bilan bog'langan, ijtimoiy taraqqiyot sabablarini diniy ong taraqqiyotidan izlagan. Fransuz mutafakkiri O.Kant jamiyatning rivojlanish sabablarini insoniyat ma'naviy taraqqiyotining uch bosqichi (geologiya, metafizik, pozitiv bosqichlar) bilan izohlagan. K.Markas jamiyatning rivojlanish sabablarini sinfiy kurash va inqilobiy o'zgarishlar bilan bog'lagan, barcha ijtimoiy hodisa va jarayonlarni sinfiy nuqtai nazardan tushuntirgan. Ijtimoiy ziddiyatlarni sun'iy ravishda mutlaqlashtirgan va ziddiyatlarni hal etishning asosiy usuli sifatida ijtimoiy inqilobni amalga oshirishni, mulkdorlar sinfini tugatishni taklif etgan. Ijtimoiy amaliyot bunday nazariyaning bir yoqlama ekanini ko'rsatadi.

Jamiyat taraqqiyoti ko'p bosqichli jarayon ekani to'g'risidagi qarashlar AQSh faylasufi O.Toffler tomonidan ilgari surilgan. Bunday qarashga ko'ra, jamiyatlar taraqqiyotiga binoan agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyatga ajratilgan. Adabiyotlarda jamiyat taraqqiyoti borasida sivilizasiyali yondashuv g'oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko'ra, har bir xalq o'zining betakror, noyob, o'ziga xos va o'ziga mos turmush tarzini saqlab qolgan holda, boshqa xalqlar tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos modelini yaratadi.

Jamiyat hayotiga barqarorlik va beqarorlik ham xos. Har bir inson o'z oldiga qoygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo'lgani kabi jamiyat ham o'z oldiga qoygan vazifalarni ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi. Barqarorlik – jamiyat

taraqqiyotining tadrijiy rivojlanishi, ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko‘rsatish imkoniyatidir. U turg‘unlik tushunchasidan keskin farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy turg‘unlik tushunchasi jamiyatdagi mavjud siyosiy, ma’naviy tizimning tanazzuli alomatidir.

Jamiyatda barqarorlik beqarorlik bilan, inqiroz gullab-yashnash bilan almashib turishi ham mumkin. Jamiyatning ma’naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarida muayyan yutuqlarga erishilgach,ijtimoiy imkoniyatlar royobga chiqarilib bo‘lgach bundan keyingi taraqqiyoti yo‘lida yangi muammolar tug‘iladi va ularni hal etish vazifasi paydo bo‘ladi.

Beqarorlik ichki va tashqi jarayon va tahdidlar natijasida vujudga keladi. Beqarorlik bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqa ijtimoiy-siyosiy tuzumga o‘tish davrida keskinlashish mumkin. Jamiyat beqarorlikning izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o‘zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yo‘qolishida, g‘oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruhlarning paydo bo‘lishida, ijtimoiy adolat mezonlarining buzulishida, davlat idoralarining aholini boshqarish qobiliyati kuchsizlanishida, turli ziddiyatlarning keskinlashuvida o‘z ifodasini topadi.

Demokratik davlat va fuqarolik jamiyati. Insoniyat azal-azaldan jamoa bo‘lib yashaydi. Yer sayyorasi uning abadiy makoni, umumiy Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma’noda jamiyat odamzodning umri, hayoti o‘tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog‘liq barcha o‘zgarish va jarayonlarni ifoda etadi. Shu bilan birga, biror davlat xududidagi odamlar hayoti, sivilizasiyaning muayyan davrlaridagi turmushga nisbatan ham ushbu tushuncha qo‘llanadi. Har qanday holda ham, u umumiy tushuncha bo‘lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a’zosi deb ataladi.

Tilimizdagi jam, jamoat va jamiyat degan so‘zlar bor. Barchasining o‘zaro yig‘ilgan, to‘plangan degan ma’noni bildiruvchi jam iborasidir. Masalan: jamoat jam. Odamlar jam bo‘lishdi. Jami – o‘n nafar. Shuningdek, jam so‘zi qo‘shuv ma’nosida ham ishlatiladi. Jamoa iborasi biror mahalla yoki qishloq aholisini, biror muassasa, tashkilot yoki korxona ahlini bildiradi, ya’ni bir joyning bir guruh kishilari deganidir.

Jamoa atamasi ma’nosi jihatidan jamoatdan farqlanadi. Jamoatda turli qarashdagi kishilar bo‘lsa, jamoada esa bir maqsad, bir xil manfaat yo‘lida jam bo‘lgan kishilar tushuniladi. Masalan, jamoat deganda bir masjidda namoz o‘quvchi hammahalla, hamqishloq kishilar nazarda tutiladi. Jamoat so‘zining jamoatchilik, adabiy jamoatchilik, talabalar jamoatchiligi va hokazo.

Jamiyat insoniyat tarixiy taraqqiyotining ma’lum bosqichida shakklanadigan ijtimoiy munosabatlar majmuidir. Ijtimoiy munosabatlar

ichida eng asosiysi, siyosiy va huquqiy ustqurma uchun haqiqiy bazis bo‘ladigan, ijtimoiy ong shakllarini belgilaydigan munosabatlar – iqtisodiy munosabatlardir. To‘g‘ri, jamiyat taraqqiyoti tabiiy-tarixiy, qonuniy taraqqiyotdir.

Jamiyat ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida shuurga-ongga til va nutqqa ega bo‘lgan, bir-birlarining ijtimoiy yordami, ko‘magiga ehtiyoj sezuvchi insonlar ijtimoiy uyushmasining eng umumiy ilmiy-falsafiy atamasidir.

Falsafiy tahlilda jamiyat kishilarning tarixiy qaror topgan birgalikdagi faoliyatlari yig‘indisi, borliqning tabiatdan ajralib chiqqan mohiyatan va mazmunan nihoyatda murakkab va oliy qismi deb qaraladi.

“Jamiyat” tushunchasi quyidagi ma’nolarni qamrab olgan:

1. Jamiyat tushunchasida nafaqat hozir yashab turgan kishilarning faoliyatlari, balki ularning utmishi xamda kelajak avlodlar xayoti, ya’ni insoniyat tarixining ilk boshlanishidan tartib uning kelajagiga bulgan barcha tomonlar aks etadi.

2. Jamiyat tushunchasida muayyan xoldagi jamiyatlarning uziga xos jixatini xam ifodasini topadi. Masalan, umuman antik davr jamiyati "ovrupaga", "osiyoga" jamiyat va xokozalar.

3. Mazkur tushunchada bir-biriga bevosita boglanmagan xolda mavjud bulgan jamiyatlar xam ifodalandiki, bunda ularning shakl va goyasi bilan aloqador jixatlari e’tiborga olinadi. Bularga misol tarikasida qadimgi sAqlar, o‘rta osiyo jamiyatlari, yakin SHarkdagi arab jamiyatlari yoki garbiy ovrupadagi jamiyatlar va boshqalarni olish mumkin.

Jamiyatning falsafiy talkini kup kirralidir. Jamiyatni sifat muayyanligiga ega bulsak yaxlitlik tarzda karash bunday talkinning markazida turadi. YUzaki karaganda jamiyat uni tashkil etgan kishilarning oddiy yigindisiday kurinadi. Lekin chuqurrok karasa, unda kishilarning bir biri bilan amalga oshirayotgan kupdan-kup munosobatlari mavjudligi, bu munosobatlar uzaro takozlanganligi uzaro ta’sirda ekanligi ma’lum buladi. Kat’iy ma’noda kishilarning borligi ularning munosobatlari orqali ta’minlanadi. Bular tomonidan sodir bulayotganligi tufayli doimo ijtimoiy tabiatga egadir, binobarin, ular ijtimoiy munosobatlardir.

Jamiyat – tabiatning bir qismi, ya’ni ijtimoiy borliqg‘ bo‘lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli ,kishilar o‘rtasida amal qiladigan juda ko‘plab munosabatlar yig‘indisi, degan turlicha ta’riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keldadi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyat mohiyatini yangicha idrok etish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Prezident Islom Karimovning qator asarlarida jamiyat mohiyatini yangicha tushunishning uslubiy asoslari yaratildi. Jamiyat moddiy va ma’naviy omillar birligidan iborat. Hozirga qadar adabiyotlarda moddiy va ma’naviy hayot bir-biridan keskin farqlanar edi. Holbuki, jamiyatning tub

mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog‘liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo‘lmagani singari, jamiyatning moddiy va ma’naviy jihatlarini ham bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo‘yish mantiqqa ziddir. Insonning moddiy ehtiyojlari oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, uy-joy, transport vositalari, o‘zini himoyalash, zurriyot qoldirish kabilardan iboratdir. Ma’naviy ehtiyojlarga olamni bilish, o‘zlini angalsh, dunyoqarash, donishmandlikka intilish, bilim, san’at, g‘oya, mafkura, go‘zallik bilan, ma’naviy kamolot yo‘lidagi intilishlar kiradi. Insonning asl mohiyati moddiy ehtiyojlarni madaniy shakllarda qondirishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Inson aqlli mavjudot sifatida moddiy ehtiyojlarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, moddiy va ma’naviy olamni uyg‘unlashtirishga, tabiat va jamiyatni o‘z maqsadlariga mos ravishda o‘zgartirishga harakat qiladi. Ilm – fan va texnika insonning ma’naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish quroli, muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Inson yuksak ma’naviyat tufayligina o‘z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to‘liqona qondirish imkoniga ega bo‘ladi.

Jamiyat tushunchasi kishilarning hayot tarzlari, Faoliyatlarining barcha turlari va uning natijalarini shu jarayonda ular obyektiv ravishda sodir bshladigan ijtimoiy aloqa va munosabatlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Jamiyat o‘zini o‘zi tashkillovchi va boshqaruvchi tizim. Jamiyat maqsadlari, orzu-intilishlari, yashash tarzlari mushtarak bo‘lgan odamlar oilasidan iborat insonlarning yashash muhiti. Falsafa jamiyatni olamning tarkibiy qismi, uning eng murakkab ko‘rinishi sifatida tahlil etadi. Falsafa jamiyatning olamning o‘ziga xos yuqori darajadagi ko‘rinish sifatida shakllanishi va taraqqiyoti sabablarini jamiyatning o‘z ichidan qidiradi. Jamiyatning shakllanishiga sabab bo‘lgan asosiy narsa kishilarning talab ehtiyojlaridir.

Insoniyat tarixi aynan yashash ehtiyoji tirik tabiatning oliy turi odam zotining insonga aylanishi va ularning jamiyatga birlashuvini keltirib chiqargan. Shuning uchun ham falsafa jamiyatni o‘zini-o‘zi tashkillovchi va boshqaruvchi tizim sifatida o‘rganadi. Jamiyat odamlarning o‘ziga xos uyushuvi ifodasi. Kishilar o‘z ehtiyojlarini qondirish zaruratidan jamoalari (jamiyat)ga uyushganlar. Bu o‘z navbatida kishilar faoliyati – ishlab chiqarishda o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun ham jamiyat deganda kishilarning hayot tarzlari, faoliyatilarining barcha ko‘rinishlari, shu jarayonda ular orasida shakllangan ijtimoiy aloqa – munosabatlarini hamda faoliyatlari natijasi bo‘lmish moddiy va ma’naviy boyliklarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Jamiyat kishilararo aloqa va munosabatlar mahsulidir. Kishilararo ijtimoiy aloqa va munosabatlar obyektiv xarakterga ega va ular ijtimoiy munosabatlar, deb yuritiladi. Jamiyat moddiy va ma’naviy omillardan iborat yaxlitlikni ifodalovchi tizim. Ular jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotida

o‘z ifodaisni topadi. Jamiyatning moddiy va ma’naviy hayoti yaxlit ijtimoiy turmushning o‘zaro bog‘liq ikki tomonini tashkil etadi. Jamiyat murakkab tarkibiy tuzilishga ega ijtimoiy tizim hisoblanadi.

Jamiyat – murakkab ijtimoiy tizim. Jamiyat – murakkab ijtimoiy tizim deganda, undagi kishilarning turli ijtimoiy birliklari, jamiyatning boshqarilishi undagi muassasa va tashkilotlar nazarda tutiladi. Jamiyatning murakkab tuzilishi uning hayot sohalarida o‘z ifodasini topadi. Jamiyat hayotining sohalari deganda **iqtisodiy**, **ijtimoiy**, **siyosiy** va **ma’naviy** sohalar nazarda tutiladi.

Iqtisodiy hayot sohasi jamiyatdagi mavjud moddiy ishlab chiqarishni nazarda tutadi. U jamiyat hayotining iqtisodiy shart sharoitlarini yaratishdan iborat bo‘lgan murakkab ijtimoiy jarayonlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bu soha jamiyat iqtisodiyoti tushunchasida ifodalanadi. Jamiyatning **ijtimoiy hayoti** deganda undagi mavjud turli birliklar guruhlarning hayoti hamda, ular orasidagi turli tuman ijtimoiy aloqa va munosabatlar nazarda tutiladi. Jamiyatning siyosiy hayot sohasi kishilar, siyosiy kuchlar-sinflar, millatlarning o‘zaro siyosiy munosabatlarini, ularning davlat hokimiyatini qo‘lga kiritish va mustahkamlash borasidagi ongli faoliyatlarini qamrab oladi. Jamiyatinng **siyosiy hayoti** siyosat, siyosiy tizim, siyosiy struktura, siyosiy munosabatlar kabi tushunchalarda o‘z ifodasini topadi. Jamiyat siyosiy hayotining asosini davlat tashkil etadi. Jamiyatning ma’naviy hayot sohasi kishilarning ma’naviy boyliklarni yaratish faoliyatlari, uning natijalari (xilma-xil qarashlar, g‘oyalar, ta’limotlar, fan, adabiyot, san’at, ta’lim va tarbiya kabi)ni hamda ish jarayonda yuzaga keladigan ijtimoiy aloqa va munosabatlarni qamrab oladi.

Jamiyat ma’naviy hayoti deganda: a) ma’naviy ehtiyojlar; b) ma’naviy faoliyatlarning barcha turlari yoki ma’naviy ishlab chiqarish; v) ma’naviy munosabatlar; g) ma’naviy o‘zlashtirish nazarda tutiladi. Jamiyat hayoti sohalari orasiga qat’iy chegara qo‘yish mumkin emas. Jamiyat hayoti yaxlitliklardan iborat narsa, hodisa, jarayonlar majmuasidan tashkil topadi. Shunday ekan, jamiyat hayoti sohalari bir-biriga bog‘liq, biri ikkinchisisiz mavjud bo‘la olmaydigan tomonlaridir. Ijtimoiy fanlarda jamiyat, ideal jamiyat, ochiq jamiyat, yopiq jamiyat, fuqarolik jamiyati, erkin jamiyat, globallashgan jamiyat, axborotlashgan jamiyat tushunchalari keng qo‘llaniladi.

8.2. Jamiyatning siyosiy hayotida davlatning o‘rni va roli

Jahon tajribasi har bir mamlakat va xalqning o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlash huquqiga ega bo‘lishi umumiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash garovi ekanini ko‘rsatdi. O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan keiyn o‘z milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, o‘ziga

xos va mos taraqqiyot yo‘lini tanlash, rivojlantirishning o‘zbek modelini yaratish imkoniga ega bo‘ldi.

Demokratik jamiyat uchun inson manfaatlari, erkinligi va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadi. Har qanday jamiyat hayoti uchun davomiylik, vorisiylik va uzluksizlik xosdir. Bu qonuniyatlar buzilsa, jamiyatning tabiiy hayotida yo‘qotishlar ro‘y beradi. Bu holat, ayniqsa, bir tizimdan boshqa tizimga o‘tish, jamiyat rivojlanishining yangi bosqichiga ko‘tarish jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mavjud tizimdan sifat jihatdan yangi tizimga o‘tish jarayonida islohotlarni ijtimoiy larzalarsiz amalga, odamlarning tafakkurini o‘zgartirish, yangi qonun va normalar ishlab eskizidan foydalanish jamiyat rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy rivojlanishning o‘zbek modeli insoniyatning rivojlanish borasidagi ilg‘or tajribasiga, milliy davlatchilik tajribalarimizga va xalqimiz mentalitetiga tayanadi.

Ijtimoiy rivojlanish borasida odatda ikki yo‘ldan – inqilobiy va tadrijiy yo‘ldan borgan. Insoniyat tajribasi ijtimoiy rivojlanishning keskin inqilobiy o‘zgarishlar yo‘li nomaqbul va yaroqsiz ekanini, jamiyatning tadrijiy (yevolyusion) taraqqiyoti barqaror – tabiiy rivojlanish yo‘li ekanini ko‘rsatadi.

Jamiyat va oila mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Oilada jamiyatning tub mohiyati o‘z aksini topadi. Shu ma’noda, oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a’zosi oila bag‘rida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabatlarni o‘zlashtiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi. Barkamol insonni shakllantirish, yni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim sharoitdir. Shu boisdan ham davlat oilani o‘z himoyasiga oladi.

Jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy muhitning sog‘lomligi ko‘p jihatdan oilaviy madaniyatga bog‘liq. Oila qanday bo‘lsa, jamiyat ham shunday bo‘ladi. Oilada er va xotinning mavqyei,oilaviy munosabatlar xarakteri turli xalqlarda turlichadir. Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida ma’naviyatimiz sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo oila qadriyatlarini, eng ilg‘or an’analarni tiklashga qaratilgandir. Ona va ayol muqaddasligi o‘zbekona qadriyatdir. Hadisi sharifda ona va ayolning muqaddasligi to‘g‘risidagi g‘oyalar oilaviy munosabatlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ulug‘ mutafakkirlar jamiyatning madaniy darajasi ayol va oiladagi ahvol, mavqyei bilan belgilanishini alohida ta’kidlaganlar. Sog‘lom, barkamol avlod tarbiyasi jihatdan ayolning ma’anviy salohiyati, bilimi, uddaburonligi va erkinligiga bog‘liqdir. Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan qator tadbirlar ayolning oila va jamiyatdagi mavqyei va rolini kuchaytirishga qaratilgandir.

Davlat – jamiyatni boshqarish, tartibga solish ,ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan alohida bir muassasadir. Davlat umuminsoniy qadriyat, insoniyat ma'naviy taraqqiyotining muhim yutug'idir.

Jamiyat ma'naviy salohiyatining yuksalib borishi bilan siyosiy boshqarish shakllari va usullari ham takomillashib boradi. O'zgargan tarixiy sharoitda davlatning mohiyati, mazmuni va vazifalariga yangicha yondashish zarurati vujudga keladi. Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik an'analarining tiklanishi bilan davlatning tashkilotchilik, bosh islohotchilik faoliyati yangicha mazmun va ahamiyat kasb etdi.

Jamiyat hayotida turli jamoalar, tashkilot va uyushmalar ham faoliyat ko'rsatadi. Ularni shartli ravishda davlat va nodavlat tashkilotlariga ajratish mumkin. Ularga siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, turli jamg'armalar, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar uyushmasi, mahalla o'mitalari av boshqalar kiradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgandir.

Demokratik jamiyatni barpo etish – O'zbekiston taraqqiyotining bosh maqsadi. Bu jamiyat kishilarning yuksak axloqiy-siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan demokratik taraqqiyotning yuqori bosqichidir. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko'p qirrali aloqasi bo'lib, davlat qonunlarini hurmat qilib bajaruvchi jamiyat tarkibiga kiruvchi elementlarning nisbiy mustaqilligiga asoslanuvchi, turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o'zaro kelishuv, sabr-toqat va muzokaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir. Demokratik jamiyat umuminsoniy tamoyillar, milliy davlatchilik xususiyatlari, o'ziga xos turmush tarzi va hayot falsafasi negizida qaror topadi. O'zbekiston milliy mustaqilligining dastlabki yillaridanoq shunday jamiyat asoslarini barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Demokratik jamiyatda davlatning qator vazifalari fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari qo'liga o'ta boshladi, mahalliy hokimiyat organlarining vakolati kengayadi. Bunday jamiyat asoslarini barpo etish kishilarning yuksak siyosiy va huquqiy madaniyati, ijtimoiy-siyosiy faolligiga tayanadi. Mamlakatimizda mahalla hokimiyat organlarining tashkil etilishi, ular vakolatining kuchaytirilishi xalqimizning o'z-o'zini boshqarish, idora etish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik jamiyati – bir qancha gumanitar fanlarning tushunchasi bo'lib, uning mohiyatiga ko'ra jamiyatdagi nosiyosiy va siyosiylashmagan ma'naviy va iqtisodiy munosabatlarning yaxlit majmuasi. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi bag'rikenglik, ochiqlik, o'zaro hurmat, ezgulik kabi qadriyatlarga asoslanadi. Jamiyatning madaniyati va ma'lumot darajasi o'z-o'zini tashkil etish sinergetik jarayonlari, hamkorlik, birdamlik va o'z-

o‘zini bilishni qabul qilishga qanchalik tayyor bo‘lsa, u shunchalik fuqaroviy jamiyat bo‘ladi.

Fuqarolik jamiyati qurish jarayonining asosiy vazifasi – odamlarni ajratuvchi chegara va to‘siqlarni bartaraf etib, hamkorlikda ish yuritishni o‘rganishdan iborat. Fuqarolik jamiyati insonsoniy faoliyatining barcha sohalarida fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirishga yordam beradi. Chunonchi, siyosatda asosiy maqsad – aholi muayyan qatlamlarining manfaatlarini himoya qilish.

8.3. Tarix falsafasining predmeti, tuzilishi va funksiyalari

«Tarix falsafasi» nima va uning predmeti nimadan iborat? Bu savolga javob berar ekanmiz, tarix falsafasi tushunchasiga «Falsafiy qomusiy lug‘at» mualliflari bergan ta’rifni keltirish o‘rinli bo‘ladi deb o‘ylaymiz: «Tarix falsafasi – falsafaning tarixiy jarayonni va tarixiy bilishni talqin qilish bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘limi». Shunday qilib, tarix falsafasi falsafaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Tarix falsafasining predmeti esa tarixiy jarayon va tarixiy bilishni talqin qilish, ularning mazmunini yoritib berishdan iborat. Ammo bu tarix falsafasini tavsiflashga nisbatan birdan-bir yondashuv emas, chunki tarixiy rivojlanish jarayonida tarix falsafasining predmeti va muammolari sezilarli darajada o‘zgargan va hozirgi vaqtda tarix falsafasining turli yo‘nalishlari tomonidan har xil talqin qilinadi.

Tarix falsafasi predmetining umumiy tavsifi uning tuzilishi va funksiyalarini o‘rganishga o‘tish imkonini beradi.

Tarix falsafasining tuzilishi. Tarix falsafasining tuzilishini tavsiflar ekanmiz, bu element tarix falsafasi u yoki bu yo‘nalishi namoyandalarining metodologik mo‘ljallari bilan uzviy bog‘liq, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ayni vaqtda, ahamiyatsiz tafovutlarni e’tibordan soqit etsak, aksariyat yo‘nalishlar doirasida o‘rganiladigan asosiy muammolarni qayd etishimiz mumkin. Tarix falsafasining asosiy tarkibiy qismlarini aytib o‘tamiz va ularga qisqacha to‘xtalamiz

Tarix falsafasi ontologiyasi – bu tarix falsafasining tarixiy borliq muammolari, chunonchi: tarixning mazmuni va yo‘nalishi, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy determinizm, yagona tarixiy makonning vujudga kelishi, jahon tarixining yagonaligi asoslarini, insonning koinotdagi o‘rnini aniqlash, tarixiy vaqt masalasi va hokazolarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi tarkibiy qismi. Mazkur bo‘limda jamiyatning rivojlanish mantig‘ini, uning turli tomonlari o‘rtasidagi aloqalar va o‘zaro bog‘lanishlarni o‘rganish ham muhim o‘rin egallaydi.

Tarix falsafasi gnoseologiyasi asosiy e’tiborni tarixiy bilish muammolariga, aniqroq aytganda, tarixiy faktlar va voqyealarni o‘rganish, tahlil qilish va tushuntirish, tarixiy bilimning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, shuningdek tarixiy bilishda haqiqatning tagiga yetishga qaratadi.

Tarix falsafasi tarixi tarix falsafasining vujudga kelishi va rivojlanishi, tarix falsafasi predmetining shakllanishi muammolarini, tarix falsafasining turli yo‘nalishlar va oqimlar vujudga kelishiga sabab bo‘lgan ichki differensiasiyalanish jarayonini o‘rganadi. Tarix falsafasi mazkur bo‘limining muhim muammolari qatoriga tarixiy jarayonni davriylashtirish, boshqa ijtimoiy fanlar orasida tarix falsafasining o‘rnini aniqlash masalalari ham kiradi.

Tarix falsafasi antropologiyasi insonning tarixiy jarayondagi o‘rnini, bu jarayonda tarix subyektlarining rolini aniqlaydi va «Tarixni kim harakatga keltiradi?», degan savolga javob beradi. Odatda, tarix falsafasining turli yo‘nalishlari tarixiy jarayon subyektlari qatoriga xalq, millat, omma, olomon, ijtimoiy sinflar va atoqli shaxslarni kiritadi va qo‘yilgan savolga har xil javob beradi.

8.4. Sivilizatsiya tushunchasining tahlili va turli yondashuvlar tasnifi. “Madaniyat” tushunchasi, uning mohiyati, strukturasi va funksiyalari

Sivilizatsiya — (lot. civilis-fuqaroviy, ijtimoiy) serqirra va murakkab mazmunga ega bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy tushuncha.

Sivilizatsiya tushunchasini shotland tarixchisi va faylasufi A.Fergyusson (1723-1816) jahon tarixiy jarayonining ma’lum bir bosqichini ifodalash uchun, fransuz ma’rifatparvarlari aql-idrok va adolatga asoslangan jamiyat degan ma’noda ishlatgan edilar.

Sivilizatsiya tushunchasining hajmi va mazmunini belgilashda turfa xillik hozirgi vaqtda ham saqlanib qolmoqda. Bu tushuncha:

1)ijtimoiy rivojlanishning yovvoy.ik va varvarlikdan keyin keladigan bosqichini;

2) umuman kishilik jamiyati rivojlanishining ma’lum bir bosqichini (mas., neolit, nokapitalistik yoki h. zamon sivilizasiyasi);

3) ma’lum bir ijtimoiy-iqtisodiy formasiyani (mas., quldorlik sivilizasiyasi);

4) geografik jihatdan farqlanuvchi birliklarni (mas., Yevropa yoki Osiyo sivilizasiyasi);

5) diniy mansubligiga ko‘ra ko‘ra farqlanuvchi madaniy birliklarni (mas., xristian yoki islom sivilizasiyasi);

6) kelib chiqishi va planetar mansubligiga ko‘ra farqlanuvchi birliklarni (mas., yer sivilizasiyasi, yerdan tashqaridagi sivilizasiyalar);

7) etnik asosga ko‘ra farqlanuvchi ijtimoiy-madaniy birliklarni (mas., qadimgi Misr yoki Bobil sivilizasiyasi) ifodalash uchun qo‘llanib kelmoqda.

Sivilizatsiya jamiyatning shunday rivojlanish bosqichiki, bunda jamiyat yashab qalish, hayot uchun kurashmasdan, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy strukturalar va madaniy qadriyatlarni takomillashtiradi.

Sivilizatsiyaning asosiy belgilari quyidagilardir: murakkab mehnat taqsimoti: davlatning mavjudigi: bozor iqtisodiyoti: rivojlangan madaniyatning mavjudligi.

"Sivilizatsiya" tushunchasi alohida olingan bir xalq, hudud, jamiyat, davlat va xatto jahonga, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining muayyan bosqichiga nisbatan ham qo'llaniladi. "Sivilizatsiya" lotincha "sivilius" so'zidan olingan bo'lib, aynan "fuqarolikga oid" degan ma'noni anglatadi.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda sivilizatsiyaga turlicha ta'riflar berilgan: sivilizatsiya – madaniy texnik taraqqiyotning yuqori bosqichi (bunda yozuvning kashf etilishini, texnik kashfiyotlar, sanoat inqilobi sivilizatsiyaning muhim belgisi sifatida talqin etiladi); sivilizatsiya – jamiyatning muayyan namunasi (bunda u "formatsiya" tushunchasi bilan aynanlashtiriladi): sivilizatsiya – insoniyatning yovvoyilik va vaxshiylikdan keyingi taraqqiyot davri.

Sivilizatsiya tushunchasi tarixning, jamiyatning sifatiy o'ziga xosligini, u yoki bu mamlakat doirasida amal qiladigan, ishlab chiqarish kuchlari (texnologiya), inson faoliyati, madaniyati, tomonidan belgilanadigan umumiy ijtimoiy qonuniyatlarning spetsifikasini ifodalaydi.

Har qanday sivilizatsiya:

1) muayyan ijtimoiy ishlab chiqarish texnologiyasiga;

2) takrorlanmas madaniyati, qadriyati, falsafiy qarashlari, odob, axloq normalariga;

3) o'z hayotiy tamoyillariga ega bo'ladi. Bularning barchasi sivilizatsiyasini yaxlit birlik sifatida mavjud bo'lishi uchun imkon yaratadi. Bu sifatiy xususiyatlarning yo'qolishi sivilizatsiyaning halok bo'lishiga olib keladi.

Yuqoridagi mulohazalardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sivilizatsiya tushunchasi muayyan xalq, mamlakat (jamiyat)ga yoki uning rivojlanishining sifatiy jihatdan farqlanuvchi ayrim bosqichlariga nisbatan ishlatilgandagina u aniq ilmiy mazmunga va binobarin metodologik ahamiyatga ega bo'ladi.

Sivilizatsiyaning mohiyatini tushinishda unga mansub bo'lgan madaniyatning rolini anglash muhimdir. Agar ishlab chiqarish kuchlari sivilizatsiyaning moddiy asosini tashkil qilsa, madaniyat ijtimoiy hayotni barcha sohalarini qamrab oladi, uning qiyofasini, o'ziga xos rangini belgilab beradi, xatto ishlab chiqarish kuchlariga ham o'ziga xos xarakterlilik, ahamiyatlilik beradi. Bu bilan madaniyat ijtimoiy hayotning ijtimoiy tashkillashuvini, ya'ni sivilizatsiyani shakllanishi, mavjud bo'lishi va rivojlanishini belgilab beruvchi o'ziga xos negiz vazifasini o'taydi.

Demak, sivilizatsiya madaniyatning aniq namoyon bo'lishini, uning real mavjud hayotini aks ettiradi. Sivilizatsiyaning madaniyatsiz, madaniyatning

sivilizatsiyasiz, undan tashqarida mavjud bo‘lishi mumkin emas. Chunki, inson ma’lum bir sivilizatsiya bag‘rida o‘tmish avlodlari tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni o‘zlashtirgan holda shakllanishi, kamol topishi mumkin.

Insoniyat tomonidan to'plangan tarixning ma'naviy taraqqiyot tajribasi, dunyoqarash va uslubiy pozitsiyalardagi barcha farqlarga qaramay, ba'zi umumiy xususiyatlarni ochib beradi.

Birinchidan, tarixga real makon va vaqtda yuzaga keladigan jarayon sifatida qaraladi. Muayyan sabablarga ko'ra davom etadi. Bu sabablar qayerda (yerda yoki osmonda) topilmasin, tarix harakati va uning yo‘nalishini oldindan belgilab beruvchi omillardir.

Ikkinchidan, turli mamlakatlar va xalqlar, tsivilizatsiyalar va o'ziga xos milliy jamiyatlarning yo'llari va taqdirlarini tushunishning dastlabki bosqichidayoq tarixiy jarayonning birligini, har bir xalqning o'ziga xosligi va o'ziga xosligini u yoki bu tushunish bilan bog'liq muammolar paydo bo'ladi. sivilizatsiya. Ba'zi mutafakkirlar uchun insoniyat tarixi ichki birlikka ega bo'lsa, boshqalar uchun bu muammoli.

Uchinchidan, ko'pgina ta'limotlarda tarix aniq yoki yashirin teleologik (maqsadni belgilash) xususiyatga ega. Dinda bu chiliistik esxatologiya (er yuzi tarixining oxiri haqidagi ta'limot), materialistik falsafada - taqdirning o'zgarmasligi bilan insoniyatni yorqin kelajakka olib keladigan ijtimoiy rivojlanish qonunlarining o'ziga xos avtomatizmi yoki aksincha. jahon kataklizmiga.

To'rtinchidan, tarix harakatining tabiatiga kirib borish istagi. Bu erda ham o'ziga xos dixotomiya - chiziqli yoki tsiklik harakat paydo bo'ldi.

Beshinchidan, tarix o'ziga xos rivojlanish bosqichlariga (bosqichlari va boshqalar) ega bo'lgan jarayon sifatida tushuniladi. Ba'zi mutafakkirlar tirik organizmga (bolalik, o'smirlik va boshqalar) o'xshatishdan boshlaydilar, boshqalari esa inson mavjudligining biron bir elementi yoki tomonlari (din, madaniyat yoki, er-xotin) rivojlanish bosqichlarini ta'kidlash uchun asos bo'ladi. aksincha, mehnat qurollari, mulk va boshqalar).NS.).

Nihoyat, tarix doimo ijtimoiy-madaniy omillarning kuchli ta'siri ostida idrok etilgan. Asosiy rolni odatda mutafakkirlarning milliy-davlat, ijtimoiy-sinfiy va madaniy-tsivilizatsiya yo'nalishi o'ynagan. Qoida tariqasida, umumiy insoniy tamoyil o'ziga xos (milliy va hokazo) shaklda paydo bo'lgan. Chegirma mumkin emas shaxsiy xususiyatlar mutafakkirlar. Umuman olganda, bugungi kunda ikkita uslubiy yondashuv aniqlandi. Biri monistik, ikkinchisi sivilizatsiya yoki plyuralistik. Birinchisi doirasida ikkita tushuncha ajratiladi - marksistik va postindustrial jamiyat nazariyasi. Marksistik kontseptsiya ishlab chiqarish usulini ijtimoiy taraqqiyotning asosiy hal qiluvchi omili sifatida tan olish va shu asosda ma'lum bosqichlar yoki shakllanishlarni tanlash (shuning uchun uning boshqa nomi -

shakllanish) bilan bog'liq; postindustrial jamiyat kontseptsiyasi texnik omilni asosiy belgilovchi sifatida ilgari suradi va tarixda jamiyatlarning uch turini ajratib ko'rsatadi: an'anaviy, industrial, postindustrial (axborot va eox.) jamiyat.

Sivilizatsiya yondashuvi asosida ko'plab tushunchalar ajralib turadi, turli asoslarda qurilgan, shuning uchun u plyuralistik deb ataladi. Birinchi yondashuvning asosiy g'oyasi - bu insoniyat tarixining birligi va uning bosqichma-bosqich rivojlanishi shaklida. Ikkinchisining asosiy g'oyasi insoniyat tarixi va uning progressiv rivojlanishining birligini inkor etishdir. Bunday yondashuv mantiqiga ko‘ra, bir-biri bilan kuchsiz yoki umuman bog‘lanmagan tarixiy shakllanishlar (tsivilizatsiyalar) ko‘p. Bu shakllanishlarning barchasi tengdir. Ularning har birining tarixi o'zlari kabi noyobdir.

Ammo asosiy yondashuvlarning batafsil sxemasini berish o'rinli emas: diniy (teologik), tabiiy-ilmiy (marksistik adabiyotda u ko'proq naturalistik deb ataladi), madaniy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy (formatsion), texnik. va texnologik (texnik, texnik deterministik). Tarixiy jarayonning diniy tasvirida dunyoning Xudo tomonidan yaratilishi g'oyasi boshlang'ich nuqta sifatida qabul qilinadi. Tabiatshunoslik yondashuvi doirasida tabiiy omil (geografik muhit, aholi, biosfera va boshqalar) insoniyat tarixini o‘rganishning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. Madaniy-tarixiy yondashuv ko'pincha so'zning tor ma'nosida tsivilizatsiya ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu erda madaniyat birinchi o'ringa chiqadi (umuman yoki ayrim o'ziga xos shakllarda).

Tarixga oid sanab o'tilgan yondashuvlar ijtimoiy bilishdagi o'rni va roli, ijtimoiy amaliyotga ta'siri bilan sezilarli darajada farqlanadi. Dunyodagi inqilobiy o'zgarishlarga eng yuqori da'volarni marksistik ta'limot (formatsion yondashuv) ko'rsatadi. Bu unga boshqa yondashuvlardan keng qarshilikni oldindan belgilab berdi va natijada tarixni tushunishda o'ziga xos dixotomiya - marksistik monizm yoki g'arb plyuralizmi paydo bo'ldi. Bugungi kunda rus olimlari (faylasuflar, tarixchilar va boshqalar) o'rtasidagi bu dixotomiya shakllanish yoki tsivilizatsiya shaklini va shunga mos ravishda formatsion yoki sivilizatsiyaviy yondashuvni oldi.

Tarixga formatsion yondashuv haqida

Marksning jamiyat tarixiy taraqqiyoti haqidagi ta’limoti “tarixni materialistik tushunish” deb ataladi. Bu ta`limotning asosiy tushunchalari - ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong, moddiy ishlab chiqarish usuli, asos va ustki tuzilma, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya, ijtimoiy inqilob. Jamiyat yaxlit tizim bo'lib, uning barcha elementlari o'zaro bog'langan va qat'iy ierarxiyada joylashgan. Ijtimoiy hayotning asosi yoki jamiyatning asosi moddiy hayotning ishlab chiqarish usuli hisoblanadi. U "umuman hayotning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jarayonlarini belgilab beradi. Odamlarning

ongi emas, balki, aksincha, ijtimoiy borligi ularning ongini belgilaydi". Ishlab chiqarish usuli tarkibida ishlab chiqaruvchi kuchlar va birinchi navbatda mehnat qurollari (texnologiyasi) birinchi darajali ahamiyatga ega. Ularning ijtimoiy hayotning boshqa sohalariga (siyosat, huquq, axloq va boshqalar) ta'siri ishlab chiqarish munosabatlari vositasida amalga oshiriladi, ularning yig'indisi «jamiyatning iqtisodiy tuzilishini, huquqiy va siyosiy ustki tuzilma ko'tariladigan va unga asos bo'lgan real asosni tashkil qiladi. ijtimoiy ongning ma'lum shakllari mos keladi "3 ... O'z navbatida, ustki tuzilma (siyosat, huquq va boshqalar) asosga qarama-qarshi faol ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar rivojlanishning asosiy manbai bo'lib, ular ertami-kechmi jamiyat hayotida alohida sharoitlarni belgilaydi, bu esa ijtimoiy inqilob shaklida bo'ladi. Insoniyat tarixi tabiiydir, ya'ni. odamlar ongiga bog'liq bo'lmagan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarni o'zgartirish jarayoni. U oddiy, quyi shakllardan tobora rivojlangan, murakkab, mazmunli shakllarga o'tadi. “Umumiy ma’noda osiyo, antik, feodal va zamonaviy, burjua, ishlab chiqarish usullarini iqtisodiy shakllanishning progressiv davrlari sifatida belgilash mumkin. Burjua ishlab chiqarish munosabatlari oxirgi antagonistik shakldir. ijtimoiy jarayon ishlab chiqarish. Shu sababli, insoniyat jamiyatining tarixdan oldingi davri burjua ijtimoiy shakllanishi bilan yakunlanadi "1.

Ayniqsa, shakllanish tushunchasiga to`xtalib o`tish zarur. Marksda u jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tashkil etishning mantiqiy umumlashtirilgan turini (shaklini) bildiradi va turli aniq tarixiy jamiyatlarda, birinchi navbatda, ishlab chiqarish usulida umumiy xususiyatlar va xususiyatlarni farqlash asosida shakllanadi. Boshqacha qilib aytganda, bu jamiyatning tarixiy jihatdan belgilangan turi bo‘lib, uning rivojlanishidagi alohida bosqichni ifodalaydi (“... tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichidagi jamiyat, o‘ziga xos o‘ziga xos xususiyatga ega jamiyat”. 2 Demak, kapitalizm mashinasozlik sanoati, Xususiy mulk ishlab chiqarish vositalari, tovar ishlab chiqarish, bozor uchun. Binobarin, formatsiyani qandaydir empirik jamiyat (ingliz, fransuz va boshqalar) yoki qandaydir agregat geosiyosiy hamjamiyat (G‘arb, Sharq) deb tushunish mumkin emas. Bu ma'noda shakllanish juda ideallashtirilgan, mavhum mantiqiy ob'ektdir. Shu bilan birga, shakllanish ham turli konkret jamiyatlar hayotini ijtimoiy-iqtisodiy tashkil etishda umumiylik vazifasini bajaradigan voqelikdir. Shunday qilib, zamonaviy jamiyat Marksning fikricha, “barcha tsivilizatsiyalashgan mamlakatlarda mavjud bo'lgan, o'rta asrlar qorishmasidan ozmi-ko'p holi bo'lgan, har bir mamlakatning tarixiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan ozmi-ko'pmi o'zgargan kapitalistik jamiyatdir. ko'proq yoki kamroq rivojlangan" 3.

Umuman olganda, Marks o'z davrining tarix haqidagi global g'oyalari doirasida qoldi (masalan, Gegel falsafasida ular qanday rivojlanishi: jahon tarixi to'g'ridan-to'g'ri birlik bilan tavsiflanadi, unda umumiy qonunlar ishlaydi, u ma'lum rivojlanish yo'nalishiga ega va hokazo). U bu g‘oyalarni boshqa uslubiy (bu holatda materialistik) asosda qaytadan o‘ylab topgani aniq, lekin umuman olganda, takrorlaymiz, u o‘z asrining farzandi bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Va, tabiiyki, u global bashorat vasvasasiga dosh bera olmadi: kapitalistik formatsiyadan keyin kommunistik formatsiya (sotsializm faqat uning dastlabki bosqichi) kuzatiladi. Shunday qilib, kommunizm tarixning oliy maqsadi, insoniyatning oltin davridir. Marksizmni farqlash mantiqiy ilmiy nazariya, ilmiy jamoatchilikka (olimlar, mutaxassislar jamoasiga) va marksizm mafkuraviy ta'limot sifatida ommaga, ularning ongi va qalbini zabt etishga qaratilgan; nazariyadan farqli o'laroq, buyuk ta'limot solishtirma og'irlik iymonni oladi. Birinchi holda, Marks olim, ikkinchisida ehtirosli mafkurachi, voiz sifatida ishlaydi.

Sivilizatsiyaviy yondashuvning mohiyati

Aksariyat olimlar u yoki bu paradigma ularni ma'lum bir hodisani o'rganish uchun zarur vositalar bilan ta'minlashiga o'rganib qolgan. Biroq, tsivilizatsiyaviy yondashuv, shakllanishdan farqli o'laroq, bu bilan maqtana olmaydi. Gap shundaki, hozirgi bosqichda yagona nazariya yo'q va bu yondashuvning o'zi o'xshash metodologik va uslubiy tamoyillar to'plamidan boshqa narsa emas. Xususan, hozirgi vaqtda bu sohada Toynbi, Spengler, Sorokin kabi mutafakkirlarning qarashlari ustunlik qiladi. jahon tarixi alohida xalqlar va davlatlar rivojlanishining umumiy konglomerati sifatida.

Yangi paradigmaning asosiy tamoyillari

Sivilizatsiyaviy yondashuv, tushunchalardagi katta farqga qaramay, quyidagi tamoyillar bilan birlashtirilgan. Birinchidan, tadqiqotning tavsifiy xususiyati jarayonlarni "tushunish" deb ataladigan narsa bilan almashtirildi. Ikkinchidan, avvalgi davrlar ishiga xos bo'lgan nekbinlik asta-sekin umidsizlik va ratsionalizmning tatbiq etilishi bilan almashtirildi. Uchinchidan, agar formatsion yondashuv tarafdorlari uchun jahon tarixining birligi shubha ostiga olinmagan bo'lsa, ularning mafkuraviy muxoliflari ko'pincha ma'lum xalqlarning mahalliy nuqtai nazarini talab qiladilar. Nihoyat, to‘rtinchidan, tarixni o‘rganishga sivilizatsiyaviy yondashishda asosiy e’tibor hududlarning madaniy shakllanishi va rivojlanishiga, yagona kulturologik makonni shakllantirishga qaratiladi.

Paradigmaning asosiy atamasining xarakteristikasi

Bu olimlarning tarixiy inshootlarida “sivilizatsiya” tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Tabiiyki, u turli tadqiqotchilar orasida ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Biroq, asosan, ular amalda bir xil: tsivilizatsiya - bu o'zaro bog'liq bo'lgan odamlar o'rtasidagi munosabatlar majmuasidir umumiy tarix va madaniy an'analar.

Shunday qilib, tarixni o'rganishga sivilizatsiyaviy yondashuv ancha murakkab va hatto chalkash majmuadir uslubiy yondashuvlar, ular jamiyatni uning madaniy taraqqiyoti nuqtai nazaridan idrok etishga asoslanadi.

Madaniyatga ijtimoiy hodisa sifatida, uning xususiyatini ochib ko‘rsatgan holda unga ta’rif berish maqsadga muvofiq. Keng ma’noda, madaniyat deganda inson tomonidan yaratilgan barcha narsalar tushuniladi. Dastlab, “madaniyat” tushunchasi asosan insonning tabiatga bo‘lgan ta’sirini aniqlash uchun, tabiat kuchlarini o‘zlashtirishni ifodalaydigan yutuqlarni tasniflash uchun qo‘llanilgan.

8.5. Ijtimoiylashuv. Shaxs: erkinlik va demokratiya

Ijtimoiylashuv. Shaxsning shakllanishida uni o’rab turgan muhit va u intiladigan madaniy ijtimoiy ideallar hamda bajarishi lozim bo’lgan vazifalarining ham ahamiyati kattadir. Bunday hodisani fanda insonning ijtimoiylashuvi va yoki sotsializatsiya yo’li bilan shaxsga o’tishi, deb atash qabul qilingan. Buni izohlaydigan ko’pgina qarashlar mavjud.

Ijtimoiylashuv umumiy ma’noda insonning bio va ruhiy ehtiyojlariga maqsadga muvofiq, oqilona ta’sir o‘tkazishdir. Buning oqibatida inson shaxsi qaror topishining ikkinchi tomoni — uning subyektiv «MEN»i ham shakllanadi. Shaxsning «MEN»i ota-onalari, qarindosh-urug‘lar, tanish-bilishlar, mahalla-ko‘y va boshqalardan o‘zlashtiradigan sifatlardir. Bu sifatlar aniq olingan joyi va vaqtiga ko‘ra ijobiy yoki salbiy shaxsiy xususiyatlar shakllanishi mumkin. Ijobiy holatda shaxsda o‘zi to‘g‘risida odillik, epchillik, qobiliyatlilik, Shaxsning huquq va majburiyatlari uddaburonlik kabi tasavvurlar tug‘ilsa, salbiy holatda uning layoqatsizligi, noshudligi, zaifligi kabi xususiyatlari qaror topishi mumkin. Albatta, bu xususiyatlar inson subyektining o‘z «MEN»I to‘g‘risidagi fikrlaridir. Ularning voqelikka muvofiq kelishi, ya’ni haqiqiymi yoki yo‘qligi masalasini ham nazardan qochirmaslik lozim.

Subyektiv «MEN» yuzaga kelishi bilan nisbiy mustaqillik tarzini oladi va shaxs sifatida o‘zini ko‘rsata boshlaydi. Shu bilan birga shaxs «MEN»i doirasida uning ikkinchi jihati — boshqalarning bu «MEN»ga bo‘lgan munosabatiga javoblari masalasi ham ko‘zga tashlanadi. «MEN»ning bu jihati o‘zga «MEN» bo‘lib, unda aniq olingan shaxsning xatti-harakatlari, fikr-o‘yi, siyosiy mavqeyi, turmush tamoyillari va hokazolar to‘g‘risida jamoatchilik fikrlarini hisobga olish yoki olmaslik bilan bog‘liq holatlar ifodalanadi.

O‘zga «MEN» quyidagi holatlardan tashkil topadi. Bular — boshqalarning aynan shu shaxs to‘g‘risidagi qarashlari asosidagi fikrlar; ayni shu shaxsning xatti-harakati va faoliyatini boshqalar tomonidan baholash bilan bog‘liq omillar; boshqalarning qarashlari va bergan baholariga javoban qoniqish, g‘urur, o‘ziga ishonchining kuchayishi, o‘zini bekam-u ko‘st deb

hisoblash, uyalish, afsuslanish, ehtiyotkorlikka moyillik kabi holatlardir. Shaxsning obyektiv «MEN»i bilan uning to‘g‘risidagi «o‘zga MEN» bir-birini to‘ldirgandagina insonning ijtimoiy tabiati haqidagi fikrlar ham to‘laroq bo‘ladi.

«MEN» inson shaxsning ichki muayyanligini ifodalaydi va mohiyatan uning belgilovchisidir. Unda shaxsning o‘z-o‘zini anglashi, fe’l-atvori va irodasining manbayi jamlangandir. Shaxs «MEN»i insonning u yoki bu yo‘nalishdagi faoliyati bilan bog‘lanib, o‘zining turli-tuman qirralarini namoyon qiladi. Ular eng umumiy tarzda quyidagilardir.

O’z-o’zini anglash. Bu shaxsning obyektiv voqelikka nisbatan turli darajada va shakllarda ifodalanadigan xatti-harakati, histuyg‘ulari, fikr-o‘ylari, manfaati, o‘zi a’zo bo‘lgan eng oddiy guruhdan insoniyat va jamiyatgacha bo‘lgan barcha bosqichlardagi

o‘rni va hokazolarni bilib olganligidir. Buning natijasida shaxsning turmush faoliyatini oqilona boshqarish yo‘lga qo‘yiladi. O‘z navbatida o‘z-o‘zini boshqarish negizida shaxsning o‘zini takomillashtirish, ro‘yobga chiqarish ta’minlanadi.

Bunda shaxs faoliyati, ma’naviy olami tahlil obyekti sifatida olinsa – bu refleksiyadir (lotincha: orqaga qarash). Unda shaxs o‘z ma’naviyatining o‘ziga xos jihatlarini bilishi, o‘z harakatlarini mulohaza qilishga, baholashga intilishini ifodalaydi.

Shaxs o‘zining tabiati, uni o‘rab turgan olamning mohiyati, mazmuni va holati jihatidan ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan, e’tiqodga aylangan, turmush ehtiyojlari bilan uzviy bog‘langan nazariy qarashlarning umumiy ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Dunyoqarash, eng avvalo olam haqidagi yaxlit bilimdir. Shaxs bilish jarayonida o‘z faoliyatini namoyon etib, dunyoqarashida voqelikni nafaqat qanday bo‘lsa o‘shanday aks ettiradi, balki uni muayyan tarzda baholaydi. Demak, shaxsning bilimi uning ma’naviy dunyosini boyitadi, bilim-baho va bilim-munosabat esa uning ijtimoiy mavqeyi va turmush tamoyillarini shakllantirishga ko‘mak beradi. Bulardan ko‘rinadiki, shaxs dunyoqarashi faqatgina bilimlardan iborat bo‘lmay, balki uning voqelikka munosabatini ifodalaydigane’tiqodlar tizimi hamdir. Shaxs dunyoqarashi fanga muvofiq, mantiqan izchil, taraqqiyparvar, aql tarozisidan o‘tgan (ratsional) yoki fanga zid (irratsional), reaksion bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiylashuv tufayli inson shaxsi o‘z sifatlarini namoyon etib, turmush sharoitini o‘zi yaratadigan mehnatkash, mol-u mulk egasi, moddiy va ma’naviy qadriyatlar iste’molchisi, siyosiyhuquqiy jarayonlar ishtirokchisi bo‘lgan fuqarolar hamda sotsiumning ilk barqaror bo‘g‘ini bo‘lgan oila a’zosi vazifalarini ado etishga qodir bo‘ladi.

Begonalashuv. Shaxsni ifodalaydigan muhim jihatlardan ayrimlari ma’lum shart-sharoitlar ta’sirida shaxsning o‘ziga, tabiatiga zid sifatlarda

yuzaga kelishi mumkin. Natijada shaxsiy yaxlitlikda u o‘z imkoniyatlarini to‘la-to‘kis namoyon qila olmaydi. Boshqacha qilib aytganda shaxsning o‘z-o‘zidan begonalashuvi jarayoni boshlanadi. Huquqshunoslikda mulkning egasidan boshqa birovga o‘tishi begonalashuv hisoblanadi. Shaxsdagi begonalashuv esa uning o‘z shaxsiy qadriyatlaridan sharoit va muhit taqozosi bilan ayrilishini bildiradi.

Shaxsdagi ikkiga bo‘linganlik muayyan sivilizatsiya chegarasida namoyon bo‘lib, sotsium a’zolarining o‘z faoliyati natijasidan bexabar bo‘lib, begonalashib qolishiga olib keladi. Bu o‘z navbatida, shaxs erkinligi holatlariga ta’sir etmasdan qolmaydi.

Xo‘sh, shaxs erkinligini cheklaydigan begonalashuv nimalardan iborat? Dastavval bu hodisa shaxsni ojiz etib qo‘yishida, uning taqdirini begona kuchlar belgilayotganligida, so‘ngra, shaxs hayotining ma’nosizligi, u yoki bu xatti-harakati doimo nooqilona natijalarga olib kelishi to‘g‘risidagi tasavvurlarda, yana, shaxsni o‘rab turgan voqelikdagi oqilona aloqalarning barbod bo‘lganligini idrok qilishda ko‘rinadi. Shaxs «MEN»i o‘zligini yo‘qota boshlaydi.

G‘arbning ko‘pgina mutafakkirlari begonalashuv hodisasini hozirgi sanoatlashgan sotsiumning o‘tmishdagi an’anaviy jamiyatlarga qarama-qarshi ekanligidan va buning natijasida individlarning ilgari amalda bo‘lgan birdamliklarining barham topishi, shaxsiyatparastlik ko‘lamining oshib ketishi, boshqaruvda to‘rachilikning kengayib ketishi, texnikaning inson ustidan hukmronlik qilishi va hokazo jihatlariga e’tiborni qaratadilar.

Kishilarning ongli mavjudotligi va sotsiumda ham ruhiyatning o‘rni katta ekanligiga asoslanib begonalashuvni oqilona bartaraf etishning ko‘plab nazariyalari yaratilgan. Afsuski, hozirgacha katta da’volar bilan maydonga chiqqan ko‘plab ijtimoiy qarashlar o‘ziga bildirilgan ishonchni oqlamadi.

Xo‘sh, bundan begonalashuv shaxs peshonasiga yozilgan azaliy holat ekan-da, degan ma’no kelib chiqadimi? Albatta, yo‘q.

Hozirgi vaqtda insoniyat yagona kelajak, yagona taqdir masalalarida, aytish mumkinki, bir to‘xtamga kelmoqda. Yer yuzidagi davlatlarning kuch-g‘ayratlarini birlashtirib jahon yagona hamjamiyati sari yo‘l tutish doirasida har bir mamlakatda huquqiy davlat qurish va uni demokratik boshqarish inson shaxsi erkinligini ta’minlashi mumkin, deyishga asos bor.

Erkinlikning mohiyati. Erkinlik butun ijtimoiy tarix davomida insoniyat va inson shaxsi hayotining dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Chunki, erkinlik ijodiy, yaratuvchi, faol, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi sari harakat qiluvchi insonning ehtiyoji bo‘lib, uning tabiati bilan bog‘liqdir.

Inson hayoti g‘oyat murakkab aloqadorliklar va o‘zaro bog‘liqliklar orqali kechishi, munosabatlari g‘oyat xilma-xil sohalarda namoyon bo‘lishi tufayli uning erkinligi ham ko‘p qirrali. Dastavval buni so‘z erkinligi,

shaxsning tanlov erkinligi, diniy e'tiqod erkinligi va hokazolarda ko'rish mumkin.

Zaruriyat. **Erkinlik** nima? — degan savolga berilgan javoblar ichida dastavval uni voqelik — olam rivojlanishining zaruriy jihatlari bilan bog'lash ko'zga tashlanadi. Darhaqiqat, zaruriyatning o'zi nima? Zaruriyat deganda uni taqdir taqozosi (diniy qarashlar), voqelik rivojlanishining pirovard natijada qonuniy, zaruriy holda yuz berib, o'ziga yo'l topib olishi (materialistik, deterministik qarashlar), ma'naviy rivojlanish ifodasi, (turli ruhshunoslik va subyektiv yo'nalishdagi qarashlar) kabi tarzlarda talqin etiladi. Bu qarashlarda, albatta, muammoning muayyan jihatlari o'z ifodasini topgan. Lekin shuni alohida aytish kerakki, masala antinomiya (qonundagi ziddiyatlilik) ko'rinishida qo'yilmasligi lozim. Balki masala erkinlik va zaruriyat birligida, ular nisbatining eng umumiy jihatlarini aniqlash tarzida olinishi mumkin. Bu esa aniq tarixiy yondashuvni taqozo etadi.

Shaxsning tanlov erkinligi. Shaxsning maqsadga muvofiq faoliyati jarayonida uning erkinligi turli bosqichlarni — erkinlikni subyektiv anglab olishdan tortib, to uni obyektiv amalga oshirishgacha bo'lgan bosqichlarni bosib o'tadi. Chunonchi shaxs o'z faoliyati natijasini oldindan belgilab olish imkoniyatiga ham ega. Chunki har qanday aniq vaziyatda ham bir nechta imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Aks holda, ya'ni oqilona muqobillik yetishmay turganda ham shaxs o'z erkinligi doirasida yuz berishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlardan o'zini chetga oladi. Shaxsning tanlov erkinligini, insoniyat dunyosida tutgan o'rnini jonli tabiatdagi obyektiv saralanish bilan qiyos etish mumkin. Biroq, bular o'rtasida ma'lum farqlanishlar ham bor. Tabiiy saralanish bu — obyektiv jarayon. Insonning tanlov erkinligi esa amaliy xususiyatlar ifodasi bo'lib ham subyektiv, ham obyektiv tabiatga ega. Tanlov istagan joyida yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar o'rganilishi, o'zlashtirilishi va ijodiy takomillashtirilishi mumkin.

Inson shaxsining bu jihati faqat individual tabiatga ega bo'lmay, balki keng ijtimoiy mazmunga ham ega. Ya'ni, shaxslargina emas, balki katta yoki kichik el-elatlar, millatlar va xalqlar ham taqdirlariga tegishli hollarning barchasida ijtimoiy tanlov erkinligiga egadir. Lekin bular shaxs va ijtimoiy kuchlar sof subyektivligining natijasi emas, balki pirovardida obyektiv taqozolaganligi oqibatidir.

Shaxs erkinligi individual sezgi, subyektiv erkinlik sifatida tanlov qilishdan boshlasa-da, insonning tabiatan faolligi tufayli yuqoriroq bosqichlarda — maqsadga erishish uchun tanlangan vositalarni ishlatib, muayyan xatti-harakatlar qilishda (obyektiv erkinlikda) nihoyasiga yetadi.

Erkinlikning subyektiv va obyektiv ifodalanishlarida undagi ichki va tashqi tomonlarning xususiyatlari, o'zaro bog'liqligi va muhim farqlarni payqash qiyin emas.

Shaxs erkinligining ichki tomoni belgilovchi va tuzilishiga ko‘ra ancha murakkab bo‘lib, asosiy unsurlar sifatida maqsad va vositalarni tanlash, amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan vaziyatlarni bilishni, bu bilingan, o‘zlashtirilgan tashqi zaruriyatni ichki e’tiqod bilan muvofiqlashtirib olish va, nihoyat, o‘zligini to‘la namoyon etish kabilarni o‘z ichiga oladi. Bular alohida olinganda ham, birgalikda olinganida va nisbiy mustaqil tarzda ham mavjud.

Demokratiya. Shaxs mohiyatining ko‘pgina muhim qirralari, uning tabiatidagi qator jihatlari, imkoniyati, bajarishi lozim bo‘lgan vazifalari va hokazolar qadimgi davrlardan boshlab insoniyatning butun tarixi davomida kishilar hayoti jamiyat tarzida qanday tashkil qilinganiga, siyosiy hokimiyatning o‘rniga hamda amaldagi huquqiy tizimlar qay tarzda mavjudligiga bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda shaxs jamiyatning demokratiyaviylik darajasiga bog‘liq holda shakllanadi.

Demokratiyaning ilk ko‘rinishlari sivilizatsiya tongidayoq qaror topgan bo‘lib, insoniyatning buyuk qadriyati hisoblanadi. Biroq, insoniyat rivojlanishining butun bosqichlarida demokratiya yo sahnadan ancha vaqtda tushib ketib, yo qisqa vaqtda tiklanib, mutafakkirlarning o‘y-fikrlari markazida inson bilan inson, inson bilan jamiyat uyg‘unligini ta’minlaydigan ijtimoiy muhit shakllarini topishga urinish yotadi. Sharq uyg‘onish davrida Forobiy va boshqalar antik davrning demokratiyaga doir qarashlarini rivojlantirib, ancha ilgarilab ketgan edilar. Movarounnahrda jamiyatni, kishilar hayotini tashkil etish va boshqarishning o‘z davri uchun tipik jihatlari dastlab Xorazmshohlar, keyinroq Amir Temur davrida rivoj topdi. Bularda (masalan, «Temur tuzuklari»da) jamiyat va shaxsning siyosiy huquqiy maqomlari aks etgan edi.

Konstitutsiyaviy erkinliklar. Shaxs erkinliklari, uning davlat oldidagi burch va majburiyatlari demokratiyaviy konstitutsiyalarda qonunlashtirilgan bo‘ladi. Unda, birinchi navbatda, xalqning xohish-irodasi erkin ifodalanishi, shu xalqning hokimiyat manbayi ekanligi o‘z aksini topadi. Shuning uchun ham xalq davlat uchun emas, davlat xalq uchun xizmat qilishi lozim.

Konstitutsiyada shaxsning vijdon erkinligi, so‘z erkinligi, mulkiy daxlsizligi va hokazo huquqlari aks etgan bo‘lib, ularda inson borlig‘ining asosiy shartlari qamrab olinadi. Davlat iqtisodiyot, siyosat va ma’naviyat sohalarida o‘z manfaatlari talablariga ko‘ra qanday qonun-qoidani ishlab chiqib kuchga kiritmasin, bu mamlakat asosiy qonuniga, shaxsning unda belgilab qo‘yilgan maqomiga zid kelmasligi kerak. Har qanday demokratik davlatda shaxs maqomi faollikni nazarda tutadi. O‘zining faolligi tufayli shaxs mavjud siyosiy institutlar yordamida jamiyatga muntazam ta’sir ko‘rsata oladi. Bunda taqiqlanmagan barcha harakatlarga yo‘l qo‘yiladi. Shaxsning jamiyatga ko‘rsatadigan ta’siri parlament demokratiyasi yo‘li bilan olib borilganda maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari

1. Jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti deganda nimani tushunasiz?
2. Tarix falsafasining mohiyati.?
3. Madaniy-ma'naviiy, iqtisodiy soxalarning jamiyat hayotidagi ahamiyati nimada.
4. Hozirgi zamon umumbashariy muammolari, ulrani hal etish yo'llari va istiqbollari qanday?
5. Sizningcha jamiyat taraqqiyotini oldindan ko'ra bilishni mohiyati nimadan iborat.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Jamiyat falsafasi, jamiyatni anglash haqida referat tayyorlang.
2. Falsafada inson muammosi to'g'risida ma'lumotlar to'plang va tushuntiring.
3. Jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlar haqida berilgan fikrlarni kursdoshlaringizga aytib bering.

IX BOB. INSON FALSAFASI (FALSAFIY ANTROPOLOGIYA)

9.1. Inson falsafiy muammo sifatida. Inson borlig‘ining o‘ziga xos xususiyatlari.

9.2. Falsafiy antropologiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi.

9.3. Ongning tabiati, strukturasi va funktsiyalari.

9.4. Hayotning mazmuni va unda insonning vazifasi.

9.5. Inson borlig‘ida faoliyatining tuzilishi va atributlari. Faoliyatni tashkil qilishda huquq va axloq uyg‘unligi.

Tayanch tushunchalar: odam, inson, shaxs, jamiyat, madaniyat, antroposotsiogenez, axloq, ma’naviyat, ong, inson borlig‘i, o‘zlikni anglash.

9.1. Inson falsafiy muammo sifatida. Inson borlig‘ining o‘ziga xos xususiyatlari

Falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, inson moddiy va ma’naviy borlig‘ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf yoki falsafiy yo‘nalishni topish deyarli mumkin emas. Aksariyat falsafiy va diniy tizimlar katta olam yoki makrokosmga zid o‘laroq, insonga mikrokosm yoki kichik Koinot sifatida qarab, uni butun olamni tushunish kaliti deb hisoblaganlar. Faylasuflar inson sirining tagiga yetish borliq jumbog‘ining tagiga yetish bilan barobar ekanligini qayta-qayta anglab yetganlar.Zero Forobiy aytganidek -”Odamlar o‘zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko‘ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe’llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyatlar belgilaydi”. O‘z-o‘zingni angla va shu orqali dunyoni anglaysan. Dunyoni insonning teran qatlamlariga kirmasdan sirtdan bilishga bo‘lgan barcha urinishlar narsalar haqida faqat yuzaki tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Insondan sirtga qarab yuradigan bo‘lsak, narsalar mohiyatini Hech anglay olmaymiz, zero bu mohiyat insonning o‘zida mujassamlashgan.

Bu fikr qadimgi mutafakkirlargayoq yaxshi ma’lum bo‘lgan. Unga turli ko‘rinishlarda Sharqda ham, yunon-rim falsafiy an’anasida ham duch kelish mumkin. Xususan, antik davrda Delfidagi Apollon ibodatxonasiga kiraverishda ustunga o‘yib yozilgan, rivoyatlarga qaraganda Suqrot takrorlashni yaxshi ko‘rgan «O‘z-o‘zingni angla», degan ibora ayniqsa mashhur bo‘lgan. Ajablanarlisi shundaki, oradan ikki yarim ming yil vaqt o‘tgach, hozir ham bu fikr o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. U nafaqat narsalar dunyosini, balki inson borlig‘ining mohiyatini, inson va ijtimoiy munosabatlarning asl tabiatini tushunishga harakat qilayotgan har bir odam uchun o‘z-o‘zini anglashga chorlovchi fikr bo‘lib qolmoqda. Buni faqat shu bilan izohlash mumkinki, ayni holda har bir yangi avlod o‘z davri hamda

tabiiy-ilmiy va falsafiy tasavvurlarning tegishli darajasi nuqtai nazaridan yechishga harakat qiladigan o‘ta murakkab, «boqiy» falsafiy masalalardan biri to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Tarixga boshqa ko‘p sonli iboralar ham ma’lum bo‘lib, ular vaqt, madaniyat va diniy e’tiqoddan qat’iy nazar, inson barcha zamonlarda butun dunyo mutafakkirlarining diqqat markazida bo‘lgani va hozir ham shunday ekanligi, tayanch nuqtasi va hatto bilish mezoni bo‘lib xizmat qilishidan dalolat beradi. Xususan, qadimgi xitoy faylasufi Lao Szi fikriga ko‘ra, «boshqalarni biluvchi – oqil, o‘zini biluvchi – donishmanddir». Protagorning: «Inson barcha narsalar mezonidir», degan fikri ham juda mashhur. «Tangri saltanati bizning ichimizdadir», deb o‘rgatgan Iso Masih. Buddaviylarning: «O‘zligingga nazar tashla, sen Buddasan», degan chorlovi ham yuqoridagi fikr bilan hamohangdir. Islomda «Kimki o‘zini bilsa, u o‘z Allohni ham bilgaydir», deyiladi.

Demak, inson o‘zini dunyodan oldinroq va ko‘proq biladi, ayni shu sababli u dunyoni o‘zidan keyin va o‘zi orqali anglab yetadi. Falsafa dunyoni inson orqali ichdan bilishdir, fan esa insondan tashqaridagi dunyoni yuzaki bilish demakdir. Insonda mutlaq borliq, insondan tashqarida esa – nisbiy borliq namoyon bo‘ladi.

Falsafa tarixida inson muammosi. Antik davrdan boshlab insonga bo‘lgan qiziqish dam kuchayib, dam ma’lum vaqt pasayib turgan, lekin Hech qachon yo‘qolmagan. «Inson nima?», degan savol bugungi kunda ham avvalgidek jahon falsafasidagi o‘ta muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda, insoniyatning eng o‘tkir aql-zakovat sohiblari e’tiboridan tushmay va ayni vaqtda o‘zining uzil-kesil, umumiy e’tirof etilgan yechimini topmay kelmoqda.

Inson har safar mutafakkirlar diqqat markazidan o‘rin olar ekan, uning mohiyatini yangi tarixiy sharoitda va yangicha nuqtai nazardan anglab yetishga harakat qilib, uni qayta va qayta yangidan kashf etganlar. Pirovardida, falsafa fanida insondan murakkabroq va ziddiyatliroq predmet yo‘q, desak, Hech mubolag‘a bo‘lmaydi.

Inson barcha yaxshi fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan o‘ziga xos, betakror va barkamol mavjudot – cheksiz mikrokosm sifatida ham, inson tabiatining norasoligi va buzuqligi tufayli haloqatga mahkum bo‘lgan tabiat xatosi sifatida ham, Xudo yaratgan banda sifatida ham, boshqa odamlar faoliyatining mahsuli sifatida ham talqin qilinadi. Xususan, Sharq mutafakkiri A.Beruniy jahon fanida birinchi marta inson va tabiat, odam va olam o‘rtasidagi munosabatlarni dunyoviy fan nuqtai nazaridan o‘rganadi. U “odamlar tuzilishining rang, surat, tabita va axloqda turlicha bo‘lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning, odam yashaydigan joylarning turlichaligi hamdir. Tillarning turlicha bo‘lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan

uzoq turishi, ularning har birida turli hoxishlarni ifodalash uchun zarur bo‘lgan so‘zlarga ehtiyoj tug‘ilishidir. Uzoq zamonlar o‘tishi bilan bu iboralar ko‘payib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan”, deb hisoblaydi.

Shunday qilib, falsafaning ikki yarim ming yillik tarixi mobaynida insonga juda ko‘p ta’riflar va tavsiflar berildi, u ko‘p sonli sinonimlar orttirdiki, falsafiy tahlilning boshqa biron-bir obyektida bunday holga duch kelish mushkul. Zero, falsafa tarixida inson:

- «aqlli mavjudot»;
- «siyosiy hayvon»;
- «tabiat gultoji»;
- «hayotning boshi berk ko‘chasi»;
- «hayotning soxta qadami»;
- «mehnat qurollari yasovchi hayvon»;
- «o‘zlikni anglash qobiliyatiga ega mavjudot»;
- «ma’naviy va erkin mavjudot» va hokazolar sifatida talqin qilingan.

Fikrlarning bunday rang-barangligi sababini, avvalo, insonning o‘z tabiatidan izlash lozim. Inson tabiatining siri, Hech shubhasiz, «boqiy muammolar»dan biri bo‘lib, falsafa o‘z predmetining mohiyati va xususiyatiga ko‘ra unga qayta-qayta murojaat etgan va shunday bo‘lib qoladi. Bu yerda mazkur sohadagi barcha fikr-mulohazalarga mo‘ljal beruvchi insonning kelib chiqishi haqidagi masala ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Inson qayerdan va qanday paydo bo‘lgani haqidagi ko‘p sonli g‘oyalar orasidan eng muhimlarini ajratib olsak, ularning barchasini ma’lum darajada shartlilik bilan ikki asosiy konsepsiya – insonning tabiiy va g‘ayritabiiy kelib chiqishi haqidagi konsepsiyalar doirasida birlashtirish mumkin.

Insonning kelib chiqishi haqidagi birinchi yondashuv insonning paydo bo‘lishiga olib kelgan tabiatning qonuniy rivojlanishi g‘oyasidan kelib chiqadi. Bunda inson jonsiz, keyinchalik esa – jonli moddaning tabiiy evolyusiyasi mahsuli sifatida qaraladi. Mazkur konsepsiya 1859 yilda inson kelib chiqishining tabiiy-ilmiy talqiniga asos bo‘lgan Ch.Darvinning «Hayvon va o‘simlik turlarining kelib chiqishi haqida» deb nomlangan mashhur asarini e’lon qilgan evolyusion nazariyasiga tayanadi va hozirgi vaqtda molekulyar biologiya va gen injeneriyasi sohasida erishilgan eng so‘nggi yutuqlar ta’sirida o‘z shakl-shamoyilini sezilarli darajada o‘zgartirib, aksariyat olimlar uchun ularning ilmiy faoliyatida o‘ziga xos dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yana shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, insonda nafaqat o‘ta rivojlangan tirik jonzotlar, balki o‘ta sodda mavjudotlar bilan ham kuchli genetik o‘xshashlik mavjud. Xususan, shimpanze bilan bunday o‘xshashlik

98% ni, kalamush bilan – 80% ni va hatto banan bilan – 50% ni tashkil etadi.

Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, «tabiiy» yondashuv tarafdorlari inson kelib chiqishining dunyoviy konsepsiyasiga ham (masalan, darvinchilar bilan bog'liq holda bo'lganidek), kosmik konsepsiyasiga ham tayanishlari mumkin.

Ikkinchi yondashuv insonga, Xudo yoki kosmik Aql mehnatining mahsuli sifatida qarab, uni g'ayritabiiy asosdan keltirib chiqaradi. Garchi bu konsepsiya isbotlanganlik jihatidan birinchi ta'limotga hozirgi zamon tabiatshunosligi nuqtai nazaridan yon bersa-da, lekin falsafiy nuqtai nazardan u insonning tabiiy-ilmiy kelib chiqishi konsepsiyasi kabi mavjudlik huquqiga egadir, zero birinchi yondashuv ham, ikkinchi yondashuv ham oqilona asoslangan va uzil-kesil dalil-isbotlar keltirmaydi.

Insonga falsafa nuqtai nazaridan yondashuv. Biz insonga nisbatan sof falsafiy yondashuvga hali qaytamiz va falsafa inson bilan qancha shug'ullanmasin, u haqda hamma narsani bilishi va mazkur bilimni uzil-kesil va eng so'nggi haqiqat deb hisoblashi mumkin emasligini ko'rsatib beramiz. Hozir esa shuni qayd etishni istar edikki, o'zi haqida va o'zini qurshagan dunyo haqida inson falsafa paydo bo'lishidan ancha oldin mulohaza yurita boshlagan. Ammo keyinchalik, «donolikka muhabbat» paydo bo'lgach ham, inson mavzusi falsafaning diqqat markazidan darhol o'rin olgani yo'q.

Insonni qurshagan tabiat haqida bilimlar to'planishi va ularning rivojlanishiga qarab, odamzotning o'z-o'ziga bo'lgan qiziqishi ham kuchayib bordi, inson borlig'ining bu sohadagi tadqiqotlar uchun yanada kengroq imkoniyatlar yaratuvchi yangi va yangi o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Odatda, jamiyat hayotida tarixan qisqa vaqt ichida jiddiy va teran o'zgarishlar yuz bergan, insoniy munosabatlar negizini tashkil etuvchi eskicha tasavvurlar va qarashlar ta'sirida butunlay o'zgargan davrlarda insonga bo'lgan falsafiy qiziqish ayniqsa kuchaygan. Bunday davrlarda falsafada insonning mohiyati, uning burchi, vazifasi va yuz berayotgan voqyealar uchun javobgarligi haqidagi azaliy masalalarga bo'lgan qiziqish yana kuchaygan. Shunday qilib, falsafaning ontologiya, gnoseologiya, etika, estetika kabi bo'limlari bilan bir qatorda, inson haqidagi bilimlar sohasi asta-sekin shakllanib bordi. Bu yerda inson nafaqat turli tomonlardan tahlil qilindi, balki uning ijtimoiy, tabiiy va kosmik jarayonlar bilan o'zaro aloqalari ham o'rganildi.

Xo'sh, bilimning bu sohasida asrlar mobaynida qanday ijobiy bilimlar to'plangan? Insonni tushunish borasida taraqqiyotga erishildimi? Falsafa va fan sohasida erishilgan insonning mohiyatini tavsiflovchi, uning muhim xususiyatlarini yoritib beruvchi qanday shak-shubhasiz yutuqlarni qayd etish mumkin?

Insonni bilish borasidagi ko‘p asrlik sa’y-harakatlarni bir yerga jamlab, ularning orasidan uzil-kesil yechilgan deb hisoblash mumkin bo‘lganlarini ajratib olsak, shak-shubhasiz yutuqlar soni uncha ko‘p bo‘lmaydi. Ular orasida avvalo shu dalilni qayd etish lozimki, insonning paydo bo‘lishi Yerda hayotning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u o‘z ibtidosi va muayyan tarixiga egadir. Xususan, 1982 yil Vatikandagi Rim Papasi fanlar akademiyasi tashkil etgan kongress ishtirokchilari – dunyoga mashhur antropologlar, bioximiklar va genetiklar hozirgi zamon tabiatshunosligiga tayanib, inson va hayvonot dunyosi o‘rtasida yaqin aloqa mavjud, degan umumiy xulosaga keldilar.

Inson va uni qurshagan dunyo tadrijiy rivojlanishini isbotlangan deb hisoblash mumkin. Bu nafaqat arxeologiya va Yer geologik tarixi bilan tasdiqlanadi, balki Yerdagi hayotga doir hozirgi tasavvurlardan va umumiy e’tirof etilgan «kengayib boruvchi Olam» nazariyasi tushuntiradigan dunyodagi evolyusion jarayonlardan ham kelib chiqadi.

Biroq fan, ayniqsa genetika ba’zan bizning avvalgi tasavvurlarimizni butunlay o‘zgartiradigan yangi kashfiyotlar qilishda davom etmoqda. Xususan, jonli mavjudotlarning biologik nusxalarini yaratish imkoniyatini beruvchi klonlash ketidan genetiklar, shov-shuvga sabab bo‘lgan eng so‘nggi xabarlarga ko‘ra, qadimgi faylasuflarning ilgari faqat odatdagi tajribaga tayangan o‘lmaydigan odam yo‘qligi haqidagi taxminiy (induktiv) xulosani jiddiy shubha ostida qoldirishga qodir natijaga yaqinlashdilar. Jumladan, italyan olimlari sut emizuvchilarning qarish jarayonini sifatida ma’lum bo‘lgan alohida gen boshqarishini aniqladilar. Ular mazkur genni «nazorat osti»ga olish va shu tariqa sinalayotgan hayvonlar umrini populyasiya bo‘yicha umrning o‘rtacha uzunlik ko‘rsatkichiga nisbatan 35% ga uzaytirishga muvaffaq bo‘ldilar.

Shunga qaramay, bugungi kunda jismoniy umrboqiylik ilmiy nuqtai nazardan biologiyaning fundamental qonunlariga zid hisoblanadi. Bu qonunlarga muvofiq hujayralarning bo‘linish yo‘li bilan ko‘payish qobiliyatining susayib borishi inson hayotini cheklaydi. Xususan, insonning yetuk organizmi taxminan 50 000 milliard hujayradan iborat ekanligi aniqlangan. «Odamda uning umri mobaynida bir hujayra avlodida ketma-ket bo‘linishlar soni elliktagacha bo‘ladi. Bo‘linish jarayonlari maromini hisobga olganda, shuni taxmin qilish mumkinki, inson umrining uzunligi (ba’zi bir istisno hollardan tashqari) 110 yoshdan oshishi mumkin emas».

Biroq fan bir joyda to‘xtab turgani yo‘q va shu bois matbuotda vaqti-vaqti bilan paydo bo‘layotgan genetik olimlarning hujayra qarishini to‘xtatadigan moddani topish, shuningdek organizmda mazkur moddaning ajralishini boshqaradigan genni aniqlash borasidagi urinishlari haqidagi xabarlar o‘ziga jiddiy e’tibor berishni talab qiladi.

Inson nima va uning mohiyati qanday degan savollarga javob topish uchun yo‘l ochadigan ba’zi bir muhim muammolarning ta’riflanishini ham ilmiy tadqiqotlarning shak-shubhasiz natijasi deb hisoblash lozim. Ularning eng muhimi – insonning kelib chiqishi, shuningdek ong, til, ijod, axloq, ma’naviyat va shu kabilarning tabiatini aniqlashdir.

Ko‘rsatilgan muammolarni anglab yetishga ahd qilgan har qanday odam,

- hayot nima?
- birinchi odam qayerda va qachon paydo bo‘lgan?
- inson ma’naviyatining tabiati qanday?
- Yerda inson paydo bo‘lishining sababi nimada?
- bunda muayyan mantiq, qonuniyat, azaldan belgilangan muqarrarlik mavjudmi yoki bunga qandaydir tasodif, anomaliya, kimningdir xohish-istagi sabab bo‘lganmi?
- hayot kosmik hodisami yoki faqat bizning sayyoramizda mavjudmi?
- inson butun Koinotdagi birdan-bir aqlli mavjudotmi?, kabi masalalarni e’tibordan chetda qoldirishi mumkin emas.

Bu va boshqa shunga o‘xshash masalalar yechimini topish ustida falsafiy tafakkur ham, ilmiy tafakkur ham tinimsiz izlanadi. Ammo tabiatshunoslik uchun ularning aksariyati nafaqat mushkul, balki yechib bo‘lmaydigan, ba’zi bir hollarda esa umuman ochiq masalalar hisoblanadi, chunki ular xususida mavjud bilimlar shu qadar oz, yuzaki va muammolarga to‘laki, bunday bilimlarga asoslangan mulohazalar (boshqacha mulohazalar umuman mavjud emas) o‘zining ishonchlilik darajasiga ko‘ra taxminiy xususiyatga ega bo‘lishi mumkin.

9.2. Falsafiy antropologiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi

Yunoncha sophia – donishmandlik, anthropos – inson va logos – ta’limot so‘zlaridan kelib chiqqan «falsafiy antropologiya» atamasi etimologik jihatdan inson haqidagi falsafiy ta’limotni anglatadi. Falsafiy antropologiya insonning alohida borliq manbai sifatida kelib chiqishi, tadrijiy rivojlanishi va mavjudligining o‘ziga xos xususiyatlariga doir falsafiy qarashlarni aks ettiradi.

Yuqorida qayd etilganidek, inson haqidagi falsafiy ta’limotlar qadimda vujudga kelgan va butun falsafa tarixi orqali o‘tadi. Konfusiy, Suqrot, Geraklit, stoiklar, kiniklar, Avgustin, Foma, Forobiy, Ibn Sino, A.Navoiy, A.Jomiy, Dekart, Russo, Kant, Feyerbax, Nisshe va boshqalar insonning falsafiy, nazariy obrazini yaratib, falsafiy antropologiya falsafiy bilimning mustaqil bo‘limi sifatida vujudga kelishi uchun zamin hozirladi.

Shu ma’noda falsafiy antropologiyaning ilk ildizlariga XVIII asr fransuz materialistlarining asarlarida duch kelish mumkin. Ammo Kant,

shuningdek, insonning mohiyati muammosini falsafaning «birdan-bir, universal va oliy» predmeti darajasiga ko‘taruvchi antropologik tamoyillarni falsafaga kiritgan va asoslab bergan Feyerbax sa’y-harakatlari bilan falsafiy antropologiya mustaqil falsafiy fan sifatida shakllana boshladi.

Falsafiy antropologiya XX asrning 20-yillarida asosan M.Sheler, A.Gelen, X.Plesner asarlari ta’sirida uzil-kesil vujudga keldi. Xususan, M.Shelerning «Insonning kosmosdagi o‘rni» asarida inson haqida fundamental fan yaratish lozimligi qayd etiladi va uni falsafiy bilish dasturi taklif qilinadi. Muallif fikriga ko‘ra, insonni yaxlit falsafiy bilish inson borlig‘ining turli jabhalariga nisbatan olingan muayyan ilmiy natijalar bilan birikishi lozim.

M.Sheler falsafiy antropologiya insonning yaxlit konsepsiyasini yaratib, uni muayyan ilmiy, falsafiy va diniy jihatdan anglab yetishda birlashtiruvchi rol o‘ynashi lozim, deb hisoblaydi. U «Falsafiy antropologiyaning vazifasi insonning barcha o‘ziga xos monopoliyalari, ishlari va amallari: til, vijdon, asboblar, qurol... davlat, rahbarlik, mif, din, fan... inson borlig‘ining asosiy strukturasidan qanday kelib chiqishini aniq ko‘rsatib berishdan iboratdir»[13], deb qayd etadi.

Falsafiy antropologiya fanining mohiyati. Inson haqidagi bilimlarni birlashtirish lozimligi xususida Shelerdan oldinroq ham so‘z yuritilgan edi. XIX asr o‘rtalariga kelib inson o‘ta murakkab struktura ekanligi, uni faqat falsafa yoki boshqa biron-bir muayyan fan metodlari bilan to‘la anglab yetish mumkin emasligi, ya’ni inson jamuljam holda aniq bilim predmeti bo‘la olmasligi aniq-ravshan bo‘lib qoldi. Shuningdek, ayrim tabiiy fanlar, har biri o‘z sohasida, vaqt o‘tishi bilan umumiyroq xulosalarga kelishni talab etuvchi salmoqli material to‘pladi.

Bunday umumlashtirishga ehtiyoj Darvinning evolyusion nazariyasi paydo bo‘lishi bilan ayniqsa bo‘rtib ko‘rina boshladi. Bu nazariya insonga oid tabiiy-ilmiy tadqiqotlarga kuchli turtki berdi, shuningdek materialistik falsafiy konsepsiyalar rivojlanishi uchun qo‘shimcha asos bo‘lib xizmat qildi.

Mazkur yondashuv tarafdorlari inson ko‘p o‘lchovli va muttasil o‘zgaruvchi mavjudot ekanligidan kelib chiqadi. Garchi uning muhim xususiyatlari ming yillar mobaynida o‘zgarishsiz qolayotgan bo‘lsa-da, ular insonning mohiyatini to‘la namoyon etmaydi. Bu yondashuv tarafdorlari inson o‘z oldiga yangi va yangi jumboqlar qo‘yayotgan, tashqi dunyoni, o‘zining undagi o‘rnini aniqlashga harakat qilayotgan, atrof muhitni o‘rganish orqali uni o‘z ixtiyoriga ko‘ra o‘zgartiradigan faol asos sifatida amal qiladigan mikrokosm hisoblanishiga ham e’tiborni qaratmoqdalar.

[13] Шелер М. Избранные произведения. – М.: 1994. –С. 187.

Boshqacha aytganda, inson bunyodkor va ayni vaqtda madaniyat mahsuli, o‘zini qolgan jonli dunyodan farqlash imkonini beruvchi ma’naviyat manbaidir.

Falsafiy antropologiya tarafdorlari insonning mazkur talqinidan kelib chiqib, bu fan izchil ilmiy qarashlarni ilgari surishga da’vogar bo‘la olmasligini va ayrim fanlar: psixologiya, sosiologiya, biologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning turli yondashuvlari va xulosalarini sintezlovchi inson haqidagi bilimlar tizimini yaratishga qaratilishi lozimligini qayd etmoqdalar. Ularning fikricha, bu fan o‘z predmeti sifatida inson borlig‘ini belgilaydi, uning mohiyatini va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil etib, shu tariqa insonning o‘zini ham, uni qurshagan dunyoni ham falsafa nuqtai nazaridan anglab yetishga harakat qiladi. «Antropologiya yoki aniqroq aytganda – antropologik ong nafaqat ontologiya va kosmologiyaga, balki gnoseologiya va bilish falsafasiga, har qanday falsafa va har qanday bilishga zamin yaratadi»[14].

XX asrning 60-70-yillarida falsafiy antropologiya shunday bir g‘oyaviy harakatga aylandiki, uning doirasida olimlar insonning hozirgi holatini nazariy jihatdan anglab yetish va talqin qilish, uning tabiatiga nisbatan yangicha yondashuvni ilgari surishga harakat qildilar. Bu davrda yuz bergan fan-texnika taraqqiyoti va insonning o‘z ilmiy va amaliy faoliyati natijalari uchun javobgarlik tuyg‘usining kuchayishi falsafiy antropologiyaning rivojlanishiga qo‘shimcha turtki berdi. Shunday qilib, u endi inson haqidagi bilimlarning umumiyroq majmui – umumiy antropologiyaning tarkibiy qismiga aylandi. Bu fan turli-tuman ta’limotlar, konsepsiyalar va yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladiki, ularning orasida falsafiy yo‘nalishdan tashqari biologik, teologik (diniy), sosiologik, psixologik, madaniy (etnografik), strukturalistik, pedagogik va boshqa yo‘nalishlarni qayd etish mumkin.

Ularning har biri, falsafiy yo‘nalishdan farqli o‘laroq, insonning muayyan bir tomonini yoritadi. Masalan, biologik antropologiya anatomiya, fiziologiya, irq haqidagi ta’limot va shu kabilarga tayanib, insonning qolgan barcha tirik mavjudotlardan farqini uning jismoniy tuzilishi nuqtai nazaridan aniqlaydi. Teologik antropologiya inson haqidagi tegishli tasavvurlarni uni Xudo yaratgani nuqtai nazaridan shakllantiradi. Falsafiy antropologiya esa butunlay boshqa vazifani hal qiladi – u vaziyatga yaxlit yondashadi va fanlararo xususiyatga ega bo‘lgan xulosalar chiqaradi.

Falsafiy bilimning tarkibiy qismi sifatida falsafiy antropologiya ijtimoiy falsafa, axloq, sosiologiya va psixologiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular bilan birgalikda inson haqidagi fanlar majmuini tashkil etadi.

[14] Бердяев Н.А. Смысл творчества. – М:, 1989. – С.293.

Falsafiy antropologiya yechadigan muhim muammolar orasida inson biologik va ijtimoiy mohiyatining o‘zaro nisbati to‘g‘risidagi masala alohida o‘rin egallaydi. Inson jonli tabiatning bir qismi, shuningdek biologik evolyusiya mahsuli ekanligi hozirgi zamon tabiatshunosligi fanida nafaqat olimlar va mutaxassislar, balki ma’rifatli odamlarning keng doirasi uchun ham aniq-ravshan va deyarli shak-shubhasiz dalilga aylandi. Har bir inson o‘z biologik xususiyatlari: genetik kodi, vazni, bo‘yi, mijozi, terisi va sochining rangi, yashash muddati va shu kabilarga ko‘ra betakrordir. Biroq ayni vaqtda inson ijtimoiy mavjudot ekanligi, uning o‘ziga xosligi va betakrorligi odamzotning ijtimoiy tabiati, u kamol topgan, ta’lim-tarbiya olgan, madaniy va axloqiy qadriyatlar va mo‘ljallarni o‘zlashtirgan ijtimoiy muhit bilan belgilanishi ham shak-shubhasizdir.

Ayni shu sababli inson individi nafaqat biologik, balki ijtimoiy mavjudot sifatida ham o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, insonning kamol topishi jamiyatda va faqat jamiyatda yuz beradi.

9.3. Ongning tabiati, strukturasi va funktsiyalari

Ong inson borlig‘ining eng muhim omilidir. Ong muammosini yechishga nisbatan yangicha yondashuvlar hozirgi zamon falsafasining **irratsionalistik** oqimlariga (lot. Irra Ongning tabiati.) mansub. Ong muammosi o‘ta murakkab muammolardan biri bo‘lib, falsafada doim qizg‘in bahs va munozaralarga sabab bo‘lib kelgan. Bu bahs va munozaralar hozir ham tugagani yo‘q. Ongning tabiati shunday: u hissiy idrok etiladigan obyektiv borliqni tushunish va aks ettirish uchun biz yuqorida foydalangan aksariyat ko‘rsatkichlar va tavsiflarga mos kelmaydi. Ongni o‘lchash, biron-bir tarzda miqdoriy ifodalash, sezish yoki kuzatish mumkin emas, zero uning massasi ham, energiyasi ham yo‘q, shuningdek u moddiy obyektlar kabi muayyan shaklshamoyilga ham ega emas. Ong shak-shubhasiz mavjud, ammo u mavhum bo‘lib, balki bilvosita – odamlar tili va muayyan faoliyati orqali namoyon bo‘ladi. Binobarin, inson borlig‘ining bu elementlarini tahlil qilmasdan ongning mohiyatini aniqlash mumkin emas. Mazkur tahlil ongning biologik jihatini ham o‘z ichiga oladi, zero uning mavjudligi inson bosh miyasi faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli ongning tabiati nafaqat falsafada, balki fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya, kibernetika, informatika va boshqa ijtimoiy va tabiiy fanlarda ham o‘rganiladi. Ayni vaqtda mazkur muammo o‘ta murakkabligi tufayli uning falsafiy talqini ayrim fanlar uchun muhim metodologik rol o‘ynaydi. Ularning natijalari esa, o‘z navbatida, ongning tabiati xususidagi falsafiy mulohazalar uchun asos bo‘ladi.

Ongning tabiati masalasining qo‘yilishi va unga berilgan tegishli javob, odatda, barcha keyingi falsafiy, chunonchi: ontologik, gnoseologik, ijtimoiy va boshqa mavzulardagi mulohazalarning yo‘nalishini belgilaydi.

Ongsizlik. Ong insonning ichki dunyosi sifatida o‘z strukturasiga ega. Uni o‘rganishdan oldin quyidagi holatga e'tiborni qaratish lozim. Ba'zan «ong» tushunchasi «inson ruhiyati» tushunchasi bilan ayniylashtiriladi. Bu noto‘g‘ri. **Ruhiyat** – ongga qaraganda murakkabroq tuzilma bo‘lib, u aks ettirishning ikki sohasi – ong va ongsizlikni o‘z ichiga oladi. Olimlar insonda onglilik va ongsizlikning o‘zaro nisbati to‘g‘risida so‘z yuritar ekanlar, ba'zan ularni okeandagi muztoqqa o‘xshatadilar. Bu muztog‘ning suv ustidagi ko‘zga ko‘rinadigan qismi ongga qiyoslanadi, suv ostidagi ko‘rinmaydigan qismi esa ongsizlikka o‘xshatiladiki, uning miqyosi, shakli, tuzilishi va mazmuni haqida biz bilvosita belgilarga ko‘ra faqat taxmin qilishimiz mumkin. **Ongsizlik sohasi** – bu aqldan tashqaridagi ruhiy hodisalar, holatlar va harakatlar majmui, deb hisoblash odat tusini olgan. Bu sohaga, eng avvalo, instinktlar – inson xulq-atvorining uzoq tadrijiy rivojlanish jarayonida hosil bo‘ladigan va har bir mavjudotning hayot funksiyalarini, umuman uning mavjudligini ta'minlashga qaratilgan tug‘ma harakatlari majmui kiritiladi. Ongsizlikni (ong osti) tushunish yanada ko‘proq qiyinchilik tug‘diradi. Uning mavjudligi avstriyalik mashhur psixiatr Z.Freyd (1856-1939) tomonidan XX asr boshida aniqlagan.

Har xil tushlar, gallyusinatsiyalar, xayoldan ketmaydigan g‘oyalar, intuitsiya va shu kabilar ongsizlikning namoyon bo‘lish shakllariga misol bo‘lishi mumkin. Ular odamlar ruhiyati va xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko‘rsatadi, lekin ayni vaqtda bu jarayonlarni boshqarish nuqtai nazaridan ularga bo‘ysunmaydi. Shu sababli ongsizlik ongning muayyan lahzada ong bilan boshqarishga qodir bo‘lmagan parchasi, deyish mumkin. Ongsizlik strukturasiga ong sohasida vujudga kelishi va vaqt o‘tishi bilan ongsizlik sohasiga kirishi mumkin bo‘lgan intuitsiya va avtomatizmlarni ham kiradi.

Intuitsiya – bu olish yo‘llari va shartlarini anglamasdan, bevosita hissiy kuzatish yoki mushohada yuritish yo‘li bilan olinadigan bilim. **Avtomatizmlar** – bu avval ong nazorati ostida paydo bo‘lib, uzoq mashq qilish va ko‘p karra takrorlash natijasida ongsiz harakatlar xususiyatini kasb etuvchi insonning murakkab harakatlari. Tush, gipnoz holati, somnambulizm hodisalari, hushsizlik holatlari ham ongsiz harakatlar hisoblanadi. Ruhiy faoliyatga ongsiz harakatlarning qo‘shilishi natijasida ongga tushuvchi yuk kamayadi, bu esa, o‘z navbatida, insonning ijodiy imkoniyatlari maydonini kengaytiradi. Hozirgi zamon fani ong osti sohasi tushunchasi bilan ham ish ko‘radi. Bu ongsizlik sohasining alohida qatlami yoki darajasidir. Unga faoliyat amallarining ong darajasidan avtomatizm darajasiga o‘tishi bilan bog‘liq ruhiy hodisalar kiritiladi.

Ongning strukturasi va funksiyalari. Ong qanday strukturaga ega? Ong strukturasi ko‘p jihatdan shartlidir. Gap shundaki, ong elementlari bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Ammo, shunga qaramay, ongda quyidagi elementlarni ajratish mumkin: Ongning birinchi elementi – **bilim**. Bu

ongning bosh tarkibiy elementi, uning o‘zagi, mavjudlik vositasi. Bilim – bu insonning voqyelik haqidagi tushunchasi. Inson ongida bilim anglab yetilgan hissiy va mavxum mantiqiy obrazlar sifatida aks etadi. Bilimlar yordamida inson o‘zini qurshagan dunyoni va bilishning predmetini to‘laligicha qamrab olishi va anglab yetishi mumkin. Bilim ongning moddiy faoliyat vositasida dunyoni izchillik bilan yaratish imkoniyati, voqyealar rivojini nazarda tutish, ijodiy faollik ko‘rsatish kabi xossalarini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, **ong** – bu bilimlar shaklidagi voqyelikka inson ehtiyojlarini hisobga olgan holda yondashishdir.

Ong strukturasining ikkinchi muhim elementi **emotsiyalardir**. Inson o‘zini qurshagan dunyoni sovuqqonlik va befarqlik bilan emas, balki qoniqish, nafrat yoki hamdardlik hissi bilan anglab yetadi. U o‘z ongida aks etgan hamma narsani his qiladi. Emotsiyalar borliqning real hodisalarini individ anglab yetishini yo rag‘batlantiradi, yo bunga to‘sqinlik qiladi. Ko‘zni quvontiradigan narsalar xotiraga osonroq o‘rnashadi. Ammo ba'zan dunyoning «ko‘zni quvontiradigan» manzarasi o‘ziga mahliyo qilishi, illyuziyalar tug‘ilishiga sabab bo‘lishi ham mumkin. Ayrim, ayniqsa salbiy emotsiyalar aqlning teranlik darajasiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Masalan, qo‘rquv hissi inson yuz berayotgan hodisalarni anglab yetishi yo‘lida to‘siqqa aylanishi mumkin. Shaxsning eng muhim ijtimoiy va ekzistensial qadriyatlar bilan aloqalari anglab yetilishi natijasida shakllanadigan ma'naviy tuyg‘ular (masalan, muhabbat tuyg‘usi) emotsiyalarning oliy darajasi hisoblanadi. **Tuyg‘ular** moddiy mazmunga egalik, turg‘unlik, real vaziyatga bog‘liq emaslik bilan tavsiflanadi. Emotsiyalar sohasi inson ongining barcha harakatlariga sezilarli darajada ta'sir ko‘rsatadi, uning faoliyati uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ongning uchinchi tarkibiy elementi **iroda**. Iroda inson o‘z faoliyatini ongli ravishda, izchillik bilan boshqarishini o‘zida ifodalaydi. Bu insonning o‘z faoliyatida yuzaga keladigan, subyektiv va obyektiv qiyinchiliklar va to‘siqlardan ongli ravishda oshib o‘tishni talab etadigan vazifalarni hal qilishga o‘z ruhiy va jismoniy kuchlarini safarbar etish va yo‘naltirish qobiliyatidir. Inson mehnat qurollarini yaratishi – bu irodani shakllantirishning birinchi va eng muhim maktabidir. Iroda va maqsad bir-birini to‘ldiradi. Irodasiz maqsadga erishish mumkin emas; maqsadga muvofiq faoliyatsiz iroda ham bo‘lmaydi. Iroda – bu ongli intilish va harakatga mayl uyg‘otishdir. Ammo insonga ongsiz mayllar ham xos. Ba'zan inson qaergadir intiladi, lekin qaerga va nima uchun intilayotganini uning o‘zi ham bilmaydi. Bunday ong osti harakati insonga hayvonlardan o‘tgan.

Ong strukturasining elementi – bu **tafakkurdir**. Tafakkur – individ bilish faoliyatining voqyelikni umumiy va bilvosita aks ettirish bilan tavsiflanuvchi jarayoni. Mazkur jarayon narsalarning muhim, tabiiy

munosabatlarini ma'lum, his qilingan, eshitilgan narsalar asosida aks ettirishni o‘zida ifodalovchi mavhum tushunchalar, mulohazalarning yaratilishi bilan yakunlanadi. Fikrlash faoliyati yordamida biz ko‘z bilan ko‘rish va qo‘l bilan ushlash mumkin bo‘lmagan narsalarni idrok etamiz. Tafakkur bizga muhim xossalar, aloqalar va munosabatlar haqida bilim olish imkoniyatini beradi. Tafakkur yordamida biz sirtdan ichga, hodisadan narsalar, jarayonlarning mohiyatiga o‘tishni amalga oshiramiz.

Ong strukturasining elementlari **e'tibor** va **xotira** hamdir. **E'tibor** – bu inson ruhiy faoliyatining muayyan obyektlarga qarab mo‘ljal olishda namoyon bo‘luvchi shakli. **Xotira** – bu individ miyasida uning o‘tmishdagi tajribasini mustahkamlash, saqlash va gavdalantirishdan iborat bo‘lgan ruhiy jarayon. Xotiraning asosiy elementlari eslab qolish, saqlash, gavdalantirish va unutish hisoblanadi. Eslab qolishning fiziologik asosini bosh miya po‘stlog‘ida vaqtinchalik asab tizimi aloqalarining hosil bo‘lishi va qayd etilishi tashkil qiladi. Asab tizimi aloqalarining keyinchalik jonlanishi eslab qolingan materialni gavdalantirish imkoniyatini beradi, bu aloqalarning susayishi esa xotiradagi materialning unutilishiga olib keladi.

Insonning subyektiv borlig‘ida – **o‘zlikni anglash** ong strukturasining elementidir. Bu insonning o‘zini shaxs sifatida anglab yetish, o‘zining mustaqil qarorlar qabul qilish va shu asosda odamlar va tabiat bilan ongli munosabatlarga kirishish, qabul qilingan qarorlar va harakatlar uchun javobgar bo‘lish qobiliyatini tushunish jarayonidir. Boshqacha qilib aytganda, **o‘zlikni anglash** – bu o‘z-o‘ziga, o‘zining ma'naviy qiyofasiga, o‘z bilimlari, fikrlari, qiziqishlari, ideallari, xulqatvor mo‘ljallari, harakatlari va shu kabilarga yaxlit baho berishdir.

9.4. Hayotning mazmuni va insonning vazifasi

Inson hayotning tezoqarligini yodda tutishi, uning shomini kuzatishi, odamzot hayotining bebaholigi haqida o‘ylashi, o‘lim haq ekanligini unutmasligi lozimligi haqidagi fikrlarga biz falsafa fani shakllanish jarayonining ilk bosqichidayoq, G‘arb falsafiy an’anasida ham, Sharq falsafasida ham duch kelishimiz mumkin. Shundan beri o‘tgan ikki yarim ming yildan ko‘proq vaqt mobaynida bu borada deyarli Hech qanday o‘zgarish yuz bergani yo‘q, zero, avvalgidek, odamzotning hayot yo‘li tug‘ilish va o‘lish sanalari bilan chegaralanadi. Shuningdek, birinchi sana doim muayyan, aniq bo‘lsa, ikkinchi sana inson umrining oxirgi soniyalarigacha mavhum bo‘lib qoladi.

Ayni shu sababli hayotning mazmuni muammosi har bir inson qarshisida ertami-kechmi ko‘ndalang bo‘ladi va u o‘ziga aniq va uzil-kesil javob topish mumkin bo‘lmagan savollarni beradi. «Bu dunyoda nima uchun yashayapman?», deb so‘raydi o‘zidan inson va agar bu savolga o‘zi javob bermasa, o‘z hayotiga muayyan mazmun baxsh etmasa, bu ishni uning

o‘rniga Hech kim va Hech qachon bajarmasligini vaqt o‘tishi bilan anglay boshlaydi. Abadiyat qarshisida, o‘lim qarshisida har kim oxir-oqibatda o‘zi bilan o‘zi tanho qoladi.

Albatta, jamiyatda inson o‘zini bu darajada yolg‘iz his etmaydi, biroq, ekzistensialistlar fikriga ko‘ra, bu hol toki inson boshqalarning ham o‘z hayoti borlig‘i va ular ham o‘z hayotining mazmuni va o‘zining vazifasi haqidagi o‘ta shaxsiy muammolarni mustaqil yechish zaruriyati qarshisida turganini anglab yetgunga qadar davom etadi.

Bundan ekzistensializm falsafasida yolg‘izlik muammosi kelib chiqadi. Aslida, mazkur muammo falsafiy antropologiyada ham inson borlig‘i tahlilidagi bosh muammolardan biri hisoblanadi.

Hayotni tark etish bosqichlari. Biologik mavjudot sifatida har bir inson o‘limga mahkumdir. Buni qadimgi mutafakkirlar ham yaxshi tushungan. Xususan, o‘z muxoliflaridan birining: «O‘ttiz tiran seni o‘limga hukm etdi», degan gapiga Suqrot: «Ularni esa o‘limga tabiat hukm etgan», deb javob bergan. Ammo odamzot ijtimoiy mavjudot sifatida ham o‘limga mahkumdir.

Hozirgi zamon fanida o‘lish jarayonining to‘rt bosqichi farqlanadi. Bu bosqichlarga organizmda yuz beradigan va uning qarishini tavsiflaydigan orqaga qaytarib bo‘lmaydigan biologik o‘zgarishlar sabab bo‘ladi.

Xususan, 25 yoshdan boshlab va ayniqsa 45 yoshdan keyin insonda har kuni u tug‘ilgan paytga qadar «jamlangan» va boshqa Hech qachon yangilanmaydigan o‘n minglab nerv hujayralari (neyronlar) halok bo‘ladi. Ammo bosh miya qobig‘ida bunday hujayralar soni 40 milliardga yetadi va shu sababli «qariyotgan normal miya uchun bu jiddiy oqibatlarga sabab bo‘lmaydi, chunki unda yana o‘n milliardlab neyronlar normal faoliyat ko‘rsatishda davom etadi»[1].

Amalda insonning hayotni tark etishi u odamlardan o‘zini olib qochib, jamiyatdan uzoqlashishi bilan tavsiflanadigan **ijtimoiy o‘lim** yuz berganida boshlanadi.Surunkali giyohvand moddalarini iste’mol qilish, kashandalik, ichkilikbozlik, o‘z hayotidan doimiy norozilik ijtimoiy o‘limni bildiradi. So‘ngra **ruhiy** o‘lim yuz beradi, bunda inson hayot tugagani va o‘limning muqarrar ekanligini va o‘z hayoti davomida Hech narsaga erisha olmaganini anglaydi. **Miya o‘lishi** bilan bosh miya faoliyati butunlay to‘xtaydi, organizmning turli funksiyalarini boshqarish barham topadi. Bu jarayon **fiziologik o‘lim** bilan yakunlanadi. Bunda insonning uni tirik organizm sifatida tavsiflovchi barcha funksiyalari uzil-kesil to‘xtaydi.

O‘zbekistonda suisidning o‘sishini oldini olish bo‘yicha takliflar Birinchidan, ruhiy kasallar va kasalligi keskin ifodalanmagan, hali to‘liq namoyon bo‘lmagan shaxslarning ruhiy, psixosomatik holati bahor va kuz

[1] Годфруа Ж. Что такое психология. -Т. 2. – М.: 1996. – С.11.

fasllarida og‘irlashishi, o‘tkirlashishi ma’lum. Shu bilan birga psixologik jihatdan murakkab bo‘lgan o‘smir va o‘spirinlik yosh bosqichidagilar bahor faslida avitaminoz, quyosh radiasiyasi, kunlarning keskin isishi, ob-havo, atmosfera bosimining o‘zgarib turishi, koinotda kuzatilayotgan magnit va quyosh to‘fonlariga o‘ta sezgir bo‘ladilar. Bunday omillarning ularga salbiy ta’-sir qilishi va suisid yuzaga kelishiga omil vazifasini o‘tash mumkinligini hisobga olib, ayniqsa, bahor va kuz fasllarida yoshlar bilan turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar, tabiatda dam olish (lola sayli, baliq ovi, tog‘larga chiqish, qo‘ziqorin terish va boshqa-lar)ni uyushtirish, qadimiy, tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, ziyoratgoh joylarda bo‘-lish, teatr, muzey va ko‘rgazmalarni ko‘rishga e’tiborni kuchaytirish kerak. Ayni paytda oromgohlarda dam olish, shanba va yakshanba kunlari oilaviy madaniy hordiq chiqarish, ko‘proq tabiatda bo‘lish zarur. Maktab, akademik lisey, kasb-hunar kollejlari o‘quvchila-ri, oliy ta’lim muassasalari talabalarining tug‘ilgan kunlarini yig‘ma holda yiliga ik-ki marotaba bahor va kuz oylarida o‘tkazish, sovg‘alar bilan tabriklash, shoir, yozuvchi, olim, aktyor, rassom va boshqa taniqli kishilar bilan uchrashuvlar o‘tkazishni muntazam yo‘lga qo‘yish kerak.

Hayotning insonga bor-yo‘g‘i bir marta beriladigan yagona, ulug‘, takrorlanmas ne’mat ekanligi, hayot saboqlari, hayot dasturi, taqdir qiyinchiliklarini yengish, sinovlariga bardosh berish, hayotiy maqsadlarga yetishda irodani safarbar qilish, ruhan tushkunlikka tushmaslik, dadillik va tetiklik, sabr va chidam, shukronalik mavzularida bevosita mulo-qotlar, uchrashuv, davra suhbatlarini o‘tkazib borish lozim. Aholi, ommaning yaxshi, opti-mistik, bayram kayfiyatida bo‘lishini ta’minlash choralarini ko‘rish zarur. Masalan, bo-lalar va yoshlar orasida turli musobaqalar, tanlovlar, ko‘riklar, tadbirlarni o‘tkazib, ularda har xil nominasiyalar (Eng yosh, eng yoshi ulug‘ qatnashchi, eng yaxshi raqqosa, futbol-chi, kurashchi, tennischi, voleybolchi, eng mehribon farzand, pazanda kelin, g‘amxo‘r qaynona, dono qaynota va h.k.) bo‘yicha sovg‘alar berishni tashkil qilish kerak. Mazkur tadbirlarda e’tiborsiz, sovg‘a-salomsiz deyarli birorta qatnashchi qolmasin. Natijada har bir shaxs o‘zidan g‘ururlanadi, hayotdan mamnun bo‘ladi, atrofdagilarning diqqat-e’tiboridan psi-xologik-ma’naviy rag‘bat oladi.

9.5. Inson borlig‘ida faoliyatining tuzilishi va atributlari. Faoliyatni tashkil qilishda huquq va axloq uyg‘unligi

Praksiologiya (yunon. praktikos – faol) – falsafaning inson faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘limlaridan biri. Faoliyat tushunchasi inson borlig‘ining tabiati va mohiyatini, uning shaxsiy imkoniyatlari, ijtimoiy aloqalari va munosabatlarini, inson ma’naviy dunyosi va moddiy amaliyot jabhasini teranroq tushunish imkonini beradi. Inson faoliyati o‘ziga xos

xususiyatga ega bo‘lib, hayvonlar faolligidan butunlay farq qiladi. U individ va umuman jamiyat borlig‘ining alohida usuli hisoblanadi.

Ijtimoiy yo‘nalganligiga qarab faoliyatning turli fanlarda o‘ziga xos xususiyatlari bo‘ladi. Ijtimoiy falsafa shaxsning ijtimoiylashuvi, ya’ni jamiyat to‘plagan tajriba, qadriyatlar va me’yorlarni o‘zlashtirish usuli sifatidagi faoliyat mazmunini yoritadi. Sosiologiyada faoliyat (ijtimoiy harakat) ijtimoiy organizmning subyektiv motivasiya va boshqalarga qarab mo‘ljal olish bilan tavsiflanadigan hamda shaxs va jamiyatning aloqasini ta’minlaydigan hujayrasi sifatida qaraladi. Ontologiyada faoliyat inson borlig‘i usuli bo‘lib, unda odamzotning mohiyatini belgilovchi kuchlar ayniqsa to‘la aks etadi. Bilish nazariyasida asosiy e’tibor bilishning negizi va bilimlarimiz haqiqiyligining muhim mezoni bo‘lgan amaliyot sifatida tushuniladigan faoliyatga qaratiladi. Axloq va huquq falsafasida xohish-iroda erkinligi muammolari va inson faoliyatini tartibga solish usullari o‘rganiladi. Inson faoliyatining madaniyat bilan aloqasi mazkur faoliyatning o‘ziga xos xususiyatini aks ettiruvchi muhim falsafiy muammolardan biridir. To‘g‘ri, inson yaratgan barcha narsalar ham madaniyatga mansub bo‘lavermaydi, lekin ijodiy faoliyatsiz madaniyat mavjud bo‘lishi mumkin emas. Yondashuvlarning bunday rang-barangligi tasodifiy bir hol emas, chunki inson faoliyati uning yashash omili hisoblanadi va odamzotning tabiatga, jamiyatga, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlari doirasini to‘la qamrab oladi. Moddiy va ma’naviy ne’matlar ishlab chiqarish, siyosat va boshqaruv, muloqot va bilish, badiiy ijod va falsafiy mulohaza yuritish, tarbiya va o‘zini o‘zi tarbiyalash – bularning barchasi faoliyatni insonning dunyoga va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatining universal shakli, shaxs va jamiyatning rang-barang ehtiyojlarini qondirish usuli sifatida tavsiflaydi.

Faoliyat tushunchasining mazmuni. Falsafada faoliyat insonga xos bo‘lgan va tashqi dunyoni oqilona o‘zgartirishga qaratilgan faollikning alohida shakli sifatida tavsiflanadi. Ijtimoiy falsafada faoliyat ijtimoiy jarayonlarni amalga oshirish, insonning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘zini qurshagan dunyo bilan aloqaga kirishish usuli sifatida qaraladi[1]. Faoliyat muayyan faoliyat turi bilan shug‘ullanish qobiliyati uning amaldagi moddiy ifodasiga o‘zaro o‘tishini nazarda tutadi. Bu faol inson tashqi dunyoni o‘zgartirishi va o‘zi ham o‘zgarishini anglatadi. Forobiy fikricha “inson faoliyatsiz turaolmaydi, ammo har qanday faoliyat va harakat insonni inson qilib ko‘rsata olmaydi. Chunki o‘z tabiatiga ko‘ra hayvonlar ham harakat qiladilar. Hayvon ovqatni ko‘radi va unga intiladi va bunda ongsiz harakatni amalga oshiradi. Odamni hayvondan ajratadigan narsa- alohida iroda bo‘lib, u ixtiyor deb nomlanadi”. Ixtiyor – komillikka intilish va unga erishish sari harakat demakdir. Inson maqsadni ham, unga

[1] Фалсафа қомусий луғат.Назаров Қ. таҳрири остида. –Т.: Шарқ, 2004. –Б. 186

erishish vositalari, yo‘lni ham bilib oladi. Natijada u o‘z maqsadiga yetish uchun ongli faoliyat olib boradi. Inson juda ko‘p narsani orzu qilib yashaydi, biroq ularning hammasiga ham ega bo‘lmaydi. Shu bois haqiqiy baxtga u dunyoda erishiladi, oxiratda mutloq baxtga erishishga qaratilgan har qanday harakat – fazilatdir deb hisoblaydi.

XX asrning atoqli mutafakkiri E.Kassirer insonning eng muhim xususiyati, uning o‘ziga xos belgisi metafizik yoki jismoniy tabiati emas, balki uning faoliyatidir, deb qayd etgan edi. Insoniyat sohasini aynan mehnat, faoliyat turlari tizimi belgilaydi. Kassirer til, mif, din, san’at, fan, tarixni inson faoliyati tizimining turli sektorlari sifatida qayd etadi. Insonni tushunish bu faoliyat turlaridan har birining teran qatlamlari haqida tasavvur hosil qilish va ayni vaqtda uni yaxlit bir butun organizm sifatida tushunish demakdir.

Faoliyatni sosiologik jihatdan tavsiflash qilmish, xatti-harakat, xulq-atvor tushunchalari yordamida amalga oshiriladi. Bu tasodifiy bir hol emas.. Jamiyat odamlar birgalikda amalga oshiradigan faoliyat shakllaridan biri hisoblanadi, shu sababli inson faoliyati doim ijtimoiy xususiyat kasb etadi, garchi o‘z shaxsiy ehtiyojlari va egoistik tushuniladigan manfaatlar yo‘lida amalga oshirilsa-da, boshqalarga qaratilgan bo‘ladi. Qilmish – shaxs faolligi namoyon bo‘lishining bir shakli bo‘lib, uning ijtimoiy ahamiyatga molik natijalar uchun javobgarligini nazarda tutadi. Ayni holda mazkur natijalar shaxsning muayyan maqsadlari yoki mo‘ljallari bilan belgilangan yoki belgilanmagani ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Xatti-harakat – shaxsning ma’naviy o‘zlikni anglashi natijasi sanalgan ongli harakati (yoki harakatsizligi) bo‘lib, unda mazkur shaxsning o‘z-o‘ziga va boshqa odamlarga, tabiatga va umuman jamiyatga bo‘lgan munosabati aks etadi. Shaxsning axloqiy mo‘ljallari ro‘yobga chiqadigan qilmishlar tizimi uning xulq-atvorini tavsiflaydi. Xulq-atvor faoliyatning tashqi ko‘rsatkichi hisoblanadi, shu sababli uning ichki mexanizmlari xulq-atvorda bilvosita namoyon bo‘ladi va inson o‘z faoliyatida amal qiladigan motivlarni doim ham namoyon etavermaydi.

Psixologiyada faoliyatga mufassalroq tavsif berilgan bo‘lib, u insonning dunyo bilan munosabatlari dinamik tizimi sifatida talqin qilinadi. Bunda subyektda ruhiy obraz yuzaga keladi va u obyektda mujassamlashadi. Sodda qilib aytganda, faoliyat insonning har qanday obyektga (dunyoga) shunday bir munosabatini aks ettiradiki, uning zamirida nafaqat obyekt (dunyo) haqidagi bilim, balki uni o‘zgartirish natijasida inson nimaga erishishi mumkinligi haqidagi tasavvur ham yotadi. Psixologiyada bilim va maqsadning inson ehtiyojlari bilan belgilangan o‘ziga xos chatishuvi faoliyat jarayonida obyektda gavdalanadigan obraz sifatida qaraladi. Shunday qilib, faoliyat subyektning borliqqa bo‘lgan munosabatlarini ro‘yobga chiqarish usuli hisoblanadi. Ammo faoliyatning o‘zi insonning

tashqi dunyoga bevosita munosabati bilan emas, balki uni anglab yetishi, ya'ni ruhiy motivlar, maqsadlar, vositalar (mehnat qurollari) bilan tavsiflanadi.

Faoliyatning tuzilishi. Faoliyatning umumiy tuzilishi ehtiyojlar bilan belgilanadi Insonning ehtiyojlari uning faollik manbai hisoblanadi. Hayot ehtiyojlari (insonning jonli mavjudot sifatidagi ehtiyojlari), ijtimoiy ehtiyojlar (ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari, shuningdek shaxsning jamiyatga moslashuv ehtiyojlari) va ma'naviy (ma'rifiy, diniy, axloqiy, estetik va sh.k.) ehtiyojlar farqlanadi. Ehtiyojlarning rang-barangligi inson faoliyati turlarining rang-barangligini belgilaydi. Faoliyat turlarini tasniflash zamirida yotuvchi eng muhim omil u qaratilgan va faoliyat motivini tashkil etadigan predmetlar farqidir. Faoliyat motivsiz bo'lmaydi, «motivlashtirilmagan» faoliyat subyektiv pinhona motivga ega bo'ladi.

Harakatlar va amallar. Faoliyat harakatlardan tashkil topadi. Harakat alohida maqsadga, ya'ni erishilishi lozim bo'lgan natija haqidagi tasavvurga bo'ysunadigan jarayon sifatida tavsiflanadi. Maqsad inson ongida ehtiyoj va motiv bilan faoliyat obyektiv holatlarining nisbatlashuvi jarayonida yuzaga keladi. O'z navbatida, holatlar maqsadga erishish yo'llarini belgilaydi. Bular faoliyat shartlari bilan belgilanadigan amallar hisoblanadi. Shunday qilib, umuman faoliyat motiv bilan, harakat – maqsadlar bilan, amallar – shartlar bilan belgilanadi.

Faoliyatning atributlari. Inson faoliyati o'ta rang-barangdir. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, faoliyat turlarini tasniflash uchun asos bo'lib uning inson tomonidan o'zgartiriladigan obyekt: tabiat, jamiyat, insonning o'ziga qaratilganligi xizmat qiladi. Faoliyat atributlari (xossalari) faoliyatni motivlashtirish va amalga oshirish mexanizmlarini tavsiflaydi. Faoliyat atributlari orasida avvalo subyektlilik va moddiylik qayd etiladi.

Subyektlilik va moddiylik. Faoliyatning subyektliligi shu bilan izohlanadiki, u shaxsning o'tmishdagi tajribasi, uning ehtiyojlari va mo'ljallari, motivlari va maqsadlari, emosiyalari va irodasini tavsiflovchi xususiyatlari, bilish qobiliyatlari va hokazolar bilan belgilanadi. Faoliyatning moddiyligi insondan tashqarida joylashgan va uning qo'li bilan o'zgartiriladigan tabiat va jamiyat kuchlariga qaratilganini anglatadi. Ammo insonning o'zi, uning o'z-o'zini kamol toptirishi, o'z-o'zini tarbiyalashi va shaxs o'z oldiga qo'yadigan maqsadlarga erishishga qaratilgan tegishli harakatlar ham o'zgartirish faoliyatining predmeti bo'lishi mumkin.

Moddiylashtirish va moddiylikdan chiqarish. Moddiylik faoliyat jarayoni va natijasining materialga bog'liqligini belgilaydi. Faoliyat natijasi inson oqilona o'zgartirgan materialda o'z aksini topadi, moddiylashadi (predmetga aylanadi). Faoliyat natijasi inson kuchlari va qobiliyatlarining o'ziga xos in'ikosi hisoblanadi. Nemis klassik falsafasining taniqli

namoyandasi I.G.Fixte fikricha, "Amaliyot o'zgartirilgan tabiat predmetlarini insonning ko'zgudagi aksiga o'xshaydi"

Moddiylashuv nima ekanligi haqida amalda tasavvur hosil qilish uchun chevar, g'isht teruvchi, ma'ruzachi va shu kabilarning ishini kuzatadigan bo'lsak, inson qanday ishlashi, uning faoliyati natijasida nima vujudga kelganiga qarab insonning o'zi haqida xulosa chiqarish, uning aql-zakovat darajasi, irodasi, kasbiy mahorati, estetik didi, mehnatga munosabati, axloqiy mo'ljallari va hokazolarni aniqlash mumkinligini ko'ramiz. Shu ma'noda faoliyat doim individ va umuman insoniyatning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi demakdir. Individning ijtimoiyligi aynan faoliyatda namoyon bo'ladi. Faoliyat orqali u ijtimoiy jarayon ishtirokchisiga aylanadi.

Inson faoliyati mehnat qurollari yordamida amalga oshiriladi. Uning hayvonlar faolligidan asosiy farqlaridan biri qurollilik hisoblanadi. «quruq qo'l ham, o'z ixtiyoriga tashlab qo'yilgan aql ham katta kuchga ega emas, - degan edi F.Bekon. – Ish qo'lga ham, aqlga ham kerak bo'lgan qurollar va vositalar yordamida bajariladi».

Mehnat qurollari inson va u o'zgartiruvchi narsalar dunyosi o'rtasida bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Mehnat qurollarida insonning tajribasi mujassamlashadi. Odamlar yaratgan mehnat qurollari va iste'mol predmetlarida ularning ma'naviy kuchlari (aql-zakovati va ko'nikmalari, bilim va qobiliyatlari, maqsad va mayllari va sh.k.) o'zining moddiy ifodasini topadi. Bundan tashqari mehnat qurollari faoliyat texnologiyasi haqida axborot beradi va shu tariqa insonni boshqa odamlar bilan bog'laydi. Boshqa odamlar yaratgan narsalardan foydalanish uchun inson ularning mohiyatini, vazifasini aniqlashi, boshqacha aytganda, ularning ma'naviy mazmunini anglab yetishi lozim. Bu jarayon falsafada moddiylikdan chiqarish, ya'ni inson mehnati bilan yaratilgan mahsulotning ma'naviy mazmunini fikrlash yo'li bilan uning moddiy qobig'idan ajratish deb ataladi. Pirovardida inson faoliyati uning ma'naviy va jismoniy kuchlari va qobiliyatlarining moddiylashuvi va mehnat mahsullarida mujassamlashgan ularning yaratuvchilari ma'naviy dunyosining birligidan tashkil topadi.

Onglilik va maqsadga muvofiqlik. Inson faoliyati oqilona, ongli va maqsadga muvofiq bo'ladi. «Oqilonalik – inson faoliyatining barcha turlariga amalda xos bo'lgan jihat», deb qayd etadi E.Kassirer. Oqilonalik insonning o'z faoliyati maqsadlarini aqlga muvofiq tarzda belgilash va ularni erkin va ongli boshqarish qobiliyatini anglatadi. I.G.Fixte inson tabiat kabi zaruriyat taqozosiga ko'ra emas, balki ongli niyat bilan ish ko'rishini ta'kidlaydi. Ayni shu sababli tabiat va jamiyatni o'zgartirish insoniyatning ma'naviy burchidir.

Onglilik va maqsadga muvofiqlik – inson faoliyatini hayvonlar faolligidan farqlash imkonini beruvchi muhim xossalardir. Ammo ular «sof ko'rinish»da mavjud bo'lmaydi. Shu sababli onglilik va maqsadga

muvofiqlikka zid bo‘lgan xossalarni inson faoliyatining talqini doirasidan chiqarish o‘rinli bo‘lmaydi. Xususan, insonning barcha faoliyati ham ongli bo‘ladimi, degan savol ustida mulohaza yuritib ko‘raylik. Amalda faoliyat ayrim ko‘nikmalar shakllanishini nazarda tutadi (kasbiy mahorat esa aksariyat ko‘nikmalarni avtomatizm darajasiga ko‘taradi); faoliyatda anglanmaydigan mayllar, mo‘ljallar, tajriba, o‘tmishda (aksariyat hollarda – bolalikda) olingan taassurotlar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Faoliyat «onglilik – ongsizlik» qarama-qarshiligining birligidir, deb aytish uchun asoslar mavjud. Ziddiyatli vaziyatlar – mutlaqo ongsiz va ongga butunlay bo‘ysungan faoliyatni hayotda juda kam uchraydigan muayyan abstraksiya sifatidagina tasavvur qilish mumkin. Shuningdek, ongga to‘la bo‘ysunadigan harakat ko‘pincha samarasiz bo‘ladi.

Onglilik faoliyatning maqsadga muvofiqligini belgilaydi, chunki maqsadni qo‘yish o‘z ehtiyojlarini hamda mavjud vaziyatni bu ehtiyojlarni qondirish sharti sifatida anglashni nazarda tutadi. Maqsadga muvofiq faoliyat oldindan mo‘ljallangan muayyan natijaga qarab mo‘ljal oladi. Entoni Giddens o‘zining «Jamiyat tuzilishi» asarida inson faoliyati mo‘ljallanmagan natijasining ahamiyatiga e’tiborni qaratadi. Ammo faoliyat maqsadsiz bo‘lishi, ya’ni jarayonning o‘ziga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga qaratilishi ham mumkin. Albatta, ongsiz faoliyat mantiqsizdir, chunki Hech qanday maqsadni ko‘zlamaydi, lekin uning natijasi maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin. Masalan, suzishni bilmagan, lekin suvda oyoq-qo‘llari bilan tinimsiz harakat qilayotgan odam cho‘kmaydi. Ammo har qanday maqsadsiz faoliyat ham ongsiz bo‘lavermaydi (masalan, o‘yin).

Faoliyatning unumliligi. Inson faoliyati unumli, aksariyat hollarda amaliydir, lekin unumsiz ham, noamaliy ham bo‘lishi mumkin. Masalan, rasm-rusumlarni bajarish unumsiz hisoblanadi (ammo ba’zan muayyan vazifalarni hal qilishga qaratilgan rasm-rusumlar amaliy xususiyat kasb etishi ham mumkin).

Moddiy va ma’naviy faoliyat. Moddiy faoliyatni soddalashtirib predmetlar bilan ish ko‘rish sifatida, ma’naviy faoliyatni esa – predmetlarning obrazlari bilan ish ko‘rish sifatida tasavvur qilish mumkin. Abstrakt mulohaza yuritish orqali moddiy va ma’naviy faoliyatni «sof ko‘rinish»da, muayyan qarama-qarshilik sifatida tasavvur qilish mumkin. Ammo ma’naviyatdan xoli bo‘lgan moddiy faoliyat behudadir. Ma’naviy faoliyat «sof ko‘rinishda» mavjudmi? Obyektiv idealizm tizimida muayyan mutlaq va o‘z-o‘zidan rivojlanuvchi g‘oya uning moddiy manbasidan tashqarida mavjud bo‘lishi tan olinadi. Ammo insonning real hayotidagi ma’naviy faoliyati moddiy faoliyatdan tashqarida mavjud bo‘lmaydi, amalda moddiy va ma’naviy faoliyat unsurlari turli darajada aks etgan faoliyat rang-barang shakllarining kontinuumi (lot. continuum – uzluksiz to‘plam)gina mavjuddir.

Moddiy va ma'naviy faoliyatning birligi faoliyat jarayoni ham, uning natijasi ham moddiy-ashyoviy substrat va ma'naviy mazmunning muayyan sintezidan iborat ekanligini anglatadiki, bu uning natijalarini obyektiv tarzda, inson xohish-irodasidan qat'iy nazar, ramzlar, ya'ni insonning ma'naviy dunyosi haqidagi axborot manbalari tizimiga aylantiradi. O'z xususiyatiga ko'ra faoliyat muayyan ideal yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, chunki u moddiy ko'rinishda predmetni yaratadi, ramziy ko'rinishda esa ma'naviy mazmunni – shaxsning bilimlari, qobiliyatlari, axloqiy mo'ljallarini, uning mahorati va o'z kasbiga munosabatini, shuningdek o'z-o'ziga va boshqa odamlarga bo'lgan munosabatini vujudga keltiradi. Shu sababli tabiiy obyekt insonning o'zgartiruvchi faoliyati natijasida o'zlashtirgan xossalar ramziy tarzda amal qiladi. Shu ma'noda, inson nafaqat moddiy, balki ramziy olamda ham yashaydi.

Muloqot faoliyat sifatida. Mehnat qurollaridan foydalanish usullari, ularning vazifasi haqida axborot berish vositasi sanalgan o'ziga xos «til»ga qarab mo'ljal olish inson faoliyatining zaruriy sharti hisoblanadi. Insonni bu mehnat qurollari bilan ishlashga tayyorlash, chunonchi: tegishli ko'nikmalarni shakllantirish va eng muhimi – faoliyat tajribasi va usullarini o'rgatish ham zarur. Bu ish yo namoyish etish, o'rnak ko'rsatish yoki faoliyatda ishtirokchilik orqali bevosita, yo til yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli muloqot insoniy munosabatlar, umuman jamiyat hayotining muhim tomoni hisoblanadi. Bu odamlar o'z hayotida yo'l-yo'lakay shug'ullanadigan alohida faoliyat turi, inson hayotining ovloq burchagi emas, balki uning ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayoni yuz beradigan markazidir.

Inson faoliyatining sanab o'tilgan xossalari uning madaniyat bilan belgilanishini ko'rsatadi. E.Kassirer bu xususda shunday deydi: «Inson madaniyatini, Hech shubhasiz, har xil maqsadlarni ko'zlab, turli yo'llardan rivojlanadigan faoliyatning har xil turlari tashkil etadi. Falsafiy sintez yordamida biz inson faoliyati oqibatlarining birligini emas, balki harakatlar birligini, faoliyat mahsullari birligini emas, balki ijodiy jarayon birligini aniq-ravshan ko'rishimiz mumkin».

Inson faoliyati madaniyat mexanizmlari tomonidan dasturlashtiriladigan va amalga oshiriladigan tabiatan ijtimoiy faollik sifatida tavsiflanishi bejiz emas. Faoliyatning nobiologik tarzda yaratilgan mexanizmlari serqirra va murakkab tizimini o'z ichiga olgan madaniyat unga o'ziga xos insoniy tus beradi.

Insonning shakllanishi va kamol topishida faoliyatning roli katta. Talaba inson faoliyatini o'rganishga murojaat etar ekan, mazkur muammoning shaxsiy hayotdagi ahamiyatini tasavvur qilishi lozim: zero insonning aqlli mavjudot sifatida va individning shaxs sifatida shakllanishi, inson o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi faqat faoliyat doirasida yuz

berishi mumkin. Inson faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini bilish o‘z mehnati va bo‘sh vaqtini tashkil etishni ham, o‘z bolalarini tarbiyalash jarayonini ham, boshqa odamlar bilan o‘zaro muloqotni ham, rasm-rusumlarni ado etishni ham, madaniyatga munosabatni ham sezilarli darajada optimallashtirish imkonini beradi.

Interiorizasiya tushunchasi. Ong va faoliyatning aloqasi g‘oyasining eng mukammal tavsifiga nemis klassik idealizmi namoyandalarining asarlarida duch kelish mumkin. Nafaqat, Fixte, balki Shelling va Gegel ham ma’naviy hodisalar sababini amaliyotda, odamlar faoliyatida izlagan. Xususan, Shelling amaliyotga, inson faoliyatiga odamzotning o‘zini o‘zi tabiatda gavdalantirishi, ya’ni obyektivlashtirishi sifatida yondashgan. U inson faoliyati natijasida ikki dunyo: tabiat dunyosi va inson dunyosi, ya’ni o‘zgartirilgan insoniylashtirilgan tabiat dunyosi mavjud ekanligini qayd etadi. Dunyoga nisbatan harakatda Shelling umuman ong negizini ko‘radi. Insonning insonga ta’sirini u ongning ikkinchi manbai deb hisoblaydi: aqlli mavjudotlarning tinimsiz o‘zaro ta’siri ongning zaruriy omili hisoblanadi. XX asrda psixologlar aynan faoliyat shaxsning ijtimoiy tajribasini o‘zlashtirish, uning qobiliyatlari, irodasi va ongini shakllantirish mexanizmi hisoblanishini tajriba o‘tkazish yo‘li bilan va ko‘p sonli etnografik va tarixiy materialga asoslangan holda ko‘rsatib berdilar. Individual va umuminsoniy rivojlanish jarayonida faoliyatning mustaqil sohasi sanalgan faollik ko‘rinishlari murakkabroq madaniy tuzilmalarga qo‘shilib, asta-sekin ong shakllariga aylangan. Sirtda birlamchi xususiyatga ega bo‘lgan faoliyat sof ichki (interiorizasiyalashgan) xususiyat kasb etishi mumkin.

Interiorizasiya tushunchasi faoliyatning tabiatan sirtqi jarayonlarini ichda, avvalo ongda yuz beradigan jarayonlarga o‘tishini ifodalash uchun xizmat qiladi. E.From bu tushunchaga shunday deb tavsif beradi: «Inson yomonlik qilar ekan, uning o‘zi ham yanada tubanlashadi»[1]. Ajdodlarimiz ruhiyatining shakllanishida muhim rol o‘ynagan qadimgi madaniy institutlar (rasm-rusumlar, cherkov, o‘yin) hozirgi inson ruhiyatida o‘z-o‘zidan amal qilishini nazarda tutadigan tarixiy interiorizasiya g‘oyasi sirtdagi harakatning shaxs ichki mulkiga aylanish mexanizmini tushuntiradigan interiorizasiya tushunchasini to‘ldiradi.

Tilda uch element: **ovoz, ma’no va obraz farqlanadi**. Ma’noning moddiy ifodalovchilari sanalgan ovoz yoki grafik tasvir so‘zga xosdir. O‘zga ramzlar butunlay boshqacha moddiy ifodalovchilarga ega bo‘lishi mumkin (mehnat amali, imo-ishora, rasm-rusum, rassom asarining elementlari va sh.k.). Shunga qaramay, har qanday ramzlarning qolgan barcha elementlari umumiydir: moddiy ifodalovchi, ma’no va obraz shular jumlasidandir. Faoliyatning hissiy idrok etiladigan har qanday elementi

[1] Фромм Э. Духовная сущность человека. Способность к добру и злу // Человек и его ценности. – М., 1988. – С. 56.

moddiy ifodalovchi bo‘lishi mumkin. Masalan, so‘zda bu **ovoz** yoki grafik tasvir, lekin bunday ifodalovchi vazifasini imo-ishora, mehnat amali yoki boshqa har qanday shunga o‘xshash signal ham bajarishi mumkin.

Ma’noda insoniyatning o‘tmishdagi tajribasi mujassamlashadi. Har qanday ramz ma’nosi insoniyat uchun umumiy xususiyat kasb etadi, ayrim turdagi narsalar, aloqalar, munosabatlar yoki harakatlarning shartli, konvensional mustahkamlangan ifodasi hisoblanadi. Inson faoliyat jarayonida madaniy ramzlarning ma’nolarini anglab yetar ekan, o‘zini qurshagan dunyoni boshqacha idrok eta boshlaydi, chunki unda har qanday hodisani uning so‘zdagi ifodasi bilan bog‘lashga ehtiyoj va qobiliyat yuzaga keladi. Ma’nolar inson ongida dunyoni aks ettiradi.

Obraz – narsa yoki hodisaning o‘ziga xos ma’nosi bo‘lib, u har qanday ramzning haqiqiy ma’nosidan ancha farq qilishi mumkin. Masalan, «tuz» so‘zi hamma uchun ayni bir ma’noni anglatadi – u barcha odamlar ovqatga qo‘shib iste’mol qiladigan moddani ifodalaydi. Ammo kimyogar, yozuvchi yoki oshpaz uchun «tuz» so‘zi butunlay boshqacha ma’no kasb etishi mumkin. Oshpaz tuzda ovqatga xushxo‘r bo‘lishi uchun solinadigan qo‘shilmani ko‘radi, kimyogar tuz deganda ionli tuzilish xos bo‘lgan kimyoviy birikmalar turkumini tushunadi va h.k. Xullas, har qanday so‘z ko‘plab ma’nolarga ega bo‘ladi. Obraz – haqiqiy ma’no va ayrim ma’noning shaxs manfaatlari va ehtiyojlari, uning tuyg‘ulari va mayllari mujassamlashgan o‘ziga xos sintezidir.

Mehnat va o‘yin faoliyat turi sifatida. Odatda mehnat insonning mehnat qurollari yordamida tashqi dunyoga ta’sir ko‘rsatish va oldindan mo‘ljallangan natijaga erishishdan iborat maqsadga muvofiq faoliyati sifatida tavsiflanadi. Mehnat tushunchasiga nisbatan bunday yondashilgan taqdirda, olim, aktyor, pedagog, haykaltarosh, faylasuf faoliyati mehnat hisoblanmaydi. Bugungi kunda unumsiz deb nomlash mumkin bo‘lgan mehnat turlari mavjud emasligi aniq-ravshandir. Zero mehnat yaxlit jarayon bo‘lib, insondan moddiy va ma’naviy kuch-g‘ayrat sarflashni taqozo etadi. Inson va jamiyatning rivojlanishi jarayonida yuz bergan mehnat taqsimoti mazkur yaxlit jarayon parchalanishiga, jismoniy va aqliy mehnatning ajralishiga olib keldi. Ammo mazkur ajralish jismoniy mehnat insonning faqat jismoniy kuch sarflashi, uning muskullari harakati bilan bog‘liq ekanligini anglatmaydi. Jismoniy mehnat inson ma’naviy, ruhiy va asabiy kuch sarflashini ham nazarda tutadi. Ammo jismoniy va asabiy kuch-g‘ayrat ulushi jismoniy mehnatda ko‘proq bo‘ladi. Aqliy mehnat esa, Hech shubhasiz, insonning ma’naviy kuchlari, uning intellektual imkoniyatlaridan ko‘proq foydalanishni nazarda tutadi. Ammo jismoniy mehnat ham, aqliy mehnat ham o‘xshash jihatlarga ega. Birinchidan, jismoniy mehnat ham, aqliy mehnat ham muayyan qurollardan foydalanishni nazarda tutadi. Ikkinchidan, mehnat oldindan mo‘ljallangan natijaga erishishni nazarda

tutadi. Uchinchidan, mehnat tabiat va jamiyat kuchlaridan foydalanmasdan yashay olmaydigan insonning muayyan ehtiyojlari bilan belgilanadi (chunki inson bioijtimoiy mavjudotdir). To‘rtinchidan, jismoniy va aqliy mehnatning eng sodda omillari – mehnat predmetlari, mehnat qurollari va inson mehnatining o‘zi umumiydir. Ammo mehnatning asosiy o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u tashqi dunyoning insonga qarshi turuvchi kuchlarini moddiy va ma’naviy jihatdan o‘zlashtirishni nazarda tutadi.

Mehnatga muayyan abstraksiya, ya’ni faoliyat xossasi sifatida yondashadigan bo‘lsak, uning amaliylik, ayrim foydali natijaga erishishga qaratilganlik kabi xususiyatlarini aniqlashimiz mumkin. Bu inson va tashqi dunyo o‘rtasida yuz beradigan va insondan tashqaridagi unga qarshilik ko‘rsatuvchi kuchlarni jilovlashga qaratilgan jarayondir. Shu sababli mehnat muqarrar tarzda insonning jismoniy va ma’naviy kuch-g‘ayrat sarflanishi bilan bog‘liqdir. U o‘ziga zarur bo‘lgan natijaga erishish yo‘lida bor kuch-g‘ayratini sarflaydi. Mehnat insondan sidqidildan ishlash, zahmat chekishni talab qiladi, tegishli ko‘nikmalarni shakllantirish va irodani toblashni nazarda tutadi. O‘z ma’naviy kuchlarini inson mehnat jarayonini o‘zlashtirish, tashqi kuchlar qarshiligini yengishga sarflaydi. Shu sababli mehnat faoliyati insonga tashqi dunyoni ham, o‘z-o‘zini ham anglash imkonini beruvchi real tajriba sifatida amal qiladi.

9.6. Inson faoliyatini tartibga solishning ahamiyati

Faoliyatning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati uni tartibga solish, individ, jamoa va umuman jamiyat faoliyatini boshqarish muammosini kun tartibiga qo‘yadi. Inson faoliyatini boshqaruvchi mexanizmlarni shartli ravishda ikki turkumga: ichki va tashqiga ajratish mumkin. Faoliyatni tartibga solishning ichki mexanizmlarini biz uning asosiy atributlarini o‘rganish jarayonida ko‘rib chiqdik. Bu maqsadni belgilash, motivasiya, shaxsning fe’l-atvorini tavsiflovchi xususiyatlar – uning mijozi, xarakteri, irodasi, xullas, maqsadlar va ularga erishish vositalarini tanlashni, shuningdek faoliyat uslubini belgilaydigan shaxsning barcha xususiyatlaridir.

Xulq-atvorni tartibga solishning ichki mexanizmlari qatoriga ideallar va didni ham kiritish lozim. Ideal – barkamollik va yetuklikning xayoliy obrazi, odamzotning inson va tabiat, inson va inson, shaxs va jamiyat munosabatlarini tartibga solish, kamolotga yetkazish, uyg‘unlashtirishga bo‘lgan ehtiyojlarining ma’naviy ifodasi. Ideal tartibga solish funksiyasini bajaradi, u inson amalga oshirishga o‘z hayotini baxshida etishga tayyor bo‘lgan strategik maqsadlarni belgilash imkonini beradi.

Did – shaxsning borliq hodisalariga bo‘lgan munosabatini belgilaydigan estetik komillikning o‘ziga xos me’yori. Insonning didiga qarab uning tajribasi, san’atga oshnoligi, badiiy ijod durdonalarining murakkab va rang-barang dunyosida mo‘ljal olish imkonini beruvchi bilim va ko‘nikmalari

haqida xulosa chiqarish mumkin. Didning hukmi go‘zal va xunuk, fojeaviy va kulgili, yuksak va tuban kabi kategoriyalar bilan ish ko‘radi. Didning o‘ziga xosligi shundaki, u tuyg‘ularga tayanadi va mantiqiy asoslashni talab qilmaydi. Qadimgi mutafakkirlar didning tavsifida uning asosiy qarama-qarshiliklariga duch kelganlar: did individual, insonning shaxsiy ichki tuyg‘usi bilan bog‘liq va ayni vaqtda umumiydir; did o‘ta shaxsiy va subyektiv hisoblanadi, lekin u umumiylikka da’vo qiladi. Didda sezish va tushunishning qarama-qarshiligiga ham duch kelish mumkin. Did, xulq-atvor tarzida, turmush va bo‘sh vaqtni tashkil etishda, san’at asarlariga bo‘lgan munosabatda, kiyinish uslubida namoyon bo‘ladi.

Faoliyatni tartibga solish mexanizmlari. Faoliyatni tartibga solishning umumiy mexanizmlari qatoriga insonning dunyoga va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlari tizimini to‘la qamrab oladigan va madaniyat algoritmi bo‘lib xizmat qiladigan rang-barang ijtimoiy qadriyatlar va me’yorlarni kiritish lozim. Xulq-atvor, odatlar va an’analarning ijtimoiy-madaniy me’yorlari, qoidalarining mavjudligi va rivojlanishi inson faoliyatini tartibga solish omili hisoblanadi. Me’yorlar muayyan sharoitda odamlar o‘zini qanday tutishi lozimligini belgilaydi va inson faoliyatida bevosita ishtirok etib, ijtimoiy va tabiiy sharoitlarga shaxsning moslashuvini ta’minlaydi, ijtimoiy jarayonning uzluksizligini ta’minlovchi mexanizm hisoblanadi. Mazmuni, ijtimoiy mustahkamlash usullari va ijtimoiy funksiyalariga ko‘ra me’yorlar har xil bo‘ladi.

Faoliyat maqsadlari, vositalari va usullarini qat’iy belgilovchi qoidalarning butun bir turkumi mavjud. Bu qoidalar ijtimoiy amaliyotda yaratilgan narsalar dunyosini va odamlar o‘rtasidagi munosabatlar dunyosini o‘zgartirish usullarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bular standartlar - muayyan ishni bajarishda qat’iy rioya qilish lozim bo‘lgan sifat, shakl va o‘lchamning qat’iy belgilangan namunasi; qoidalar - tegishli holatlarda qanday ish ko‘rish lozimligini belgilovchi ko‘rsatmalar; etalonlar - faoliyatda mo‘ljal sifatida foydalanish lozim bo‘lgan qat’iy belgilangan, standartlashtirilgan qadriyatlardir. Inson faoliyatini tartibga solishni ta’minlovchi ijtimoiy me’yorlar tizimida huquq normalari va axloq me’yorlari alohida o‘rin egallaydi.

Huquq va axloq. Huquq - davlat tomonidan belgilangan va uning majburlov kuchiga tayanadigan xulq-atvor umumiy normalarining majmui. Axloq ham jamoatchilik fikri, ya’ni qilmishni ma’qullash yoki qoralash bilan mustahkamlanadigan xulq-atvor qoidalari majmuidir.

Axloq va huquq normalari o‘zlari muhofaza qiladigan ijtimoiy munosabatlar mazmuni, normativ talablarni mustahkamlash usullari, ularning shaxs xulq-atvoriga samarali ta’siri darajasiga ko‘ra ajralib turadi. Axloq va huquq normalarining mazmuni o‘rtasida jiddiy farq mavjud emas. Masalan, «o‘g‘rilik qilma» - bu ham axloqiy qoida, ham huquq normasidir.

Ammo huquq normalari o‘z tartibga solish doirasi bilan axloq me’yorlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning ulkan hajmini to‘la qamrab olmaydi. Masalan, oilaviy munosabatlar sohasida huquq ota-onaga o‘z farzandlarini tarbiyalash majburiyatini yuklaydi, lekin ota-onani bir-birini sevish, bir-biriga g‘amxo‘rlik qilishga majburlamaydi. Huquq va axloq o‘rtasidagi farqni ular ko‘rsatadigan ta’sirning samaradorlik darajasida ham ko‘rish mumkin. Bizning nazarimizda, davlat majburlovi kuchiga tayanadigan huquq axloqqa qaraganda samaraliroqdir. Ammo muayyan sharoitda inson uchun huquq axloqiy me’yorlar nufuzi qarshisida ojiz bo‘lishi mumkin. Bu hol shaxsning qadriyatlarga munosabati mazmuni bilan, muayyan inson qaysi axloqiy qadriyatlarga tayanishi, shuningdek u yashaydigan muhit, ya’ni individ fikrini qadrlaydigan referent guruhning qandayligi bilan belgilanadi. Shu sababli axloqiy yo‘l tanlashda ayrim inson uchun ishlab chiqarish jamoasi yoki maktab (talabalar) guruhining nufuzi muhim ahamiyat kasb etishi mumkin, boshqa shaxs uchun esa diniy sekta yoki jinoiy guruh a’zolarining fikri ustunlik qilishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Inson nima uchun falsafaning bosh mavzui deb qaraladi?
2. Shaxs deganda nimani tushunasiz?
3. Inson tanasi va ruhining o‘zaro bog‘liqligi va ular o‘rtasidagi farqlar nimada namoyon bo‘ladi?
4. Irqchilik nazariyasi va uning mazmunini yoritib bering.
5. Inson ma’naviyatining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni qanday?
6. Insonning biologik evolyusiyasi konsepsiyasini izohlab bering?
7. O‘zbekistonda inson qadri va erkinliklari?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Axloq me’yorlarini anglash haqida referat tayyorlang.
2. Inson muammosi falsafa tarixi davomida qanday o‘rganib kelingan to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plang va tushuntiring.
3. Inson haqida berilgan fikrlarni kursdoshlaringizga aytib bering.

X BOB. QADRIYATLAR FALSAFASI (AKSIOLOGYIA)

10.1. Qadriyat tushunchasi va uning falsafiy mazmuni.
10.2. Qadriyatning turlari va tasnifi..
10.3. Qadriyat va baholar. Baholash..
10.4. Jamiyat va inson hayotida qadriyatlarning roli.

Tayanch tushunchalar: Aksiologiya, qadriyat, aktsiologiya predmeti, qadriyatlar - fazilatlar majmun, moddiy va mabnaviy muxit, vorislik, davr ruxi, inson kamoloti, qadriyatlaming baxolash, qadr-qimmat, meros, qadriyatlar-kishilar.

10.1. Qadriyat tushunchasi va uning falsafiy mazmuni

Atrof borliqda odamlar e'tiboridan chetda qoladigan, ular qadriyat sifatida qaramaydigan hodisalar juda kam. Shu sababli qadriyatlar tabiat hodisalari, jamiyatdagi jarayonlar, insoniy xatti-harakatlar va tuyg‘ular kabi ko‘pdir. Ammo bu fikr biz ayrim insonni emas, balki butun insoniyatni nazarda tutgan taqdirdagina o‘rinlidir. Ayrim insonda qadriyatlar, ya'ni uni qiziqtirgan hodisalar doirasi juda tor, cheklangan bo‘lishi ham mumkin. Inson shaxsiyatining torligi uning hayot qadriyatlari, qiziqishlari sonining ozligi va ularning xususiyatida namoyon bo‘ladi.

Jamiyatda mavjud qadriyatlarning rang-barangligi ularni tasniflash zaruriyatini belgilaydi. Shuni qayd etish lozimki, hozirgi zamon aksiologiyasida bu muammoni yechishga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Shu sababli, turli konsetsiyalar doirasida ilgari surilgan bu muammoni yechishga nisbatan yondashuvlarni umumlashtirib, qadriyatlarni ijtimoiy hayot sohalariga ko‘ra; qadriyatlarning subyektlari yoki manbalariga ko‘ra; qadriyatlarning jamiyatdagi roliga ko‘ra tasniflash mumkin.

Aksiologiya (boshqa yunoncha ἀρία "qiymat" + lós "so‘z, ta’limot" dan) - qadriyatlar nazariyasi, falsafaning bo‘limi.

Aksiologiya qadriyatlarning tabiati, ularning voqelikdagi o‘rni va qadriyatlar dunyosining tuzilishi, ya’ni turli qadriyatlarning o‘zaro, ijtimoiy va madaniy omillar va shaxs tuzilishi bilan bog‘liqligini o‘rganadi.

Qadriyatlar masalasi birinchi marta Sokrat tomonidan ko‘tarildi, u uni o‘z falsafasining markaziy nuqtasiga aylantirdi va uni nima yaxshi degan savol sifatida shakllantirdi. Yaxshilik amalga oshirilgan qiymatdir - foydalilik [1] Ya’ni, qiymat va foydalilik bir tanganing ikki tomonidir.

Qadimgi va o‘rta asr falsafasida qadriyatlar haqidagi savollar borliq haqidagi savollarga bevosita kiritilmagan: borliqning to‘liqligi inson uchun axloqiy va estetik ideallarni ifodalovchi mutlaq qadriyat sifatida tushuniladi. Platon kontseptsiyasida Yagona yoki Yaxshilik borliq, yaxshilik va go‘zallik

bilan bir xildir. Qadriyatlar tabiatining bir xil ontologik va yaxlit talqini falsafaning butun Platonik bo‘limi tomonidan, Hegel va Kryuchkomgacha amal qilgan.

Shunga ko‘ra, aksiologiya falsafiy bilimlarning maxsus bo‘limi sifatida borliq tushunchasi ikki elementga bo‘linganda paydo bo‘ladi: reallik va qiymat amaliy amalga oshirish imkoniyati sifatida. Bu holda aksiologiyaning vazifasi borliqning umumiy tuzilishidagi amaliy aql imkoniyatlarini ko‘rsatishdan iborat.

Qadriyat tushunchasi va uning umumiy tavsifi. Qadriyatlar haqidagi ta'limot yaqinda vujudga kelgan deb hisoblash odat tusini olgan. Ammo bu noto‘g‘ri. Falsafa tarixida ildizlari ilk falsafiy tizimlarga borib taqaluvchi ancha kuchli qadriyatlarga doir an'anaga duch kelish mumkin. Qadimgi davrdayoq faylasuflarni qadriyatlar muammosi qiziqtirgan. Ammo o‘sha davrda qadriyat borliq bilan ayniylashtirilgan, qadriyatga xos bo‘lgan xususiyatlar esa uning mazmuniga kiritilgan. Masalan, Zardo‘sht, Moniy, Suqrot va Platon uchun yaxshilik va adolat kabi qadriyatlar haqiqiy borliqning bosh mezonlari hisoblangan. Bundan tashqari, qadimgi faylasuflar qadriyatlarni tasniflashga harakat qilganlar. Xususan, Moniy zulmat va ziyo dunyosi mavjud, birinchi dunyoda adolatsizlik, zulm, zo‘ravonlik, ikkinchisida esa abadiy, yengilmas doimiy qadriyatlar hukm suradi deb xisoblaydi Aristotel o‘ziga to‘q qadriyatlarni (ular jumlasiga faylasuf inson, baxt, adolatni kiritgan) va anglab yetish imkoniyati insonning oqilligiga bog‘liq bo‘lgan nisbiy qadriyatlarni farqlaydi.

Turli falsafiy davrlar va ularda mavjud bo‘lgan falsafiy maktablar qadriyatlar tushunchasining shakllanishiga o‘z hissasini qo‘shgan. Masalan, O‘rta asrlarda g‘arbda ham sharqda ham qadriyatlar diniy xususiyat kasb etgan va ilohiy mohiyat bilan bog‘langan. Uyg‘onish davrida A.Navoiy, A.Jomiy, Rumiy, Leonardo da Vinche ijodida insonparvarlik va hurfikrlilik qadriyatlari birinchi o‘ringa chiqqan. Jumladan A.Navoiyning odil jamiyat qurish haqidagi g‘oyasida umuminsoniy qadriyatlar tizimi, komil inson ta'limotida esa eng yetuk inson qiyofasiga xos shaxsiy qadriyatlar tizimi ifodalangan.

Yangi davrda qadriyatlar haqidagi ta'limotga nisbatan yondashuvlar ratsionalizm nuqtai nazaridan tavsiflana boshlanganki, bu hol fanning rivojlanishi va yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi bilan izohlanadi. Bu davrda qadriyatlar va ularning mezonlari muammosi Rene Dekart, Benedikt (Barux) Spinoza, Klod Adrian Gelvetsiy, Pol Anri Golbax, A. Avloniy, A.Donish, Furqat, Muqumiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida o‘z aksini topgan. Jumladan A.Avloniy ”Turkiy guliston yohud axloq” asarida “yaxshi xulqlar- muhabbat, yaxshilik, adolat, haqiqat, shijoat, ibrat kabi ijobiy qadriyatlarni va razolat, g‘iybat, jaholat, adovat kabi “yomon xulqlar”ni farqlaydi. Keyinroq XX asrda o‘zbek faylasufi

S.Shermuxamedov Avloniy g‘oyasini davom ettirib insonga tabiat 36 ta ijobiy fazilat va 36 ta salbiy illat ato etganligini, ularning qay darajada namoyon bo‘lishi inson o‘z hayotining qadriga yetishida ko‘rinishini e'tirof etadi.

Immanuil Kant falsafasi qadriyatlar haqidagi ta'limotning rivojlanish jarayonida tub burilish yasadi. Kant mavjudlik va joizlik, voqyelik va ideal, borliq va yaxshilik tushunchalarini birinchi bo‘lib farqladi, erkinlik sifatidagi axloqiylik muammosini zaruriyat qonuni ta'siri ostida bo‘lgan tabiat sohasiga qarama-qarshi qo‘ydi va h.k.

Qadriyatlar nazariyasi falsafiy bilimlarning ilmiy tizimi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida Vilgelm Vindelband, Rudolf Lotse, German Kogen, Genrix Rikkert kabi nemis faylasuflarining asarlarida shakllana boshladi. Ayni shu davrda R. Lotse va G.Kogen obyekt ma'nosidagi qadriyat tushunchasiga ilk bor falsafiy ta'rif berdi. XX asrning boshida fransuz faylasufi P.Lapi qadriyatlar nazariyasini ifodalash uchun «aksiologiya» (yunon. axios - qadriyat, logos – fan, ta'limot) atamasini muomalaga kiritdi. Keyinchalik aksiologiya muammolari fenomenologiya, germenevtika, ekzistensializm va boshqa falsafiy yo‘nalishlarning vakillari tomonidan tadqiq etildi.

Mamlakatimizda aksiologiya qadriyatlar haqidagi fan sifatida sho‘ro davrida, uning nazariy asosini idealistik falsafa tashkil qilgani uchun rad etildi. XX asrning 80-yillaridan e'tiboran bu nazariya rivojlana boshladi. Bu dastlab X. Shayxova, Q. Nazarov ijodida milliy qadriyatlarning asosiy shakllari, inson qadri va shaxsiy qadriyatlarning tahlilida, so‘ngra bir qancha yosh olimlar ijodida o‘z ifodasini topdi. Xususan, Q.Nazarov inson qadri haqida fikr yuritar ekan, “Qarilik iborasini insonga nisbatan biologik ma'noda ishlatish mumkin, ammo bu tushunchani inson qadriga va qadriyatlariga nisbatan ishlatish nojoiz. Zero, qarilik qadrsizlanish bo‘lmagani kabi yoshlik ham beqadrlik degani emas” deb ta'kidlaydi. Binobarin o‘z shaxsi va boshqalarning qadrini anglash uchun insonning ma'naviy dunyosi ezgulikka xizmat qilishi, yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo‘lishi, uning o‘zi esa hayotning bebaho ne'mat ekanligini anglaydigan darajada tarbiyalangan bo‘lmog‘i lozim.

Demak, qadim zamonlardan boshlab hozirgi vaqtgacha falsafada qadriyat muayyan narsaning atributimi yoki u shaxs va jamiyat ehtiyojlari bilan belgilangan baholash mahsulimi, degan masala atrofida turli falsafiy maktablar va yo‘nalishlarning vakillari o‘rtasida muhokama qilingan va u hozir ham davom etmoqda. Birinchi holda qadriyat insondan qat'iy nazar mavjud bo‘lgan obyektiv narsa yoki hodisa sifatida talqin qilinadi. Ikkinchi holda qadriyat tushunchasi erkin xususiyatga ega bo‘lgan subyektiv nisbiy mulohazalar bilan bog‘lanadi. Qadriyatlar mazmuni obyektlardan emas, balki insonning ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Bu ikki qarama-qarshi nuqtai

nazar qadriyat tushunchasining ba'zi bir xususiyatlarini aks ettiradi, lekin u haqda aniq tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi.

Xo‘sh aksiologiya nimani o‘rganadi? *Aksiologiya – falsafaning qadriyatlarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi alohida bo‘limi (yunon. axios - qadriyatlar, logos – bilim: qadriyatlar haqidagi fan).* Qadriyatlar ulkan falsafiy ahamiyatga ega. *Qadriyatlar tushunchasi insonning dunyoga bo‘lgan munosabatining alohida jihatini namoyon etadi. Ular inson faoliyati, jamiyat va madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini yanada teranroq anglab yetish imkonini beradi.* Qadriyatlar inson va jamiyat hayotida muhim o‘rin egallaydi, chunki insonning hayot tarzini, uning hayvonot dunyosidan ajralish darajasini aynan qadriyatlar tavsiflaydi. Qadriyatlar shaxsning hayot faoliyatida fundamental ahamiyat kasb etadi. Qadriyatlar odamlarni jipslashtirish, ularni hamjamiyatlarga birlashtirishning muhim omili hisoblanadi. Umumiy qadriyatlarning mavjudligi fuqarolar, ijtimoiy birliklar va guruhlarning tinch-totuvligini ta'minlaydi. Qadriyatlar muammosi jamiyat rivojlanishining o‘tish davrlarida, tub ijtimoiy o‘zgarishlar jamiyatda mavjud bo‘lgan qadriyatlar tizimlarida o‘zgarishlar yasab, odamlarni yo o‘zlari ko‘nikkan eski qadriyatlarni saqlash, yo turli partiyalar, jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlar, harakatlarning vakillari tomonidan taklif qilinayotgan, hatto majburiy tarqatilayotgan yangi qadriyatlarga moslashishga majbur etuvchi davrlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Qadriyatlar va mo‘ljallarni yo‘qotish yoki vujudga kelgan qadriyatlar tizimidan voz kechish esa muqarrar tarzda jamiyatning tanazzulga yuz tutishi va parchalanishiga olib keladi. Qadriyatlar – madaniyatning tizim yaratuvchi muhim omili. Qadriyatlar mazmuniga qarab butun jamiyat haqida hukm chiqarish mumkin. Shu sababli qadriyatlar nima, qadriyat va bahoning o‘zaro munosabati qanday, qaysi qadriyatlar inson uchun eng muhim va qaysilari ikkinchi darajali, degan savollar bugungi kunda olamshumul ahamiyat kasb etadi. Aksiologiyaning predmetini barcha turdagi qadriyatlar, ularning tabiati, turli qadriyatlarning bir-biri, ijtimoiy va madaniy omillar hamda shaxs strukturasi bilan aloqasi tashkil etadi. Aksiologiya ta'limotiga ko‘ra, qadriyatlar muayyan normativ kategoriya bo‘lib, ular maqsad, ideal, mayl, intilish, qiziqish predmeti sanalgan hamma narsani qamrab oladi. Quyidagilar bu nazariyaning asosiy tushunchalari va kategoriyalari hisoblanadi: yaxshilik, qadr-qimmat, foyda, ahamiyat, baho, g‘alaba, hayotning mazmuni, baht, hurmat va h.k.

Qadriyatning tabiati va mohiyatini tushunishga nisbatan bir necha yondashuv mavjud bo‘lib, ular aksiologiya falsafiy tadqiqotlarning mustaqil sohasi sifatida vujudga kelganidan so‘ng paydo bo‘lgan. Quyida ularning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

1. **Naturalistik psixologizm** (Aleksius fon Meynong, Ralf Barton Perri, Jon Dyui, Klarens Irving Lyuis) qadriyatlarga manbai insonning biologik va psixologik ehtiyojlarida mujassamlashgan obyektiv omillar sifatida qaraydi. Mazkur yondashuv inson o‘zining muayyan ehtiyojlarini qondirish jarayonida foydalanuvchi har qanday predmetlar va harakatlarni qadriyatlar qatoriga kiritish imkonini beradi.

2. **Personalistik ontologizm.** Mazkur yo‘nalishning eng taniqli namoyandasi Mark Sheler ham qadriyatlarning obyektiv xususiyatini asoslashga harakat qilgan. Ammo, Sheler konsepsiyasiga binoan, muayyan predmetlar, hodisalar qadriyatini ularning empirik tabiati bilan ayniylashtirish mumkin emas. Aytaylik, rang o‘zi tegishli bo‘lgan predmetlardan qat'iy nazar mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lganidek, qadriyatlar ham (go‘zallik, ezgulik, fojeaviylik) o‘zlari tavsiflovchi narsalardan qat'iy nazar idrok etilishi mumkin.

Sheler fikriga ko‘ra, qadriyatlar dunyosi muayyan ierarxiyaga ega. Bu ierarxiyaning quyi pog‘onasini hissiy mayllarni qondirish va moddiy ne'matlar bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar egallaydi; yuksakroq qadriyatlar – bu «go‘zallik» qadriyatlari va «ma'rifiy» qadriyatlar; «ilohiylik» va Xudo g‘oyasi eng oliy qadriyat hisoblanadi. Bu qadriyatlar dunyosining realligi ilohiy shaxsning qadriyatiga asoslanadi. Inson shaxsining tipi esa unga xos bo‘lgan qadriyatlar ierarxiyasi bilan belgilanadi. Ayni shu ierarxiya mazkur shaxsning ontologik asosi hisoblanadi.

3. **Aksiologik transsendentalizm** (Vilgelm Vindelband, Genrix Rikkert) qadriyatlarni obyektiv borliq sifatida emas, inson ehtiyojlari va mayllariga bog‘liq bo‘lmagan ideal borliq sifatida tushunadi. Bunday qadriyatlar qatoriga mustaqil mazmun kasb etadigan va ideal me'yorlar tarzida mavjud bo‘lgan qadriyatlar – haqiqat, yaxshilik, adolat, go‘zallik kiradi. Shunday qilib, mazkur konsepsiyada qadriyat borliq emas, balki manbai muayyan transsendental, ya'ni g‘ayrioddiy ong sanalgan idealdir.

4. **Madaniy-tarixiy relyativizm**. Aksiologiyaning bu yo‘nalishi asoschisi Vilgelm Diltey bo‘lgan. Uning ta'limoti zamirida aksiologik plyuralizm g‘oyasi yotadi. Aksiologik plyuralizm deganda Deltey tarixiy metod yordamida farqlanuvchi va tahlil qilinuvchi teng huquqli qadriyatlar tizimlarining ko‘p sonliligini tushungan. Mohiyat e'tibori bilan bu yondashuv real madaniy-tarixiy kontekstni mavhumlashtirib, qadriyatlarning birdan-bir to‘g‘ri, mutlaq konsepsiyasini yaratish yo‘lidagi urinishlarni tanqid tig‘i ostiga olgan.

5. **Qadriyatlarning sotsiologik konsepsiyasi.** Bu konsepsiyaning asoschisi qadriyatlar tushunchasini sotsiologiyaga kiritgan va undan ijtimoiy harakat va ijtimoiy bilimni talqin qilish uchun foydalangan Maks Veberdir. Veber fikriga ko‘ra, qadriyat – ijtimoiy subyekt uchun muayyan ahamiyatga ega bo‘lgan me'yor.

Keyinchalik Veberning bu yondashuvini amerikalik sotsiolog Uilyam Tomas va polyak sotsiologi Florian Znanetskiy rivojlantirdi. Bu olimlar qadriyatlarni ularning ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridangina emas, balki ijtimoiy mo'ljallar orqali ham tavsiflay boshladilar. Ularning fikriga ko'ra, tavsiflash mumkin bo'lgan mazmunga va muayyan ijtimoiy guruh a'zolari uchun ahamiyatga ega bo'lgan har qanday predmet qadriyat hisoblanadi. Mo'ljallar esa guruh a'zolarining qadriyatga bo'lgan subyektiv munosabatini anglatadi.

Hozirgi zamon falsafiy va sotsiologik adabiyotlarida ham qadriyatlarning tabiati va mohiyatini tushunishga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Ayrim tadqiqotchilar qadriyatga insonning ma'lum bir ehtiyojini qondirishga yoki unga muayyan foyda keltirishga qodir bo'lgan predmet sifatida; ayrimlar – ideal, me'yor sifatida; yana bir guruh olimlar – biron-bir narsaning inson yoki ijtimoiy guruh uchun ahamiyati sifatida yondashadilar. Zikr etilgan yondashuvlarning har biri mavjud bo'lish huquqiga ega, chunki ularning barchasi qadriyatlarning muayyan jihatini aks ettiradi; ularga bir-birini istisno etuvchi yondashuvlar sifatida emas, balki bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlar sifatida qarash kerak. Mazkur yondashuvlar sintezi hozirgi zamon qadriyatlar umumiy nazariyasini tashkil etadi.

10.2. Qadriyatlarning turlari va tasnifi

Shaxs va jamiyat ehtiyojlari va manfaatlarining rang-barangligi qadriyatlarning murakkab tizimida o'z aksini topadi. Bu qadriyatlar turli asoslarga ko'ra tasniflanadi.

Mazmun jihatidan jamiyatning kichik tizimlari haqidagi tasavvurlarga mos keluvchi qadriyatlar, chunonchi: moddiy (iqtisodiy), siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar farqlanadi. Kichik tizimlarning har biri o'z tasnifini nazarda tutuvchi tarkibiy qismlarga bo'linadi. Masalan, moddiy qadriyatlar ishlab chiqarish-iste'molga doir (utilitar) qadriyatlarni, mulkiy, maishiy munosabatlar bilan bog'liq qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Ma'naviy qadriyatlar axloqiy, ma'rifiy, estetik, diniy g'oyalar, tasavvurlar va bilimlarni o'z ichiga oladi.

Qadriyatlar muayyan tarixiy xususiyat kasb etadi. Ular jamiyat rivojlanishining u yoki bu bosqichiga mos keladi yoki turli demografik guruhlar (yoshlar, keksa avlod vakillari)ning, shuningdek kasbiy, sinfiy, diniy, siyosiy va boshqa birlashmalarning qadriyatlarini aks ettiradi. Jamiyat ijtimoiy tuzilishining bir jinsli emasligi qadriyatlarning va qadriyatlarga munosabatning bir jinsli emasligini va hatto ziddiyatliligini vujudga keltiradi. Shu ma'noda qadriyatlar ijtimoiy munosabatlar mavjudligining moddiy shaklidir.

Mavjudlik shakliga ko‘ra moddiy va ideal (ma'naviy) qadriyatlar farqlanadi. Ijtimoiy hayotning asosiy sohalariga muvofiq odatda qadriyatlarning **uch guruhi** farqlanadi: **moddiy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar va ma'naviy qadriyatlar**.

Moddiy qadriyatlar – bu qadriyat ahamiyatiga molik bo‘lgan tabiiy obyektlar va predmetlar, ya'ni mehnat vositalari va bevosita iste'mol buyumlaridir. Tabiiy qadriyatlar qatoriga tabiiy boyliklarda mujassamlashgan tabiiy ne'matlar kiradi. Moddiy qadriyatlar jumlasiga inson mehnati natijasida yaratilgan moddiy dunyo predmetlari, shuningdek o‘tmish madaniy merosi predmetlari kiradi. Moddiy qadriyatlar – bu tabiiy ne'matlar, mehnat mahsullarining iste'mol qiymati, ijtimoiy hodisalarda mujassamlashgan ijtimoiy ne'matlar, tarixiy voqyealar, madaniy meros, axloqiy ezgulik, go‘zalik mezonlarigani qanoatlantiruvchi estetik hodisalar, diniy ibodat predmetlari yoki o‘zining muayyan ramziy ifodasini topgan diniy g‘oyalar va sh.k. Moddiy qadriyatlar ongda emas, balki odamlar hayot faoliyatida amal qiluvchi muayyan narsalar, hodisalar dunyosida mavjud bo‘ladi. Moddiy qadriyatlarning asosiy sohasi – shaxs va jamiyatning barkamollik haqidagi tasavvurlarini gavdalantiruvchi inson maqsadga muvofiq faoliyatining mahsullari. Bunda o‘zining moddiy ifodasini topgan qadriyat sifatida faoliyat natijasi ham, faoliyatning o‘zi ham amal qilishi mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar – bu ijtimoiy va siyosiy hodisalar, voqyealar, siyosiy aktlar va harakatlarning qadriyat sifatidagi ahamiyatidir. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar qatoriga, odatda, siyosiy va ijtimoiy harakatlarda mujassamlashgan ijtimoiy imtiyozlar, shuningdek jamiyatning ravnaq topishi, xalqlar o‘rtasida tinchlik va hamkorlikning mustahkamlanishiga ko‘maklashuvchi tarixiy voqyealarning progressiv ahamiyati kiradi.

Ma'naviy qadriyatlar – bu ijtimoiy ong hodisalarining tegishli shakllarda namoyon bo‘lgan me'yoriy-nisbiy tomoni. Fan, axloq, san'at, falsafa, huquq qadriyatlarini ma'naviy qadriyatlar deb hisoblash odat tusini olgan.

Ma'naviy qadriyatlar qatoriga baxt-saodat, yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik, adolat va adolatsizlik, huquqiylik va nohuquqiylik, tarixning mazmuni va insonning vazifasi va hokazolar haqidagi me'yoriy tasavvurlar ko‘rinishida ifodalangan ijtimoiy ideallar, mo‘ljallar va baholar, me'yorlar va taqiqlar, harakat prinsiplari kiradi. Moddiy qadriyatlar inson ehtiyojlari va manfaatlari obyektlari sifatida amal qilsa, ma'naviy qadriyatlar ikki xil funksiyani bajaradi: ular qadriyatlarning mustaqil sohasi va moddiy qadriyatlarni baholash asosi, mezonidir.

Qadriyatlar borlig‘ining ideal shakli yo barkamollik, joizlik va zaruriyat haqidagi aniq tasavvurlar ko‘rinishida, yo botiniy mayllar, xohish-istaklar, intilishlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Barkamollik haqidagi tasavvurlar

yo muayyan andoza, ideal ko‘rinishida (masalan, estetik faoliyatda) namoyon bo‘lishi, yo til vositalari bilan ifodalanishi mumkin.

Ideal – barkamollikning oliy me'yori haqidagi tasavvur, insonning inson va tabiat, inson va inson, shaxs va jamiyat munosabatlarini tartibga solish, barkamollashtirish va uyg‘unlashtirishga bo‘lgan ehtiyojining ma'naviy ifodasi. Ideal tartibga soluvchi funksiyani bajaradi, u inson ro‘yobga chiqarishga butun umrini bag‘ishlashga tayyor bo‘lgan strategik maqsadlarni aniqlash imkonini beruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Idealga amalda erishish mumkinmi? Aksariyat mutafakkirlar bu savolga rad javobini bergan: ideal barkamollik va tugallanganlik timsoli sifatida empirik yo‘l bilan kuzatiluvchi borliqda o‘z o‘xshashiga ega emas, u ongda transsendentallik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Shunga qaramay ideal ma'naviy qadriyatlarning jamuljam ifodasi hisoblanadi

Moddiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qadriyatlar o‘rtasida mavjud tafovutlarga qaramay, ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq va qadriyatlarning har bir turida boshqa bir turning muayyan jihati mavjud. Ayni paytda, shunday qadriyatlar ham borki, ularni moddiy qadriyatlar qatoriga ham, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar qatoriga ham, ma'naviy qadriyatlar qatoriga ham kiritish mumkin. Bu avvalo umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlardir. Ularning orasida inson hayoti, sog‘lig‘i, erkinligi va shu kabilarni qayd etish mumkin.

Qadriyatlarni tasniflashning ikkinchi asosi – subyektlarga ko‘ra individual shaxsiy (subyektiv-shaxsiy), gruppaviy, umuminsoniy qadriyatlar farqlanadi - (gruppaviy, milliy, sinfiy, umuminsoniy) qadriyatlar farqlanadi.

Individual yoki shaxsga doir qadriyat – bu narsa, hodisa, g‘oyaning muayyan inson uchun qadriyat sifatidagi ahamiyati. Har qanday qadriyat o‘z mohiyatiga ko‘ra individualdir, zero narsa, hodisa, g‘oyani faqat insongina baholashga qodir. Shaxsiy qadriyatlar ta'lim va tarbiya, individ hayot tajribasini to‘plashi jarayonida shakllanadi Shaxsiy qadriyatlar individning ehtiyojlari va manfaatlari ta'sirida vujudga keladi. Ular kishilarning mayllari, didlari, odatlari, bilim darajasi va boshqa individual xususiyatlari bilan belgilanadi.

Gruppaviy qadriyatlar to‘g‘risida so‘z yuritar ekanmiz, biz bu bilan mazkur narsa, hodisani bir individ emas, balki ularning muayyan majmui ijobiy baholashiga urg‘u beramiz. Gruppaviy qadriyatlar – bu narsalar, hodisalar, g‘oyalarning odamlar muayyan birligi (sinf, millat, mehnat jamoasi va sh.k.) uchun qadriyat sifatidagi ahamiyatidir. Gruppaviy qadriyatlar muayyan jamoaga kiruvchi individlarni yagona manfaatlar, qadriyatlar va mo‘ljallar bilan birlashtirib, mazkur jamoaning hayot faoliyatida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Umuminsoniy qadriyatlar – bu narsalar, hodisalar, g‘oyalarning jahon hamjamiyati uchun qadriyat sifatidagi ahamiyatidir. Umuminsoniy

qadriyatlar qatoriga, birinchidan, jahon hamjamiyati aholisining aksariyati amal qiladigan ijtimoiy-siyosiy va axloqiy tamoyillar kiradi. Ikkinchidan, umuminsoniy qadriyatlar jumlasiga umuminsoniy ideallar, umumxalq maqsadlari va ularga erishishning asosiy vositalari (ijtimoiy adolat, insonning ha'ni va qadr-qimmati, fuqarolik burchi va sh.k.) kiradi. Shuningdek, umuminsoniy qadriyatlar qatoriga tabiiy boyliklar hamda o‘z mohiyati va ahamiyatiga ko‘ra olamshumul xususiyat kasb etuvchi qadriyatlar: tinchlikni saqlash, qurolsizlanish, xalqaro iqtisodiy tartib muammolari ham kiradi. Umuminsoniy qadriyatlar – jamiyat va madaniyatning rivojlanishi mahsuli.

Shaxsiy, gruppaviy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan ijtimoiy nuqtai nazardan uzviy bog‘liq. Falsafa uchun quyidagi savollar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi: shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarning o‘zaro nisbati qanday, qaysi qadriyatlar ustunroq - ijtimoiy qadriyatlarmi yoki shaxsiy qadriyatlarmi, shaxsiy qadriyatlar ijtimoiy qadriyatlar ta'sirida shakllanadimi yoki, aksincha, ijtimoiy qadriyatlar individlarning ehtiyojlari va manfaatlari muvofiqlashtirilishi natijasida vujudga keladimi?

Falsafa tarixida bu savollarga aniq va uzil-kesil javob berilmagan. Masalan, relyativistik aksiologiya qadriyatlarni va ularga mos keluvchi baholarni insonning individual borlig‘i bilan belgilanuvchi manfaat yoki vaziyatdan keltirib chiqaradi. Relyativizmga qarama-qarshi o‘laroq, naturalistik yo‘nalish qadriyatlarni subyekt tafakkuriga va uning nisbiy mulohazalariga bog‘liq emas, baholovchiga nisbatan birlamchi deb tasavvur qiladi. Freyd va ekzistensialistlar umumiy qadriyatlarning ta'sirini tan oladi, lekin ijtimoiy qadriyatlar tazyiqi inidividual qadriyatlar bilan to‘qnashuvga sabab bo‘ladi va ularni chetga surib qo‘yadi, deb hisoblab, bu ta'sirga salbiy baho beradi. Freyd fikriga ko‘ra, ijtimoiy nazorat nevrozlarning turli shakllarini vujudga keltirib, shaxsning moslashuvchanligi yo‘qolishiga olib keladi. Freyd individning botiniy mayllari jamlangan ruhiyati bilan uning ongidan jamiyat talablariga zid bo‘lgan g‘oyalarni siqib chiqaruvchi madaniyat o‘rtasida konflikt mavjudligini ko‘radi. Tabiiy asoslar va madaniyat qadriyatlarining to‘qnashuvi inson baxtining kamayishiga, individning o‘z tabiiy mayllarini cheklashga qodir emasligi bilan bog‘liq bo‘lgan jamiyat oldida aybdorlik hissining kuchayishiga olib keladi.

Shaxsning shakllanishi o‘ziga xos qadriyatlar majmuiga ega bo‘lgan ijtimoiy guruhlar, birliklar va birlashmalar doirasida yuz beradi. Ko‘rsatilgan guruhlarga shaxsning mansubligi shunda namoyon bo‘ladiki, shaxs ularning ideallari va qadriyatlarini qabul qiladi. Ammo shaxs, odatda, bir emas, balki bir nechta ijtimoiy guruhlar (millatlar va sinflar, oila va o‘quv yurti, do‘stlar davrasi va ishlab chiqarish jamoasi va sh.k.)ga qo‘shiladi. Turli guruhlarda har xil va hatto qarama-qarshi qadriyatlar ustuvor bo‘lishi mumkin. Bu guruhlar o‘rtasidagi ziddiyatlar shaxs

tafakkurida qadriyatlarning to‘qnashuvi yuz berishiga olib kelishi mumkin. Ayni hol shaxs ustuvor qadriyatlarni mustaqil izlashiga turtki beradi. Shunday qilib, shaxsning individuallashgan, o‘ziga xos va betakror xususiyatlari vujudga kelishi, uning alohida hayot tajribasi muqarrar tarzda ijtimoiy qadriyatlarga zid bo‘lmagan, balki ularni to‘ldiradigan alohida individuallashgan qadriyatlarning shakllanishi bilan bog‘liqdir.

10.3. Qadriyat va baholar. Baholash

Aksiologiyaning asosiy kategoriyalari qatoriga qadriyat bilan bir qatorda hajman juda keng tushuncha – «baholash» ham kiradi. Baholash – buyumning inson faoliyati, uning ehtiyojlarini qondirish uchun ahamiyatini anglab yetish vositasi. Baholash subyektning o‘z hayoti va faoliyati uchun hodisalarning ijtimoiy ahamiyatini aniqlashidir. U insonga hodisalar dunyosida mo‘ljal olish imkonini beradi, uning faoliyatini yo‘lga soladi. Baholash universaldir: u sezgilar va aql-idrok darajasida, emotsiyalar va tuyg‘ular, tasavvurlar, idroklar, mulohazalar, mayllar, istaklar, intilishlar, afzalliklar va, albatta, faoliyat ko‘rinishida ro‘yobga chiqib, inson hayot faoliyatining barcha turlariga ta'sir ko‘rsatadi.

Baholashning mohiyatini teranroq anglab yetish uchun uni «qadriyat» bilan solishtirish o‘rinli bo‘ladi. Baholash va qadriyat – bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tushunchalar, lekin ularning o‘rtasida jiddiy farq ham mavjud. Xo‘sh, bu farq nimalarda ko‘rinadi?

Birinchidan, qadriyat biz baho berayotgan narsa, ya'ni baholash predmeti bo‘lsa, baholash – bu baho berish jarayoni, ya'ni aqliy faoliyat bo‘lib, uning natijasi o‘laroq borliqning muayyan predmeti biz uchun qanday qimmatga ega ekanligi aniqlanadi. Predmetni yoki uning xossasini foydali, yoqimli, yaxshi, chiroyli deb topib, biz baholashni amalga oshiramiz.

Ikkinchidan, faqat ijobiy ahamiyat kasb etuvchi qadriyatlardan farqli o‘laroq («salbiy qadriyatlar» bo‘lishi mumkin emas), berilgan baho ijobiy bo‘lishi ham, salbiy bo‘lishi ham mumkin. Biz muayyan predmetni yoki uning xossasini foydali emas, balki zararli deb topishimiz, muayyan xatti-harakatni yomon, axloqqa zid deb baholashimiz, ko‘rilgan filmni mantiqsiz deb qoralashimiz mumkin. Bunday fikrlarning barchasi baholash hisoblanadi.

Uchinchidan, qadriyat amaliy munosabat mahsuli sifatida obyektiv hisoblanadi. Baholash esa subyektivdir. U obyektiv qadriyatning sifatigagina emas, balki baholovchi subyektning ijtimoiy va individual fazilatlariga ham bog‘liqdir. Ayni shu sababli ayni bir hodisa ayni bir davrda yashayotgan odamlar tomonidan turlicha baholanishi mumkin.

Bu yerda haqiqiy va soxta baholar to‘g‘risidagi masala yuzaga kelishi mumkin.

Baholash ilmiy bilimlarga tayanishi ham, odatdagi bilimlarga, an'analarda, odatlarda mujassamlashgan ijtimoiy tajribaga va hatto turli xurofiy aqida va bid'atlarga tayanishi ham mumkin. Kezi kelganda shuni qayd etib o‘tish lozimki, baholashning fanga oddiy mansubligi uning muqarrar tarzda haqqoniyligidan dalolat bermaydi, xuddi shuningdek oddiy ong darajasida baholash o‘z-o‘zidan uning soxtaligini anglatmaydi.

Berilgan bahoning haqqoniyligi subyekt qadriyatning obyektiv ahamiyatini qay darajada aniq anglab yetgani bilan belgilanishini tushunish muhimdir. Haqiqat to‘g‘risidagi masalada bo‘lganidek, bu yerda ham amaliyot bosh mezon hisoblandi.

Baholash strukturasi. Baholash strukturasida ikki tomonni shartli ravishda farqlash mumkin.

Baholashning birinchi tomoni narsalar, xossalar, jarayonlar va hokazolarning ayrim obyektiv xususiyatlarini qayd etish bo‘lsa, ikkinchi tomoni subyektning obyektga bo‘lgan munosabati: ma'qullash yoki qoralash, xayrixohlik yoki yomon ko‘rish va hokazolardir. Birinchi tomonning baholashi bilimga yaqinroq bo‘lsa, ikkinchi tomonning baholashi me'yorga yaqinroqdir.

Baholashning funksiyalari ham uning ichki ziddiyatlarga to‘la tabiati bilan belgilanadi. Hozirgi zamon qadriyatlar nazariyasida odatda baholashning quyidagi funksiyalari farqlanadi

Dunyoqarashga doir funksiya. Mazkur funksiyaga muvofiq baholash subyekt o‘zligining shakllanishi, amal qilishi va kamol topishining zaruriy sharti hisoblanadi, chunki har doim uning uchun atrof borliqning ahamiyatini aniqlash bilan bog‘liq.

Gnoseologik funksiya borliqning in'ikosi, obyektlarning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetish omili sanalgan baholash va bilishning o‘ziga xos jihati hisoblanadi.

Baholashning faollashtiruvchi funksiyasi. Baholash bilishning bilimlardan foydalanishga qaratilganini aks ettiradi, amaliy faoliyatga faol intilish va munosabatni shakllantiradi.

Variativ funksiya. Baholash tanlashni, subyekt muayyan obyektlarni, ularning xossalari, munosabatlarini afzal ko‘rishini nazarda tutadi. Baholash hodisalarni taqqoslash va ularning jamiyatda mavjud me'yorlar, ideallar bilan o‘zaro nisbatini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, qadriyatning mohiyatini va uning baholash bilan o‘zaro aloqasini o‘rganish qadriyatlarning tasnifiga o‘tish imkonini beradi. Qadriyatning borlig‘i baholash bilan uzviydir. Baholash yo‘li bilan individ ayrim qadriyatlarni aktuallashtiradi, ba'zi bir qadriyatlarni esa rad etadi, ularning ierarxiyasini o‘rnatadi. Baholash strukturasiga, baholash predmeti, subyekt va asosi kiradi.

Baholash predmeti. Baholashning obyektiv mazmuni uning predmeti bilan belgilanadi. Shu sababli baholash bilish bilan bevosita bog‘liq, zero predmetning ahamiyati haqida xulosa chiqarishdan oldin uning obyektiv xossalari haqida bilimga ega bo‘lish lozim. Haqiqiy, ishonchli bilimning o‘zi baholash uchun asos bo‘lishi mumkin.

Haqiqatning amaliy jihatdan foydaliligi uni ijobiy tavsiflash imkonini beradi. Ammo haqiqatga berilgan salbiy baholar ham yaxshi ma'lum: behuda, shafqatsiz, befoyda va sh.k. Bu tasodifiy bir hol emas: ilmiy bilish o‘z oqibatlarini mavhumlashtiradi va aksariyat olimlar fan va axloqning aloqasini rad etadi. Ayrim universal aloqani xolisona tavsiflashga qarab mo‘ljal oluvchi ilmiy bilimdan farqli o‘laroq, baholash bu aloqaning mazmunini tushunish, uning ahamiyatini tafakkur va emotsiyalar darajasida anglab yetish va boshdan kechirishdir. Baholashga doir mulohazalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bilim borliq hodisalarini erkin baholashga monelik qilmaydi. Bilishga doir mulohazalar intersubyektiv hamda nuqtai nazarlarga bog‘liq bo‘lmasa, baholashga doir mulohazalar subyektiv bo‘lib, har xil asoslarga ega. Biz estetik, siyosiy, axloqiy, dunyoqarashga doir, mafkuraviy qadriyatlarda erkin baholashlarga ayniqsa ko‘p duch kelamiz. Ma'lumki, natijalar, metodlar va vositalarni baholash – bilish jarayonining ajralmas tarkibiy qismi. Bu xususiyat gipotezalar, konsepsiyalar, kashfiyotlarning amaldagi qimmati va ularga ilmiy hamjamiyat, zamondoshlar bergan baholarning nomuvofiqligini tushuntiradi. Yanglish tasavvurlar, gipotezalarning ilmiy ahamiyatini baholash ham muhim muammodir. Bilimning haqiqiyligi uning obyektiv borliqqa bo‘lgan munosabati bilan belgilansa, uning bilim sifatidagi qimmati fanning rivojlanish jarayonida aniqlanadi va uning bilish jarayoniga ta'sirining ahamiyati bilan belgilanadi. Masalan, o‘tmishning ko‘pgina soxta konsepsiyalari (astrologiya, alximiya va sh.k.) hozirgi zamon fanining shakllanishiga ancha kuchli ta'sir ko‘rsatgan. Bu soxta tasavvurlarning evristik imkoniyatlari ularning bilim sifatidagi mazmunidan boyroq bo‘lib chiqqan.

Baholash subyekti. Bahoning shakllanishiga baholash subyekti: individ, ijtimoiy guruh, jamiyat, insoniyat ancha kuchli ta'sir ko‘rsatadi. Avvalo, ehtiyojlarning boyligi, inson ma'naviy hayotining murakkabligi bilan izohlanuvchi baholash asoslarini tanlash subyektivdir. Ma'lum hollarda subyekt shaxsiy (gruppaviy) manfaatni, o‘tkinchi egoistik mayllarni baholashning birdan-bir asosi sifatida tanlaydi. Bu tasodifiy bir hol emas. Individ ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarining ko‘p sonliligi va ierarxiyaviyligi uning borliq voqyealarini baholashga nisbatan yondashuvlarining serqirraligini nafaqat tushuntirdi, balki buni nazarda tutadi. Ayni vaqtda psixologiya va sotsiologiyada mazmun va ahamiyat jihatidan har xil bo‘lgan hodisalarga ayni bir subyekt tomonidan berilgan

baholarda barqarorlik, o‘zgarmaslik, takroriylik qayd etiladi. Shaxs ijtimoiy-madaniy va shaxsiy qadriyatlarning ancha batartib tizimiga amal qilgan holda o‘zini yaxlitlik sifatida namoyon etadi. Ehtiyojlardan kelib chiquvchi mazkur tizim inson o‘zini qurshagan borliq: tabiat dunyosi, ma'nviy madaniyat va o‘z-o‘zini baholashining teran asosi sifatida amal qiladi. Shunga qaramay shaxsning yo‘l tanlashini belgilovchi qadriyat va mo‘ljallari insonning yashash sharoitlari va ehtiyojlari kabi o‘zgaruvchandir. Natijada baholashlarda o‘zboshimchalik, subyektivizmga yo‘l qo‘yilishi xavfi yuzaga keladi.

Baholashga doir mulohazalarda inson madaniyati, uning to‘g‘ri tushunish va his qilish qobiliyat

10.4. Jamiyat va inson hayotida qadriyatlarning roli

Ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. Inson va jamiyat uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar. Bu shunday qadriyatlarki, ularsiz jamiyat va insonning normal faoliyati izdan chiqmaydi.

2. Kundalik hayot va ehtiyojlar bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar. Bu guruhga aksariyat moddiy va ma'naviy qadriyatlar kiradi. Bular insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, jamiyatning normal faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo‘lgan qadriyatlardir.

3. Oliy qadriyatlar – bu o‘z ahamiyatiga ko‘ra eng yuksak darajada turuvchi, odamlarning fundamental munosabatlari va ehtiyojlarini aks ettiruvchi qadriyatlardir. Oliy qadriyatlarsiz nafaqat inson shaxs sifatida kamol topa olmaydi, balki jamiyat ham normal hayot kechira olmaydi. Oliy qadriyatlarning mavjudligi doimo individning shaxsiy hayoti chegarasidan chetga chiqish bilan bog‘liq. Ular individni uning o‘zidan yuksak bo‘lgan, uning hayotini belgilaydigan, uning taqdiri uzviy bog‘liq bo‘lgan narsalar bilan oshno etadi. Ayni shu sababli oliy qadriyatlar odatda umuminsoniy xususiyat kasb etadi.

Moddiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qadriyatlarning bir qismi oliy qadriyatlar qatoriga kiradi. Bular avvalo: tinchlik, insoniyat hayoti; adolat, erkinlik, odamlarning huquqlari va burchlari, do‘stlik va mehribonlik haqidagi tasavvurlar; qarindoshlik aloqalari; faoliyat qadriyatlari (mehnat, ijod, bunyodkorlik, haqiqatni anglab yetish); o‘z-o‘zini asrash qadriyatlari (hayot, sog‘liq); o‘z shaxsiyatini namoyon etish, o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish qadriyatlari; shaxsiy fazilatlarni tanlashni tavsiflovchi qadriyatlar (halollik, dovyuraklik, sadoqat, adolat, yaxshilik) va h.k.

Qadriyatlarni turli asoslarga ko‘ra tasniflash dialektik xususiyat kasb etadi, ya'ni u qotib qolgan va harakatsiz emas. Birinchidan, sharoitlar o‘zgarishi bilan qadriyatlar bir turdan, bir muhimlik darajasidan boshqa

turga, boshqa muhimlik darajasiga o‘tishi mumkin. Ikkinchidan, jamiyat rivojlanishi bilan yangi qadriyatlar vujudga kelishi mumkin va aksincha, avvalgi qadriyatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi yoki umuman yo‘q bo‘ladi. Uchinchidan, qadriyatlar bir-biri bilan muayyan tur doirasidagina emas, balki turlar o‘rtasida, guruhlarda va guruhlar o‘rtasida ham yaqin aloqa qiladi va o‘zaro ta'sirga kirishadi. Nihoyat, qadriyatlarning har bir turida ko‘p sonli tur xillarini farqlash lozim. Masalan, ma'naviy qadriyatlar guruhida axloqiy qadriyatlar, estetik qadriyatlar, bilishga doir (gnoseologik) qadriyatlarni aniq farqlash mumkin.

Oliy qadriyatlar guruhida qadriyat sifatidagi hayot (hayot qadriyatlari), qadriyat sifatidagi sog‘liq va qadriyat sifatidagi erkinlik alohida farqlanadi.

Hayot eng oliy qadriyatlar qatoriga kiradi, zero hayotsiz inson bo‘lmaydi va qadriyatlar ham bo‘lishi mumkin emas. Individ uchun hayot boshqa biron-bir narsaga bog‘liq bo‘lmagan holda eng yuksak qadriyat, ne'mat sifatida amal qiladi. O‘z navbatida, hayotning qimmati boshqa barcha qadriyatlar uchun o‘ziga xos zamin va cho‘qqi hisoblanadi. Hayotning qimmati qanday tushunilishiga qarab odamlar o‘rtasidagi munosabatlar va jamiyatning insonga bo‘lgan munosabati ham shakllanadi.

Birinchi holda hayotning qimmatiga individual nuqtai nazardan yondashilsa, ikkinchi holda – ijtimoiy nuqtai nazardan yondashiladi, ya'ni bu yerda hayotning ahamiyati individning o‘zi uchun emas, balki jamiyat uchun belgilanadi.

Insonning o‘zi qadriyat hisoblanadimi, degan savolning ikki tomoni bor 1) inson uchun boshqa odamning va umuman insonning qimmati nimada? 2) uning o‘z hayotining qimmati nima bilan o‘lchanadi? Tafsilotlarga berilmay shuni qayd etamizki, bu savollarga javoblar aniq va uzil-kesil bo‘lishi mumkin emas. Gap shundaki, individning boshqa odamlarga qiziqishi odamlar qandayligigagina emas, balki uning o‘zi qandayligiga ham bog‘liq bo‘ladi. Bunga yana shuni qo‘shimcha qilish joizki, inson hayotining va insonning qimmati to‘g‘risidagi masalaning qo‘yilishi tarixiy sharoitlar bilan bevosita bog‘liq. Masalan, O‘rta asrlarda feodal o‘z krepostnoyini o‘ldirishi jinoyat hisoblanmagan va jazoga tortilmagan. Hozirgi vaqtda har bir kishining yashash huquqi tan olingan va odam o‘ldirish u yoki bu tarzda jazolanmaydigan mamlakat mavjud emas. Xullas, inson – alohida, mutlaq qadriyat. Qolgan barcha qadriyatlar inson manfaatlari nuqtai nazaridan baholanadi.

Sog‘liq qadriyat sifatida. Inson sog‘lig‘i - qadriyatlar pillapoyasida eng yuksak pog‘onalaradan birini egallaydigan tabiiy, mutlaq va boqiy qadriyat. Insonning barcha ehtiyojlarini qondirish darajasi uning sog‘lig‘i qay darajada ekanligi bilan belgilanadi. Sog‘liqqa bo‘lgan ehtiyoj yalpi xususiyat kasb etadi, u ayrim individlarga ham, butun jamiyatga ham xos.

Shu sababli individual (shaxsiy) sog‘liq va jamiyat sog‘lig‘i yoki aholi salomatligi farqlanadi.

Sog‘liqning holati inson va jamiyat hayotining barcha sohalariga o‘z ta'sirini ko‘rsatadi. Masalan, muayyan inson hayotining to‘laqonliligi va faolligi uning sog‘lig‘i darajasiga, «sifat» xususiyatlariga bevosita bog‘liq. O‘z navbatida, aholi salomatligi mehnat resurslarining sifatiga, ijtimoiy mehnatning unumdorlik darajasiga va shu tariqa jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi dinamikasiga kuchli ta'sir ko‘rsatadi.

Erkinlik qadriyat sifatida inson uchun ulkan ahamiyatga ega. Bu kategoriyaning falsafiy talqini quyidagi ta'rifda o‘zining ayniqsa aniq ifodasini topgan: erkinlik – bu insonning obyektiv zaruriyatni bilishga tayangan holda o‘z manfaatlari va maqsadlariga muvofiq ish ko‘rish qobiliyatidir.

Erkinlik doim va hamma joyda eng buyuk qadriyat hisoblanadi. Boshqa hollarda bo‘lganidek, erkinlik uni inson anglagan taqdirdagina qadriyatga aylanadi. Erkinlikning qimmati anglab yetilmagan, inson o‘zini boshqa odamlar bilan teng jonzot sifatida idrok etmagan joyda o‘ziga qadriyat sifatida yondashish ham, insonning qadr-qimmati ham mavjud bo‘lmaydi. O‘zining erksizligini tushunish va erkinlikning qimmatini anglab yetish tub ijtimoiy o‘zgarishlar davrida ayniqsa bo‘rtib namoyon bo‘ladi.

Erkinlik – barcha odamlarning sivilizatsiya yutuqlaridan teng darajada foydalanish va o‘z mehnati mevalarini va o‘z taqdirini tasarruf etish huquqi. Erkinlik yo‘l tanlash imkoniyatidir. Ongli ravishda amalga oshiriladigan har qanday yo‘l tanlash kabi, erkinlik ham shaxs uchun muqobil imkoniyatlardan birini afzal ko‘rish va boshqasidan voz kechish bilan bog‘liq. Yo‘l tanlash shaxsning keyingi faoliyatini cheklovchi omilga aylanmasligi uchun u muhim qoidaga amal qilishi lozim: har safar yo‘l tanlashni amalga oshirayotganda keyingi yo‘l tanlashlar istiqboli toraymasligiga, balki insonga o‘zining yangi kasbiy, axloqiy va intellektual imkoniyatlarini aniqlash imkonini berib, kengayib borishiga erishishga harakat qilish kerak.

Shunday qilib, biz ko‘p sonli rang-barang qadriyatlar mavjudligini aniqladik va ularni tasniflashni amalga oshirdik. Endi barcha real qadriyatlar inson ongining omiliga aylanadimi, degan savolga javob topishimiz lozim.

Yo‘q, hamma qadriyatlar ham amalda inson ongining omiliga aylanavermaydi. Ba'zan bu insonning o‘ziga bog‘liq bo‘lgan obyektiv sabablarga ko‘ra yuz beradi. Individ tomonidan anglab yetiladigan va uning e'tiqodlari qatoridan o‘rin oladigan qadriyatlar uning harakatlari tarzini belgilovchi mo‘ljallarga aylanadi. Boshqacha aytganda, anglab yetilgan qadriyatlar shaxsning qadriyatlarga bo‘lgan munosabatiga aylanadi.

Shaxsning qadriyatlarga bo‘lgan munosabati. Mazkur tushuncha ilmiy muomalaga XX asrning 20-yillarida sotsiologlar U.Tomas va

F.Znanetskiy tomonidan kiritilgan. Ular qadriyatlarga munosabatni shaxsning uning xulq-atvorini tartibga soluvchi ijtimoiy mo‘ljali sifatida yondashgan. Shu tariqa qadriyatlarga munosabat tadqiqotlar predmetiga aylangan. Bu tushunchaning ko‘p sonli turli talqinlari paydo bo‘lgan. Biz quyidagi ta'rifga qarab mo‘ljal olamiz.

Qadriyatlarga munosabat – bu shaxsning hayot tajribasi, uning barcha kechinmalari majmui bilan mustahkamlangan va shaxs uchun muhim ahamiyatga molik bo‘lgan narsalarni ikkinchi darajali, ahamiyatsiz narsalardan ajratuvchi muhim elementlari.

Vujudga kelgan, keng tarqalgan qadriyatlarga munosabatlar majmui ongning shaxsning barqarorligini, muayyan turdagi xulq-atvor va faoliyatning vorisiyligini ta'minlovchi, individning ehtiyojlari va manfaatlariga yo‘l ko‘rsatuvchi o‘ziga xos o‘zagini tashkil etadi. Ayni shu sababli qadriyatlarga munosabat shaxs motivatsiyasini tartibga soluvchi, belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Rivojlangan qadriyatlarga munosabat – shaxsning yetuklik belgisi, uning ijtimoiylik darajasi ko‘rsatkichi. Vatanparvarlik, insonparvarlik, ijod shaxsning muhim qadriyatlarga munosabatlari hisoblanadi.

Qadriyatlarga munosabatlarning barqaror va ziddiyatlardan xoli majmui shaxsning muayyan tamoyillar va ideallarga sodiqlik, bu ideallar va qadriyatlarga erishish yo‘lida g‘ov-to‘siqlardan oshib o‘tishga qodirlik, hayot pozitsiyasining faolligi, maqsadga erishish yo‘lida tirishqoqlik kabi fazilatlarini belgilaydi. Qadriyatlarga munosabatlarda ziddiyatlilik xulq-atvorda noizchillikni vujudga keltiradi. Qadriyatlarga munosabatlarning norasoligi – infantilizm (bolalik yoshi xossalari), shaxsning ichki strukturasidan tashqi stimullarning ustunligi belgisi.

Qadriyatlar ierarxiyasi. Qadriyatlar shaxs va jamiyat ehtiyojlari, manfaatlari bilan belgilangani bois, ular murakkab tuzilishga va alohida ierarxiyaga ega bo‘ladi. Qadriyatlar ierarxiyasi zamirida tirik mavjudot sifatidagi inson hayoti uchun zarur bo‘lgan fundamental qadriyatlar (tabiiy boyliklar, moddiy yashash sharoitlari – turar joy, oziq-ovqat mahsulotlari, sog‘liqni saqlash va sh.k.) va insonning ijtimoiy mohiyatiga, uning ma'naviy tabiatiga bog‘liq bo‘lgan oliy qadriyatlar yotadi. Birinchi guruhga moddiy (utilitar) qadriyatlar, ikkinchi guruhga esa ma'naviy qadriyatlar kiradi. qadriyatlarning birinchi guruhi insondan tashqarida yotuvchi maqsad bilan belgilanadi, ikkinchi guruh ichki asosga ega. Moddiy, utilitar qadriyat vositaning qimmatidir, zero narsaning foydaliligi u nimaga xizmat qilishga mo‘ljallangan bo‘lsa, shu vazifa bilan belgilanadi. O‘z vazifasini bajargach, bu narsa qadriyat sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Moddiy, utilitar qadriyatdan farqli o‘laroq, ma'naviy qadriyat o‘ziga to‘q xususiyat kasb etadi va o‘zidan tashqarida yotuvchi motivlarga muhtoj bo‘lmaydi. Utilitar

pragmatik qadriyatlar faoliyat maqsadini belgilasa, ma'naviy qadriyatlar inson faoliyatining mazmunini belgilaydi.

Shunga mos ravishda shaxsning ma'naviy dunyosi ham o‘z ierarxiyasiga ega bo‘ladi. Inson ma'naviyati uchta: ma'rifiy, axloqiy va estetik asoslarni o‘z ichiga oladi. Ularga ma'naviy ijodkorlarning uch tipi: donishmand (biluvchi), taqvodor (avliyo) va san'atkor mos keladi. Bu asoslarning o‘zagi ma'naviyatdir. Bilim bizga haqiqatning tagiga yetish uchun imkoniyat yaratib, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatsa, axloqiy va estetik asos insonning o‘z egoistik «Meni» chegarasidan chetga chiqib, ezgulik urug‘ini sochish qobiliyati va ehtiyojini nazarda tutadi.

Nazorat savollari

1. Aktsiologiya fanining predmei nima?
2. Aksiologiya fanining asosiy tadqiqot obyektlari nimalar?
3. Qadriyatlaming moo‘iyati va ahamiyati qanday?
4. Qadriyatlar deganda nimalar tushiniladi?
5. Qadriyat qanday omillar maxsuli xisoblanadi?
6. Qadriyatlar tushunchasini izohlang?
7. O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasi ma’naviy-axloqiy kamolotida nikox va oila xakidagi milliy axloqiy qadriyatlarining o‘rni?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. O‘zbekistonda qadriyatlar mavzusi haqida referat tayyorlang.
2. Qadriyat kategoriyasi, uning mohiyati va mazmuni to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plang va tushuntiring.
3. Qadriyatlarning namoyon bo‘lish shakllari va ularning asosiy xususiyatlari, qadrlash va baho, ularning o‘zaro aloqasi haqida berilgan fikrlarni kursdoshlaringizga aytib bering.

XI BOB. AXLOQ FALSAFASI (ETIKA)

11.1. "Etika" fanining predmeti, mohiyati va tuzilmasi. Gedonizm va evdemonizm ta'limotining axloqiy ahamiyati.

11.2. Etikaning kategoriyalari, tamoyillari, me'yorlarining shaxs va jamiyat munosabatlarida namoyon bo'lishi. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov.

11.3. Nikoh - eng qadimgi axloqiy munosabat shakli. Oilaning psixologik, ijtimoiy-ma'naviy muhitining farzand tarbiyasiga ta'siri.

11.4. Axloqiy madaniyat va muomala odob masalasi

11.5. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy kamolotida nikoh va oila haqidagi milliy axloqiy qadriyatlarining o'rni.

Tayanch tushunchalar: odob, xulq, axloq, noosfera, etosfera, biologik, ekologiya, ezgulik, yovuzlik, fazilat, illat, ruh, ixtiyor erkinligi, iztirob, adolat, donishmandlik, lazzat, maqsad, vosita, qalb, manfaat, yovuzlik, ixtiyor erkinligi.

11.1. Etika - ruscha – moral, lotincha «mores», «moralis» so'zlaridan olingan bo'lib, ma'nosi xulq, odat demakdir

Etika - ijtimoiy ongning muayyan shakli bo'lib, kishilarning ijtimoiy va shaxsiy hayotida bir-birlariga bo'lgan munosabatlarining, ya'ni xatti-harakat prinsiplari va normalarining yig'indisidir. Etika so'zi, tushunchasi ham arabcha bo'lib, xulq so'zining ko'pligidir.

Etika kishilarning fe'l-atvori, yurish-turishi, ularning ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro munosabatlarini tartibga solib turadi. Etika normalari jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan shaxs fe'l-atvoriga qo'yiladigan talabdir. Bu normalar shaxsning jamiyatga – Vatan, davlat, millat, guruhga munosabatini, shuningdek, shaxsning turmushdagi, ayrim kishilarga, kasbi-koriga, mutaxassisligiga, hatto o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlardagi xatti-harakatni ham o'z ichiga oladi.

Kishilik jamiyatining ilk davrlarida etika normalari – yurish-turish qoidalari va odob prinsiplari kishilarning mehnat qilish jarayonida vujudga kelib, ularga rioya qilish urf-odatga, an'anaga aylanib boradi. Keyinchalik jamiyat, ijtimoiy hayot taraqqiy etib, aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralgach, mehnat taqsimoti yuz bergach, odamlarning yurish-turish qoidalari, odam etikaining mohiyati haqidagi masalalar bir butun falsafiy bilimlar sistemasiga solinadi, ma'lum darajada mustaqil fanga aylanadi. Shu tariqa etika, ya'ni etika haqidagi ta'limot paydo bo'ladi.

Etika – grekcha-yunoncha «ethos» degan so'zdan olingan bo'lib, buning ma'nosi xulq-odat demakdir. Etika, ya'ni etika haqidagi fan, o'zbek tilida hozirgi paytda etika fani deb ham yuritiladi. Lekin biz etika fani deb

yuritishimizni ma'qul topdik. Sabab bu nom dunyoda yuritiladigan standartga mos keladi, deb o'ylaymiz, garchi fanning nomlari qanday yo'sinda yuritilmasin, uning mazmuniga putur yetmaydi, shakl mazmunni, mohiyatni tubdan o'zgartirib yubormaydi, garchi ta'sir etsa ham.

Etika odamlarning yurish-turishida, etikaida tarixan o'zgarib turadigan, rivoj topib, taraqqiy etib boradigan prinsiplarni, etikaiy norma, qoidalarni; etikaning manbai va kelib chiqishini, etikaiy kategoriyalarni ya'ni yaxshilik va yomonlik, or-nomus, vijdon kabi umumiy tushunchalarni, etikaiy e'tiqod, maslak va his-tuyg'ularni izohlab beradi. Shuningdek, etikaning abadiy muammolari bo'lgan – etikaiy bahoning mezoni nimada, etikada haqiqat bormi, etikaiy erkinlik nima, inson o'z xatti-harakati uchun javobgarmi, mas'ulmi kabi savollarga javob axtaradi.

Etika fan sifatida etikani, odob-xulqni, etikaiy munosabatlarni aks ettiribgina qolmay, balki odam intilishi lozim bo'lgan maqsadni, ya'ni yuksak etikaiy g'oyani, bu g'oyani, ya'ni bizning pirovard strategik maqsadimiz bo'lgan – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot g'oyasini amalga oshirmoq uchun qanday yashab, qanday harakat qilmoqlikni ma'nosi ochib beriladi, odamlarning yurish-turishi qanday degan savolgagina emas, balki qanday bo'lishi kerak degan savolga ham javob beradi. Shuning uchun ham etikaiy illatlar tanqid qilinadi, odamlarning xatti-harakatiga yuksak etikaiy g'oya va maqsad nuqtai nazaridan qat'iy baho beriladi.

Xulq, odob deganda iqtisodiy tuzum taqozosi bilan, turmush sharoitining alohida tarzidan, tradisiyalaridan, an'analaridan, urf-odatlaridan paydo bo'lgan, biroq muntazam qarashlar, qoidalar, yo'l-yo'riqlar sistemasiga kirmagan munosabatlar xususiyati tushuniladi.

Demak, xulq odamlarning amaliy xatti-harakatlari, odamlar o'rtasidagi amaliy munosabatlar, etika ijtimoiy ong bilan bog'liq bo'lib, mazkur xatti-harakat prinsiplari va normalarining etika talablari shaklida ifodalab berilganidir, etika bo'lsa etika prinsiplari va normalarining izohlab va asoslab berish demakdir, ya'ni etika haqidagi nazariyadir.

Etika normalari passiv emas, balki ular ham jamiyat hayotida, ham shaxs turmushida faol ta'sir ko'rsatadigan muhim faktordir. Ilg'or, taraqqiyparvar etika normalarining ta'lim-tarbiyaga ta'siri ijobiy bo'ladi, reaksion xulq normalarining ta'siri esa jamiyatda ham, shaxs tarbiyasida ham salbiy bo'ladi.

Ma'lumki, kishilik jamiyati doimo taraqqiyotda ekan, uning etikaiy. Ma'naviy qarashlari ham doimo o'zgarib, rivojlanib, taraqqiy etib boradi. Yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalar ham tarix davomida o'zgarib keldi, avval infiylik, partiyaviylik nuqtai nazaridan qarab baho beriladi. Ibtidoiy jamoa tuzumi bilan bugungi jamiyatda tatbiq etiladigan etika tushunchalariga bir xil yondoshib bo'lmaydi. Masalan, ilk ibtidoiy jamiyatda kasallarni, keksalarni o'ldirib yeyish odat bo'lgan, uyat hisoblanmagan.

Shunday ekan, hamma ijtimoiy xodisalarga real yondoshilgandek, etikaiy xodisalarga ham konkret, dialektik, tarixiy yondoshmoq taqozo etiladi.

Etika qadimda fizika va logika bilan birgalikda falsafaning uzviy uchinchi qismi hisoblanar edi. Keyinchalik Arastu birinchi bo‘lib «Etika» darsligini yozgach, u alohida falsafiy yo‘nalishdagi fan maqomini oldi. Etikaning boshqa falsafiy fanlardan farqi, o‘ziga xosligi shundaki, unda nazariya bilan amaliyotning, praktikaning omuxtaligidir, uyg‘unligidir.

Qadimgi antik davr donishmandlarining fikricha, falsafani azim daraxtga, chinorga qiyos qilsak, uning ildizi tabiat haqidagi ta’limotlar, poyasi – mantiq, mevasi esa – etikadir. Darhaqiqat, bilim – aql bulog‘i, etika esa - hayot chirog‘idir, yoki bilim – xazina, etika esa fazilatdir.

Etika bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan qadimiy fan. U bizda «Ilmi ravish», «Ilmi etika», «Etika ilmi», «Odobnoma» singari nomlar bilan atab kelingan. Ovro‘pada esa «Etika» nomi mashhur, biz ham yaqin-yaqingacha shu atamani qo‘llar edik. U dastlab manzildoshlik, yashash joyi, keyinchalik esa odat, fe’l, fikrlash tarzi singari ma’nolarni anglatgan, yunoncha «ethos» so‘zidan olingan.

Uni birinchi bo‘lib yunon faylasufi Arastu muomalaga kiritgan. Arastu fanlarni tasnif qilar ekan, ularni uch guruhga bo‘ladi: nazariy, amaliy va ijodiy. Birinchi guruhga falsafa, matematika va fizikani; ikkinchi guruhga etika va siyosatni; uchunchi guruhga esa san’at, hunarmandchilik va amaliy fanlarni kiritadi. Shunday qilib, qadimgi yunonlar etika haqidagi ta’limotni fan darajasiga ko‘targanlar va «Etika» (ta ethika) deb ataganlar.

Biroq bizda milliy-mintaqaviy etikaiy qadriyatlarimizning, dastlabki etikaiy g‘oyalarning vujudga kelishi qadimgi yunonlar yashagan davrda o‘nlab asrlar avval ro‘y bergan. Ajdodlarimizning eng ko‘hna e’tiqodiy kitobi «Avesto» buning yorqin dalilidir. Shu sababli endilikda bu fanni ham ilmiy-tarixiy, ham zamonaviy-hayotiy talablar nuqtai nazaridan «Etika» deb atashni maqsadga muvofiq deb bildik.

Etika etikaning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi etikaiy munosabatlarini o‘rganadi. «Etika» so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, «xulq» so‘zining ko‘plik shaklidir. «Etika» iborasi ikki xil ma’noga ega: umumiy tushuncha sifatida u fanning tadqiqot obyektini anglatsa, muayyan tushuncha sifatida inson fe’l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi. Etikani umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo‘lsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini – xulq, eng qamrovli qismini etika egallaydi.

Odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, lekin jamoa, jamiyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo‘lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Xulq - oila, jamoa, mahalla-ko‘y miqyosida ahamiyatli bo‘lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

Etika - jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma’naviy hodisa.

Bu fikrlarimizni misolllar orqali tushuntirishga harakat qilamiz. Deylik, metroda yoshgina yigit, talaba hamma qatori o‘tiribdi. Navbatdagi bekatdan bir keksa kishi chiqib, uning ro‘parasida tik turib qoldi. Agar talaba darhol: «O‘tiring, otaxon!» deb joy bo‘shatsa, u chiroyli a’mol qilgan bo‘ladi va bu a’moli bilan atrofdagilarda yaxshi kayfiyat uyg‘otadi; chetdan qarab turganlar unga ich-ichidan minnatdorchilik bildirib: «Baraka topgur, odobli yigitcha ekan», deb qo‘yadilar. Aksincha, talaba yo teskari qarab olsa, yoki o‘zini mudiraganga solib, qariyaga joy bo‘shatmasa, g‘ashimiz keladi, ko‘nglimizdan: «Buncha beodob, surbet ekan!» degan fikr o‘tadi, xullas, u bizda yoqimsiz taassurot uyg‘otadi. Lekin, ayni paytda, talabaning qariyaga joy bo‘shatgani yoki bo‘shatmagani oqibatida vagondagi yo‘lovchilar hayotida darhol biror-bir ijobiymi, salbiymi – muhim o‘zgarish ro‘y bermaydi.

11.2. Etikaning kategoriyalari, tamoyillari, me’yorlarining shaxs va jamiyat munosabatlarida namoyon bo‘lishi. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov

Har bir fan o‘z kategoriyalar tizimiga ega. Axloq kategoriyalari deb, jamiyat axloqiy hayotidagi umumiy, muhim tomonlarni, xususiyatlar va munosabatlarni inson tomonidan o‘zlashtirish usullarini aks ettiruvchi kategoriyalarga aytiladi. Axloq kategoriyalarining o‘ziga xosligi shundan iboratki, ular fan sifatidagi etikani amaliy asosini tashkil etuvchi axloqning eng muhim tomonlari va elementlari umumlashgan xolda o‘z ifodasini topadi.

Axloq kategoriyalarining ko‘pchiligi qarama – qarshi xarakatlarga ega, chunonchi muhabbat va nafrat, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, kamtarlik va takabburlik, sadoqat va hiyonat turli ijtimoiy fakt va hodisalarni qamrab oluvchi baho kategoriyalari bo‘lsa, burch, vijdon, sha’n, qadr – qimmat, baxt nisbatan tor kategoriyalar bo‘lib, axloqiy munosabatlarni shaxsni ichki dunyosi orqali birmuncha yaqqol aks ettiradi.

Muhabbat va nafrat. Muhabbat bosh mezoniy kategoriya sifatida deyarli barcha asosiy kategoriyalarda va tamoyillarda o‘z «hissa»siga ega. Muhabbatning obyekti doimo go‘zallik, manfaatsiz go‘zallik. U - Allohmi, Vatanmi, yormi - muhabbat egasiga undan-da go‘zalroq narsa yo‘q. Ayni paytda bir obyektni sevgan kishi boshqa obyektlarni ham sevishi tabiiy.

Ezgulik va yovuzlik. Asosiy kategoriyalar orasidagi yana bir juftlik - ezgulik va yovuzlik; ezgulik etikadagi eng muhim kategoriyalardan. U inson faoliyatining asl mohiyatini anglatadi - Tangri irodasining inson qalbidagi tajassumi sifatida namoyon bo‘ladi. «Ezgu o‘y, ezgu so‘z, ezgu a’mol» uchligi «Avesto»dan tortib barcha muqaddas kitoblarda yetakchi o‘rinni egallashi ham shundan.

Yaxshilik va yomonlik. “Yaxshilik va yomonlik” axloqning markaziy kategoriyalaridan hisoblanadi. Yaxshilik kategoriyasi odatda, kishining biror talabiga to‘la javob beradigan, unga yoqadigan, ma’lum bo‘lgan xatti – harakatlar narsalarning ijobiy sifatlari, biror kishining manfaatini ko‘zlab ish tutish, unga manfaat yetkazish, xayrli, ezgu ishlarni amalga oshirish tushiniladi.

Kamtarlik – eng avvalo o‘z – o‘ziga talabchanlik, o‘z harakatlariga, ishiga, bilimiga tanqidiy qarash, o‘ziga, kuch – quvvatiga ortiqcha baho bermaslikdir. Kamtarlik kishilarga bo‘lgan munosabatda namoyon bo‘ladi. Inson qanchalik odobli bo‘lsa, u kishilar bilan shunchalik sodda kamtarona muomala qiladi, o‘z ishlariga va xarakatlariga kamtarlik bilan baho beradi. Boshqalarga nisbatan shirinsuhan bo‘ladi. Kamtar inson boshqalardan o‘zini ustun qo‘ymaydi, o‘ziga bino qo‘yib, soxta shuxrat ketidan quvmaydi, yutuqlardan esankiramaydi. Kamtarlik - tortinchoqlik va haddan tashqari andishalilikdan farq qiladi. Ular orqasidan inson o‘z qadr – qimmatini tushirib qo‘yish mumkin. Kamtarlik tabiiylikdan kelib chiqadi. U kishilarga bo‘lgan munosabatda ham yaqqol ko‘rinadi. Kamtarlik inson ichki ma’naviy dunyosining tashqi ifodasi hisoblanadi.

Baxt. Hayotning ma’nosi bo‘lmasa, haqiqiy baxtning bo‘lishi mumkin emas. Baxt inson hayotining umumiy bahosidir. Shu ma’noda buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy: «Baxt - har bir inson intiladigan maqsad, zotan u muayyan komillikdir»,- deganida ko‘p jihatdan haq edi.

Vijdon. Etikaning nihoyatda ta’sir doirasi keng kategoriyalaridan biri vijdondir. Vijdon - Zigmund Froyd ta’biri bilan aytganda, a’lo men, men ustidan nazorat o‘rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi bir, yuqori darajadagi men. Agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyatga bog‘liqligidan kelib chiqsa, vijdon uning ichki o‘z-o‘ziga bog‘liqligini namoyon etadi. Bu ichki bog‘liqlik tashqi bog‘liqlikka nisbatan teran va doimiydir: uyat ma’lum bir vaqt ichida odamning o‘z nojo‘ya harakati tufayli yuzaga kelgan o‘ng‘aysizligi bo‘lsa, vijdon azobi, bu oddiy o‘ng‘aysizlik emas, balki qalbdagi, odamdagi odamiylikka e’tiqodning faryodi, talabi; uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob to‘xtamaydi. Uyat bilan vijdonni, shu bois, dengizdagi muz tog‘iga – aysbergga o‘xshatish mumkin: yuzaga uyat tarzida chiqib turgan qismi teranlikdagi qismidan yuz, balki ming barobar kichik.

Nomus. Asosiy kategoriyalardan yana biri – nomus. Nomus tushunchasi bir tomondan, burch bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi jihatdan, qadr-qimmat

tushunchasiga aloqador. Zero, nomus mohiyatan shaxsning o‘z qadr-qimmatini anglab yetishi, shu qadr-qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo‘ladigan munosabati bilan belgilanadi.

Axloqiy tamoyillar va me’yorlarga - vatanparvarlik, erkparvarlik, insonparvarlik, bag‘rikenglik, halollik, hayolilik, xushmuomalalik kiradi.

Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov

Axloq - oliy mavjudotga ato etilgan oliy ne’mat. Ya’ni axloqning kelib chiqishi ilohiy manbadandir. Ana shu ilohiy asosni asrab-avaylab, taraqqiy toptirish har bir insonning asosiy vazifasi, burchi. Shu bois o‘z-o‘zini va iloji bo‘lsa, o‘zgalarni axloqiy tarbiyalash barcha muqaddas kitoblarda savob sanaladi.

Ixtiyor erkinligi eng avvalo ixtiyorning uch bosqichda voqe bo‘lishi bilan bog‘liq. Birinchi bosqich - ichidan faqat bittasini tanlab olish va harakatga aylantirish mumkin bo‘lgan alohida xohish - istaklarning tug‘ilishidan iborat. Ikkinchi bosqichda mazkur xohishlarning o‘zaro bir – birini tutib turishi, teng holatga keltirishi yuz beradi va bu-tanlov orqali bir qarorda to‘xtash imkonini yaratadi. Uchinchi bosqich tanlangan xohishning o‘ziga mos jismoniy harakatga o‘tishi bilan belgilanadi.

Erkinlikka kelsak, shuni aytish kerakki, muayyan ixtiyorga berilgan erkinlik faqat **tanlovning** boshlanishida va tanlov jarayonidagina mavjud bo‘ladi. **Tanlov** jarayoni tugashi bilan, ya’ni ikki narsadan birini tanlaganingiz zahoti ixtiyoringiz uchun berilgan erkinlikning vakolati tugaydi: siz ixtiyor qilib bo‘ldingiz, bundan buyog‘iga erkin emassiz, endi tanlagan narsangizga mos harakatni boshlashingiz kerak. Demak, ixtiyor erkinligi tanlanayotgan ikki narsa oralig‘idagi fikrlash mobaynidagina voqe bo‘ladigan hodisadir.

Tanlovning o‘zi esa ikki xil xohish o‘rtasidagi kurashdan iborat. Bu kurashda faqat bitta xohish - qaysinisi kuchli bo‘lsa, o‘sha g‘alaba qozonadi: ham unisining, ham bunisining baravar tanlanishi mumkin emas. Ruhshunoslik nuqtai nazaridan tanlov hissiyotga asoslangan, qanday sabab orqali vujudga kelishi ahamiyatsiz bo‘lgan ruhiy omil. Etikadagi tanlov esa qadriyat bilan bog‘liq, aqlga asoslangan kategoriya. Birinchisi - bor narsa, ikkinchisi - bo‘lishi kerak deb hisoblangan narsa; birinchisi - mavjud omilni, ikkinchisi - idealni, me’yorni anglatadi. Shunday qilib, insondagi ixtiyor erkinligi zaruriyat talabi bilan oqilona, aqlga bo‘ysundirilgan ravishda, ideal va me’yorlarga mos tarzda cheklanadi.

Axloq haqida gap borganda, albatta uning muayyan tuzilmasi, unga asos bo‘lgan omillar, unsurlar to‘g‘risida to‘xtalmaslik mumkin emas. Axloq tuzilmasini, odatda, uch omil-asosdan iborat deb hisoblaydilar. Bular - axloqiy ong, axloqiy hissiyot va axloqiy xatti-harakatlar.

11.3. Nikoh - eng qadimgi axloqiy munosabat shakli. Oilaning psixologik, ijtimoiy-ma'naviy muhitining farzand tarbiyasiga ta'siri

Oilaning jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit sifatida yuzaga kelishi uning quyidagi uchta jihatlari o'zida mujasamlashtirishligi bilan izohlanadi. Ayni paytda ular uning asosiy vazifasi ham sanaladi. Bular: 1] Nikox; 2] Oilaviy mulk va unga egalik qilish ; 3] Farzand tarbiyasi. Nikox oila tizimining nyegizi hisoblanadi.

Oila va nikox turli darajadagi ijtimoiy tuzilmalaridir. Oila kishilarning tabiiy-biologik[jinsiy munosabatlar, uy-ro'zg'or yuritish, farzand ko'rish], xuquqiy-ma'naviy munosabatlarga [syevgi-muhabbat, mas'uliyat, burch, vijdon va x.] asoslangan birlikdir.

Nikoh esa oilaning faqat xuquqiy asosi bo'lib, oila boshliqlarining bir-birlari va jamiyat oldidagi axloqiy va xuquqiy burch majburiyatlarini, mas'uliyatini byelgilaydi. Shunga ko'ra uning mohiyatan ijtimoiy-ma'naviy hodisa tarzdagi maqomati byelgilovchi jihatdir.

Nikox-bu ikki jinsdagi kishining ixtiyor erkinligiga asoslangan oila qurishlariga byerilgan fatvodir.

Tarix, qadimshunoslik, etnografiya fanlarining ko'rsatishicha, nikox kishilik jamiyatining sivilizatsiya tomon tadrijiy rivojlanib borishi jarayonida takomillashib borgan.

Nikohning dastlabki shakli - ekzogamiya , ya'ni nikoh bo'lib, uning o'zi ham quyidagi shakllarda - bochqichlar bo'yicha oddiydan murakkabga qarab o'zgarib boradi. Bular: 1]poligamiya [ko'pnikoxlik]; 2]poliginiya [ko'pxotinlilik]; 3]poliandriya [ko'perlilik].

Urug'chilikni paydo bo'lishi bilan ko'pnikohlilik[poligamiya] yuzaga keladi, yaqin qarindoshlar o'rtasida jinsiy munosabat-aloqada bo'lishni tabu taqiqlarning yuzaga kelishi bilan izohlanadi.

Poliginiya – erkak kishining chegaralangan miqdordagi ayollar bilan poliandriya esa ayol kishining chegaralangan, bir qancha erkaklar bilan nikohli ittifoqidir.

Nikohning axloqiy jihati asrlar davomida shakllangan syevgi-muhabbat, or-nomus, burch, sharm-xayo vafo-kabi axloqiy tamoyil, normalar bilan bog'liqdir.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, Sharqda xususan, o'zimizning yurtimizda avval-azaldan nikohning axloqiy jihati ustivor hisoblangan.[Abdulla Oripovning "Ayol shye'rida syevgi-muhabbat, vafodorlik axloqiy tamoyillari o'zining ifodasini topgan.] Axloqiy tomondan qurilgan nikohda syevgi, ya'ni tomonlarning muhabbati yyetakchi o'rin tutadi. Nikoh tuzishdan avval ikki yosh orasida goh ochiq, goh yashirin syevgi-muhabbat bo'lishi mumkin. har ikki holda ham rozilik sharti bilan qurilgan oila uning muhim tomonini tashkil etadi. Ko'pincha bunday

oilaning qurilishiga ota-onalarda norozilik, shubxa uyg‘otadi, chunki bo‘lajak kelin-kuyovning oilaviy kelib chiqishi, ota-onasi, axloqiyligi haqida Hech qanday ma'lumotga ega bo‘lmaganligi uchun ular bundan nikohga qarshi bo‘ladilar.

Hozirgi paytda nikohning xuquqiy jihati shariat qoidalari asosida mustahkamlanadi. Bunday holatda har ikkala tomon roziligi olinadi va diniy marosimlar o‘tkaziladi[islom dinida mulla tomonidan fotixa surasi o‘qiladi, xristian dinida chyerkov oldida va xudojo‘y chyerkov otasi tomonidan kerakli marosimlar o‘tkaziladi. Mazkur nikohda ham tomonlar bir-biriga hurmat qilishga, hayotning achchiq va shirin kunlarida birga yyelkadosh bo‘lishni o‘z zimmalariga oladilar.

Nikoh o‘z mohiyatiga ko‘ra axloqiy hodisa. Unda ehtiroslar axloqi bo‘ysundiriladi. Oddiy birga yashashda tabiiy-ehtiyojni qondirish birinchi o‘rinda turadi, nikohda u ikkinchi darajalidir. Shuning uchun nikohsiz qurilgan oilalar jamiyat oldida burch va ma'suliyatsiz yashaydilar va unda tug‘ilib voyaga yetgan farzandlar ham yyetuk insonlar bo‘lib shakllanmaydilar.

Oilaning ikkinchi jixhatini **oilaviy myerosiy munosabatlar** bu uning mavjudligi, mustaqqilligini, tinch osoyishtaligi ta'minlovchi moddiy asos hisoblanadi. U oila a'zolarning balki ma'naviy ehtiyojlarni qondirish, baxtli hayot kyechirishlarining muhim omilidir. Oilaviy boylik, molu-mulk halol myehnat bilan topilgan paytdagina oilada axloqiy muhit yuzaga keladi. Oilada asosan erkak kishi yyetakchilik qiladi. Oilani boshqarish va uni moddiy jihatdan ta'minlash uning zimmasiga yuklanadi. Ayol kishi oilada ko‘proq uy-yumushlari, farzand tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘ladilar.

Moddiy jihatdan ta'minlangan oilalarda ko‘pincha farzandlar turli axloqsiz yo‘llarga kirib kyetishi mumkin.[O‘g‘irlik, qalloblik va x.] Lekin shuni aloxida ta'kidlash lozimki, moddiy boylik Hech qachon oilada ustuvor xaraktyerga ega bo‘lmasligi lozim, aks holda, unday oila axloqsizlikka, tubanlikka yuz tutadi. Xadisi shariflarda: “Oila moddiy jihatdan qancha farovon bo‘lsa ham, lekin er-xotin bir-birlaridan ma'naviy oziqa topolmasa, u eng qashoq oiladir”, dyeyiladi.

Shuning uchun hukumatimiz kam ta'minlagan oilalarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha doimiy ravishda tadbir-choralarni amalga oshirib bormoqda.

Oilaning uchinchi jihati **farzandlar tarbiyasidir**. Bu har qanday jamiyatda nihoyatda katta jamiyatda katta ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb masaladir. Oilada asosan ayol ko‘proq farzand tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lsa-da, lekin konstitutsiyamizning 14 bobi 64-moddasida ota-ona o‘z farzandlarini voyaga yetkazishda birdyek ma'suldirlar, dyeb ko‘rsatilgan. Shuni yaxshi tushunib olish kerakki, oilada, farzand tarbiyasida xuquqiylikdan ko‘ra axloqiylik ustuvor xaraktyerga egadir. Boshqacha qilib aytganda ota-ona farzandlariga yuksak va oliyjanob axloqiy fazilatlari bilan

namuna bo‘la olishlari bilan tarbiyani amalga oshiradilar. Xalq tilida aytganda “qush uyasida ko‘rganini qiladi

Oila insoniyatning sivilizatsiya bosqichiga asosiy omil vazifasini o‘taydi. Tarix, Oilani fuqarolik jamiyatining, davlatning eng muhim hujayrasi deyishadi. Chunki, har bir jamiyat a’zosi, bo‘lajak fuqaroning tarbiyasi oiladan boshlanadi. Oila uch jihatni: o‘zining bevosita ko‘rinishi bo‘lmish nikohni; oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g‘amxo‘rlikni; bolalar tarbiyasini o‘z ichiga oladi.

Nikoh va muhabbat. Avvalo, nikoh haqida to‘xtalib o‘taylik. Qonunga binoan nikoh tuzish shartlaridan eng muhimlari - nikohga kiruvchilarning o‘zaro roziligi va ularning nikoh yoshiga yetganliklari. Bizda yigitlar uchun - 18, qizlar uchun - 18 nikoh yoshlari qilib belgilangan. Bu - masalaning huquqiy tomoni. Uning ikkinchi - axloqiy tomoni ham borki, u muhabbat bilan bog‘liq. Nikoh tuzishdan avval ikki yosh orasida goh ochiq sevgi - muntazam uchrashuvlar, ahdu paymonlar qilish yoki bir-birini yoqtirish hollari bo‘lishi mumkin. Har ikkala holda ham rozilik o‘zgarmas shart hisoblanadi. Ba’zan, qadimda Sharq xalqlarida, shu jumladan, o‘zbeklarda qizning yoki yigitning roziligisiz to‘y qilib yubora berishgan, ota-onalar kelishishsa - bas, degan fikrlami uchratadi kishi. Ayniqsa, bunday gaplar sho‘rolar davrida tinimsiz takrorlanar edi. Vaholanki, uni musulmonchilik inkor etadi. Rivoyat qilishlaricha, Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom uylariga sovchi kelganida, qizlari Fotimadan doimo rozilik so‘raganlar va rad javobi olganlar. Faqat Hazrat Ali sovchi qo‘yganlarida, Bibi Fotima rozilik berganlar. Demak, farzandning roziligini olish bizga Payg‘ambarimizdan qolgan sunnat.

Oilaviy muhit. Oilaning mustahkam bo‘lishi, oila a’zolarining axloqiylik darajasi undagi muhitga bog‘liq. Qaysi oilada sog‘lom muhit, hukm sursa, uning ravnaqi, baxtliligi ta’minlangan bo‘ladi. Sog‘lom muhit deganda biz faqat oilada insonparvarlik, vatanparvarlik, ziyolilik, halollik, rostgo‘ylik kabi tamoyillar va me’yorlarga amal qilinishinigina emas, balki uning eskicha an’anaviylik yoki yangicha zamonaviyligini ham tushunishimiz lozim. Zero aynan ana shu ikki xil turmush tarzi oila kelajagi bilan bog‘liq. Eskicha an’anaviy oila kiyinishda, yeb-ichishda, kasb-u korda zamonaviy oiladan farq qilmaydi. U ham halol, hamma qatori zamonaviy sharoitda yashaydi. Faqat u o‘zining «o‘zbekchiligi», ajdodlarining an’anaviy ma’naviy qadriyatlarini «unutmagani» bilan faxrlanadi. Hamma gap shundaki, bunday oila asosiy kuchi va imkoniyatlaridan ana shu faxrlanish hissiga erishish uchun foydalanadi: an’anaviy o‘zbekona to‘y kechasida, nikoh bazmida artistlarga «gaplashilgan» va «qistirilgan» millionlar hisobiga bemalol bitta bolalar bog‘chasi qursa bo‘ladi. Ayniqsa og‘zini qimirlatib turish bilan (fonogramma orqali) harom pul topayotgan «artist»larning qudag‘aylarni (ayol qudalarni) raqsga tushishga da’vat

qilishini borib turgan odobsizlik: ortiqcha pul yig‘ib berish uchun bechora qaynonalar yangi kelin va kuyov oldida o‘yinga tushadilar.

An’anaviy to‘ylar isrofgarchilik namunasi, muayyan ma’noda axloqsizlikning bir ko‘rinishiga aylanib ketganini tan olish kerak.

Oilaviy mulk, farzand tarbiyasi va oilaning tarqalishi. Oilaning yana bir jihati - uning o‘z mulkiga egaligi. Agar nikoh oilaning botiniy ko‘rinishi bo‘lsa, oilaviy mulkni uning tashqi ko‘rinishi deyish mumkin. Oilaning mavjud bo‘lishi uchun ishlab topiladigan mablag‘ ham zarur. Oila uchun topiladigan ana shu mablag‘, shubhasiz, axloqiy tabiatga ega: oila boshlig‘i oila a’zolarini halol yedirib-ichirishi, kiydirishi lozim. Oilani odatda erkak kishi boshqaradi. U nafaqat «topib keladi», balki oilaviy mulkka xo‘jayinchilik qilish, uni taqsimlash huquqiga ham ega.

Yuqorida aytganimizdek, nikoh ezgu maqsadga yo‘naltirilgan, zimmasiga zurriyot qoldirishdek yuksak mas’uliyat yuklangan, axloq bilan chegaralangan qo‘shiluv, birlashuv; bu birlashuvdan maqsad - hayotda o‘zlaridan yaxshiroq, mukammalroq bo‘lgan, o‘zlari erisha olmagan orzularni ro‘yobga chiqaradigan odam nusxalarini yaratish. Bunday odamlar farzandlardir.

11.4. Axloqiy madaniyat va muomala odob masalasi

Davlat va fuqarolik jamiyati uchun xos bo‘lgan jamiyat va shaxs uyg‘unligiga muayyan darajasini fuqarolarning axloqiy madaniyati darajasi orqali erishiladi. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat tomonidan qabul qilingan, insonda zavq uyg‘otuvchi tajribalarning o‘z hayoti faoliyatida amal qilishi, qo‘llashi, hayot tarziga singib borishi, o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Shunga ko‘ra axloqiy madaniyat umumiy madaniyat tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsning jamiyat axloqiy tajriba, normalarini e'tiqod darajasida o‘zlashtirishi, hatti-harakatlari, hayotiy faoliyatida namoyon etish malaka ko‘nikmalaridir. Axloqiy madaniyat shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlari, ularning maqsad manfaatlarini uyg‘unlashtirishning omili bo‘lib hisoblanadi. Chunki ijtimoiy munosabatlar taraqqiyoti darajasi axloqiy norma, tamoyillarning jamiyat a'zolari tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganligi bilan byelgilanadi.

Axloqiy madaniyat tuzilmasi muayyan tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, bular quyidagilar: 1] **muamola odobi**: 2] **etikyet**; 3] **kasbiy odob**.

Madaniyatning turlari ichida, xususan ma’naviy madaniyat doirasida axloqiy madaniyat o‘zining nihoyatda keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Uning shaxs hayotida voqe bo‘lishi xilma-xil omillar vositasida ro‘y beradi. Chunonchi, hayotiy tajriba, tarbiya, axloqiy ta’lim, san’at ana shunday vositalardan hisoblanadi. Axloqiy madaniyat shaxsga o‘zgalar bilan munosabatda an’anaviy axloqiy qonun-qoidalardan ljobiy foydalanishni,

ularga zamonaviylik nuqtayi nazardan yondashishni, ezgulik bilan yovuzlikning farqiga borishni va egallagan axloqiy bilimlarini samarali tatbiq etishga o‘rgatadi. Qisqasi, u shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallash va ulardan o‘z tajribalarida foydalanishi o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni qamrab oladi; shu bilan shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi hamda davlat va jamiyatdagi axloqiy darajani yuksaltirishga xizmat qiladi.

Axloqiy madaniyat doimo zamonaviydir. Ya’ni, u muayyan zamon erishgan axloqiy yutuqlar yoxud darajaning shaxs axloqiy hayotidagi ko‘rinishidir. To‘g‘ri, u, yuqorida aytganimizdek, ma’naviy axloqiy qadriyatlarni butunlay inkor etmaydi, lekin ularning zamonaviy shakllarda namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan, mulozamat, takalluf va murojaat odobini olaylik. Bu axloqiy qadriyatlar qadimdan mavjud. Lekin ularning bugungi kundagi shakllari, deylik, Navoiy davridagidan farq qiladi. Garchand, u davrdagi mulozamat, takalluf va murojaat odobi o‘z mohiyatini saqlab qolgan bo‘lsa-da, bugun ulardan o’sha shakllarda foydalanish erish tuyuladi, hazilomuz-kulgili ko‘rinadi, hatto istehzoli-kinoyaviy urg‘u kasb etadi.

Biz yuqorida madaniyatning keng qamrovlilik xususiyatini ta’kidlab o‘tdik. Zotan madaniyatning biror sohasi yo‘qki, unda axloqiy madaniyat bevosita yoki bilvosita ishtirok etmagan bo‘lsin. U iqtisodiy madaniyatmi, tibbiy madaniyatmi, estetik madaniyatmi, baribir axloqiy madaniyatsiz mavjud bo‘la olmaydi. Hammasida axloqiy madaniyat muomala odobi, etiket, kasbiy odob ko‘rinishlarida nafaqat ishtirok etadi, balki ma’lum ma’noda ularning yashash shartini belgilab beradi. Insonlar toki jamiyat bo‘lib hayot kechirar ekanlar, ular bir-birlari bilan axloqiy munosabatga kirishmay yashashlarining iloji yo‘q. Axloqiy madaniyat ana shu munosabatning asosi, mohiyatini tashkil etadi. Axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o‘z ichiga oladi. Ana shunday eng muhim unsurlardan biri — muomala odobidir.

Muomala odobi - u, mohiyatan, o‘zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o‘zaro tajriba almashmasdan, bir-biriga ta’sir ko‘rsatmasdan rosmana yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog‘lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo‘yishni, an’anaviy axloqiy-me’yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko‘zga ko‘rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo‘lishi so‘z, nutq vositasida ro‘y beradi. So‘zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarini tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o‘zini, eng avvalo, shirinsuxanlilik,

kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe'llilik singari axloqiy me'yorlarda namoyon qiladi. Darhaqiqat, muomala odobida muloqotning asosi bo'lmish til katta ahamiyatga ega. Zero, odamlar bir-birlarini til orqali tushunadilar, til vositasida o'z fikrini o'zgaga yetkazish ma'lum ma'noda san'at. Zarur so'zni topish, muayyan holatga mos keladigan ifodaviy vositalarni qo'llash, fikrni jumlaviy jihatdan to'g'ri ifodalash, aniq, bosiq, salobat bilan so'zlash hamsuhbatingiz yoki tinglovchining diqqatini tortishda muhim rol o'ynaydi, so'zlovchining nutq madaniyati darajasini ko'taradi. Muomala odobida tilning sofligi masalasi ham muhim. Til sofligi buzilishining asosiy uch xil ko'rinishi mavjud: birinchisi bir tilda so'zlashayotib, ikkinchi tilga o'tib ketish, to'g'rirog'i, birvarakay «ikki tilda» so'zlashish, misol qilib, ikki talabaning so'zlashayotganda o'zbek tilida rus tiliga, rus tilidan o'zbekchaga muntazam o'tib turishini olish mumkin, bu ba'zilar uchun odatiy hol bo'lib qolgan. Ikkinchisi bir tilda so'zlashayotib, ikkinchi tildagi so'zlarni, ayniqsa jargonlarni ishlatish. M., «davay», «koroche», va h.k. Til sofligining uchinchi buzilishi esa bir tilda so'zlashgan holda o'sha tildagi «parazit» so'zlarni qo'llashda ko'rinadi. M., «anaqa» «haliginday» va h.k. Muomaladagi bunday til sofligining buzilishlari hamsuhbatlarga bilinmasa ham, chetdan kuzatgan odamga nihoyatda xunuk ko'rinadi. Muomala odobida «siz» va «sen»ning o'z o'rnida qo'llanilishi ham ahamiyatga ega. Xususan, ota-ona, aka-opa yoki boshqa yoshi katta odamlar uchinchi shaxs bo'lganida ularga nisban birlikdagi «u» olmoshini emas, hurmatni anglatuvchi «ular» yoki «u kishi» shaklini qo'llash odobdan. M., «Otam shunday dedi» emas, «Otam shunday dedilar»,«U kishi shuni xohlayaptilar» va h.k.

Umuman olganda, muomala odobi kishilarning nasihat qilmasdan va odob o'rgatmasdan bir-biriga ta'siri, tarbiya va o'z-o'zini tarbiya vositasi sifatida diqqatga sazovor. Shu sababli yoshlarimizda muomala odobini shakllantirish hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan. Bunda ota-onaning, mahalla-ko'yning ta'siri katta. Undan foydalana bilish kerak. Zero, axloqiy komillikka erishish muomala odobini egallashdan boshlanadi.

Etikyet – bu kishilarning o'zaro munosabatiga tyegishli umumiy tarzda qabul qilingan va rioya qilinishi talab etiladigan axloqiy qoidalardir. Shunga ko'ra u muomala odobining rasmiylashgan shaklidir-ki, u har bir xalqning urf-odati, xulq-atvori bilan byevosita bog'liq odob qoidalari hisoblanadi. Masalan, bizning xalqimizdagi myehmondorchilik, dasturxon ustida o'tirish – ovqatlanishning odob qoidalari–etikyetlardan [dasturxon to'rida eng kattalarning o'tirishi, ovqat yyeyishni ularning boshlab byerishi va boshq.] g'arb – Ovro'pa xalqlarning bu boradagi etikyetlari farq qiladi. [Bu o'rinda Maxtumqulining: "Har yigitning aslini bilay dyesangiz, marakada o'tirib turishing ko'ring" degan so'zlarini eslash kifoya.

Bugungi globallashuv, dunyo xalqlari madaniy aloqalarining kengayib borishida kishilarimizda, ayniqsa yoshlarimizda milliy qadriyatlarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shunga ko'ra yoshlarimiz milliy etikyet ko'nikmalarini shakllantirish bugungi tarbiya tizimining muhim vazifasi hisoblanadiki, oila buni amalga oshuruvchi asosiy sub'yekt sanaladi. Darhaqiqat, odob ko'nikmalari bolada yoshlikdan byevosita ota-onaning namunaviy hatti-harakatlari ta'sirida shakllanadi. "qush uyasida ko'rganini qiladi"degan xalq hikmatida ana shu oddiy haqiqat mujassamlashgandir.

Etikyet muomala odobi sifatida faqat muayyan millat, xalq munosabatidagi emas, balki xalqaro ijtimoiy-siyosiy miqyosida, xususan, diplomatiya sohasida qabul qilingan qonun-qoidalar tarzida ham amal qiladi. Bunday qonun qoidalar rasmiy xaratyerga ega bo'lib, ularga elchilardan tortib, davlat boshliqlarigacha birday rioya qilishi talab etiladi. Va ularni buzish qat'iyan taqiqlanadiki, bunga yo'l qo'yilgan xolda katta jarima to'lanadi.[Sobiq sho'rolar mamlakatining boshlig'i N, S, Xrushchyev 1962-yilda BMT assamblyeyasida ma'ruza qilish etikyetini buzganligi uchun unga jarima byelgilangan edi].

11.5. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy kamolotida nikoh va oila haqidagi milliy axloqiy qadriyatlarining o'rni

Axloqshunoslik, birinchi ma'ruzamizda ko'rib o'tganimizdyek, amaliy falsafada bo'lib, uning u axloqiy bilimlar, tamoyillar, mye'yorlar, norma-talablarni kishilarning hatti-harakatiga turmush-tarzi, hayotiy faoliyatimizga aylantirish masalasi tadqiqi bilan shug'ulanishligi bilan izohlanadi va bunda mazkur fan byevosita axloqiy tarbiya amaliyoti, ya'ni uni amalga oshirish jarayoni bilan shug'ullaniladi, balki mazkur tarbiyaning maqsadi, vazifalari va vosita usullarini falsafiy-nazariy, tajribaviy-bayoniy usullarini ko'rsatib byeradi. Shunga ko'ra axloqshunoslik pyedagogika fani va tarbiya maliyoti uchun dasturilamaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilm sohasi hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya umumiy tarbiya tizimining, falsafiy til bilan aytganda substantsiyaviy asosini tashkil etadi. Chunki barcha tarbiya yo'nalishlari [estyetik, siyosiy-mafkuraviy, huquqiy, jismoniy va h.] ning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda axloqiy tarbiya asosiy vosita – omil bo'lib xizmat qiladi.

Chunki umuman har qanday tarbiyaning amaliy ko'rinishi, uning maqsad, vazifalarining qay darajada ryeallashishi shaxs axloqiy tarbiyasi darajasi bilan byelgilanadi va shunga ko'ra axloq ma'naviyatning nyegiz elyemyenti hisoblanadi.

Inson ma'naviyat sohibi ekanligi uning madaniyati darajasi bilan byelgilanadi. Shunga ko'ra shaxs axloqiy tarbiyasi inson mohiyati bilan bog'liq azaliy falsafiy muamolardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki barcha

tarbiya yo‘nalishlari o‘zaro birlikda jamiyat va shaxs ma'naviyatini shakllantirish uchun xizmat qilib mazkur jarayonning natijasi axloqiylik myezonlari bilan o‘lchanadi. Shu bois axloqiy tarbiya masalasiga har bir davrda o‘ta dolzarb vazifa sifatida qaralgan. Tarixdan ma'lumki, axloqiy tarbiya Konfutsiy, Platon, Aristotyel, Yusuf Hos Hojib, Alishyer Navoiy, Ahmad Yuknakiy, Avloniy kabi mutafakkirlarning diqqat markazlarida bo‘lgan va ular o‘zlarining bu haqda noyob fikrlarini myeros qilib qoldirganlar. Bu yerda har bir alloma fikriga to‘xtalish imkoniyati ega bo‘lmasada, ayrimlarining fikrini keltirib o‘tamiz. Yunon faylasufi Aflotun [er. avv.4 asr] ning fikricha “Tarbiya faqat azaldan insonga byerilgan fazilatlarni shakllantiradi, yuzaga chiqaradi, xolos. Bordi-yu tarbiya noto‘g‘ri byerilsa, u xolda insondagi azaliy fazilatlar o‘zgarishi yoki o‘chishi mumkin”.

Shaxs axloqiy tarbiyasi axloqiy fazilatlar, mye'yor va tamoyillarning muayyan usul va vositalari yordamida amalga oshiriladi.

Axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi ma'naviy-axloqiy barkamol shaxsni shakllantirish bo‘lib, bu axloqiy norma, tamoyil va mye'yorlarni har bir kishining faoliyati, motivi hatti-harakatining mazmuni, turmush tarziga aylantirish vazifasi orqali amalga oshiriladi. Shu ma'noda axloqiy tarbiya – bu shaxsning axloqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan uzluksiz, tizimli jarayondir.

Mazkur vazifa bir-birini taqozo etuvchi ob'yektiv va sub'yektiv omillar birligida amalga oshadi. Jamiyat ma'naviy hayoti darajasi axloqiy tarbiyaning ob'yektiv sharoiti-omili hisoblanadi. Mazkur tarbiyaning sub'yektiv omili esa insondagi ilohiy noyob nye'mat axloqiylikni muayyan tamoyil vosita va usullar bilan takomillashtirishga qaratilgan maqsadli jarayondir.

Axloqiy tarbiya quyidagi tamoyillar orqali amalga oshiriladi: 1] **namunaviylik**; 2] **o‘z-o‘zini tarbiyalash**; 3] **uzluksizlik**.

Namunaviylik – bu tarbiyalanuvchiga axloqiy mye'yorlarning konkryet shaxs faoliyatida qay darajada ryeallashganligini ibrat qilib ko‘rsatishdir. Mazkur tamoyil ayni paytda tarbiyalining o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi kerak degan tamoyilga amal qilishni talab etadi.

Namunaviylik tamoyili, ayniqsa, yoshlarga oila, maktablarda odob, xulq ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Chunki bolalar tabiatan taqlidchi bo‘ladilarki, ular bunday ko‘nikmalarni birinchi galda o‘z ota-onalari, o‘qituvchilaridan oladilar. Shuning uchun har bir ota-ona, pyedagog yoshlarni faqat o‘git, nasihat bilan byerish bilan emas, balki namunaviy hatti-harakati, o‘rnak ko‘rsatish orqali tarbiyalashi talab etiladi.

O‘z-o‘zini tarbiyalash axloqiy tarbiya jarayonining faoliyat sifatida amal qilish ning o‘ziga hos shakli hisoblanadi. O‘z-o‘zini tarbiyalash–bu kishining o‘z-o‘zini anglashi, jamiyatning ehtiyoji, maqsadi myezonidan

turib o‘z-o‘ziga baho byerishi, o‘z-o‘zini nazorat qilishi asosida kyechadigan faoliyati bo‘lib, bunda u o‘zini shaxs sifatida shakllantiradi. Shaxsda bunday qobiliyat maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonida shakllanadi va bunday tarbiya birinchi galda oilada amalga oshiriladiki, bunda ota-onaninig farzandlarga namuna ko‘rsatishi muhim rol o‘ynaydi.

Tanqidiy qarash vujudga kelmasdan turib o‘z-o‘zini tarbiyalash amalga oshmaydi. Lekin boshqa kishilardagi kamchiliklarni tanqid qilish kifoya qilmaydi. Balkim o‘ziga nisbatan qattiq talabchan bo‘lish, o‘z kamchiliklarni anglash va ularni qunt bilan yo‘qotish muhim ahamiyatga molikdir. O‘ziga nisbatan talabchan bo‘lmaslik, o‘z nuqsonlarini tan olmaslik, hudbinlikka va nihoyat axloqiy tubanlikka olib boradi. O‘z-o‘zini tarbiyalash yo‘lida ijobiy natijaga erishmoq uchun yoshlarda o‘z xulq-atvorini to‘g‘ri baholash qobiliyatini rivojlantirish, o‘zi uchun ma'qul axloqiy idyeal tanlash istagini vujudga keltirish lozim. Bu oqil ona tarbiya jarayoni va murabbiylarning shaxsiy ta'siri orqali vujudga keladi. Insonda o‘z-o‘zini tarbiyalash xususiyatlari kichik yoshda boshlanib, yoshi ulg‘aygan sari takomillashib boradi. Xususan o‘smirlik davrida taqlidchanlik ancha rivoj topadi. Ular ijobiy shaxslardan ibrat olish bilan birga ba'zan salbiy mard, botirlardan ta'sirlanib ularning nojo‘ya yo‘llaridan borib qoladilar. Natijada: manmanlik, ikki yuzlamachilik, baqritoshlik, ichkilikbozlik, hattoki o‘g‘rilik kabi yomon sifatlarni yo‘qotishga urinadilar. O‘zlaridagi salbiy harakatlarni ijobiy faraz qilib ba'zan jinoyatlar sodir qiladilar. O‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonini pyedagogik nazoratsiz [stixiyali xolida] qoldirib bo‘lmaydi. Chunki yoshlar hayotiy tajriba va shuningdyek huquqiy bilimdonlik yetishmaydi. Uning ustida ayrim o‘smirlar o‘jarlikni printsipiallikni dyeb hato tushunib axloqsizlik darajasiga tushunadilar.

Uzluksizlik axloqiy tarbiyaning muhim tamoyili bo‘lib, mazkur tarbiyaning barcha yo‘nalishlar bilan uzviy birlikda va tarbiya sub'yektlarining [oila tarbiya muasasaligi maktab, oliy maktab, jamoat tashkilotlari] ning o‘zaro aloqadorlikda faoliyat ko‘rsatishni taqozo etadi.

Axloqiy tarbiyadagi uzluksizlik-tamoyili ta'lim va tarbiya birligida amalga oshiriladiki, bu ko‘pincha tarbiya xususan, axloqiy tarbiya amaliyotida nazardan chyetda qoldiriladi.

Nazorat savollari

1. Etika fanning tadqiqot doirasini izohlang?
2. Etika kategoriyalarini sanab bering?
3. Axloqshunoslik qaysi ijtimoiy fanlar bilan yaqindan aloqador?
4. Zamonaviy axloqshunoslik oldida qanday muhim vazifalar mavjud?
5. Nikoh nima?
6. Nikoh va muhabbatning o ‘zaro munosabatlari haqida nimalami bilasiz?

7.Oilaviy muhit deganda nimani tushunasiz?

8.An ’anaviy va yangicha oilaning farqi nimada ?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Ahloqshunoslik fani va uning rivojlanish qonuniyatlari haqida referat tayyorlang.

2. «Axloqshunoslik» iborasi to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plang va tushuntiring.

3. Xulqning odobdan farqi va ularning o‘zaro aloqasi haqida berilgan fikrlarni kursdoshlaringizga aytib bering.

XII BOB. NAFOSAT FALSAFASI (ESTETIKA)

12.1. Estetika fanining predmeti, ob'ekti va falsafiy mohiyati. Estetika fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi.

12.2. Estetika xaqidagi qarashlar tarixi.

12.3. Estetika kategoriyalari va ularning o'zaro aloqadorligi.

Tayanch tushunchalar: estetiklik, nafosat, go‘zallik, ulug‘vorlik, san’at.

12.1. Estetika fanining predmeti, ob’ekti va falsafiy mohiyati

Estetika yoxud nafosatshunoslik eng qadimgi fanlardan biri. Uning tarixi ikki yarim-uch ming yillik vaqtni o‘z ichiga oladi. Biroq u o‘zining hozirgi nomini XYIII asrda olgan. Ungacha bu fanning asosiy muammosi bo‘lmish go‘zallik va san’at haqidagi mulohazalar har xil san’at turlariga bag‘ishlangan risolalarda, falsafa hamda ilohiyot borasidagi asarlarda o‘z aksini topgan edi. «Estetika» atamasini birinchi bo‘lib buyuk olmon faylasufi Aleksandr Baumgarten (1714—1762) ilmiy muomalaga kiritgan. Bunda u boshqa bir ulug‘ olmon faylasufi G. Laybnist (1646-1716) ta’limotidan kelib chiqqan holda munosabat bildirgan edi.

Laybnist inson ma’naviy olamini uch sohaga: aql – idrok, iroda-ixtiyor, his-tuyg‘uga bo‘ladi va ularning har birini alohida falsafiy jihatdan o‘rganish lozimligini ta’kidlaydi. Baumgartengacha aql – idrokni o‘rganadigan fan – mantiq, iroda – ixtiyorni o‘rganuvchi fan esa – Axloqshunoslik (etika)ning falsafada ko‘pdan buyon o‘z o‘rni bor edi. Biroq his-tuyg‘uni o‘rganadigan fan falsafiy maqomda o‘z nomiga ega emasdi. Baumgartenning bu boradagi xizmati Shundaki, u «his qilish», «sezish», «his etiladigan» singari ma’nolarni anglatuvchi yunoncha aisthetikos – «oyestetikos» so‘zidan «estetika» (olmoncha «estetik» – «eshtetik») iborasini olib, ana Shu bo‘shliqni to‘ldirdi.

Baumgarten estetikani hissiy idrok etish nazariyasi sifatida olib qaradi. Lekin, ko‘p o‘tmay, u goh «go‘zallik falsafasi», goh «san’at falsafasi» sifatida talqin etila boshlandi. Nafosatshunoslik fanining eng buyuk nazariyotchilaridan biri Gegel esa o‘z ma’ruzalarining kirish qismida yozadi: «Estetika» degan nom muvaffaqiyastiz chiqqani va yuzaki ekani sababli boshqa atama qo‘llashga urinishlar bo‘ldi...

Gegelning «estetika» atamasidan ko‘ngli to‘lmaganligiga jiddiy sabablar bor. Bulardan biri – yuqorida uning o‘zi aytib o‘tgan fikrlari bo‘lsa, ikkinchisi – mazkur so‘zning barcha his-tuyg‘ularga taalluqliligi. Vaholanki, bu fan faqat nafosatli his tuyg‘ular va ularning ziddini nazarda tutadi. Ayniqsa, mana Shu ikkinchi sababga ko‘ra, «estetika» atamasining talabga javob berishi Shubhali. Buning ustiga allaqachon mazkur fan tadqiqot

doirasi san'at hududidan chiqib, inson hayotining deyarli barcha sohalariga yoyilib ketgan. Shu bois «nafosatshunoslik» atamasi ham ilmiy muomalaga kiritildi. Zero mazkur atamaga asos bo'lgan «nafis», «nafislik», «nafosat» so'zlari o'z qamrovi bilan fan talablariga javob bera oladi. «Nafis» so'zi «O'zbek tilining izohli lug'ati»da – go'zal, nozik, latif, yoqimli, badiiy jihatdan juda yuksak degan ma'nolarda izohlanadi[15]. Shu sababli Gegelning izidan borib, «Estetika» atamasini saqlab qolgan holda, «nafosatShunoslik» iborasidan ham foydalanish mumkin, deb oylaymiz.

Endi «Estetika» fanining mohiyatini anglatadigan «*san'at falsafasi*» va «*go'zallik falsafasi*» iboralariga to'xtalamiz. Nafosatshunoslik tarixida birinchi ibora tarafdorlari ko'pchilikni tashkil etadi. Lekin, yuqorida aytib o'tganimizdek, san'at bu fanning yagona tadqiqot ob'ekti emas. Hozirgi paytda texnika estetikasi va uning amaliyotdagi sohasi dizayn, atrof-muhitni go'zallashtirish, tabiatdagi nafosat borasidagi muammolar bilan ham shu fan shug'ullanadi. Demak, uning qamrovini san'atning o'zi bilangina chegaralab qoyishga haqqimiz yo'q. Zero bugungi kunda inson o'zini o'rab turgan barcha narsa-hodisalarning go'zal bo'lishini, har qadamda nafosatni his etishni istaydi: biz taqib yurgan soat, biz kiygan kiyim, biz haydayotgan mashina, biz uchadigan samolyot, biz yashayotgan uy, biz mehnat qiladigan ishxona, biz yurgizayotgan dastgoh, biz yozayotgan qalam, biz dam oladigan tomoshabog'lar – hammasidan nafis bir ruh ufurib turishi lozim.

Go'zallik, ko'rganimizdek, nafosatning bosh, etakchi xususiyati hisoblanadi. Shu bois u estetikaning mezoniy tushunchalaridan biri sifatida tadqiq va talqin etiladi. Zero go'zallikning ishtirokisiz yuqoridagi xususiyatlarning birortasi estetik tabiatiga ega bo'lolmaydi. Masalan, ulug'vorlikni olaylik. U asosan hajmga, miqyosga miqdorga asoslanadi: Buxorodagi Arslonxon minorasi yoxud Minorai Kalon ulug'vorligi bilan kishini hayratga soladi. Unga tikilar ekansiz, qalbingizni nafosat zavqi qamrab oladi. Lekin xuddi shunday balandlikdagi kimyoviy korxona mo'risidan zavqlanolmaysiz. Yoki yonbag'irdan turib, toqqa tikilsangiz, estetik zavq tuyasiz, ammo xuddi Shunday balandlikdagi shahar chetida o'sib chiqqan axlat «tog'i»ga qarab zavqlanmaysiz. Chunki Arslonxon minorasi me'morlik san'ati asari sifatida go'zallik qonuniyatlari asosida bunyod etilgan; tog' esa tabiat yaratgan ulug'vor go'zallik. Zavod mo'risida ham, axlat «tog'»ida ham hajm, miqdor boru, lekin bir narsa –go'zallik etishmaydi. Minora bilan tog'dagi hajmni salobatga aylantiruvchi unsur, bu – go'zallik. Fojeaviylik xususiyatida ham go'zallikning ishtirokini ko'rish mumkin. Misol sifatida Lev Tolstoyning «Urush va tinchlik» romanidagi Austrlistda bo'lib o'tgan rus va franstuz qo'shinlari to'qnashuvidan so'ng, jang maydonida yarador bo'lib yotgan knyaz Andrey Bolkonskiyni eslaylik:

[15] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томли, 2 том, М., Русский язык, 1981. 497 – 498-б.

bir qo‘lida bayroq dastasini ushlagancha, ko‘m-ko‘k maysada moviy osmonga qarab yotgan, oppoq mundirli botir yigit – bayroqdor zobitning tepasiga kelgan Napoleon uni o‘lgan deb oylab, bu manzaradan hayratlanib: «Mana bu – go‘zal o‘lim!», deydi. Bu o‘rinda asar qahramonining o‘limi – fojeaviylik, o‘limning qahramonlikka aylanishi – ulug‘vorlik; fojeaviylik bilan ulug‘vorlik xususiyatlarining omuxtalashuvi natijasida esa go‘zal manzara, qayg‘uli va ulug‘vor go‘zallik vujudga kelgan. Shuning uchun ham Napoleonning hayrotomuz xitobi bejiz emas. Ayni paytda go‘zallik yuqorida keltirilgan estetik xususiyatlar va tushunchalarning «mustaqilligiga» daxl qilmaydi, faqat ularning hujayrasida u yoki bu darajadagi unsur sifatida ishtirok etadi. Demak, estetikaning asosiy tadqiqot ob’ekti – go‘zallik, biroq, birinchi galdagi vazifasi ana shu go‘zallikni aks ettirish bo‘lgan san’at ham o‘z navbatida nafosatshunoslikning keng qamrovli tadqiqot ob’ekti hisoblanadi.

San’at estetikaning tadqiqot ob’ekti sifatida o‘ziga xos olam. Unda estetik xususiyatlar bo‘rtib ko‘zga tashlanadi. Shunga ko‘ra, uni nafosatga burkangan ijtimoiy hodisa deyish mumkin. San’at hayotni in’ikos ettirar ekan, insonning o‘zini o‘ziga ko‘rsatuvchi ulkan ko‘zgu vazifasini o‘taydi. U insonni o‘rgatadi, da’vat etadi, go‘zallashtiradi. Bu vazifalarni bajarishda estetika san’atning ko‘makchisi, etakchisi hisoblanadi. Estetika bir tomondan, san’atning paydo bo‘lishidan tortib, uning turlariyu janrlarigacha, san’at asarining ichki murvatlaridan tortib, san’atkorning ijodkorlik tabiatigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘rganadi. Ikkinchi tomondan, san’at uchun umumiy qonun-qoidalarni ishlab chiqadi va tadbiq etadi. Uchinchi tomondan esa, san’at asarini idrok etayotgan kishi ruhidagi o‘zgarishlarni nafosat nuqtayi nazaridan tadqiq qiladi.

Estetika fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi

Estetika va axloqshunoslik. Estetika qadim-qadimlardan buyon ko‘pgina fanlar bilan mustahkam aloqada rivojlanib kelgan. Shulardan biri bo‘lgan falsafa haqida, ular orasidagi bog‘liqlik to‘g‘risida yuqorida aytib o‘tdik. Estetika uchun yana bir yaqin aloqador, «qadrdon» fan Axloqshunoslikdir.

Bu ikkala fan shu qadar bir-biriga yaqinki, hatto ba’zi davrlarda ayrim mutafakkirlar tomonidan ular etarli darajada o‘zaro chegaralanmagan. Chunki insonning xatti-harakati va niyati ko‘pincha ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo‘ladi, ya’ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik, ham nafosat xususiyatlarini o‘zida birvarakay mujassam qiladi. Shu sababli «Avesto», «Bibliyo» va «Qur’on» kabi muqaddas kitoblarda, Suqrot, Aflotun, Forobiy singari qadimgi faylasuflar ta’limotlarida axloqiylikni – ichki go‘zallik, nafosatni – tashqi go‘zallik tarzida talqin etganlar. Bundan tashqari, ko‘rib o‘tganimizdek, san’at nafosatshunoslikning asosiy tadqiqot ob’ektlaridan hisoblanadi. Har bir san’at asarida esa axloqning dolzarb

muammolari ko‘tariladi va ijodkor eng yuksak axloqiy darajani badiiy qiyofalar orqali in’ikos ettiradi. Bu in’ikos bevosita ijobiy qahramonlar qiyofasida amalga oshsa, bilvosita salbiy voqea-hodisalarga muallif nuqtayi nazari orqali roy berishi mumkin. Ya’ni, biror-bir badiiy asarda ijobiy qahramonlar umuman bo‘lmaydi, lekin undagi voqea-hodisalarga ijodkor o‘z zamonasi erishgan axloqiy yuksaklikdan turib baho beradi. Shu bois axloqsiz badiiy asarning bo‘lishi mutlaqo mumkin emas.

Estetika va ruhshunoslik. Estetika ruhShunoslik (psixologiya) bilan ham mustahkam aloqada. Ma’lumki, insonning ruhiy hayotini o‘rganar ekan, ruhShunoslik hissiyotlar masalasiga katta o‘rin beradi. Go‘zallikni, san’at asarini yaratish va idrok etish ham ma’lum ma’noda hissiyotlar bilan bog‘liq. Masalan, oddiy xarsang tosh kishida alohida bir hissiy taassurot uyg‘otmaydi. Lekin toshga haykaltarosh qo‘l urganidan so‘ng, undan hayot nafasi, insoniy hissiyotlar ufura boshlaydi. Gap bunda toshga odam qiyofasi berilganida emas, balki shu qiyofaga bir lahzalik insoniy tuyg‘ularning jamlanganidadir. Boshqacharoq qilib aytganda, ijodkor toshga o‘zi tomoshabinga etkazishni maqsad qilib qoygan hissiyotlarning suratini chizadi va oddiy toshni haqiqiy san’at asariga aylantiradi. Agar ijodkor - haykaltarosh ana Shu hissiyotlarni o‘zi mo‘ljallagan darajada tomoshabinga etkaza olsa va tomoshabinda o‘sha hissiyotlarga yo aynan, yo monand tuyg‘ular uyg‘ota olsa, mazkur haykal haqiqiy san’at asari hisoblanadi.

Estetika va sotsiologiya. Bugungi kunda estetikaning sostiologiya (ijtimoiyShunoslik) bilan aloqadorligi juda ham muhim. Ma’lumki, har bir san’at asari alohida inson shaxsiga e’tibor qilgani holda, jamiyatni ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida badiiy tadqiq etadi. Hatto inson va jamiyat bevosita aks etmagan manzara janridagi asarda ham ijtimoiylik jamiyat a’zosi – muallif qarashlarining bilvosita in’ikosi bo‘lmish uslubda o‘zini ko‘rsatadi. Zero asar muallifi hech qachon o‘zi mansub jamiyatdan chetda «tomoshabin» bo‘lib turolmaydi. Shuningdek, yirik asarlar sostiologik tadqiqotlar uchun o‘ziga xos material bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, sostiologiya jamiyat bilan san’atning o‘zaro aloqalarini, san’atning ijtimoiy vazifalarini o‘rganadi; san’atkorning jamiyatdagi o‘rni, mavqei, o‘quvchi va tomoshabinlarning ijtimoiy-demografik holatlarini tadqiq etadi; shaxs ijtimoiylashuvida san’atkor va san’at asarining ahamiyatini tahlil qiladi.

Estetik va dinshunoslik. Estetikaning dinshunoslik bilan aloqasi alohida diqqatga sazovor. Chunki din va san’at doimo bir-birini to‘ldirib keladi va ko‘p hollarda biri boshqasi uchun yashash sharti bo‘lib maydonga chiqadi. Buning ustiga, har bir umumjahoniy dinning «o‘z tasarrufidagi» san’at turlari bor: buddhachilik uchun - haykaltaroshlik, nasroniylik uchun - tasviriy san’at, musulmonchilik uchun - badiiy adabiyot. Shuningdek, barcha umumjahoniy dinlar o‘z ibodatxonalari bo‘lishini taqozo etadi.

Ibodatxonalarning esa me'morlik san'ati bilan bog'liqligi hammamizga ma'lum.

Umuman olganda, dinlar deyarli barcha san'at turlari bilan aloqadorlikda ish ko'radi. Asrlar mobaynida ana Shu aloqalar natijasi o'laroq, san'at asarining o'ziga xos ko'rinishi – diniy-badiiy asar vujudga keldi. «Abu Muslim jangnomasi», Shohizinda me'morlik majmui, Rembrandtning «Muqaddas oila» asari, Hindi-Xitoy mintaqasidagi Buddha ibodatxonalari ana shunday diniy-badiiy asarlardir. Ularda diniy g'oyalar badiiyat orqali ifoda topgan. Nafosatshunoslik bunday asarlarni tadqiq etar ekan, albatta, dinshunoslik bilan hamkorlik qilmay iloji yo'q: u o'sha diniy g'oyalarning mohiyatini, har bir umumjahoniy dinning san'at oldiga qoygan talablarini yaxshi bilmog'i va hisobga olmog'i lozim.

Estetika va pedagogika. Estetikaning pedagogika bilan aloqasi tarbiya muammolarini hal qilish borasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki pedagogika ham ma'lum ma'noda nafosat tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Lekin bu tarbiya alohida-alohida, muxtor qismlarga bo'lingan holda, turli yosh va sohalar uchun maxsus belgilangan tarbiya tarzida, ya'ni muayyan, aniq chegaralarda olib boriladi. Masalan, maktabgacha tarbiya, o'quvchilar tarbiyasi, sportchilar tarbiyasi v. h. Pedagogika ana shu sohalar va yosh boyicha olib borilayotgan estetik tarbiya muammolarini o'rganadi. Estetika esa nafosat tarbiyasining umumiy qonun-qoidalarini ishlab chiqadi, ya'ni, inson tug'ilganidan boshlab to o'lgunigacha bosib o'tadigan bosqichlar uchun umumiy bo'lgan tarbiya falsafasi sifatida ish ko'radi. Demak, rus nafosatshunosi M.Kagan aytganidek, pedagogika tarbiya borasida taktik tabiatga ega bo'lsa, nafosatshunoslik uning strategiyasidir.

12.2. Estetika xaqidagi qarashlar tarixi

Inson tabiatan bo'sh vaqtga intilib yashaydi. Chunki bo'sh vaqt mobaynida u jisman va ruhan dam olish, kundalik mehnat, qorin toydirish tashvishidan forig' bo'lish imkoniga ega. Bo'sh vaqt insonda oyin hissi oyg'onishining asosiy omilidir. San'atning vujudga kelishida oyinning ahamiyati katta ekanligi hammaga ma'lum. Demak, estetik anglash va estetik faoliyatning tadrijiy rivojida mehnat bilan birga bo'sh vaqt ham asosiy omil hisoblanadi. Ichki osoyishtalikni, mehnat va bo'sh vaqtga asoslangan muayyan tartibni jamiyatda qonun darajasiga ko'tarish esa davlat paydo bo'lganda roy berishi mumkin. Davlatning qanchalik o'z vazifasini adolatli va mukammal bajarishi, shunchalik jamiyat farovonligiga olib keladi. Farovon jamiyat esa o'z a'zolarining bo'sh vaqtini ta'minlay oladi va pirovard natijada estetik anglash hamda estetik faoliyat taraqqiyoti uchun etarli imkoniyat yaratib beradi. Shunday qilib, davlatchilik tizimi paydo bo'lishi bilan insonning badiiy-estetik taraqqiyotida yangi davr boshlandi.

Ana shu davr ibtidosini biz Mesopotamiya – Qo‘sh daryo (Dajla va Frot daryolari) mintaqasida, xususan, Shumer davlatida ko‘rishimiz mumkin.

Qadimgi sharqdagi dastlabki estetik tasavvurlar

Shumer va Bobil. Shumer insoniyat tarixidagi hozirgacha bizga ma’lum bo‘lgan ilk qudratli davlat bo‘lgan. Shubhasizki, miloddan avvalgi IV ming yillikda bu davlatning qudrati uning madaniyatida, fuqarolarining badiiy-estetik darajasida hamda badiiy-estetik faoliyatida namoyon bo‘lgan. Shumerliklar birinchi bo‘lib yozuvni kashf etdilar va giltaxtachalarga qamish qalamlar bilan ilk rivoyatlarni, ilk nasihatlarni yozib qoldirdilar.

Qadimgi Somirdagi dastlabki estetik g‘oyalar haqida gap ketganda, eng avvalo undagi tasviriy san’atning ilk namunalariga to‘xtalib o‘tish joiz. Qadimgi Shumer tasviriy san’ati asosan muhrlar, idish-tovoqlardagi rasmlar va releflardagi tasvirlardan iborat. Bular orasidagi eng qadimiysi va bizgacha ko‘p miqdorda etib kelgani muhrlardir. Ilk sulolalar davridayoq Somirda tosh oymakorligining badiiy-estetik tamoyillari ishlab chiqilgan va mustahkamlangan, sayqal berish texnikasi mukammallasha boshlagan. Shuning uchun ularga faqat moddiy madaniyat namunalari emas, balki san’at yodgorliklari sifatida ham qarash maqsadga muvofiq. Shumer muhrlariga razm solgan har bir inson ularda asotir yoki xalq og‘zaki ijodiga doir syujetning ifodasini ko‘radi: qanotli ajdaholarning ustida turgan erkak bilan ayol, etti boshli ajdahoni o‘ldirayotgan pahlavon, xayoliy mavjudotlar – qush-odam va odam-arslon ustidan olib borilayotgan sud va boshqa tasvirlar Shular jumlasidandir. Qisqasi, ularda go‘zallik va xunuklik, ulug‘vorlik va tubanlik, xayoliylik va mo‘’jizaviylik haqidagi dastlabki tasavvurlarni ilg‘ash qiyin emas.

Qadimgi Misr. Estetik tafakkur taraqqiyotiga qadimgi Misr madaniyati juda katta hissa qo‘shgan. Barcha qadimgi xalqlar qatori misrliklar ham go‘zallikni hayotda deb bilganlar va uni foydalilik mezoni bilan o‘lchaganlar. Chunonchi, quyosh ma’budi Atonga (milodgacha XY asr) bag‘ishlangan alqovlardan birida Shunday deyiladi:

Sening go‘zalliging o‘zi hayotdir,
Umr bag‘ishlaydi har bir yurakka.

Ma’lumki, Nil toshqini qadimgi Misr farovonligining asosi bo‘lgan. Farovonlik esa, ular fikricha, go‘zallikdir. Shuning uchun misrliklar Nilni ilohiy daryo sifatida talqin etadilar. Unga atalgan alqovlarning birida u barcha go‘zallliklarning bunyodkori deb ta’riflanadi:

Er yayraydi u yoyilgan chog‘ida,
Quvonadi bor jonzot.
Barcha tishlar ochilar,
Yaraqlaydi har bir tish
To‘kin rizqu non keltirib, u butun

Go‘zallikni yaratar.

Qadimgi Misr san’atining juda ko‘p turlari ana Shu manfaatli go‘zallik asosida vujudga kelgan. Chunonchi, ma’budlar uchun qurilgan ibodatxonalar, ma’budlarning va o‘limidan keyin ma’budga aylangan fir’avnlarning haykallari ulardan shafqat, mo‘l hosil, rizq-ro‘z so‘rash maqsadida bunyod etilgan bo‘lsa, xalq amaliy san’ati buyumlari esa kundalik hayotni go‘zallashtirish uchun xizmat qilgan. Ayni paytda ba’zi san’at turlari manfaastiz go‘zallikning namunasi sifatida diqqatni tortadi. Ayollarning go‘zal bezaklari, taqinchoqlari, diniy-badiiy qissalar, ertaklar Shular jumlasidan.

Qadimgi Turon-Eron mintaqasi xalqlarining estetik qarashlari

Sharq xalqlari taraqqiyoti tarixida qadimgi Eronzamin va Turonzamin aholisi yaratgan madaniyat katta o‘rin tutadi. Eronliklar va turonliklar o‘rtasidagi aloqalar ko‘pincha tinch-totuvlikka asoslangan emas. To‘maris, Shiroq haqidagi qadimgi voqelikka doir afsonalar, keyinchalik Firdavsiy «Shohnoma»sidan o‘rin olgan buyuk turk hoqoni Alp Er To‘nga – Afrosiyobning Siyovush, Kaykovus, Kayxusrav bilan bo‘lgan munosabatlari buning dalilidir. Ayni paytda, bu qadimgi ikki mintaqa orasida madaniy, ma’rifiy aloqalar yo‘lga qoyilganligi shubhasizdir. Xususan, mashhur zardo‘shtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»ning taqdiri bunga misol bo‘la oladi. Bundan uchming yil avval qadimgi Xorazmda Spitoma urug‘idan dunyoga kelgan Zardusht dastlab o‘z o‘lkasida Axura Mazda dinini targ‘ib etishda ko‘p qiyinchiliklarga duch kelgach, o‘zga yurtlarga bosh olib ketadi. Sakastana yurtida Kaviy Vishtaspa saroyida panoh va uzlat topadi.

«Avesto» gotlarini Zardo‘sht badiha yo‘li bilan omma orasida qo‘shiq qilib aytgan. Bu turkum she’rlar – «got»larda o‘sha davrdagi hayotiy lavhalar o‘z aksini topgan. «Got» so‘zi aslida «goh» ya’ni «kuy», «qo‘shiq» degan ma’noni anglatadi. Bu so‘z mumtoz musiqa merosimizda «Dugoh», «Segoh», «Chorgoh» kabi atamalar tarkibida saqlanib qolgan.

Qadimgi «Avesto»dan bizgacha etib kelgan qismlar «Yasna», «Vedevdot», «Yasht», «Visparat» kitoblaridir. Zardusht ijod qilgan gotlardan 17 tasi «Yasna» kitobiga kirgan. Ayrim parchalar yashtlar ichida ham uchraydi. Aynan ana shu gotlar orasida qadimgi turonliklar va eronliklarda estetik tasavvurlarning qanday shakllanganligini ko‘rish mumkin.

Qadimgi Hindistondagi estetik g‘oyalar

Taxminan milodgacha bo‘lgan II ming yillik o‘rtalarida Shimoliy-G‘arbiy Hindistonga, hozirgi Panjob mintaqasiga g‘arbdan Hindukush dovonlari orqali o‘zlarini oriylar deb atagan jangovar qabilalar kirib kela boshladilar. Ular na faqat harbiy iste’dodga, balki shoirlik qobiliyatiga, dunyoning qandayligi, uning qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi o‘z qarashlariga ham ega edilar. Ularning alqovlari eng qadimgi hind yodgorligi

«Rigveda»ga asos bo‘ldi. «Veda» – muqaddas bilim, «Rigveda» – alqovlar vedasi demakdir. «Rigveda» o‘sha davr kishisining o‘zi va atrof muhit: ma’budlar, iblislar, devlar, fazo, ijtimoiy turmush axloqiy va estetik qadriyatlar haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi.

Eng keng yoyilgan nuqtayi nazarga ko‘ra, Hindistonga bostirib kirgunlariga qadar oriylar O‘rta Osiyoning Amudaryo va Sirdaryo boyi, Orol hamda Kaspiy dengizigacha bo‘lgan mintaqalarida yashaganlar. Zero «Rigveda» va «Avesto»ning tili bir-biriga nihoyatda yaqin. Yaqinlik ba’zan shu darajadaki, ikki matn bir qadimiy matnning ikki xil variantiga o‘xshaydi: faqat tovushlar mosligining qonun-qoidalarigina har xil. Buning ustiga «Rigveda» tili keyingi davrda sanskritda yozilgan she’rlar va mumtoz eposlar tilidan ko‘ra, «Avesto» tiliga yaqin. «Rigveda»dagi qator mifologik personajlarning «Avesto»da mavjudligini ham aytib o‘tish lozim; nomlar o‘xshashligidan tortib, syujetlar o‘xshashligigacha uchratish mumkin. Bundan tashqari, har ikki diniy tizimda sig‘inish ob’ekti umumiy: «Rigveda»da ham, «Avesto»da ham olovga sig‘inish e’tiqodiy asos sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday o‘xshashliklar juda ko‘p.

Qadimgi Xitoy estetikasi

Qadimgi Xitoy estetikasi deganda, biz odatda, miloddan avvalgi VII asrdan milodning V asrigacha bo‘lgan davrni nazarda tutamiz. Mana shu davrda Xitoyda, garchand estetik tafakkur mustaqil fan maqomiga ega bo‘lmasa-da, lekin asosiy falsafiy-estetik tushunchalar shakllangan edi. Biroq, dastlabki nafosatga doir tasavvurlar, g‘oyalar, tushunchalar bundan ancha avval «Shuszin» («Tarixlar kitobi» – miloddan avvalgi XII asr), «Shiszin («Qo‘shiqlar kitobi» – miloddan avvalgi XI-VI asrlar), «Iszi» («O‘zgarishlar kitobi» – miloddan avvalgi VIII-VII asrlar) deb nomlangan yodgorliklarda uchraydi. Ularni eng avvalo, mazkur kitoblardan joy olgan asotirlar-miflarda va she’riy eposlarda ko‘rish mumkin.

Bular orasida «Shiszin» («Qo‘shiqlar kitobi») alohida o‘rin tutadi. Zero u qadimgi Xitoy xalqi tarixini ko‘pgina tarixiy, etnografik va boshqa yodgorliklarga nisbatan to‘laroq, chuqurroq aks ettiradi, desak Yanglishmaymiz. «Shiszin» 305 she’riy asarni o‘z ichiga oladi. Ular to‘rt qismga bo‘lingan: «Gofun» («Saltanatlar odatlari»), «Syao ya» («Kichik qasidalar»), «Da ya» («Ulkan qasidalar») va «Sun» («Alqovlar»), «Shiszin»dagi she’riy asarlar asosan xalq og‘zaki ijodining yozib olingan variantlaridir, to‘g‘rirog‘i, musiqaga solingan she’rlardir. Agar qadimda musiqa va raqs bir-biridan ajralib chiqmaganini nazarda tustak, bu yodgorlikda ham so‘z san’ati, ham musiqa san’ati, ham raqs san’ati ruhini, unsurlarini ko‘rish mumkin. Chunonchi, «Yueszin» («Musiqa haqida kitob») deb atalgan qadimgi yodgorliklardan bizgacha etib kelgan bir parchada Shunday deb yoziladi: «She’riyat, bu – so‘zga aylangan intilish. Qo‘shiq uni tovush orqali ifodalaydi; raqs badiiy qiyofani harakat orqali etkazadi. Har

uchala tur yurakda ildiz otadi, keyin ularga musiqiy asboblar ergashadi». Bu parchadan o‘sha paytlarda so‘z san’ati kuy va raqs talablariga boysundirilgani ko‘rinib turibdi.

Qadimgi dunyoning mumtoz estetikasi

Qadimgi dunyoning mumtoz falsafasi haqida gap ketganda ko‘pgina adabiyotlarda uni goyo Yunonistonda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolgan aqliy yuksaklik, ya’ni, yunonlarning (Yevropaliklarning) boshqa irqlarga nisbatan buyukligidan dalolat beruvchi hodisa sifatida talqin etiladi. Lekin, aslida qadimgi Yunoniston fani va madaniyati Eron, Bobil, qadimgi Misr va qadimgi Hindiston singari sharq mamlakatlari erishgan yutuqlardan foydalanib, shu darajaga ko‘tarildi. Qadimgi sharq yunonlar uchun ulkan maktab vazifasini o‘tadi. Chunonchi, Fales, Pifagor, Demokrit, Geraklit, Suqrot, Aflotun singari allomalar ana shu maktab ta’limotidan bahramand bo‘lib, buyuklikka erishganlar. Buning isbotini deyarli barcha qadimgi manoqiblarda, xususan, yunonlardan qolgan falsafiy, adabiy va tarixiy manbalarda ko‘rish mumkin.

Qadimgi yunon mumtoz estetikasi deganda biz, asosan, uch buyuk siymoni nazarda tutamiz. Bular-Suqrot, Aflotun va Arastu.

Suqrot (miloddan avvalgi 469-399 yillar) jahon falsafasida birinchi bo‘lib antropologik yondashuvga asos solgan mutafakkir, ungacha falsafaga faqat kosmologik yondashuv hukmron edi. U diqqatni kosmos – fazoga emas, balki insonga qaratdi, insonni amaliy xatti-harakati, axloqiyligi nuqtayi nazaridan o‘rganishga kirishdi. Suqrot axloqshunoslik va nafosatshunoslikning, axloq va go‘zallikning uzviy aloqasini ta’kidlab ko‘rsatadi. Uning ideali – ma’nan va jisman go‘zal inson. U insonni san’atning asosiy ob’ekti sifatida olib qaraydi, san’atning estetik va axloqiy mezonlari masalasini o‘rtaga tashlaydi hamda shular orqali ijodiy jarayonni ochib berishga urinadi.

Qadimgi yunon nafosatshunosligida **Aflotun**ning (milodgacha 427 – 347) qarashlari diqqatga sazovordir. Uning nafosat borasidagi fikr-mulohazalari asosan «Ion», «Fedr», «Bazm», «Qonunlar», «Davlat» singari asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Aflotun, Suqrotdan farqli o‘laroq, g‘oyalar muammosini o‘rtaga tashlaydi. Uning nazdida asl borliq ana Shu g‘oyalardan iborat. Umumiy tushunchalar qancha bo‘lsa, g‘oyalar ham shuncha. G‘oyalarning o‘rni narsalarga nisbatan birlamchi: avvalo g‘oyalar, undan keyin narsalar. Atrof-tevarakdagi his etiluvchi narsalar hissiyotdan yuksak turuvchi g‘oyalarning in’ikosidir. Aflotunning fikriga ko‘ra, asl go‘zallik his etilguvchi narsalar dunyosida bo‘lmaydi, u g‘oyalar olamiga taalluqli. Qadimgi yunon estetikasining yuksak cho‘qqisi **Arastu** (milodgacha 384 – 322) ijodidir. Uning asosan «Xitoba» («Ritorika»), «Siyosat», ayniqsa «She’riyat san’ati» («Poetika») asarlarida nafosatShunoslik muammolari o‘rtaga tashlangan.

Arastu go‘zallik masalasini o‘z tadqiqotlari markaziga qoyadi. U go‘zallikni tartib, mutanosiblik va aniqlikda ko‘radi. Go‘zallikning nisbatan yuksak ifodasi esa, tirik jonzotlarda, ayniqsa, insonda namoyon bo‘ladi. Go‘zallikning yana bir belgisi, Arastu fikriga ko‘ra, miqdorning cheklanganligi. «Jonsiz narsalar kabi jonli mavjudotlar ham hajman oson ilg‘ab olinadigan bo‘lishlari kerak, deydi faylasuf – shunga o‘xshash voqea (fabula) ham oson esda qoladigan cho‘ziqlikka ega bo‘lishi shart». Go‘zallikning eng muhim belgisini esa, Arastu uzviy yaxlitlik deb ataydi. Uning talqiniga ko‘ra, yaxlitlik ibtido, markaz va intihodan iborat bo‘ladi[16].

O‘rta asrlar musulmon sharqida Arastudan so‘ng eng ulug‘ ustoz sifatida **Abu Nasr al Forobiy** (873 – 950) mashhur bo‘ldi. U Arastudan keyingi – «Ikkinchi muallim» degan nomni oldi.

Forobiyning qarashlarida ezgulik bilan go‘zallik ma’lum ma’noda aynanlashtiriladi, biri ikkinchisida yashovchi hodisalar sifatida talqin etiladi. Shuning uchun uning asarlarida «go‘zal xatti-harakatlar», «go‘zal qilmishlar» degan iboralarni ko‘p uchratish mumkin. Go‘zallikka etishishni u falsafa tufayli roy beradi, deb hisoblaydi. Uning fikriga ko‘ra, har bir narsa-hodisaning go‘zalligi uning o‘z borlig‘ini to‘la namoyon etishi va mukammallikka eriShuvi bilan bog‘liq. Alloma faylasuf insonda ikki xil go‘zallikni farqlaydi – ichki va tashqi. U ichki go‘zallikni yuqori qoyadi va bu boyning boyligini bezab, kambag‘alning kambag‘alligini yashiradigan go‘zallikni «adab» deb ataydi. Bunday go‘zallik yuksak axloqiy xatti-harakatlar va insoniy komillikda o‘zini namoyon etadi. Tashqi go‘zallikka kelganda, faylasuf tabiiy go‘zallikni har qanday bezanish, yasanishlardan yuqori qoyadi.

Temur va temuriylar davri estetikasi

XIII asrga kelib, Markaziy Osiyo mintaqasi hamma sohada yuksaklikka erishgan edi. Afsuski, mo‘g‘ul bosqini Turkiston, Movarounnahr, Rum, Xuroson singari gullab-yashnab turgan o‘lkalarni vayron qildi. Ilm-fan, madaniyat tanazzulga yuz burdi, ne-ne shaharlar yer yuzidan izsiz yo‘qoldi, musulmon sharqi zulmat ichida qoldi. Faqat tarix sahnasiga Amir Temur chiqqanidan keyingina Uyg‘onish boshlandi. Sohibqiron bobomiz yuritgan oqilona siyosat butun mintaqada ma’naviy yuksalishga olib keldi. Shu bois Temur va Temuriylar davri ilm-fan va san’atning oltin davri hisoblanadi. Bu davr estetikasida buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiyning o‘rni o‘ziga xos. Navoiy go‘zallik masalasiga tasavvufiy nuqtayi nazardan yondashadi – oliy go‘zallikni Allohda ko‘radi, shu bois go‘zallikni u haqiqat bilan aynanlashtiradi: Alloh – haqiqat quyoshi, shuning uchun U go‘zaldir. Har bir inson uchun Allohni tanish – Mashriqdan chiqqan quyosh go‘zalligini anglash degan gap; uning nuridan kosadagi mayda haqiqat yo‘li, Haq yo‘li jilvalanadi.

[16] Аристотел. Сочинения в 4 т. Т.4. М., Мысл, 1983. С. 653.

Ana shu jilvagarlik insonning umr yo‘lini go‘zallashtiradi, haqiqat yog‘dusiga ko‘madi:

O‘rta asrlar Yevropa estetikasi

O‘rta asrlar Yevropa falsafiy tafakkuri asosan cherkov qisuvida, nasroniylik belgilab qoygan doiralarda ifoda topdi, unda musulmon sharqi falsafasidagi erkinlik, teran ilmiylikni uchratish qiyin. Faqat o‘rta asrlarning keyingi davrlarida, xususan, Uyg‘onish davrida Yevropa mutafakkirlari Qadimgi yunon tafakkurining tadrijiy davomi bo‘lmish musulmon falsafasi va faniga e’tiborni qaratdilar. Shu bois o‘rta asrlar Yevropa tafakkuri Yangiaflotunchilikka, xususan, Plotinga ergashdilar. Estetikada transstentdental, ruhoniy, ilohiy go‘zallik tan olinib, erdagi go‘zallikka arshdagi go‘zallikning ramziy ifodasi sifatida qaraldi.

O‘rta asrlar Yevropa estetikasida Ilohiy Og‘ustin – Avreliy Avgustin (354 – 430) qarashlarni katta ahamiyat kasb etadi. Avgustin go‘zallikni shakl bilan, xunuklikni shaklning yo‘qligi bilan izohlaydi. Uning fikriga ko‘ra, mutlaq xunuklik yo‘q, balki nisbatan mukammal tuzilmaga va mutanosiblikka ega narsalardan shakliy ojizligi, shaklsizligi bilan farq qiladigan narsalar bor, xolos. Xunuklik nisbiy nomukammallik, go‘zallikning eng quyi bosqichi. Ya’ni, yaxlit go‘zallik tarkibida bo‘lgan, lekin undan uzilib qolgan qism o‘z go‘zalligini yo‘qotadi va aksincha, xunuklik go‘zallik tarkibiga kirishi bilan go‘zallikka aylanadi. Faqat pok qalb egalarigina olam go‘zalligini ko‘ra olishi mumkin. Bu go‘zallik ilohiy go‘zallikning in’ikosidir. Xudo – eng oliy go‘zallik, moddiy va ma’naviy go‘zallikning Ilk qiyofasi.

Yevropa ma’rifatparvarlari estetikasi

Yangi davrdagi Yevropa ma’rifatparvarlari orasida shotland mutafakkiri **Deyvid Hyum** (1711 – 1776) alohida o‘rin tutadi. Uning «Didning meyori xususida», «Fojea xususida», «Skeptik», «San’atlar borasida takomilga erishish xususida» kabi asarlarida estetik muammolar o‘rtaga tashlangan. U nafosatni bilishdan tashqaridagi hissiyot olamiga taalluqli deb hisoblaydi. Hyumning fikriga ko‘ra, go‘zallik asosan idrok etuvchining ongida, ruhida mavjud bo‘ladi, aniq ob’ektiv asosga ega emas. «Go‘zallik, – deb yozadi u, – narsalarning o‘zida mavjud bo‘lgan sifat emas; u istisnosiz tarzda o‘zini mushohada etayotgan ruhda mavjud, har bir insonning ruhi esa go‘zallikni boshqacha idrok etadi. Boshqalar go‘zallik degan narsani birovlar hatto xunuklik deb qabul qilishi mumkin, Shuning uchun har bir idrok etuvchi o‘zi his qilayotgan holatni o‘zgalarga zo‘rlab uqtirishga intilmasligi kerak».

12.3. Estetika kategoriyalari va ularning o‘zaro aloqadorligi

Go‘zallik - estetikaning markaziy kategoriyasi sifatida. «Go‘zallik»ning tugal ilmiy ta’rifi haqida biror–bir qat’iy fikr mavjud emas.

Biroq, go‘zallikning idrok etilishi, tabiatda namoyon bo‘lishi, san’atda aks etishi hamda uning jamiyat rivojiga ta’siri haqida bildirilgan fikrlar, ilgari surilgan g‘oyalar, yaratilgan ta’limotlar o‘zining salmog‘i bilan ahamiyatlidir. Inson va uning ruhiy–jismoniy, axloqiy–estetik faoliyati, tabiat va undagi hodisalar, jamiyat va unda roy berayotgan ijtimoiy–ma’naviy, siyosiy–iqtisodiy jarayonlar go‘zallikka yondoshuvning tarixan tarkib topgan asosiy obektlaridir. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, go‘zallik haqidagi qarashlar va nazariyalar markaziga «Go‘zallik nima?» degan savol qoyiladi–yu, ammo ularning aksariyatida «Nima go‘zal?» degan javobni ko‘ramiz. Shuning uchun ham odatda, go‘zallik ikki omil asosida yuzaga keladi. Bular: inson tafakkuri va mehnatining mahsuli natijasida yaratiladigan go‘zallik; inson tafakkuridan tashqarida, insonga bog‘liq bo‘lmagan xolda yuzaga keladigan go‘zallik.

Go‘zallikning namoyon bo‘lishi, shakllanishi va xis etilishida muayyan unsurlar mezoniy vazifasini o‘taydi. Bular - meyor, maqsadga muvofiqlik, tartiblilik, uyg‘unlik, hamoxanglik, moslik, yaxlitlik, birlik, mutanosiblik, tenglik va hokazo. Mazkur tushunchalar narsa–hodisalarda bevosita yoki bilvosita ishtirok etib, undagi go‘zallikni namoyon ettiradi. Masalan, bahor faslining go‘zalligi tabiatning uyg‘onishi, ko‘klamning yuz ochishi bilan, qish fasli esa oppoq qor bilan o‘ziga xos go‘zallikni namoyon etadi. Tabiatning ikkala faslida ham go‘zallikning moslik va mutanosiblik unsuri muhim ahamiyat kasb etadi.

Go‘zallik sifatlari tugyoniylik, maftunkorlik, foydalilik, mo‘jizaviylik singari tushunchalar orqali izohlanadi. *Go‘zallikning xususiyatlari* esa qulaylik, manfaatdorlik, yoqimlilik, chiroylilik tushunchalari bilan belgilanadi. Unsurlar, sifatlar va xususiyatlar uyg‘un bo‘lgan narsa–hodisalargina chinakam go‘zallikni aks ettirishi mumkin. Zero, chiroyli narsaning sifati bizning manfaatimiz uchun hamoxang bo‘lmasa yoki bizning maqsadlarimizga mos kelmasa u har qancha maftunkor bo‘lmasin go‘zallik sifatida baxolanmaydi.

Shu o‘rinda go‘zallik tushunchasi «chiroyli», «ko‘rkam», «nafis», «jozibador», «maftunkor», «latofatli» kabi tushunchalarga nisbatan kengqamrovli va ustuvor ekanligini alohida ta’kidlash joiz. Ayniqsa, go‘zallik bilan kundalik turmushimizda tez–tez tilga olinadigan «chiroylilik» tushunchasi orasida muayyan tafovutlar mavjud.

Chiroylilik – narsalarning tashqi ko‘rinishini, holatini, bajarilgan ish yoki qilingan harakatdagi o‘zaro hamohanglikni ifodalovchi tushuncha. Chiroylilik insonlarda yoqimli taassurot qoldiradi, ammo ayni bir paytda o‘sha chiroyli bo‘lgan narsa–hodisa yoqimsiz holatlarni ham vujudga keltiradi. Masalan, «Bangidevona» o‘simligining guli oppoq, chiroyli bo‘ladi. Ammo, gulining hidi yoqimsiz, tanasidan sassiq xid chiqadi. Shu ma’noda aytishimiz mumkinki, chiroylilik narsa–hodisaning yoki shakl yoki

mazmunidagi xususiyatni aks ettirishi bilan kishida yoqimli taassurot qoldiradi. Shuning uchun ham narsa–hodisalarning faqat shakl (tashqi) yoki faqat mazmun (ichki) mohiyatiga qarab unga go‘zallik iborasini ishlatish o‘rinli emas. Zero, go‘zallik narsa–hodisalarning faqat bir tomoninigina aks ettirmaydi, aksincha u mazmun bilan shaklning uyg‘unligi, mosligi, hamoxangligi, maqsadga muvofiqligi asosida shakllanadi. Shu ma’noda go‘zallik ham obektiv ham subektiv xususiyatga ega. Tabiat go‘zalligi obekt (inson) va subekt (o‘simlik va hayvonot dunyosi)ning tartibi va uyg‘unligiga asoslanadi. Uyg‘unlik va tartibning buzilishi esa tabiat va inson uchun zararli oqibatlarga olib kelishini bugungi kundagi ekologik muammolar orqali ko‘rishimiz mumkin.

Ma’naviy qadriyatlar va go‘zallik. Vatanimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng milliy–ma’naviy qadriyatlarga yangicha munosabat bildirildi, xalqona, ilg‘or an’analar shakllandi, milliy iftixorni yuksaltirishga keng jamoatchilik fikri jalb qilindi. Ana shularning natijasi o‘laroq, mamlakatimizda amalga oshirilgan ezgu ishlarning ko‘lami kengaydi. Endilikda bunyodkorlik g‘oyasi go‘zallik tushunchasi bilan hamoxang olib borilganligini bilish, anglash va tasavvur qilish qiyin emas. Buni o‘zbek san’atida amalga oshirilgan ishlar orqali yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Go‘zallik va moddiy qadriyatlar. Har qanday nazariya amaliyot bilan uyg‘un bo‘lsagina yashay oladi. Bu qoida go‘zallik tushunchasiga ham tegishli. Ma’lumki, estetik faoliyatning qator turlari amaliyot bilan chambarchas bog‘liq xolda rivojlanadi. Masalan, me’morlik sohasi. U o‘zida ham moddiy ham ma’naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Chinakam me’moriy obidaning go‘zalligi faqat tashqi ko‘rinishi bilangina emas, balki mexanika qonunlarining yangi materiallar bilan boyitilganligi, me’morlikning qadimiy an’analarini yangi ko‘rinishlar orqali namoyon qilish natijasida yuzaga keladi. Bugungi kunda zamonaviy me’morlikni xuddi shunday tasavvur qilish mumkin. Me’morlikdagi go‘zallikning o‘ziga xosligi, binoning ko‘-rinishi, uning insonga estetik zavq bag‘ishlashi, bino shakli va mazmunining hamohangligi bilan belgilanadi. *Inson go‘zalligi.* Insondagi go‘zallik aksariyat xollarda uning xulqi, odobi, axloqi va fazilatlari bilan belgilab kelinadi. Avval ham bugun ham inson borliq – jamiyat – texnika o‘rtasidagi munosabat masalasi ko‘plab ilmiy sohalarning tadqiqot obekti bo‘lib kelmoqda. Nafosat falsafasi inson go‘zalligining mohiyatiga doir muammolarni tadqiq etishni o‘zining muhim vazifasi qilib belgilaydi.

Estetik tafakkur tarixida inson go‘zalligi jism (tana) va ruhiyat masalalari bilan izohlangan. Bu boradagi fikr–mulohazalarning asosida insonning tashqi ko‘rinishi hamda axloqiy fazilatlariga bo‘lgan munosabat masalasi yotadi.

Inson go‘zalligiga bu tariqa yondashuvning muayyan sabablari bor. Birinchidan, go‘zallikning inson shaklidagi ko‘rinishida yagona, mutlaq va

tugal timsol mavjud emas. Agar mavjud bo‘lganda edi, u barcha xalqlarga go‘zallik timsoli sifatida namuna qilib ko‘rsatilardi. Olaylik, ayol go‘zalligining mezonlari patriarxat va matriarxat davri odamlarining tasavvurida katta qorin, keng dumg‘aza hamda ko‘krakning bo‘rtib turishi bilan ifodalangan.

Ikkinchidan, insonlarning go‘zallik haqidagi qarashlari turlicha bo‘lib, ular vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Kishilarning estetik xususan, go‘zallik haqidagi ideali ana shu o‘zgarishlarning birlamchi sababidir. Inson voqelikni estetik tarzda o‘zlashtirar ekan, unga dastlab o‘z estetik ideali va estetik dididan kelib chiqib munosabat bildiradi. Tabiat, jamiyat va insondagi go‘zallikni idrok etish ham bevosita mazkur ikki tushunchaga bog‘liqdir.

Ulug‘vorlik va tubanlik tushunchasining mohiyati. Ingliz nafosatshunosi E.Byork go‘zallikni ulug‘vorlik bilan qiyoslaydi va ularni alohida tushunchalar sifatida tadqiq etadi. I.Kant esa go‘zallik va ulug‘vorlikni uyg‘unlikda rivojlanuvchi tushunchalar deb hisoblaydi. Ulardan farqli o‘laroq, Xegel, ulug‘vorlikni go‘zallikning bir ko‘rinishi, ulug‘vorlik – zohiriy go‘zallikning botiniy go‘zallikka aylanishi, deb tushuntiradi.

Ulug‘vorlik – insonning narsa hodislarga estetik va axloqiy mezonlar bilan yondashishi va ulardan yuksak hayratlanish tuyg‘usini hosil qiluvchi estetik hissiyot majmuidir. Ulug‘vorlikning ko‘lami go‘zallik ko‘lami kabi cheksizdir. Ulug‘vorlik o‘zida hajm, miqdor, ko‘lam va buyuklikni mujassam etadi. Shiller ulug‘vorlik tushunchasini dramatiklashtiradi: u qayg‘u va qo‘rkuvni yengish insonni qanchalik ulug‘lashi va chiroy baxsh etishini ko‘ratib beradi. Bu yerda u «axloqiy xavfsizlik» tushunchasini kiritadi. Qo‘rquv va dahshatga qarshi borish uchun ham xavfdan xoli bo‘lish lozim. Jismoniy xavfsizlik bevosita shaxsning o‘ziga tegishli bo‘lib, insondagi qatiy ishonch bois xotirjam, xavfsiz. Biroq, dahshatli yo‘qotishlar va mudhish qotilliklar qarshisida insonning xotirjamligi yo‘qoladi. Agar xavf insonning o‘zigagina yaqinlashsa-yu, u o‘zini hotirjam xis qilsa, demakki, uning vijdoni xavfdan xoli; unga hech qanday havf taxdid solmaydi. Shu bois Shiller «axloqiy havfsizlik»ni din, e’tiqod va abadiylik bilan bog‘laydi. «Axloqiy xavfsizlik»ning zaminiy xususiyatini hayot va o‘lim masalalari bilan izohlash mumkin. Ulug‘vorlik muhokamasi yuksak darajada madaniyatni talab qiladiki, bu muhokama go‘zallik muhokamasidan ustuvorroqdir.

Tabiatdagi ulug‘vorlik cheksiz osmon, purviqor tog‘lar, yuksak cho‘qqilar, moviy dengizlar, ming yillik chinorlar, shuningdek, vulqon va chaqmoq singari tabiat hodisalarida namoyon bo‘ladi. Ular uzoqdan kishilarda hech qanday hayajonli taassurot qoldirmaydi. Biroq, ularga yaqinlashganimiz sari ruhiyatimizni hayajon, jo‘shqinlik egallay boshlaydi,

ularni butunligicha ko‘z bilan qamrab ololmaslik darajsiga yetganda esa bu hayajon yanada ortadi. Tabiatdagi ulug‘vorlik matematik va dinamik xususiyatga ega. Matematik xususiyatida xajm, dinamik xususiyatida kuch ustuvor ahamiyatga kasb etadi. Biroq, ikkala xususiyat ham insonda kuchli hayrat va hayratlanish tuyg‘ularini paydo qiladi. Tog‘lar insonni yuksak fikrlashga, buyuk g‘oyalarga undaydi: Everestga O‘zbekiston bayrog‘ini tikib qaytishgan alpinistlarimizning taassurotlari nihoyatda hayajonlidir.

Jamiyatdagi ulug‘vorlik umuminsoniy qadriyatlar, qahramonlik, jasorat, xalqparvarlik, bunyodkorlik tushunchalari bilan uyg‘unlashadi. Davlatda barqarorlik, jamiyatda adolat ustuvorligi, shaxsning erkin va hurfikrlilik asosida faoliyat olib borishi ijtimoiy tizimning ulug‘vorligini aks ettiradi. Bu o‘rinda faylasuf, estetik olim T.Maxmudovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinlidir: “Ma’naviyat shaxs va millatning “aqlli qalbi”ni ifoda etadigan, tarix taqozasiga binoan uning turli tomonlari namoyon bo‘ladigan, tabiat, jamiyat va insonning insoniylashuv darajasini bildiradigan ruhiy idrok, ziyrak qalb olamidir”.[17]

San’atdagi ulug‘vorlik o‘zining har tomonlama ijodiy ifodasini topadi; san’atning barcha turlari uchun ulug‘vorlik asosiy mezon bo‘lib hizmat qiladi. Badiiy adabiyot va ifodali san’at turlari ulug‘vorlikni tasvirlashda xilma–xil vositalardan foydalanib hamda ulug‘vorlik mavzusini badiiy o‘zlashtirib, qahramonlik eposlarini liroepik dostonlarni, qahramonlik fojialarini, mardonavor musiqa asarlarini (simfoniya, oratoriya)ni vujudga keltirdi. San’atdagi ulug‘vorlik teatr, kino, badiiy adabiyot fojiaviylik bilan yonma–yon turadi: estetikaning bu ikki mezoniy tushunchasi o‘rtasida o‘ziga xos dialektik aloqadorlik mavjud bo‘lib, ular milliylik va umuminsoniylik xususiyatlariga ko‘ra farqlanadilar. Masalan, Shekspir va Shayxzoda asarlari bir vaqtning o‘zida ham ulug‘vorlikni ham fojiaviylikni namoyon etadi. Farq, Ulug‘bekning o‘limi bilan Otteloning qismatida, xolos. San’atdagi ulug‘vorlik badiiy mazmun va shaklning barcha imkoniyatlari vositasida ifodalanadi, lekin bunda hal qiluvchi rolni g‘oya oynaydi. Muhim ahamiyatli g‘oya yuksak ruhlangan, muukammal shaklning zarurligini yuzaga keltirib, san’at asari darajasining yuksakligi belgilab beradi. Bu holat hayotiy haqiqatdan qochishga emas, unga xizmat qilishga da’vat etadi.

Me’morchilikdagi ulug‘vorlik yuksak ahamiyat kasb etadi: Samarqanddagi Registon maydoni, Go‘ri Amir maqbarasi, Imom Buxoriy majmui, Buxorodagi Minorai Kalon, Xivadagi Kalta Minor, Shahrisabzdagi Bibixonim, Oqsaroy, Toshkentdagi Yevropa va Osiyo me’morchiligining yangi an’alarini uyg‘unlashtirgan Milliy Bank binosi, Oliy Majlis binosi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Misrdagi ehromlar, yunonlarning

[17]Махмудов Т'. Мустакиллик ва маънавият. Т. 2001 й, 18-бет.

Parfenoni, rimliklarning Kolizeyi, o‘rta asr gotik bosh cherkovlari shular jumlasidandir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ulug‘vorlik tushunchasiga faqat miqyos, ko‘lam va o‘lchovining kattaligi bilan yondashish uning qamrovini chegaralab qoyadi. Bobil minorasi, Minorai Kalon, Misr ehromlari o‘zining keng miqyosliligi bilan kishilarni hayratga solsa, Go‘ri amir, Shohizinda, Ichan qal’a, Registon maydoni, Ismoil Somoniy maqbarasi, Chor Minor, Bolo hovuz machiti insonda yuksak darajada nafosat va go‘zallik tuyg‘ularni shaklantiradi.

Tubanlik – insonda kuchli nafratlanish tuyg‘ularini hosil qiluvchi estetik kategoriyadir. Nafosatshunoslik kategoriyalari orasida xunuklik singari kishilarda salbiy his–tuyg‘u paydo qiladigan boshqa tushunchalar ham mavjud. Tubanlik ana shunday tushuncha: uni xunuklik bilan aynanlashtirib bo‘lmaydi. Chunki, xunuklik kishilarda yengil noxushlik tuyg‘usini paydo qilsa, tubanlik esa kuchli nafratlanish hissini uyg‘otadi. Tabiat, hayvonot va nabotot olamidagi xunuklik tubanlikka aylanmaydi. Insondagi xunuklik esa tubanlik darajasiga borib yetadi. Daryoning suvi loyqalangani, ko‘kalamzorlarga to‘kilgan axlat, qurbaqa, ilon xunuk ko‘ringani bilan undan odamlar nafratlanmaydilar. Gohida muhtojlik inson tabiatidagi yovuz maylni qo‘zg‘atib yuborishi natijasida insonni tubanlashtiradi.

Fojeaviylik va kulgililik tushunchalari. Fojeaviylik muammosi har doim falsafiy-estetik tafakkur sohiblarining e’tiborini jalb qilib kelgan. Deyarli barcha buyuk ijodkorlar yaratgan asarlarda *fojeali ohanglar* mavjud. Masalan, o‘zbek adibi Maqsud Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» va «Mirzo Ulug‘bek» asarlarida fojeali ohanglar boshdan oxiriga qadar sezilib turadi. Mazkur dramalar maxsus fojea asari sifatida yaratilmagan bo‘lsa ham, aslida, fojeali ohanglar ularda ustivor darajada ifodalangan. Shayxzoda kabi ijodkor fojealilik ruhida voqelikni idrok etishga moyildir. San’atning turi namoyon bo‘ladigan fojeali to‘qnashuvlar, qiyofalar, vaziyatlarni eng to‘la va chuqur badiiy in’ikos etish ehtiyojidan kelib chiqadi. Sofoklning fojeiy asarlari, Shekspirnikidan qanchalik farqlanmasin, ular o‘rtasida umumiylik bari–bir mavjuddir. Har qanday fojea zaminida alohida fojiali to‘qnashuv yotadi va uning eng muhim tomoni ko‘lamlilik va ijtimoiy ahamiyatga molikligidir.

Xegel fojealilikni mohiyatli kuchlar to‘qnashuvining natijasi, deb biladi. Chunki, bu to‘qnashuvlar kurashining qanday tugallanishi pirovardida insoniyat istiqboli, taqdiri bilan bog‘lanib ketadi. Bu hol fojia san’atining falsafiy jihatdan eng hajmli turiga aylantiradiki, unda ijodkorga hayotning insoniyatni butun tarixi davomida hayajonlantiradigan tub masalalarni o‘z oldiga qoyib, hal qilish imkonini beradi. Fojea qahramoni ko‘pincha ijobiy tusda tasvirlanadi, u o‘z davrining ijobiy orzu-umidlari, u yoki bu qirralarini o‘zida mujassamlashtirgan kuchli, yorqin, ulug‘vor shaxsni namoyon etadi. Lekin fojea to‘qimasida boshqa turdagi qahramonlar

kam aks ettirilgan bo‘lib, o‘z taqdirlari bilan tomoshabinda o‘ta ziddiyatli his–tuyg‘ular qo‘zg‘aydi. Ularning mudhish kirdikorlari, sodir etayotgan yovuzliklari insonda qat’iy norozilik, hatto nafratlanishni vujudga keltirishi bilan bir qatorda ularning qilmishlariga achinasan, qabih, jirkanch sharoit ta’siriga tushib, ular o‘zlaridagi go‘zal insoniy fazilatlardan begonalashganligini anglaysan.

Kulgililik. Bu bordagi mavjud nazariyalar kulgililikning predmetini obektiv xususiyat sifatida yoki shaxsning subektiv imkoniyatlari natijasi yohud subekt va obekt o‘zaro aloqadorligining natijasi sifatida ko‘rib chiqiladi va mazkur metodologik yondoshuv kulgililikdagi ko‘pma’nolikning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Estetik tafakkur tarixida kulgililik bir qadar keng o‘rganilgan. Jumladan, Aflotun ojiz va layoqatsizlarni kulgili odamlar, deydi. Nodonlik esa insonni kulgili qiladi. Biroq, kulgililikning mohiyati, uning kelib chiqishi sabablari haqida Aflotun biror-bir fikrni aytgan emas. Quldorlik tuzumi zodagonlarining namoyondasi bo‘lgan Aflotun uchun kulgililikning demokratik mohiyati begona edi.

Nazorat savollari

1. Estetika fan sifatida nimalarni o‘rganadi?
2. Estetik munosabatlar deb nimaga aytiladi.
3. "Estetika" xakidagi qarashlar tarixi?
4. Estetik tarbiyaning maqsadi va vazifalirini tushuntirib bering?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Estetika kategoriyalarining o‘zaro aloqadorligi haqida referat tayyorlang.
2. Ulugvorlik kategoriyasining falsafiy moxiyati to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plang va tushuntiring.
3. Tabiatning estetik jihatlari. Ekologik estetikaning qadriyatli makomi haqida berilgan fikrlarni kursdoshlaringizga aytib bering.

XIII BOB. GLOBALLASHUV VA BARQAROR TARAQQIYOT FALSAFASI

13.1. Global jarayonlarning shakllanish tarixi.
13.2. Global tendentsiyalarni anglashning ahamiyati.
13.3. Global muammolarni yechishda falsafaning roli.

Tayanch tushunchalar: globallashuv, globalistika, texnooptimizm, texnopessimizm, rim klubi.

13.1. Global jarayonlarning shakllanish tarixi

Globallashuv hodisasi. Hozirgi davr haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun XX asr boshigacha jahon tarixi asosan mustaqil rivojlangan va bir-biriga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan sivilizatsiyalardan iborat bo'lganini nazarda tutish muhimdir. Hozirgi zamonda dunyo so'nggi yuz yillik ichida yuz bergan jamiyat hayoti barcha jabhalarining faol integratsiyalashuvi natijasida sezilarli darajada o'zgardi va yaxlit bir butun organizmga aylandi. Buning oqibati o'laroq, ayrim xalqlar va butun insoniyatning ijtimoiy ongida global jarayonlar va ularning ta'sirida yuzaga kelgan umumiy (dunyo miqyosidagi) muammolar bilan belgilangan jiddiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Jahon hamjamiyati o'z rivojlanishining Yangi bosqichiga qadam qoygani, u avvalgi bosqichlardan nafaqat o'zgarishlar miqyosi, balki faollik darajasi va universal xususiyati bilan ham farq qilishi ayon bo'ldi.

Bu o'zgarishlarning butun majmui, shuningdek ularning sabablari 1990-yillarda globallashuv (lot. globus – yer kurrasi) deb nomlandi. *Globallashuv jamiyat hayotining turli jabhalarida butun Yer sayyorasi uchun yagona bo'lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashuv jarayonidir.* Shuningdek globallashuv global makonning tutashligi, yagona jahon xo'jaligi, umumiy ekologik o'zaro aloqadorlik, global kommunikatsiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi.

Globalistika. Jahon rivojlanishining eng yangi tendentsiyalarini anglab yetish borasidagi ko'p sonli say-harakatlar globallashuv jarayonlarining mohiyati, tendentsiyalari va sabablarini, ular ta'sirida yuzaga kelayotgan global muammolarni aniqlash va bu jarayonlarning oqibatlarini anglab yetishga qaratilgan fanlararo ilmiy tadqiqotlar sohasi – **globalistika** paydo bo'lishiga olib keldi. Kengroq ma'noda *«globalistika» atamasi globallashuvning turli jihatlari va global muammolarga oid ilmiy, falsafiy, madaniy va amaliy tadqiqotlarni, jumladan ularning natijalarini, shuningdek ularni ayrim davlatlar darajasida ham, xalqaro miqyosda ham iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jabhalarda amalga joriy yetish borasidagi amaliy faoliyatni ifodalash uchun qo'llaniladi.*

Shuni ta'kidlash lozimki, globalistika odatda ilmiy bilimning tabaqalanishi natijasida yoki turdosh fanlar tutashgan joyda paydo bo'ladigan ayrim fanlar qatoriga kirmaydi. Uning vujudga kelishi zamirida qarama-qarshi jarayonlar – hozirgi zamon faniga xos bo'lgan integratsiyalashuv jarayonlari yotadi. Globalistika tadqiqotlar va bilishning shunday bir jabhasiki, bu yerda turli fanlar bir-biri bilan uzviy aloqada, har biri o'z predmeti va metodi nuqtayi nazaridan, globallashuvning turli jihatlarini tahlil qiladi, global muammolarni bir-biridan alohida va yaxlit tizim sifatida o'rganib, ularning yechimlarini taklif qiladi.

Globalistika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiy amaliyot sohasi sifatida 1960-yillarning oxirlarida shakllana boshladi, lekin uning paydo bo'lishi uchun obyektiv asoslar ancha oldin yuzaga kelgan edi.

Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalariga XV asr oxirlaridan boshlab duch kelish mumkin, XIX asr boshiga kelib esa u amalda real shakl-shamoyil kasb etdi. Bu pirovardida yagona geografik, ma'lum darajada iqtisodiy va siyosiy jahon maydoni shakllanishiga olib kelgan Buyuk geografik kashfiyotlar yuz bergan davr edi. Ayni shu davrda dunyoni tushunishga nisbatan geotsentrik yondashuvlar geliotsentrik yondashuvlarga o'rin bo'shatdi, insoniyat esa, nihoyat, kun va tunning almashishini to'g'ri talqin qilishga muvaffaq bo'ldi. Fan falsafadan ajralib chiqib, bilimlar to'planishi va texnikaning rivojlanishiga kuchli turtki berdi, fan-texnika taraqqiyoti va sanoat inqilobi yuz berishiga sabab bo'ldi. So'nggi zikr etilgan voqealar pirovard natijada insonning tabiatni o'zgartiruvchi imkoniyatlari va uning atrof muhit bilan munosabatini butunlay o'zgartirdi.

Yer kurrasi shar (globus) ko'rinishida ekanligini nazariy va amaliy jihatdan isbotlab insoniyat o'z tarixida birinchi bo'lib savdo-sotiq sohasida dunyo darajasiga chiqdi va dunyo miqyosida xalqaro munosabatlarga asos soldi. Ayni shu davrda ilk transmilliy savdo kompaniyalari vujudga keldi. Tez orada ularning faoliyati sof savdo chegarasidan tashqariga chiqdi va ular qullarni qo'lga kiritish va ularni ekspluatatsiya qilish, bosib olingan hududlarda plantatsiyalar va manzilgohlar barpo yetish jarayonida ishtirok eta boshladi, nihoyat, o'z davlatlari amalga oshirayotgan mustamlakachilik siyosatining asosiy ijrochisiga aylandi.

Bularning barchasi jiddiy migratsiya jarayonlari yuz berishiga ham sabab bo'ldi; xususan, mustamlakachilar qora tanli qullarni Afrikadan Amerikaga ommaviy tarzda tashib keltira boshladilar va shu tariqa uning demografik tarkibini butunlay o'zgartirdilar. Shuning o'ziyoq globallashuv turli xalqlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti bilan avvalboshdan uzviy bog'liq bo'lgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

XVII asr boshlariga kelib sharq va g'arb savdogarlari ulkan hududlarni o'zlashtirdilar va deyarli butun dunyo boylab joylashdilar. Shu tariqa ular

insoniyat tarixida birinchi bo‘lib yagona global iqtisodiy va siyosiy tizimning zaruriy asoslarini yaratdilar va mazkur tizim shakllanishi uchun zamin hozirladilar.

Fundamental globallashuv *dunyo miqyosidagi aloqalar, tuzilmalar va munosabatlar yuzaga kelishi bilan bog‘liq.* Mazkur jarayonlar natijasida dunyo o‘zining deyarli barcha jihatlarida yaxlit bir butun organizm sifatida uzil-kesil shakllandi. Fundamental deb nomlanuvchi bunday globallashuvning ilk alomatlari XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘ldi, XX asr o‘rtalariga kelib esa u to‘la darajada borliqqa aylandi.

Ayni shu davrda dunyoni iqtisodiy bo‘lib olish yakunlandi va buning natijasida turli mamlakatlar va xalqlarning kuchayib borayotgan o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqadigan mutlaqo yangicha tusdagi keskin xalqaro muammolar yuzaga keldi. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotni, balki aloqa va kommunikatsiya vositalarini, shuningdek ma’naviy jabha – madaniyat, fan va falsafani ham qamrab oldi. Turli-tuman xalqaro tashkilotlar, forumlar, syezdlar, kongresslar vujudga kela boshladiki, bunga o‘sha davrda aloqa va ommaviy kommunikatsiya vositalarining faol rivojlanishi ham imkoniyat yaratdi.

Globallashuvning serqirraligi. *Dunyo miqyosidagi tahdidlar va globallashuv jarayonlarini aholining keng qatlamlari anglab yetishi, shuningdek jahon hamjamiyati va unga mos keluvchi qadriyatlarga munosabat, madaniyat, turmush tarzining shakllanishi gldoballashuv serqirraligi bosqichiga xos xususiyat hisoblanadi.* 1970-yillardan globallashuv o‘z rivojlanishining yangi bosqichiga ko‘tarildi va serqirra tus oldi. Ayni shu davrda axborot-texnologiya inqilobining rivojlanishi jadallashdi, mif, din, falsafa, fan, ekologiya bilan bir qatorda global ong ijtimoiy ongning yana bir shakli sifatida paydo bo‘ldi.

Globallashuvning serqirragi jahon bozorini sezilarli darajada o‘zgartirdi, jahon xo‘jaligi o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etib, milliy xo‘jaliklardan kuchliroq va muhimroq tus olishiga imkoniyat yaratdi. Quyidagilar *globallashuv serqirraligining muhim xususiyatlari hisoblanadi:*

a) «rezonans effekti»ning paydo bo‘lishi, bunda iqtisodiy yuksalishlar yoki tangliklar bir mamlakatdan u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan boshqa mamlakatlar va mintaqalarga o‘tadi;

b) turli tovarlar va xizmatlar jahon bozorlarining yaratilishi;

v) ko‘rsatilgan tovarlar va xizmatlarga jahon narxlarining shakllanishi, ular mazkur tovarlar va xizmatlar milliy ishlab chiqaruvchilarining siyosatini ko‘p jihatdan belgilashi.

Iqtisodiyotning internatsionallashuvi va pul rolining unifikatsiyalashuvi bilan bir qatorda ommaviy jamiyat va unga mos keluvchi ommaviy madaniyatning shakllanishi serqirra globallashuvning o‘ziga xos xususiyatiga va muayyan darajada uning qonuniy mahsuliga aylandi.

Zamonaviy transport va aloqa vositalari sharofati bilan makon va vaqt omillari amalda muhim ahamiyatga ega bo‘lmay qolgan globallashuv sharoitida, til turli xalqlarning iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, maishiy va hokazo aloqalari va muloqoti yo‘lidagi oxirgi jiddiy to‘siq bo‘lib qoldi. Umumiy qabul qilingan tilga obyektiv ehtiyoj doimo mavjud bo‘lgan, lekin jahon savdosi va kapitallarni bir joydan boshqa joyga o‘tkazish hajmlari ko‘p karra o‘sgan, siyosiy munosabatlar global darajagacha kengaygan, xalqaro jamoat tashkilotlari, sport musobaqalari, turistik industriya va Shu kabilar paydo bo‘lgan serqirra globallashuv davrida u ayniqsa kuchaydi. Bugungi kunda ingliz tili bir qator obyektiv sabablarga ko‘ra madaniyatlararo muloqot tiliga aylandi.

13.2. Global tendentsiyalarni anglashning ahamiyati

Jahonda yuz berayotgan o‘zgarishlarning ba’zi bir tendentsiyalari olimlar va faylasuflar diqqat markazidan bu o‘zgarishlar barchaga ravshan bo‘lishidan oldinroq o‘rin oldi. Masalan, ijtimoiy rivojlanishga turli sivilizatsiyalarning oldinma-ketin almashishi sifatida qaragan ingliz tarixchisi A.Toynbi (1889-1975) kompyuter inqilobidan ancha oldin «XX asrda umumjahon tarixi boshlandi» degan xulosaga keldi. Shu tariqa tub o‘zgarishlar nafaqat jamiyat qurilishi negizlarida, balki dunyo miqyosida yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarning asosiy tendentsiyalarida ham aks etgani ta’kidlandi.

Hozirgi zamon nemis falsafasining atoqli namoyandasi K.Yaspers (1883-1969) bu xususda yanada aniqroq fikr bildirdi. U 1948 yilda e’lon qilgan «Tarix kurtaklari va uning maqsadi» asarida, jumladan, Shunday deb yozadi: «Ilk bor olamshumul ahamiyat kasb etgan bizning tarixan yangi sharoitimiz yerda odamlarning real birligidan iboratdir. Zamonaviy aloqa vositalarining texnik imkoniyatlari sharofati bilan sayyoramiz insonga to‘la ochiq bo‘lgan yagona yaxlitlikka aylandi»[18].

Bu, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, tarixiy o‘lchovlarga ko‘ra jadal sur’atlarda emas, balki misli ko‘rilmagan shitob bilan yuz berdi. Bunda dunyoning yagonaligi tarixiy taraqqiyotni belgilovchi muhim omilga aylandi. Ikkinchi jahon urushi jahon hamjamiyatining parokandaligiga uzil-kesil chek qoydi. Urush tugagani zahoti K.Yaspers «Shu davrdan e’tiboran yaxlit bir butunning yagona tarixi sifatidagi jahon tarixi boshlanadi, - deb qayd etdi. Endi butun dunyo asosiy muammo va vazifaga aylandi. Shu tariqa tarixning butunlay o‘zgarishi yuz beradi. Dunyo mamlakatlari va xalqlari tutashdi. Yer kurrasi yaxlit va yagona tus oldi. Yangi xavflar va imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda. Barcha muhim muammolar dunyo miqyosidagi muammolarga, vaziyat – butun insoniyat vaziyatiga aylandi».

[18] Ясперс Смысл и назначение истории – М.: 1991. –с. 141.

XX asrda fan va texnika sohasidagi aqlni lol qoldiradigan natijalar ta'sirida ilk texnokratik ijtimoiy nazariyalar paydo bo'ldi. Shulardan birining muallifi – amerikalik iqtisodchi va sotsiolog T.Veblen jamiyatning rivojlanishida sanoat ishlab chiqarishi va texnika taraqqiyotining yetakchi rolini birinchilardan bo'lib falsafiy jihatdan asoslab berdi. Uning fikricha, hozirgi zamon davlati muhandislar va texniklar tomonidan boshqarilishi lozim, chunki ishlab chiqarishni jamiyat manfaatlarida rivojlantirish (bu g'oya T.Veblen texnokratik nazariyasining mag'zini tashkil etadi) faqat ularning qo'lidan keladi va siyosiy hokimiyat ularga ayni shu maqsadni royobga chiqarish uchun kerak.

Shu davrda yangi tendentsiyalarga nisbatan boshqacha munosabatni ilgari suruvchi yondashuvlar ham paydo bo'ldi. Xususan, tabiat bilan jamiyatning o'zaro munosabati muammolarini anglab yetishda V.I.Vernadskiyning roli va u noosferani yaxlit umumbashariy hodisa sifatida tushunishi mhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shunga o'xshash fikrlarni taniqli frantsuz faylasufi, teolog P.Teyyar de Sharden ham ilgari suradi. Biosferaning tarkibiy qismi sifatida insonning betakrorligini asoslashga harakat qilar ekan, u insonning tabiat bilan munosabatlarini uyg'unlashtirish kontseptsiyasini rivojlantirdi va butun insoniyatning birlashishi yo'lida egoistik niyatlardan voz kyechishga chaqirdi.

Shunday qilib, faylasuflar va olimlar XX asrning birinchi yarmidayoq nafaqat yangi davr – umumbashariy hodisalar davri boshlanayotganini, balki bu yangi sharoitlarda odamlar tabiiy va ijtimoiy stixiyaga faqat bahamjihat qarshilik ko'rsata olishi mumkinligini ham anglab yetdilar.

Texnooptimizm. Ammo qayd etilgan qarashlar 60-yillarning boshlariga kelib texnokratik kayfiyatlarning yangi to'lqini bilan chetga surib qoyildi va qariyb ikki o'n yillik mobaynida ommaviy ongga o'z ta'sirini yo'qotdi. Bunga urushdan keyingi davrda jahonning deyarli barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarini qamrab olgan sanoat yuksalishi sabab bo'ldi. 50-60-yillarda ijtimoiy taraqqiyot istiqbollari G'arbda ham, sharqda ham aksariyat mamlakatlar uchun porloq bo'lib tuyular edi. *Ijtimoiy ongda har qanday dunyoviy va hatto koinot muammolarini fan va texnika yordamida hal qilish mumkin degan illyuziyani yaratgan texnooptimistik kayfiyatlar kuchaydi* Bunday qarashlar «iste'mol jamiyati»ni ijtimoiy rivojlanish maqsadi deb e'lon qilgan ko'p sonli nazariyalarda o'z aksini topdi. Ayni shu davrda «industrial», «postindustrial», «texnotron», «informatsion» jamiyatlarning turli kontseptsiyalarini yaratish ustida faol ish olib borildi.

1957 yilda taniqli iqtisodchi va sotsiolog J.Gelbreyt «Serobgarchilik jamiyati» kitobini e'lon qildi va uning asosiy g'oyalarini keyinchalik o'zining «Yangi industrial jamiyat» deb nomlangan boshqa asarida rivojlantirdi. Uning asarlarida inson fan va texnika sohasida erishayotgan yutuqlarga yuksak va faqat ijobiy baho beriladi, mazkur yutuqlar ta'sirida

jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalarida chuqur o‘zgarishlar yuz berayotganiga e’tibor qaratiladi.

Texnopessimizm *fan texnika yutuqlari insoniyatni boshi berk ko‘chaga olib kiradi va pirovardda u halok bo‘ladi deb hisoblaydi.* Ko‘rib chiqilayotgan nazariyalarning ayrim tarafdorlari fan-texnika inqilobining salbiy oqibatlariga, xususan atrof muhitning ifloslanishi muammolariga ma’lum darajada e’tibor bergan bo‘lsalar-da, lekin, umuman olganda, ularning hech biri bundan 1980-yillarning o‘rtalarigacha jiddiy tashvishga tushmadi. Chunki, fan-texnika taraqqiyoti hamma narsaga qodir ekanligiga ishonch haddan tashqari katta edi.

Ayni zamonda 1960-yillarning oxirlaridan ekologik qiyinchiliklardan tashqari aksariyat davlatlar va hatto qit’alarga tahdid solgan boshqa muammolar: aholining nazoratsiz o‘sishi, turli mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining notekisligi, xom ashyo resurslari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash va boshqalar tobora bo‘rtibroq namoyon bo‘la boshladi. Tez orada ular fan va falsafa diqqat markazidan o‘rin olib, qizg‘in bahs va munozaralar predmetiga aylandi.

Ko‘rsatilgan muammolarni falsafiy tahlil qilish borasidagi dastlabki urinishlarning o‘ziyoq texnokratik tendentsiyalarga zid bo‘lgan, keyinchalik «**texnologik pessimizm**» deb nomlangan qarashlarni namoyon etdi. *«ekopessimizm», asosiy e’tibor inson faoliyatining salbiy oqibatlari va atrof muhit muammolariga qaratilgan, ularni yechish imkoniyatlari salbiy tusda ko‘rilgan holdir.*

Ko‘pgina taniqli olimlar va faylasuflar, xususan G.Markuze, T.Rozzak, P.Gudmen va boshqalar o‘z o‘tmishdoshlarini shafqatsiz stsiyentizmda[19], insonni fan va texnika quliga aylantirishga urinishda ayblab, fan-texnika taraqqiyotiga qarshi chiqdilar. Fan-texnika taraqqiyotiga va umuman ijtimoiy taraqqiyotga qarshi norozilikning yangi to‘lqini yuzaga kela boshladi. Bu to‘lqin ta’sirida paydo bo‘lgan g‘oyalar «aksiliste’mol» jamiyatini asoslashga harakat qilar va «o‘rtacha odam»ni ozginaga qanoat qilish lozimligiga ishontirishga qaratilgan edi. Global muammolar paydo bo‘lishining aybdorini topishga urinish jarayonida asosiy ayb «zamonaviy texnologiya»ga qoyildi. Nafaqat fan yutuqlari, balki taraqqiyot g‘oyasi ham shubha ostiga olindi. O‘z davrida J.J.Russo ilgari surgan «tabiat bag‘riga qaytish»ga chorlovlar paydo bo‘ldi, iqtisodiy rivojlanishni erishilgan darajada «to‘xtatish» taklif qilindi.

Rim klubi. Yuqorida qayd etilgan qarashlardagi tub burilish asosan Rim klubi faoliyati ta’sirida yuz berdi. 1968 yil Rimda o‘zining birinchi majlisiga yig‘ilgan olimlar, faylasuflar va jamoat arboblarining bu nufuzli xalqaro tashkiloti hozirgi davrning eng muhim umuminsoniy muammolari

[19] Stsientizm (ingl. *science* – fan) – fanning jamiyat xayotidagi rolini mutlaklashtiruvchi kontseptsiya

boyicha ma'ruzalar tayyorlash va e'lon qilishni o'z oldiga vazifa qilib qoydi. Bu tashkilotning 1972 yilda e'lon qilingan «O'sish chegaralari» deb nomlangan birinchi ma'ruzasiyoq juda katta shov-shuvga sabab bo'ldi, chunki insoniyat o'zi anglamagan holda «poroxli bochka ustida o'tirib, gugurt oynayotgani»ni ko'rsatib berdi. Rim klubining asoschisi va birinchi prezidenti Aurelli Pechchei mazkur tadqiqotga yozgan so'zboshisida shunday deb qayd etgan edi: «Endilikda ona-yerimiz har qanday o'sish sur'atlariga dosh berishga, insonning har qanday erkaliklarini ko'tarishga qodir ekanligiga sog'lom fikrlaydigan odamlarning birortasi ham ishonmaydi. O'sish chegaralari borligi ravshan, lekin ularning qandayligi va qayerdaligini hali aniqlash lozim».

Mazkur ma'ruza mualliflari shunday aniqlash bilan shug'ullandilar. Olingan natijalarning muxtasar mazmuni Shundan iborat ediki, sayyoramiz hajmining chegaralari muqarrar tarzda inson imkoniyatining chegaralarini ham nazarda tutadi; moddiy o'sish cheksiz darajada davom yetishi mumkin emas; ijtimoiy rivojlanishning haqiqiy chegaralari moddiy omillar bilan emas, balki ekologik, biologik va hatto madaniy omillar bilan belgilanadi. Ular jahon rivojlanishi asosiy tendentsiyalarining kompyuter modelini tuzib, mazkur tendentsiyalar saqlangan holda uchinchi ming yillik boshidayoq insoniyat voqealar ustidan nazoratni butunlay yo'qotishi va natijada halokatga yuz tutishi mumkin, degan to'xtamga keldilar. Bundan ishlab chiqarishning o'sishini to'xtatish, tobora ko'payib borayotgan aholi sonini esa tegishli ijtimoiy siyosat yordamida barqarorlashtirish lozim, degan xulosaga kelindi.

13.3. Global muammolarni yechishda falsafaning roli

Og'ir va murakkab vazifalarni yechishda insonga fan doim yordam bergan. Bir paytlar erishib bo'lmaydigan, inson imkoniyatlari darajasidan tashqarida bo'lib tuyulgan narsalarning aksariyatiga aynan fan yordamida erishilgan. Ayni shu sababli global muammolar xavf solayotgani haqidagi ilk ogohlantirishlarning o'ziyoq odamlarni fanga o'z e'tiborini qaratishga, olimlarni esa bu muammolarni yechish yo'llarini izlashga majbur qildi.

Yuzaga kelgan vaziyatning o'ziga xosligi va yangiligi shundan iboratki, har qanday muayyan muammolarni ayrim fan yoki bir necha fanlar majmui doirasida o'rganish mumkin bo'lsa, inson, jamiyat va tabiatni ularning ko'p sonli o'zaro aloqalari va o'zaro bog'liqliklarida qamrab oluvchi murakkab tizimdan iborat global muammolarni tadqiq yetishga ayrim fanlar qodir emas. Zero o'z tadqiqoti obyekti – u yoki bu ayrim muammoni boshqa global muammolar kontekstida talqin qilishga muayyan fanlar doirasi torlik qiladi. Shu sababli u yoki bu fan qaysi muayyan vazifalarni yechishidan qat'iy nazar, ular bilan bog'liq jarayonlar va hodisalarga, ya'ni butun

vaziyatga, shu jumladan oxir-oqibatda olingan natijalarga nisbatan falsafiy yondashuv doimo tadqiqotning zaruriy sharti hisoblanadi.

Garchi falsafa odamlarning kundalik hayoti va amaliyotidan ancha uzoqda bo'lgan haddan tashqari umumiy masalalarni o'rganadi, degan fikr mavjud bo'lsa-da, u (falsafa) global muammolarni yechishda muhim rol oynaydi. Zero, umumiy nazariyalar ba'zan bilimning aksariyat muayyan sohalariga qaraganda ko'proq samara berishi mumkinligi yaxshi ma'lum.

Global muammolarning mohiyati. *«Hozirgi davrning global muammolari» tushunchasi 1960-yillar oxiri – 1970-yillarning boshlarida keng tarqaldi va Shundan beri ilmiy va siyosiy muomala(leksikon) hamda ommaviy ongdan mustahkam o'rin oldi.* Aksariyat hollarda u global sanalmagan voqealar va hodisalarga nisbatan qo'llaniladigan atama sifatida ishlatiladi. Bunday holga milliy va umumbashariy ahamiyatga molik voqealar tenglashtirilganida, masalan, muayyan bir mamlakatning ijtimoiy muammolarini nazarda tutib, ular «global» deb nomlangan holda duch kelish mumkin.

Etimologik jihatdan «global» atamasi, «globallashuv» atamasi kabi, yer kurrasi bilan bog'liq. Ayni shu sababli *butun insoniyat manfaatlariga daxldor muammolarni* ham, dunyoning turli nuqtalaridagi har bir ayrim insonga tegishli bo'lgan, ya'ni umuminsoniy xususiyat kasb etadigan muammolarni ham «global» deb nomlash odat tusini olgan. Ular jahon iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining muhim obyektiv omili sifatida ayrim mamlakatlar va mintaqalarning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ularni yechish aksariyat davlatlar va tashkilotlarning kuch-g'ayratini xalqaro darajada birlashtirishni nazarda tutadi. Ayni vaqtda global muammolarning yechilmay qolishi butun insoniyat kelajagi uchun halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Muammolarning turli darajalari. Global muammolar butun dunyogagina tegishli bo'lmay, uning mintaqalari va hatto ayrim mamlakatlar darajasida namoyon bo'lgani bois, ilmiy adabiyotlarda ularning umuminsoniy ahamiyatini tan olish bilan bir qatorda, ularni mohiyati o'zgacha, ta'sir doirasi esa torroq bo'lgan ayrim, mahalliy, mintaqaviy muammolardan farqlash ham amalga oshiriladi. Turli darajadagi muammolarni «umumiylik», «xususiylik» va «yakkalik» falsafiy kategoriyalarining muayyan ifodasi sifatida o'rganar ekanlar, ularni odatda shunday talqin qiladilarki, xususiy muammolar ayrim muammolar sifatida, mahalliy va mintaqaviy muammolar – xususiy muammolar sifatida, global muammolar esa – umumiy muammolar sifatida amal qiladi. Zikr etilgan muammolarni farqlash zamirida yotuvchi asosiy mezon ham ayni shu yondashuvni belgilaydi. U geografik deb ataladi, chunki makon omilini yoki, boshqacha aytganda, muayyan muammolar mavjud hududni aks ettiradi.

Xususiy muammolar *davlat faoliyatining muayyan jabhasiga, ayrim aholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy obyektlarga tegishli bo'lgan muammolardir.* Bular, odatda, turli avariyalar, nosozliklar natijasida yuzaga keladigan har xil muammolar, mahalliy ijtimoiy konfliktlar va sh.k.

Mahalliy muammolar *tushunchasi yuqoriroq darajadagi muammolarga, aniqroq aytganda, ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo'lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi.* Bu yerda odatda kuchli zilzilalar, yirik suv toshqinlari yoki, masalan, kichik davlatdagi fuqarolar urushi nazarda tutiladi.

Milliy muammolar *tushunchasi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada ba'zan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning ma'lum qiyinchiliklari, g'am-tashvishlarini aks ettiradi. Miqyos darajasiga qarab ular mintaqaviy yoki mahalliy muammolar sifatida talqin qilinishi mumkin.*

Mintaqaviy muammolar *ayrim qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi.* Bunday muammolarga Sharqiy Yevropaning bir necha mamlakatlari hududi radioaktiv zaharlanishiga olib kelgan Chernobil fojiasi yoki bir qator davlatlarni qamrab oluvchi ancha katta hududlarda yuz bergan iqlim o'zgarishlari misol bo'lishi mumkin. Masalan, 1968 yilda Saxel mintaqasida yuz bergan qurg'oqchilik «asr falokati» degan nom oldi. U Afrika qit'asining 18 davlatini qamrab oldi, bunda ocharchilik natijasida 250 mingdan ko'proq odam halok bo'ldi, taxminan 18 million bosh qoramol nobud bo'ldi, xavfli kasalliklarning epidemiyalari yuzaga keldi, bu ulkan mintaqa hududi esa deyarli to'la sahroga aylandi.

Global muammolar *butun yer kurrasini, uning nafaqat odamlar bevosita yashaydigan qismini, balki Yerning qolgan yuzasi, yer osti bo'shliqlari, atmosfera, gidrosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni qamrab olishi bilan izohlanadi.*

Shunday qilib, global muammolar to'g'risida so'z yuritilganda butun sayyora nazarda tutiladi, uning eng yirik tarkibiy birligi sifatida esa mintaqa qabul qilinadi. Bunda mintaqalar soni va ularning miqyosi ko'rib chiqilayotgan muammolar xususiyati bilan belgilanadi. Masalan, dunyo miqyosidagi iqtisodiy qoloqlik muammosini tadqiq yetishda odatda butun sayyorani ikki mintaqa – rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga ajratish bilan kifoyalaniladi. Demografik, energetik muammolar yoki xom ashyo muammolarini o'rganishda esa, mintaqalar soni ko'payadi va har safar tadqiqotning muayyan maqsadlari bilan belgilanadi.

Hozirgi globallashuv davrida umumjahon va mintaqaviy miqyosdagi ijtimoiy muammolar yechimi haqiqatning mohiyatini, uning mezoniy o'lchovlarini qadriyatlilik doirasida hal etishni taqozo etmoqda. Zotan

haqiqat ma'naviy-axloqiy o'lchovlarda baholanilmasa, qadrlanmasa, o'z vazifasini bajaraolmaydi, haqiqiy ijtimoiy mazmunini namoyon qilaolmaydi»[20].

Masalan, Antarktidada yoki sayyoramizning atrof muhit ifloslanadigan asosiy markazlari va manbalaridan ancha uzoqda joylashgan boshqa burchaklarida havo yoki suv havzalarining holati qoniqarli bo'lishi, tabiiy muhitga antropogen ta'sir esa deyarli sezilmasligi mumkin. Shunga qaramay bu keskinlik darajasi tabiiy muhitga antropogen ta'sirning notekisligiga bog'liq bo'ladigan ekologik muammoning global xususiyatiga shak-Shubha tug'dirmaydi. O'z navbatida, barcha mahalliy yoki xususiy muammolar global muammolar bilan bog'lanavermaydi, zero ularning soni taqqoslab bo'lmaydigan darajada ko'proqdir.

Globallik mezonlari. Fan va falsafada global muammolarni yanada aniqroq tavsiflash uchun yuqorida zikr etilgan «geografik» mezondan tashqari bu muammolarni boshqa tomondan – ularning sifati, va muhim xususiyatlari nuqtayi nazaridan tavsiflovchi qo'shimcha mezonlar qo'llaniladi.

Birinchidan, *global muammolar o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat ayrim kishilarning manfaatlariga, balki butun insoniyat taqdiriga daxldordir.*

Ikkinchidan, *ularni bartaraf yetish uchun butun sayyora aholisi hech bo'lmasa aksariyat qismining kuch-g'ayratini birlashtirish va ular bahamjihat, izchil ish ko'rishi talab etiladi.*

Uchinchidan, *bu muammolar dunyo rivojlanishining obyektiv omili hisoblanadi va biron-bir mamlakat ularni e'tiborga olmasligi mumkin emas.*

To'rtinchidan, *global muammolarning yechilmagani kelajakda butun insoniyat va uning yashash muhiti uchun jiddiy, balki tuzatib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin.*

Qayd etilgan mezonlardan tashqari ba'zan global muammolarning boshqa bir qator xususiyatlari ham ko'rsatiladi. Xususiy, mahalliy va mintaqaviy muammolardan farqli o'laroq, global muammolar nisbatan turg'unroqdir. Ular globallikning yuqorida sanab o'tilgan barcha mezonlariga mos kelishdan oldin zimdan va uzoq shakllanadi, yechilishiga qarab esa (nazariy jihatdan) quyiroq darajaga tushib, dunyo miqyosida o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Ammo tendentsiyalarni teskari yo'nalishda o'zgartirish kamida butun jahon hamjamiyatining izchil harakatlarini talab etuvchi o'ta og'ir ish bo'lib, hali bunga erishilganicha yo'q. Global muammolar mavjudligining nisbatan qisqa tarixiga nafaqat ularning quyiroq darajaga tushishi, balki susayish hollari ham ma'lum emasligining sababi ana shundadir.

[20] Билиш фалсафаси (гносеология). Т., «Университет», 2005, 245-бет

Nazorat savollari

1. Globallashuv deb nimaga aytiladi?
2. Globallashayotgan sohalarni sanab bering?
3. Muammolar ko‘lamiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
4. Global muammolarni xal kilishda xalqaro kuchlar birlashuvi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Globallashuv hodisasi va globalistika
2. Globallashuvning dolzarb muammolarini sanab bering.
3. Ekologik muammolarga nimalar kiradi ma’lumotlar to‘plang va tushuntiring.

XIV BOB. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING JAHON TAJRIBASI

14.1. Korruptsiyara tushunchasi va uning tarixiy ildizlari. Korrupsiyaning shakllari va sabablari. Korrupsiyaning ijtimoiy hayotdagi ko‘rinishlari.

14.2. Korrupsiya va unga qarshi kurash borasidagi milliy-xalqaro huquqiy normalar.

14.3. Xalqaro maydonda korrupsiyaga qarshi kurash tajribasi. Korrupsiyaga qarshi kurash tarixi.

14.4. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi.

Tayanch tushunchalar: Korrupsiya, xavfsizlikka taxdid, Iqtisodiy korrupsiya, Kadrlar korrupsiyasi, Ta’lim va fan tizimidagi korrupsiya.

14.1. Korruptsiyara tushunchasi va uning tarixiy ildizlari. Dunyo bo‘yicha korrapsiya holatining tasnifi

Korrupsiya – taraqqiyotga to‘siq Korrupsiya (lotincha “sorruptio” – poraga sotilish, aynish, tanazzul) – mansabdor shaxsning boyish maqsadida, o‘z mansabi bilan bog‘liq vakolatlarini suiiste’mol qilishdan iborat jinoyatdir. “Korrupsiya” tushunchasi qonunlar ishlab chiqish jarayoniga, qonunni qo‘llash amaliyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan ham, bu muammo na faqat milliy davlatlarni, balki xalqaro tashkilotlarni ham tashvishlantirmoqda.

Korrupsiya — bu jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to‘sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag‘al bo‘lishidan qat’iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo‘yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Biz quyida korrupsiyaning tarixiy ildizlariga va unga qarshi kurashish xususida fikr yuritmoqchimiz.

Korrupsiya (lot. *Corrumpere — buzmoq*) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

Ko‘p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko‘plab davlatlarning jinoyat va ma’muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta’qib qilinadi.

Makroiqtisodiy va siyosiy-iqtisodiy tadqiqotlar, korrupsiya — davlatlarning iqtisodiy o‘sishi va rivojlanishiga ulkan to‘siq ekanligini ko‘rsatdi. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida korrupsiyaning O‘zbekistonning o‘z taraqqiyoti yo‘lida rivojlanishiga ulkan to‘siq bo‘lishi mumkinligini bayon qilgan edi.

Korrupsiyaning tarixiy o‘zaklari juda juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma’lum mavqyega ega bo‘lish uchun qabila sardorlariga sovg‘alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O‘sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziylashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to‘siq ekanligini ko‘rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rligi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma’lum. Chunki bu holat davlatning obro‘siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rligi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda “Sovg‘alarni qabul qilma, chunki sovg‘a ko‘rni ko‘radigan qiladi va haqiqatni o‘zgartiradi” deyilgan bo‘lsa, Qu’roni Karimda “Boshqalarning mulkini nohaq yo‘l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo‘lgan narsalarni olish uchun o‘z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar” deyilgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruv apparatining ish sifatiga toboro ko‘proq ta’sir ko‘rsata boshladi. Bu o‘sha davrda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, 1787 yilda qabul qilingan AQSh Konstitusiyasida pora olish AQSh prezidentini impechmentga tortish mumkin bo‘lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o‘rnining oshib borishi XIX-XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ancha kamayishiga olib keldi.

Ushbu illatni tadqiq qilgan bir qator yirik mutaxassislar quyidagi faktorlarni korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar sifatida ko‘rsatadi.

Ikki xil ma’noni anglatuvchi qonunlar — ushbu vaziyat huquqni qo‘llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo‘llash imkonini yaratadi. Shuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, ma’muriy qonunchilikdagi “vilka” sanksiyalarni ham korrupsiyaga qulay sharoit yaratishi mumkinligi haqida fikr yuritishgan. Ya’ni, sanksiyaning aniq

miqdori yo‘qligi sudyada uni o‘z hohishiga qarab qo‘llashga sharoit yaratib beradi.

Aholi huquqiy savodxonligining pastligi — aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o‘zining shaxsiy manfaati yo‘lida qonunlardan foydanishga qulay sharoit yaratadi.

Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi — mamlakatdagi notinchlik birinchi navbatda aholi ongida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog‘liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi.

Ijro hokimiyatining birligi tamoyilinining buzilishi — aynan bitta faoliyatning turli instansiyalar tomonidan tartibga solinishi:

aholining davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki;

davlat sektoridagi xizmat qilayotgan xizmatchilar daromadlarining xususiy sektorda topish mumkin bo‘lgan daromadlardan kamligi;

iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi;

inflyasiyaning yuqori darajasi;

mamlakat yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolganligi;

mamlakatdagi diniy va axloq qoidalari.

Jahon mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashning quyidagi usullari mavjud.

Ichki nazorat —bu usul boshqaruv apparatining o‘zida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar (har xil ichki inspeksiyalar va boshqa nazorat organlari tuzish orqali) yaratishni taqazo etadi. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi xodimlarning ichki etiket qoidalariga rioya qilishini nazorat qilishdir. Hozirgi kunda bizning yurtimizda ham bir qator huquqni muhofaza qilish organlarida aynan shu vazifani bajaruvchi ichki tuzilmalar yaratilgan.

Tashqi nazorat — bu usulda ijro apparatidan mustaqil tuzilmalarning mustaqilligini oshirish nazarda tutilib, aynan ushbu tuzilmalar orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boriladi. Ya’ni, sud hokimiyatining maksimal darajada mustaqilligiga erishish ommaviy axborot vositalariga ko‘proq erkinlik berish va h.k.

Saylov tizimi orqali kurashish —demokratik davlatlarda saylangan vakillarni korrupsiya uchun jazolashning asosiy usullaridan biri keyingi saylovlarda unga ovoz bermaslik hisoblanadi. Korrupsiyaga saylovlar orqali ta’sir o‘tkazish eng samarali usul hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvesiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o‘rin egallaydi.

Bunda Konstitusiyaviy nazorat organlari, huquq-tartibot organlarining ahamiyati ortadi. Ya’ni, korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo‘lgan

normalarni konstitusiyaviy nazorat organi tomonidan konstitusiyaga zid deb topish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish kabi metodlardan unumli foydalanish ushbu davlatlarni korrupsiya darajasi juda past bo‘lgan davlatlar qatoriga olib chiqqan. Biz quyida Singapur davlatida korrupsiyaga qarshi kurashda qo‘llanilgan usullar haqida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Singapur davlati 1965 yil mustaqillikka erishgach korrupsiya darajasi eng yuqori bo‘lgan davlatlar qatorida turar edi. Lekin bu illatga qarshi o‘tkazilgan bir qator tadbirlar bu davlatda korrupsiyaning minimal darajaga tushishiga olib keldi. Birinchi navbatda bu yerda byurokratik jarayonlar yengillashtirilib sud tizimining mustaqilligi oshirildi (sudyalarning daromadlari va imtiyozlarini oshirish evaziga). Shu bilan birga korrupsiya jinoyatlari uchun sanksiyalar og‘irlashtirilib, fuqarolarga korrupsiyaga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda hamkorlik qilishda bosh tortganligi uchun juda katta moliyaviy sanksiyalar belgilandi. Bir qator davlat idoralarida ommaviy “tozalashlar” o‘tkazilib bu jarayonlar telekanallar orqali butun mamlakatga namoyish qilindi. Yuqorida sanab o‘tilgan omillarning hammasi Singapurni qisqa muddatlarda korrupsiya darajasi eng past mamlakatlar ro‘yxatida ilg‘or davlatlar qatoriga olib chiqdi. Shuningdek, davlat xizmatchisining ahloq standartlariga rioya etishini qattiq nazorat ostiga olish ham Singapur davlatida korrupsiyaga qarshi kurashda muhim dastaklardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Korrupsiyani bir nechta asosiy turlarga ajratish mumkin:

1) subyektlarning maqomiga ko‘ra:

a) hokimiyat organlaridagi korrupsiya;

b) xususiy sektordagi korrupsiya;

v) siyosatdagi korrupsiya yoki siyosiy korrupsiya;

2) darajasiga ko‘ra:

a) quyi darajadagi korrupsiya;

b) yuqori darajadagi korrupsiya;

v) vertikal korrupsiya;

3) ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra:

a) korrupsiya – qilmish;

b) korrupsiya – jinoyat.

Korrupsiyaning ko‘rsatilgan turlarini mufassalroq ko‘rib chiqamiz. Hokimiyat (ijroiya, vakillik va sud) organlaridagi korrupsiya hozirgi vaqtda jahonning deyarli barcha mamlakatlari, shu jumladan O‘zbekistondagi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu turdagi korrupsiya jinoyatlarining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularni o‘zlari qonunga rioya etishlari va uni muhofaza qilishlari lozim bo‘lgan kishilar sodir etadilar. Aksariyat mamlakatlarda bu jinoyatlar keng tarqalganligi, davlat apparati xodimlari korrupsiya domiga ilinganligi mazkur mamlakatlarning qonunchilarini poraxo‘rlik, mansab mavqyeini suiiste’mol

qilish va boshqa xavfli mansabdorlik jinoyatlariga qarshi qat'iy choralar ko'rishga va, aksincha, amaldorlarning uncha xavfli bo'lmagan va ko'proq darajada tarqalgan jinoyatlariga jiddiy e'tibor bermaslikka (masalan, uncha qimmat turmaydigan sovg'a olish jinoyat hisoblanmaydi) majbur qilayotir. Nodavlat tashkilotlaridagi yoki xususiy sektordagi korrupsiya hozirgi vaqtda ancha keng tarqalgan. Tashkilot (tijorat yoki jamoat tashkiloti) rahbari uning ustavda belgilangan vazifalariga qat'iy rioya etishi lozim, lekin u, davlat amaldori kabi, o'ziga qarashli bo'lmagan resurslarni o'z shaxsiy manfaatlarida yoki ikkinchi tomon foydasiga tasarruf etishi, tashkilot manfaatlariga zid bo'lgan harakatlarni sodir etishi mumkin. Bunga kundalik hayotdan misollar: tijorat banklarida maqsadi pul olish va g'oyib bo'lishdan iborat bo'lgan loyihalarga pora evaziga kreditlar berilishi; turli mulk shakliga mansub bo'lgan korxonalarda davlat va korxona zarariga moddiy boyliklar (vino-aroq yoki neft-kimyo mahsulotlari va sh.k.)ni pora evaziga arzon narxlarda olish va h.k.

Ayrim tadqiqotchilar siyosiy korrupsiyani korrupsiya jinoyatlarining alohida turi sifatida ajratadilar. Korrupsiyaning uchta asosiy shaklini ajratishni taklif qiladi:

1.Siyosiy. Mansabdor shaxs yuzaga kelgan qarindosh-urug'chilik munosabatlari tufayli qonunga zid harkat qiladi.

2.Jinoyat faoliyati bilan bog'liq bo'lib, mansabdor shaxslarni sotib olishga asoslangan. Ular esa mukofot puli olish evaziga g'ayoriqonuniy xizmatlar ko'rsatadi.

3.Taraflardan biri o'ziga eng qulay tartib vujudga keltirish uchun jinoyatga mansabdor shaxslarning tegishli toifalarini izchillik bilan jalb etishni nazarda tutadi. Korrupsiyaning bu shakli uyushgan jinoyatchilik bilan mustahkam bog'langan bo'lib, mansabdor shaxslarga nisbatan sotib olish, provakasiya qilish va tahdid solishni anglatadi.

Siyosiy korrupsiyaning ayniqsa ko'p uchraydigan shakllari pora olish va pora berish hisoblanadi. Keyingi o'rinda saylov huquqini amalga oshirish chog'ida siyosat subyektlarini pora evaziga og'dirish turadi.

Faoliyat ko'rsatish darajalariga ko'ra:

- quyi darajadagi;
- yuqori darajadagi;
- vertikal korrupsiya farqlanadi.

Quyi darajadagi korrupsiya hokimiyat va boshqaruv organlarining o'rta va quyi darajalarida ayniqsa keng tarqalgan bo'lib, amaldorlar va fuqarolarning muntazam o'zaro aloqasi bilan bog'liq (ro'yxatdan o'tkazish, jarimalar, lisenziyalash, turli ruxsatnomalar olish va sh.k.).

Yuqori darajadagi korrupsiya hokimiyat organlarida ishlaydigan siyosatchilar, oliy martabali amaldorlarni qamrab oladi va juda katta qimmatga ega bo'lgan qarorlar qabul qilish bilan bog'liq (qonunlarni ilgari

surish va qabul qilish, davlat buyurtmalari, mulk shakllarini o‘zgartirish va sh.k.). Aksariyat hollarda korrupsiya bitimidan manfaatdor bo‘lgan ikkala tomon ayni bir davlat hokimiyati organida ishlaydi. Masalan, quyi turuvchi davlat organining amaldori o‘zining yuqori turuvchi boshlig‘iga u pora beruvchining korrupsion harakatlariga homiylik qilishi yoki qo‘shimcha mablag‘lar, resurslar, vakolatlar berishi uchun pora beradi.

Korrupsiyaning pora olish va xizmat mavqyeini suiiste’mol qilish kabi odatdagi shakllaridan tashqari, korrupsiya amalda namoyon bo‘lishining quyidagi shakllarini farqlash mumkin:

- mansabdor shaxslar, davlat xizmati xodimlari, deputatlar tijorat faoliyatida shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish uchun bevosita ishtirok etishi;
- davlat pul mablag‘larini o‘zlashtirish niyatida tijorat tuzilmalariga o‘tkazish uchun o‘z xizmat mavqyeidan foydalanish;
- o‘z korporativ (siyosiy, diniy, milliy va sh.k.) guruhiga davlat resurslari hisobidan imtiyozlar berish;
- shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish maqsadida ommaviy axborot vositalariga tazyiq o‘tkazish uchun o‘z xizmat mavqyeidan foydalanish;
- mansabdor shaxslar va davlat xizmati xodimlari shaxsiy boyish maqsadida tijorat tuzilmalarida soxta shaxslardan va qarindoshlaridan foydalanishi;
- shaxsiy yoki korporativ naf ko‘rish maqsadida axborotni manipulyasiya qilish (buzib ko‘rsatish, bermaslik, berish muddatlarini cho‘zish va sh.k.) uchun xizmat mavqyeidan foydalanish;
- tor gruppaviy manfaatlarda normativ hujjatlar qabul qilish haqidagi qarorlarni ilgari surish;
- ayrim nomzodlarning saylov fondlariga davlat moliyaviy va moddiy resurslarini taqdim etish.

AQShda korrupsiyaning “kikbeking” degan shakli ancha keng tarqalgan. Uning sxemasi juda sodda: jinoiy til biriktirish ishtirokchilari muayyan narxlarda bitim tuzishga og‘zaki kelishadilar, rasmiy bitimni esa balandroq narxlarda imzolaydilar. Tafovutning bir qismi bitimga ruxsat bergan mansabdor shaxslarga topshiriladi, ya’ni yashirin pora beriladi. Pora olishning mazkur shakli so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham qo‘llanilmoqda.

Korrupsiya jinoyati nafaqat xufyona, balki korrupsiyaga doir munosabatlarga kirishgan tomonlarning o‘zaro kelishuviga binoan sodir etiladi. Aksariyat hollarda u tegishli hokimiyat organlariga shikoyat berilishiga sabab bo‘lmaydi, chunki g‘ayriqonuniy kelishuvdan ikkala tomon ham naf ko‘radi. Hatto pora so‘rash hollari ustidan ham kamdan-kam holda shikoyat qilinadi, chunki odamlar korrupsiyaga qarshi kurash jarayoniga ishonchsizlik bilan qaraydilar. Buning uchun milliy va xorijiy

tajriba bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan obyektiv va subyektiv asoslar mavjud. Korrupsiya harakatlari odatda davlat faoliyatining mutaxassis bo‘lmagan kishilar tushunishi ancha qiyin bo‘lgan o‘ziga xos turlarida sodir etiladi. Korrupsiya o‘ta moslashuvchan jinoyatdir. U vaziyatga qarab tinimsiz o‘zgaradi va takomillashib boradi. Shu bois bu hodisa haqida to‘liq, mukammal yoki Hech bo‘lmasa reprezentativ ma’lumotlar mavjud emas.

14.2. Korrupsiya va unga qarshi kurash borasidagi milliy-xalqaro huquqiy normalar

Hozirgi zamon milliy va xalqaro huquqida tobora ko‘p qo‘llanilayotgan atamalardan biri bu korrupsiyadir. Korrupsiya albatta bugun paydo bo‘lgan illat emas, u qadimdan buyon mavjud bo‘lib kelmokda. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel shunday degan:“Har qanday davlat tizimida qonunlar va boshqa farmoyishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerak-ki, unda mansabdor shaxslarni noqonuniy yo‘l bilan boyishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim”. Fransuz mutafakkiri Sharl Monteskye esa bu borada “Asrlar tajribasidan ma’lumki, har qanday hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan shaxs, uni suiiste’mol qilishga moyil bo‘ladi va u ma’lum bir maqsadga erishmaguncha shu yo‘nalishda yuradi” degan fikrlarni bildirgan.

G‘arbiy Yevropa davlatlarining keyingi tarixida ham korrupsiyaning turli ko‘rinishlari va korrupsion munosabatlarning avj olishi nafaqat tarixiy manbalarda balki, o‘sha davrning ilg‘or yozuvchi faylasuflarining asarlarida ham o‘z ifodasini topgan. Xususan, Shekspirning “Venesiyalik savdogar”, “Qonga qon, jonga jon” , Dantening “Do‘zax”, “Tozalovchi” kabi asarlarida ham yoritilgan. Dante korrupsionerlarni do‘zaxni eng qorong‘i va eng chuqur joyiga tashlash kerak degan fikrni bildirgan

Korrupsiyaning kelib chiqishi tarixi va rivojlanishi masalalarini Nikkolo Makiavelli o‘rganib, uni yo‘talga qiyoslab shunday degan edi, “Korrupsiyani ham yo‘talga o‘xshab oldin aniqlash qiyin, ammo davolash oson, lekin bu kasalni o‘tkazib yuborsangiz uni aniqlash oson, ammo davolash qiyin”. Mana shu so‘zlardagi haqiqatni bugungi kunda dunyo bo‘yicha keng tarqalgan korrupsiya ko‘rinishlariga nisbatan ham qo‘llash mumkin bo‘ladi.

Ma’lumki “Korrupsiya” tushunchasi lotin tilidagi “corruptio” so‘zidan olingan bulib, mazmuni “buzish, sotib olish” ma’nosini beradi va uning grammatik bir ildizli ma’nosi yana “korroziya” suzi ya’ni “chirish” yoki “zanglash” degan mazmunni ham beradi. Shundan kelib chikib bu so‘zni ijtimoiy ko‘rinishi hokimiyatni buzish, chiritish orkali sotib olish” degan ma’noni beradi.

Milliy qonunchiligimizda mazkur atamaning aniq huquqiy ta’rifi mavjud emas, biroq xalqaro huquqning ayrim manbalarida xususan, Korrupsiya muammolari bo‘yicha Yevropa Kengashi Guruhlarining 1-

sessiyasi (1995 yil 22-24 fevral, Strasburg)da "Korrupsiya"ga shunday ta'rif berilgan."Korrupsiya - pora olish (o'ziga og'dirish), davlat yoki xususiy sohada muayyan vakolatga ega bo'lgan shaxs, mansabdor shaxsning yoki xususiy sohada faoliyat yuritadigan shaxs yoki mustaqil agentning o'z mansab vazifasidan yoki shunga o'xshash munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarini buzadigan, shuningdek, o'zi yoxud o'zga shaxslar manfaati uchun har qanday shakldagi afzalliklarga ega bo'lish maqsadida ifodalangan xatti-harakat".

Mansabdor yoki mansabdor bo'lmagan shaxslar tomonidan yuqorida nazarda tutilgan xatti-harakatlar sodir etilishi oqibatida fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkaziladi.Shuningdek, "Korrupsiya – mansabdor shaxs tomonidan muayyan harakat yoki harakatsizlik sodir etish (etmaslik) evaziga moddiy manfaatdor qilayotgan shaxsning manfaatini ko'zlab mansab vazifasini buzgan yoki buzmagan holda, turli shaklda moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy naf ko'rishi." (BMT mansabdor shaxslarining odob-axloq Kodeksi 17.12.1979 y).

"Korrupsiya – shaxsiy manfaati yo'lida davlat hokimiyati vazifalarini suiiste'mol qilishi (BMTning Korrupsiyaga qarshi xalqaro kurash bo'yicha axborot hujjati).

Korrupsiya – bu shaxsiy manfaat uchun davlat hokimiyati mansab vazifasini suiiste'mol qilish (Butunjahon banki hisoboti, 1997 y).

Bundan tashqari O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ham mazkur turdagi jinoyat uchun shunday ta'rif berilgandi: "Jinoyatning yopiq va eng qabih turi bor. Bu – korrupsiya va poraxo'rlik. Jinoyatning bu turi boshqaruv apparatini izdan chiqaribgina qolmay, bozor asoslarini ham barbod etishi mumkin".

"Korrupsiya, eng avvalo, uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo'lish yoki to'g'ridan-to'g'ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanishdir".

Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarini tashkillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 3 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi tuzilmasida tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi poraxo'rlik, o'g'irliklar va boshqa suiiste'molchiliklarga qarshi kurash boshqarmasini tashkil etish to'g'risida"gi; 1994 yil 11 maydagi "Xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni korrupsiya, reket va uyushgan jinoyatchilikning boshqa ko'rinishlaridan himoya qilishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi; 1997 yil 28 maydagi "Korrupsiya, reket va terrorizmga qarshi kurashni takomillashtirish ishlarini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi va ularning ijrosini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

BMT Rivojlanish Dasturining ("UN Development Program") nazariy tahliliga ko'ra korrupsiyani vujudga kelishida quyidagi omillar katta rol o'ynaydi: vakolat yoki xokimiyatga, shaxsiy manfaat va o'zboshimchalik, hisobdorsizlik va oshkorasizlik.

Jahon miqyosida quyidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro-huquqiy hujjatlarni alohida ta'kidlab o'tish lozimdir:

a) BMTning "Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi";

b) Yevropa Ittifoqining "Korrupsiya uchun jinoiy javobgorlik to'g'risidagi Konvensiyasi;

v) Yevropa Ittifoqining "Korrupsiya uchun fuqaroviy javobgarlik to'g'risida"gi Konvensiyasi;

g) Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida "Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to'g'risida"gi model qonuni;

d) "Osiyo Taraqqiyot Banki va Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki Osiyo va Tinch okeani korrupsiyaga qarshi harakat dasturi";

Umuman olganda, korrupsiyani vujudga keltiruvchi shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'tish davridagi qiyinchilik;
- ijro etish tizimining yomonlashuvi;
- huquqiy nigilizm;
- jamiyatda insonlarning huquqiy madaniyati
- iqtisodiy aspektlar.

Dunyodagi mamlakatlarda korrupsiyaning mamlakat boshqaruvi, iqtisodiyoti va boshqa sohalariga ta'sirini xalqaro nodavlat-notijorat "Transparency International" - "Transperensi interneshnl" tadqiqotlariga asosan baholab kelinadi.

BMTning korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari :

1) "Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksi" (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1979 yil 17 dekabrda qabul qilingan);

2) Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksini samarali amalga oshirilishi uchun rahbariy prinsiplar (BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi rezolyusiyasi bilan 1989 yil 24 mayda qabul qilingan);

3) Davlat mansabdor shaxslarining Xalqaro xulq-atvor kodeksi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996 yil 12 dekabrda qabul qilingan);

4) BMTning Xalqaro tijorat operasiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risidagi Deklarasiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996 yil 16 dekabrda tasdiqlangan);

5) Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1999 yil 9 dekabrda qabul qilingan);

6) BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2000 yil 15 noyabrda qabul qilingan);

7) BMT Forumining ofshorlar bo‘yicha Kommyunikesi (Kayman orollari, 2000 yil 30-31 mart);

8) BMT Bosh kotibining korrupsiyaga oid ma’ruzasi (Vena, 2001 yil 8-17 may);

9) Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘plami (2001 yil iyun);

10) Korrupsiyaga qarshi kurash choralari. Pulni tozalashga qarshi kurash choralari. Jinoyatchilik va odil sudlov: XXI asr chorloviga javoblar to‘g‘risidagi Vena deklarasiyasini amalga oshirish harakat Rejasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2002 yil 15 aprelda qabul qilingan)

11) BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan).

Yevropa Kengashi va Yevropa Ittifoqining korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari :

1)Yevropa Kengashining korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1999 yil 27 yanvar);

2)Yevropa Kengashining korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1999 yil 9 sentyabr);

3)Yevropa Kengashining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni tozalash, aniqlash, olib qo‘yish va musodara qilish to‘g‘risidagi Konvensiyasi (Strasburg, 1990 yil 8 noyabr);

4)Korrupsiyaga qarshi kurashning yigirmata prinsipi (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 1997 yil 6 noyabr);

5)Davlat xizmatchilari uchun Model xulq-atvor kodeksi (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2000 yil 11 may);

6)Siyosiy partiyalarni va saylov kampaniyasini moliyalashtirishda korrupsiyaga qarshi yagona qoidalar (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2003 yil 8 aprel);

7)Moliyaviy tizimdan pulni tozalash maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi YeI Direktivasi (1991 yil 10 iyun);

8)Pulni tozalashga qarshi Parij deklarasiyasi (Yevropa Ittifoqining pulni tozalashga qarshi parlamentar konferensiyasining Yakuniy deklarasiyasi 2002 yil 8 fevral).

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasida korrupsiyaga qarshi kurash borasida qabul qilingan hujjatlar:

1)Jinoyatchilikka qarshi kurashda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga ishtirokchi-davlatlarning hamkorligi to‘g‘risidagi Kelishuvi (Moskva, 1998 yil 25 noyabr);

2)“Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to‘g‘risida”gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamenlararo assambleyasining XXII plenar yig‘ilishida qabul qilingan 2003 yil 15 noyabr);

3)“Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamenlararo assambleyasining XIII plenar yig‘ilishida qabul qilingan 1999 yil 3 aprel);

4)“G‘ayriqonuniy yo‘ldan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshilik qilish to‘g‘risida”gi Namunaviy qonuni (MDH Parlamenlararo assambleyasining XII plenar yig‘ilishida qabul qilingan 1998 yil 8 dekabr);

5)“Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risida”gi tavsiyaviy qonunchilik akti (MDH Parlamenlararo assambleyasining qarori bilan qabul qilingan 1996 yil 2 noyabr).

6) Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Yevrosiyo guruhi to‘g‘risidagi Bitim (Moskva, 2011 yil 16 iyun).

FATF tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari:

1) FATFning qirqta tavsiyasi (2003 yil 20 iyun tahriri);

2) FATFning qirqta tavsiyasiga tushuntirish (2003 yil);

3) FATFning pulni tozalashga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro hamkorlikka to‘siq bo‘layotgan yigirma beshta asosiy mezoni (2003 yil);

4) Terrorizmni moliyalashtirish bilan bog‘liq operasiyalarni aniqlash bo‘yicha moliyaviy tashkilotlar uchun FATF tavsiyalari (2002 yil)

5) Ommaviy qirg‘in qurollarni tarqalishini moliyalashtirish, terrorizmni moliyalashtirish, pullarni legallashtirishga oid xalqaro standartlar (2012).

Boshqa xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari:

1) Ish yuzasidan xalqaro operasiyalarni amalga oshirishda chet ellik davlat mansabdor shaxsi tomonidan pora berishga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiya (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR) tomonidan qabul qilingan 1997 yil 21 noyabr);

2) Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi Amerikaaro konvensiyasi (Karakas, 1996 yil 29 mart);

3) Adliya va xavfsizlik organlari xodimlariga nisbatan korrupsiyaga qarshi kurash va ularning vijdonli va pok bo‘lishini ta’minlash choralari bo‘yicha umumiy tavsiyalar (Korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bo‘yicha Global forum, Vashington, 1999 yil 24-26 fevral).

14.3. Xalqaro maydonda korrupsiyaga qarshi kurash tajribasi. Korrupsiyaga qarshi kurash tarixi

Korrupsiya tarixi insoniyat tarixi kabi ko‘hnadir. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel shunday degan edi: “Har qanday davlat tuzumida eng muhimi – bu qonunlar va tartib-qoidalar vositasida ishni shunday tashkil etishki, mansabdor shaxslar qing‘ir yo‘l bilan boylik orttira olmasin”. Pora olish va berish Qadimgi Rimda amal qilgan 12 jadval qonunlarida tilga olingan. Ibtidoiy va ilk sinfiy jamiyatlarda kohinga, qabila oqsoqoliga yoki harbiy boshliqqa muayyan imtiyozni qo‘lga kiritish uchun haq to‘lash tabiiy bir hol sifatida qaralgan. Davlat apparatining murakkablashuvi va professionallashuviga qarab vaziyat o‘zgarib borgan. Oliy martabali amaldorlar quyi turuvchi “xizmatchilar” faqat tayinlangan maosh bilan qanoatlanishlarini talab qilganlar. Quyi daraja amaldorlar esa, aksincha, o‘z xizmat vazifalarini bajarganlik uchun arzgo‘ylardan yashirincha qo‘shimcha haq olishni (yoki talab qilishni) ma’qul ko‘rganlar. Korrupsiya haqidagi eng qadimgi qaydlardan biriga qadimgi Bobilning mixxatda yozilgan bitiklarida duch kelingan. Miloddan avvalgi uchinchi ming yillikning o‘rtalariga taalluqli bo‘lgan matnlarda aytilishicha, shumer podshosi Urukagin o‘sha zamonlardayoq qonunga xilof haq olishga ruju qo‘ygan sudyalar va amaldorlarning qonunbuzarliklariga chek qo‘yish muammosini yechish yo‘llarini izlagan. Shunga o‘xshash masalalarga qadimgi Misr hukmdorlari ham duch kelgan. Arxeologik tadqiqotlar jarayonida topilgan hujjatlar miloddan avvalgi 597-538 yillarda, yahudiylar Bobil podshosi tomonidan asirga olinganidan keyingi davrda, Iyerusalimda korrupsiya ayniqsa avj olganidan dalolat beradi. Professional davlat amaldorlari hali mavjud bo‘lmagan antik jamiyatlar tarixining ilk bosqichlarida (qadimgi yunon shahar-davlatlari, respublika Rimi) korrupsiya deyarli bo‘lmagan. Bu hodisa antik davr tanazzulga yuz tutgan bosqichdagina vujudga kelgan. Bu davrda korrupsiya domiga ilingan davlat amaldorlari haqida: “U boy viloyatga kambag‘al bo‘lib kelib, kambag‘al viloyatdan boy bo‘lib ketdi”, deyishgan. Ayni shu davrda rim huquqida “corrumpire” degan maxsus atama paydo bo‘lgan, u “buzish”, “pora evaziga og‘dirish” iboralarining sinonimi hisoblangan va mansab mavqyeini suiiste’mol qilishning har qanday ko‘rinishlarini ifodalashga xizmat qilgan. Markaziy hukumat hokimiyati zaif bo‘lgan joylarda (masalan, ilk o‘rta asr davrida Yevropada) xizmat mavqyeidan aholidan o‘z cho‘ntagiga haq undirish uchun foydalanish aksariyat hollarda umum e’tirof etilgan me’yorga aylangan. Davlat markazlashgani sari u fuqarolarning mustaqilligini qattiqroq cheklagan va shu tariqa quyi va oliy bo‘g‘in amaldorlariga qattiq nazoratdan qutulishni istagan fuqarolar foydasiga qonunni xufyona buzishga turtki bergan. Korrupsiya domiga ilingan amaldorlarni boshqalarga dars bo‘lsin uchun

olomon ko‘z o‘ngida jazolashlar odatda Hech qanday samara bermagan, chunki amaldan chetlatilganlar (lavozimidan olinganlar yoki qatl etilganlar) o‘rnini yangi poraxo‘rlar egallagan. Markaziy hokimiyat amaldorlar faoliyati ustidan yalpi nazorat o‘rnatish uchun odatda zarur kuch va vositalarga ega bo‘lmagani bois, u korrupsiyaning o‘ta xavfli ko‘rinishlarinigina jazolash bilan kifoyalangan.

O‘rta asrlarda O‘zbekiston hududida joylashgan davlatlarda qabul qilingan odat huquqi me’yorlari asosan zamirida islom madaniyati prinsiplari yotuvchi qonunchilik an’analari bilan belgilangan. Xususan, Amir Temur davlatida amaldorlar ishini tartibga solish maqsadida vaqti-vaqti bilan so‘roq, tekshirish, taftish, tergov o‘tkazib turilgan. O‘z amalini suiiste’mol qilish, poraxo‘rlik, doimiy ravishda ichkilik ichish, maishiy buzuqlik kabi qilmishlar og‘ir gunoh hisoblangan va qattiq jazolangan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Amir Temurning o‘g‘li Mironshoh, nevaralari Pirmuhammad va Halil Sultonlar yuqorida zikr etilgan me’yorlarni buzganlik uchun xalq oldida jazoga tortilganlar. O‘sha davrda O‘zbekiston hududidagi feodal jamiyatlarda hozirgi talqindagi korrupsiya uchun javobgarlik nazarda tutilmagan. Shunga qaramay, O‘zbekiston Rossiya tomonidan istilo qilingan davrgacha korrupsiya qonuniylashtirilgan institusional shakllarda namoyon bo‘lgan, xususan hukmron davralarning vakillariga u yoki bu tarzda haq berish feodal majburiyat xususiyatini kasb etgan. Masalan, oddiy dehqonlardan xonlar, sultonlar, biylar va zodagonlarning boshqa vakillari foydasiga muntazam ravishda “ushur” solig‘i – hosilning o‘ndan bir qismi undirilgan. Chorvadorlar “zakot” solig‘i to‘laganlar – bu soliq miqdori u yoki bu turdagi chorva molining muayyan boshiga teng bo‘lgan. Bundan tashqari, zodagonlarning vakillariga va oqsoqollariga har xil turdagi sovg‘a-salomlar berilishi lozim bo‘lgan. Hokimiyat markazlashtirilmagani, yagona davlat amaldorlari apparati mavjud emasligi, davlat boshqaruvi feodal hokimiyat organlari tomonidan amalga oshirilishi jamuljam holda O‘zbekiston hududida joylashgan davlatlar huquqida poraxo‘rlik, xizmat mavqyeini suiiste’mol qilish va hokazolar, ya’ni korrupsiya uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi me’yorlar Hech bo‘lmasa rasman paydo bo‘lishi imkoniyatini ham istisno etgan.

Korrupsiya – har qanday davlatning siyosiy tuzulishi, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasidan qat’i nazar, butun dunyoda global muammo hisoblanadi. Jumladan, yaqin o‘tmishda Osiyo qit’asida joylashgan Janubiy Koreya, Turkiya va Pokiston davlatlarining sobiq rahbarlariga va yuqori martabali mansabdor shaxslari o‘z mansab vakolatlarini suiiste’mol qilganliklari uchun ularga nisbatan parlament tomonidan tekshiruvlar o‘tkazilgan. Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Yaponiya va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarda ham davlat xizmatidagi mansabdor shaxslarning korrupsiyalashuvi tez-tez uchrab turadi. Misol uchun, 90-

yillarning ikkinchi yarmida Germaniyada 2 mingga yaqin mansabdor shaxslarga nisbatan poraxo‘rlik holatlari bo‘yicha rasman jinoyat ishlari qo‘zg‘atilib, tergov qilingan. AQShning Oq uy ma’muriyati esa, doimiy ravishda siyosiy kompaniyalar uchun ajratilgan mablag‘lardan noqonuniy ravishda foydalanilganligi haqidagi ayblovlar bilan kurashib keladi. Har bir mamlakat, xalq “jinoyat” va “korrupsiya” kabi tushunchalarni o‘z dunyoqarashi, tafakkuri va mentaliteti darajasiga ko‘ra har xil tasavvur qiladi. Ayrim mamlakatlarda korrupsiya poraxo‘rlikning sinonimi hisoblanadi, ayrim mamlakatlarda esa u kengroq – davlat hokimiyati va hatto jamiyatning ma’naviy inqirozi sifatida talqin etiladi.

Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Ammo bu korrupsiya hammayoqda bir xil degan ma’noni anglatmaydi. Korrupsiyaning vujudga kelish sabablari turli mamlakatlarda har xil bo‘lib, tarixiy bosqich va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Shu bois korrupsiyaning oldini olish va unga barham berishning universal ma’muriy-huquqiy vositalarini ishlab chiqish deyarli mumkin emas.

Ayrim tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, korrupsiya darajasi eng past bo‘lgan davlatlardan biri Finlyandiya hisoblanadi. Hozirgi kunda Finlyandiyada yiliga 3-4 ta poraxo‘rlik bilan bog‘liq jinoyat ishlari ko‘rilar ekan. 1980-1989 yillarda, 81 nafar shaxslar pora olganlik uchun, 49 nafar shaxslar pora berganlik uchun jazolangan. Shunisi e’tiborliqi, Finlyandiya Jinoyat kodeksida “korrupsiya” degan tushuncha majud emas. Unda mansabdor shaxslarning poraxo‘rligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo‘lib, bunday jinoyatni sodir etgan mansabdor shaxslar uchun qilmishning ijtimoiy xavfliligiga qarab jarimayoki 4 yilgacha bo‘lgan muddatga turmaga qamash jazosi tatbiq etiladi. Ajablanarlisi, Finlyandiyada maxsus korrupsiyaga qarshi kurash haqida qonun mavjud emas, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi maxsus organ ham tuzilmagan. Korrupsiyaga umumiy jinoyatchilikning bir qismi qabilida kurash olib boriladi. Finlyandiya Konstitusiyasi, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi qonun, ma’muriy boshqaruvga oid yo‘riqnomalar va boshqa qonunosti hujjatlar korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hujjatlar hisoblanadi. Bularning orasida eng muhimi Ahloq qoidalaridir. Finlyandiyada korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hujjatlar ijrosi ustidan nazorat mamlakat Prezidenti tomonidan tayinlanadigan, biroq, mutloq mustaqil faoliyat yurituvchi Adliya kansleri va parlament vakili Ombudsman tomonidan olib boriladi. Ular butun hokimiyat tarmoqlari faoliyatini nazorat qilish vakolatiga egalar. Yuqori martabali mansabdor shaxslarni ayblash haqidagi jinoyat ishlari maxsus tashkil etilgan Davlat sudi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Bu sud hattoki davlat rahbariga nisbatan bo‘lgan ishlarni ham ko‘rib chiqishi mumkin. Unga Adliya kansleri, parlament vakili Ombudsman, hukumat vakillari, Oliy sud va ma’muriy sud sud’yalari a’zo

bo‘lishi mumkin. Ikkinchi Jaxon Urushidan keyin Davlat sudi bor-yo‘g‘i bir marta chaqirilgan xolos. Davlat xizmatchilari soni unchalik ko‘p emas. Ayniqsa, 90-yillardan keyin davlat xizmatchilari soni deyarli teng yarimiga, ya’ni 230.000 dan 127.000 ga qisqartirilgan. Finlyandiyada davlat xizmatchilarini korrupsiyalashuvidan saqlovchi muhim omillardan biri – ularning moddiy va ijtimoiy ta’minlanganligidadir. Alohida ta’kidlash lozimki, Finlyandiyada ommaviy axborot vositalari ijtimoiy nazoratning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Hukumat esa ommaviy axborot vositalariga nafaqat erkinlik yaratib bergan, balki har bir e’lon qilingan korrupsiya holati bo‘yicha aniq choralarni ko‘rib boradi. Finlyandiya korrupsiyaga qarshi bir qancha xalqaro hujjatlarga qo‘shilgan, xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini faol olib boradi.

Davlat hokimiyati organlarini korrupsiyaning zararli ta’siridan saqlash zaruriyati AQSh hukumatini korrupsiyaga qarshi kurashni XIX asrdayoq davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilashga majbur qilgan. Lekin bu yo‘nalishdagi ishlar faqat XX asrning o‘rtalariga kelib faol tus oldi. Shu narsa diqqatga sazovorki, AQSh qonunlarida nafaqat davlat xizmatchisi o‘z vazifasini bajarishi chog‘ida yuzaga keladigan manfaatlar to‘qnashuvi, balki davlat hokimiyati organlarida o‘z xizmatini to‘xtatgan shaxs bilan shunday holatning ro‘y berishi ham nazarda tutilgan.

Fransiyada davlat xizmati tizimidagi korrupsiyaning oldini olish va unga barham berish maqsadida XX asrning 90-yillarida saylangan barcha davlat xizmatchilariga va korrupsiya ta’siriga berilishi mumkin bo‘lgan jamoat xizmati kadrlariga o‘z mol-mulki va daromadlari haqida mustaqil idoralarga ma’lumot berish majburiyatini yuklash to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Bundan tashqari, davlat apparati yuqori martabali xodimlarining daromadlari va mol-mulki haqidagi deklarasiyalar keng miqyosda oshkor etilishini ta’minlaydigan huquqiy va tashkiliy asoslar yaratildi. Ma’muriy muassasada imzolangan munosabatlar yoki ular tomonidan berilgan ruxsatlar haqida keng jamoatchilikka axborot berish shakllari ishlab chiqildi. Ko‘cha harakati qoidalarini buzganlik uchun shu joyning o‘zida jarima to‘lash taqiqlandi. Davlat xizmati tizimidagi korrupsiyaning oldini olish va unga barham berish usuli sifatidagi davlat nazoratining samaradorligini oshirish maqsadida prefekturalarning qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazorat olib boradigan xizmatlarda band bo‘lgan xodimlarining sonini ko‘paytirish va malakasini oshirish, shuningdek prefekturalarning xizmatlariga mazmuni korrupsiya xavfini kuchaytiradigan hujjatlarni bajarish muddatini kechiktirish huquqini berish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Fransiya hukumati Hisob palatasi vakolatlarini kengaytirish, shuningdek korxonalarning o‘z xodimlarini korrupsiya xavfidan saqlash uchun ichki audit va nazorat tadbirlari o‘tkazish borasidagi sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bundan

tashqari, Fransiya hukumati Adliya vazirligi qoshida Korrupsiyaga qarshi kurash markaziy xizmati tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

GFR tajribasi korrupsiyaga ta’sirchan sohalarni aniqlash, mamlakat markaziy bankida davlat xizmatchilarini pora evaziga og‘dirishda fosh qilingan jismoniy va yuridik shaxslarning ma’lumotlar bazalarini tashkil etish korrupsiyaning oldini olish borasida eng samarali tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu ularga yangi nom bilan yoki boshqa niqob ostida davlat buyurtmalarini olishga, boshqaruv kadrlarini rotasiya qilishga, boshqaruv xodimlari faoliyati ustidan ichki nazorat olib boradigan tashqi bo‘linmalar tashkil etishga imkon bermaydi.

Rossiya Federasiyasi sobiq ittifoq davlatlari orasida korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borayotgan davlatlardan biridir. Jumladan, 1992 yilda Rossiya Federasiyasi Prezidentining “Davlat xizmati tizimida korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilingan, 1997 yil noyabr oyida Rossiya Federasiyasi Dumasida uchinchi o‘qishda “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Shu bilan birga, Korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish bo‘yicha Federal Davlat dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur qonun 6 ta bob va 38 ta moddadan iborat bo‘lib, u korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni oldini olish, fosh qilish va to‘xtatish, ularning oqibatlarini bartaraf qilish va aybdor shaxslarni jazolash uchun sharoit yaratish yo‘li bilan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat manfaatlarini, davlat xavfsizligini himoya qilishga qaratilgan. Faoliyatining dastlabki davrlarida boshqarma tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurash olib borish, jinoyat ishlarini tergov qilish bilan bir qatorda quyi bo‘limlarning faoliyati ustidan ham nazorat olib borilgan bo‘lib, keyinchalik bu vazifa mahkamaning prokuratura idoralariga tergov ustidan nazorat qilish boshqarmasiga olib berildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvesiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o‘rin egallaydi. Bunda Konstitusiyaviy nazorat organlari, huquq-tartibot organlarining ahamiyati ortadi. Ya’ni, korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo‘lgan normalarni konstitusiyaviy nazorat organi tomonidan konstitusiyaga zid deb topish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish kabi metodlardan unumli foydalanish ushbu davlatlarni korrupsiya darajasi juda past bo‘lgan davlatlar qatoriga olib chiqqan. Biz quyida Singapur davlatida korrupsiyaga qarshi kurashda qo‘llanilgan usullar haqida batafsil to‘xtalib o‘tamiz. Singapur davlati 1965 yil mustaqillikka erishgach korrupsiya darajasi eng yuqori bo‘lgan davlatlar qatorida turar edi. Lekin bu illatga qarshi o‘tkazilgan bir qator tadbirlar bu davlatda korrupsiyaning minimal darajaga tushishiga olib keldi. Birinchi navbatda bu yerda byurokratik jarayonlar yengillashtirilib sud

tizimining mustaqilligi oshirildi (sudyalarning daromadlari va imtiyozlarini oshirish evaziga). Shu bilan birga korrupsiya jinoyatlari uchun sanksiyalar og‘irlashtirilib, fuqarolarga korrupsiyaga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda hamkorlik qilishda bosh tortganligi uchun juda katta moliyaviy sanksiyalar belgilandi. Bir qator davlat idoralarida ommaviy “tozalashlar” o‘tkazilib bu jarayonlar telekanallar orqali butun mamlakatga namoyish qilindi. Singapur-1952 yilda korrupsiyaviy faoliyatni tergov qilish bo‘yicha byuro tashkil etilgan. Byuro faqat bosh vazirga bo‘ysunib, davlat va xususiy sektorda doimiy nazoratni olib boradi. Ushbu davlatda amaldorlar har yo‘li o‘z mulki, shuningdek, oila a’zolari va farzandlariga tegishli bo‘lgan kompaniyalardan oladigan ulushlari haqida ma’lumot berishlari shart hisoblanadi. Agar mansabdor shaxsning boshqa tashkilotlar va shaxslardan pul yoki qimmatbaxo sovg‘a ko‘rinishidagi buyumlarni olgani yoxud boshqa yashirin mol-mulklari mavjudligi byuro tomonidan aniqlansa, aybdorlarga ozodlikdan mahrum qilish jazosi yoki jarima solinadi. Agarda amaldor yolg‘on gapirgan bo‘lsa, unga bir yilgacha qamoq yoki jarima to‘lash tariqasida jinoiy jazo chorasi qo‘llaniladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan omillarning hammasi Singapurni qisqa muddatlarda korrupsiya darajasi eng past mamlakatlar ro‘yxatida ilg‘or davlatlar qatoriga olib chiqdi. Shuningdek, davlat xizmatchisining ahloq standartlariga rioya etishini qattiq nazorat ostiga olish ham Singapur davlatida korrupsiyaga qarshi kurashda muhim dastaklardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

AQSh– Ayrim shtatlari qonunchiligida kim (sovg‘a beruvchi) tomonidan. Kimga (xizmatchiga) va nima sovg‘a berish muakinligi yuridik jixatdan belgilangan bo‘lib, sovg‘a beruvchi tomonidan bir nechta sovg‘a berilganda taqdirda hama uning summasi 20 dollardan, umimiy miqdori yiliga 50 dollardan oshmasligi belgilangan.

Yaponiya-qonunlariga ko‘ra davlat xizmatchisi bo‘lib ishlagan mansabdor shaxs o‘z xizmat lavozimini ijro qilayotgan vaqtida ham, ishdan bo‘shaganidan so‘ng ham hususiy biznesga o‘tishi mumkin emas. Yaponiyada korrupsiyaga qarshi kurashish bilan birga noto‘g‘ri, ya’ni tuxmatdan, pora olish haqida xabar berish ham, pora oluvchilarga nisbatan belgilangan jazoga uch yil muddatda yoki jarima jazosiga tortilishi mumkin.

Xitoy-qonunchiligiga ko‘ra poraxo‘rlik bilan bog‘liq jinoyat deb e’tirof etish uchun pora olishda 450 yevro, uni berishda, 2 barobar ko‘p bo‘lishi lozimligi qayd etilgan. Shuningdek, jinoyat yo‘li bilan topilgan daromatlarni legallashtirish ham korrupsiya sanaladi.

Janubiy Koreya-1999 yildan beri milliy antikorrupsiya dasturlari ichida ancha obroga sazovor bo‘lgan “OPENA” onlayn tizimi amalda ish yuritmoqda. Ushbu davlatda jinoyat ishini qo‘zg‘atish mamlakatning bosh

antikorrupsion organi hisoblangan audit va inspeksiya bo‘yicha komiteti tomonidan amalga oshiriladi.

14.4. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi

Xalqaro Konvensiyalarning ahamiyati: Huquqda xalqaro hujjatlar, qonunlar, nizomlar kabi turlicha normativ huquqiy hujjatlarning ierarxiyasi mavjud bo‘lib, ierarxiyaning yuqori pog‘onasida turuvchi hujjatning yuridik ahamiyati katta bo‘ladi va agar undan quyida turuvchi hujjatlar yuqordagi hujjata zid kelsa, quyida turuvchi hujjatlarning zid keluvchi qoidalar o‘z-o‘zidan o‘z kuchini yo‘qotadi.

Xalqaro huquqiy hujjatlar xalqaro tashkilotlar (unga a’zo bo‘lgan davlatlar) tomonidan qabul qilingan bo‘lib, unga qo‘shilishni istagan davlat uni ratifikatsiya qilishi mumkin. Xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish orqali davlat mazkur xalqaro hujjatni o‘z hududida ham qonun hisoblanishini va uni ijrosini ta’minlashini bildiradi. [2] Deyarli barcha davlatlar o‘zi majburiyatni zimmasiga olgan xalqaro huquqiy hujjatlarning o‘z hududidagi barcha qonunlardan ustunligini e’tirof etadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olishini aytadi. Umum e’tirof etilgan qoidalardan biri bu davlatning o‘zi qo‘shilgan xalqaro huquqiy normalarni o‘z hududida qonun ekanliginini va uning ijrosini taminlashidir. Bundan tashqari qonun hujjatlarida qonun sohasini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy hujjatlarga davlat a’zo bo‘lgan bo‘lsa, xalqaro huquqiy hujjat qoidalari ustunligi alohida ta’kidlab ketiladi.

Korrupsiyaga qarshi Konvensiyaning tuzilishi va mazmuni: Konvensiya rasman 8 bobdan iborat bo‘lib, mazmun jihatdan asosiy to‘rt qismga bo‘linadi desa bo‘laveradi.

Bular:

Korrupsiyaning oldini olish choralari

Jinoyatchilik va huquqni muhofaza qilish faoliyati

Xalqaro hamkorlik

Aktivlarni qaytarish bo‘yicha choralar.

Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi eng asosiy xalqaro hujjat bu – shubhasiz, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi hisoblanadi.

Jahon hamjamiyati XXI asrning boshlarida korrupsiya nafaqat bir davlat hududida sodir etiladigan jinoyat, balki barcha davlatlarning iqtisodiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan muammo ekanligini anglab, korrupsiyaga qarshi universal xalqaro hujjat ishlab chiqish zaruriyati paydo bo‘lganligi to‘g‘risida BMTning sammitlarida gapira boshladi. 2003 yilning 9-11 dekabr kunlarida Meksikaning Merida shah rida BMTga a’zo davlatlar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi hamkorlik masalalariga bag‘ishlangan va 3 kun davom etgan konferensiya na tijasida korrupsiyaga

qarshi universal xalqaro hujjat imzolandi. Konferensiyaning birinchi ish kuni, ya'ni 9 dekabr – BMT tomonidan butun dunyoda korrupsiyaga qarshi kurash kuni deb e'lon qilingan. Ushbu Konvensiyaning qabul qilinishi va 2005 yil 14 dekabrda kuchga kirishi jahon hamjamiyatining korrupsiyaga qarshi kurashdagi hamkorligini yangi pog'onaga ko'tardi.

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi muqaddima, 8 ta bob va 71 ta moddadan iborat bo'lib, 1-bobda (1-4): umumiy qoidalar, 2-bobda (5-14): korrupsiyaning oldini olish choralari, 3-bobda (15-42): jinoyatchilik va huquqni muhofaza qilish faoliyati, 4-bobda (43-50): xalqaro hamkorlik, 5-bobda (51-59): aktivlarni qaytarish bo'yicha choralar, 6-bobda (60-62): texnik yordam va ma'lumot almashinuvi, 7-bobda (63-64): amalga oshirish mexanizmlari, 8-bobda (65-71): yakuniy qoidalar aks etgan. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilgan xalqaro huquqning universal kodifikasiyalashgan hujjati sifatida baholash mumkin. Mazkur Konvensiyaning maqsadlari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan: a) yanada samarali va ta'sirchan ravishda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni qabul qilish hamda mustahkamlashga ko'maklashish; b) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda, shu jumladan, aktivlarni qaytarish borasida xalqaro hamkorlik hamda texnik yordam ko'rsatilishini rag'batlantirish, osonlashtirish va qo'llab-quvvatlash; c) halollik va sodiqlik, mas'uliyatlilik hamda ommaviy ishlar va ommaviy mol-mulkni talab darajasida boshqarishni rag'batlantirish. Konvensiyada korrupsiyaning rivojlanishi unga qarshi samarali mexanizmlarni ishlab chiqmaslik dunyoda uyushgan jinoyatchilik, terro rizm va jamiyat uchun xavfli bo'lgan boshqa salbiy omillarga qarshi kurashga ulkan to'siq bo'lishi mumkinligiga alohida urg'u berilgan.

Konvensiyada korrupsiyaning rivojlanishi uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa jamiyat uchun xavfli bo'lgan salbiy omillarga qarshi kurashga ulkan to'siq bo'lishi mumkinligiga alohida urg'u berilgan.

Ushbu Konvensiyaning maqsadi quyidagilardan iborat:

— korrupsiyaga qarshi qaratilgan yuqori samarali chora tadbirlarni qabul qilish va ularni mustahkamlash;

— korrupsiyaga qarshi kurashda halqaro hamkorlikni kengaytirish, yengillashtirish va qo'llab quvvatlash.

O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga 2008 yil 7 iyuldagi O'RQ-158-sonli Qonuni bilan qo'shilgan bo'lib, ushbu Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa Ishtirokchi-

davlatlarga yordam ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan organlar sifatida belgilab qo‘yilgan.

Ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan va korrupsiya sifatida e’tirof etilishi mumkin bo‘lgan qilmishlar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining bir qator moddalari bilan jinoiy qilmish sifatida ta’qib qilinadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda jahon mamlakatlari tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki faqatgina jinoiy qonunchilikni og‘irlashtirish yo‘li bilan bu salbiy illatga qarshi kurashib bo‘lmaydi (XXR da juda ko‘p miqdorda pora olganlik uchun o‘lim jazosi mavjud). Bu illatni yengish uchun birinchi navbatda aholining huquqiy savodxonligini oshirish, fuqarolik institutlari faoliyatini kuchaytirish lozim bo‘ladi.

Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni— BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2004-yildan beri har yili 9-dekabrda (2003-yil 21-noyabrdagi A / RES / 58/4-sonli rezolyutsiya)nishonlanib kelinadi. 2003-yil 9-dekabrda Meksikada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi imzolangan.

Ushbu Xalqaro kunni belgilashdan maqsad, Bosh Assambleya rezolyutsiyasida qayd etilganidek, korrupsiya muammosi va Konvensiyaning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishdagi rolini chuqurroq tushunish bo‘lgan. Qarorda ushbu kunni keng nishonlash va tegishli tadbirlarni o‘tkazish to‘g‘risidategishli bandlar mavjud.

Bosh Assambleya rezolyutsiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasiga (UNODC) Konvensiyaga a’zo davlatlar konferensiyasining kotibiyati vazifasini bajarishga ko‘rsatma berishni so‘raydi va har yili Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni munosabati bilan UNODC direktori ushbu sana haqida xabar beradi. Odatda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi BMTning boshqa xalqaro kunlari munosabati bilan xuddi shunday xabar beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Pan Gi Mun 2015-yil 9-dekabrdagi murojaatida:

“Biz 2030-yilga qadar qashshoqlikka barham berish va barcha uchun munosib hayotni ta’minlashni rejalashtirar ekanmiz, Barqaror rivojlanish bo‘yicha yangi kun tartibida korrupsiyaga qarshi har tomonlama kurashish zarurligini tan olamiz va noqonuniy moliyaviy oqimlarni sezilarli darajada qisqartirish va o‘g‘irlangan mulkni qaytarishga chaqiramiz”, degan.

2015-yil 9-dekabrdagi BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi ijrochi direktori Yuriy Fedotov nutqida: “Korrupsiya va poraxo‘rlik o‘z maqsadiga yetib, tenglik va adolat barbod bo‘lsa, butun jamoalar zarur infratuzilma, shifoxona va maktablarsiz qolishi mumkin. Bundan tashqari, korrupsiya muhim huquqiy masalalarning asosini buzadi,

sanoatga zarar yetkazadi va raqobat tushunchasini yo‘qotadi”, deya ta’kidlagan.

2003-yildan buyon **Transparency International** xalqaro tashkiloti (https://www.transparency.org/en) har yili Global korrupsiya barometrini nashr etib keladi. 2004-yildan boshlab ushbu hisobot Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuniga to‘g‘ri keladi.

2015-yildan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi „Korrupsiya zanjirini uzing” deb nomlangan qo‘shma xalqaro kampaniyani, shu jumladan, fuqarolarni ijtimoiy tarmoqlarda #breakthechain xeshtegini qo‘llab-quvvatlashga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chaqiruvni boshlagan.

Nazorat savollari

1. Korrupsiyaga qarshi xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslarini tavsiflang?
2. BMTning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faoliyati nimalarda namoyon bo‘ladi?
3. Yevropa Ittifoqida korrupsiyaga qarshi hamkorlikning huquqiy asoslarini tashkil etuvchi hujjatlarni tavsiflang.
4. MDH doirasida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlari nimalardan iborat?
5. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini ishlab chiqish zaruriyati nimalardan iborat?
6. Korrupsiyaga qarshi konvensiyaning ishlab chiqilishiga asos bo‘lgan xalqaro hujjatlarni sanab bering.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi konvensiyaga qanday izohlar bilan qo‘shilgan.
2. O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi konvensiyaga a’zoligidan kelib chiqadigan majburiyatlarga qaysi davlat tashkiloti mas’ul hisoblanadi.
3. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida olingan aktivlarni qaytarish tartibi qanday.

XV BOB. O‘ZBEKISTONNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SIYOSATI

15.1. “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati” tushunchasi va uning maqsadi.

15.2. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun-mohiyati. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning tashkiliy asoslari.

15.3. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ichki nazorat (“komplayens-nazorat”) tizimi. O‘zbekistonda davlat tashkilotlari tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining joriy etilishi.

15.4. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar.

Tayanch tushunchalar: Korrupsiya, **Korrupsiyaga qarshi kurashish**, **davlat siyosati**, Kadrlar korrupsiyasi, mamlakatda korrupsiya illatiga qarshi kurashish.

15.1. “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati” tushunchasi va uning maqsadi

Korrupsiya illati demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlarining buzilishiga olib keladi, erkin bozor faoliyatiga to‘sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik va boshqa salbiy hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib bera di. Shu bois, har qanday demokratik davlat ushbu illatga qarshi kurash bo‘yicha qat’iy choralarni ko‘radi. O‘z navbatida, ushbu choralar davlat siyosatining mazmunini tashkil qiladi.

Nazariy jihatdan yondashganda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati deganda, mamlakatda korrupsiya illatiga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, inson huquq va man faatlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta’minlash, yuqori dara jadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi imiji hamda obro‘-e’tiborini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar majmuini tushunish mumkin. Ushbu chora-tadbirlar mamlakat qonunchiligi va mamlakatda e’tirof etilgan xalqaro huquq normalari dan kelib chiqadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati orqali korrupsiyaviy huquqbuzarliklar bartaraf etiladi, mamlakatning barqaror rivojlanishi ta’minlanadi hamda qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolat qaror topadi.

2020 yilning 24 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida

51 korrup siyaga qarshi kurashishga mas'ul bo'ladigan hamda barcha kuch va vositalarga ega bo'lgan alohida organ tashkil etish taklif etilgani mamlakat tarixida muhim ahamiyat kasb etdi. Shunga muvofiq, 2020 yil 29 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-sonli Farmoni va "O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4761-sonli qarori qabul qilindi.

Tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati

MAQSADI

• Tashkilotda barcha xodimlar tomonidan amal qilinishi majburiy bo'lgan tartib-qoidalar (standartlar)ni joriy etish, xodimlarning sohaga oid huquqiy madaniyatini oshirish va halollikni ta'minlash orqali xodimlar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish

VAZIFALARI

• xodimlarning xulq-atvor qoidalari, kasbiy va xizmat vazifalarini bajarishlari davomida faoliyatidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan aniq standartlarni belgilash;

• xodimlar tomonidan sohaga oid O'zbekiston Respublikasi qonunlari va qonunosti hujjatlarini tushunishi va ularga rioya etilishi;

• korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish hamda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va boshqa tartibga soluvchi hujjatlar orqali korrupsiya holatlarining oldini olish

ASOSIY TUShUNChALAR

• korrupsiyaviy xavf-xatar -korrupsiyaviy huquqbuzarlik – korrupsiya;

• mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, nepotizm, favoritizm, manfaatlar to'qnashuvi; korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi-korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi;

• davlat organlari va tashkilotlari -mansabdor shaxs – xodim – yaqin qarindoshlar – aloqador shaxs;

• xalqaro tashkilot – kontragent.

Farmonga asosan, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi – O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Shuningdek, Farmonga muvofiq agentlikning maqsadi, vazifalari, huquqlari va boshqa tashkiliy masalalar belgilab berildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashi va uning hududiy

kengashlari tashkil etilgan bo‘lib, Agentlik Milliy kengashning ishchi organi etib belgilandi. Bugungi kunda Milliy kengash va uning hududiy kengashlari tomo nidan har bir soha va hududlar bo‘yicha korrupsiyani bartaraf etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Korrupsiyaning oqibatlarini, unga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish Afsuski, korrupsiya boshqaruvning barcha darajalarida uchrashi mumkin. Ya’ni global, milliy va mahalliy darajada. Barcha turdagi subyektlar (jismoniy shaxslar, korxonalar, davlat xizmatchilari va siyosatchilar) korrupsiyaga ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda jalb qilinishi mumkin.

Korrupsiya turli shakllarga ega: poraxo‘rlik, tovlamachilik, firib garlik, mulkni o‘zlashtirish, fitna, hokimiyatni suiiste’mol qilish, xushomadgo‘ylik, sovg‘a, qarindoshlik, homiylik va boshqalar.

Korrupsiyaning holatiga turli omillar: ijtimoiy va madaniy sharoit, institusional va tashkiliy tuzilmalar, axloqiy, siyosiy muhit, shuningdek, iqtisodiy va tarkibiy o‘zgarishlar siyosati ham ta’sir qiladi. Ko‘pgina mutaxassislar korrupsiyaning sabablari siyosiy institutlarning mukammal emasligiga bog‘liq deb bilishadi. Chunki mamlakat ichki va tashqi boshqarish mexanizmlari, asosan, ushbu institutlarning qanday ishlashiga bog‘liqdir. Bundan tashqari, aholining qonunni bilmasligi yoki tushunmasligi, mamlakatdagi siyosiy holatning barqaror emasligi, hukumat institutlarining o‘zaro hamkorlikda harakat qilish mexanizmining yo‘qligi, mamlakat byurokratik apparatning maqsadlari siyosiy elitaga tobe holda ishlashi, uning mamlakat rivojiga sust holda yondashishi, siyosiy o‘yinlarning avj olishi, yuqori turuvchi amaldorlar ning tanish-bilish, quda-anda bo‘lib hukumatni boshqarishga o‘z ta’sirini o‘tkazishi, ijro hokimiyatida birlikning yo‘qolishi, bitta yo‘nalishning bir nechta instansiyalar tomonidan boshqarilishi, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokining sustligi va boshqa holatlar korrupsiyaning sabablaridandir.

Korrupsiyaning rivojlanib ketishiga davlat sektorida ish haqining kamligi, davlat tomonidan bozor iqtisodiyotining “tartibga solinishi”, fuqarolarning amaldorlarga bo‘ysunib qolishi, davlatning monopolistik siyosati, iqtisodning barqaror emasligi, iqtisodiy rivojlanishning pastligi ham sabab bo‘lishi mumkin.

Ko‘pgina mutaxassislar tomonidan bildirilgan fikrlarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, korrupsiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga quyidagi omillar sabab bo‘lar ekan:

1. Iqtisodiy ahvol (ish haqining kamligi, davlat xizmatchisining shaxsiy biznesga bog‘liqligi, insofsiz raqobat, monopoliya va boshqalar).

2. Institusional tuzilmalar faoliyatidagi kamchiliklar (davlat xizmatchilari malakasining kamligi, ichki nazoratning sustligi, qonunchilikdagi bo‘shliqlar va boshqalar).

3. Salbiy ijtimoiy-madaniy omillarning (intizomsizlik, halollikning yetishmasligi, jamoatchilik nazoratining yetishmasligi va boshqalar) mavjudligi

Korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bar taraf etish uning oqibatlarini bartaraf etishdan yaxshiroqdir. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. Bu haqda keyingi paragraflarda ham to‘xtalib o‘tiladi. Qonunchilikka muvofiq, davlat organlari va o‘zga tashkilotlarning mansabdor shaxslari hamda boshqa xodimlari qonunchilikka rioya eti shi, o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg‘arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bun day huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o‘zini tiyishi shart.

15.2. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun-mohiyati. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning tashkiliy asoslari

Mamlakatimizda 2008 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tlmonidan 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini ratifikasiya qilinishi natijasida davlat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirildi. Ayniqsa, 2017 yil 3 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni (keyinchalik – Qonun)ning qabul qilingani ushbu yo‘nalishdagi ishlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari hamda bu boradagi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlari mustahkamlandi. Ushbu Qonun 6 ta bob, 34 ta moddadan iborat bo‘lib, unda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo‘yish, javobgarlikning muqarrarligi belgilab berilgan. Hozirga qadar mazkur Qonunga besh marotaba o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Ayniqsa, 2021 yil 18 noyabrdagi Qonun asosida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashi va uning hududiy kengashlari vakolatlariga oid normalar bilan to‘ldirilishi ushbu tuzilmalar faoliyatini qonun darajasida mustahkamladi.

Qisqa qilib aytganda, mazkur Qonun davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini qonun darajasida mustahkamladi va ushbu yo‘nalishdagi ishlarni yagona tizimga soldi. Ushbu Qonun qabul qilingunga qadar korrupsiyaga qarshi kurashish O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida belgilangan qilmish uchun javobgarlikni ta’minlash nuqtai nazaridan talqin qilingan bo‘lsa, ushbu Qonun mazkur illatga qarshi kurashishga kompleks yondashuvni shakllantirdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Islohotlarimiz samarasi ko‘p jihatdan 4 ta muhim omilga, ya’ni qonun ustunligini ta’minlash; korrupsiyaga qarshi qat’iy kurashish; institusional salohiyatni yuksaltirish va kuchli demokratik institutlarni shakllantirishga bog‘liq. Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak”46. Darqaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashish faqat huquqiy javobgarlikni belgilashdan iborat emas. Buning uchun, qonun ustunligini ta’minlaydigan mexanizmlarni kuchaytirish va davlat organlarining institusional salohiyatini ham kuchaytirish zarur. Qonunda birinchi marta korrupsiya atamasiga huquqiy ta’rif berildi. Unga ko‘ra, korrupsiya shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqyeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish ekanligi belgilandi. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlarining vakolatlari belgilanishi qatorida, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishiga oid normalar belgilandi. Ilk marotaba, ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiyani amalga oshirishga oid vazifalar ifoda etildi

Shu bilan birga, mazkur sohadagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida, 2019 yil 27 maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5729 - sonli Farmoni qabul qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tizimli vazifalar belgilandi. Unda quyidagi ustuvor vazifalar nazarda tutildi: Birinchidan, 2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi tasdiqlandi. Dastur doirasida 35 ta amaliy choralarning bajarilishi belgilangan.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti korrupsiya jinoyatchiligining o‘sishi nafaqat islohotlar yo‘liga jiddiy to‘siq, balki o‘tish davrida

belgilangan maqsadlarga erishishga bevosita tahdid tug‘diradi, deya ta’kidlagan va shu sababli, mustaqil davlatimiz mavqyeini mustahkamlash maqsadida, bu illatning oldini olish bo‘yicha bir qator tavsiyalar bergan edilar. Korrupsiya jinoyati jamiyatimiz farovonligi va iqtisodiy taraqqiyotimiz kushandasidirki, unga qarshi kurashishni aslo susaytirmasligimiz lozim.

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi **“Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”** mavzuidagi ma’ruzasida **“Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta’minlash bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rishimiz zarur”**, deb bejiz ta’kidlamadi.

Hozirgi vaqtda kriminalist olimlar o‘rtasidagi bahslarda, jinoyat, fuqarolik, ma’muriy, mehnat, xo‘jalik huquqi sohasidagi mutaxassislarning ilmiy ishlarida, ommaviy axborot vositalarida “korrupsiya” iborasi turli ma’nolarda qo‘llanilmoqda, bu esa korrupsiya ijtimoiy-huquqiy hodisa bo‘lib, poraxo‘rlikning o‘ta salbiy ko‘rinishidir, deb xulosa qilish imkonini beradi. Bu so‘zni fuqarolarimiz o‘zaro muloqotda qo‘llaydilar va bu so‘z kundalik nutqda ham qulog‘imizga tez-tez chalinadigan bo‘lib qoldi. Ba’zi manbalarda esa bu atama “iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar” va “mansabdorlik jinoyatlari” kabi so‘zlar bilan bir qatorda qo‘llanadi. Respublikamizda chop etilgan huquqiy adabiyotlar va maqolalarda ham korrupsiya deyilganida, yuqori mansabdagi shaxslar tomonidan sodir etilgan poraxo‘rlik nazarda tutiladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar sharoitida davlat qurilishi va huquqiy siyosatning mazmun va mohiyatini aniqlashtirish, uning maqsad va vazifalarini islohotlarning bugungi taraqqiyoti asosida shakllantirib borish, inson manfaatlarini ta’minlashning strategik jihatdan yangi vositalar bilan bir qatorda, ham taktik xususiyatga ega bo‘lgan yangi usullarni qo‘llash, shaxs hamda jamiyat manfaatlarini yanada samaraliroq himoya qilish, korrupsiyaning oldini olishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish ehtiyoji vujudga kelishi bilan belgilanadi.

Albatta, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yaratila boshlangan. Chunonchi, Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11 maydagi **“Xususiy mulk va tadbirkorlikni korrupsiya, reket va uyushgan jinoyatchilikning bosh-qa turlaridan himoya qilishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi, O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 19 iyuldagi **“Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga** (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) **O‘zbekiston**

Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonuni bu boradagidastlabki normativ-huquqiy hujjatlardandir.

Xozirgi kunda korrupsiyaga qarshi kurashishning yangi va samarali huquqiy mexanizmi yaratildi. Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida2017 yil 3 yanvarda O‘zbekiston Respublikasining **“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”**gi Qonuni qabul qilindi. Qonunning 3-moddasida asosiy tushunchalar berilgan bo‘lib, unda korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to‘qnashuviga doir tushunchalarga ta’rif berilib, bular, o‘z navbatida, fuqarolarga korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning nima ekanligi va ularning salbiy illat ekanligi haqida ma’lumot beradi.

Qonunning 5-moddasida esa korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ular: aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, unga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida javobgarlik belgilangan quyidagi ijtimoiy xavfli qilmishlar korrupsiyaviy jinoyatlar hisoblanadi: Masalan, o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish, jinoiy yo‘l bilan topilgan mulkni olish yoki o‘tkazish, byudjet intizomini buzish, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, hokimiyat harakatsizligi, pora olish, pora berish; pora olish-berishda vositachilik qilish, xizmatchini pora evaziga og‘dirish, tovlamachilik yo‘li bilan haq berishni talab qilish, qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash, tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish, yolg‘on guvohlik berish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, hokimiyatni suiiste’mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi va hokazolar.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning muhim ahamiyatli jihati shundaki, unda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari haqida ma’lumot berilib, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha

faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshirishlari nazarda tutilgan.

Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari Qonunning 16, 17, 18-moddalarida o'z ifodasini topgan. Chunki huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan va huquqiy ta'lim va tarbiya jihatdan yetuk bo'lgan insonlar salbiy illat bo'lmish korrupsiyaga yo'l qo'ymaydilar.

Ushbu Qonunning yana o'ziga xosligi, Qonunning 5-bobida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, javobgarlikning muqarrarligi nazarda tutilgan.

Haqiqatan ham, ushbu Qonun davlat va jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir etuvchi mazkur illatga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Qonunchilik tahlili korrupsiya bilan bog'liq qilmishlarga qarshi kurashish faoliyatining huquqiy asoslari ko'proq O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksida o'z ifodasini topgan. Buni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

Afsuski amaldagi jinoyat qonunchiligida ko'pgina bugun mavjud bo'lgan korrupsion qilmishlar uchun javobgarlik belgilanmagan. Masalan, ma'lum bir siyosiy maqsadni amalga oshirish uchun yashirin mablag'lar yig'ish, biror bir yuqori lavozimga ishga o'tish uchun mablag' yoki boshqa haq to'lashni amalga oshirish, tashkilotlarning aksiyalarini taqsimlashda yoki auksionlar o'tkazishda "tanish-bilishchilik" qilish, ma'lum haq evaziga soliq yoki bojxona to'lovlarida imtiyozlar yaratib berish, manfaatdor mansabdor shaxslar tomonidan o'z ta'sir doirasidagi turli xo'jalik yurituvchi subyektlarni himoyasi ostiga olish shular jumlasiga kiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, korrupsiya murrakab ijtimoiy hodisa bo'lib, unga qarshi kurashish uchun alohida choralarni qo'llash samarali hisoblanmaydi. Ushbu faoliyat kompleks-majmuaviy tarzda amalga oshirilishi lozim. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va obyekti sifatida alohida olingan korrupsioner emas, balki ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarini bartaraf qilish va profilaktik oldini olish choralarida namoyon bo'ladi.

15.3. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ichki nazorat ("komplayens-nazorat") tizimi. O'zbekistonda davlat tashkilotlari tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining joriy etilishi

Davlat organlari va tashkilotlari, ularning hududiy va tarkibiy bo'linmalarida halollik siyosatini ta'minlash, ya'ni xodimlar faoliyati va umuman, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini oshirishda korrupsiyaga karshi komplayens nazorat masalalari muhim o'rin egallaydi. Milliy va xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, "komplayens-nazorat" mexanizmlari davlat va xususiy sektor faoliyatiga keng kirib bormoqda. Xalqaro iqtisodiyotga korrupsiyaga oid jinoyatlarning sodir etilishi oqibatida yetkazilayotgan zararning tobora ortib borayotgani natijasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini yanada keng tadqiq etilishi, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. BMT Bosh kotibi A.Gutterish tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga asosan, jahon hamjamiyatida har yili 1 trillion AQSh dollari hajmida pora berish va olish holatlari sodir etiladi. Dunyo iqtisodiyoti har yili korrupsiya tufayli 2,6 trillion AQSh dollaridan ortiq mablag'dan ayriladi, bu jahon yalpi ichki mahsulotining 5 foizini tashkil etadi. Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan barcha mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi zamonaviy boshqaruv usullariga muvofiq, samarali faoliyat yuritishni ta'minlovchi eng muhim profilaktik vositalardan biri o'z tarkibida korrupsiyaga qarshi "komplayens-nazorat" tizimini joriy etish hisoblanadi. "Komplayens", "komplayens-nazorat" (compliance sontrol) tushunchalari – rozilik, muvofiqlik va aniq belgilangan qoida, standart hamda ko'rsatmalarga muvofiq faoliyat yuritish degan ma'nolarni anglatadi.

Korrupsiyaga qarshi "komplayens-nazorat" tizimi – davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar, banklar va xususiy sektor faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etilishini ta'minlovchi, korrupsiya xavf-xatarlari va manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash hamda ularga chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish kabi qator profilaktik choralarni o'zida mujassam etgan samarali tizim

Umuman aytganda, mazkur tushuncha o'zbek tilida ilmiy tushunchalarga ega bo'lmaganligi sababli, mavjud tadqiqot asosida quyidagicha ta'rifni berish maqsadga muvofiq. Xalqaro tajribada "komplayens-nazorat" tizimi tibbiyot, davlat fuqarolik xizmati, bank, bojxona sohalarida, jinoiy daromadlarni legallashtirish, monopoliyaga, korrupsiyaga qarshi kurashish kabi yo'nalishlarda joriy etiladigan "komplayens-nazorat" hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim

profilaktik chora hisoblangan "komplayens-nazorat" tizimi vujudga kelishining dastlabki asoslari 1884 yilda Germaniyada "Baxtsiz hodisalarning oldini olish va sug'urtalash assosiasiyasi"ning (Accident Prevention & Insurance Association) tashkil etilishi bilan bog'liq. Biroq ushbu tizim, dastlab, 1906 yilda AQShda oziq-ovqat mahsulotlari va dori vositalari ishlab chiqaruvchi kompaniyalar faoliyatini nazorat qilish federal xizmatining (FDA, Food and Drug Administration) tashkil etilishi va faoliyati jamoat xavfsizligiga qaratilgan kompaniya va tashkilotlariga asos solinishi zaruriyati bilan yuzaga kela boshlagan. Ushbu tizimning chinakam rivoj topishi XX asrning 70 yillariga to'g'ri keladi, ya'ni bu davrga kelib AQShning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi va xalqaro aloqalarda integrasiyalashuvi mamlakat iqtisodiyotida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan kompaniya va korporasiyalarning tashkil etilishi ular faoliyatida.

Korrupsiyaga qarshi profilaktik choralar joriy etishni zaruriyatga aylantirdi. Shuningdek, o'tgan asrning ikkinchi yarmidan Volkswagen, Daimler, Siemens (Germaniya) Odenbrecht, Petrobras (Braziliya), Samsung Group, Hyundai Motor Co. (Koreya Respublikasi), BAE Systems (Buyuk Britaniya), Baker Hughes Inc, Panalpina World Transport (AQSh) kabi yirik kompaniyalar bilan bog'liq nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishi ular faoliyatidagi korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarning mustahkam emasligi bilan asoslanadi va bu o'z davrida korrupsiyaga qarshi mavjud tizimni tubdan isloh etishni taqozo qildi. Bu kabi korrupsiyaviy holatlarning oldini olish hamda kompaniyalarning ushbu sohadagi faoliyatini tartibga solish zaruriyati dunyoda ilk bor korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qoidalar va majburiyatlar tizimini aks ettirgan "komplayens-nazorat" xizmatining paydo bo'lishiga olib keldi. O'z-o'zidan davriy shakllanish natijasida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qoidalar yig'indisi bo'lgan "komplayens-nazorat" tizimi bosqichma-bosqich yuridik normalar bilan tatibga solina boshladi. Buning natijasida, ushbu tizim dastlab AQSh qonunchiligida yuridik jihatdan mustahkamlandi. Jumladan, AQShda 1977 yilda "Xorijiy korrupsiyaviy amaliyotlar to'g'risidagi Akt" (Foreign Corrupt Practices Act, 1977); "Sarbeynz-Oksli Akti" (Sarbanes-Oxley Act, 2002), "Dodd-Frank Akti" (Dodd-Frank Act, 2010) nomli qonun hujjatlari fikrimiz isboti bo'la oladi83. Bu o'rinda, "komplayens-nazorat" tizimini tartibga solishga qara tilgan bu kabi qonun hujjatlarining qabul qilinishi, faqatgina ushbu sohani yuridik jihatdan tartibga solmay, balki qonunchilik darajasida milliy va xorijiy korxona va kompaniyalar uchun ham o'ziga xos iqtisodiy cheklovlar joriy etdi. Ya'ni, bular natijasida AQSh bozorida ishtirok etuvchi har qanday korporasiya va kompaniyalar o'z tarkibida "komplayens-nazorat" tizimini joriy etishi va davlat xizmatchilarining Axloq kodeksini qabul qilishi shart etib belgilandi.

O‘zbekistonda davlat tashkilotlari tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining joriy etilishi So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo‘yishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar, davlat organlari zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etish bo‘yicha ishlar izchil amalga oshirilmoqda. Mamlakatda byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish choralari ko‘rilmoqda hamda “korrupsiyasiz soha” loyihalari amalga oshirilmoqda. Aytish lozimki, bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ijobiy yutuqlarga erishgan rivojlangan davlatlarning bu boradagi tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, asosiy e’tibor korrupsiya ko‘rinishlarining oqibatini emas, balki uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan va bu o‘z samarasini bermoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashishda alohida ahamiyat kasb etadigan “komplayens-nazorat” tushunchasi milliy qonunchiligimizdagi bir qator qonun hujjatlarida aks etgan. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunida ilk marotaba “korrupsiya”, “manfaatlar to‘qnashuvi”, “korrupsiyaga oid huquqbuzarlik” kabi tushunchalarga ta’rif berib o‘tilgan. Shuningdek, Qonunda korrupsiyaga qarshi “komplayens-nazorat” tizimining muhim tarkibiy elementlaridan biri bo‘lgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar berish tartibi keltirilgan bo‘lib, unda ilk marotaba davlat xizmatchilarining korrupsiya holatlari haqida xabar berish majburiyati belgilandi. Unga ko‘ra, “davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko‘ndirish maqsadida biror-bir shaxs o‘zlariga murojaat etganligiga doir barcha holatlar to‘g‘risida, shuningdek, davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o‘xshash huquqbuzarliklarning o‘zlariga ma’lum bo‘lib qolgan har qanday faktlari haqida o‘z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart” (Qonunning 26-moddasi). Mazkur tizim nomativ jihatdan aks etgan keyingi hujjat, bu – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729- son Farmoni asosida tasdiqlangan “2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi” hisoblanadi. Unda ilk marotaba, rasman, ustav jamg‘armasida davlat ulushi bo‘lgan tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini kuchaytirish maqsadida, korrupsiyaga qarshi “komplayens-nazorat” (compliance control) tizimini joriy etish va uning samaradorligini monitoring qilish belgilandi. Aytish lozimki, aynan har bir davlat organi va tashkiloti kesimida ushbu

tizimning keng miqyosda joriy etilishi va normativ, metodologik hujjatlar bilan tartibga solinishi, mamlakatda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashkil etilishi bilan bevosita bog'liqdir. Shuningdek, 2020 yil 17 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 72-F-son Farmoyishi qabul qilinib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Qurilish, Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Sog'liqni saqlash vazirliklari, shuningdek, Toshkent shahar va Toshkent viloyati hokimliklari, Mirzo Ulug'bek va Bo'ka tumanlari hokimliklarida mazkur tizim, dastlab, pilot loyiha sifatida joriy etildi.

Mazkur qonun hujjatlarida davlat tashkilotlari tizimida joriy etilshi boshlangan ushbu tizim normativ jihatdan o'z ifodasini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 iyundagi PF-6013-son Farmoniga muvofiq, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, shu jumladan, banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini ("komplayens-nazorat") joriy etish va samarali faoliyat ko'rsatishini tashkillashtirish vazifasi belgilab berilgan. Shunga muvofiq, Agentlik manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida, 2020 yilda tajriba tariqasida, tizimida korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan 26 ta vazirlik va idoralarda joriy etildi. O'tgan qisqa vaqt davomida bir qator vazirlik va idoralarda "komplayens-nazorat" tuzilmalari faoliyatining samarali yo'lga qo'yilishi mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish yo'nalishida ijobiy natijalarga erishishga sabab bo'ldi.

Jumladan, Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tizimidagi xodimlar attestasiyadan o'tkazilib, korrupsiyaga moyilligi bo'lgan 28% (1476 nafar) xodimlar bilan mehnat shartnomalari bekor qilingan. Davlat bojxona qo'mitasi tizimida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish hamda xodimlar tomonidan nojo'ya xatti-harakatlar sodir etilishiga chek qo'yish maqsadida, 143 nafar xodim boshqa lavozimga, 29 nafar xodim boshqa hududiy boshqarmalarga navbatdan tashqari rotasiya qilingan. Sog'liqni saqlash vazirligida 56 mlrd. so'mdan ortiq miqdordagi moliyaviy xato-kamchiliklar, shundan 12 mlrd. so'mlik maqsadsiz xarajatlar aniqlangan bo'lib, davlat byudjetiga yetkazilgan 9 mlrd. so'mlik zararning undirilishiga erishildi. Shunga muvofiq, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining tashkilot tizimida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini amalga oshirish bo'yicha ijobiy faoliyatini inobatga olinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi PQ-5177-son Qarori bilan 2021 yil 1 oktyabrdan

boshlab, barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish belgilangan edi. Shunga muvofiq, 102 ta davlat tashkilotlarida alohida shtat birliklari doirasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi ta’minlandi (2022 yil mart holatiga ko‘ra). Ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini tartibga soluvchi “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risida”gi namunaviy Nizom ishlab chiqilib, 3319-raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Ichki nazorat tuzilmalari xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etish bo‘yicha barcha xalqaro va milliy tavsiyalarni o‘z ichiga olgan Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tizimini joriy etish bo‘yicha metodologik qo‘llanma nashr etilib, davlat tashkilotlarining ichki nazorat tuzilmalari xodimlariga tarqatildi.

Vazirlik va idoralar tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida amalga oshirilgan samarali chora-tadbirlar natijasida 2022 yil mart holatiga ko‘ra, 15 ta davlat tashkiloti va 1 ta xususiy bank “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi” bo‘yicha ISO 37001:2016 xalqaro standart sertifikatiga ega bo‘ldi. Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Davlat xizmatlari agentligi, Intellektual mulk agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, “O‘zbekneftegaz” AJ, “O‘zkimyosanoat” AJ, Tovar-xom ashyo birjasi” AJ, Davlat soliq qo‘mitasi, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ, “O‘zbekgidroenergo” AJ, “Asakabank” AJ, “O‘zsuvta’minot” AJ, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi va xususiy korxonalardan birinchilar qatorida “Trastbank” XATB o‘z tizimida mazkur sertifikatga ega bo‘ldi. Shuningdek, hozirda 20 ga yaqin davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o‘z faoliyatida ushbu xalqaro sertifikatni qo‘lga kiritish maqsadida korrupsiyaga qarshi muvofiqlik qoidalarini joriy etish ishlari olib borilmoqda. O‘z o‘rnida aytish lozimki, tashkilotlarning mazkur xalqaro sertifikatga ega bo‘lishi bevosita mamlakatning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi shaffofligini baholash, investision jozibadorligini oshirish va investorlar kirib kelishini ta’minlashga xizmat qiluvchi omillardan biri bo‘ladi

O‘z davrida (1777 yilda) ingliz-irland davlat arbobi Edmund Berk “korrupsiya barq urayotgan jamiyatda ozodlik uzoq vaqt hukm surishi mumkin emas” degan fikrni bildirgan edi. Darvoqe, butun tarix davomida mamlakatlar o‘z mustaqilligini boy berishda nafaqat jangu jadallardagi mag‘lubiyatlar balki amaldorlarning sotqinligi, o‘z manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘yganligi, ya’ni korrupsiya ham sabab bo‘lgan. Demak, korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurashish ayni paytda

mustaqilligimizni mustahkamlash, Vatanimizning ozodligi va obodligi uchun muhimdir.

Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan korrupsiyani oldini olishga qaratilgan qonun hujjatlari, rejalashtirilayotgan tadbirlar, bildirilayotgan fikrlar "mamlakatimizda korrupsiyaning kelajagi yo'q" degan prognozni qilishga asos bo'lmoqda. Bu prognozning, ya'ni bashoratning amalga oshishi esa sizu bizning harakatlarimizga, huquq va axloq normalarini korrupsiyaga qarshi samarali qo'llashimizga bog'liq.

Nazorat savollari

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati deganda nimani tushunasiz?
2. Jamiyatda korrupsiyaning qanday ko'rinishlari mavjud?
3. Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning o'rnini tushuntirib bering.
4. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish qaysi yo'nalishlarda amalga oshiriladi?
5. Korrupsiyaning oqibatlarini, unga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish qanday maqsadda amalga oshiriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari tizimiga qaysi davlat organlari kiradi.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining vazifalari nimalardan iborat?

GLOSSARIY

Agnostisizm – inson obektiv borliqni to‘liq bilishi mumkin emas, deb hisoblaydigan falsafiy ta’limot.

Antissiyentizm – fanning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini salbiy baholaydigan falsafiy nuqtai nazar.

Antropogen – inson faoliyati bilan bog‘liq.

Antroposentrizm – dunyoni bilishda insonni ustun qoyuvchi falsafiy yondashuv.

Aprior – tajribadan tashqarida. Inson tafakkurida tajribada ko‘rilgunga qadar, tajribadan qat’iy nazar paydo bo‘lgan obraz, g‘oya, tushuncha.

Ateizm – xudoning borligini inkor etuvchi falsafiy nuqtai nazar.

Atribut – xossa.

Belgi – boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlatiladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.

Garmoniya – bir butun narsa qismlarining o‘zaro muvofiqligi.

Germenevtika – falsafada – tarix, madaniyatni, o‘zga individuallikni tushunish san’ati.

Gipotetik – ehtimol tutilgan, faraz qilingan, taxmin (gipoteza)ga asoslangan.

Globallashuv – ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaxlit tuzilmalarning dunyo miqyosida shakllanish jarayoni.

Globalistika – globallashuv va uning oqibatlari mohiyatini anglab yetishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlar fanlararo sohasi.

Gnoseologiya – bilish nazariyasi.

Deduksiya – tadqiqot yoki tavsiflash metodi, usuli bo‘lib, bunda ayrim qoidalar umumiy xulosalar, aksiomalar, qoidalar, qonunlardan tadrijiy yo‘l bilan keltirib chiqariladi.

Dezintegratsiya – butunning ayrim qismlarga parchalanishi.

Deizm – Xudo dunyoni yaratgach, unda ishtirok etmaydi va uning voqealari tabiiy kechishiga aralashmaydi, deb hisoblaydigan falsafiy nuqtai nazar.

Determinizm – barcha voqealar va hodisalarning qonuniyligi va sababiy bog‘langanligi haqidagi falsafiy ta’limot.

Dialektika – harakat, rivojlanish, o‘zgarish haqidagi falsafiy ta’limot.

Diskret – uzlukli.

Differensiasiya – butunning turli-tuman qismlar, bosqichlar, shakllarga bo‘linishi, parchalanishi, ajralishi.

Ideal – mutlaq barkamollik, bunday barkamollik haqidagi tasavvur.

Iyerarxiya – bir narsaning funksional ahamiyati yoki xizmat mavqeiga ko‘ra ikkinchi narsaga, uchinchi narsaga va hokazolarga boysunishi.

Izotrop – barcha yo‘nalishlarda bir xil.

Indeterminizm – determinizmga qarama-qarshi ta’limot.

Integrasiya – birlashish, birikish, yaxlit bir butunning shakllanishi.

Introvertiv – o‘ziga, o‘z ichki dunyosiga qarab mo‘ljal oluvchi.

Imitasiya – taqlid qilish, soxtalashtirish.

Axborot inqilobi – fan-texnika inqilobining rivojlanish bosqichi bo‘lib, bunda axborot o‘ta muhim resursga aylanadi.

Irrasionalizm – borliqni oqilona mantiqiy bilish imkoniyatini rad etuvchi nuqtai nazar.

Kauzallik – sababiyat, sabab va oqibatning qonuniy aloqasi.

Kommunikasiya (keng ma’noda) – muloqot. Ekzistensializmda – muloqot turi bo‘lib, uning yordamida «Men» o‘zini boshqa odamda topadi.

Konstitusiyalash – yaratish, belgilash, muayyan tashkiliy tus berish.

Konsyumerizm – iste’mol qilishga bo‘lgan kuchli ehtiyoj.

Koevolyusiya – birgalikda tadrijiy rivojlanish.

Kreasionizm – butun borliqni Xudo yaratgan deb hisoblaydigan diniy ta’limot.

Materializm – dunyoning moddiyligidan va ongdan qat’iy nazar mavjudligidan kelib chiqadigan falsafiy yo‘nalish.

Metafizika – Gegeldan oldingi va hozirgi G‘arb falsafasida borliqning o‘ta hissiy tamoyillari va asoslari haqidagi fan. Falsafaning sinonimi sifatida ishlatiladigan atama.

Metodologiya – metod haqidagi ta’limot, bilishning yangi metodlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish.

Mistika – sirli, g‘ayritabiiy, tuShunarsiz narsa yoki hodisa.

Moddiylashtirish – ma’no strukturalari, sxemalar, loyihalarning inson faoliyatida gavdalanishi.

Modus – predmetning unga ayrim holatlardagina xos bo‘lgan muvaqqat xossasi.

Monizm – plyuralizmga zid o‘laroq, muayyan bir asosdan kelib chiqadigan falsafiy yondashuv.

Negativ – salbiy, biror narsaga zid.

Noumen – mushohada yo‘li bilan anglash mumkin bo‘lgan mohiyat.

Noosfera – aql-idrok sohasi yoki biosferaning Shunday bir holatiki, bunda odamlarning oqilona faoliyati biosfera rivojlanishining muhim omiliga aylanadi.

Obraz – amaliy faoliyat va bilish jarayonida shakllangan hissiy yoki oqilona tasavvur.

Okkultizm – maxsus ruhiy mashqlar, alohida marosimlar orqali ayrim insonlargina bila oladigan koinotda sirli kuchlar mavjudligini e’tirof etuvchi ta’limot.

Oppozitsiya - qarshi harakat, muayyan narsaga ochiqdan-ochiq yoki zimdan qarshilik ko‘rsatish.

Panteizm – Xudoni tabiat bilan tenglashtiruvchi falsafiy ta’limot.

Paradigma – mazkur davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan muayyan ilmiy tadqiqot yo‘nalishini belgilovchi prinsiplar majmui.

Passionar – ichki energiyaga egalik yoki o‘ta g‘ayratlilik.

Permanent – doimiy, uzluksiz.

Persepsiya – idrok etish.

Rasionalizm – aqlni bilish va odamlar xulq-atvorining negizi deb e’tirof etadigan falsafiy yo‘nalish.

Reduksionizm – murakkab narsa yoki hodisani soddaroq narsa yoki hodisaga bog‘lash.

Relyativizm – bizning barcha bilimlarimiz, qadriyatlarimiz va xulosalarimizni nisbiy, shartli deb hisoblaydigan falsafiy yondashuv.

Refleksiya – o‘z fikrlari va kechinmalarini tahlil qilishga qaratilgan mulohaza.

Sakral – muqaddas.

Sensualizm – hissiy bilishning rolini oqilona bilishning ahamiyatidan ustunroq qoyuvchi falsafiy yo‘nalish.

Simvol – biron-bir g‘oyani ifodalovchi belgi, obraz.

Sinkretizm - qismlarga ajralmaganlik, biron-bir hodisaning noraso holati bilan belgilanadigan har xil jinsli elementlarning aralaShuvi.

Skeptisizm – inson bilimining ishonchliligiga shubha bildiruvchi va barcha haqiqatlarni nisbiy deb e’lon qiluvchi falsafiy konsepsiY.

Stereotip – ko‘pincha jamiyat tomonidan faol ilgari suriladigan va individ tanqidsiz qabul qiladigan borliqning nisbatan barqaror va soddalashtirilgan obrazi.

Substansiya – birinchi asos, barcha narsalar va hodisalarning mohiyati.

Ssiyentizm – madaniyat tizimida, jamiyat hayotida fan rolini mutlaqlashtirish.

Tabu – biron-bir narsa, harakat, so‘zga nisbatan belgilanadigan diniy taqiq.

Teologiya – diniy ta’limotlar tizimi.

Teosentrizm – dunyoni tushunish markaziga Xudoni qoyuvchi falsafiy yondashuv.

Texnogen – texnika bilan bog‘liq, uning ta’siri bilan belgilangan.

Texnokratik – texnikani birinchi o‘ringa qoyuvchi.

Texnooptimizm – turli muammolarni yechishda fan-texnika taraqqiyotining rolini oshirib ko‘rsatuvchi falsafiy yondashuv.

Texnopessimizm – fan-texnika taraqqiyotini jamiyat va tabiat tanazzulining manbai va omili deb e’lon qiluvchi falsafiy yondashuv.

Texnotron jamiyat – kompyuter inqilobi bosqichiga kirgan jamiyat.

Transsendental – o‘ta umumiy.

Universum – yagona Olam, yaxlit dunyo.

Fauna – barcha turdagi hayvonlar majmui.

Fenomen – insonga hissiy bilish tajribasida berilgan hodisa.

Fenomenologiya – bevosita kuzatish mumkin bo‘lgan ideal mohiyatlar sifatidagi fenomenlar haqidagi falsafiy ta’limot.

Flora – o‘simliklar dunyosi.

Fluktuasiya – o‘zgarish, belgilangan parametrlardan tasodifiy og‘ish.

Futurologiya – kelajak haqidagi fan.

Evolyusion epistemologiya – bilishni jonli tabiat evolyusiyasining momenti va uning mahsuli sifatida o‘rganuvchi fan.

Evristik – ijodiy, noma’lum narsalar va hodisalarni bilishda sakrashni amalga oshiruvchi.

Egalitarizm – umumiy tenglikni targ‘ib qiluvchi g‘oyaviy-siyosiy oqim.

Ekzistensializm – diqqat markazida hayotning ma’nosi, inson erkinligi va mas’uliyati muammolari turuvchi falsafiy yo‘nalish.

Ekologiya – jonli mavjudotlarning o‘zini qurshagan muhit bilan o‘zaro munosabatlari haqidagi fan.

Ekologik muammo – jonli organizmlarning atrof muhit bilan muvozanatining buzilishi.

Ekologik tanglik – ekologik muammoning keskinlashuvi, bunda uning oqibatlari orqaga qaytarib bo‘lmaydigan xususiyat kasb etadi.

Eksplikasiya – u yoki bu predmet (yoki madaniyat obekti)ning mohiyatini aniqlash, uning mazmunini keng tavsiflash.

Ekstravertiv – sirtga qaratilgan.

Empirizm – hissiy idrok etish va tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydigan falsafiy ta’limot.

Empirik – tajribada ko‘rilgan.

Etimologiya – u yoki bu so‘z yoki iboraning kelib chiqishi.

Epistemologiya – bilish haqidagi falsafiy ta’limot.

Etnogenez – xalqlar yoki millatlarning kelib chiqishi.

O‘z imkoniyatlarini royobga chiqarish – o‘zining betakror mohiyatini faoliyatda namoyon etuvchi va gavdalantiruvchi har bir individ axloqiy faoliyatining maqsadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T., 2023. - B.105

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va Shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14-yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: – “O‘zbekiston”, 2017.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ”O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. –T.: “Adolat”, 2017.

6. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy uslubiy risola. –T., 2017. –291-b.

7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.1-jild, Toshkent, O‘zbekiston, 2017 yil.

8. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.2-jild, Toshkent, O‘zbekiston, 2018 yil.

9. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild, Toshkent, O‘zbekiston, 2019 yil.

10. Mirziyoyev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi (Nyu-York shahri, 2017 yil 19 sentabr) // “Xalq so‘zi”. 2017. - 20 sentabr, № 189 (6883).

11. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008.

MANBAALAR

12. J.Y.Yaxshilikov, N.E.Muhammadiyev. Falsafa: Darslik. - Samarqand. 2021. – 712.

13. Q.Nazarov [va boshq.]. Falsafa asoslari [Matn]: o‘quv qollanma / - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - 380 b.

14. Davronov Z., Shermuhamedova N, Qahharova M, Nurmatova M, Husanov B, Sultonova A. Falsafa. – Toshkent: TMU, 2019

15. Madaeva Sh. Shermuhamedova N. va boshqalar. Falsafa – o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: 2019

16. Muhammadjonova L.A. L.A. Abdulla Sher, Shodimetova G. Axloq falsafasi. – Toshkent: Vneshinvestprom, 202314. Falsafa asoslari. (mas. muh: Q.Nazarov). - T: O‘zbekiston, 2005. - 384 b.

17. Saifnazarov I. Muxtorov A., Sultanov T., Usmonov F. Falsafa. Darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2021.-424 b.

Shermuhamedova N. Falsafa. – Toshkent: Idris Abdurauf Nashr, 2021. 667-b

18. Dinshunoslik. O‘quv qollanma / - Toshkent: TIQXMMI, 2019. - 338 b.

19. Emirova Ye., Strelsova A. Vvedeniye v filosofiY. – T.: Universitet, 2008.

20. Xaitov Sh. O‘zbekiston falsafa tarixi. –T.: Noshir, 2011. – 560 bet.

21. Turayev B. Borliq (falsafiy tahlil). – Samarqand.: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, 2021. – 130 bet.

22. Shermuxamedova N.A. Falsafa. O‘quv qollanma / - Toshkent. 2010. - 574 b.

23. Shermuhamcdova. N. Falsafa va fan metodologoyasi. - T.: Aloqachi, 2008, 400 bet.

24. Ashirov A. “Avesto”dan meros marosimlar. – T.: 2001. – B. 124.

25. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. -T.: Yozuvchi, 2001. – B. 112.

26. Al –Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Sharq, 1999 –B.93-94.

27. S.M.Hotamiy. Islom tafakkuri tarixidan. -T.: Minhoj, 2003.- B.74

28. Eynshteyn A Fizika v jizni moyego pokoleniya .-M.: 1963.-s.89.

29. Gegel. Fenomenologiya duxa. – M.: Nauka, 1994. – S.196

30. Ibrohimov A., Sultonov X.,Jњrayev N. Vatan tuyg‘usi. T., 1996 y., 94-bet.

31. Budda Konfusiy Jizn i ucheniye – M.: 1995. – s.139.

32. M.Sheler Izbranniye proizvedeniya – M.: 1994. –s. 187.

33. Godfrua J. Chto takoye psixologiY. -T. 2. – M.: 1996. – S.11.

34. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. T., Universitet, 1998, 38-b.

35. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomli, 2 tom, M., Russkiy yazik, 1981. 497 – 498-b.

36. Aristotel. Sochineniya v 4 t. T.4. M., Misl, 1983. S. 653.

37. Maxmudov T'. Mustakillik va ma’naviyat. T. 2001 y, 18-bet.

38. Yaspers Smisl i naznacheniye istorii – M.: 1991. –s. 141.

39. Bilish falsafasi (gnoseologiya). T., «Universitet», 2005, 245-bet

40. N. Komilov. Tasavvuf. Birinchi kitob. T.,"Yozuvchi", 1996,48-49-betlar.

41. Ergasheva M. Ta'lim taraqqiyoti: sinergetik tahlil. – Samarqand: SamChtI, 2022. 194 bet.

42. Samadov A, Ergasheva M, Shaxs estetik ideali: shakllanish va rivojlanish muammolari. – T.: Ziyo buloq, 2021. – 306 bet.

43. Hakimova M, Mamadaminova. Dinshunoslik (o'quv-qo'llanma). T.: Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash instituti, 2019. - 338 bet.

44. Pulatova D., Fayzixo'jaeva D. Mantiq (o'quv-qo'llanma) T.: «PREMIER PRINT . 2013

MUNDARIJA

KIRISH 3
I BOB. FALSAFA VA UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI ROLI..4
1.1. Falsafa atamasining kelib chiqishi 4
1.2. Dunyoqarash va uning tarixiy shakllari 5
1.3. Falsafa va fanning o'zaro mutanosibligi va farqi 8
1.4. Falsafa fanining predmeti, funksiyalari.....10
II BOB. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTINING ASOSIY BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI 15
2.1. Qadimgi Sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo‘lishi. Misr va Bobilda olam va odamning paydo bo‘lishi haqidagi mifologik tasavvurlarning shakllanishi 15
2.2. Qadimgi hind falsafiy maktablari. Qadimgi Xitoy falsafiy maktablarining borliq, inson, jamiyat va davlatning mohiyati, ijtimoiysiyosiy tartibot, yoshlarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish haqidagi g‘oyalari.....18
2.3. “Avesto” qadimgi davrda Markaziy Osiyoda rivojlangan inson, tabiat, jamiyat va davlatchilik haqidagi falsafiy g‘oyalarning ilk manbai sifatida 22
2.4. Arab-musulmon sivilizatsiyasi va islom falsafasining vujudga kelishi. Islom tamaddunida diniy va dunyoviy ilmlarning o‘zaro uyg‘unlikdagi taraqqiyoti 24
2.5. Temuriylar sulolasi davri. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy falsafasi. Temuriylar davrida tabiiy-ilmiy bilimlar taraqqiyoti (Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchilarning tabiatshunoslik fanlariga qo‘shgan hissasi).....33
2.6. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg‘or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar.....34
2.7. O‘zbekistonda falsafiy fikrlar rivoji. O‘zbekistonda ajdodlar me’rosini tiklash va ularni jahonda keng ommalashtirish borasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati 37
III BOB. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOT BOSQICHLARI:G‘ARB FALSAFASI.....43
3.1. Qadimgi Yunonistonda falsafa ilmining shakllanishi. Sokratgacha bo‘lgan davr falsafasi 43
3.2. Xristianlik va Avriliy Avgustin falsafiy ta’limotining vujudga kelishi 47
3.3. Ilk o‘rta asrlar falsafiy tafakkur rivojida apologetika, patiristika va sxolastika. Nominalizm va realizm 49

3.4. G‘arb Uyg‘onish davri va falsafiy tafakkurining rivojlanish xususiyatlari 51
3.5. Yangi va eng yangi davr falsafasining ustuvor yo‘nalishlari va asosiy muammolari. XVIII asr Yevropa falsafasining ma’rifiy xususiyatlari 53
3.6. XX-XXI asr G‘arb falsafasining oqimlari va ta’limotlar hamda G‘arb faylasuflari ijodida fan falsafasining rivoji 55
IV BOB. BORLIQ (ONTOLOGIYA) VA RIVOJLANISH FALSAFASI.....59
4.1. Falsafa tarixida borliq muammosi.....59
4.2. Borliq shakllarining tasnifi: tabiat borlig'i va ma'naviy borliq, ijtimoiy borliq va inson borlig'i.....61
4.3. Falsafada substantsiya va materiya muammosi 64
4.4. Falsafada makon, vaqt, harakat va rivojlanish masalalari.....67
V BOB. BILISH FALSAFASI (GNOSEOLOGIYA) 71
5.1. Bilish nazariyasining predmeti va o'ziga xos xususiyatlari.....71
5.2. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalari.....75
5.3. Haqiqatning asosiy shakllari va kontseptsiyalari 79
5.4. Falsafada metod va metodologiya, metodika tushunchalari 81
VI BOB. MANTIQ 86
6.1. Mantiq ilmining asosiy masalalari va ularni tadqiq etish yo‘nalishlari. Mantiq fanining predmeti 86
6.2. Mantiq fanining fikr yuritish madaniyatini o‘stirishdagi ahamiyati. Mantiq ilmi va til.....90
6.3. Mantiq fani va ilmiy bilish metodologiyasi. Mantiq fanining ilmiy ishonch – e’tiqodning shakllanishida tutgan o‘rni 93
6.4. Formal mantiq to‘g‘ri tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fan sifatida.....95
6.5. Tafakkur shakli va tafakkur qonuni tushunchalari.....99
VII BOB. TAFAKKUR SHAKLLARI: TUSHUNCHA, HUKM VA XULOSA 104
7.1. Tushuncha – tafakkurning mantiqiy shakli. Tushunchaning turlari 104
7.2. Mulohaza (Hukm) tafakkur shakli va xulosa chiqarishning tarkibiy qismi sifatida.....112
7.3. Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi: tuzilishi, turlari va umumiy qoidalari 118
7.4. Analogiya. Muammo. Gipoteza. Nazariya.....127

7.5. Argumentlash – ishonch - e'tiqodni shakllantirish va mustahkamlash vositasi.....135
VIII BOB. JAMIYAT FALSAFASI 142
8.1. Jamiyat tushunchasining falsafiy jihatlari. Jamiyat rivojlanuvchi tizim sifatida.....142
8.2. Jamiyatning siyosiy hayotida davlatning o'rni va roli 148
8.3. Tarix falsafasining predmeti, tuzilishi va funksiyalari.....151
8.4. Sivilizatsiya tushunchasining tahlili va turli yondashuvlar tasnifi. "Madaniyat" tushunchasi, uning mohiyati, strukturasi va funksiyalari 152
8.5. Ijtimoiylashuv. Shaxs: erkinlik va demokratiya.....158
IX BOB. INSON FALSAFASI (FALSAFIY ANTROPOLOGIYA) 164
9.1. Inson falsafiy muammo sifatida. Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlari 164
9.2. Falsafiy antropologiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi 169
9.3. Ongning tabiati, strukturasi va funktsiyalari 172
9.4. Hayotning mazmuni va insonning vazifasi 175
9.5. Inson borlig'ida faoliyatining tuzilishi va atributlari. Faoliyatni tashkil qilishda huquq va axloq uyg'unligi 177
9.6. Inson faoliyatini tartibga solishning ahamiyati 186
X BOB. QADRIYATLAR FALSAFASI (AKSIOLOGYIA) 189
10.1. Qadriyat tushunchasi va uning falsafiy mazmuni 189
10.2. Qadriyatlarning turlari va tasnifi 194
10.3. Qadriyat va baholar. Baholash 198
10.4. Jamiyat va inson hayotida qadriyatlarning roli 201
XI BOB. AXLOQ FALSAFASI (ETIKA).....206
11.1. Etika - ruscha – moral, lotincha «mores», «moralis» so'zlaridan olingan bo'lib, ma'nosi xulq, odat demakdir 206
11.2. Etikaning kategoriyalari, tamoyillari, me'yorlarining shaxs va jamiyat munosabatlarida namoyon bo'lishi. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov.....209
11.3. Nikoh - eng qadimgi axloqiy munosabat shakli. Oilaning psixologik, ijtimoiy-ma'naviy muhitining farzand tarbiyasiga ta'siri.212
11.4. Axloqiy madaniyat va muomala odob masalasi.....215
11.5. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy kamolotida nikoh va oila haqidagi milliy axloqiy qadriyatlarining o'rni 218
XII BOB. NAFOSAT FALSAFASI (ESTETIKA) 222
12.1. Estetika fanining predmeti, ob'ekti va falsafiy mohiyati 222

12.2. Estetika xaqidagi qarashlar tarixi 226
12.3. Estetika kategoriyalari va ularning o‘zaro aloqadorligi 232
XIII BOB. GLOBALLASHUV VA BARQAROR TARAQQIYOT FALSAFASI.....239
13.1. Global jarayonlarning shakllanish tarixi 239
13.2. Global tendentsiyalarni anglashning ahamiyati 242
13.3. Global muammolarni yechishda falsafaning roli 245
XIV BOB. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING JAHON TAJRIBASI 250
14.1. Korruptsiyara tushunchasi va uning tarixiy ildizlari. Dunyo bo‘yicha korrapsiya holatining tasnifi.....250
14.2. Korrupsiya va unga qarshi kurash borasidagi milliy-xalqaro huquqiy normalar 256
14.3. Xalqaro maydonda korrupsiyaga qarshi kurash tajribasi. Korrupsiyaga qarshi kurash tarixi 261
14.4. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi.....267
XV BOB. O‘ZBEKISTONNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SIYOSATI.....271
15.1. “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati” tushunchasi va uning maqsadi.....271
15.2. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining mazmun-mohiyati. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning tashkiliy asoslari 274
15.3. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ichki nazorat (“komplayens-nazorat”) tizimi. O‘zbekistonda davlat tashkilotlari tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimining joriy etilishi ...279
GLOSSARIY 285
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR 289

S.M.RO‘ZIMURODOV, A.N.ALIMOV

FALSAFA

O‘QUV QO‘LLANMA

Muharrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: M.O. Mardiyeva
Texnik muharrir: D. Hamrayev

O‘quv qo‘llanma Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2023 yil 10-noyabrdagi 4-sonli qaroriga asosan nashr etishga tavsiya etilgan.

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2023

ISBN: 978-9910-752-87-2

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)
Nashrga ruxsat etildi: 10.11. 2023 y.
© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti.

Qog‘oz bichimi A5, 60x84$^{1}/_{16}$, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 18.5
Buyurtma № 0185A/23. Adadi 100 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.